



Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy,
adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara KURBANBAYEVA

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Anvar ALLAMBERGENOV

TEXNIK MUHARRIR:

Islombek ABDIKHAKIMOV

BO'LIM MUHARRIRI:

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD) (Hindiston)

Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD) (AQSh)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, t. f.d, prof. (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAYEVA, t.f.n, dots

Konul Bunyadzoda, falsafa fanlari doktoru, (Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n. (Rossiya Federatsiyasi)

Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n, dotsent

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n, dots (PhD)

Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d (PhD)

Vahob RAHMONOV, f.f.n., dots

Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Rana Hamid qizi Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

BIZNI IJTIMOYIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:



JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV

Manzili: Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 28.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2025-yil 31-iyulda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy. 2025-yil, 7-son (70).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining

kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №30.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri"dan olindi deb

izohlanishi shart. Matn hamda reklamardagi ma'lumotlarning

to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan

qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga

qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.



10.69691 DOI



ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347



SLIB.UZ



Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

Founders: Beruniy District Municipality

"Tafakkur-tamaddun" OOO

Public Foundation "Descendants of Berunius"

Our colleagues: Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division

Karakalpak State University

Urgench State University

EDITORIAL BOARD:

EDITOR-IN-CHIEF:

Munavvara KURBANBAEVA

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Anvar ALLAMBERGENOV

TECHNICAL EDITOR:

Islombek ABDIKHAKIMOV

SECTION EDITOR:

Mukaddas KURBANBAEVA

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.

Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, phil.sc.n. (PhD) (India)

Azizulloh AROL, phil.sc.n. (PhD) (USA)

Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)

Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, ist. sc.d, prof. (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAEV, ist.sc.d, dots.

Makset KARLIBAEV, t.f.d., k.i.x.

Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAEVA, c. of h. sciences, associate professor

Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy, (Ozarbayjon)

Bakhtiyar KARIMOV, phil.sc.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, phil.sc.d.

Alima BERDIMURODOVA, phil.sc.d.

Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.sc.d., prof. (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, Ph.D., (DSc), professor

Nasibullina Nurida Shaydullovna, can. of phil (Rossiya)

Sayyora SAMANDAROVA, associate professor, can.of phil.

Bekposhsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)

Qabil MAMBETOV, phil.sc.n. (PhD)

Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.

Farrux Abbas oglu Rüstemov, p.sc.d, prof. (Ozarbayjon)

Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.

Safo MATJONOV, p.sc.d., prof.

Qakhraman IBADULLAEV, p.sc.d., (DSc)

Masharib ABDULLAEV, of art.sc.c., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJPOV, phil.sc.d., (PhD)

Rana Hamid qızı Qadirova, Psychol.sc.d., prof.(Ozarbayjon)

Nargis ATABAEVA, Psychol.sc.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)

FOLLOW US ON SOCIAL MEDIA BELOW:



COMMUNITY COUNCIL:

Sirojiddin SAYID

Muhammad Ali

Kengesboy KARIMOV

Iqbal MIRZA

Kurban SHONIAZOV

Orozboy ABDURAHMANOV

Muratboy JUMANOV

Literary Advisor:

Gulistan MATYOQUBOVA

Painter:

Alibek ABDURAHMANOV

Page editor:

Ghiyaziddin O'NAROV

Our address: Republic of Karakalpakstan, Beruni district.

Website: <https://tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram channel: <https://t.me/tamaddunnuri>

Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number.

Paper size 60x84 1/8. Publisher's scoreboard 28. The index is 960.

It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.

Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2025, No.7 (70).

This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #30. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.



"Tamaddun nuri" magazine is

indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale.

Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal

"Tamaddun nuri".



Crossref DOI-10.69691



ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347





MUNDARIJA

07.00.00 - "TARIX"

Ismailov Bobur Baxramovich. Xiva xonligida metallsozlik hunarmandchiligining shakllanishi va taraqqiyoti: XVI–XIX asr manbalari tahlili asosida...	9
Aytmuratova Janilsin Jalgasovna, Quvatbayeva Charos. Milliy xalq ta'limi, adabiyot va san'at rivojida jadidlarning tutgan o'rni.....	14
Radjabov Ozodbek. Qirg'iz temir yo'li tashkiloti va uning faoliyati tarixi.....	20
Rasulova Iroda Abduxoliqovna. Turkistonda oliy inqilobiy tribunallar faoliyatiga doir mulohazalar (Sovet hokimiyatining dastlabki yillari misoli).	61
Ibragimova Gulzoda Farxadovna. Qo'ng'iro't So'fiylari davrida Xorazm vohasi shaharlari.....	72
Bektoshev G'iyos Saxriddin o'g'li. Xiva xonligi tarixining mahalliy tarixchilar tomonidan o'rganilishi.....	83
Shamayev Umarali Turg'unboyevich. Uzun tumani tarixiy yodgorliklarining o'rganilishi.....	86
Kenjayev Bektash Davronbek o'g'li. Orolbo'yi sak qabilalari qadimgi mozor qo'rg'onlarining o'rganilishi va dafn odatlari to'g'risida ba'zi mulohazalar.....	98
Shomurodov Otajon Hamidovich. Mo'g'ul bosqini davri xorazm shaharlari taqdiri: yozma manbalar tahlili.....	127
Nig'matullayev Ibrohim Ma'ruf o'g'li. Samarqand shia jamoalari an'analarining mahalliy xususiyatlari.....	143
Davlatova Shoira. Turkiston hududida bolsheviklarning mustamlakachilik siyosati haqidagi ba'zi manbalar.....	159
Ruziyeva Laziza Yusufvna. Toshkent shahrida avtobus transporti tizimi: tariflar va tashkiliy islohotlar tarixi (1954-1959-yillar).....	165
Erimmatova Gulnoza Azimboy qizi. Xiva xonligi hududiy chegaralari joylashish kartografiyasi xususida.....	175
Ziyotov Zayniddin. Ossuriya davlatining tashkil topish tarixi.....	205
Kadirova Yakitjan Buvabayevna. Janubiy viloyatlardagi aholining uy-joy bilan ta'minlanishi: o'zgarishlar va muammolar (Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari misolida, 1991–2023 yillar).....	219
Umarov Djamshed Sayitmuratovich. "Sovet o'quvchisi" g'oyasining mahalliy o'zbek maktablaridagi siyosiy ko'rinishi va uning oqibatlari (1945–1990-yillar misolida).....	222
Ibragimov Umrbek Umarbek o'g'li, Qo'ziyeva Nodira O'ktamboy qizi. Qadimgi Xorazm tilining o'rganilish tarixi.....	226
Allanazarov Sirojbek Bekchan o'g'li. XX asrning ikkinchi yarmida Xorazmda fan va ta'lim.....	244
Murodov Shuhrat Komil o'g'li. O'zbekiston musulmonlari idorasi tashkil topishi tarixi.....	276



09.00.00 - “FALSAFA”

O‘rinboyev Davlatjon Baxtiyorovich. Strategemalar nazariyasi va “Strategiologiya” fanining falsafiy-tarixiy ildizlari.....	46
Abdulfattayeva Shahrizoda Shuhratbek qizi. Mustaf Komilning ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar konsepsiyasi.....	55
Turdiyeva Iroda Maxmarajabovna. Jadid mutafakkirlaridan Cho‘lponning ijtimoiy-axloqiy va falsafiy qarashlari.....	106
Egamon Yusufboy Ergashbek o‘g‘li. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish — yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor vazifasi.....	109
Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna. Antoni Sheftsberining go‘zallik va adolat tushunchalari o‘rtasidagi uyg‘unlik.....	123
Eshpulatov Inoyat Saparovich. Faxriddin Roziy falsafiy ta‘limotiga islom madaniyatining ta‘siri.....	134
Gulova Anorgul Axtamovna. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari.....	139
Жиенғалий Усенов. Жаслар рухый тәрбиясында дәстан ҳам эпослардын орны.....	146
Ergashev Otabek Xasanovich. Deradikalizatsiya: ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida.....	153
Tolibova Saodat Xudoyberdi qizi. Inson ma‘naviy fazilatlarini shakllantirishda oiladagi milliy tarbiya samaradorligi.....	162
Karimov Zafarbek Ataboyevich. Ta‘lim va falsafa o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirning tarixiy-falsafiy tahlili.....	171
Saidov Sarvar. Abdulloh ibn Muqaffaning “Al-adab al-kabir” asari islom falsafasiga oid muhim manba.....	201
Abduraxmonov Xolboy To‘xtayevich. Ahmad Donish ilmiy merosida adolatli davlat va boshqaruv shakllari.....	211
Adilov Zafar Yunusovich. Amir Temur va Mahmud az-Zamaxshariy qarashlaridagi adolat va davlat boshqaruvi sohasidagi uyg‘unlik.....	235
Nabiyev Maxsud Abdimannonovich. Pragmatizm tamoyillarining yoshlar iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishdagi falsafiy tahlili.....	261
Xamdamova Sitara Safarovna. Buyuk ipak yo‘li Markaziy Osiyo va Yevropa madaniyati, tarixi va san‘atini bog‘lovchi yo‘l sifatida.....	267
Majitov Maxmud Abdimo‘min o‘g‘li. O‘zgarish va moslashish sharoitida shaxs strukturasi dinamikasi.....	279
Utegenova Jamila Djolmurzayevna. Globallashuv jarayonida bioetika rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy masalalari.....	285
Kuchimova Farida Tashtemirovna. Globallashuv davrida yoshlarda proyektiv tafakkur shakllanishi muammolari.....	293
Suvonqulov Husan Toirovich. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy yashagan davrida Turkistonni aholisini ijtimoiy-madaniy va axloqiy muhiti.....	314

10.00.00 - “FILOLOGIYA”

Bektemirova Beknozaxon Baxtiyorjon qizi. Diskursiv formulalar akademik diskurs komponenti sifatida.....	18
Ismailova Shohida. Ingliz va o‘zbek tillarida publitsistik (ommabop) uslubning o‘ziga xos xususiyatlari.....	25
Kurbanova Saida Bekchanovna. Shukrullo she‘riyatining mavzu doirasi.....	29
Seydullaeva Darigul, Daniyarova Dilbar. Jazivshí T.Qayıpbergenovtıń shıǵarmalarında qollanılǵan qaratpa aǵzalırdıń leksika-semantikalıq túrı.....	51
Yunusova Gulshoda Dilshadovna. Koreys tilida yo‘nalish va semantik o‘zgarishni aks ettiruvchi strukturaviy modellar.....	58
Erdonova Muxlisa. Ornitonim komponentli maqollarda konseptual ma‘nolar.....	69
Babajanova Lobar Jamoladdin qizi. Turkiy tillar tezauruslaridagi semantik va grammatik valentlik tushunchalarining qiyosiy tahlili.....	89
Ro‘zimova Guli Shuhratovna. “Oshiqnoma” turkumi dostonlarida poetonimlar lingvopoetik vosita sifatida.....	101
Yakubov Baxtiyor Saydullayevich. O‘zbek xalq dostonlarida qahramonlik obrazlar.....	115
Yaxyayev Zoxir Qarshiyevich. Termiziy allomalar merosini o‘rganish va targ‘ib qilishning ahamiyati.....	150
Sultonova Dilovar Ne‘matillo qizi. “Bahrom va Gulandom” dostoni qo‘lyozmalari: O‘zFASHI fondidagi nusxalar asosida ilmiy tavsif.....	156
Сапарова Сурайё Бахтиёр кизи. Функционально-структурные особенности речевых этикетных единиц.....	170
Мангитбаева Зайфун Узакбаевна. Көп компонентли дизбекли қоспа гәплердің түркий тил билиминде изертлениўи.....	194
Сапарова Сурайё Бахтиёр кизи. Прагматическая функция единиц обращения.....	198
Попова Анастасия Александровна. Вопрос различения понятий юриспруденции в русском и узбекском языковом контексте.....	208
Bozorova E‘zoza Baxriddin qizi. Lirikada janr masalasi poetik muammo sifatida.....	231
Rahimova Bekposhsha Bahodirovna. Matnazar Abdulhakimning “Ko‘chki” dostoni xususida ba‘zi mulohazalar.....	240
A‘zamova Marjona Panji qizi. O‘zbek talabalarining til o‘rganishdagi asosiy qiyinchiliklari.....	249
Mustofaqulova Sohiba Alibekovna. Paremiologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari.....	303

12.00..00 – “YURIDIK FANLAR”

Худойшукuroв Фарход Турсоатович. Маъмурий қамоққа олинган шахслар маъмурий-ҳуқуқий мақоми ва сақлаш учун мўлжалланган махсус қабулхоналарнинг ўзига хос хусусиятлари.....	33
Хўжаев Миршод Фатилло ўғли. Очиқлик ва шаффофликни таъминлаш – коррупцияга қарши курашишнинг энг самарали воситаларидан бири сифатида.....	77
Jumaniyozov Sanjarbek Matrasulovich, Kutibayeva Elizaveta. O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari tizimida inson kapitali shakllanishi va rivojlanishining huquqiy asoslari.....	118
Реймбаева Гулдаулет Курбанбаевна. Правовой статус потребителя в сфере туристических услуг.....	182

Jumaniyozov Sanjarbek Matrasulovich. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati organlari faoliyatida inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishini tartibga soluvchi huquqiy asoslar.....	189
Мадраҳимова Гулжаҳон. Маъмурий суд иш юритувида жамоавий шикоят институтини жорий қилишнинг асосий мезонлари.....	288

23.00.00 - “SIYOSIY FANLAR”

Axmedov Ijod Narziquil o‘g‘li, Xolmirzayeva Mahbuba Musurmon qizi. Davlat ijro intizomi tizimida ijtimoiy-siyosiy transformatsiya jarayonlari va kommunikatsion yondashuvlar samaradorligi.....	304
--	-----

13.00.00 – “PEDAGOGIKA”

Мамедова Шахло Душамбоевна. Методологические принципы развития культурно-эстетической компетентности студентов в поликультурной среде.....	37
Hotamova Iroda Ibrohimovna. Ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda sun‘iy intellektni integratsiya qilish: ELSA Speak va Speechace ilovalari asosida.....	168
Burxonova Manzura Xurshid qizi. Ta‘limda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.....	252
Ermatova Mexriniso Bekmurodovna. Jadidlarning tarbiyaviy-pedagogik qarashlari asosida talabalarni xalq hunarmandchiligiga yo‘naltirish.....	255
Fayziyeva Mo‘tabar Mardonovna. Milliy ta‘lim-tarbiya tizimi modernizatsiyasida demokratlashuv tamoyillarining funksional ahamiyati.....	258
Toshpo‘latov Temur Mo‘minjonovich. Ingliz tili darslarida talabalarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish.....	264
Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida artpedagogika metodikasini qo‘llash orqali nutq o‘stirish faoliyatini tashkillashtirish asoslari.....	272
G‘anieva Gulrux Tavakkaljon qizi. Nogironligi bo‘lgan bolalarni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.....	282
Prenov Barliqbay Barakbaevich, Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanovich. Oliy ta‘lim tizimida dasturlash tillarini triangulyaktiv yondashuv asosida o‘rgatish.....	297

“JURNALISTIKA”

Bekchanova Dilbar Zaripovna. Mahalliy internet nashrlarida: yechimlar jurnalistikasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	93
---	----

19.00.00- “PSIXOLOGIYA”

Kurbanbayeva Muqaddas Kozibayevna, Kulumova Mohira Mahmudovna. Psixologik treningda aqliy hujum va bahs-munozara usuli.....	41
Urazbayeva Yulduz Abdullayevna. O‘quvchilarning ta‘lim olish jarayonida ijodkorlik g‘oyalari shakllanishi va unda motivatsiyaning ahamiyati.....	215
Xudoyqulova Nazokat. Oilaviy mojaro vositasida bolalarda shakllanadigan tashvish buzilishlari (psixodiagnostik tahlil).....	309

“EKOLOGIYA”

Zokirjonova Dilobarxon Zoirbek qizi. Klimat o‘zgarishi va uning O‘zbekiston tabiiy muhitiga ta‘siri.....	65
---	----


Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan 2019-yil 30-yanvarda chop etilgan OAK rayosati qarorlari bilan tasdiqlangan ro‘yxatga ko‘ra 07.00.00 - “Tarix”, 09.00.00 - “Falsafa”, 10.00.00 - “Filologiya” ixtisosligi bo‘yicha; OAK Rayosatining 2023-yil 31-oktyabrdagi 345-son qarori bilan 12.00.00 – “Yuridik fanlar”, 13.00.00 – “Pedagogika”, 19.00.00 – “Psixologiya” ixtisosliklari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



TABLE OF CONTENTS

07.00.00 - "HISTORY"

Ismailov Bobur Baxramovich. Formation and development of metalworking crafts in the Khiva Khanate: based on source analysis from the 16th to 19th centuries.....	9
Aitmuratova Zhanilsin, Kuvatbayeva Charos. The role of the jadids in the development of national public education, literature and art.....	14
Radjabov Ozodbek. The history of the kyrgyz railway organization and its activities.....	20
Rasulova Iroda Abdukholikovna. Remarks on the activities of the highest revolutionary tribunals in turkestan (on the example of the early years of Soviet authority).....	61
Ibragimova Gulzoda Farkhadovna. Cities of the Khorezm oasis during the period of the Kungarat Sufis.....	72
Bektoshev Giyas Sakhrudin oglu. Study of the history of the Khiva Khanate by local historians.....	83
Shamayev Umarali Turgunboyevich. Study of historical monuments of the uzun district.....	86
Kenjaev Bektash Davronbek ogli. Some considerations on the study of ancient burial mounds and funeral rites of the saka tribes in the aral sea region.....	98
Shomurodov Otajon Hamidovich. The fate of khorezm cities during the mongols' conquest: analysis of written sources.....	127
Nigmatullaev Ibromkhim Maruf ogli. Local peculiarities of the traditions of shia communities of Samarkand.....	143
Davlatova Shoira. Some sources on the colonial policy of the bolsheviks in the territory of Turkestan.....	159
Ruzieva Laziza Yusufovna. The bus transport system in Tashkent city: history of tariffs and organizational reforms (1954-1959 yy).....	165
Erimmatova Gulnoza Azimboy qizi. On the Cartography of the Territorial Borders of the Khiva Khanate.....	175
Ziyotov Zayniddin. History of the formation of the assyrian state.....	205
Kadirova Yakitan Buvabayevna. Housing provision for the population in the southern regions: changes and problems (based on the examples of Surkhondaryo and Qashqadaryo regions, 1991–2023).....	219
Umarov Djamshed Sayitmuratovich. The idea of the “soviet student” and its political manifestation in local uzbek schools and its consequences (example of 1945–1990).....	222
Ibragimov Umrbek Umarbek oglu, Qo'ziyeva Nodira O'ktamboy qizi. History of the study of the ancient Khorezm language.....	226
Allanazarov Sirojbek Bekchan o'g'li. Science and education in Khorezm in the second half of the 20th century.....	245
Murodov Shuhrat Komil ogli. The history of the establishment of the muslims board of Uzbekistan.....	276



09.00.00 - "PHILOSOPHY"

Urinboyev Davlatjaon Bakhtiyorovich. The theory of strategems and the philosophical-historical roots of the science of "strategiology".....	46
Abdulfattayeva Shahrizoda Shuhratbek qizi. The concept of socio-political ideas of Mustafo Komil.....	55
Turdieva Iroda Makhmarajabovna. The socio-ethical and philosophical views of Cholpan as a jadid thinker.....	106
Egamov Yusufboy Ergashbek ogli. Forming a library culture among students is a priority task of state youth policy.....	109
Ruzmatova Gulnoz Mirakhrarovna. Harmony between beauty and justice in Anthony Shaftesbury's philosophy.....	123
Eshpulatov Inoyat Saparovich. To the philosophical teachings of Fakhriddin Razi influence of Islamic culture.....	134
Gulova Anorgul Akhtamovna. The relationship between Alisher Navoi and Husayn Boykara.....	139
Zhiengali Usenov. The role of dastans and epics in the spiritual education of youth.....	146
Ergashev Otabek Khasanovich. Deradicalization: as a socio-philosophical issue.....	153
Tolibova Saodat Khudoyberdi kizi. Effectiveness of national upbringing in the family in shaping human spiritual qualities.....	162
Karimov Zafarbek Ataboyevich. A historical and philosophical analysis of the interrelation between education and philosophy.....	171
Saidov Sarvar. Abdullah ibn al-Muqaffa's work "Al-adab al-kabir" as a significant source on islamic philosophy.....	201
Abdurakhmonov Kholboy Tokhtayevich. Just state and forms of covenance in the scientific legacy of Ahmad Donish.....	211
Adilov Zafar Yunusovich. Harmony in the field of justice and state administration in the views of Amir Temur and Mahmud az-Zamakhshari.....	235
Nabiyev Maksud Abdimannonovich. Philosophical analysis of pragmatism principles in the development of youth economic culture.....	261
Khamdamova Sitara Safarovna. The Silk road as a way of connecting Central Asian and European culture, history, and art.....	267
Majitov Makhmud Abdimuminovich. Dynamics of personality structure in conditions of change and adaptation.....	279
Utegenova Jamila Djolmurzayevna. Social-philosophical issues of the development of bioethics in the process of globalization.....	285
Kuchimova Farida Tashtemirovna. Problems of the formation of projective thinking in young people in the era of globalization.....	293
Suvonqulov Husan Toirovich. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy and the socio-cultural and moral environment of Turkestan during his time.....	314

10.00.00 - "PHILOLOGY"

Bektemirova Beknozakhon Baxtiyorjon kizi. Discursive formulas as a component of academic discourse.....	18
Ismailova Shohida. Distinctive features of the publicistic (popular) style in english and uzbek.....	25
Kurbanova Saida Bekchanovna. The subject of Shukrullo's poetry.....	29
Seydullaeva Darigul, Daniyarova Dilbar. Lexico-semantic types of address units used in the works of writer T.Kaipbergenov.....	51
Yunusova Gulshoda Dilshadovna. Structural models reflecting direction and semantic change in Korean.....	58
Erdonova Mukhlisa. Conceptual meanings in proverbs with ornithonymic components.....	69
Babajanova Lobar Dzhamaladdin kizi. A comparative analysis of semantic and grammatical valency concepts in turkic thesauri (Case Study of Uzbek, Turkish, and Tatar Languages).....	89
Ruzimova Guli Shuhratovna. Poetonyms as a linguistopoetical means in the "Oshiqnoma" series of epistles.....	101
Yakubov Bakhtiyar Saidullaevich. Heroic and legendary images in uzbek folk epics.....	115
Yahyayev Zohir Karshiyevich. The importance of studying and promoting the legacy of Termizi scholars.....	150
Sultonova Dilovar Nematillo kizi. Manuscripts of the epic "Bahrom and Gulandom": scientific description based on copies from the fund of the academy of sciences of Uzbekistan.....	156
Saparovna Surayyo Bakhtiyor qizi. Functional and structural characteristics of speech etiquette units.....	178
Mangitbaeva Zayfun Uzakbaevna. The study of multi-component compound sentences in turkic linguistics.....	194
Saparovna Surayyo Baxtiyor qizi. The pragmatic function of address units.....	198
Popova Anastasia Alexandrovna. The issue of distinguishing the concepts of jurisprudence in the russian and uzbek linguistic contexts.....	208
Abdurakhmonov Kholboy Tokhtayevich. Just state and forms of covenance in the scientific legacy of Ahmad Donish.....	211
Bozorova E'zoza Baxriddin qizi. The issue of genre in lyric poetry as a poetic problem.....	231
Rahimova Bekposhsha Bahodirovna. Some remarks on Matnazar Abdulhakim's epistle "Ko'chki".....	240
Azamova Marjona Panji qizi. The main difficulties of uzbek students in learning the language.....	249
Mustofaqulova Sohiba Alibkovna. Lexical-semantic properties of paremiological units.....	303

12.00.00. - "LEGAL SCIENCES"

Xudoyshukurov Farxod Tursoatovich. Administrative-legal status of persons under administrative detention and specific features of special receptions intended for detention annotation.....	33
Khojaev Mirshod Fatillo ugli. Ensuring openness and transparency is one of the most effective tools in fighting corruption.....	77
Jumaniyozov Sanjarbek Matrasulovich, Kutibayeva Elizaveta. Legal basis for the formation and development of human capital in the system of state authorities of the republic of Uzbekistan.....	118
Reymbaeva Guldaulet Kurbanbaevna. Legal status of the consumer in the field of tourism services.....	182
Jumaniyozov Sanjarbek Matrasulovich. Legal frameworks regulating the formation and development of human capital in the activities of state authority bodies in the republic of Uzbekistan.....	189
Madrahimova Guljakhon. Key criteria for introducing the institution of collective complaints in administrative court proceedings.....	288

23.00.00 - "POLITICAL SCIENCE"

Axmedov Ijod Narzikul oglu, Kholmirezayeva Mahbuba Musurmon kizi. The effectiveness of socio-political transformation processes and communicational approaches in the state executive discipline system.....	304
---	-----

13.00.00. - "PEDAGOGY"

Mamedova Shakhlo Dushamboevna. Methodological principles of developing students' cultural and aesthetic competence in a multicultural environment.....	37
Hotamova Iroda Ibrohimovna. Integrating Artificial Intelligence into the Development of English Speaking Skills: Based on the Applications ELSA Speak and Speechace.....	168
Burkhonova Manzura Khurshid qizi. Theoretical and practical foundations of forming a healthy lifestyle in education.....	252
Ermatova Mekhrinis Bekmurodovna. Orienting students towards folk handicrafts based on the educational and pedagogical views of the jadids.....	255
Fayziyeva Mutabar Mardonovna. Modernization of the national education and upbringing system: the functional significance of democratization principles.....	258
Tashpulatov Temur Muminjonovich. Developing students' grammatical competence in english language classes.....	264
Kholmatova Fotima Bakhtiyor qizi. Basic fundamentals of organizing speech development activities through the application of art pedagogical methodology in preschool educational organizations.....	272
Ganieva Gulrukh Tavakkaljon qizi. Using information and communication technologies in teaching children with disabilities.....	282
Prenov Barliqbay Barakbaevich, Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanovich. Teaching programming languages in the higher education system based on a triangulyactive approach.....	297

19.00.00. - "PSYCHOLOGY"

Kurbanbaeva Muqaddas Kozibaevna, Kulumova Mohira Mahmudovna. Brainstorming and discussion methods in psychologist training.....	41
Urazbayeva Yulduz Abdullayevna. The formation of creative ideas in the educational process of students and the importance of motivation in it.....	215
Khudoyqulova Nazokat. Anxiety disorders formed in children as a result of family conflicts: psychodiagnostic analysis.....	309

"JOURNALISM"

Bekchanova Dilbar Zaripovna. In local online media: the socio-economic significance of solutions journalism.....	93
---	----

"EKOLOGY"

Zokirjonova Dilobarkhon Zoirbek qizi. Climate change and its impact on the natural environment of Uzbekistan.....	65
--	----

The magazine was re-registered by the Press and Information Agency of the Republic of Uzbekistan on September 28, 2016 with the number 0843.

According to the list approved by the decisions of the Board of Education of the Republic of Uzbekistan published on January 30, 2019, 07.00.00 - "History", 09.00.00 - "Philosophy", 10.00.00 - "Philology" according to; 2023 of the HAC Board According to the decision No. 345 of October 31, 12.00.00. - "Legal Sciences", 13.00.00. - "Pedagogy", 19.00.00. "Psychology".

XIVA XONLIGIDA METALLSOZLIK HUNARMANDCHILIGINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI: XVI–XIX ASR MANBALARI TAHLILI ASOSIDA

*Ismailov Bobur Baxramovich, Urganch davlat universiteti “Tarix”
kafedrası o‘qituvchisi*

FORMATION AND DEVELOPMENT OF METALWORKING CRAFTS IN THE KHIVA KHANATE: BASED ON SOURCE ANALYSIS FROM THE 16TH TO 19TH CENTURIES

*Ismailov Bobur Baxramovich, Urganch State University Teacher at the
Department of “History”*

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКИХ РЕМЁСЕЛ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ: НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА ИСТОЧНИКОВ XVI–XIX ВЕКОВ

*Исмаилов Бобур Бахрамович, преподаватель кафедры “История”
Ургенчского государственного университета*



<https://orcid.org/0009-0002-9529-1914>

e-mail:
bi.ismailov@gmail.com



Annotatsiya: Mazkur maqolada Xiva xonligida XVI–XIX asrlarda mavjud bo‘lgan metallsozlik sohalari – temirchilik, qurolsozlik, cho‘yangarlik, zargarlik, kandakorlik va boshqa hunarmandchilik yo‘nalishlarining tarixiy holati manbalar asosida tahlil qilingan. Mahalliy arxiv hujjatlari, rus va Yevropa sayohatchi hamda diplomatlarining ma‘lumotlari orqali ushbu sohalarning ahamiyati, turlari, eksportbop mahsulotlari va ularning harbiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi o‘rni yoritilgan. Ayniqsa, qurolsozlik bilan bog‘liq ma‘lumotlar, toj, taxt, sovg‘a va to‘rtlik an‘analaridagi metall buyumlar tahlili orqali ushbu sohalarning taraqqiyoti namoyon etilgan.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, metallsozlik, qurolsozlik, zargarlik, manbalar tahlili, rus elchilari, hunarmandchilik tarixi.

Abstract: This article analyzes the development of metalworking crafts in the Khiva Khanate from the 16th to the 19th century, including blacksmithing, arms manufacturing, casting, jewelry, and ornamentation. Drawing from local archival materials and Russian and European diplomatic and travel accounts, the study examines the types of metal goods produced, their artistic characteristics, export potential, and their significance in the military, economic, and cultural life of the khanate. Special attention is given to weapon production, ceremonial gifts to rulers, and the symbolic use of gold and silver in royal thrones and crowns, revealing the maturity of these crafts across various cities of Khorezm.

Keywords: Khiva Khanate, metalworking, arms production, jewelry, historical sources, Russian embassies, craft. history.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие ремёсел, связанных с обработкой металла, в Хивинском ханстве в XVI–XIX веках — таких как кузнечное, оружейное, литье чугуна, ювелирное и чеканное дело. На основе анализа местных архивных документов, а также русских и европейских дипломатических и путешественнических источников, выявлены типы изделий, их художественные особенности, экспортная направленность и роль в военной, экономической и

культурной жизни ханства. Особое внимание уделено оружейному делу, дарам ханам и царям, символике престола и короны, а также развитию ремесленных центров в городах Хорезма.

Ключевые слова: Хивинское ханство, металлургия, оружейное дело, ювелирное искусство, источники, русские посольства, история ремёсел.

KIRISH. XVI–XIX asrlar davrida Xiva xonligida metallsozlik hunarmandchiligi turli yoʻnalishlarda shakllanib, mahalliy iqtisodiy va harbiy ehtiyojlar, shuningdek, tashqi savdo munosabatlari bilan chambarchas bogʻliq holda taraqqiy etgan. Temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, misgarlik, choʻyanganlik va kandakorlik sohalari xonlik hududidagi hunarmandchilik markazlarida jamiyatning turli qatlamlariga xizmat qilgan. Xonlikning siyosiy-iqtisodiy murakkab sharoitida metallsozlik mahsulotlari nafaqat xoʻjalik va harbiy maqsadlarda, balki elchixonalar orqali yoʻllangan sovgʻalar, hadyalar tarkibida ham muhim oʻrin tutadi. Mazkur maqolada ushbu sohalarning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari turli yozma manbalar tahlili asosida tadqiq etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Xiva xonligida metallsozlik hunarmandchiligining tarixini oʻrganishda asosiy manbalar sifatida mahalliy tarixiy asarlar, xonlik arxiv hujjatlari, shuningdek, rus elchilari va sayohatchilarining hisobotlari hamda Yevropa manbalari xizmat qiladi. Xususan, Abulgʻoziy Bahodirxonning “Shajarai turk” asarida Xorazmdagi hunarmandchilik markazlari va qurolsozlik sohalari haqidagi maʼlumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, XVI–XVIII asrlarga oid rus manbalarida – elchilarning yozuvlari, savdogarlar soʻrovlari orqali qurol-aslaha turlari, sovgʻalar, hunarmandlar va ular tomonidan tayyorlangan metall buyumlar haqidagi maʼlumotlar toʻplangan. Bular manbashunoslik va tarixiy qiyosiy tahlil orqali mazkur sohalar taraqqiyotini yoritishga xizmat qiladi.

METODOLOGIK ASOSLAR. Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy-tahliliy, manbashunoslik va qiyosiy-metallshunoslik metodlaridan foydalanildi. Bunda yozma manbalardagi maʼlumotlar tahlil qilinib, ularning taʼriflangan davrdagi iqtisodiy va madaniy voqelik bilan bogʻliqligi oʻrganildi. Rus va mahalliy manbalarning qiyosiy tahlili orqali maʼlumotlar oʻzaro taqqoslandi, hunarmandchilik sohasidagi taraqqiyotning asosiy tendensiyalari aniqlandi. Shu bilan birga, etnografik yondashuvlar orqali

qurolsozlik, zargarlik va boshqa metallsozlik yoʻnalishlarining xonlik aholisi hayotidagi oʻrni ham tahlil etildi.

TAHLIL. Xiva xonligining XVI–XIX asrlarga oid manbalarida temirchilik, qurolsozlik, choʻyanganlik, misgarlik, zargarlik, kandakorlik kabi metallsozlik sohalari tarixi maxsus yoritilmagan boʻlsa-da, ulardagi maʼlumotlarni har tomonlama tahlil qilish orqali mavzuga oid masalalarga oydinlik kiritish mumkin. Bu davr manbalarini ham shartli turda ikkita guruhga ajratish mumkin.

1. Mahalliy manbalar va Xiva xonligidagi arxiv hujjatlari.

2. Rus va Yevropa manbalari.

Soʻnggi oʻrta asr manbalarida Xorazmning temirchilik, qurolsozlik, choʻyanganlik, kandakorlik, zargarlik kabi metallsozlik sohalari va xomashyo manbalariga aloqador maʼlumotlarni oʻrganish imkoniyati birmuncha kengroq. Chunki, XVII–XIX asrlarda rus elchi, sayohatchi va harbiy mutaxassislari Xiva xonligining iqtisodiy va siyosiy munosabatlari, savdo yoʻllarini oʻrganish bilan bir qatorda xonlikning tabiiy yer osti boyliklari, savdo-hunarmandchilik sohalari, harbiy salohiyatini va qurol-aslahalar turlarini oʻrganish uchun keng koʻlamda ishlar olib borishgan. Rus manbalari deganda, biz rus elchilarining hisobotlari, josuslik xatlari, savdogarlarining soʻrov maʼlumotlarini tushunamiz. Shu bilan birga shoh va podshohlar hamda xonlarning bir-birlariga tortiqlari, sovgʻalari ham muhim dalil hisoblanadi. Chunki, shular orqali Xiva xonligining metallsozlik sohalari imkoniyatlari va tashqi savdoga chiqarilgan mahsulot turlari, badiiy metall buyumlar, import sifatida keltirilgan metall buyum turlari, mahalliy va tashqaridan keltirilgan xomashyo manbalari, harbiy qurol-aslahalari va qurolsozlik sohasining oʻsha davrdagi darajasini va oʻrnini belgilash mumkin.

Xorazm xalqlari tarixida XVI – XVIII asrlar ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida inqiroz davri sifatida izohlash mumkin. Oʻsha davrdagi siyosiy kurashlarning kuchayishi savdo-sotiq va hunarmandchilik sohalari rivojiga toʻsiq boʻladi. Jumladan, Vazir va Koʻhna Urganch kabi markaziy

shaharlarda ham hunarmandchilik va savdo–sotiq inqirozga yuz tutadi.

XVI asr o'rtalariga oid manbada yozilishicha, "Shu kuni (1553-yili) Din Muhammad (Urganch hukmdori o'g'li) bozordagi bitta zargarga otasi va qayin otasi nomidan muhrli uzuk yasashga buyurtma bergan" deya ko'rsatilgan[1]. Bu o'sha davrda Urganch bozorida zargarlik do'konlari bo'lganligiga urg'u beradi.

Xorazmda bo'lgan sayyoh A.Jenkinsonning yozishicha, "1558-yil 7-oktyabrida Sellizyur (Vazir shahri–T.B.) qal'asiga keldim. Aholisi kambag'al, savdo bilan shug'ullanmaydi"[2]. Sayyoh o'z ma'lumotlarini davom ettirib, Xorazmda qilich, xanjar, nayza, kamon o'qi kabi qurol-aslahalar an'anaviy uslubda tayyorlanadi, - deya ma'lumot beradi[3].

Shunga qaramasdan, Xorazm aholisi XVI – XVIII asrlarda qurolsozlik va zargarlikdan tashqari, metallsozlikning boshqa sohalari bilan shug'ullanmagan deb aytish mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Chunki, temirchilik, cho'yangarlik, qurolsozlik, zargarlik, misgarlik sohalari taraqqiyotning barcha davrlarida ham hamohang rivojlanishda davom etgan va ular tomonidan turli sohalar uchun mehnat qurollari, asbob–uskunalar, qurol–yarog'lar, uy–ro'zg'or buyumlari, ot–ulov anjomlari, taqinchoqlar va boshqada xo'jalik turmushi uchun zarurli asosiy mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajaray turk" asarida XVI asr oxiri XVII asr boshlarida Mizdahqon, Xiva, Hazorasp, Vazir, Bo'ldumsoz, Tirsak va Qumkent kabi Xorazm shaharlarining taraqqiy qilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin. Muallif 3 ta shaharni: Urganch, Xiva va Hazoraspni savdo-hunarmandchilik markazi bo'lganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, bu davrda Yangi Urganch shahri qad ko'taradi.

XVI–XVIII asrlarga oid ko'plab manbalarda Xiva xonlari tomonidan rus podshohlariga sovg'aga yuborilgan mollar ichida oltin bilan ishlov berilgan qilich, po'lat qilich, qini kumushdan ishlangan po'lat pichoqlar, oltin bilan ishlov berilgan egar–jabduqlar bo'lganligi qayd etilgan[4].

Xiva xoni Hojimxon nomidan 1585-yili Moskvada bo'lgan elchi Muhammadxo'ja orqali rus podshosi Fedor Ivanovichga oltin bilan bezatilgan

qilich, pichoq va boshqa sovg'alar yuborilgan. Elchining o'zi ham podshohga oltin bilan bezatilgan qilich, pichoq, oltin suvi bilan sayqallangan egar va boshqa narsalarni ham hadya etadi[5].

Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon asarida keltirilishicha, turk–mo'g'ul xalqlarida hukmdorga beriladigan sovg'alar ro'yxati 9 turdan va ularning har biri 9 tadan iborat bo'lgan. Bu an'ana Xiva xonligida ham bo'lgan[6]. Asarda (XVII asr) to'qqiz to'plamiga kiruvchi sovg'alar ro'yxatida xonga, 9 ta oltin suvi yuritilgan xanjar, 9 ta zar iplarda tikilgan chodir, 9 ta oltindan bilan bezatigan egar–jabduq va jugan–suvliqlari, ming dona ipak (oltin ip) to'qimalari sovg'a qilingan.

Xivaga kelgan Rossiya elchilari Vasiliy Davidov va Yusuf Qosimovlar orqali ham podshoh Fyodor Alekseyevichga sovg'a sifatida yuborilgan – 9 ta oltin bilan sayqallangan o'q–yoy, 9 ta bezatilgan po'lat qilich, 9 ta bezatilgan pichoq va boshqa-da 9 talik sovg'alar jamlanmasi yuboriladi[7].

1720-yilda Sherg'ozixon imperator Pyotr Iga o'z elchilarini yuboradi. Uning sovg'alarida ham 9 ta pichoq mavjud. Boshqa manbada ham, XVII asrda Xiva xoniga berilgan sovg'alar ro'yxati jamlanmasi tarkibida 9 ta oltin xanjar, 9 ta oltin iplarda tikilgan chodir va 9 ta oltin suvi yuritilgan egar–jabduqli va jugan–suvliqli otlar bor edi[8].

Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajaray turk" asarida ham Xorazmning XVII asrdagi qurolsozlik mahsulotlari turlari to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan[9]. Manbadagi ma'lumotlarga nazar qilsak, XVII asrda ham Xiva qo'shini tarkibida og'ir qurollangan sovutli suvoriylar ko'pchilikni tashkil qilgan. Asarda yozilishicha, ".... Taqi turdi. Qorasi ming bor (Xiva qo'shini - T.B). Ammo (185 a) yetti yuz-sakkiz yuz sovutli va quyoqli va chahor oyina va dubulg'a va butliq va tezlik ko'zindin o'zga ochiq yeri yo'q. Shundaq kishisi bor"[10]. Bu davrda otliq qo'shin sovut, chor oyna, dubulg'a bilan himoyalangan, nayza, gurzi, qilich, kamon va boshqa-da qurollar bilan qurollangan. Qo'shin tarkibidagi jangchilarda himoya sovutlarining ko'pchilikni tashkil qilishi bu davrda zirhli sovutlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qurolsoz hunarmandlarning faoliyat yuritganligidan dalolat beradi. Shuningdek, bu davrda kamon tayyorlashga ixtisoslashgan hunarmandlar ham faoliyat yuritishgan.

Manbada jangchilarning sadoq (kamon), qilich, nayza, sovut kabi qurol-aslahalari qurolsoz ustalar tomonidan tayyorlaganligi to'g'risidagi ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

XVI–XVIII asrlarda siyosiy va iqtisodiy inqirozlar yuzaga kelishiga qaramasdan, Xorazmda qurolsozlik sohalar, jumladan kamon yasovchi, sovut yasovchi, qilich va boshqa qurol-aslahalarni ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan hunarmandlarning faoliyati izchil davom etgan. O'sha davr manbalarida bu sohalar bilan bog'liq ma'lumotlar ko'plab uchraydi.

Manbalar tahlili, bu davrda Xorazm qurolsoz ustalari qilich, xanjar, pichoq va boshqarda qurol-aslahalarni tayyorlovchi qurolsoz hunarmandlardan tashqari, ularga oltin va kumush suvlarida ishlov berish va bezatish ishlari bilan ham shug'ullanuvchi kandakor ustalar ishlaganliklarini ko'rsatadi.

Mualliflardan A. Jenkinson (XVI asr), Abulg'azi Bahodirxon (XVII asr) va boshqa-da manbalardagi ma'lumotlari XVI - XVII asrlarda Xorazmning hunarmandchilik markazlarida an'anaviy turdagi qurol-aslahalarni ishlab chiqarish davom izchil etganligini to'la tasdiqlaydi.

Hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash tafsilotlari to'g'risida XVII asrga oid taxmin qilinayotgan muallifi noma'lum, varaqalardan iborat qo'lyozmada, XVIII asrga oid 160 ga yaqin hunar sir-asrorlarini bayon qiladigan "Javohiri al-sanoye" ("Hunarlar marvaridi") asari va XVI – XVIII asrlarga oid Xorazm hunarmandchilik sohalariga oid risolalar ma'lumotlarni to'liqlidiradi[11].

1669-yilda Xivada bo'lgan rus elchisi Ivan Fedotov bayonnomasida "Kanxa va Ozarist" shaharlariga savdo qilgani borganligini yozar ekan, "u shaharlarda Urganch va Xivaning turli amaldagi kishilari o'zaro "zandana va chit va paxta va olacha va xom ipak" kabi hunarmandchilik mahsulotlari bilan savdo qilishlarini qayd etadi[12].

XVII asr oxirida Xorazmda Hazorasp, Xiva, Xonqa, Urganch, Shoxobod, Qiyot, Gurlan, Vazir va G'ozibod shaharlari savdo-hunarmandchilik markazlarga aylanadi. Bu davrda boshqa o'zbek xonliklari kabi Xorazm shaharlarida ham, hunarmandchilik hamda savdo-sotiq iqtisodiy hayotning asosini tashkil etgan.

XVIII asr o'rtalarida Xorazmda Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi (1762-yil) davridan davlat hokimiyatining markazlashuvi savdo-sotiq va

urbanizatsion jarayonlar rivoji, qurilish va irrigatsiya hamda obodonchilik ishlari hunarmandchilik sohalarida taraqqiyotiga imkoniyat yaratiladi. Jumladan, bu davrda rixtagarlar, misgarlar va zargarlar kabi badiiy metall buyumlarni tayyorlovchi hunarmandlar bir qancha amaliy tajriba va malakalarga ega bo'lgan. Bu davrda mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan Xiva xonlari taxti va toji oltindan bo'lgan. Rus elchilaridan tarjimon Gulyayev va kotib Chuchalov so'zlariga ko'ra, 1754-yilda Gulyayevni Xiva xonining hovlisiga olib borishadi va uni dahlizga olib kirishadi ("Salomxona"). Keyin ular "oltin taxtda, boshida toji va qimmatbaho kiyimlarda o'tirgan" xonning xonasiga kirishadi[13].

NATIJA. XVI–XIX asrlar davrida Xiva xonligida metallsozlik hunarmandchiligi turli yo'nalishlarda rivojlanib, xonlikning iqtisodiy, harbiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. Temirchilik, qurolsozlik, misgarlik, cho'yangarlik, zargarlik va kandakorlik kabi sohalar faqatgina ichki ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanib qolmasdan, tashqi savdo va diplomatik munosabatlar tizimida ham o'z o'rniga ega bo'lgan. Rus va Yevropa manbalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, Xiva xonlari tomonidan yuborilgan sovg'alar – qilich, xanjar, egar-jabduqlar va boshqa badiiy metall buyumlar nafaqat hunarmandchilik mahoratining yorqin namunasi, balki xonlikning tashqi siyosiy madaniyati va diplomatik muloqot vositasi sifatida ham xizmat qilgan.

Manbalar tahlili shuni anglatadiki, ushbu hunarmandchilik yo'nalishlari muayyan shaharlar – Xiva, Urganch, Hazorasp, Vazir kabi markazlarda joylashgan va u yerda maxsus ustaxonalar faoliyat yuritgan. Qurolsozlik sohasidagi maxsuslashgan ustalar nafaqat qurol-aslaha tayyorlash, balki ularni zar va kumush bilan bezash sohasida ham yetarlicha tajribaga ega bo'lishgan. Bu esa ushbu sohaning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy qadriyatlar tizimida ham muhim o'rin tutayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Xiva xonligida metallsozlik hunarmandchiligi institutsional asoslarga ega bo'lib, muayyan an'analar, estetik mezonlar va iqtisodiy munosabatlar asosida shakllangan. Ushbu meros bugungi kunda ham Xorazm hududining tarixiy hunarmandchilik an'analarida o'z ifodasini topgan bo'lib, uning ilmiy o'rganilishi milliy merosni tiklash va qadrlashda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана. –Ташкент, 1988. – С.67–68.
2. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию в 1558–1560 гг.//Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. – М., 1937. – С. 170–176.
3. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию в 1558–1560 гг. – С. 178.
4. МИУТТ. – С.244
5. МИУТТ. – С. 99.
6. Абуль–Гази–Багадур–хан. Родословное древо тюрок. – М.: – Т.: 1966. – С. 23,34,120, 148,153, 157, 162.
7. Зиёев Ҳамид. Ко'rsatilgan adabiyot. – Б.69.; Будагов Л.З. Сравнительный словарь. – Т.І. – С.750.
8. Таърихи аламорои Аббоси.– С.90,119, 370, 377,448,478,795.; Абдуль Гази Багадур–хан. 1966.– С.23,34,120,148,153,157, 162.
9. Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент. Чўлпон, 1992. – Б.179–180.
10. Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент. Чўлпон, 1992.– Б.180.
11. Тураева С. Кўрсатилган асар.–Б.26; Қайдномалар ЎзР ФА ШИ № 2128 1 рақамли қўлёзма 113 120 varaқ; Жавоҳири ал–саное (Ҳунарлар марвариди). Ўз.Р ФА ШИ. № 3377 // 1– рақамли қўлёзма. 96 – varaқ.
12. МИУТТ. ...– С. 334.
13. История Узбекистана в источниках.... 1988. – С.115.



MILLIY XALQ TA'LIMI, ADABIYOT VA SAN'AT RIVOJIDA JADIDLARNING TUTGAN O'RNI

¹Aytmuratova Janilsin Jalgasovna, QQDU "O'zbekiston va
Qoraqalpog'iston tarixi" kafedrasida dotsenti

²Quvatbayeva Charos, QQDU 3-bosqich talabasi

THE ROLE OF THE JADIDS IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL PUBLIC EDUCATION, LITERATURE AND ART

¹Aitmuratova Zhanilsin Zhalgasovna, Associate Professor of
the Department of "History of Uzbekistan and Karakalpakstan",
QQSU

²Kuvatbayeva Charos, 3rd year student, QGSU

РОЛЬ ДЖАДИДОВ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ, ЛИТЕРАТУРЫ И ИСКУССТВА

¹Айтмуратова Жанилсин Жалгасовна, доцент кафедры
"История Узбекистана и Каракалпакстана", ККГУ


²Куватбаева Чарос, студентка 3-курса ККГУ



<https://orcid.org/0000-0001-7301-9763>

e-mail:

aytmuratova88.88@mail.ru



Annotatsiya: Maqolada jadidlar harakatining ma'naviy-ma'rifiy asoslari va ularning bugungi kun jamiyatidagi dolzarbligi keng yoritilgan. Jadidlar faoliyati xalqning ilimga, ma'rifatga, adolatga, ijtimoiy xulqqa bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularning g'oyalari milliy tiklanish va ma'naviy yuksalishda asosiy omil sifatida qaralgan. Xalq ta'limi, adabiyot va san'at rivojini mustahkamlash kabi masalalarga bo'lgan e'tibor bugungi kun uchun ham muhim ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: jadidlar, ma'naviyat, ma'rifat, yoshlar, islohotlar, tarbiya, ilm.

Abstract: The article extensively covers the spiritual and educational foundations of the Jadid movement and their relevance in modern society. The activities of the Jadids were considered as a change in the people's attitude towards science, enlightenment, justice, social behavior, their ideas were considered as the main factor of national revival and spiritual upliftment. emphasizes that attention to such issues as strengthening the development of public education, literature and art is important today.

Keywords: jadids, spirituality, enlightenment, youth, reforms, upbringing, science.

Аннотация: В статье широко освещены духовно-просветительские основы движения джадидов и их актуальность в современном обществе. Деятельность джадидов рассматривалась как изменение отношения народа к науке, просвещению, справедливости, социальному поведению, их идеи рассматривались как основной фактор национального возрождения и духовного подъема. Подчеркивается, что внимание к таким вопросам, как укрепление развития народного образования, литературы и искусства, важно и сегодня.

Ключевые слова: джадиды, духовность, просвещение, молодежь, реформы, воспитание, наука.

KIRISH VA DOLZARBLIGI. XIX asrning 60-80-yillarida Turkiston o'lkasi Podsho Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng, ta'lim sohasidagi inqiroz yanada chuqurlashdi. Turkiston o'lkasidagi barcha masjid, madrasalar maxsus tayyorlangan kishilar tomonidan nazorat ostiga olindi. Ko'plab

masjid, madrasalar ish yuritish qobiliyatidan mahrum etilib, yopib tashlandi. Podsho hukumati o'lkamizdagi eski maktab, madrasalarga qarshi har xil kurash usullaridan mohirona foydalana boshladi. 1890-yillardan boshlab masjid madrasalarni nazorat qilib borish uchun maxsus inspektor lavozimlari joriy

etilgan bo'lsa, 1896-yildan boshlab maktab madrasalardagi ta'lim-tarbiya ishlari shahar hokimlari tomonidan nazorat qilib boriladigan bo'ldi. Toshkentning ilg'or fikrli odamlari o'lkada o'zgarish va isloh qilishning yagona yo'li, bu ta'lim sohasini isloh qilish deb tushunadi. 1884-yil 19-dekabrda o'z qarashlari bilan tanilgan Toshkentlik savdogar Saydazimboyning uyida mahalliy xalq vakillari bolalari uchun dastlabki rus-tuzem maktabi ochildi. 1886-yilga kelib bunday rus-tuzem maktablarining soni Turkiston o'lkasida 14 taga yetgan bo'lsa¹, 1891-yilga kelib Turkiston o'lkasidagi bunday rus-tuzem maktablarining soni 89ga yetdi. Rus-tuzem maktablarida o'qish muddati 4 yil bo'lib, mahalliy xalq bolalari rus tili, matematika, rus qonunlaridan ta'lim olgan. Biroq Podsho Rossiyasining o'lkada rus-tuzem maktablarini ochib, mahalliy xalqning bolalarini rus tiliga o'rgatishga bo'lgan urinishlari o'z kutgan natijalarini bera olmadi. "Turkistonda rus-tuzem maktablarini ochib, undan ko'zlangan maqsadlarga erisha olmadi. Boshqa nodavlat maktablarning paydo bo'lishi tuzemchilarning keng ko'lamda ish yuritishiga to'sqinlik qildi".

METODLAR VA O'RGANILISH

DARAJASI. Jadidlar o'zlarining siyosiy an'analarini mashhur qrim-tatar siyosiy arbobi Ismoilbek Gaspirali dan oladilar. Ismoilbek zodagonlar oilasidan chiqqan bo'lib (1851-1914) Qrimda musulmon diniy maktabida, Moskvada harbiy bilim yurtida ta'lim oladi. Uning rahbarligida 20 yil davomida "Tarjimon" jurnali nashr etiladi. Ismoil Gaspiralinining "Tarjimon" jurnali Turkistonda jadidchilik harakati va maktablarining ochilishiga turtki bo'ldi. Turkistonda dastlabki jadid maktabi 1886-yilda To'raqo'rg'on (hozirgi Namangan viloyati)da, 1862-1937-yillar oralig'ida yashagan, Is'hoqxonto'ra Ibrat rahbarligida ochildi. Jadidlar an'anasi maktablarni isloh qilishga qaratilgan edi. 1892-yilda I.Gaspirali musulmon maktablarini isloh qilish loyihasini Turkiston general-gubernatori Rozenbaxga yuboradi va qoniqarsiz javob oladi.

1893-yili I.Gaspirali Buxoroga kelib, Buxoro amiri Abdulla bilan uchrashib yangi usul maktabini ochishni taklif qiladi. I.Gaspiralinining sa'y-harakatlari natijasida Buxoro amiri jadid maktablari ochishga ruxsat beradi. 1898-yili Qo'qonda Salohuddin boshchiligidagi ikkinchi jadid maktabi ochildi. 1899-yilgacha Andijonda Shamsiddin domla rahbarligida

jadidchilik maktabi ochilgan bo'lsa, 1901-yilda Toshkentda Munavvarqori rahbarligida, o'sha yili 1875-1943-yillar oralig'ida yashagan Abduqodir Shakuriy Samarqandda jadid maktablarini ochdi.

Al-Xorazmiyning "Al-Jabr" asari ilm-fan tarixida qanday buyuk kashfiyot bo'lgan bo'lsa, jadid maktablari musulmon dunyosi ta'limida ulkan yangilik bo'ldi. Ta'lim-tarbiya, maktab va maorif hamda madaniyat rivojida katta turtki bo'ldi. Eski maktablarda bolalar 5-6 yilda savod chiqargan bo'lsa, jadid maktablarida o'rtacha bir yilda savodli o'qish va yozish imkoniyatiga ega bo'lgan. Uch bosqichli jadid maktablari paydo bo'ldi. Boshlang'ich ta'lim (to'rt yillik), O'rta ta'lim (yetti yillik) va oliy o'quv yurtidan iborat uch bosqichli ta'lim tizimi paydo bo'ldi. 1903-yillarga kelib Turkistonning turli joylarida 100ga yaqin har xil jadid maktablari ochildi. Jadid maktablari oyiga bir so'mdan, bir yarim so'mgacha to'lovli bo'lsa-da, bu maktabda o'quvchilarning 30-35 foizi kam ta'minlangan oila farzandlari bo'lib, ular bepul o'qitilgan.

TADQIQOT NATIJALARI.

Jadid maktablari Turkistonda 15-20 yil ichida sezilarli darajada rivojlandi. Yangi usul jadid maktablarida diniy ta'limotlar bilan birga matematika, geografiya, tabiatshunoslik va boshqa dunyoviy fanlar o'qitilar edi. Ammo har qanday yangi harakat va yangiliklarga tish-tirnog'i bilan qarshi turadigan dindorlar bilan amirlik saltanati yangi usul maktablarining harakatiga qarshi chiqdi. Turkiston viloyati gazetasida "Tarjimon"ni o'qisangiz "kofir" bo'lasiz degan maqolalar e'lon qilindi. 1914-yili Ulug'bek madrasasi ichidagi Jome masjidiga yig'ilgan 5-6 ming musulmonga muazzin tomonidan jadidlarni va ruscha o'qishga da'vat qilganlarning kofir ekanligi va kimda-kim, bolasini usuli jadid maktabiga bersa, o'zi kofir, xotini taloq bo'lishini e'lon qildi. Lekin shunga qaramay Turkistonda jadid maktablarining soni ko'payib bordi va jamoatchilik e'tiborini o'ziga torta oldi. 1914-yil 9-14-may oralig'ida Toshkent shahrida o'lka o'qituvchilarining I qurultoyi o'tkazilib, unda kun tartibiga Turkiston o'lkasi xalqlari uchun eng muhim bo'lgan rus-tuzem maktablari bo'yicha masala kiritildi. Qurultoyda Turkiston o'lkasi delegatsiyasi rahbari Munavvarqori Abdurashidxonov Turkistonda maktab ishlarini isloh qilish bo'yicha ma'ruza qildi. Qizg'in bahs-munozaralardan so'ng, Turkistonda milliy maktablarni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu qarorga ko'ra shu davrgacha mavjud

¹ Улуғбек Долимов. Туркистонда жади́д мактаблари, Тошкент, Университет, 2006 10-бет.

bo'lgan rus-tuzem maktablari milliy maktablarga aylantirilishi lozim edi; Boshlang'ich, o'rta va oliy ta'limga bo'linadigan maktablarda ta'lim ona tilida olib borilishi kerak; boshlang'ich ta'lim umumiy, majburiy, bepul 6 yoshdan bo'lishi, shu bilan birga maktab uchun davlat g'aznasidan, mahalliy tashkilotlar va shahar boshqarmalaridan mablag' "yangi usul" maktablari uchun ajratilishi lozim deb ko'rsatildi. Jadid maktablari uchun o'quv qo'llanmalari yozish yaxshi yo'lga qo'yildi. Jadid maktablarini o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashda A.Avloniy (1878-1934)ning hissasi juda katta. A.Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentda dunyoga keladi. Avloniy asrimiz boshida o'lkamizda avj olgan jadidchilik harakatining faollaridan. U 1907-yilda o'z mahallasida jadid maktabini ochadi. Shu yili o'z uyida "Shuhrat" nomli gazetani nashr etadi. A.Avloniy jadid maktablari uchun to'rt bo'limdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rilar", "Birinchi Muallim", "Ikkinchi Muallim", "Maktab gulistoni", "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi o'quv qo'llanmalarini yozdi. Turkistonda ilm-fan va ta'limni targ'ib qilish va rivojlantirishda Munavvarqori Abdurashidxonovning hissasi juda katta. Munavvarqori 1878-1931-yillar oralig'ida yashagan. 1901-yili o'z hovlisida jadidchilik maktabini ochadi. Bu jadid maktablari uchun "Adibi avval", "Adibi soniy", kabi alifbo va xrestomatiyalar, "Yer yuzi" deb nomlangan o'quv qo'llanmalarini yozadi².

Jadid maktablari uchun o'quv qo'llanmalarini yaratgan (1875-1919-yillar oralig'ida yashagan) M.Behbudiylar hisoblanadi. Behbudiylar dunyoqarashining rivojlanishida jadidchilik harakatining asoschisi I.Gasprinskiyning xizmati g'oyat katta. Behbudiylar 1900-yilda haj safarida bo'lib, bu haj safari uning yangi usul maktablariga bo'lgan qarashini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi bilan Samarqand atrofidagi qishloqlarda jadid maktablari ochiladi. Jadid maktablari uchun Behbudiylar "Risolayi asbobi sovod", "Risolayi jug'rofiya umoniy", "Risolayi Rusiy", "Kitobat ul atfol", "Tarixi islom" kabi darsliklarni yozadi.

Jadid maktablari uchun o'quv qo'llanmalar 1901-yilda Is'hoqxon Ibrat tomonidan "Lug'ati sittal-sina" asari nashr etiladi. Ushbu lug'at jadid maktablarida sharq va rus tillarini o'rganish uchun yagona qo'llanma hisoblangan. Abdiqodir Shakuriyning "Ruhnomoiy sovod" (Savod chiqarish qo'llanmasi) jadid maktablarida o'quv qo'llanma

sifatida keng qo'llanib kelingan. Sovet davrida jadidlarning qo'lga kiritgan yirik yutuqlaridan biri, hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetiga asos solingani bo'ldi. Bu universitet 1918-yil 12-mayda jadidchilik harakatining otasi Munavvarqori Abdurashidxonov tashabbusi bilan tashkil topdi. Jadidlar birinchi navbatda aholining savodini chiqarish va jahon talablari darajasida ma'rifatli bo'lishiga harakat qildilar. Jadidlar matbuot va ta'limni rivojlantirish orqali xalqning ko'zini ochishga harakat qildi. 1905-yilning oxirida jadidlar tomonidan "O'rta Osiyoning umr gulzori" nomli gazeta chiqarilib, unda maktab islohotlariga va boshqa turmush masalalariga oid maqolalar chop etildi. Biroq bu gazeta ikki oydan so'ng podsho Rossiyasi tomonidan o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi. 1906-yilda Ismoil Obidov rahbarligida jadidlarning "Taraqqiy" gazetasi nashr etildi. Mazkur gazetada ta'lim sohasida islohotlar o'tkazish bilan bog'liq fikrlar, o'lkaning siyosiy-ma'muriy tizimini tanqid qilish va musulmonlar birligini ta'minlashni o'z ichiga olgan maqolalar chop etildi. Shuning uchun ham gazeta ko'p vaqt o'tmay, hukumat tomonidan gazetaning nashrdan chiqarilishi ta'qiqlandi. 1906-yil sentyabrda "Xurshid" (quyosh) gazetasi nashrdan chiqib boshlab, unda ehtiyotkorlik bilan podsho hukumatining siyosiy boshqaruv tizimi tanqid qilindi va xalqning siyosiy ongini uyg'otuvchi maqolalar chiqarila boshladi. 1908-yilda "Shuhrat" nomli jadid gazetasi nashrdan chiqarildi. Unda chop etilgan, M.Behbudiylar maqolalaridan birida mahalliy xalq vakillaridan muhandislar, huquqshunoslar, shifokorlar, iqtisodchilar tayyorlash uchun yoshlarni chet ellarga yuborib, o'qitish lozimligi ko'rsatildi. Shuning bilan birga gazetada siyosiy hayotga oid maqolalar ham e'lon qilib borildi. Bu gazetalar ko'p vaqt o'tmay podsho hukumati tomonidan yopildi.

XULOSALAR. Sovet hukumati gazetalarni birin-ketin yopib, jadidlarning ma'rifatparvarlik harakatiga to'sqinlik qila boshladi. Biroq jadidlarga qarab qolmasdan, 1913-1915-yillar orasida "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Jonli til", "Buxoroi Sharif" va "Turon" nomli gazetalarni hamda "Al-isloh" va "Oyna" jurnallarini nashr etdi. Jadidlar matbuotining tarixiga keladigan bo'lsak, 1905-yil 17-oktyabrda Rossiyada yuz bergan to'ntarishlar sababli, podsho hukumati Manifest e'lon qilib, unda xalqqa ma'lum darajada konstitutsion erkinliklar berishga majbur bo'ldi. Jadidlar bu

² Алимова Д.А. История как история, история как наука. – Ташкент, Узбекистан, 2009. 12 с.

imkoniyatdan ustalik bilan foydalandilar. Qator madaniy tashkilotlar tuzildi. Gazeta-jurnallar chop etildi. Bularning biri 1906-yilning 27-iyunida nashr etilgan “Taraqqiy” gazetasi edi. Bu sana bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida matbuot kuni sifatida e‘lon qilindi. Bu gazeta o‘z davrida katta obro‘ga ega bo‘ldi deb yozadi A.Avloniy, hatto gazetani chiqargan Ismoil Obidovga “Taraqqiy” nomi berildi. Gazetada mahalliy yoshlarga o‘z sahifalaridan keng o‘rin ajratildi. 1906-yil sentyabrda Munavvarqori rahbarligida jadidlarning ikkinchi gazetasi bo‘lgan “Xurshid” gazetasi nashr etildi. 1907-yil 1-dekabrda boshlab jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan vakili Abdulla Avloniy o‘z uyida “Xurshid” gazetasini chiqara boshladi.

Bu uch gazeta o‘z davrida Turkistonda eng e‘tiborli gazetalardan hisoblanardi. Shuningdek, Toshkentda 1907-yilda Saidazimboy rahbarligida “Tujjor” gazetasi, 1908-yilda Ahmadjon Bektemirov rahbarligida “Osiyo” gazetalari nashr etildi. Samarqandda M.Behbudiy 1913-yilda “Samarqand” gazetasini va 1913-1915-yillar oralig‘ida “Oyna” jurnalini nashr etishda faollik ko‘rsatdi. Toshkentda 1910-yillarda “Sadoi Turkiston” (1914-yilda Ubaydullaxo‘jayev rahbarligida), Farg‘onada “Sadoi Farg‘ona” (1914-yilda Obidjon Mahmudov rahbarligida), Buxoroda “Turon” (1913 y.) gazetasi, “Al-isloh” (Toshkentda 1915-1918-yillarda) jurnali Abdurahmon Sayyoh rahbarligida nashr etildi. Toshkentda “Sadoi Turkiston” gazetasiga Munavvarqori (1978-1931), A.Avloniy (1878-1934), Tavvallo (1882-1939), Mirmulla (1886-1923), A.Qodiriylar (1894-1938) o‘z maqolalari bilan qatnashdi. 1910-yillarning boshida Turkistonda yangi adabiyot paydo bo‘la boshladi. Bu borada 1901-yili nashrdan chiqqan. Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi Soniy”, Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval”, Abdulla Avloniyning “Birinch Muallim”, “Ikkinchi Muallim” asarlarining nashr etilishi ma’rifiy ishlar rivojida katta rol o‘ynadi. Toshkentda Munavvarqori “Najot”, A.Battol “Sho‘roi islom”, A.Avloniy “Turon”, Ahmad Zaki Validiy “Kengash”, Kabir Bakir “Ulug‘ Turkiston”, T.Xudoyorxonov “Turk so‘zi”, Muxtor Bakir “Xalq dorilfununi”, Samarqandda “Hurriyat”, (Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shohmansur, Abdurauf Fitrat), Qo‘qonda, “El bayrog‘i”, Po‘lat Soliyev, Namanganda, “Farg‘ona nidosi” (Husain Makayev), Ashurali Zohiriy (“Yurt”), Mahmudxo‘ja Rizoii (“Hurriyat”), “Chayon” (H.Tulakov, I.Tohiriy), “Ishchilar dunyosi”, “Izhoril haq” (Sadriddinxo‘ja ibn Shorifxo‘ja Eshon) kabi ko‘plab gazeta va jurnallar

nihoyatda ko‘p bo‘ldi. 1918-yildan boshlab sotsialistik bosmaxona ishga tusha boshladi, uning dastlabki gazetasi 20-iyundan boshlab “Ishtirokiyun” (Sotsialist) O.Klebleev, A.Avloniy, N.To‘raqulov, A.Donskiylar rahbarligida nashrdan chiqdi. Bu gazeta 1920-yil 19-dekabrda boshlab “Qizil bayrog‘”, 1922-yil 13-sentyabrda boshlab “Turkiston” nomlari bilan nashrdan chiqishni davom ettirdi. “Maorif” (1918-yil Toshkent), “Bolalar yo‘ldoshi” (1919-yil Samarqand), “Tong” (1920-yil Buxoro), “Qizil tikon” (1920-yil Namangan), “Qizil yo‘l” (1920-yil Toshkent) kabi qisqa umrli jurnallar chop etildi. 1918-yil Toshkentda A.Fitrat tashabbusi bilan “Chig‘atoy gurungi” deb nomlangan adabiy-madaniy tashkilot paydo bo‘ldi va Cho‘lpon, Botu, Elbek, G‘ulom Zafariy kabi fan va madaniyatimiz namoyandalarini o‘z atrofiga to‘pladi. Atigi bir yarim yil faoliyat ko‘rsatgan bu tashkilot, jamiyat, til qoidalarini ishlab chiqishda, adabiyot tarixini o‘rganish, teatrchilikni rivojlantirishda katta tadbirlarni amalga oshirdi. Biroq bunday milliy-madaniy tiklanish yo‘llari yopilib bordi. Madaniy, ma’rifiy hayot asta-sekin siyosat tizimiga tushib qoldi. Jadidlar o‘zlarining ma’rifiy va siyosiy harakatlarini matbuot orqali keng yoydilar. Jadidlar tomonidan tarixda birinchi marta zamonaviy milliy matbuot va bosmaxonaga asos solindi. Milliy o‘zlikni anglash, milliy ruh va ongning paydo bo‘lishida, milliy ozodlik kurashi va mustaqillik g‘oyasini shakllantirishda matbaalarning hissasi g‘oyat yuqori bo‘ldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qosimov, B. Milliy Uyg‘onish. –T.: 2002.
2. Sharipov, R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. –Toshkent: 2002. –B. 9-10.
3. Alimova, N. Chor Rossiyasining Turkistonda olib borgan siyosati. (1867-1917 -yillar). Tarix fan. nomzodi dissertatsiya. –T.: 2004. –B. 27-28.
4. Алимова Д.А. История как история, история как наука – Ташкент: Узбекистан, 2009.
5. Munavvarqori Abdurashidxonov. Xotiralarimdan. –T.: 2001. –B. 8-9.
6. Dominov, U. Is’hoqxon Ibrat T: Sharq, 1994. Ulug‘bek Dolimov. Turkistonda jadid maktablari, Toshkent: Universitet, 2006.
7. Jadidchilik: Islohot, yangilash, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Davriy to‘plam) T.: Sharq, 1999.
8. Jalolov, A. O‘zganboyev, X. O‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o‘rni. T.: Fan, 1993.

DISCURSIVE FORMULAS AS A COMPONENT OF ACADEMIC DISCOURSE


*Bektemirova Beknozakhon Baxtiyorjon kizi, Fergana State
University, basic doctorant*

DISKURSIV FORMULARLAR AKADEMIK DISKURS KOMPONENTI SIFATIDA

*Bektemirova Beknozaxon Baxtiyorjon qizi, Farg'ona davlat
universiteti tayanch doktoranti*

ДИСКУРСИВНЫЕ ФОРМУЛЫ КАК КОМПОНЕНТ АКАДЕМИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

*Бектемирова Бекнозахон Бахтиёржон кызы, базовый
докторант Ферганского государственного университета*



<https://orcid.org/0009-0001-0869-8146>

e-mail:
beknozabektemirova@gmail.com

Abstract: This article explores the nature, functions, and significance of discursive formulas in academic writing, with a focus on comparing their usage in English and Uzbek academic articles. The study highlights the similarities and differences shaped by linguistic norms and rhetorical traditions.

Kew words: academic discourse, discursive formulas, scientific writing, intercultural comparison, phraseology, contrastive linguistics, institutional discourse.

Annotatsiya: Ushbu maqolada akademik yozuvdagi diskursiv formulalarning tabiati, vazifalari va ahamiyati tahlil qilinadi. Ayniqsa, ingliz va o'zbek tilidagi ilmiy maqolalarda ularning qo'llanishi solishtiriladi. Tadqiqot til me'yorlari va ritorik an'analar tomonidan shakllangan o'xshashlik va farqlarni yoritadi.

Kalit so'zlar: akademik diskurs, diskursiv formulalar, ilmiy yozuv, madaniyatlararo taqqoslash, frazeologiya, chog'ishtirma tilshunoslik, institutsional diskurs.

Аннотация: В данной статье рассматриваются природа, функции и значение дискурсивных формул в научном письме, с акцентом на их употребление в английских и узбекских научных статьях. Исследование выявляет сходства и различия, обусловленные языковыми особенностями и риторическими традициями.

Ключевые слова: академический дискурс, дискурсивные формулы, научное письмо, межкультурное сопоставление, фразеология, сопоставительное языкознание, институциональный дискурс.

INTRODUCTION. Academic discourse has caught the attention of researchers especially since it helps the work of researchers reach out to others at an international level. Furthermore, difficult process of both international and scientific education, social interactions in an academic setting has made academic discourse be researched more prominent. In this type of discourse, it must be noted that discursive formulas play a key role in maintaining logical coherence and accuracy of the text.

The development of discourse as a linguistic phenomenon and its influence on cross-cultural

setting and cross-disciplines are considered in our research as basics. Since the full definition of discursive formulas have not been developed yet, in this article discursive formulas are analyzed as a part of institutional discourse.

Academic discourse can be defined as a complex of texts and speeches in science for transfer of knowledge, argumentation and discussion of scientific problems [1]. Furthermore, academic discourse encompasses all contexts of academic activity which are formed under the influence of the values of cultures and the expectations of communicants in different situations. This means

academic discourse reflects logic and specific features of particular society [7]. Accordingly, academic discourse of different languages has particular features which are specific to per language.

It is common-knowledge that any institutional discourse includes components such as aim, participants, chronotope, values, strategies, tematics, genres, precedent texts and discursive formulas [8]. Discursive formulas stay more unclear than other above-mentioned components. These formulas include phrases like “It is widely believed that...”, “The purpose of this study is to...”, and “The results suggest that...” Such formulas are not only grammatical constructions but also carry pragmatic and rhetorical significance. This paper investigates the role of discursive formulas in academic discourse, examining their structural, functional, and cross-cultural characteristics, particularly in English and Uzbek academic writing.

MATERIALS AND METHODS. The concept of discursive formulas intersects with several linguistic frameworks, including phraseology, discourse analysis, and genre studies. Sinclair emphasized the formulaic nature of academic language, noting that fixed expressions contribute to cohesion and fluency [5]. Hyland analyzed the interpersonal and metadiscursive functions of recurrent phrases [2], while Biber et al. highlighted their distribution across spoken and written registers [1].

In the context of academic discourse, these formulas help writers manage stance, hedging, engagement, and textual organization.

Studies in intercultural rhetoric have shown that the use of discursive formulas varies across linguistic and cultural communities [3]. Uzbek academic discourse, for instance, reflects a more formal, hierarchical, and impersonal tone, consistent with Soviet-era scholarly traditions. Comparative studies are still limited, but a growing interest in localizing academic writing practices has increased attention to discursive conventions in Uzbek-language texts.

This study relies on a corpus-based and contrastive approach, analyzing academic articles in English and Uzbek from the fields of linguistics and education. The English corpus includes peer-reviewed journal articles from international publications, while the Uzbek corpus is composed

of academic journal articles from national universities.

Discursive formulas were identified and categorized into four functional groups: introductory, argumentative, referential, and concluding. The analysis focused on frequency, structure, and rhetorical effect

RESULTS AND DISCUSSION. ***Functional Roles in English Academic Discourse.***

In English academic texts, discursive formulas are used explicitly and frequently:

Introductory formulas: “This study investigates...”, “The aim of this paper is to...”, “This paper analyzes”.

Argumentative formulas: “It can be argued that...”, “This evidence supports the claim that...”

Referential formulas: “According to Wray (2012)...”, “Several scholars have noted...”

Concluding formulas: “In conclusion...”, “The findings reveal that...”, “It was found out that”.

These formulas guide the reader clearly through the logic and structure of the argument. They are often reader-friendly, metadiscursive, and hedged to maintain objectivity.

Uzbek academic texts also use discursive formulas but with some key differences in structure and rhetorical strategy:

Introductory formulas: “Mazkur maqolada... ko‘rib chiqiladi” (In this article... is examined), “Ushbu maqolada ... ochib beriladi” (In this article ... is discussed), “Tadqiqotdan maqsad...” (The aim of the research is...)

Argumentative formulas: “Shuni ta’kidlash joizki...” (It is worth noting that...), “Demak, bu holat...” (Thus, this case...)

Referential formulas: “Tadqiqotchilarning fikricha...” (According to researchers...), “Ilmiy manbalarda qayd etilishicha...” (As noted in scientific sources...)

Concluding formulas: “Xulosa qilib aytganda...” (In conclusion...), “Shu asosida quyidagi natijalarga erishildi...” (Based on this, the following results were achieved...), “Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ...” (The results show that ...)

Uzbek academic discourse tends to be more formal and less interactive. There is less direct engagement with the reader, and stance markers (such as hedging) are less common. The use of

impersonal constructions and generalized attributions reflects a traditional academic style.

Key Differences and Implications. Feature English Academic Discourse Uzbek Academic Discourse.

Reader engagement: frequent use of metadiscourse (English academic discourse); minimal reader engagement (Uzbek academic discourse).

Hedging/Stance: common (e.g., “It appears that...”); rare, statements are more direct.

Referential Formulas: specific and source-based; often generalized (“ilmiy manbalar”).

Verb Forms: active and passive balanced; more frequent use of passive voice.

Cultural Rhetoric Style: dialogic, structured around reader, monologic, structured around content.

These differences underscore the need for genre awareness and rhetorical sensitivity in cross-cultural academic communication. Writers transitioning between English and Uzbek academic traditions must adapt to the expectations of each discourse community.

CONCLUSION. Discursive formulas are vital elements of academic discourse, serving to organize, clarify, and legitimize scholarly communication. This study demonstrates that while both English and Uzbek academic texts employ such formulas, their use reflects distinct rhetorical conventions. English academic writing emphasizes clarity, interactivity, and writer stance, whereas Uzbek texts prioritize formal presentation and impersonal tone.

Recognizing these differences is important for bilingual scholars, translators, and academic writing instructors. Future research may focus on developing discipline-specific Uzbek academic writing guidelines and integrating contrastive rhetorical training into academic writing programs.

REFERENCES:

1. Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S., & Finegan, E. (1999). Longman Grammar of Spoken and Written English. Pearson Education.
2. Hyland, K. (2005). Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing. Continuum.
3. Mauranen, A. (1993). Cultural Differences in Academic Rhetoric: A Textlinguistic Study. Peter Lang.
4. Najmiddinova M.M. Academic discourse: interpretation of the concept in linguistic research. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) Vol 3, Issue 15, 2023. B. 37-45.
5. Sinclair, J. (1991). Corpus, Concordance, Collocation. Oxford University Press.
6. Tursunov, U. (2021). Ilmiy uslub va matn strukturasining lingvistik xususiyatlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
7. Хутыз И.П. Фактор адресата в письменном академическом дискурсе // Коммуникативные исследования. 2023. Т. 10. № 1. с. 146–162. DOI: 10.24147/2413-6182.2023.10(1).146-162.
8. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена, 2002. 240 с.



QIRG'IZ TEMIR YO'LI TASHKILOTI VA UNING FAOLIYATI TARIXI

Radjabov Ozodbek, O'zbekiston Milliy universiteti, (DSc)

THE HISTORY OF THE KYRGYZ RAILWAY ORGANIZATION AND ITS ACTIVITIES

*Radjabov Ozodbek, Associate Professor National
University of Uzbekistan, doctor of History*

ИСТОРИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ КЫРГЫЗСТАНА И ЕЁ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Раджабов Озодбек, доцент НУУз, доктор
исторических наук*



<https://orcid.org/0000-0003-0076-5289>

e-mail:

ozodbek.radjabov.1994@inbox.ru



Annotatsiya: Mazkur maqolada Qirg'iz Respublikasida temir yo'l tizimining shakllanishi, uning mustaqillikdan keyingi rivojlanish bosqichlari hamda "Qirg'iz Temir Jolu" davlat korxonasining faoliyati tarixiy nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Sovet davrida qurilgan temir yo'l liniyalari, ularning respublika iqtisodiyotidagi o'rni va mustaqillikdan keyingi modernizatsiya jarayonlari yoritiladi. Ayniqsa, yuk va yo'lovchi tashishda duch kelgan muammolar, xalqaro tranzit imkoniyatlari, transport infratuzilmasining holati va mintaqaviy integratsiyadagi o'rni ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Maqola rasmiy hujjatlar, tahliliy hisobotlar va xalqaro tashkilotlar materiallariga asoslanadi.

Kalit so'zlar: Qirg'iziston, temir yo'l, transport tizimi, islohotlar, infratuzilma, tranzit, integratsiya, iqtisodiyot, tarix, rivojlanish.

Abstract: This article explores the formation and development of the railway system in the Kyrgyz Republic, focusing on the historical evolution and current activities of the state-owned enterprise "Kyrgyz Temir Jolu." It covers the Soviet-era railway construction, its economic significance, and post-independence modernization efforts. The study is based on official documents, analytical reports, and materials from international organizations.

Keywords: Kyrgyzstan, railway, transport system, reforms, infrastructure, transit, integration, economy, history, development.

Аннотация: В статье рассматривается формирование железнодорожной системы в Кыргызской Республике, а также деятельность государственного предприятия "Кыргыз темір жолу" в постсоветский период. Анализируются исторические этапы развития, начиная с советского времени, роль железных дорог в экономике страны и процессы модернизации после обретения независимости. Основу исследования составляют официальные документы, аналитические отчёты и материалы международных организаций.

Ключевые слова: Кыргызстан, железная дорога, транспорт, реформы, инфраструктура, транзит, интеграция, экономика, история, развитие.

KIRISH. “1992-yil 28-oktabrda Qirg‘iziston Respublikasi Prezidentining K303 Farmoniga asosan Olmaota temir yo‘l liniyasining Qirg‘iziston Respublikasi hududidan o‘tuvchi 3-Frunze bo‘limi negizida “Qirg‘iziston temir yo‘li boshqarmasi” tashkil etildi”[1].

1992-yildagi “Qirg‘iziston temir yo‘li boshqarmasi” tashkil etilishi, Qirg‘iziston temir yo‘l tizimining mustaqil rivojlanishi va modernizatsiya jarayonidagi muhim bosqich bo‘ldi. Bu qaror temir yo‘l tizimini davlat boshqaruvidan mustaqil boshqaruvga o‘tkazish, transport infratuzilmasini rivojlantirish va mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam berdi. Qirg‘izistonning transport tizimi bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar, mamlakatning xalqaro savdo va tranzitdagi o‘rni kuchaytirishga xizmat qildi. “1994-yilda Markaziy Osiyo Respublikalari tomonidan sobiq O‘rta Osiyo temir yo‘li tashkilotini bo‘lib olish jarayoni to‘liq yakunlandi, joriy tashkilot negizida mustaqillikka erishgan yangi davlatlarning temir yo‘l boshqarmalari shakllantirildi. Shu munosabat bilan Qirg‘iziston Respublikasida ham “Qirg‘iz temir yo‘lu” (KTJ) tuzildi”[2].

“Qirg‘iz temir yo‘lu” (KTJ) tashkil etilishi, Qirg‘izistonning temir yo‘l tizimini mustaqil boshqarish imkoniyatini yaratdi va mintaqaviy transport aloqalarini rivojlantirish, iqtisodiy o‘rishni qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro aloqalarni mustahkamlashda muhim bosqich bo‘ldi. Shu bilan birga, temir yo‘l tizimining milliy lashtirilishi, Sovet davridan qolgan muammolarni hal etishga, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xalqaro tizimga integratsiya qilishga xizmat qildi. Bu jarayon, mustaqillikni mustahkamlash, iqtisodiy rivojlanish va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratdi. “Qirg‘iz temir yo‘li” tashkiloti Qirg‘iziston Respublikasi transport kompleksidagi vakolatli davlat organi sifatida temir yo‘l transporti sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi, temir yo‘l transporti faoliyatini muvofiqlashtiradi, tartibga soladi va nazorat qiladi.

TADQIQOT USULLARI VA ADABIYOTLAR TAHLILI. Maqolani yozishda asosiy metodologik yondashuvlar sifatida obyektiv-tarixiy, tarixiy-qiyosiy va mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI. Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchisining 2005-yil 24-maydagi X 187-sonli Farmoni bilan

“Qirg‘iz temir yo‘li” direksiyasi (UKJD) “Qirg‘iziston temir yo‘li” milliy kompaniyasi” davlat korxonasi deb qayta nomlandi[3]. “Tashkilot 2005-yil 19-iyuldagi Qirg‘iziston Respublikasi Hukumatining 301-sonli qarori bilan Qirg‘iziston Respublikasi Transport va kommunikatsiyalar vazirligi tasarrufiga o‘tkazildi”[4].

2005-yilda Qirg‘izistonda temir yo‘l tizimining qayta tashkil etilishi, birinchi navbatda, uning samaradorligini oshirishga, resurslarni to‘g‘ri taqsimlashga va davlat nazoratini kuchaytirishga qaratilgan edi. “Qirg‘iz temir yo‘li” Direksiyasi (UKJD) davlat korxonasi sifatida qayta tashkil etildi va bu davlat tomonidan to‘liq boshqariladigan tuzilma bo‘ldi. Yangi nomlanish davlatning temir yo‘l tizimi ustidan nazoratini yanada mustahkamlashga va uning rivojlanishini boshqarish uchun zarur bo‘lgan yangi struktura yaratishga imkon berdi. Tashkilot tarkibida Lokomotiv xo‘jaligi, ko‘priklar otryadi, yo‘l xo‘jaligi boshqarmasi, elektr energiyasi ta‘minoti, signalizatsiya va aloqa bo‘limi, texnik va moddiy ta‘minot boshqarmasi, vagon xo‘jaligi boshqarmasi, yuk qatnovi va logistika bo‘limi, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish boshqarmasi, hisob bo‘limi axborotlarini yuritish, temir yo‘l obyektlari va tashiladigan yuklarni harbiylashtirilgan himoya qilishni ta‘minlash bo‘limi, “Qirg‘iz temir yo‘li” milliy kompaniyasining janubiy filiali kabi tarkibiy tuzilmalar faoliyat ko‘rsatadi[5].

“Qirg‘iz temir yo‘li” milliy kompaniyasi davlat tasarrufiga o‘tganligi sababli, davlat tomonidan regulyatsiya qilinadi va bu transport tizimining xavfsizligi, samaradorligi va rivojlanishini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Davlatning nazorat va qo‘llab-quvvatlash siyosati temir yo‘l tizimining barqaror ishlashini ta‘minlashga yordam beradi. Qirg‘iz temir yo‘li tashkiloti tarkibidagi vagon deposi 1997-yildan o‘z faoliyatini yurita boshlagan edi. 1997-yil 2-avgustda Belovodsk shahridagi yuk tashuvchi vagonlarni ta‘mirlash zavodi 1-raqamli yuk vagonlari deposi deb qayta nomlandi. 1999-yil 1-iyunda yo‘lovchi tashish vagonlarining 2-deposi tashkil etildi[6].

“Qirg‘iz temir yo‘li” tashkiloti tarkibidagi vagon deposining faoliyati temir yo‘l tizimining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, transportning samaradorligi, xavfsizligi, texnik va iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Vagon deposining tarixiy ahamiyati uning temir yo‘l transportining yaxlit tizimi sifatida ishlashini

ta'minlashdagi roli va iqtisodiy barqarorlikni yaratishda namoyon bo'ladi. Qayd etish lozimki, 2022-yil holatiga ko'ra Vagon deposi nihoyat yuqori texnologiyali ishlab chiqarish obyektiga aylangan, uning asosiy vazifasi yuk va yo'lovchi tashish vagonlari va konteynerlarini ta'mirdan chiqarishdan iborat. Vagon deposida turli modifikatsiyadagi yuk va yo'lovchi vagonlarini, yirik va o'rta tonnajli konteynerlarni mukammal ta'mirlash, eskirgan va foydalanish muddati o'tgan vagonlarni reanimatsiya qilish uchun barcha sharoit yaratilgan.

Qirg'iz temir yo'li tashkiloti tarkibidagi yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish firmasi Qirg'iziston Respublikasi transport va kommunikatsiyalar vazirining 1997-yil 26-maydagi 133-sonli buyrug'iga binoan tashkil etilgan[7]. Ushbu tarkibiy bo'linmada 2022-yil dekabr holatiga ko'ra jami 120 nafar yo'l kuzatuvchi faoliyat yuritgan. Qirg'iz temir yo'li tarkibidagi yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish firmalari temir yo'l tizimining rivojlanishiga, transportning xavfsizligi va sifatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ular nafaqat iqtisodiy foyda, balki mamlakatning madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga ham hissa qo'shdi. Shu bilan birga, ular xalqaro aloqalarni mustahkamlash va transport tarmoqlarining rentabelligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Yo'lning avtomatlashtirilishi va aloqa vositalari bilan jihozlanishi temir yo'llarda zarur o'tkazuvchanlikni ta'minlaydi, tashishlarni boshqarishni tashkil etish, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va poyezdlar harakati xavfsizligini oshirish uchun sharoit yaratadi. Joriy vazifalar bilan aloqa signalizatsiyasi va elektr ta'minoti distansiyasi shug'ullanib keladi. Bishkek elektr ta'minoti distansiyasi 126 ta transformator podstantsiyalariga ega bo'lib, tashkilotda o'rnatilgan quvvat 27370 kVt bo'lib, shundan 10 kVt kuchlanish uchun – 86 birlik, 6 kVt – 40 dona, 3 ta dizel stasionar elektr stantsiyalariga yo'naltiriladi[8]. "Qirg'iz temir yo'li" milliy kompaniyasining janubiy filiali Jalolobod, O'sh, Qashg'ar-qishloq stantsiyalaridan iborat bo'lib, to'liq mexanizatsiyalashgan bo'linma sanaladi. Bo'linma tarkibida tokarlik, motor ta'mirlash, akkumulyator, temirchilik sexi, yuzlab elektr kranlar, yuk qatnovining dizelli ko'makchilari, traktorlar parki mavjud.

Axborot va hisoblash markazi "Qirg'iz temir yo'lu" milliy kompaniyasi tarkibida 1992-yilda tashkil etilgan edi[9]. Bo'lim zimmasiga asosiy faoliyat jarayonida axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatish, mavjud ma'lumotlarni qayta ishlash

tizimlarini modernizatsiya qilish, dasturiy ta'minot va hisoblash texnikasi, avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqish, yetkazib berish va ulardan foydalanish, temir yo'l transportining ekspluatatsion ishini axborot bilan ta'minlashda ilg'or mahalliy va xorijiy operatsion tajriba bilan boyitishga qaratilgan. Bo'lim tarkibida 2021-yil yanvar holatiga ko'ra 206 nafar xodim faoliyat ko'rsatib, ularning 95 nafari texnik-muhandislardan iborat. Bo'lim tashkil qilingan paytdagi rahbari L.N.Kashko "Faxriy temiryo'ldchi" unvoniga sazovor bo'lgan edi.

Tashkilot tarkibidagi muhim bo'limlardan sanalganligi sababli Axborot va hisoblash markazida 1995-yildan boshlab "Ekspress" (Tezkor) sho'ba tashkil etilgan edi. Ekspress bo'limi operativ ishlaydi va shaharlararo poyezdlarda chiptalar sotishni boshqarish va o'rinlarni bron qilish bo'yicha davlatlararo avtomatlashtirilgan tizimdan foydalanadi[10]. Qayd etish lozimki, Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida birinchi bo'lib Qirg'iz temir yo'li tashkiloti temir yo'l chiptalarini sotishni avtomatlashtirilgan onlayn tizimiga o'tkazishga harakat qilgan, qisman buning uddasidan chiqqan tashkilot edi. ATOBT bo'limi (avtomatlashtirilgan transport operatsion boshqaruv tizimi) 1996-yilda tashkil etilgan. Bo'lim MDH davlatlaridagi inventar park vagonlari va konteynerlarining harakat chizmalarini tahlil qiladi, harakat yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar to'playdi, vagonlarga yuklarni ortish va tushirishni operativ nazorat qilib, mijozlarga aniq ma'lumotlar taqdim etadi[11]. Bo'lim faoliyatining bunday yo'lga qo'yilishiga asosiy sabab Qirg'iziston temir yo'l tarmoqlarining qo'shni qardosh respublikalar temir yo'l tarmoqlariga yuqori darajada bog'langanligidir. Ko'priklar qurilish otryadi 1993-yil yanvar oyida tashkil qilingan edi. Uning asosiy bazasi Bishkek shahrida joylashgan bo'lib, uning tarkibida armatura, stolyarlik, mexanika, kompressor, qozonxona sexlari faoliyat ko'rsatgan. Rossiya Federatsiyasi va XXR ning bo'limga ko'rsatgan moliyaviy ko'magi natijasida ekskavator, ko'tarma kranlar, buldozerlar sotib olingan. Bo'limning eng muvaffaqiyatli harakati Baliqchi-Qo'chqortepa temir yo'l liniyasining barpo qilinishidagi ko'priklar qurilishini tenderda yutib olganligi edi[12]. Qirg'iz temir yo'li ko'priklar qurilish otryadining faoliyati temir yo'l tizimining rivojlanishi, xavfsizlikni oshirish va transport tarmog'ining samaradorligini ta'minlashga katta hissa qo'shdi. Ko'priklarning qurilishi va ta'miri orqali

nafaqat transport tizimining uzluksiz ishlashini, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ham rag'batlantirish mumkin bo'ldi. Ko'prik qurilish otryadi tomonidan amalga oshirilgan ishlar transport infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Temir yo'llardagi yong'in holatlarining oldini olish va yuk va yo'lovchi qatnovining xavfsiz harakatini ta'minlash maqsadida 1996-yil dekabr oyidan boshlab harbiylashtirilgan muhofaza bo'limi o'z faoliyatini boshlagan. Bo'limga 1997-yilda Zabolotnev Valeriy Nikolayevich rahbar etib tayinlangan. Harbiy qism xizmatchilarining soni dastlab 36 kishilik brigada bilan ish boshlagan[13].

Harbiylashtirilgan muhofaza bo'limi temir yo'l tarmog'ini, uning inshootlarini va transport vositalari xavfsizligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Bu nafaqat texnik nuqtayi nazardan, balki xavfsizlik siyosatini amalga oshirish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Harbiylashtirilgan bo'lim temir yo'l infratuzilmasini hujumlar va terroristik xurujlardan himoya qilish uchun ham maxsus chora-tadbirlar ko'rmoqda. Bu, shuningdek, xavfsizlik kuchlarining tayyorligini va temir yo'l infratuzilmasini mustahkamlashni ta'minlashga yordam beradi. 2022-yil dekabr holatiga ko'ra Lugovaya, Shopokova, Qorabolta, To'qmoq, Bistrovka, Baliqchi, O'sh, Qashg'ar-qishloq, Qorasuv, Jalolobodagi temir yo'l stansiyalari to'liq muhofazaga olingan. Qo'riqlov bo'linmalarining xizmat sifatini yaxshilash maqsadida Bishkek-1 temir yo'l stansiyasida maxsus kinologik laboratoriya ochilgan bo'lib, unda xizmat itlari parvarishlanib kelinmoqda.

XULOSA. Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, Qirg'iz temir yo'li tashkiloti temir yo'l infratuzilmasi va harakat tarkibiga egalik qiluvchi, vertikal integratsiyalashgan muassasa bo'lib, u temir yo'ldagi yuk va yo'lovchi qatnovi uchun javobgardir. Joriy tashkilot Markaziy Osiyo davlatlarining temir yo'l tashkilotlari ichida hajm va qamrov, iqtisodiy faollik jihatidan eng kichkina tashkilot bo'lib qolmoqda. Rasmiy Bishkek temir yo'l tashkilotini milliy iqtisodiyotning o'sishida o'ziga xos rol o'ynashini xohlaydi. Ammo tarmoqdagi bozor mexanizmlarining yaxshi ishlamasligi, iqtisodiy samaradorlik va tijoriy ko'rsatkichlarning past ekanligi, xizmat ko'rsatish sifatining zamonaviy standartlarga mos kelmasligi kabi omillar bunga to'sqinlik qilib kelmoqda. Bir qancha xalqaro

tashkilotlar va ekspertlar guruhi tomonidan Qirg'iz temir yo'li tashkiloti faoliyatini takomillashtirish uchun rasmiy hukumat, xalqaro donorlik tashkilotlarining moliyaviy ko'maklari va institutsional islohotlar paketi taklif etib kelinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Тютеебаев Н. Без железных нервов не обойтись (Беседа с зам.нач.дирекции по обслуживанию пассажиров Бишкекского отделения Алма-Атинской железной дороги) // Вечерний Бишкек. – 1992. – 30 октября.
2. Акаев А. Кыргызская государственность, кыргызский этнос Манас. – 2002. – С. 259.
3. Солтоева А. Кто сегодня назначает начальников (О создавшейся ситуации в Управления Кыргызской железной дороги) // Вечерний Бишкек. – 2005. – № 115 (21 июня). – С. 6.
4. Тютеев Н. Дайте время и не мешайте (Беседа с ген.дир. Нац.компания Кыргыз темир жолу // Дело. – 2006. – № 39(15 ноября).
5. Elektron resurs: <https://kjd.kg/ru/about/branches/>. Murojaat qilingan sana: 20.04.2021.
6. Сорокина З. Спаситель контейнеры // Вечерний Бишкек. – 1999. – 5 июня.
7. Такырбашев А. Наш паровоз, вперед! – Бишкек: Слова Кыргызстана. – 1997. – С. 12.
8. Кыргыз темир жолуна 100 жыл. Книга-альбом. – Бишкек, 2024. – С. 47.
9. Нурматов С. Своя дорога // Эхо Ош. – 1992. – 23 июня.
10. Elektron resurs: <https://kjd.kg/ru/about/branches/>. Murojaat qilingan sana: 20.04.2021.
11. Кыргыз темир жолуна 80 жыл. Книга-альбом. Составитель Казыбаев П. – Бишкек: Учкун, 2004. – С. 52.
12. Андреева В. Дружба дружбой // Вечерний Бишкек. – 1994. – 13 окт.
13. Кыргыз темир жолуна 80 жыл. Книга-альбом. Составитель Казыбаев П. – Бишкек: Учкун, 2004. – С. 59.

Ilmiy maslahatchi: Nazarov Murod, (PhD)

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PUBLITSISTIK (OMMABOP) USLUBNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ismailova Shohida, Urganch davlat universiteti magistranti
DISTINCTIVE FEATURES OF THE PUBLICISTIC
(POPULAR) STYLE IN ENGLISH AND UZBEK

Ismailova Shohida, Master of Urgench State University
ОСОБЕННОСТИ ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОГО
(ПОПУЛЯРНОГО) СТИЛЯ НА АНГЛИЙСКОМ И
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Исмаилова Шахида, магистрант Ургенчского
государственного университета*



<https://orcid.org/0009-0003-3528-9801>

e-mail:

Shokhidaismailova2001@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutq uslublari, uning tarixi, ingliz hamda o'zbek tillarida publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyatlari, uslubning nazariy masalalari yuzasidan olimlarning bildirgan xulosalari hamda publitsistik uslubdagi so'zlarni tarjima qilishdagi asosiy muammolar tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: publitsistik uslub, notqlik, gazeta, notqlik nutqi, insho, maqolalar, reklama, tahririyat, e'lonlar, ilmiy uslub, rasmiy hujjatlar uslubi, madaniy kontekst, tarjima tili, asl manba.

Abstract: This article examines the functional styles, its history, the specific features of the publicistic style in English and Uzbek, the conclusions of scholars on theoretical issues of style, the main problems in translating words in the publicistic style.

Keywords: publicistic style, oratory, newspaper, oratory speech, essay, articles, advertising, editorial, announcements, scientific style, style of official documents, cultural context, translation language, original source.

Аннотация: В статье рассматриваются стили речи, их история, особенности публицистического стиля в английском и узбекском языках, выводы ученых по теоретическим вопросам стиля, основные проблемы перевода слов в публицистическом стиле.

Ключевые слова: публицистический стиль, ораторское искусство, газета, ораторская речь, эссе, статьи, реклама, редакционная статья, объявления, научный стиль, стиль официального документа, культурный контекст, язык перевода, первоисточник.

Kirish. Adabiy tilning ma'lum bir ijtimoiy sohalarda qo'llanilishi nutq uslublari deb ataladi. Uslub – bu “ma'lum bir estetik yoki kommunikativ effektga erishish uchun ishlatiladigan lingvistik vositalarning tanlovi va kombinatsiyasi”. Yakobson uslubning funksional jihatiga urg'u berib, ayniqsa

adabiyot va she'riyatda muayyan vazifani bajarish uchun til elementlarini tanlash va birlashtirishga e'tibor qaratgan¹. Insonlar o'zaro munosabat jarayonida tilning fonetik, leksik, frazeologik va grammatik vositalaridan tanlab foydalanadilar.

¹ Jakobson, R. (1960). Closing Statement: Linguistics and Poetics. В книге *Style in Language* (ред. Т.А. Sebeok). MIT Press.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Rus tilshunosi, leksikologiya, stilistika va ritorika mutaxassisi I.V.Arnold uslublarni to'rtta guruhga ajratadi: a) she'riy uslub; b) ilmiy uslub; c) gazeta uslubi; d) so'zlashuv uslubi². Tilshunos, leksikograf, filologiya fanlari doktori, professor I.R.Galperin

uslublarni quyidagi guruhlarga ajratgan: a) rasmiy hujjatlar uslubi; b) ilmiy uslub; d) publitsistik uslub; e) adabiy so'zlashuv uslubi; f) gazeta uslubi³.

Bugungi kunda nutq uslublari, asosan, beshta katta turga bo'lingan holda o'rganiladi:

O'zbek tilshunosligida	I.V.Arnold	I.R.Galperin
So'zlashuv uslubi	Colloquial style	Newspaper style
Publitsistik uslub	Newspaper style	Publicist style
Ilmiy uslub	Scientific style	Scientific prose style
Badiiy uslub	Poetic style	Belles-lettres style
Rasmiy ish uslubi		Official documents style

Publitsistik uslub (lotincha: **publicus** – ijtimoiy) degan ma'noni anglatadi. U ommaviy axborot vositalari uslubi, ya'ni gazeta-jurnal, radio, televideniya uslubi hisoblanadi. Unga davrning ijtimoiy-siyosiy va boshqa dolzarb masalalariga qaratilgan adabiy ijod turi sifatida qaraladi. Tilshunos olimlar ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritgan barcha asarlar **publitsistik asarlar** jumlasiga kirishini ta'kidlashgan. Mazkur uslub XVIII asr o'rtalarida alohida uslub sifatida o'rganila boshlagan. O'rta Osiyo xalqlari tarixida **publitsistika** ancha qadimiy bo'lib, **publitsistika** xususiyatlarini Kaykovusning “Qobusnoma” asarida uchratishimiz mumkin¹. Ma'lumot o'rinda, Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Munshaot”, “Mahbub ul-qulub” asarlarida **publitsistikaning** tugal xususiyatlari ko'zga tashlanishi o'rganilgan. Navoiyning Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Sayid Hasan Ardasher haqidagi adabiy portretlari publitsistik ocherklar sirasiga kiritilgan. Navoiy nasriy asarlarini tadqiq etish orqali Navoiyni o'zbek badiiy **publitsistikasining** asoschisi deb atashga zamin yaratadi. Publitsistikaning xususiyatlari o'zbek mumtoz adabiyotlari tarkibiga ham singib ketgan. O'zbek adabiy tili sistemasida bu janr XX asr boshlarida paydo bo'lgan. “O'zbek tili uslubiyati masalalari” asarida “Turkiston viloyatining gazetasi”ning chiqqa boshlashi, so'ng matbuot va nashriyot ishlarining

kengayishi, Furqat, Hamza, Ayniy, Sattorxon kabi demokrat shoirlarning ijodida targ'ibotning o'rin olishi publitsistikaning shakllanishiga turtki bo'lgani ta'kidlanadi².

Muhokama va natijalar. Publitsistik uslubning umumiy maqsadi – jamoatchilik fikriga doimiy va chuqur ta'sir ko'rsatish, o'quvchi yoki tinglovchini, yozuvchi yoki so'zlovchi tomonidan berilgan talqin yagona to'g'ri ekanligiga ishonitirish va uning nuqtayi nazarini qabul qilishga majbur qilishdir. Mantiqiy mulohazalar va emotsional jozibadorlikning xarakterli uyg'unligi tufayli publitsistik uslub bir tomondan ilmiy uslub bilan, ikkinchi tomondan, hissiyotli badiiy uslub bilan umumiy xususiyatlarga ega. Publitsistik uslubga doir matnlar leksikasi va frazeologiyasi to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak, unda o'zbek tilining barcha nutq uslubiga xos elementlar, ya'ni kitobiy so'zlar, so'zlashuv elementlari hamda o'z va o'zlashgan qatlam leksikasidan faol qo'llaniladi. Mazkur uslubda faol qo'llaniladigan so'zlarga to'xtaladigan bo'lsak, ijtimoiy hayot voqeliklarini aks ettirishda “*aholi farovonligini oshirish*”, “*joriy yil*”, “*avval xabar berganimizdek*”, “*xabar qilinishicha*”, “*munosib hissa qo'shmoq*”, “*umumxalq manfaati*”, “*belgilangan rejaga muvofiq*”, “*sonli xatiga asosan*”, “*ta'kidlanganidek*” kabi birikmalar va ifoda qoliplari publitsistik uslubning boshqa uslublardan

² Arnold, I. V. (1981). *The English Word*. Moscow: Vysshaya Shkola.

³ Galperin, I. R. (1977). *Stylistics*. Moscow: Vysshaya Shkola.

¹ Tog'ayev O., Publitsistika janrlari, Toshkent, 1976.

² Iminov M., Nu'monov T., Boboxonova D. O'zbek tili uslubiyati masalari. Namangan nashriyoti, 2007.

farqlash va mavqeini belgilashda muhim o‘rin egallaydi. Huquqiy va tibbiyot yo‘nalishlari nutqiga oid: *“huquqiy savodxonlikni oshirish”, “qonun ustuvorligi”, “reproduktiv salomatlik”, “aholi salomatligini ta‘minlash”, “sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish”* singari birliklarni misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, sport sohasiga oid birliklarga yuzlanadigan bo‘lsak, *“yoshlar orasida sportni ommalashtirish”, “sport majmuasi”, “bolalar sporti”, “g‘olib sovrindorlar”, “musobaqa natijalariga ko‘ra”* singari birliklar mazkur uslubda juda faol hisoblanadi. Ingliz tilida ham publitsistik uslub o‘ziga xos bo‘lib, til vakillari tomonidan publitsistik uslub izchil va mantiqiy sintaktik tuzilish, kengaytirilgan birikmalar tizimi va to‘g‘ri paragraflar bilan tavsiflanadi. Uning hissiy jozibasi hissiy ma‘noga ega so‘zlardan foydalanish orqali erishiladi va undagi ifodaning qisqaligi ba‘zan yetakchi xususiyatga aylanadi. Notiqlik – publitsistik uslubning og‘zaki bo‘limi hisoblanib, tinglovchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot tilning yozma va og‘zaki turlarining sintaktik, leksik va fonetik xususiyatlarini birlashtirishga imkon beradi. Tarjima so‘z yoki matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonidir. Tarjima nazariyasining asosiy vazifasi eng keng doiradagi matnlar uchun mos tarjima usullarini aniqlash va tarjima jarayoni, tafakkur va til, madaniyat va nutq munosabatlari haqida tushuncha berish. Tarjima jarayonining 3 ta asosiy bosqichi mavjud. Birinchisi, ma‘lumotni dekodlash va tahlil qilishdir, keyingisi asl mazmun va g‘oyalarni to‘liq tarjima tiliga yetkazish, oxirgi qadam esa ma‘lumotni diqqat bilan ko‘rib chiqish, mosroq bo‘lgan ba‘zi tafsilotlar yoki shartlarni tuzatish va yaxshilash va kontekstga mos ekvivalent keltirish hisoblanadi.

Publitsistik uslubdagi so‘zlarning tarjimasini odatda jurnalistika, ommaviy axborot vositalari va ommaviy nutq bilan bog‘liq bo‘lgan matnlarni talqin qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu so‘zlar va iboralar ko‘pincha o‘ziga xos madaniy, hissiy yoki ritorik vaznga ega bo‘lib, ularning aniq tarjimasini murakkab vazifaga aylantiradi. Publitsistik uslubdagi matnlar, jumladan, maqolalar, insholar, nutqlar va sharhlar auditoriyani xabardor qilish, ishontirish yoki ta‘sir qilish uchun mo‘ljallangan va bu maqsadlarga erishish uchun lug‘at tanlash juda

muhimdir. Publitsistik matnlar odatda ma‘lumot beruvchi, lekin ko‘pincha ijtimoiy, siyosiy yoki madaniy masalalar bo‘yicha pozitsiyani egallaydi. Publitsistik matnlardagi so‘zlar ta‘sir yaratish uchun ehtiyotkorlik bilan tanlanadi, bu ularni boshqa tilga tarjima qilishda o‘ziga xos qiyinchilik tug‘diradi.

Publitsistik uslubdagi so‘zlarni tarjima qilishdagi asosiy muammolar:

1. Madaniy kontekst (Cultural context): Ko‘pgina publitsistik atamalar asl tilning madaniy, siyosiy yoki ijtimoiy kontekstida chuqur ildiz otgan. Masalan, ma‘lum siyosiy yoki ijtimoiy tushunchalar bir mamlakatga xos bo‘lishi mumkin va boshqasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti yo‘q. Tarjimonlar madaniy jihatdan mos ekvivalentni topishlari yoki tarjima auditoriya bilan rezonanslashgan tarzda konseptual ma‘noni qamrab olishi lozim. Misol uchun *“It’s raining cats and dogs”* iborasi so‘zma-so‘z tarjima qilinganda *“Mushuklar va itlar yog‘moqda”* tarzida ifodalanib konseptual ma‘no yiroqlashadi, ammo bu ibora ingliz tiliga grek tilidan o‘zlashgan *“kata doxa”* ya‘ni eski ingliz tilida *“Katadoupoi”* (noodatiy qattiq) tajriba yoki ishonchga qarama-qarshi tarzda kuchli yomg‘ir yog‘ayotganini ifodalaydi³. Bu iboraning tarjimasini, tarjima qilinayotgan til leksikasida mavjud va ushbu holatni to‘laqonli qamrab olishi mumkin bo‘lgan, shuningdek, ushbu holatni deskriptiv tarzda yetkazib berishi mumkin bo‘lgan ekvivalentidan foydalaniladi (sharillab yomg‘ir quyymoqda).

2. Hissiy va ritorik nyuans (Emotional and rhetorical nuance): Publitsistik matnlardagi so‘zlar ko‘pincha hissiy ta‘siri yoki ritorik kuchi uchun tanlanadi. Ushbu so‘zlarni mo‘ljallangan hissiy yoki ishontirish ta‘sirini saqlab qolgan holda tarjima qilish juda nozik vazifadir. Misol uchun, bir tilda shoshilinch yoki g‘azabni bildiruvchi so‘z, agar ehtiyotkorlik bilan energetik o‘lchovlarga moslashtirilmasa, boshqa tilda o‘zining shiddatini yoki ishontirish kuchini yo‘qotishi mumkin. Misol: *“Cows lose their jobs as milk prices drop”* tushunchasining hissiy ta‘sirini saqlab qolish maqsadida *“Sut narxining pasayishi bilan sigirlar ishini yo‘qotadi”* shaklida so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin. O‘zbek tilida *“Keksalarga hurmat – yoshlarga ibrat”* tushunchasini ingliz tiliga *“Respect for the elderly is an example for the youth”* shaklida tarjima qilish mumkin.

³ https://en.wikipedia.org/wiki/Raining_cats_and_dogs

3. Jargon va texnik atamalar (*Jargon and technical terms*): Publitsistik uslubdagi matnlar siyosat, iqtisod, huquq yoki boshqa ixtisoslashgan sohalarga oid jargonlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu jargonni tarjima qilish asosiy va tarjima tillarni va ularning tegishli domenlarini chuqur tushunishni talab qiladi. Texnik atamalarni noto'g'ri tarjima qilish asl xabarni chalkashtirishga yoki noto'g'ri talqin qilishga olib kelishi mumkin.

Misol: *The central bank decided to raise the interest rate to curb inflation and stabilize the currency.* O'zbekcha: Markaziy bank inflyatsiyani jilovlash va milliy valyutani barqarorlashtirish uchun foiz stavkasini oshirishga qaror qildi.

Bu o'rinda "interest rate" – texnik iqtisodiy atama, "foiz stavkasi" deb tarjima qilinsa, "curb inflation" – jargon bo'lib, "inflyatsiyani jilovlash" shaklida tarjima qilinadi.

4. Ijtimoiy-siyosiy sezgirlik (*Socio-political sensitivity*): Publitsistik matnlar ko'pincha milliy o'ziga xoslik, siyosiy mafkuralar yoki ijtimoiy muammolar kabi nozik mavzularni muhokama qiladi. So'zma-so'z tarjima manba va tarjima tillar o'rtasidagi ijtimoiy me'yorlar yoki tarixiy kontekstlardagi farqlar tufayli beixtiyor noxolis yoki ko'zda tutilmagan xabarni yetkazishi mumkin. Tarjimon tarjima qilingan matn neytral bo'lib qolishi yoki yangi kontekstga mos ravishda moslashtirilganligiga ishonch hosil qilib, bu murakkabliklarni ehtiyotkorlik bilan boshqarishi kerak. Siyosiy kontekstlarda faol qo'llaniladigan "milliy g'oya", "milliy mafkura", "vatanparvarlik" kabi atamalarni aniqlik, lo'ndalik, eng asosiysi, ma'no ustuvorligi bilan ("national idea", "national ideology", "patriotism") tarjima qilish lozim.

5. So'z o'yini va idiomatik iboralar (*Wordplay and idiomatic expressions*): Publitsistik matnlarda xabarga chuqurlik va ijodkorlik kiritish uchun ko'pincha idiomatik iboralar, metaforalar yoki so'z o'yinlari qo'llaniladi. Ushbu elementlarni tarjima qilish ayniqsa qiyin bo'lishi mumkin, chunki ularning tarjima tilda to'g'ridan-to'g'ri o'xshashlari bo'lmasligi mumkin. Tarjimonlar stilistik ta'sirni yo'qotmasdan asosiy ma'noni yetkazish yo'llarini topishlari kerak, bu maqsad tilda ijodiy yoki ekvivalent iboralardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin. "Millat kelajagi — bu yoshlar qalbida yongan olovdir" jumlasida keltirilgan "yoshlar qalbida yongan olov" metafora bo'lib, yoshlar ishtiyoqini ifodalaydi. Mazkur jumlan

ingliz tiliga so'zma-so'z tarjima qilish, oddiy va ba'zan sal salbiy ma'no anglatishi mumkin. Shuning uchun "The future of nation lies in the passionate fire within its youth soul" tarzida tarjima qilish tavsiya qilinadi.

Xulosa. Publitsistik uslubdagi so'zlarni tarjima qilish murakkab va nozik jarayon bo'lib, til, madaniyat va kontekstni tushunishning puxta muvozanatini talab qiladi. Tarjimon nafaqat har ikki tilni ham yaxshi bilishi, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy manzaralarni ham chuqur bilishi kerak. Tarjimonlar moslashtirish, tushuntirish va ijodiy tarjima kabi strategiyalarning kombinatsiyasini qo'llash orqali publitsistik matnlarning xabari, ohangi va ta'sirini tarjima qilinayotgan til vakillariga ishonchli tarzda yetkazilishini ta'minlashi mumkin. Oxir oqibat, maqsad matnning asl maqsadi va ishonitirish kuchini saqlab qolish va shu bilan birga uni yangi auditoriya uchun ochiq va dolzarb qilishdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Arnold, I. V. (1981). *The English Word*. Moscow: Vysshaya Shkola.
2. Arnold N.V. *Stylistics of the contemporary English language*. Leningrad. Prosveshchenie. 1973
3. Jakobson, R. (1960). *Closing Statement: Linguistics and Poetics*. В книге *Style in Language* (ред. Т.А. Sebeok). MIT Press.
4. Galperin, I. R. (1977). *Stylistics*. Moscow: Vysshaya Shkola.
5. Kateřina Bočková, *Translation of selected texts from the field of journalistic style with a commentary and glossary*, Plzeň 2012
6. *Veronica COTOROBAI*, *The study of creativity in translation of publicist texts*.
7. Курбанов Т. *Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1987. - 22 с.*
8. O'riboyev B. *So'zlashuv nutqi*. — Toshkent: Fan, 1979, 9-b.
9. Abdusaidov A. *Gazeta janrining t8 xususiyatlari*. DDA, -Toshkent, 2005, 11-b.
10. Iminov M., Nu'monov T., Boboxonova D. *O'zbek tili uslubiyati masalari*. Namangan nashriyoti, 2007.
11. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Publitsistika>
12. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Uslub>
13. <https://www.theguardian.com/international>
14. <https://www.forbes.com/>
15. https://en.wikipedia.org/wiki/Raining_cats_and_dogs

SHUKRULLO SHE'RIYATINING MAVZU DOIRASI

Kurbanova Saida Bekchanovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

THE SUBJECT OF SHUKRULLO'S POETRY

Kurbanova Saida Bekchanovna, Associate professor, Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, candidate of Philological Sciences

ТЕМАТИКА ПОЭЗИИ ШУКРУЛЛО

Курбанова Саида Бекчановна, доцент Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни, кандидат филологических наук

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shukrullo she'riyatining mavzu doirasi tahlil etiladi. Shukrullo she'rlarida tabiatning eng nodir mo'jizasi – inson tabiatidagi ezgulik, muhabbat, vatanparvarlik, ma'naviy barkamollik kabi xususiyatlar obrazli ifoda etiladi.

Kalit so'zlar: Shukrullo, she'riyat, mavzu, muhabbat, Vatan, poetik obraz, lirik qahramon.

Abstract: The article analyzes the subject matter of Shukrullo's poetry. Shukrullo's poems figuratively express the rarest miracle of nature – kindness, love, patriotism, spiritual perfection of human nature.

Keywords: Shukrullo, poetry, theme, love, Motherland, poetic image, lyrical hero.

Аннотация: В статье анализируется тематика поэзии Шукрулло. Стихи Шукрулло образно выражают редчайшее чудо природы – доброту, любовь, патриотизм, духовное совершенство человеческой натуры.

Ключевые слова: Шукрулло, поэзия, тема, любовь, Родина, поэтический образ, лирический герой.

KIRISH. Shukrullo she'riyati o'zining mavzu rang-barangligi, obrazliligi, falsafiy va assotsiativ mushohadakorlikka boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar inson va tabiat, inson va manguilik, inson va baxt, Vatan va xalq, yaxshilik va razolat, muhabbat va sadoqat, do'stlik kabi mavzularning poetik talqinida yaqqol namoyon bo'ladi. Shukrullo lirikasining markazida tabiatning nodir mo'jizasi – Inson turadi. Zero, "har qanday yaxshi she'r markazida o'zining quvonch va tashvishi, orzu va armoni bilan Inson turadi. She'r xuddi shu insondan, uning tabiati, maqsad va intilishlari, yanada to'g'risi, inson haqidagi tasavvurdan kelib chiqib tushuniladi" [10:35].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Adabiyot nazariyasi va badiiy asarning ilmiy-nazariy tahliliga oid rus va o'zbek adabiyotshunoslarining asarlariga, nazariy qarashlariga murojaat etildi. Xususan, maqolada

o'rta qo'yilgan muammolar A.A.Potebnya, N.Jabborov, U.Hamdani, Ya.Qosimovlar asarlaridagi ilmiy-nazariy qarashlar asosida ochib berildi. Ishda analiz, sintez, qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ishq-muhabbat mavzusi badiiy adabiyotning eng qadimiy va abadiy mavzularidan biri bo'lib, Shukrullo lirikasida ham sevgi-muhabbat go'zal, hayotbaxsh, nozik, sehrli va sirli tuyg'u sifatida bo'y ko'rsatadi. Muhabbat nafaqat ko'ngil mayli, balki u ilohiy, ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida Olam va Odamni muvozanatda tutib turadigan qudratli tuyg'u hamdir. Muhabbatni, sevgini qadrlagan, uning ilohiy ne'mat ekanligini anglab yetgan insonning hayoti mazmunga, baxtga to'la bo'ladi, uning insonlarga, hayotga munosabatida mehr-oqibat, sadoqat ustunlik qiladi. Zero, Hazrat Alisher Navoiyning:



<https://orcid.org/0000-0001-5394-6922>

e-mail: saida-09@mail.ru

*Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo'lmasun.*

Ishqsiz ul tanki, aning joni yo'q,

Husnni netsun kishikim, oni yo'q [2: 203] –
degan ta'rifida ishq-muhabbat mohiyati yorqin
namoyon bo'ladi.

Shukrulloning “Yaxshiki, muhabbat bor”
deb nomlangan turkum she'rlarida sevgi-muhabbat
mavzusi orqali hayot go'zalligi, inson qalb
tuyg'ularining mo'jizakor qudrati betakror
bo'yoqlarda badiiy gavdalantiriladi. Shoir turkumni
ishq-muhabbatga, sevgiga ta'rif izlashdan
boshlaydi. Uning lirik qahramoni (shoirning o'zi –
S.K.) sevgiga ta'rif izlar ekan, oltmish yoshida ham
unga jo'yali, aniq ta'rif topolmaganini aytadi.
Aslida, lirik qahramon layoqatsiz yoki go'l emas, u
mana shu ikkilanishlari, izlanishlari orqali asta-
sekin o'zligini namoyon etib boradi. Avvaliga u bu
nozik tuyg'uning asl mohiyatini ifodalovchi
mezonni topolmay qiynaladi:

Oltmish yil, sevgiga ta'rif izladim,

Izladim, bir mezon topmadim aslo.

Balki, ikki dilning qovushmog'idir,

Ikki dilda o'chmas, tug'ilgan vafol [7: 16].

Muhabbatga, sevgiga ta'rif topolmagan lirik
qahramon yana izlanishda! Endi u sevgining sirli,
sehrli tuyg'u ekanini anglab yetganday bo'lib, uni
ming qirrali toshga, mehrga, ko'z yoshiga qiyoslar
ekan, har bitta o'xshatish sevgi-muhabbat
fazilatlaridan bittasini namoyon qiladi:

Do'stim, sevgi – ming sir, ming sehr,

Sevgi – go'yo ming qirrali tosh.

Sevgi – qalbga singgan bir mehr,

Sog'inch chog'i balki tomgan yosh! [7: 22].

Ko'rinadiki, lirik “men” anglab yetgan
sevgi-muhabbat obrazli tasvir orqali universal
falsafiy, badiiy-estetik mazmun kasb etadi. Endi
uning mazmun-mohiyati diapazoni kengayib, **umid**
(Mayli, sirli qolsin mehrimiz mangu, Umid bilan
yashash o'zi bir sevgi!) [7:132]; **quvonch**
(Qalbmida sen hokim eding butunlay, Dunyoda
hech quvonch yo'q edi go'yo) [7:23]; **mehr** (Sevgi
– qalbga singgan bir mehr) [7:22]; **vafol** (Sochlarida
oq-u ko'rsam ham ajin, Sevgim qadimgidek
saqlanur hamon) [7:79]; **mo'jiza** (Sevgining
yulduzday mo'jizasi bor, Har tun jilovlaydi
e'tiboringni) [7:131] kabi tuyg'ularni ham o'zida
mujassam etadi.

Shukrulloning “Mening nazarimda” deb
nomlangan she'rda esa muhabbatga ta'rif berilar

ekan, u inson hayot yo'lini yorituvchi nurga
qiyoslanadi:

Mening nazarimda muhabbat go'yo

Hayotning yo'lini yorituvchi nur.

Ammo bu nur o'zi bo'lmaydi paydo,

Agarda alanga yonmasa gur-gur... [7:40].

Shoir nazdida muhabbat nuri qalblarga
harorat bag'ishlaydi, bu nur inson ruhini boyitadi,
hayotning notekis yo'llarini nurafshon etadi.
O'quvchi shoirning muhabbat mavzusiga
bag'ishlangan she'rlarini o'qir ekan, haqiqiy ishq-
muhabbatning Olam va Odam munosabatidagi
bunyodkorlik, yaratuvchilik mohiyatini hissiy-aqliy
idrok etadi. Zero, “Chinakam badiiy asarni hissiy-
aqliy idrok qilish orqali inson yuksak a'mollar
(ideallar) sari intilishi, ezgulik va haqiqatning
g'alaba qilishiga ishonch hissini hamda qalbida
junbushga kelgan go'zal hissiyotlarni namoyon
qilish imkoniga ega bo'lishi” mumkin[1:171].

Badiiy adabiyotning abadiy mavzularidan
yana biri bu – Vatan va xalq mavzusi bo'lib, u har
bir ijodkor ijodida turlicha poetik mazmun va badiiy
qiyofa kasb etadi. Chunki “Yaratilayotgan Vatan
obrazining asosiy konturlari umumiy (o'tmishi,
hoziri, xalqi, tabiati) bo'lgani uchun ham bu o'rinda
qanday tavsiflash (ya'ni rassom rang bergani kabi)
muhim ahamiyatga ega” [10:261] bo'ladi.
Shukrulloning Vatan mavzusiga bag'ishlangan
she'rlari mazmun-mohiyatiga shu jihatdan
yondashsak, ularda ham ko'pchilik shoirlar
she'riyatidagi kabi Vatanning umimiy konturlari:
uning o'tmishi, buguni va kelajagi, ona yurtning
betakror tabiati, o'zbek xalqining milliy-ma'naviy
qiyofasi poetik tadqiq etilganiga guvoh bo'lamiz.
Xo'sh, umumtadqiq etilgan Vatan, xalq qiyofasi,
ularning mazmun-mohiyati Shukrullo she'rlarida
qanday tavsiflandi? Shoirning individual uslubi,
poetik mahoratini belgilovchi badiiy-estetik omillar,
yetakchi tamoyillar nimalardan iborat edi?
Shukrullo she'rlari tahlili davomida ushbu
savollarga javob topamiz.

Xususan, Shukrullo lirikasining mavzu
doirasini, ularning asosini, ular poetik talqinidagi
o'ziga xoslik masalasini, birinchi navbatda, shoir
shaxsiyati bilan bog'liqlikda tadqiq etish lozim
bo'ladi. “Lirik asarning estetik qimmatini birinchi
galda ijodkor shaxsiyatining originalligi, yorqinligi,
lirik “men” munosabati, sezgi va taassurotlarning
qay darajada o'ziga xosligi, betakrorligi bilan
belgilanadi”[9: 19]. Shu ma'noda, Shukrulloning

Vatan va xalq mavzusidagi she'rlarida Vatanga muhabbat tuyg'ulari samimiy, beg'ubor va sodda ifodalangan. Shoir Vatanini, ona xalqini madh etar ekan, an'anaviy o'xshatishlar-u, jimjimador va yaltiroq so'zlardan, siyqasi chiqqan qoliplardan o'zini tiyadi. Zero, shoir shaxsiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning bolalikdan o'ta yaltiroq ranglarni xush ko'rmaganligini, kiyinishda ham, biror ishga yondashishda ham mayinlik va soddalikni yoqtirganligini payqaymiz. Bu haqda Shukrulloning o'zi shunday yozadi: "... O'ta yaltiroq ranglarni yomon ko'rardim. Kiyimda ham, qalamtarosh, hatto varrak qog'ozlarida ham mayin rang bo'lishini istardim. Agarda varrakning bir qulog'ini uzunroq yoki tumorini qiyshiqroq sirachlab qo'ingan bo'lsam, shu ham g'ashimni keltirib, g'ijimlab tashlardim. Qaytadan silliq qilib yasar edim"[8:58]. Shoir shaxsiyatidagi bu soddalik va oddiylik uning lirik qahramoni "men"ida ham namoyon bo'lgan. Zero, uning lirik qahramoni Vataniga, xalqiga ulug' bir qadriyat sifatida qaraydi, ularni boricha sevadi, ulug'laydi. Ona-yurt, xalqparvarlikning o'ziga xos poetik talqini shoirning "Suyanchiq" she'rida yorqin ifodalangan. She'rning dastlabki bandi lirik qahramonning ko'ngliga murojaati bilan boshlanadi:

*"Hayt", degan tuyaga madad deydilar,
Quvvat bo'lar deydi, arg'amchiga qil.
Yolg'iz kezlarimda kim dalda bo'lar,
Kim suyanchiq bo'lar senga, ey ko'ngil?*

[7:107].

Yolg'iz safarga otlangan oqshom paytlarini, uni safarga kuzatgan otasi siymosini xotirlagan lirik qahramonning xayolida, birinchi navbatda, o'sha paytlari otasi qo'lida ko'tarib chiqqan chiroq gavdalanadi:

*Yoshlik chog'larimda safarga chiqsam,
Mobodo qaygadir oqshom olsam yo'l,
Qo'lda chiroq tutib hamisha otam
Kuzatib qolardi silkitgancha qo'l.
Uning daldasida qishloqdan o'tib,
Ortimga qayrilib qaraganim choq,
Menga madad bo'lib, suyanchiq bo'lib,
Ko'rinish turardi hamon u chiroq* [7:107].

Yoshligida oddiygina ko'ringan bu chiroq endi unga suyanchiq, madadkor va qadrlidir. Chunki o'sha qadrdon chiroq shu'lasi yoshligi ortda qolgan lirik qahramonga hamisha otasining mehrga to'la qalbini, madadini, tug'ilib-o'sgan qishlog'ini – Vatanini eslatib turadi:

*Endi qayga bormay, qayerda bo'lmay,
Ko'z o'ngimdan ketmas hamon u chiroq.
Uning shu'lasida kunduz kuniday
Yarqirab ko'rinar men o'sgan qishloq* [7:107].

Ma'lumki, badiiy adabiyotda chiroq yorug'lik, ezgulik ramzi sifatida ishlatilgan. Ushbu she'rda ham chiroq detali qo'llanilar ekan, u o'z ma'nosida oqshom paytlari safarga chiqqan lirik qahramon yo'lini oydinlatsa, ramziy ma'noda badiiy-poetik unsur sifatida lirik subyektning qalbini yoritadi: uning hayotda oq va qorani, yaxshiyu yomonni, ezgulik va yovuzlikni farqlashiga, o'zligini anglashiga yordam beradi:

*Mana ortda qoldi yoshlik chog'larim,
Qirning ortidagi otam qabrider.
Ammo yuragimni yoritar har zum
O'sha yongan chiroq otam qalbider* [7:107].

Shukrulloning zamondoshi va qalin do'sti Rasul Hamzatov lirikasida ham chiroq detali ramziy ma'no tashigan she'r mavjudligini kuzatdik. Bu she'rda ham lirik qahramonga qoqilib ketmasligi uchun onasi tomonidan tutilgan chiroq ramziy ma'noda oliy va ezgu maqsadlarga eltuvchi mador, suyanchiq kabi ramziy ma'no kasb etgan:

*Toliqqan oyoq-la qaro kechada
Gar bazo'r sudralib men kelar bo'lsam,
Qoqilib yurmasin deya ko'chada,
Chiroq'in tutardi darchadan onam.
Ozmuncha yurmadim men shundan buyon,
Qoldim bo'ronlarda, chaqmoqda ming bor.
Shunda ham yiroqdan o'sha nur hamon
Maqsadga yetish-chun baxsh etur murod* [3: 203].

Har ikkala shoir she'rida ham o'z qalbiga, o'z shuuriga xayolan sho'ng'igan, hech qachon o'tmishini va o'zligini unutmagan lirik "men" kechinmalari chuqur lirik pafosga yo'g'rilgan o'ziga xos milliy poetik manzara yaratilishiga asos bo'lgan.

Adabiyotshunos N.Jobborov she'riyatdagi yetakchi tamoyillarni ajratib ko'rsatar ekan, milliylik tamoyiliga alohida urg'u beradi. Olimning ta'kidlashicha, "Milliylikdan xoli bo'lgan tuyg'u ta'sir kuchidan ayriladi. Milliy ruhdan mosuvo tafakkur bamisoli qanotsiz qushga mengzaydi. Shunga ko'ra, milliylik she'riyatning asosiy tamoyilidir" [4:111]. Shu jihatdan qaraganda, Shukrulloning Vatan va xalq mavzusidagi aksariyat

she'rlari asosi milliylik tamoyiliga qurilgan desak, aslo yanglishmaymiz. Zero, "Suyanchiq" she'ring lirik qahramoni ham ona yurtga samimiy muhabbatini izhor qilar ekan, qishlog'ida o'sgan chinorlar, chuldiragan soylar, paxtazorlar, non hidi ufurib turgan tandirlar unga kimningdir mehrini, kimningdir madadini eslatadi. She'rda keltirilgan o'zbek xalqining milliy qiyofasini, tafakkur tarzini ifodalovchi detal-obrazlar (chinor, tandir, soy, oy) esa hissiy-ta'sirchanlikni ta'minlashga asos bo'lgan:

*Sahroda adashsam, ko'rinib turdi,
Men borman degandek chinor ham menga.
Dengizlarda suzsam mayoqdek bo'ldi,
Tongda tandirlardan chiqqan alanga* [7:

107].

She'rning lirik qahramoni uchun uning Vatani nafaqat jo'g'rofiy bir makon, balki u ham xuddi odamlardek nafas oladigan, mehr-muhabbat, sog'inch, baxt, iztirob, qayg'u singari tuyg'ularni his qiladigan va his qildiradigan "tirik mavjudot"dir! Shu bois bo'lsa kerak, lirik "men" qayerda bo'lmasin Vatani mehrida qayta tirilgan ota mehrini his qiladi:

*Qayerda bo'lmayin tirik otamdek,
Mehringni hamisha his qilganim on,
Ey go'zal diyorum, bir giyohingdek
Bo'la olsam deyman, dardingga darmon*

[7:108].

She'r yakunidagi "Ey go'zal diyorum, bir giyohingdek Bo'la olsam deyman, dardingga darmon" murojaati lirik "men" tilidan aytilgan bo'lsa-da, uni o'qigan o'quvchi bu murojaatni "o'ziniki" deya qabul qiladi, unda burch, mas'uliyat hissi yanada ortadi. Zero, "She'riyatning inson hayotidagi o'rni o'ziga xos bo'lib, u bizga xulosa va umumlashmalar chiqarishimizga yordam beradi. Shu ma'noda, she'riyat fanga yaqin, unga parallel faoliyatdir" [5:17].

Vatanparvarlik motivi Shukrullo lirikasi poetik vositalar birligini belgilashda muhim omil bo'lgan. Birinchidan, shoir she'riyatida Vatanga muhabbat assotsiativ va konkret-obyektiv obrazli tafakkur birligida namoyon bo'lsa: Vatan – ona (Ona Vatanim deb ataydi axir, Jahon turkiylari O'zbekistonni) [6:45], Vatan – muhabbat (Vatan ishq bilan, o, qalbim Dengiz kabi to'liq, limmo-lim. Sevgim bo'lmas aslo begona, Ishontiray qayta ont ichib) [7:60]; ikkinchidan, vatanparvarlik tuyg'ulari falsafiy umumlashtirilgan va ramziy poetik obrazlar

birligida yuzaga chiqqan: Vatan – mulk (Hammaga barobar mulkdir bu Vatan, Qani shu his! Tilim aytishga nochor) [6:44], Vatan – qalb burguti, Vatan – qalb o'ti (Vatan qalbim burguti, Vatan qalbimning o'ti) [6:155], Vatan – xazina, xalq – boylik, lirik qahramon – posbon (Xalq – boyligu, Vatan – xazina, Men posbon. Bu noyob kasb) [7: 60].

XULOSA. Shukrullo she'riyati mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, unda muhabbat, Vatan, xalq, baxt, do'stlik kabi mavzular yetakchi o'rin egallaydi. Shoir lirikasi markazida Inson turadi.

Shukrullo lirikasida sevgi-muhabbat mavzusi orqali hayot go'zalligi, inson qalb tuyg'ularining mo'jizakor qudrati obrazli ifoda etilar ekan, haqiqiy ishq-muhabbatning Olam va Odam munosabatidagi bunyodkorlik, yaratuvchilik mohiyatiga e'tibor qaratiladi.

Shukrulloning Vatan va xalq mavzusiga bag'ishlangan she'rlarida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ulari samimiy va sodda ifodalanadi. Shoirning lirik qahramoni Vatanga, xalqiga ulug' bir qadriyat sifatida qaraydi, ularni boricha sevadi va ulug'laydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Sher, Husanov B. Estetika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991.
3. Гамзатов Р. Юксак юлдузлар. – Тошкент, 1964.
4. Жобборов Н. Янги замон шеърияти тамойиллари // Шарқ юлдузи, 2014, №3.
5. Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – Москва: Искусство, 1976.
6. Шукрулло. Танланган асарлар. II жилд / шеърлар, рубоийлар, дostonлар. – Тошкент: Шарқ, 2008.
7. Шукрулло. Танланган асарлар. III жилд. Шеърлар. Дostonлар. – Тошкент: Шарқ, 2009.
8. Шукрулло. Танланган асарлар. IV жилд. Жавохирот сандиғи. – Тошкент: Шарқ, 2011.
9. Қосимов Я. Ўзбек шеъриятида поэтик фикрнинг янгиланиш жараёни: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1993.
10. Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърияти. – Тошкент: Адиб, 2012.

МАЪМУРИЙ ҚАМОҚҚА ОЛИНГАН ШАХСЛАР
МАЪМУРИЙ-ХУҚУҚИЙ МАҚОМИ ВА САҚЛАШ
УЧУН МЎЛЖАЛЛАНГАН МАХСУС
ҚАБУЛХОНАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС
ХУСУСИЯТЛАРИ

*Худойшукуров Фарход Турсоатович, Ўзбекистон
Республикаси Ички ишлар вазирлиги академияси мустақил
изланувчиси*

ADMINISTRATIVE-LEGAL STATUS OF PERSONS
UNDER ADMINISTRATIVE DETENTION AND
SPECIFIC FEATURES OF SPECIAL RECEPTIONS
INTENDED FOR DETENTION ANNOTATION

*Xudoyshukurov Farxod Tursoatovich, Independent researcher at
the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of
Uzbekistan*

АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ
СТАТУС ЛИЦ, ПОДВЕРГНУТЫХ
АДМИНИСТРАТИВНОМУ ЗАДЕРЖАНИЮ И
ОСОБЕННОСТИ СПЕЦИАЛЬНЫХ
ПРИЕМНИКОВ, ПРЕДНАЗНАЧЕННЫХ ДЛЯ
СОДЕРЖАНИЯ ПОД СТРАЖЕЙ

*Худойшукуров Фарход Турсоатович, независимый
исследователь Академии МВД Республики Узбекистан*

Аннотация: Ушбу мақолада маъмурий қамоққа олинган шахсларни қабул қилиш ва сақлаш учун мўлжалланган махсус қабулхоналар ҳамда уларда сақланувчи шахсларнинг маъмурий-ҳуқуқий мақоми сифатида, маъмурий қамоққа олинган шахсларни қабул қилиш ва сақлаш учун мўлжалланган махсус қабулхоналар ҳамда уларда сақланувчи шахсларнинг амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган ҳуқуқ, мажбурият, вазифа ва функциялари илмий таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: маъмурий қамоқ, махсус қабулхона, маъмурий-ҳуқуқий мақом, ҳуқуқ ва мажбуриятлар, вазифа ва функция, маъмурий мажбурлов, мажбурлаш чоралари.

Abstract: This article provides a scientific analysis of special reception centers designed for the admission and detention of individuals subject to administrative arrest, as well as the administrative and legal status of persons held in these facilities. It examines the rights, obligations, duties, and functions of individuals detained in these special reception centers as established by current regulatory legal acts.

Keywords: administrative detention, special reception, administrative-legal status, rights and obligations, task and function, administrative coercion, coercive measures.

Аннотация: В данной статье научно проанализирован административно-правовой статус специальных приемников, предназначенных для приема и содержания лиц, подвергнутых административному аресту, а также права, обязанности, задачи и функции этих учреждений и содержащихся в них лиц, определенные действующими нормативно-правовыми актами.



<https://orcid.org/0009-0009-6093-8096>

e-mail:
surhonfarhod@gmail.com



Ключевые слова: административное задержание, специальный приём, административно-правовой статус, права и обязанности, задачи и функции, административное принуждение, меры принуждения.

КИРИШ. Маъмурий қамокқа олинган шахсларни қабул қилиш ва сақлаш учун мўлжалланган махсус қабулхоналарнинг (кейинги ўринларда махсус қабулхона деб аталади) маъмурий-ҳуқуқий мақомини кўриб чиқишда, аввало, ушбу турдаги муассасаларнинг вужудга келиш тарихига эътибор қаратиш мақсадга мувофиқдир. Бу муассасалар фаолиятни ташкил этиш хусусияти ва тамойиллари, тартиби жиҳатидан жазони ижро этиш колониялари, вақтинча сақлаш ҳибсхоналар ёки тергов ҳибсхонаси каби муассасаларга жуда ўхшашдир.

Айтиш мумкинки, ҳозирда сақланаётганларни ижтимоий фойдали меҳнатга жалб этишни яна қайтариш масаласи олимлар томонидан фаол муҳокама этилмоқда. Уларнинг фикрича, агарда ҳуқуқбузар томонидан қонунга ҳилоф ҳаракатлар оқибатида зарар етказилган бўлса, ишлаб топилган пулни зарарни қоплашга ёки тўғридан-тўғри сақлаш билан боғлиқ харажатларни қоплашга йўналтиришни таклиф қилмоқдалар [1;160-6].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ. Рус олими М. Зейдел полиция ҳибсга олишининг ҳар қандай ҳолда қуйидаги мажбурлашни назарда тутишини таъкидлаган: “1) бўйсунмаётган шахсни буюрилган ҳаракатни бажаришга тўғридан-тўғри мажбурлаш, масалан, уни карантин чегарасидан олиб чиқиш; 2) полиция ходимининг қонунда кўрсатилган, бироқ фуқаро томонидан бажарилмаётган ҳаракатни амалга ошириши, масалан, вабо билан касалланган ҳайвонни йўқ қилиш; 3) қисман содир этилган ноқонуний ҳаракат учун, қисман келажакда кўрқитиш мақсадида жазо тайинлаш” [2;47-6]. Профессор А.Трифонов маъмурий-мажбурлов чораларини икки тоифага ажратган: “Ҳаракатни тўхтатишга қаратилган мажбурлаш ва ҳаракатга ундовчи мажбурлаш” [3;84-6].

И.В.Максимовнинг фикрича, маъмурий қамокнинг ҳуқуқий оқибатларининг олдини олиш аҳамияти шундаки, улар ҳуқуқбузарнинг ўзини ва бошқа шахсларни янги маъмурий ҳуқуқбузарликларни содир этишдан тийиб туришга хизмат қилади [4;168-169-6].

МУҲОКАМА. Махсус қабулхона ва у ерда сақланаётган шахсларнинг мақомини кўриб чиқар эканмиз, бир нечта муҳим тушунчаларга аниқлик киритиш лозим. Энг аввало, муассаса ва унда сақланаётган шахснинг ҳуқуқий мақоми қандай, деган саволга жавоб топиш учун маъмурий жазо тизимига эътибор қаратиш лозим. Маъмурий қамокқа олиш уч суткадан ўн беш суткагача муддатга, фавқулодда ҳолат тартиби шароитида эса, жамоат тартибига тажовуз қилганлиги учун – ўттиз суткагача муддатга қўлланилади. Маъмурий қамокқа олиш жиноят ишлари бўйича туман (шаҳар) суди томонидан, фавқулодда ҳолат тартиби шароитида эса, шунингдек ҳарбий комендант ёки ички ишлар органи бошлиғи томонидан белгиланади.

Маъмурий қамокқа олиш чораси ҳомиладор аёлларга, уч ёшгача боласи бўлган аёлларга, ўн тўрт ёшгача бўлган боласини яқка ўзи тарбиялаётган шахсларга, ўн саккиз ёшга тўлмаган шахсларга, биринчи ва иккинчи гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсларга нисбатан қўлланилиши мумкин эмас[1].

Ҳуқуқий мақом юридик фан томонидан субъектнинг ҳуқуқ нормалари билан тартибга солинган ҳолати, унга хос бўлган ҳуқуқ ва мажбуриятларнинг мажмуи сифатида кўриб чиқилади, жумладан: ҳуқуқ субъектчилиги; қонун билан ҳуқуқ ва мажбуриятлар берилиши; белгиланган ҳуқуқларнинг қонунчилик даражасида тасдиқланиши; мажбуриятларни бажармаганлик учун жавобгарликнинг муқаррарлиги.

Шахснинг маъмурий-ҳуқуқий мақоми ўз моҳиятига кўра фуқароларнинг барча тоифалари учун бир хилдир. Бироқ, маъмурий қамокқа олинган шахсларнинг маъмурий-ҳуқуқий мақоми тегишли қонун нормаларида аниқлаштирилиб, бундай тоифадаги шахсларга нисбатан қўлланиладиган таъсир чоралари ва муомала лаёқатини чеклашлар рўйхати билан боғлиқ уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари доирасидаги фарқларни акс эттиради ҳамда уларнинг субъектив ҳуқуқлари амалда чекланганлиги ва бошқа омиллар билан тавсифланади. Кўпинча бу фарқлар соҳага оид

қонунчилик ва қонуности норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда баён этилади.

Таъкидлаш керакки, бу борада тадқиқот олиб борган олимларнинг фикрича, “Маъмурий қамоқ – бу ҳуқуқбузарни жамиятдан қатъий ажратиш шароитида, ушбу мақсадларни амалга ошириш учун махсус мўлжалланган ички ишлар органларининг ҳудудий бўлинмаси ҳисобланган муассасаларда сақлашдир[4;28-6]. Бунда ажратиш деганда, давлат номидан мажбурий равишда амалга ошириладиган, шахснинг ташқи муҳит билан ижтимоий ва бошқа алоқаларини қонун ҳужжатларида белгиланган мақсадлар ва шартларда давлат томонидан махсус жиҳозланган жойларда (биноларда) вақтинчалик ҳуқуқий чеклаш тушунилади.

Маъмурий мажбурловнинг энг қаттиқ чораси сифатида муқобилсиз қўлланилиши бир неча бор ҳақли равишда илмий танқидга учраган. Шу билан бирга, жавобгарликка тортилаётган шахсларнинг манфаатларини маъмурий-ҳуқуқбузарлик муносабатлари субъектлари доирасини аниқлаштириш жараёнида ҳисобга олиш кераклиги таъкидланган [5; 159-160-6].

Маъмурий қамоққа олинган чет эл фуқаролари, юқоридагилардан ташқари, ўз давлатларининг дипломатик ваколатхоналари ва консуллик муассасалари билан, Ўзбекистон Республикасида дипломатик ва консуллик муассасаларига эга бўлмаган мамлакатларнинг фуқаролари эса, уларнинг манфаатларини ҳимоя қилишни ўз зиммасига олган давлатнинг дипломатик ваколатхоналари ва консуллик муассасалари билан алоқа боғлаш ҳуқуқига эга.

Маъмурий қамоққа олинган шахсларнинг ҳуқуқлари билан бир қаторда уларнинг мажбуриятлари ҳам белгиланган. Амалдаги тартибга мувофиқ, махсус қабулхона маъмурияти ва ходимлари маъмурий қамоққа олинган шахсларнинг ҳаёти ва соғлиғига таҳдидларнинг олдини олиш ҳамда уларни бартараф этиш юзасидан дарҳол чоралар кўриши шарт.

Амалдаги қонунчиликка мувофиқ, маъмурий қамоққа олинган шахслар адвокат, қариндошлари ёки бошқа шахслар билан учрашиш ҳуқуқига ҳам эга бўлиб, бунда маъмурий қамоққа олинган шахсларга юридик ёрдам олиши учун адвокат билан учрашувлар

қонунчиликда белгиланган тартибда, сони ва давомийлиги чекланмаган ҳолда берилади.

Маъмурий қамоққа олинган шахснинг аризасига кўра, учинчи шахслар эшитиши мумкин бўлган доирадан ташқарида ва эшитишнинг техник воситаларини қўлламасдан адвокат билан холи учрашишга махсус қабулхона ходимлари томонидан четдан кўз билан кўриб туриб назоратни амалга ошириш имконияти бўлиши шарт билан рухсат берилади.

Қариндошлар ёки бошқа шахслар билан учрашувлар махсус қабулхона ходимларининг назорати остида амалга оширилади ҳамда ички тартиб-қоидаларига кўра сақлаш ҳамда фойдаланиш тақиқланган ҳужжатларни, пул маблағларини, қимматбаҳо буюмларни, нарсаларни ва бошқа ашёларни маъмурий қамоққа олинган шахсга топширишга уриниш бўлган тақдирда муддатидан илгари тўхтатиб қўйилади.

Маъмурий қамоққа олинган шахсларнинг аризалари, таклифлари ва шикоятларини қабул қилиш ҳамда кўриб чиқишнинг асоссиз равишда рад этилиши, уларни кўриб чиқиш ёки олувчиларга топшириш тартиби ва муддатларининг бузилиши ёхуд маъмурий қамоққа олинган шахсларнинг берган аризалари, таклифлари ва шикоятлари муносабати билан таъқиб қилиниши қонунчиликка мувофиқ жавобгарликка сабаб бўлади.

НАТИЖАЛАР.

Ўзбекистон Республикасининг амалдаги маъмурий қонунчилигида маъмурий қамоққа олинган шахсларнинг ҳуқуқий ҳолатини тартибга солишда муайян шароитлар мавжудлиги аниқланди. Махсус қабулхоналар фаолиятини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар таҳлили натижасида қамоққа олинганларни сақлаш шароитларини, уларнинг ички ишлар органлари билан ўзаро ҳамкорлиги тартибини, шунингдек, ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини таъминлаш механизмларини батафсил тартибга солиш зарурлиги аниқланди.

Махсус қабулхоналардаги шахсларнинг маъмурий-ҳуқуқий ҳолати уларнинг ҳимояланиш, тиббий ёрдам кўрсатиш, ташқи дунё билан алоқа қилиш ва маъмурий мажбурлов чораларига шикоят қилиш

хуқуқларини амалга оширишни тўлиқ таъминламаётгани аниқланди. Бу мазкур тоифадаги шахсларнинг ҳуқуқий мақомини яхшилаш, уларни қамокда сақланаётган муассасалар фаолиятининг шаффофлигини оширишга қаратилган комплекс норматив-ҳуқуқий ва ташкилий-ҳуқуқий чора-тадбирларни ишлаб чиқиш зарурлигидан далолат беради.

Шундай қилиб, олинган натижалар маъмурий қамокқа олиш вақтида давлат манфаатлари ва шахснинг қафолатланган ҳуқуқлари ўртасидаги мутаносибликни таъминлаш мақсадида маъмурий қонунчилик ва институционал механизмларни янада такомиллаштириш долзарблигини тасдиқлайди.

ХУЛОСА. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, маъмурий қамокқа олинган, содир этилган ҳуқуқбузарлик учун жазони ўтаётган шахс барча фуқаролар каби маъмурий-ҳуқуқий мақомга эга бўлади, деган хулосага келиш мумкин. Бироқ, маъмурий қамокни ўташда бундай шахсларга қўлланиладиган чекловлар туфайли бир қатор ҳуқуқ ва эркинликлар чекланади. Бундай жазо фақат суд қарори билан амалга оширилиши мумкинлигини кўрсатади.

Махсус қабулхонанинг ҳуқуқий мақоми ҳам у бажарадиган ўзига хос вазифалар туфайли алоҳида хусусиятга эга. Махсус қабулхоналар мақомининг ўзига хос хусусиятлари маъмуриятнинг суд қарорига кўра

фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини чеклаш, уларнинг шахсий буюмларини кўздан кечириш, режимни таъминлаш устидан назорат қилишнинг техник воситаларидан фойдаланиш, мажбурий дактилоскопик рўйхатдан ўтказиш ҳуқуқлари билан белгиланади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Аврутин Р.Ю. Специальный приемник для административно задержанных лиц // Закон и право. -М; 03-2020. С. 160-163.
2. Зейдель М. Полиция безопасности: очерк Макса Зейделя, орд. проф. Мюнхенского ун-та / пер. с нем. прив.-доц. Новороссийского ун-та П. Шеймина. Гродна: Тип. Губ. Правл. -М. 2020. С. 202.
3. Трифонов А. О мерах полицейского принуждения по прусскому и нашему праву. СПб (Trifonov A. On Measures of Police Coercion in Prussian and Russian Law. St. Petersburg.). // Право. -К; 2019. С. 242.
4. Максимов И.В., Рамадзанов М.Д. Административный арест как вид административного наказания // Правовая политика и правовая жизнь. 2003. № 2.
5. Алехин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право Российской Федерации: учебник. М., 2001.



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПОЛИКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ

Мамедова Шахло Душамбоевна,
Ургенчский технологический университет Ранч
POLIMADANIY MUHITDA TALABALARNING
MADANIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK
PRINSIPLARI

Mamedova Shaxlo Dushamboevna, Urganch Ranch texnologiya
universiteti

METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF DEVELOPING STUDENTS' CULTURAL AND AESTHETIC COMPETENCE IN A MULTICULTURAL ENVIRONMENT

Mamedova Shakhlo Dushamboevna, Urgench Technological University
Ranch



<https://orcid.org/0000-0002-1849-9554>
e-mail:
mamedovashahlo@gmail.com



Аннотация: В статье рассматриваются методологические принципы, лежащие в основе развития культурно-эстетической компетентности студентов в условиях поликультурной образовательной среды. Раскрываются содержание и значение таких принципов, как гуманизм, диалог культур, личностно-ориентированный подход, культуросообразность, аксиологический и принцип интеграции. Подчёркивается роль этих принципов в формировании толерантной, эстетически развитой личности, способной к межкультурному взаимодействию.

Ключевые слова: культурно-эстетическая компетентность, поликультурная среда, методология, принципы, гуманизм, диалог культур, личностно-ориентированный подход, интеграция, ценности, культура.

Annotatsiya: Maqolada polimadaniy ta'lim muhiti sharoitida talabalarning madaniy-estetik kompetentligini rivojlantirishga asos bo'luvchi metodologik tamoyillar yoritib berilgan. Gumanizm, madaniyatlar muloqoti, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, madaniy moslik, aksiologik yondashuv va integratsiya kabi tamoyillarning mazmuni va ahamiyati ochib berilgan. Ushbu tamoyillar madaniyatlararo muloqotga qodir, estetik jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirishdagi roli ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: madaniy-estetik kompetentlik, polimadaniy muhit, metodologiya, tamoyillar, gumanizm, madaniyatlar muloqoti, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, integratsiya, qadriyatlar, madaniyat.

Abstract: The article explores methodological principles underlying the development of students' cultural and aesthetic competence in a multicultural educational environment. It reveals the content and significance of such principles as humanism, intercultural dialogue, learner-centered approach, cultural conformity, axiological approach, and integration. The importance of these principles in shaping a tolerant, aesthetically developed personality capable of intercultural interaction is emphasized.

Keywords: cultural and aesthetic competence, multicultural environment, methodology, principles, humanism, intercultural dialogue, learner-centered approach, integration, values, culture.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях глобализации и активных межкультурных контактов возрастает необходимость подготовки специалистов, обладающих не только профессиональными знаниями и навыками, но и высоким уровнем культурно-эстетической компетентности. Особенно актуальной данная задача становится в поликультурной образовательной среде, где формируется новый тип межкультурного взаимодействия, требующий от участников толерантности, уважения к многообразию культур и способности к эстетическому восприятию культурных феноменов [1].

Культурно-эстетическая компетентность студентов представляет собой интегративное качество личности, отражающее способность воспринимать, понимать, интерпретировать и выражать эстетические ценности различных культур. Формирование данной компетентности способствует не только развитию духовно-нравственного начала в личности, но и укреплению межкультурного диалога, формированию уважительного отношения к представителям других национальностей, религий и традиций [2].

Цель настоящей статьи — раскрыть методологические принципы развития культурно-эстетической компетентности студентов в условиях поликультурной образовательной среды.

Объектом исследования выступает процесс формирования культурно-эстетической компетентности студентов, а предметом — методологические подходы и принципы, определяющие его эффективность.

Научная новизна статьи заключается в теоретическом обосновании совокупности методологических принципов, способствующих целостному и системному развитию культурно-эстетической компетентности в поликультурной среде.

Значимость исследования определяется необходимостью совершенствования методических подходов в сфере образования, направленных на воспитание личности, способной к межкультурному взаимодействию и обладающей развитым эстетическим восприятием [3].

Теоретические основы проблемы

Современное образование направлено не только на передачу знаний и формирование профессиональных умений, но и на развитие личностных качеств, среди которых важную роль играет культурно-эстетическая компетентность [4]. Данный компонент образования приобретает особую значимость в условиях поликультурной среды, где взаимодействие представителей различных культур требует высокого уровня эстетической и культурной восприимчивости.

Культурно-эстетическая компетентность трактуется исследователями как интегративное качество личности, включающее систему знаний о культуре и искусстве, развитое эстетическое восприятие, способность к творческому самовыражению и осознанному взаимодействию с художественными ценностями. По мнению Е.И. Пассова, эстетическая компетентность является необходимым элементом межкультурной коммуникации, так как культура любого народа прежде всего проявляется через эстетические формы — искусство, традиции, обычаи, язык, образы [5].

С точки зрения В.С. Библера и М.М. Бахтина, культурное развитие личности происходит в диалоге культур, при котором личность не только приобщается к иной культурной традиции, но и переосмысливает свою собственную [6]. Такой подход лежит в основе формирования поликультурной личности — способной к диалогу, пониманию и принятию культурных различий.

Поликультурная среда образовательного учреждения представляет собой пространство, в котором взаимодействуют представители различных этнических, национальных, религиозных и языковых групп. В такой среде формируются особые условия для развития толерантности, эмпатии, креативности и культурной чувствительности. Исследования показывают, что при правильно организованной педагогической работе поликультурная среда способствует активному формированию эстетического вкуса и уважения к культурным ценностям других народов (Л.Н. Лаврова, И.А. Суханов, Г.Д. Дмитриева и др.) [7].

Методологические принципы как основа организации образовательного процесса

предполагают наличие устойчивых ориентиров, на которых строится выбор целей, содержания, форм и методов обучения. В контексте развития культурно-эстетической компетентности особую роль играют гуманистический, личностно-ориентированный, культурологический и аксиологический подходы [8].

Таким образом, теоретический анализ проблемы позволяет выделить совокупность условий и факторов, способствующих формированию культурно-эстетической компетентности студентов, а также определить методологические основания, на которых строится педагогическая работа в поликультурной среде.

Методологические принципы развития культурно-эстетической компетентности студентов в поликультурной среде

Процесс формирования культурно-эстетической компетентности студентов требует научно обоснованного методологического подхода, предполагающего выбор таких принципов, которые обеспечивают целостность, гуманизм и эффективность образовательного взаимодействия. В условиях поликультурной среды особую значимость приобретают следующие методологические принципы:

1. **Принцип гуманизма** Гуманистический подход предполагает признание личности студента высшей ценностью образовательного процесса. Он ориентирует преподавателя на развитие внутренних духовных и культурных качеств обучающегося, формирование его эстетического вкуса и мировоззренческой позиции. В рамках гуманизма культурно-эстетическая компетентность рассматривается как средство воспитания нравственной, чувствительной к прекрасному личности [9].
2. **Принцип диалога культур** Согласно данному принципу, развитие эстетической чувствительности и культурного сознания происходит в процессе межкультурного диалога. Поликультурная среда предоставляет богатые возможности для сравнения, сопоставления, взаимопроникновения культур. Методологически это предполагает

включение в учебный процесс элементов различных культурных традиций, искусства и обычаев с целью формирования уважения и интереса к ним [10].

3. **Принцип личностно-ориентированного подхода** Этот принцип ориентирован на индивидуальные особенности студентов, их личный опыт, уровень развития эстетического восприятия и культурных знаний. Он позволяет выстраивать образовательный процесс с учётом интересов, мотивации и культурного фона каждого обучающегося, обеспечивая максимальную включённость в учебную деятельность [11].
4. **Принцип культуросообразности** Принцип культуросообразности требует соответствия содержания образования общечеловеческим и национальным культурным ценностям. Он предполагает изучение искусства, литературы, языка и традиций в их взаимосвязи с культурным контекстом, в котором живут студенты. Важно, чтобы учебный материал не противоречил нормам и этике различных культур, а наоборот, служил объединяющим элементом [12].
5. **Аксиологический принцип** Аксиологический (ценностный) подход направлен на осознание студентами ценности культуры и искусства как важнейших составляющих человеческой жизни. Через эстетическое восприятие формируется система личностных ценностей, таких как доброта, гармония, красота, справедливость. Аксиологический принцип особенно важен при обучении в поликультурной среде, где требуется формирование уважения к ценностям других народов [13].
6. **Принцип интеграции** Формирование культурно-эстетической компетентности невозможно в рамках одной дисциплины. Необходима интеграция различных образовательных областей — гуманитарных, художественных, языковых — с целью создания целостной картины мира. Такой междисциплинарный подход способствует глубокому пониманию культуры как многоаспектного феномена [14]

Применение указанных методологических принципов позволяет

эффективно организовать образовательный процесс, направленный на развитие у студентов способности воспринимать, анализировать и интерпретировать эстетические феномены различных культур, а также формировать уважительное и толерантное отношение к культурному многообразию мира.

Заключение

Формирование культурно-эстетической компетентности студентов в условиях поликультурной образовательной среды является одной из приоритетных задач современного образования. Теоретический анализ проблемы позволяет сделать вывод о том, что эффективная реализация этой задачи требует опоры на совокупность методологических принципов, обеспечивающих системный и гуманистический подход к обучению.

Ключевыми среди них выступают принципы гуманизма, диалога культур, личностно-ориентированного подхода, культуросообразности, аксиологический и принцип интеграции. Их практическое применение способствует не только формированию эстетического восприятия и художественного вкуса у студентов, но и развитию толерантности, эмпатии и готовности к межкультурному взаимодействию.

Предложенная методологическая основа может стать теоретической базой для дальнейших исследований и разработки практических методик [15]

Список литературы

1. Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам: лингводидактика и методика. — М.: Академия, 2019. — 336 с.
2. Дмитриева Г.Д. Формирование культурной компетентности студентов в поликультурной образовательной среде. — СПб.: СПбГУ, 2018. — 214 с.
3. Сухомлинская Е.Н. Аксиологический подход в педагогике. — М.: Педагогика, 2017. — 200 с.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результат современного образования. — М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. — 64 с.
5. Пассов Е.И. Коммуникативная методика обучения иностранным языкам: теория и практика. — М.: Русское слово, 2015. — 384 с.
6. Библер В.С. От наукоучения к логике культуры. — М.: Политиздат, 1991. — 413 с.; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. — М.: Искусство, 1979. — 445 с.
7. Лаврова Л.Н., Суханов И.А., Дмитриева Г.Д. Поликультурная среда как фактор воспитания толерантности студентов. // Вестник педагогических наук. — 2020. — №2. — С. 56–62.
8. Подласый И.П. Педагогика: новый курс. — М.: ВЛАДОС, 2021. — 528 с.
9. Бим И.Л. Гуманистические основы обучения и воспитания. — М.: Просвещение, 2012. — 220 с.
10. Савельева Л.Н. Диалог культур в образовательной среде вуза. // Вестник ТГПУ. — 2019. — №7. — С. 35–40.
11. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. — М.: ВЛАДОС, 2018. — 240 с.
12. Краевский В.В., Хуторской А.В. Культуросообразность как принцип педагогики. — М.: Педагогика, 2010. — 264 с.
13. Сластёнин В.А. Аксиологический подход в образовании. // Педагогика. — 2015. — №3. — С. 12–18.
14. Богуславский М.В. Интеграция гуманитарного знания в системе современного образования. — М.: Изд-во МПГУ, 2017. — 350 с.
15. Ермоленко И.В. Методологические основы формирования межкультурной компетентности студентов. // Высшее образование в России. — 2020. — №8–9. — С. 111–118.

PSIXOLOGIK TRENINGDA AQLIY HUJUM VA BAHS-MUNOZARA USULI

¹Kurbanbayeva Muqaddas Kozibayevna,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti "Pedagogika va tillar"
kafedrası o'qituvchisi

²Kulumova Mohira Mahmudovna,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
Amaliy va gumanitar fanlar fakulteti
Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 05-22-guruh talabasi



qurbanbayevamuqaddas9@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-7245-273X>

BRAINSTORMING AND DISCUSSION METHODS IN PSYCHOLOGIST TRAINING

¹Kurbanbaeva Muqaddas Kozibaevna
Teacher of the Department of "Pedagogy and Languages" of
Tashkent University of Humanities

²Kulumova Mohira Mahmudovna
Tashkent University of Humanities
Faculty of Applied and Humanitarian Sciences
Student of group 05-22, Pedagogy and Psychology

МЕТОДЫ МОЗГОВОГО ШТУРМА И ДИСКУССИИ В ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГАХ

¹Курбанбаева Мукаддас Козыбаевна, преподаватель кафедры
«Педагогика и языки» Ташкентского гуманитарного
университета

²Кулумова Мохира Махмудовна, Ташкентский гуманитарный
университет, факультет прикладных и гуманитарных наук,
студентка группы 05-22 направления «Педагогика и
психология»



makhmudovnamokhira@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada psixologik treningning ahamiyati, unda eng ko'p qo'llaniladigan metodlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: psixologik trening, kasbiy muvaffaqiyat, aqliy hujum usuli, bahs-munozara usuli.

Abstract: The article discusses the importance of psychological training, the most common methods.

Keywords: psychological training, professional success, brainstorming method, debate method.

Аннотация: В статье рассматривается важность психологического тренинга, наиболее распространённые методы.

Ключевые слова: психологический тренинг, профессиональный успех, метод мозгового штурма, метод дебатов.

Kirish. Trening - bu turli faoliyat shu bilan birga, trening texnologiyasi odamning sohalarida keng qo'llaniladigan juda mashhur va kayfiyatini, muayyan faoliyat turiga bo'lgan keng tarqalgan o'qitish shaklidir. Kasbiy munosabatini o'zgartirishga, o'z-o'zini tarbiyalash muvaffaqiyat ko'plab tarkibiy qismlardan iborat,

va o'zini rivojlantirish zarurligini anglashga yordam beradigan o'quv shakllardan biridir.

Trening jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri Aqliy hujum usulidir. Aqliy hujum munozaraning eng erkin shakli hisoblanadi. Bu usulning asosiy vazifasi — g'oyalar generatsiyasini ta'minlashdan iborat bo'lib, ishtirokchilar taklif etayotgan fikr va qarorlar hech qanday tahlilsiz va muhokamasiz qabul qilinadi. Bu shunday usul-ki, ta'limdagidan farqli o'laroq, muhokama qilinayotgan mavzu yuzasidan har bir ishtirokchi o'z fikrini va qarashlarini bildirishi shart. Trener esa har bir javob variantlarini diqqat bilan tinglashi va e'tirozsiz qabul qilishi zarur.

Bunda muhimi bildirilayotgan fikrga balm berish emas, balki ulaming hammasini qabul qilish va har bir ishtirokchi aytayotgan fikrni doska yoki flipchart qog'ozga yozib borishdir. Aynan shu usuldan treninglarda juda ko'p foydalaniladi. Chunki bu usul ishtirokchilarning o'z mustaqil fikrini bildirish olishining eng qulay yo'lidir. Bu usuldan trening mashg'ulotining boshidayoq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, guruh kayfiyatini bilish, ulaming bilim darajasini aniqlab olish va treningdan nima kutayotganliklarini bilib olishda "Aqliy hujum" - eng qulay usul hisoblanadi. Aqliy hujum natijasida olingan ma'lumotlar guruh bilan olib boriladigan keyingi ishlar uchun yo'llanma bo'lishi mumkinligini ham trenerlar unutmasliklari kerak. Ya'ni guruhning keyingi ishlari jarayonida guruhning yoki aynan kimningdir avvalgi bildirgan fikriga qaytish, aynan guruhning vakuniy xulosasiga qarab ish yo'nalishini o'zgartirish kabilar shular jumlasidandir.

Bu usulning trening jarayonida foydali jihatlari ko'p bo'lib, u ayniqsa quyidagi hollarda juda qo'l keladi:

- nozik va munozarali savollarni muhokama qilish uchun;

- o'ziga ishonmaydigan ishtirokchilarni munozaraga tortish va ularni qiziqitirish uchun - qisqa vaqt mobaynida ko'proq fikr yig'ish uchun.

"Aqliy hujum" usulining muvaffaqiyati ikkita asosiy prinsipga amal qilinishiga bog'liq. Birinchi prinsip, energetika nazariyasi bilan bog'liqdir. Uning mohiyati quyidagicha: insonlar individual holda ishlagandagiga nisbatan guruh, birgalikdagi faoliyatda ijobiy va yaxshi g'oyalar tez va oson paydo bo'ladi. Negaki guruhda kimdir

tomonidan bildirilgan "yaroqsiz" g'oya butun guruh tomonidan qo'shimcha fikrlar bilan to'ldiriladi va qayta ishlab chiqiladi. Demak, bu prinsipga asosan, guruhdagilarning fikrlariga "hujum" qilinsa, ulardan yaxshi va original g'oyalar ko'p chiqadi.

Ikkinchi prinsipga ko'ra, agar guruh g'oyalar generatsiyasi holatida bo'lsa, u holda o'sha kreativ tafakkuri turli sabablar bilan to'xtatish kerak emas. Chunki bunday holat yangi-yangi g'oyalarning yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Aqliy hujumning afzalliklari:

- Ijodiy tafakkurni rivojlantiradi

- Standart tafakkur chegaralaridan chiqib ketishga imkon beradi

- Oddiy, lekin chiroyli g'oyalar yuzaga kelishi oson amalga oshadi.

Aqliy hujumning afzalliklari qatoriga yana uning oson tushuniladigan va oson qo'llaniladigan usul ekanligini hamda u yuqori texnologiyali asbob-uskunalar yoki uzoq muddatli o'qitishni talab qilmasligini, shuningdek uning natijalarini osonlik bilan baholash mumkinligini ham qayd etish mumkin.

Aqliy hujumning o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ular:

Ishtirokchilarning qatnashishida noqulayliklar mavjudligidir, ya'ni "Aqliy hujum"da guruhning barcha a'zolari qatnashishlari shart bo'lgani uchun fikr bildirish jarayonida gapirmaydigan, tortinchoq ishtirokchilar o'zlarini noqulay his qilishlari yoki hech kimda taklif, fikr, g'oyaning bo'lmasligi guruh va trenerning noqulay sukunatda vaqt o'tkazishiga olib kelishi mumkin.

Aqliy hujum treningda muammolarni hal etish, qaror qabul qilish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish maqsadida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. U ishtirokchilarda tinglash ko'nikmalarini rivojlantiradi va jamoani tuzishda foydali bog'lovchi elementni ta'minlaydi. "Aqliy hujum" usulini o'tkazish o'ziga xos bosqichlarga bo'linadi va bu bosqichlarga amal qilish har bir trenerdan talab etiladi.

"Aqliy hujum"ni o'tkazish bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Trener "Aqliy hujum" mavzusini taqdim qiladi.

2. Taqdim qilingan mavzu yuzasidan fikr-mulohazalarini o'ylab olish uchun ishtirokchilarga vaqt beriladi.

3. Taqdim qilingan mavzu yuzasidan fikr-mulohaza bildirish uchun ishtirokchilarga imkon beriladi.

4. Bildirilgan barcha fikr-mulohazalar maxsus qog'oz yoki doskaga yozib boriladi.

5. Muhokama yakunida guruhda turli fikrlilikdan yagona fikrga kelinadi.

Shuningdek, aqliy hujum usulini o'tkazishning 3 ta qoidasi ham mavjud:

1. Barcha fikrlarni e'tirozsiz qabul qilish va har bir ishtirokchiga aytilgan fikri uchun minnatdorchilik bildirish.

Fikrlarni yozib olayotganda birorta ham fikrni tashlab ketmaslik, ya'ni har bir ishtirokchi bildirgan fikrni albatta yozib borish.

2. Bildirilgan fikrlarni yakunlash va yagona qarorga kelish uchun har bir ishtirokchidan uning rozi yoki rozi emasligini so'rash shart.

Bildirilgan barcha fikrlarni ma'lum bir guruhga va shaklga keltirish bosqichiga o'tayotganda boshlovchi albatta ishtirokchilardan uning fikriga rozi yoki rozi emasligini yoxud boshqacha tushunib qolmaganligini so'rashi kerak, agar norozilik yo'ki tushunmovchiliklar bo'lsa, bunga albatta aniqlik kiritish lozim bo'ladi.

Aqliy hujumning natijasi — turli xil g'oyalar, fikrlar, mulohazalar yig'indisidan yagona fikrga kelish bo'lsa, asosiy maqsad - ishtirokchilarning faol ishlashini la minlashdan iborat. Shuning uchun trening davomida aqliy hujum natijalariga tez- ioz murojaat qilib turish kerakki, bunda ishtirokchilar o'zlarining faol harakatlari natijasini, ulardan keyinchalik ham foydalanilayotganligini ko'rishlari kerak, bu esa ularda "Nima keragi bor edi, bu gaplarning?" kabi savollar tug'ilishining oldini oladi.

Bahs-munozara usuli.

Hozirgi zamon ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan noan'anaviy ta'lim usullaridan yana biri bahs-munozara usulidir. Bu usul trening mashg'ulotlarida ham yaxshi samara berishi ko'pgina mutaxassislar tomonidan qayd etilgan. Bu usulning ma'nosi - trener va ishtirokchilar o'rtasida fikrlar, qarashlar, bilimlarning erkin holda verbal ayiribboshlashuvidir.

Bahs-munozarani katta guruhlarda o'tkazsa ham bo'ladi, lekin u kichik guruhlarda, ayniqsa trening guruhlarida o'tkazilsa ko'proq foyda beradi. Muammoni guruhda muhokama qilish ishtirokchilarga nafaqat o'zaro fikr almashish, balki

muhokama etilayotgan mavzu haqida aniq ma'lumotlar olish, o'z hissiyotlari va nuqtai nazarlarini ifoda etish imkoniyatini ham beradi. Bahs-munozara boshlanishidan oldin trener tomonidan muhokama etiladigan mavzuga doir biror-bir hikoya yoki voqea aytib berish ishtirokchilarda uning "ildizi"ni ilg'ab olishga turtki bo'lishi bilan birga munozara jarayonining yaxshi o'tishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Munozara — trening usuli sifatida, faqat bitta savol yoki mavzu bilan cheklanadi hamda ma'lum bir tartibda tuziladi. Eng muhimi shuki, har bir ishtirokchi o'z nuqtai nazariga ega bo'lishi va boshqalarning fikrlarini hurmat qilishi shart. So'zlayotgan ishtirokchining gapini bo'lib qo'yish ta'qiqlanadi. Ko'p hollarda munozaralar emotsional sohani qo'zg'atib qo'yishi mumkin, ammo bu holatni bahslashuviga aylanib ketishiga yo'l qo'yish kerakmas. Hamma ishtirokchilar umumiy maqsadlarga erishishga intilganlaridagina munozara amalga oshirilishi mumkin. Munozara samarali bo'lishi uchun ishtirokchilar bazaviy bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Bu bilimlar treningda ishtirok etishdan oldingi hayotiy tajribadan olingan bo'lishi yoki dastur talablariga taqdim etilgan ma'lumotga tayangan bo'lishi mumkin. Bu usuldan foydalanish jarayonida vaqtning taqsimlanishi va tayyorgarlikka alohida e'tibor qaratish lozim. Trener munozarani boshlashdan avval ishtirokchilarga vaqtning cheklanganligini va bahslashish uchun qancha vaqt ajratilganligini aniq aytishi kerak. Chunki vaqtning cheklanishi muhokamaning tempini oshiradi va uni jonlantiradi. Bu esa munozaraning qizg'in o'tishi va zaruriy xulosalarga erishishni kafolatlaydi.

Bahs-munozarani tashkil etishdan oldin uni rejalashtirish ham katta ahamiyatga ega. Munozaraning barcha jihatlarini oldindan rejalashtirib bo'lmaydi. Ammo mavzuning taxminiylarini (chizma)larini tayyorlab qo'yish mumkin. Unda: Mavzu bilan tanishtirish;

Munozaraning chegaralarini o'rganish,

Munozaraning maqsadini demonstratsiya (namoyish) qilish

Munozaraning mavzusiga oid qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish.

Munozarani boshqarish uchun bir qator asosiy savollarni tayyorlab qo'yish.

Trener bu jarayonda ijobiy muhitni yaratish uchun mas'uldir. Istalgan mavzudagi bahs-munozarani o'tkazishda trenerning roli vositachi

roliga juda yaqin turadi. Trener guruhni asta-sekin munozaraga olib kirishi lozim. Bunda u ochiq savollardan foydalanishi maqsadga muvofiq. Ishtirokchilar o'rtasida o'zaro fikrlar almashinuvi boshlanganidan so'ng esa trener munozarani hech kim tomonidan monopollashtirilmasligini, ya'ni hech kimning yakka hokimlik, ustunlik qilishga harakat qilmasligini ta'minlashi kerak. Agar keltirilayotgan ma'lumotlar shubhali bo'lsa, u holda trener so'zlovchidan izoh so'rashi, yoki juda yuzaki aytib o'tilgan fikrlarga oydinlik kiritishni so'rashi lozim.

Trening guruhlarida bahs-munozara o'tkazayotganda qoida sifatida quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

- Biror ishtirokchi o'z fikrini bayon etayotganida boshlovchi uni bo'lib qo'yishga yoki uning fikri noto'g'riligini isbotlashga va o'zming so'zini o'tkazishga harakat qilmasligi kerak. Chunki bu beriladigan keyingi savolga butun guruhning yoki ko'pchilikning javob berishdan bosh tortishiga olib kelishi mumkin.

- Savol berilganidan so'ng ishtirokchilarni shoshiltirmaslik, javobni o'ylab olishlari uchun vaqt berish lozim. Lekin bunda ular berilgan savol ustida ko'p o'ylanmasliklariga ham e'tibor berilsa, mashg'ulotning bir xil tempda va qiziqarli o'tishiga sharoit yaratiladi.

- Trener iloji boricha "ha", "yo'q" javoblariga eltuvchi savollar bermaslikka harakat qilishi lozim.

- Ishtirokchilarni gapirtirish uchun savollar tushunarli, aniq va lo'nda tuzilgan bo'lishi kerak.

Muayyan masalalarda guruh munozaralardan foydalanish muammoning turli yechimlarini topishda asqotadi. Munozara ishtirokchilarning muhokama qilinayotgan mavzuga qiziqishini oshiradi, ularga o'z fikrini bayon qilish va boshqalarning fikrini eshitishiga imkon beradi. Bundan tashqari, munozara davomida muammo yechimining turli yo'llari topiladi, guruhning birlashishiga va o'zaro mustahkamlanishiga asos solinadi.

Treningda guruh munozara har bir ishtirokchining muayyan masalaga oid tushuncha va qarashlarini aniqlab olish usuli sifatida ishlatiladi. Misol uchun, ishtirokchilarning "Oilaviy hayot va mas'uliyat", "Oilada sevgi va jinsiy munosabatlar", "OITSga ongli munosabat", "Er-xotin munosabatida nizoli vaziyatlar" kabi mavzulardagi fikrlarini bilish

qiziqarlidir. Shunda muammo yechimlarini topish ham osonlashadi.

Munozara metodining afzalliklari:

A) Tushunilganlikni namoyish etish.

Munozara metodi guruh a'zolarining muhokama etilayotgan muammo yoki mavzuni qay darajada tushunishini ko'rsatib beradi. Shuningdek, bu usul guruh a'zolariga o'z nuqtai nazarini, ustanovkalarini yana bir bor tasdiqlashga yoki inkor etishga imkon beradi.

B) Bilimlarning faol tarzda uzatilishi.

Munozara metodi ma'ruzaga nisbatan ancha uzoq muddatli foyda beradi. Xususan, muhokama qilinayotgan mavzu yuzasidan guruhdagi ishtirokchilarda qarama-qarshi ustanovkalar, fikrlar, qarashlarning bo'lishi munozara metodida juda qo'l keladi. Boshqalarning fikrlari bilan kelisha olmayotgan insonlarga ma'ruzaga nisbatan munozara ko'proq ta'sir etadi.

V) Faol o'zaro munosabat.

Bahs-munozara guruhning yuqori faollik darajasini talab etadi. Kundalik hayotdagi odatiy hollarda ba'zi kishilar muhokamalarda ishtirok etmasligi tabiiy hol, bunday kishilar trening guruhlarida ham mavjud bo'ladi. Lekin muhokama etiladigan mavzu guruhga mos holda tanlangan bo'lsa, u holda yakkalanib qolgan ishtirokchilar ham beixtiyor munozaraga qo'shilib ketadilar.

Munozara metodining kamchiliklari:

A) Mavzudan chetlanib ketish ehtimoli ko'p bo'ladi.

Berilgan mavzudan uzoqlashish, butunlay boshqa mavzuga o'tib ketib qolish hollari ko'p bo'ladi. Shuning uchun guruhni kerakli yo'nalishda ushlab turish uchun munozara boshlanishidan oldin asl muammoni va munozara shartlarini takrorlab o'tish zarur.

B) Kuchli guruhga tobe' bo'lib qolish.

Munozaraning sifati ma'lum darajada guruh a'zolarining bilim va tajribalari bilan belgilanadi. Shuning uchun trening ishtirokchilarining tanlovini amalga oshirishda taxminan teng (imkoniyatli) ishtirokchilarni yig'ishga ahamiyat berilishi lozim. Aks holda bahsni o'z qo'lga olgan guruhning fikriga qolgan guruh a'zolari ham tobe bo'la boshlashlari mumkin.

V) Noto'g'ri pozitsiyaga qattiq ishonib qolishi mumkin.

Munozara kimningdir narsa-hodisalarga turlicha nuqtai nazar bilan qarashiini ifodalashga

imkon yaratadi. Ammo shunday bo'lishi ham mumkin-ki, guruh a'zosi o'z shaxsiy fikriga bildirilgan qarama-qarshi fikr oldida noiloj qolib, noto'g'ri fikmi astoydil himoya qilayotgan guruh yoki ishtirokchiga ishonib qolishi ham mumkin. Trening jarayonida trener munozara o'tkazishning quyidagi bosqichlarini bilishi lozim:

1. Yo'naltirish bosqichi — bunda munozara mavzusi tanlanadi, maqsad aniqlanadi, ishtirokchilar tomonidan bildirilgan tushuncha, fikr, mulohazalar asosida ish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar yig'iladi.

2. Vaqtni boshqarish bosqichi — bunda trener mavzuni e'lon qilish, ish shakiini tushuntirish va zaruriyatga qarab ishtirokchilarning fikrini yo'naltirib turish uchun vaqtni oldindan taqsimlashi zarur.

3. Baholash bosqichi — muhokama davomida barcha fikrlarni eshitib bo'lgandan so'ng, ularni tartib bilan asosli tarzda va hamkorlikda baholash juda muhimdir.

4. Tugallash bosqichi — bunda munozara yakunlari sarhisob qilinadi. Guruhiy munozara jarayonida trener guruhda ishonch muhitini yaratish uchun mas'uldir. Shuning uchun u bir paytning o'zida ikkita rol — ham trener, ham ishtirokchi rolini o'tashga burchlidir. Va oxirida trener yagona xulosani e'lon qiladi, ishtirokchilarga minnatdorchilik bildiradi.

Trening jarayonida bahs-munozara usuli ishtirokchilarni yanada yaqindan bilish imkonini ham beradi-ki, bu ishtirokchilar orasidagi o'zaro munosabatlarga treningning ular bilan munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bahs-munozarani tashkil etish, o'tkazish va ayniqsa, uni yakunlashda trenerdan katta mahorat hamda psixologik savodxonlik talab etiladi.

Xulosa. XXI asrda kishilarning eng tabiiy bo'lgan muloqotga ehtiyoji, uning muloqot sirlaridan xabardor bo'lish va o'zgalarga samarali ta'sir etishga bo'lgan intilishi yanada oshdi. Birinchidan, axborotlashgan jamiyatga o'tganligimiz tufayli axborotlarning ko'pligi aynan inson manfaatiga aloqador ma'lumotlarni saralash, u bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Ikkinchidan, turli kasb faoliyat sohasida ishlayotgan odamlar guruhining ko'payishi, ular o'rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarbligi axborotlar tig'iz sharoitida

oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab etadi. Uchinchidan, hozirda shaxslarni ruhiy salomatligini saqlash maqsadida hissiy-emotsional zo'riqlashlarni oldini olish va bartaraf etishni rivojlantirish kabilar dolzarb masalalardir.

2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish to'g'risidagi konsepsiyaning qabul qilinishi va uni amalga oshirish maqsadida barcha ta'lim -tarbiya muassasalari, korxona va tashkilotlar, oila institutlari, hamda mahalla uyushmalarida aholini ruhiy zo'riqlashlarini bartaraf etish, natijada aholining salomatligini, ish unumdorligini oshirish keng targ'ib qilinmoqda.

Adabiyotlar:

1. Baratov Sh., Olimov L. Sotsial trening va amaliyot. Toshkent, 2007
2. Ismoilova N., Abdullaeva D. Trening o'tkazish metodikasi. Toshkent, 2009
3. Ismoilova N. Sotsial psixologik trening. Toshkent, 2019
4. Цзен Н., Пахомов Н. Психотренинг: игры и упражнения. Москва, 1999
5. Рудестам К. Групповая психотерапия. Москва, 2013
6. Вебер В. Важные шаги к помогающему диалогу. Введение. СПб.: РАТЭПИ, 1998
7. Гиппиус С.В. Тренинг развития креативности. СПб., 2001
8. Анн Л.Ф. Психологический тренинг с подростками. - СПб.: Питер, 2007
9. Марковская И. М. Тренинг взаимодействия родителей с детьми. — СПб.: Речь, 2005
10. Стишенков И.В. Сказка в тренинге: коррекция, развитие, личностный рост. СПб.: Речь, 2006
11. Azgarova Gulsum Alisherovna. Psixologik treninglarning ahamiyati va uni o'tkazish metodikasi. [Vol. 6 No. 6 \(2023\): PEDAGOG](#)
12. Курбанбаева Мукаддас Козибаевна. TAMADDUN NURI Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal 2024, №7. Гаджетлар ва уларнинг бола психикасига таъсири.

**STRATEGEMALAR NAZARIYASI VA
“STRATEGIOLOGIYA”
FANINING FALSAFIY-TARIXIY ILDIZLARI
O‘rinboyev Davlatjon Baxtiyorovich, Qo‘qon davlat universiteti
dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori
THE THEORY OF STRATEGEMS AND THE
PHILOSOPHICAL-HISTORICAL ROOTS OF THE
SCIENCE OF “STRATEGIOLOGY”**

*Urinboyev Davlatjaon Bakhtiyorovich, Associate Professor at
Kokand State University, Doctor of Philosophy in Philosophical
Sciences*

**ТЕОРИЯ СТРАТЕГЕМ И ФИЛОСОФСКО-
ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ НАУКИ
“СТРАТЕГИОЛОГИЯ”**

*Уринбоев Давлатжон Бахтиярович, доцент Кокандского
государственного университета, доктор философии по
философским наукам*



<https://orcid.org/0009-0004-0632-7343>

e-mail:
davlatjonurinboyev753@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Strategemalar nazariyasining tarixi, uning turli mamlakatlarda ishlab chiqilishi hamda hayotga tatbiq etilish uslublari, davlat va jamiyat boshqaruvida, uning rivojlanishida Strategiologiya fanining o‘rni va ahamiyatiga bo‘lgan zaruratning kelib chiqishi tahlil etilgan. Shu bilan birgalikda bugungi davrda strategik maqsadlarni belgilashda qadimgi va yaqin o‘tmish tarix jarayonlarni e‘tiborga olish ahamiyatli ekanligi va taraqqiyot strategiyasining jamiyat rivojida tutgan o‘rni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Strategiologiya fani, strategema, strategemalar nazariyasi, strategiya, Sharq tarixi, Temur tuzuklari, Boburnoma, Strategematon, “Davlatpanoh”, Sun Tzu, Sharq va G‘arb strategemalar nazariyalari, Strategiologiya falsafiy-tarixiy mazmunga ega bo‘lgan formalari.

Abstract: The article analyzes the history of the theory of stratagems, its development in various countries, and the methods of its application in practice. It also explores the emergence of the need for and the significance of the science of Strategiology in the governance and development of the state and society. Additionally, the importance of taking into account ancient and recent historical processes when setting strategic goals in the modern era is highlighted, along with the role of development strategy in the progress of society.

Keywords: science of Strategiology, stratagem, theory of stratagems, strategy, Eastern history, Temur Tuzuklari, Baburnama, Strategematon, “Davlatpanoh”, Sun Tzu, Eastern and Western theories of stratagems, philosophical-historical forms of Strategiology.

Аннотация: В статье проанализированы история теории стратегем, её развитие в различных странах и методы применения в жизни, а также необходимость формирования и значимость науки стратегиологии в управлении государством и обществом, в их развитии. Наряду с этим освещается важность учета древних и новейших исторических процессов при определении стратегических целей в современную эпоху, а также роль стратегии развития в общественном прогрессе.

Ключевые слова: наука стратегиология, стратегема, теория стратегем, стратегия, история Востока, “Темур тузуклари”, “Бабур-наме”, “Стратегематон”, “Давлатпанох”, Сунь Цзы, восточные и западные теории стратегем, философско-исторические формы стратегиологии.

KIRISH. Strategemalar nazariyasi va Strategiologiya ta'limoti tanqidiy fikrlash, jahon tajribalari va falsafiy masalalarni izohlash uchun muhim vositadir. Uning falsafiy-tarixiy ildizlari kundo'zlik siyosat, strategik rejalashtirish va jahon munosabatlarining evolyutsiyasida yaratilgan konsepsiyalarga asoslangan. Strategiyaning rivojlanishi, falsafiy ildizlari yoki tarixiy jarayonlar bilan uzviy ravishda vujudga kelganligidan dalolat beradi.

Energetika, iqtisodiy manbalar va ijtimoiy hayotning strategik g'oyalari oralig'idagi bog'liqlik. Falsafadagi etik va emotsional mexanizmlar strategiyalarda tadqiq qilingan. Ushbu tushunchalar siyosiy harakatlar va jamiyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Grek va Rim davrlaridagi harbiy strategiyalarni o'rganish. Klassik matnlarda, masalan, Sun Szyuning asarlarida juda muhim ahamiyatga ega.

XX asrdagi global siyosat, iqtisodiy strategiyalar va muammolar. Strategiylarning tahlili, hamda ularning bir-biriga ta'siri mavjud ekanligini namoyon etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilsak, ularni ikki guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruhga tarixiy-siyosiy, davlat boshqaruvi va jamiyatdagi barcha islohotlarning mazmunini qamrab olgan nodir adabiyotlarni kiritish mumkin: Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-mulk). (Ikkinchi to'ldirilgan, qayta ishlangan nashri –T.: Yangi asr avlodi, 2008. –239 b.), Temur tuzuklari. (G'.G'ulom nashriyoti, — T.: 1991). Ushbu adabiyotlarda adolatli davlat boshqaruvi va strategik tamoyillar to'g'risida ko'proq urg'u berilgan.

Ikkinchi guruhga g'arb mamlakatlarida zamonaviy strategemalar nazariy asoslari ilgari surilgan manbalarni kiritish mumkin: Платон. Политик. пер. и коммент. Р.Светлова. — Санкт-Петербург: Платоновское философское общество, 2019. - 212с, Макиавелли. Государь. Серия: Теории власти Пер. с итал.под.ред. А.К.Дживелегова, Н.С.Курочкина. Академический, 2018. — 495 с., Харро фон Зенгер. Стратагем. О китайском искусстве жить и выживать. Знаменитые 36 стратагем за три тысячелетия. — М.: Прогресс, Культура. 1995; Зенгер Х. фон. Стратагеми. О китайском

искусстве жить и выживать. ТТ. 1, 2. -М: Эксмо, 2004; Кайхан Криппендорф. 36 стратагем в эпоху конкуренций. — С-Пб, 2005, Харро фон Зенгер. Полное собрание 36 знаменитых китайских стратагем в одном томе. Стратагеми 1-36. О китайском искусстве жить и выживать. Пер.с немецкого. Вступит.статья и коммент. В.С.Мясникова. — Москва: ЭКСМО. 2018. — 1040с.

NATIJA. Butun dunyo kabi, Markaziy Osiyoga xos strategiyalarning tarixiy ildizlari qardosh xalqlarimizning uzoq tarixiga borib taqaladi va bu ularning bir hudud, bir mintaqada yashashi va o'tmishining umumiy ildizlari bilan uzviy bog'liqligi bilan izohlanadi. Mazkur xalqlarning bugungi kundagi strategiyalari tarixi va tadrijining dialektikasida muqarrar ravishda ularning barchasi uchun umumiy ildiz bo'lgan zardushtiylik dini, Zardusht ta'limoti va "Avesto" kitobining asrlardan asrlarga yetib kelayotgan ta'sirini alohida ta'kidlash lozim.

"Avesto"da Zardushtning keyinchalik G'arbda yunon faylasufi Geraklit so'zlari deb qaraluvchi, o'sha davrdagi dialektik falsafaning asosini o'zida mujassam etgan mashhur xulosasini o'qiymiz: "Olov – eng oliy qudrat: u barcha narsani o'z ichiga oladi va barcha narsaga inadi. U doimiy yonish bilangina yashaydi va barcha-barcha narsada faqat olov yonadi. Inson ham ana shu oliy qudrat bilan yashaydi. Uning irodasi va aqli ana shu ulug' osmoniy olovning namoyon bo'lishidir. Bu olov osmonda, osmon orqali va osmondan kelib chiquvchi sifatida amal qiladi..."

Sosoniylar davrida (III-VII asrlar) "Avesto"ning yangi rasmiy matni sifatida asarning bor-yo'g'i 21 nasqi ("Kitob") tiklangan. Ana shu nusxa ham IX-XIII asrlar mobaynida bir necha marotaba tahrir qilingan, o'zgartirilgan. Eng mo'tabar nusxa deb 1288-yilda ko'chirilgan qo'lyozma e'tirof etilgan. Fransuz tadqiqotchisi Anketil dyu Perron, undan keyin X.Bartolome, J.Dyushen-Giyemen, V.B.Xenning, X.Xumbax, J.Kelens, M.Boys kabilar "Avesto"ni har tomonlama tadqiq etib, uning asosiy qismlari Yasna, Vispred, Videvdat, Yat, Vendidad kabilardan iborat ekanligini aniqlab berganlar.

Hozirgi zamon kishisi, ayniqsa, biz uchun "Avesto"da madh etilgan umuminsoniy, axloqiy o'gitlar, tabiatni va insonni muqaddas deb bilish, uni

asrab-avaylash haqidagi ko'rsatmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, shuni taassuf bilan qayd qilish o'rinliki, bizning "Avesto" va undagi umuminsoniy, axloqiy, huquqiy, ma'naviy va boshqa qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarimiz haligacha sayoz. Holbuki bu ulug' meros tarix sinovidan o'tgan, xalqimiz ruhi, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, talab va ehtiyojlariga nihoyatda mos tushadigan dunyoqarashimiz va milliy falsafamizning tamal toshi, eng qadimgi manbalaridan biridir. Uni har tomonlama chuqur o'rganish, undagi tushuncha va tamoyillarga amal qilish barchamiz uchun mas'uliyatli vazifalardan biridir.

Ba'zi mutaxassislar ta'kidlaganidek, islom olamida ham strategemalarga e'tibor qaratilgan va o'rganilgan. Xususan, XII asrda sitsiliyalik arab olimi Ibn Zafarning strategemalarga doir asari Maykl Amari tomonidan "Solwan or Waters of Comfort" ("Sokinlik yoki taskin suvlari") nomi ostida ingliz tiliga tarjima qilingan. Makiavellidan 100 yil oldin arab tilida noma'lum muallif tomonidan yozilgan "Raqqoiq ul-hilal fi daqqoiq ul-hiyal" ("Uddaburon hiylalarning yupqa matosidan to'qilgan yopinchiq") asari paydo bo'lgan va bu asar 1976-yilda fransuz tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. Bu asarlar boshqa tillarga o'girilganda, ularning strategik g'oyalari va tafakkuri keng jamoatchilikka tanitildi. Bu esa, o'z navbatida, global kontekstdagi amaliyotlar va g'oyalar almashinuvi jarayonida ahamiyatli o'rin egalladi.

Ko'plab mamlakatlar va madaniyatlar o'rtasida bu kabi bilimlarni o'rganish va ulardan foydalanish, strategik tafakkur va faoliyatlarga yangicha yondashuvni taqdim etadi. Shu qatorda musulmon huquqi va amaliyotining bir qismini tashkil qiluvchi fiqhga doir strategemalar ham mavjud. 1946-yilda Qohirada Abdussalom Dihniyning "Al-hiyal fil-muomalat al-maliyya" ("Mulkiy munosabatlardagi hiylalar"), 1974-yilda Muhammad Abdulvahob Buxayriyning "Al-hiyal fish-shariat al-islamiya" ("Islom huquqidagi hiylalar"), 1983-yilda Tunisda Muhammad ibn Ibrohimning "Al-hiyal al-mahzur minha val-masru" ("Ruxsat etilgan va etilmagan hiylalar") asarlari chop etilgan.

Sharq tarixi va jahon siyosatshunosligida o'chmas iz qoldirgan, saljuqiylarning dono vaziri bo'lgan Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmulk (1018-1092) tomonidan 1091-yilda yozilgan

"Siyosatnoma" yoki "Siyar ul-muluk" ("Podshohlar turmushi") asari ham muhim manbalardan biridir.

Davlatni idora etishda amaldorlar katta o'rin tutishini yaxshi tushungan muallif ularni to'g'ri tanlab, joy-joyiga qo'yishni, har biriga loyiq amal berib, asosiy maqsad yo'lida tarbiya qilishni muhim bir talab deb biladi. Har qaysi amaldorni tarbiyalashga ko'p vaqt ketishi va bu mushkul ish ekanini tushuntirib, hokimlarga qo'l ostidagilarni ehtiyot qilishni maslahat beradi. Amaldorlarni to'g'ri tanlab, ularga qo'llaridan keladigan ishlar va vazifalarni topshirish, bir kishiga bir amal berib, undan itoat va ijro fazilatini kutish davlat boshqaruvining asosiy talablaridandir. Har bir ishda amaldorlar maslahat bilan ish ko'rishlari lozim. Muallif shoh hayot tajribasiga ega bo'lgan, jahon kezgan oqsoqollar, olim-u mo'tabar kishilar bilan maslahatlashib ish tutishi tarafdoridir.

Asardagi e'tiborga molik strategiyalardan biri shuki, davlatda markaziy hukumat juda ham kuchli bo'lishi lozim, shundagina davlatda tinchlik va adolat barqaror bo'ladi, raiyat o'z maqsadiga yetadi, jamiyat sulh va adolatda, muruvvatda yashaydi. Bunday asosiy strategema shuki: "Markazlashgan davlat yagona bir strategiyaga ega bo'lmasa, har xil strategiya va fikrlar tarafdorlari hokimiyat uchun kurashadilar, bu esa ko'plab qon to'kishlar va zulm-u sitamlarga sabab bo'lishi mumkin". Darhaqiqat muammolarni hal qilish uchun davlatning yagona strategiyaga ega bo'lishi, hududiy va siyosiy kelishuvlarni amalga oshirishi zarur. Bu, fuqarolar o'rtasida hamjihatlikni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish uchun muhimdir. Fuqarolar o'z fikrlarini ochiq ifoda etishlari va davlat organlari bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirishlari kerak. Shunda jamiyatda tinchlik va hamjihatlik saqlanadi.

Xalqimizga xos ko'plab ma'naviy tamoyillar aks etgan tarixiy-siyosiy risola bo'lgan Amir Temurning "Temur tuzuklari" asari ham zamonaviy strategilogiyaning muhim manbalaridan biridir. Ushbu risola XIV-XV asrlar tarixiga oid qimmatli manba bo'lib, unda Amir Temurning Movarounnahrni mo'g'ullardan xalos qilishi, hokimiyatni qo'lga kiritishi, mustaqil va markazlashgan davlat tuzishi hamda Sohibqiron olib borgan faoliyat haqida so'z yuritiladi. "Temur tuzuklari" ona tilimizda yozilgan, keyinchalik boshqa tillarga, xususan, fors, fransuz, ingliz, urdu

va rus tillariga tarjima qilingan. Uning nusxalari jahonning ko'pgina kutubxonalarida saqlanadi.

“Temur tuzuklari”da buyuk Sohibqironning kuchli markazlashgan davlat tuzish va milliy davlatchilikni tiklash borasidagi faoliyati haqida mufassal so'z yuritiladi. “Temur tuzuklari”da yozilishicha, Amir Temur saltanatni boshqarishda 12ta qoidaga asoslangan. Davlatni boshqarishda u islom dini va shariatga, adolat, insof va haqiqatga tayanadi, turli tabaqa va toifaga mansub kishilarni teng ko'rib, qilgan xizmatiga qarab, ularning hurmatini joyiga qo'yadi. Eng avvalo, olim-u fuzalo, sayyidlar, shayxlar va fozillarga tayanadi, ularni o'zining eng yaqin maslahatgo'yi deb biladi.

Risolada, ayniqsa, fuqarolarning shariatga va qonun-qoidalariga so'zsiz bo'ysunishi lozimligi masalasiga katta e'tibor beriladi. Amir Temur hukmronligi davrida har bir viloyatda qozilar qonunlarga to'la amal qilinishi, tinchlik va osoyishtalik hukm surishini qattiq nazorat qilib turganlar, tartibbuzarlarni jazolaganlar. “Temur tuzuklari”da yuqoridagilardan tashqari, sipohiyar va askarlarni saqlash, ularga oziq-ovqat, maosh to'lash qoidasi, vazirlar va ularning vazifalari, amirlar, sipohlar va boshqalarni taqdirlash tartiblari, ularning bir-biriga muomalasi, boshqa ijtimoiy-siyosiy va harbiy masalalar bo'yicha mufassal ma'lumot beriladi. Asardagi ushbu fikrlar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, ulardan davlat va jamiyatimiz qurilishini takomillashtirishda foydalanilmoqda.

G'arb mamlakatlarida ham zamonaviy strategemalar nazariyasining nazariy asoslarini tahlil qilish uchun ilmiy manbalar yaratilgani ma'lum. Nafaqat, Qadimgi Rim davlat arbobi Sekst Yuliy Frontin (30-103-yil) tomonidan yozilgan “Strategematon” asari, balki Qadimgi yunon faylasufi Platon (mil.av. 427—347, Afina) qalamiga mansub “Davlat”, “Qonunlar”, “Kritiy”, “Siyosat”, uning shogirdi tomonidan yozilgan “Siyosat” nomli turkum risolalar kabi ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan asarlar ham bugungi kundagi strategemalar nazariyasi uchun muhim manbalar hisoblanadi.

Xususan, Platon o'z asarlarida davlat va uni boshqarish uslublari to'g'risida fikr yuritir ekan, ularni shakliga qarab oligarxiya, demokratiya, tiraniya, teokratiyaga bo'ladi. Platon aristokratik davlat tarafdori edi. U mukammal davlat to'g'risidagi utopik-xayoliy qarashlarini bayon

etadi. Allomaning bu yo'nalishdagi eng asosiy strategemalari: “Davlatni aqlli, ishbilarmon, dono, qobiliyatli kishilar idora qilishi kerak” va “Mukammal davlatning muhim xususiyati adolat qonun-qoidalariga amal qilishdir”[7]. Platonning bu yo'nalishdagi strategiyalari, bugungi kunda ham siyosiy loyihalar va strukturalar uchun ko'plab ilmiy tadqiqotlar hamda amaliyot bobida muhim ahamiyatga ega. Adolat va aqldan foydalanish nazariyasi, siyosiy jarayonlarda qo'llanilsa, barqaror va izchil davlatni tashkil etish yo'lidagi muhim ko'rsatkichlarni belgilaydi.

Allomaning fikricha, qonun hukmronlik qilmagan yerda, siyosiy tuzum yo'q. Lekin shunga intilish kerakki, qonunlar o'zgaravermasin. Chunki davlatda qonun bo'ysunishiga majbur etadigan qonun kuchidan boshqa kuch yo'q. Faqat urf-odat qonunga bo'ysunmaydi, u uzoq vaqt davomida shakllanadi. Arastuga ko'ra, davlatning vazifasi va maqsadi oilalarga va shuningdek, bir qancha avlodlarga baxtli hayot yaratishdan iborat, davlat teng huquqli kishilar jamiyati bo'lib, hayotning eng mukammal shakli va u eng oliy farovonlikka hamda umumiy adolatga xizmat qilishi lozim. Arastu ideal adolatni umumiy baxt-saodat deb biladi.

Italiyalik siyosatshunos Nikkolo Makiavellining (1469-1527) asosiy asari, 1513-yilda chop etilgan “Davlatpanoh” asari Yevropa uyg'onish davri ijtimoiy-falsafiy va siyosiy tafakkuri tarixida ilk bor markazlashgan davlat g'oyasi hamda unga asos bo'lgan strategik tamoyillar asoslab berilgan kitob ekani ma'lum. U o'z davrida butun Yevropani hayratga solgani ham bejiz emas. Asarda davlat masalasiga dunyoviy nuqtayi nazardan yondashilgan, ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini tarixiy ma'lumotlarga, real faktlarga asoslanib tushuntirishga harakat qilingan. Unda siyosiy jihatdan ideal bo'lgan Rim respublikasi o'z qudratiga rimliklarda respublikachilar ruhini tarbiyalaganligi natijasida erishilgan, deb ta'kidlanadi. Muallif Italiya sharoitida yakkahukmdorlik o'rnatish tarafdori bo'ldi. Uningcha, kuchli hukmdorgina milliy jihatdan birlashgan yagona mustaqil italyan davlatini tuza oladi.

Sharq mamlakatlaridan biri bo'lgan Xitoy strategik tafakkuri ham nihoyatda qadimiy bo'lib, u asosan falsafiy fikrlash, harbiy san'at va siyosiy boshqaruv kabi tamoyillariga asoslangan. Xitoy tarixida asosiy strategik yondashuvlar Sun Tzuning

“Urush san’ati” asarida yoritilgan bo‘lib, mazkur asar strategiya va harbiy taktika bo‘yicha eng qadimiy va muhim manba hisoblanadi.

Sun Tzu – qadimgi Xitoy harbiy strategiyasining eng muhim vakillaridan biri bo‘lib, u miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan deb taxmin qilinadi. Uning “Urush san’ati” (The Art of War) asari harbiy taktika, strategiya va siyosat borasida eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar bugungi kunda nafaqat harbiy harakatlarda, balki siyosat, biznes va diplomatiyada ham keng qo‘llaniladi. Unda urushni oldindan rejalashtirish va tahlil qilish, dushmanni aldash va chalg‘itish, jang qilmasdan g‘alaba qozonish, dushmanning zaif tomonlarini aniqlab, ularga zarba berishning muhim yo‘nalishlari keng yoritib berilgan.

XULOSA. Strategemalar nazariyasi va Strategiologiya falsafiy-tarixiy mazmunga ega bo‘lgan formalari, jamiyatning muhim, siyosiy dinamika va strategik yondashuvlarga aloqador bo‘lgan tushunchalarini tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yo‘nalishlarning to‘g‘ri talqin qilinishi kelajakda samarali strategiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq va G‘arb strategemalar nazariyalari nafaqat falsafiy-nazariy asoslariga ko‘ra, balki amaliy ahamiyati va qo‘llash uslublariga ko‘ra ham bir-biridan keskin farq qiladi. **Sharq** sabr, yumshoqlik va uzoq muddatli strategiyaga asoslansa, **G‘arb** harbiy kuch, tezkor harakat va ochiq siyosatni afzal ko‘radi. Sharq dushmanni ichki zaifliklari orqali mag‘lub qilishga asoslansa, **G‘arb** dushmanni harbiy kuch va bosim orqali mag‘lub qilishni afzal ko‘radi. Sharq yumshoq kuch va diplomatiyaga asoslansa, **G‘arb** qattiq kuch va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bosim qilishga urinadi. Sharq iqtisodiy va diplomatik ekspansiyani afzal deb bilsa,

G‘arb asosan harbiy va siyosiy ekspansiya yo‘lidan boradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi
2. Qodirov D. 36 xitoy strategemasi: harbiy hiylalar va iqtisodiy muvaffaqiyat sirlari. – Buxoro; BuxDU, 2016.
3. Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-mulk). – Toshkent: Adolat, 1997.
4. Temur tuzuklari. — T.: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1991.
5. Платон. Политика. пер. и коммент. Р.Светлова. — Санкт-Петербург: Платоновское философское общество, 2019. - 212с.
6. Платон. Софист. // Исследование, перевод, комментарий, приложения И. А.Протопоповой – СПб.: Платоновское философское общество, 2019
7. Аристотель. Политика. — М.: Из-во АСТ, 2019.
8. Макиавелли. Государь. Серия:теории власти / пер. с итал. под ред. А.К.Дживелегова, Н.С.Курочкина. Академический Проект, 2018.
9. Харро фон Зенгер. Полное собрание 36 знаменитых китайских стратагем в одном томе. Стратагемы 1-36. О китайском искусстве жить и выживать. Пер.с немецкого. Вступит.статья и коммент. В.С.Мясникова. – Москва: ЭКСМО. 2018.
10. Сун У. Сун Цзы. . –М.: Изд. Белые альвы. М. 1999.
11. <https://elibrary.sammu.uz>
12. <https://uniwork.buxdu.uz>



JAZIWSHÍ T.QAYÍPBERGENOV'TÍŇ SHÍĠARMALARÍŇDA QOLLANÍLGÁN QARATPA AĠZALARDÍŇ LEKSIKA-SEMANTIKALÍQ TÚRLERI

¹Seydullaeva Darigul, filologiya ilimleri kandidati

²Daniyarova Dilbar, Nókis mámleketlik pedagogikalıq
institutı magistrantı

LEXICO-SEMANTIC TYPES OF ADDRESS UNITS USED IN THE WORKS OF WRITER T.KAIPBERGENOV

¹Seydullayeva Darigul, Candidate of Philological Sciences

²Daniyarova Dilbar, Master's student of Nukus State
Pedagogical Institute

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ТИПЫ ОБРАЩЕНИЙ, ИСПОЛЗУЕМЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ПИСАТЕЛЯ Т.КАИПБЕРГЕНОВА

¹Сейдуллаева Даригуль, кандидат филологических наук

²Даниярова Дильбар, магистрант Нукусского
государственного педагогического института



¹e-mail:

darigul71@mail.ru

²e-mail:

daniyarovadilbarkaramad
dinovna@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0006-7217-0625>

Annotaciya: Bul maqalada belgili qaraqalpaq jazıwshısı T.Qayıpbergenovtıń kórkem shıǵarmalarında ushırasatuǵın qaratpa aǵzalardıń leksika-semantikalıq túrleri tallanadı. Avtorlar qaratpalardıń stillik ózgesheliklerine, olardıń stilistikalıq júkleri hám kórkem shıǵarmadaǵı ekspressivlik funkciyalarına ayırıqsha dıqqat qaratqan. Tallaw barısında qaratpalar adam, tiri janzat, jansız nárse hám tábiyat qubılıslarına qaratılıwına qarap klassifikaciyalanadı. Ásirese, tıńlawshıǵa hám avtordıń ózine qaratılǵan qaratpalardıń semantikalıq hám stilistikalıq kórinisleri tallanıp, olardıń obraz jaratıwdaǵı ornı ashıp beriledi. Bul izertlew qaraqalpaq tili stilistikası sheńberinde qaratpa aǵzalar menen baylanıslı ele tolıq úyrenilmegen táreplerdi jaqtılandırıwǵa xızmet etedi.

Tayanış sózler: Qaratpa aǵzalar, leksika-semantikalıq túrler, stilistika, T.Qayıpbergenov, qaraqalpaq tili, sintaksislik birlikler, ekspressivlik, obraz, uslub.

Abstract: This article analyzes the lexico-semantic types of address units found in the works of the famous Karakalpak writer T. Kaipbergenov. The authors pay special attention to the stylistic features of addresses, their stylistic functions, and expressive roles in literary works. In the analysis process, addresses are classified according to their focus on humans, living beings, inanimate objects, and natural phenomena. In particular, the semantic and stylistic manifestations of addresses directed at the listener and the author himself are analyzed, and their role in character creation is revealed. This research serves to illuminate previously unexplored aspects related to address units within the framework of Karakalpak stylistics.

Keywords: address units, lexico-semantic types, stylistics, T. Kaipbergenov, Karakalpak language, syntactic units, expressiveness, character, style.

Аннотация: В данной статье анализируются лексико-семантические типы единиц обращения, встречающихся в художественных произведениях известного каракалпакского писателя Т.Кайыпбергенова. Авторы уделяют особое внимание стилистическим особенностям обращений, их стилистической нагрузке и экспрессивным функциям в художественном произведении. В процессе анализа обращения классифицируются по их направленности на человека, живое существо, неодушевленный предмет и явления природы. Особенно анализируются семантические и стилистические аспекты обращений, направленных на слушателя и на самого автора, раскрывается их роль в создании образа. Это исследование служит освещению еще не полностью изученных аспектов, связанных с единицами обращения в рамках стилистики каракалпакского языка.

Ключевые слова: единицы обращения, лексико-семантические типы, стилистика, Т.Кайыпбергенов, каракалпакский язык, синтаксические единицы, экспрессивность, образ, стиль.

KIRISIW. Qaraqalpaq til biliminde házirge shekem qaratpalardıń grammatikalıq formaları boyınsha ayırım izertlewler júrgizilgen bolsa da, olardıń stilistikalıq wazıypaları, ásirese, kórkem tekstlerdegi qollanıw ózgeshelikleri jeterli dárejede tallanbaǵan. Belgili jazıwshı T. Qayıpbergenovtıń shıǵarmalarında ushırasatuǵın qaratpa aǵzalar tildi bayıtıwshı, obraz kúsheytıwshı hám stillik qural sıpatında aktiv qatnasadı. Bul maqalada jazıwshınıń tekstlerinde ushırasatuǵın qaratpalar leksika-semantikalıq ózgesheliklerine qaray sistemalastırılıp, olardıń stillik hám semantikalıq júkleri jaqtılandırıladı.

ÁDEBIYATLAR SHOLIWI. Qaraqalpaq tilinde kórkem shıǵarmanıń tili sol tildıń tariyxı ushın derek sıpatında H.Hamidovtıń [9], D.Nasırov, O.Dospanov, A.Bekbergenov, D.Sayıtovlardıń [7], Sh.Ábdinazimovtıń [2], G.Qarlıbaevanıń [5] miynetlerinde alıp qaraldı. Al kórkem shıǵarma tiliniń stillik ózgeshelikleri E.Allanazarovtıń [1], B.Yusupovanıń [10] izertlewlerinde sóz etiledi. Sonday-aq, ayırım jurnal hám gazetalarda, kórkem shıǵarmanıń tiline arnalǵan geypara maqalalar da járiyalandı.

Qaraqalpaq tilinde qaratpalardıń grammatikalıq ózgeshelikleri úyrenilgeni menen, onıń stillik qollanıw ózgeshelikleri arnawlı túrde izertlenbegen. Ásirese, kórkem shıǵarmalarda qaratpalardıń hár qıylı stilistikalıq qurallar xızmetinde qollanıwı hár tárepleme izertlewdi talap etedi.

IZERTLEW METODOLOGIYASÍ. Maqalada sapa analizi (kvalitativ) metodları tiykarında jazıwshı T.Qayıpbergenovtıń bir neshe shıǵarmaları tańlap alınıp, olardaǵı qaratpa aǵzalar anıqlanǵan hám leksika-semantikalıq, stilistikalıq jaqtan tallanǵan. Izertlewde ilimiy, kórkem hám

publicistikalıq usıllarda ushırasatuǵın qaratpalar tematikalıq toparlarga bólinip, olardıń lingvistikalıq funkciyaları qarap shıǵılǵan. Tallaw dawamında qaratpalardıń grammatika menen baylanıs dárejesi, ekspressivlik dárejesi, avtordıń estetikalıq maqsetine xızmet etiwı sıyaqlı faktorlar esapqa alınǵan. Sonday-aq, bar stilistikalıq ádebiyatlar menen salıstırmalı analizler júrgizilgen.

NÁTIYJELER HÁM TALQÍLAW. Qaraqalpaq tilinde gáp túrlishe kóriniske iye bolıwı múmkin. Usı kórinislerdi beriw ushın gáp oy pikirdi bildiriwdiń tiykarǵı birliǵı bolıp, baylanıs penen mazmundı jaqınlatıw ushın xızmet qıladı. Sintaksislik stilisitikanıń birliklerin anıqlaw, bul tarawdıń predmetlerin belgilew bolıp, ritorikalıq soraw, gradaciya, ellipsis, anafora, epifora, antiteza, tákirarlaw kórkem poetikalıq sintaksistiń stilistikalıq quralları dep esaplanıladı. Mine, usınday stilistikalıq qural xızmetinde qaratpalar da qollanıladı.

Qaratpalar tiykarınan sóylewshiniń sózi qaratılǵan adam yamasa basqa bir predmetti, qubılıslardı bildiretuǵın sózler. Tiykarınan, qaratpalar ayılajaq oyǵa, pikirge basqanıń dıqqatın awdarıw, sóylewshiniń qatnasın bildiriw ushın qollanıladı.

Qaratpa aǵzalar gáptiń tiykarǵı aǵzaları sıyaqlı kelisiw, basqarıw hám jupkerlesiwshi baylanısqa túspeydi. Olar gáptiń ulıwmalıq mazmunı yaki onıń bir aǵzasma qatnaslı boladı. Gáp ishinde ózine tán intonaciyalıq ózgesheliklerge iye bolıp, gáptiń basqa aǵzalarınan ayırılınıp ayıladı.

M.Dáwletov «Házirgi qaraqalpaq tilinde qospalanǵan jay gápler» degen miynetinde: «Qaratpalar ayılajaq oyǵa, pikirge basqanıń dıqqatın awdarıw, sóylewshiniń qatnasın bildiriw ushın qollanıladı. Qaratpalar házirgi qaraqalpaq

ádebiy tilinde hár túrli stillerde kórkem ádebiyat hám publicistikada, kúndelikli gazeta betlerinde jiyi ushırasadı, - dep jazadı [4, 269].

Qaraqalpaq til iliminde stilistika jóninde, stillerdiń funkcionál xızmetleri jóninde ele sheshilmey atırǵan máseleler kóp. Qaraqalpaq tilindegi funkcionallıq stiller boyınsha ilimpaz E.Berdimuratovtıń monografiyalıq miyneti qaraqalpaq tiliniń stilistikasını izertlegen A.Bekbergenovtıń ilimiy miynetinde sóz etiledi. Sońǵı dáwirlerde kórkem shıǵarmalar tiliniń leksika-grammatikalıq hám stillik ózgeshelikleri boyınsha izertlewler alıp barılmaqta. Máselen, I.Yusupov shıǵarmalarında kelbetliklerdiń stillik qollanılıwı boyınsha B. Yusupovanıń «Kórkem shıǵarmalarda kelbetliklerdiń stillik qollanılıwı (I.Yusupov shıǵarmaları tiykarında) arawlı izertlewinde sóz etiledi. G.Mambetnazarovanıń miynetinde dórendi atawıshlardıń stillik qollanılıwı izertlegen [6]. D.Seydullaeva Ibrayım Yusupovtıń «Duzlı samallar» degen toplamında qollanılǵan epitet hám teńewlerge toqtap, olardıń stillik qollanılıw ózgesheliklerin kórsetip bergen [8].

Qaratpalardı óz ara sóylesiwlerde, gazeta-jurnallarda, kórkem sóz sheberleriniń dóretpelerinde, bayanatlarında jiyi ushıratamız. Onıń ilimiy stilden basqa barlıq stillerde qollanılıwın kóriwge boladı. Biraq onıń tásirine, stillik qollanılıwına itibar berilmeydi. Funkcional stillerdiń ayrıqsha túri-kórkem ádebiyat tilinde sintaksislik kategoriyalardıń ózine tán qollanılıw ózgeshelikleri, kórkemlik imkaniyatları, individual-avtorlıq hám stillik qollanılıw ayırmashılıqları búgingi kúнге deyin qaraqalpaq til iliminde izertlenbey kiyatırǵan máselelerdiń biri.

Qaratpalar sóylewshiniń sózine qatnaslı adam yamasa basqa bir obyektlerdi bildiredi. Olar tiykarınan, leksika-semantikalıq jaqtan adam yamasa adamǵa qatnaslı sózler, janlı hám jansız predmetler, tábiyat qubılıslarınıń atamalarına qatnaslı bolıp keledi. Usı sıyaqlı qaratpalar leksika-semantikalıq ózgesheliklerine qaray, adamǵa qatnaslı qaratpalar, janlı maqluqlarǵa qatnaslı qaratpalar, jansız predmet, tábiyat qubılıslarına qatnaslı qaratpalar bolıp bólinedi. Adamǵa qarata ayılǵan qaratpalar sóylewshi óz sózine tınlawshınıń dıqqatın awdarıw ushın onıń atın, familiyasın, ataq-laqabın, belgisin ayıp shaqıradı. Adam mánisindegi qaratpalara janlı hám jansız predmet yamasa tábiyat qubılısına qarata ayılmaydı. Sebebi, adam

mánisindegi qaratpalarda sanalı túrde dıqqat awdarıw, qaraw, kewil bóliw, juwap qaytarıw hám t.b. sıyaqlı ózgeshelikler bar.

Al, adamnan basqa janlı hám jansız predmetlerge, tábiyat qubılıslarına qarata ayılǵan qaratpalarda bunday ózgeshelik joq, tek sóylewshi óz sózin olarǵa qarata, tınlawshı retinde ǵana arnaydı, solarǵa qarata sóyleydi. Sol predmetlerge qarata sóylew arqalı sóylewshi óziniń hár túrli kewil kúyin, súysiniw, kewili pitiw hám t.b. sezimlerin, qatnasların bildiredi.

Adamlarǵa qaratılǵan qaratpalar qollanılıwına qaray ekige bólinedi:

- 1) tınlawshıǵa qaratılǵan qaratpalar;
- 2) sóylewshiniń ózine qaratılǵan qaratpalar [4].

Tınlawshıǵa qaratılǵan qaratpalar. Olar kóbinese jekke tınlawshıǵa hám kópshilik tınlawshıǵa qaratıla ayıladı.

Mısalı: Til degen buwınsız, *Qabil aǵa*, erk berseń kete beredi (T.Qayıpbergenov «Maman biy ápsanası», 136-bet).

Tınlawshıǵa qaratılǵan qaratpalar leksika-semantikalıq mánilerine qaray tómendegi túrlerge bólinedi:

Adamǵa qatnaslı qaratpalar:

1) adamnıń atı hám familiyasın bildiriwshi qaratpalar: *Joldas Nájimov*, rayonnıń ar-namısını qorǵawshılardı qorlıqlı jaǵdayǵa túsirmeymen deytuǵın edińiz (T.Qayıpbergenov «Kózdiń qarashıǵı», 19-bet).

2) tuwısqanlıq qatnastı bildiriwshi qaratpalar: *Ulm*, hayal baslaǵan úy ońbas degen jaman gáp bar, sen, bul gápke isenbe... Kelin oǵırı aqıllı kórinedi. Ne dese de aytqanına kón! — dep Palwanǵa tásele berdi (T.Qayıpbergenov «Tánhá ózińe málím sır», 120-bet).

3) kásip-óner hám mamanlıqtı bildiriwshi qaratpalar: *Muǵallım inim*, — dedi bir kúni kúta jumsaqlıq penen, - jeti babasınan beri álipti tayaq dep bilmeytuǵın damnıń qızına azlap sawat ashtırǵanıń ushın sheksiz raxmet! (T.Qayıpbergenov «Tánhá ózińe málím sır», 93-bet).

4) jaqınlıq-doshlıq mánisindegi qaratpalar: *Húrmetli miymanlar*, meniń palwan tórem keshikti. (T.Qayıpbergenov «Maman biy ápsanası», 126-bet).

5) húrmet-sıylasıq, ataq, lawazımlar mánisindegi qaratpalar: Bunday mákannan binayı

ómirinde ayırılıp bolmas, **aqsaqal** (T.Qayıpbergenov «Túsiniksizler», 47-bet).

6) jınıs bildiriwshi qartpalar: Qoy, *garri*, jumbaq qıla bermey aytshı, biyler asıǵıs qusaydı, - dedi kempiri (T.Qayıpbergenov «Túsiniksizler», 28-bet).

7) erkeletiw-kishireytiw mánisindegi qaratpalar: Otıra ǵoy, *Ernazarjan*, - dep qurǵa dawısladı.— Sizler ne aytasızlar? (T.Qayıpbergenov «Baxıtsızlar», 375-bet).

8) ayaw-ashınıw mánisindegi qaratpalar: *Kózsiz gúbelekler*, - dedi ol gúbirlenip, otqa súngip ketetuǵınıńızǵa pámińiz jetpeydi... (T.Qayıpbergenov «Baxıtsızlar», 257-bet).

9) jek kóriw, sógiw hám ayıplaw mánisindegi qaratpalar:

1. –*Há tili kesilgir*, - dedi Begis mısqıllı kúlki menen. 2. *Zańgar*, urlıqtı sen emes, biz islegendey baqırsań-á!-dedi Begis (T.Qayıpbergenov «Baxıtsızlar», 15-bet).

10) kek etiw mánisindegi qaratpalar: 1. *Ladan kúshik*, sen sóyleme, dep jekirindi Aydos. (T.Qayıpbergenov «Baxıtsızlar», 59-bet). 2. Qızı úyge kirmey atırıp ákesiniń sózin sóylediń be, *shóje qoraz* (Sonda, 261-bet).

Sóylewshiniń ózine qaratılǵan qaratpalar:

Qaratpa aǵzanıń bul túri sóylewshiniń óz-ózine yamasa óz shıǵarmalarına bolǵan sezimlerin bildiredi. Qaratpanıń bul túri shayırdıń ózine qarata sóylewi arqalı sırtqı dúnyaǵa, óz zamanına bolǵan hár túrli sezimlerin bildiredi. Mısalı: 1. *Sorlı Perixan*, sen sirá baxıtlı bolıppediń? Bul dúnyada tiriligińnen baska ne baxıt bar edi? (T.Qayıpbergenov «Táńhá ózińe málim sır», 148-bet). 2. *Áy Aydos, Aydos*, saqal-shashıń aǵarǵansha neshe qátelespediń – Bárhá óziń jol tabar ediń, jáne jol tap (T.Qayıpbergenov «Túsiniksizler», 287-bet).

Sóylewshiniń ózine qartalǵan qartpalar jazıwshınıń ózine qarta sóylew arqalı sırtqı dúnyaǵa, óz zamanına bolǵan hár túrli sezimlerin bildiredi. Bul mánidegi qaratpalar, til faktlerinde, kóbinese poeziyalıq shıǵarmalarda ushırasadı. Kórip ótkenimizdey neytral tekstlerde qaratpalar tek adamǵa qarata, onıń atı, tuwısqanlıǵı, titulı hám t.b. ayılatuǵın bolsa, emocional-ekspresivlik mánige iye tekstlerde qartpalar tek ǵana atap qoymay, sol

atalǵan adamǵa sıpatlama da beredi hám hár qıylı stilistikalıq kórkemlikke de iye boladı.

JUWMAQ.

T.Qayıpbergenovtıń shıǵarmalarında ushırasatuǵın qaratpa aǵzalar tildiń tek kommunikativlik emes, al ekspresivlik funkciyasın da atqaradı. Qaratpalar adamlar, tiri hám jansız nárseler, tábiyat qubılısları hám hátte avtordıń ózine qaratılǵan halda kórinip, kórkem sóylew quralı sıpatında obraz kúshin arttıradı. Qaratpalardıń leksika-semantikalıq klassifikaciyası olardıń stillik múmkinshiliklerin ashıwǵa járdem beredi. Bul tallaw qaraqalpaq til bilimindegi stilistikalıq izleniwlerge úles qosadı hám keleshektegi izertlewler ushın metodologiyalıq tiykar bola aladı.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Allanazarov E. Qaraqalpaq tilinde metaforalardıń stillik qollanıwı. Nókis, 2022.
2. Ўбиназимов Ш. Бердақ шығармаларының тили. Ташкент, 2006.
3. Бекбергенов А. Қарақалпақ тилинің стилистикасы. Нөкіс, 1990.
4. Дәўлетов М. Хәзирги қарақалпақ тилинде қоспаланған жай гәплер. Нөкіс, 1976.
5. Qarlibaeva G. Ajiniyaz shıǵarmaları tiliniń semantika-stilistikalıq ózgeshelikleri. Nókis, 2017.
6. Мәмбетназарова Г. И.Юсупов қосықларында дөренди атауышлардың стильлик қолланылыуы. Нөкіс, 1994.
7. Насыров Д., Доспанов О., Бекбергенов А., Сайтов Д. Қарақалпақ әдебият классиклери шығармаларының тили. Нөкіс, 1995.
8. Seydullaeva D. I.Yusupovtıń «Duzlı samallar» toplamında qollanılgan epitet hám teńewler.//Türkiy filologiyasınıń aktual máselelri. Nókis, 2008.
9. Ҳамидов Ҳ. Қарақалпақ тили тарийхының очерклери. Нөкіс, 1974.
10. Юсупова Б. И.Юсупов шығармалары тилинде келбетликтің стильлик хызметлери. Ташкент, 2014.

MUSTAFO KOMILNING IJTIMOYIY-SIYOSIY G'UYALAR KONSEPSIYASI

*Abdufattayeva Shahrizoda Shuhratbek qizi, Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti*

THE CONCEPT OF SOCIO-POLITICAL IDEAS OF MUSTAFO KOMIL

*Abdufattayeva Shahrizoda Shuhratbek qizi, doctoral student (PhD)
at Tashkent State University of Oriental Studies*

КОНЦЕПЦИЯ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ИДЕЙ МУСТАФО КОМИЛА

*Абдуфаттаева Шахризода Шухратбек кызы, докторант
(PhD) Ташкентского государственного университета
востоковедения*



<https://orcid.org/0009-0006-6170-8952>

e-mail:
abdufattoyevashahrizoda@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Misr ma'rifatparvarlik harakati rahnamalaridan biri bo'lgan Mustafa Komilning hayoti va ijodi, millatparvarlik harakatlari hamda ijtimoiy-siyosiy g'oyalar konsepsiyasi aks etgan. Qolaversa, ma'rifatparvarning Misr ozodlik harakati mafkurasini shakllanishida tutgan o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Mustafa Komil, Misr millatparvarlik harakati, ma'rifatparvarlik, "an-Nahda al-Arabiya", "al-Liva", Jyuletta Adan, Rifo at-Tahtaviy, "al-Muayyad", Leon Dode va Pyer Loti, "Hizb ul-Vatan" partiyasi.

Annotation: This article reflects the life and work of Mustafa Kamil, one of the leaders of the Egyptian Enlightenment movement, the concept of nationalist movements and socio-political ideas. In addition, the role of the Enlightenment in the formation of the ideology of the Egyptian liberation movement is analyzed.

Keywords: Mustafa Kamil, Egyptian nationalist movement, Enlightenment, "an-Nahda al-Arabiya", "al-Liva", Juliette Eden, Rifa al-Tahtawi, "al-Muayyad", Leon Daudet and Pierre Loti, "Hizb ul-Watan" party.

Аннотация: В статье отражены жизнь и деятельность Мустафы Камилля, одного из лидеров египетского просветительского движения, концепция националистических движений и общественно-политические идеи. Кроме того, анализируется роль Просвещения в формировании идеологии египетского освободительного движения.

Ключевые слова: Мустафа Камиль, египетское националистическое движение, Просвещение, "ан-Нахда аль-Арабия", "аль-Лива", Жюльетт Эден, Рифа ат-Тахтави, "аль-Муайяд", Леон Додэ и Пьер Лоти, партия "Хизб уль-Ватан".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Ma'lumki, ilgari kuchli davlat bo'lgan Usmonli saltanati XVI asrdan boshlab chuqur inqirozga yuz tuta boshladi. Turk saltanati tarkibida bo'lgan arab mamlakatlariga esa XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridan rivojlangan Yevropa mamlakatlari, ayniqsa, Angliya va Fransiyaning qiziqishi kuchayadi hamda ularga nisbatan asta-sekin siyosiy va iqtisodiy tazyiq o'tkazila boshlanadi. Mustamlakachilik siyosati arablarning ijtimoiy-

iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy va madaniy hayotida ancha o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Arablar siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini yo'qotgan sari ular o'rtasida mustamlakachilarning siyosati va zulmiga qarshi norozilik va milliy mustaqillik uchun kurash g'oyalari avj ola boshladi. Pirovard oqibatda bu qaram mamlakatlarda ham g'oyaviy uyg'onish davri boshlandi. Bu davr arab mutafakkirlari tomonidan "an-Nahda" ("Uyg'onish") yoki "an-Nahda al-Arabiya" ("Arab uyg'onishi") deb ataladi[1]. Shu

davr mutafakkir va adiblari – barcha vatanparvar ziyolilar ijodida diniy islohotchilik g'oyalari, mustaqillik uchun kurash, G'arbning ilg'or fani va madaniyatini o'rganish masalalari, xalq orasida ilm-ma'rifat tarqatish g'oyalari o'z ifodasini topdi. Misr ozodlik kurashi, ma'rifatparvarlik g'oyalarini Rifo at-Tahtaviy boshlab bergan bo'lsa, Ali Muborak, Nosif al-Yozijiy, Jamol ad-Din al-Afg'oniy, Abdulloh Nadim, Jurjiy Zaydon, Qosim Amin, Mustafo Komil kabi ma'rifatparvarlar davom ettirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mustafo Komil shaxsiga bo'lgan qiziqish dunyoning ko'plab olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilgan bo'lsa-da, o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari barmoq bilan sanarli. Bu borada falsafa fanlari nomzodi E. Babayeva izlanishlarini, jumladan, “Общественно-политические и просветительские взгляды Мустафы Камиля” [1] nomli dissertatsiyasini alohida e'tirof etishimiz lozim. Ushbu tadqiqot ishida rus olimlari Крачковский И.Ю., Крымский А.Е., Черновская В.В., arab olimlari Ahmad Rishod, Abdu ar-Rahmon ar-Rafiy, ingliz olimlari V.Blantom, Xeys Karlton, G.Gibb, fransuz olimlari Marsel Colombe hamda nemis olimlari Fritsa Steppat[2], Lotar Rotmanlarning ilmiy ishlaridan foydalanildi. Misr ma'rifatparvarlik harakati rahnamosi Mustafo Komilning ijtimoiy-siyosiy g'oyalarini yoritib berishga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi metod va usullaridan samarali foydalanildi.

МУХОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mustafo Komil o'zining qisqa, ammo sarmazmun hayotini Vatan ozodligi uchun bag'ishladi. U milliy ozodlik harakatining eng oldingi safida borib, bu harakat rahbarlaridan biriga aylandi. Otashin nutqlari, publitsistik maqolalari bilan ezilgan xalq ommasini vatanni sevrishga, uning ozodligi uchun kurashishga chaqirdi. Mustafo Komil 1874-yil 14-avgustda Qohirada harbiy muhandis Ali Afandi Muhammad oilasida tug'ildi. 12 yoshga to'lganda otasi olamdan o'tdi. Maktabda o'qigan chog'larida Mustafo o'z tengdoshlaridan erkin fikrlashi va so'zamolligi bilan ajralib turardi. Mustafo Komil Qohiradagi huquq bilim yurtida o'qidi, so'ng 1894-yili Fransiyaga borib, Tuluza universitetining yuridik fakultetini tamomladi.

Vataniga qaytib, advokaturada xizmat qila boshladi. Mustafo Komilda yoshlik yillaridanoq mamlakatni xonavayron, xalqni och-yalang'ochlikka muhtalo etayotgan ingliz mustamlakasiga qarshi kurash ruhi kuchayib bordi, u butun shijoatini, kuch-g'ayratini shu kurashga bag'ishladi. Mustafo talabalik yillarida mamlakatdagi taraqqiyparvar ziyolilarni o'z safiga birlashtirgan siyosiy to'garaklarda faol qatnasha boshladi.

Fransiyada ilg'or yozuvchilar va olimlar, jumladan, mustamlakachilikning ashaddiy dushmani bo'lgan yozuvchilar Leon Dode va Pyer Loti bilan do'stlashadi. Ayniqsa fransuz elita vakilasi Jyulyetta Adan bilan bo'lgan do'stona aloqasi alohida e'tiborga sazovor. Yosh vatanparvarning mustaqillik uchun intilishlari Jyulyetta Adan tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanadi. O'ziga hamfikir va ma'naviy suyanchiq topgan Mustafo Komil Adanga yuborgan xatida quyidagilarni yozgan: “Men yoshman, ammo qalbimda cheksiz buyuk maqsadim bor, aziz Vatanimni himoya qilmoqchiman. Ba'zilar sening Vataning yo'q deyishadi, aslo unday emas! Yuragimda buyuk muhabbatim bor ekan, demak, Vatanim ham bor. Bu muhabbat shu qadar jo'shqin, shu qadar kuchliki, hamma narsani yenga oladi. Navqiron yoshligimni, kuch-quvvatimni, butun hayotimni Vatanga bag'ishlayman. Men endigina yigirma bir yoshga to'ldim. Tuluzada huquq fanlari magistri unvonini oldim. Endilikda esa Vatanimga bo'lgan buyuk sevgimni, sadoqatimni hayajon bilan yozmoqchiman. Ana shu haqda olamga baralla jar solmoqchiman”[5].

Mustafo Komil hukumat faqat xalq manfaatini ko'zlab ish tutishi kerak, degan fikrni ilgari surdi va o'z faoliyatida jamoat manfaatlaridan ko'ra shaxsiy manfaatlarini yo'lga qo'ygan Xadivlarni tanqid qildi. Mustafo Komil ijtimoiy taraqqiyot yo'lini nafaqat davlatni qayta tashkil etishda ko'rdi. U vujudga kelayotgan milliy burjuaziya vakili sifatida mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy qoloqligini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan yangi ishlab chiqarish munosabatlarini o'rnatish uchun kurashdi. Mustafo Komil islom dinini Yevropa mustamlakachilaridan himoya qilib, ularning bosqinchilik siyosati Sharq xalqlari o'rtasida diniy mojarolarni keltirib chiqarishga yo'naltirilgan, deb tushuntiradi. Angliya xristian xalqlarni musulmon xalqlarga qarshi har taraflama g'ijtijlatardi. U

musulmon mamlakatlarning diniy masalalariga aralashishdan diniy manfaatlarni emas, balki o'z siyosiy manfaatlarini ko'zlaydi, deydi. Angliya uchun din Misr ichki siyosiy ishlariga aralashish uchun bir bahona, musulmonlarning xristianlar bilan o'zaro nizolari esa ingliz hukumatining g'arazli siyosati natijasidir. Bu siyosat ostida "parchalash va hukmronlik qilish" borasidagi ingliz siyosatining bir turi yotadi. Mustafa Komil "Inkaltara val-islam" ("Angliya va islom") nomli maqolasida: "Hozirgi paytda, islom masalasidan tashqari, Yevropani qiziqtiradigan bironta siyosiy, ijtimoiy va boshqa ish bo'lmay qoldi. Hamma din-dorlar bir fikrda, ular xalq ichidami yo yakkami, fa-qat Angliya va islom haqida gapirishmoqda. 300 millionli butun musulmon millati bir fikrda – Angliya bu yagona abadiy dushmandir"[6], – deb yozadi.

1907-yilda Misr milliy ozodlik harakatida demokratik kuchlarni birlashtirgan "Hizb ul-Vatan" ("Vatan partiyasi") siyosiy partiyasini tuzadi. Bu partiyaning asosiy vazifasi ingliz istilosini tugatish hamda Misr avtonomiyasini saqlagan holda Turk sultoni suverenitetini tan olish va konstitutsion tuzum o'rnatishdan iborat edi. Mustafa Komil fikriga ko'ra, G'arb va Sharq xalqlarini qiyoslaganda farq o'qimishlilik va ma'rifatlilik saviyasidadir. Mamlakatdagi asosiy balo – ingliz mustamlakachilar siyosatida, ular madaniy yuksalishni har yoqlama bo'g'ishga intiladilar. Ular Misrda milliy maktablarni yopishdi, erkin nashrni bo'g'ishdi. Barcha davlat maktablarini qat'iy nazorat ostiga qo'yishdi. Qo'llaniladigan dasturlar faqat inglizlarni qoniqtirardi, xolos. Mustafa Komil xalq o'z mamlakati ishlarida, ijtimoiy hayotida, davlatni boshqarishda faol qatnashishi lozim, buning uchun o'z bilimini oshirishi zarur, deb hisoblaydi. U o'zining "Hizb ul-Vatan" partiyasi dasturiga kambag'allar ta'limining zarurligi haqida xususiy band kiritadi. Dehqonlar va ayollarning o'qitilishiga alohida e'tibor beradi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Mustafa Komil G'arbdagi matbuot erkinligi, so'z erkinligi Misrda ham bo'lishini istardi. U matbuot ishlariga juda ko'p hissa qo'shgan. O'zining "al-Liva" ("Bayroq") nomli ro'znomasida "Ommaviy minbar" ruknini ochgan. Unda misrliklar har bir masalada o'z mustaqil fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega edilar. Mustafa Komil ijtimoiy masalalarni Jamoliddin al-Afg'oniyni g'oyalari,

islom islohchiligi ruhida hal etgan[3]. Ko'p xotinlilikni qoralagan, ayollar ta'lim olishi borasida jonbozlik qilgan, ular uchun alohida maktablar ochgan. G'arb turmush tarzini ko'r-ko'rona qabul qilishga qarshilik bildirgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Umuman olganda, Mustafa Komilning ma'rifiy qarashlarida ikki yo'nalish seziladi. Biri – G'arb yutuqlari, ya'ni Yevropa ta'lim-tarbiyasi va madaniyatini Misrda qo'llash, ikkinchisi – madaniyat, an'analar, urf-odatlar va ona tilini saqlashdir. Mustafa Komil arab ma'rifatparvarligining tenglik va ozodlik, insonning tabiiy huquqi haqidagi xulosalariga tayanadi. Mustafa Komilning fikricha, ta'lim negizida islom yotadi. Qur'on esa zamonaviy falsafiy, tabiiy-ilmiy va ijtimoiy g'oyalarning barchasini o'z ichiga olgan va unda barcha oliy haqiqatlar mujassamlangan. Mustafa Komil davlatni boshqarishning eng qulay uslubi parlament va konstitutsiya deb qaraydi. Uning fikricha, konstitutsiya xalqqa davlat ishlarini nazorat qilish va hukumatdan o'z faoliyati to'g'risida hisob olib turish imkonini beradi. Konstitutsiya shunday bo'lishi kerak-ki, misrlik ham, chet ellik ham, umuman biror kimsa qonun va tartibni buza olmasin. U xalqni milliy g'urur, o'tmish bilan faxrlanish hissini uyg'otishga, milliy o'zlikni anglashga chaqiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Babayeva E.D. Ma'rifat yo'lida. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 122 b.
2. Fritsa Steppat. Nationalismus und Islam bei Mustafa Kamil. – Leiden, 1956. – 240 p.
3. Keddie N. An Islamic Response to Imperialism. Political and Religious Writings of Sayyid Jamal ad-Din al-Afghani. – Los-Angeles: Berkeley, 1968. – P.211.
4. Бабаева Э.Д. Общественно-политические и просветительские взгляды Мустафы Камиля (диссер). – Ташкент. 1974. – 165 с.
5. Крачковский И.Ю. Мустафа Камил и Жюльетта Адан (к истории национального движения в Египте). – Л.: Известий ЛГУ, 1928. – 114 с.
6. الي فخم كامل. مصطفى كامل بشا ف ٣٤ رابعا. - القاهرة. ١٩١٠/٢٤٧ ص
Ali Fahmi Kamil. Mustafa Kamil pasha fi 34 rabian. – Qohira, 1910. – 247 p.

Qabul qilindi: 02.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK: 81.2

KOREYS TILIDA YO'NALISH VA SEMANTIK O'ZGARISHNI AKS ETTIRUVCHI STRUKTURAVIY MODELLAR

*Yunusova Gulshoda Dilshadovna, Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti Koreyashunoslik oliy maktabi dotsenti, (PhD)*

STRUCTURAL MODELS REFLECTING DIRECTION AND SEMANTIC CHANGE IN KOREAN

*Yunusova Gulshoda Dilshadovna, Associate Professor, Higher
School of Korean Studies, Tashkent State University of Oriental
Studies, (PhD)*

СТРУКТУРНЫЕ МОДЕЛИ, ОТРАЖАЮЩИЕ НАПРАВЛЕНИЕ И СЕМАНТИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ

*Юнусова Гулшода Дильшадовна, доцент Высшей
школы корееведения Ташкентского государственного
университета востоковедения (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikdagi ekvivalentlik tushunchasini, ayniqsa, koreys tilida harakat yo'nalishi va semantik o'zgarishni ifodalovchi “가다” va “오다” ko'makchi fe'llari misolida nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: ekvivalentlik, tilshunoslik, til nazariyasi, fe'l valensiyasi, koreys tili, ko'makchi fe'llar, “가다”, “오다” fe'llari.

Abstract: This article analyzes the concept of equivalence in linguistics, especially in terms of the auxiliary verbs “가다” and “오다” in Korean, which express the direction of action and semantic change, from a theoretical and practical perspective.

Keywords: equivalence, linguistics, language theory, verb valency, Korean, auxiliary verbs, verbs “가다”, “오다”.

Аннотация: В данной статье анализируется понятие эквивалентности в лингвистике, особенно в контексте вспомогательных глаголов «가다» и «오다» в корейском языке, которые выражают направление действия и семантическое изменение.

Ключевые слова: эквивалентность, лингвистика, теория языка, валентность глаголов, корейский язык, вспомогательные глаголы, глаголы «가다», «오다».

KIRISH. Tilshunoslikda ekvivalentlik tushunchasi til tahlilining markaziy masalalaridan biri bo'lib, dastlab faqat formal moslik sifatida talqin qilingan bo'lsa-da, keyinchalik semantik, pragmatik va funksional jihatlar ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu maqola ekvivalentlikning nazariy asoslari hamda koreys tilida harakat yo'nalishi va semantik o'zgarishni ifodalovchi strukturaviy modellarning tahlilini o'z ichiga oladi. Xususan, koreys tilidagi “가다” va “오다” kabi ko'makchi fe'llarning til ichidagi

semantik funksiyasi va ularning ekvivalentlik bilan bog'liqligi yoritiladi.

Koreys tilida mustaqil fe'llar asosiy ma'no yuklovchi birliklar bo'lib, ular o'zining sintaktik va semantik valentligiga ega. Ikkilamchi, ya'ni ko'makchi fe'llar esa mustaqil fe'lga qo'shimcha ma'nolar kiritadi, semantikasi kuchaytiradi yoki uni noaniq kontekstlarda aniqlashtiradi. Bu yondashuv fe'l ma'nosining qatlamlilik xususiyatini ochib beradi va ko'makchi fe'lning lingvistik vazifalarini anglashga yordam beradi (Lee, 2010).



<https://orcid.org/0000-0002-2566-188X>

e-mail:
gulyamir9@gmail.com

ASOSIY QISM. Koreys tilida “가다” (bormoq/ketmoq) va “오다” (kelmoq) fe’llari nafaqat mustaqil ma’no, balki ko’makchi fe’l sifatida ham keng qo’llaniladi.

I. Koreys tilida “가다” (bormoq/ketmoq) ko’makchi fe’li ko’pincha harakatning tugallanishi, rivojlanishi yoki uzoqda sodir bo’lishini ifodalash uchun ishlatiladi. Harakatning tugallanishi yoki yakunlanishi ma’nosida, u biror harakatning yakunlanganligini, natijasining uzoqlashganligini yoki qaytarib bo’lmasligini anglatadi. Masalan: “책을 읽어 갔다” (Kitobni o’qib tugatdi) jumlasida o’qish jarayonining yakunlanganligini bildiradi. Bu ma’noni “-아/어 버리다” (bitirmoq, yo’q qilib yubormoq ma’nosida, masalan, “책을 읽어 버렸다” – Kitobni o’qib tugatdi, to’liq, ba’zan afsus yoki yengillik ma’nosi bilan), “-고 말다” (nihoyatda tugatmoq, oxiriga yetkazmoq, masalan, “책을 읽고 말았다” – Kitobni o’qib tugatdi, majburiyat yoki kutilmagan natija ma’nosida) va “-다 끝나다” (to’liq tugamoq, masalan, “책 읽는 것을 다 끝냈다” – Kitob o’qish butunlay tugadi) kabi shakllar orqali ham ifodalash mumkin. Bu yerda “다” (hammasi) va “끝나다” (tugamoq) fe’li harakatning to’liq yakunini bildiradi.

Shuningdek, “가다” fe’li harakatning asta-sekin rivojlanishi yoki davom etishini ham anglatadi. Bunda biror holatning asta-sekin o’zgarishi yoki jarayonning davom etishi takidlanadi. Masalan: “날씨가 추워져 갔다” (Ob-havo asta-sekin soviy bordi) jumlasida jarayonning davom etishi va uzoqlashib borishini bildiradi. Unga ekvivalent shakllar sifatida “-아/어 지다” (holat o’zgarishi, masalan, “날씨가 점점 추워지고 있다” – Ob-havo asta-sekin sovib boryapti, bu shakl “asta-sekin o’zgarish” ma’nosini aniq ifodalaydi), “-게 되다” (o’zgarish, natija, masalan, “날씨가 추워지게 되었다” – Ob-havo soviy boshladi/sovidi/sovib boryapti, bu natijaga erishishni bildiradi) va “점점 ~다” (asta-sekin ~moq, masalan, “날씨가 점점 추워진다” – Ob-havo asta-sekin sovimoqda, bu yerda “점점” so’zining o’zi ham harakatning davomiyligini anglatadi) ishlatilishi mumkin. Uchinchidan, “가다” harakatning yo’nalishi va natijasining uzoqlashishini bildiradi, ya’ni harakat tugaganidan so’ng uning natijasi yoki ta’siri uzoqlashganini

ko’rsatadi. Masalan: “저쪽으로 가 버려요” (U yoqqa bora qolsin/ bora qoling). Bu ma’noni “떠나다” (tark etmoq, jo’nab ketmoq, masalan, “저쪽으로 떠나세요” – U yoqqa jo’nab keting), “향하다” (yo’nalmoq, masalan, “저쪽을 향하세요” – U yoqqa yo’naling / qarab turing / qarab yuring) va “떠나가다” (uzoqlashib ketmoq, masalan, “그는 멀리 떠나갔다” – U uzoqlashib ketdi) kabi fe’llar orqali ham ifodalash mumkin.

II. “오다” fe’li qo’llanish doirasi natija yoki oqibat (“소식이 오다” – Xabar kelmoq), mavsum yoki vaqtning kelishi (“봄이 오다” – Bahor keldi), tuyg’u yoki fikrning paydo bo’lishi (“생각이 오다” – Fikr kelmoq; “화가 오다” – G’azabi kelmoq, jahli chiqmoq) kabi holatlarni qamrab oladi. Shuningdek, biror hodisaning yuz berishi, masalan, “비가 오다” (Yomg’ir yog’ayapti) kabi jumlalarda ham uchraydi. Ushbu misollarning barchasida “오다” fe’lining asosiy g’oyasi yaqinlashish, boshlanish va yuzaga kelish – saqlanib qoladi.

“오다” fe’liga bir qator ekvivalent shakllar ham mavjud bo’lib, ular ma’no nozikliklarini turli darajada aks ettiradi. Jumladan, “-아/어 지다” grammatik konstruksiyasi ko’proq holatning o’zgarishini yoki ma’lum bir holatga kirishini ifodalaydi. Bu yerda “오다” fe’lidagi “yaqinlashish” ma’nosi kamayib, asosiy e’tibor “o’zgarish” jarayoniga qaratiladi. Misol uchun, “상황이 점점 나빠지고 있다” (Vaziyat asta-sekin yomonlashmoqda) jumlasida vaziyatning bosqichma-bosqich o’zgarib, yomonlashish tendensiyasini ta’kidlaydi, bunda “오다”dagi “biror nuqtaga kelish” g’oyasi umumiy “o’zgarish”ga aylanadi. Boshqa bir ekvivalent ifoda “점점 ~다” (asta-sekin ~moq) bo’lib, bu biror harakat yoki holatning bosqichma-bosqich rivojlanishini bildiradi. Bu “오다” fe’lining “progressivlik” ma’nosini shu fe’lning o’zida mujassam etadi. Masalan: “상황이 점점 나빠진다” (Vaziyat asta-sekin yomonlashmoqda) jumlasida vaziyatning asta-sekin yomonlashuvi faktini ifodalaydi, ammo “오다” fe’lidagi kabi “ma’lum bir nuqtaga intilish” ma’nosi unchalik kuchli emas; u ko’proq holat tendensiyasiga urg’u beradi. Shuningdek, “계속 ~다” (davomiy ~moq) ifodasi harakat yoki holatning uzluksizligini va davomiyligini anglatadi.

Bu yerda “오다” fe’lidagi “progressivlik” g’oyasi “doimiy davom etish” bilan ifodalanadi: “상황이 계속 나빠지고 있다” (Vaziyat doimiy yomonlashib bormoqda).

“오다” fe’li ba’zida oldindan qilingan harakatning natijasini ham bildiradi. Bu kontekstda “오다” “borib” va “kelish” fe’llarining birikmasi sifatida harakatning yakunlanganligini va uning natijasi hozir mavjudligini anglatadi. Masalan: “결과를 보고 왔다” (Natijani ko’rib keldim) jumlası subyektnıng biror joyga borib, natijani ko’rgan va hozirgi joyiga qaytib kelganligini, shuningdek, ko’rish harakati yakunlanganligini va uning natijasi (ma’lumot) hozir mavjudligini anglatadi. Bu ko’proq bir martalik, yakunlangan harakatni bildiradi. Unga ekvivalent shakllar orasida “-아/어 다니다” (borib-kelib bajarmoq) konstruksiyasi “오다” fe’lining bir martalik harakatidan farqli o’laroq, takrorlanuvchi, muntazam ravishda amalga oshirilgan harakatni bildiradi: “결과를 보고 다녔다” (Natijani borib-kelib ko’rib yurdim). “완료하다” (yakunlamoq) fe’li biror harakatning bajarilganligini va yakunlanganligini aniq bildiradi, “오다” fe’lining “natijani olib kelish” ma’nosini bajarishga va yakunlashga qaratadi: “결과를 보는 것을 완료했다” (Natijani ko’rishni yakunladim). Nihoyat, “-아/어 두다” (bajarib qo’yimoq, natijani saqlab qo’yimoq) grammatik konstruksiyasi biror harakatni bajarib, uning natijasini saqlab qo’yishni yoki kelajakda foydalanish uchun tayyorlab qo’yishni bildiradi: “결과를 확인해 두었다” (Natijani tekshirib qo’ydim). Bu yerda natijaning shunchaki ko’rib kelinishi emas, balki uning tekshirilganligi va bu ma’lumotning saqlab qo’yilganligi, ya’ni kelajakda foydalanish uchun mavjudligi ta’kidlanadi.

Yuqoridagi misollar va tahlillardan ko’rinib turibdiki, koreys tilidagi “가다” (bormoq) va “오다” (kelmoq) ko’makchi fe’llari ifodalaydigan ma’no faqatgina shu fe’llarning o’zi orqali emas, balki tilning o’zida mavjud bo’lgan boshqa grammatik shakllar, ko’makchi fe’llar yoki leksik birliklar yordamida ham berilishi mumkin. Bu holat koreys tilining nafaqat leksik boyligini, balki semantik boy ifoda imkoniyatlarini va ayniqsa,

ichki ekvivalentlik tamoyilini yaqqol namoyon etadi. Ushbu tamoyil biror ma’noni ifodalash uchun til tizimida faqat bitta, aniq belgilangan vosita mavjud bo’lmasligi, aksincha, bir necha turli xil lingvistik elementlar (grammatik konstruksiyalar, qo’shimchalar, turli fe’llar) bir xil yoki juda o’xshash semantik funksiyani bajarishi mumkinligini anglatadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytish mumkinki, koreys tilidagi “가다” va “오다” ko’makchi fe’llari harakat yo’nalishi va semantik o’zgarishlarni ifodalashda juda muhim. Bu tadqiqot ushbu fe’llarning kontekstga qarab o’zgaruvchan ma’nolarini, jumladan, harakatning yakunlanishi, bosqichma-bosqich rivojlanishi, yo’nalish hamda holatning boshlanishi va natijasini chuqur tahlil qildi. Koreys tili nafaqat ushbu ko’makchi fe’llar, balki boshqa grammatik shakl va leksik birliklar orqali ham boy semantik imkoniyatlarga egaligini ko’rsatdi. Bu ichki ekvivalentlik tamoyili til tizimining dinamik va murakkabligini yaqqol namoyon etadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. 김운신. 상 보조 용언 구성 '-어 가다'/'-어 오다'의 의미. 사단법인 한국언어학회언어학언어학 제 52 권. – 서울: 2008.
2. 손세모돌. 국어 보조용언 연구. 서울: 한국문화사, 1996.
3. Kim, J.H. Korean Verb Valency and Translation. Seoul: Hankuk University Press, 2001.
4. Yunusova G.D. Koreys tilida ko’makchi fe’llar. T.: Bookmany print, 2023.
5. Yoo, E. J. (2002). Auxiliary verbs and structural case assignment in Korean. 어학연구 (Language Research). Seoul: Language Education Institute, Seoul National University.
6. Хожиев А. Фёкл. –Т.: Фан, 1973.
7. Расулов. Р. Ўзбек тили назарий грамматикаси муаммолари. Монография. – Тошкент, 2019.
8. Lee, S.Y. Semantic Functions of Auxiliary Verbs in Korean. Busan:: Korea University Press, 2010.
9. Nida, E.A. Language Structure and Translation. Stanford: Stanford University Press, 1964.

TURKISTONDA OLIY INQILOBIY TRIBUNALLAR FAOLIYATIGA DOIR MULOHAZALAR

(Soyet hokimiyatining dastlabki yillari misolida)

*Rasulova Iroda Abduxoliqovna, Qarshi davlat universiteti
“O‘zbekiston tarixi” kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi*

REMARKS ON THE ACTIVITIES OF THE HIGHEST REVOLUTIONARY TRIBUNALS IN TURKESTAN

(On the example of the early years of soviet authority)

*Rasulova Iroda Abdukholikovna, independent researcher at the
Department of “History of Uzbekistan” of Karshi State
University*

ЗАМЕЧАНИЯ О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВЫСШИХ РЕВОЛЮЦИОННЫХ ТРИБУНАЛОВ В ТУРКЕСТАНЕ

(На примере первых лет советской власти)


*Расулова Ирода Абдухоликовна, самостоятельный
исследователь кафедры “История Узбекистана”
Каршинского государственного университета*



<https://orcid.org/0000-0002-2984-7155>

e-mail:

irasulova778@gmail.com



Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif Oliy Inqilobiy tribunal ish yuritish qoidalari, xalq sudlari, viloyat Inqilobiy tribunallari va uning joylardagi bo‘limlari tomonidan olib borilgan ishlari, oliy tribunaltarkibi va shu bilan bog‘liq ma‘lumotlarni xolisona ilmiy adabiyotlar, davriy nashrlar va arxiv materiallari asosida to‘laqonli dalillagan hamda ilmiy tahlil etgan.

Kalit so‘zlar: Oliy Inqilobiy tribunal, kollegiya raislari, jinoyatchilik statistikasi, sovet rahbariyati, mahalliy aholi, qonuniylik asosi, hibsga olinganlar, ozod qilish huquqi, ish yuritish qoidalari.

Abstract: In this article, the author has fully substantiated and scientifically analyzed the rules of procedure of the Supreme “revolutionary” tribunal, the work carried out by people’s courts, regional “revolutionary” tribunals and their local branches, the composition of the supreme tribunal, and related information based on objective scientific literature, periodicals, and archival materials.

Keywords: Supreme Revolutionary Tribunal, chairmen of the board, crime statistics, Soviet leadership, local population, basis of legality, detainees, right to release, rules of procedure.

Аннотация: В данной статье автором на основе объективной научной литературы, периодических изданий и архивных материалов полностью обоснованы и научно проанализированы регламент Верховного Револуционного трибунала, деятельность народных судов, региональных Револуционных трибуналов и их местных отделений, состав Верховного трибунала и сопутствующие сведения.

Ключевые слова: Верховный Револуционный Трибунал, председатели коллегии, статистика преступлений, советское руководство, местное население, основы законности, арестованные, право на освобождение, регламент.

Kirish (Introduction). Oliy Inqilobiy tribunal yig'ilishlari doim yopiq holda olib borilgan. Oliy Inqilobiy tribunal rais va ikkita o'rinbosar, oltitadan kam bo'lmagan a'zolar hamda ikkita kotibdan iborat tarkibda Turkiston MIK tomonidan taqdim etilgan shaxslardan iborat tarkibda faoliyat yuritadi deb nizomda uqtiriladi. Nizomga ko'ra oliy Inqilobiy tribunal qoshida ayblanuvchilar huquqini himoya qiluvchi guruh Turkiston MIK tavsiyasiga ko'ra rais va ikkitadan kam bo'lmagan a'zolaridan iborat bo'lgan. Nizomda ta'kidlanishicha oliy Inqilobiy tribunal sudida ko'rib chiqiladigan ishlar quyidagicha qilib belgilangan:

a) barcha siyosiy va hukumat lavozimidagi jinoyatchiliklarni, jumladan Turkiston MIK a'zolari, Xalq komissariati xodimlari, Respublika harbiy-inqilobiy komitet a'zolari, Xalq sudi a'zolari, Tribunal va uning jinoyat qidiruv komissiyasi a'zolari va Oblispolkom xodimlari sodir etgan jinoyatlarni ko'rib chiqadi;

b) barcha yuqoridagi holatdagi ishlar oliy Inqilobiy tribunalgacha ko'rib chiqish uchun xalq sudlari, viloyat Inqilobiy tribunallari va uning joylardagi bo'limlari tomonidan Turkiston MIK, Xalq Komissariatlari hamda Adliya Komissariati qarori asosida taqdim etiladi;

v) viloyat Inqilobiy tribunali va uning joylardagi bo'limlari chiqargan hukmdan norozilik shikoyat arizalarini ko'rib chiqadi;

g) Inqilobiy tribunallarga tegishli alohida shikoyatlarni ham ko'rib chiqadi;

d) Oliy Inqilobiy tribunal a'zolari haq-huquqlariga tegishli barcha masalalarni ko'rib chiqish;

1) Turkiston FKsining tergov materiallarini ko'rib chiqish va bekor qilish. 2) Qamoq joylariga borish, qamoqqa olish holatlarini qonuniyligini tekshirish, noqonuniy hibsga olinganlarni ozod qilish, ikki hafta ichida jinoyati isbotlanmagan shaxslarni qamoqdan ozod qilish huquqlari berilgan edi[9].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Inqilobiy tribunallar kabi qatag'on siyosatining ijrochi organlari – tashkilotlari tarixiga doir sovet davrida nashr etilgan asarlar[1:182] kommunistik andozalarda yozilgan bo'lib, ushbu organlarning yerli xalq vakillariga nisbatan qo'llagan qatag'on siyosati, jazo va ta'qiblari umuman yoritilmadi. Aksincha, sovet hokimiyatining qadr-qimmatini sharaflandi,

madhiyalar bitildi. Bu tashkilotlarni sovet hokimiyatini Turkistonda mustahkamlovchi, eziluvchi sinflarni ezuvchi sinflardan himoyalovchi idoralar sifatida ko'rsatildi.

Oliy Inqilobiy tribunal ish yuritish qoidalari Turkiston MIK 1918-yil 13-dekabrda Inqilobiy tribunallar faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizomi va unga kiritilgan quyidagi o'zgarishlar asosida tashkil etiladi.

Oliy Inqilobiy tribunal sud yig'ilishida kamida 5 a'zo qatnashishi va ulardan biri raislik qilishi, kotibi bo'lishi lozim bo'lgan. Oliy Inqilobiy tribunal sud yig'ilishi ochiq bo'lishi yoki oliy Inqilobiy tribunal qaroriga muvofiq yopiq bo'lishi mumkinligini uqtiriladi. Oliy Inqilobiy tribunal boshqaruv kengashi yig'ilishi kamida 3 a'zo yig'ilganda va ulardan biri rais bo'lganda bo'lib o'tadi. Oliy Inqilobiy tribunal boshqaruv kengashi yig'ilishi doim yopiq holda bo'lib o'tadi. Oliy Inqilobiy tribunal sud yig'ilishi jinoiy qidiruv ishlar oxiriga yetgandan so'ng 48 soat ichida bo'lib o'tishi lozim. Favqulodda hollarda kechroqqa qoldiriladi[6].

Natijalar va muhokama (Results and Discussions). Oliy Inqilobiy tribunal qaror va hukmlar qat'iy bo'lib hech kimga uni muhokama qilish va shikoyat qilish huquqiga ega emas. Oliy Inqilobiy tribunal qaror va hukmlarining ijrosi Turkiston MIK nashri "Izvestiya" gazetasida nashr qilib boriladi[2:1-2].

Oliy Inqilobiy tribunal 1922-yil 11-noyabrda qadar faoliyat ko'rsatib keldi. Bu vaqtda Turkiston Respublikasida ikkita mustaqil tribunal faoliyat yuritgan. Biri Turkiston MIK qoshidagi oliy tribunalbirinchi darajali sudlov organi sifatida. Ikkinchisi kassatsiya (shikoyat) tribunali, bu ham Turkiston MIK qoshida faoliyat yuritgan. Har ikkala tribunallar ham 1921-yil 18-apreldagi Turkiston MIK tomonidan tasdiqlangan Inqilobiy tribunallar haqidagi asosiy nizomga muvofiq ish yuritardi[8].

1921-yil 18-apreldagi Turkiston MIK Inqilobiy tribunallar haqidagi nizomiga 1922-yil 20-aprelda Turkiston MIK o'zgartirishlar kiritdi. Turkiston MIKning № 134-sonli qaroriga muvofiq Oliy tribunal Butun Turkiston bo'yicha yagona oliy jazo tayinlovchi va shikoyatlarni tinglovchi organga aylandi. Viloyat tribunallari va sud idoralari to'lasincha Oliy tribunalgacha bo'yinishi hamda hisob berishi uqtirib o'tildi. Oliy tribunal tarkibi quyidagicha tashkillandi: a) Plenum (Oliy tribunal

raislarining birlashgan kollegiya yig'ilishi) b) Oliy tribunal kollegiyasi: kassatsiya va sud. Plenum rais va uning a'zolari – kollegiya raislaridan (sud va kassatsiyasi) tarkib topadi hamda unga inqilobiy harbiy tribunal va Inqilobiy tribunal raislari kiradi. Shunday qilib Turkiston Respublikasi hududida kelishilgan holda sudlov siyosati yuritiladi deb uqtiradi[5].

Turkiston MIKning ushbu chiqargan qaroriga muvofiq Oliy tribunal va kassatsion tribunallarga birinchi sudlov idorasi sifatida cheklanmagan hokimiyatni berib qo'yimoqda. O'tgan qisqa davrda oliy Inqilobiy tribunal 1922-yil oktyabriga qadar sovet hokimiyatiga qarshi deb topilgan 8 ta ishni ko'rib chiqib unda 134 kishini aybladi. Shulardan 31 kishiga oliy jazo hukmi chiqarildi. 103 kishiga esa turli muddatdagi qamoq hukmi e'lon qilindi[3:40]. Bulardan aksilinqilobiy harakat qatnashchisi deb topilgan Sadridin Xo'jayev va uning sheriklari Toshkentning Eski shahrida sud qilindi. Oliy Inqilobiy tribunalning oktyabr oyida Farg'ona viloyatida bo'lib o'tgan ko'chma yig'ilishida ko'plab kishilar ustidan jinoiy ish qo'zg'atilib va turli muddatga qamoq hukmi chiqarildi. Jumladan Farg'ona vodiysidagi qurolli qarshilik harakatining ilhomchisi hamda rahnamosi deb topilgan Turdi Xo'jayevni oliy jazo – otuvga hukm qilindi[4:14].

Turkiston MIK qoshida shikoyat (kassatsiya) tribunali ham faoliyat yuritgan. Kassatsiya tribunali faoliyati, ya'ni, viloyat tribunallari hukmlaridan norozi bo'lib shikoyat bergan shikoyat arizalarini ko'rib chiqish, Inqilobiy tribunallarning barcha hukmlarini nazorat qilib borish, ular chiqargan hukmlaridan bir nusxadan kassatsion tribunalgacha topshirilish, Turkiston MIK Tribunallar tomonidan hukm qilinganlar tomonidan avf so'rab murojaat qilganlarga xulosa berish, tribunallar faoliyatini taftish qilish, tribunallar faoliyatida bir xillikka erishish borasida yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar berib borish, viloyat tribunallari faoliyati yuzasidan hisobotlarni jamlash, jinoyatchilik statistikasi ma'lumotlarini yig'ib borishdan iborat bo'lgan[7].

1922-yil 1-noyabrga qadar oliy Inqilobiy tribunal sudi tomonidan 26 ishda 146 kishi javobgarlikka tortilib sud qilingan, shundan 33 kishi oqlangan, 112 kishiga esa jazo tayinlangan. Jazo tayinlanganlardan 10 tasi shartli jazoga tortilgan, 1 kishi og'ir mehnat sharoitida mehnat qilish uchun 1 yilga ozodlikdan mahrum qilingan, 62 kishi turli muddatga (6 oydan 10 yilgacha) ozodlikdan

mahrum etilgan, 29 kishiga oliy jazo – otuv hukmi chiqarilgan, 10 kishi boshqa turdagi jazo, jumladan mol-mulki musodara qilinib turli joylarga ko'chirilgan. Hukm qilinganlarning 53 tasi ishchi va hunarmand, 35 kishi dehqon, 20 kishi ziyoli, 4 kishi sudxo'rlik evaziga kun ko'ruvchilar toifasiga mansub bo'lgan. Jazoga tortilgan 12 kishi kommunistik partiya a'zosi, qolgan 100 kishi hech qanday partiyaga a'zo emas edi[3:41-42].

Jazoga tortilgan kishilardan 30 kishiga aksilinqilobiy chiqishlar, qurolli qarshilik harakatida qatnashgani, aksilinqilobiy harakat qatnashchilari sifatida, 22 kishi aksilinqilobiy tashviqot va sovet hokimiyati siyosatini omma orasida tanqid qilgani uchun, 2 kishi xiyonat va sotqinlikda ayblanib, 1 kishi ishchilar orasida sovet hokimiyatini tanqid qilgani uchun, 2 kishi olib sotarligi uchun, davlat majburiyatlarini bajarmaganligi, bo'yin tovlagani uchun 475 kishi, qurolli qarshilik harakati qatnashchilariga yordam berganligi uchun 64 kishiga, 12 kishiga harbiy qoidalarini buzganligi uchun, sovet hokimiyatining, hukumat organlarining topshiriqlarini bajarmaslikka chaqirgani uchun 63 kishiga, 55 kishiga davlat mulkini talon-taroj qilgani uchun, xizmat lavozimi va topshiriqlarni bajarishdan bo'yin tovlagani uchun 19 kishiga, tuzumga qarshi siyosiy guruhlar va qurolli qarshilik harakatlarida qatnashgani uchun 27 kishi, 207 kishi esa boshqa turdagi jinoyatlarni sodir etganlikda ayblanib turli jazo muddatlari tayinlangan hukmlar chiqarilgan[3:42].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xullas, sovet rahbariyatining har qanday vaziyatda ham, ming-minglab qurbonlar evaziga bo'lsa ham o'rnatilgan hokimiyatni targ'ib etish, mustahkamlash va rivojlantirish siyosati puxta o'ylanib, izchillik bilan amalga oshirib borilgan. Mahalliy aholi orasidagi davlat va jamoat arboblari, ziyolilar va ulamolar, partiya va tashkilotlar vakillari, sobiq va faoliyatdagi harbiylar, xizmatchilar, ishchilar, hunarmand-kosiblar, bir so'z bilan aytganda – milliy o'zligini anglagan hamda sog'lom fikrlovchi barcha aholi millati, diniy e'tiqodidan va kelib chiqishidan qat'i nazar sovet hokimiyatining jazoni ta'minlovchi idoralari tomonidan ta'qib ostiga olindi hamda turli jazolarga tortildi. Bunda Inqilobiy tribunallar jazoni ta'yin etuvchi idora sifatida faol bo'ldi.

Covet hokimiyatining qatag'on siyosatini ijrochi organlarining Inqilobiy tribunallar ("Revolyutsion tribunallar") yerli xalqning tuzimga qarshi bo'lgan, o'z haq-huquqlarini talab qilgan vakillariga nisbatan "millatchi", "aksilinqilobchi", "xalq dushmani" kabi tamg'alar ostidagi ayblovlar ostida ularga turli jazo choralari tayinlar edi. Bu organ tomonidan ham tuzumga qarshi bo'lgan aholi vakillariga, muxolifat harakati qatnashchilariga nisbatan ma'muriy yo'l bilan ruhiy azob, bosim o'tkazildi, ozodlikdan mahrum etildi, jismonan yo'q qilindi, siyosiy qatag'on choralari qo'llanildi.

Adabiyotlar ro'yxati (References):

1. Иккоников С. Организация и деятельность РКИ в 1920-1925 гг. –Москва, 1960.; Джалилов Т. На страже народных интересов. Из истории борьбы советской милиции за укрепление власти, Советов в Туркестане в период 1918-1924 гг. –Ташкент, 1963.; Милштейн Н.Я. Из истории Туркестанской ЧК. –Ташкент: Наука, 1965. – С.38; Арипов Р., Милштейн Р. Из истории органов Госбезопасности Узбекистана (Документальные очерки истории 1917-1930 гг). –Ташкент: Узбекистан, 1967. – С.182.;

Иккоников С. Создание и деятельность объединенных органов СКК-РКИ в 1923-1934 гг. –Москва, 1971.; Атаджанов А. Организация и деятельность РКИ в Туркестане. –Ташкент, 1972.

2. O'z MA R-344-fond, 1-ro'yxat, 16-ish, 1-2-varaq orqasi.

3. O'z MA R-344-fond, 1-ro'yxat, 70-ish, 40-varaq orqasi.

4. O'z MA R-344-fond, 1-ro'yxat, 43-ish, 14-varaq.

5. Tarix shohidligi va saboqlari. Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekiston milliy boyliklarining o'zlashtirilishi. (D.Alimova tahriri ostida). –Toshkent: Sharq 2001. –B. 57.

6. Городецкий Е.Н. Рождение советского государства 1917-1918. М., 1987. –Б. 204.

7. Литвин А. Красный и белый террор в России 1918-1922гг. (Совершенно секретно) М.: Яуза, ЭКСМО 2004.-С.57.

8. Портонов В.П., Славин М.М. Становление правосудия Советской России (1917-1922гг.) М., 1990. –С.119-120.

9. Скоркин К.В. На страже завоеваний Революции. Справочник. Местные органы НКВД-ГПУ-ГПУ РСФСР 1917-1923. –Москва: ВивидАрт, 2010. –С. 407-408.



KLIMAT O'ZGARISHI VA UNING O'ZBEKISTON TABIIY MUHITIGA TA'SIRI

*Zokirjonova Dilobarxon Zoirbek qizi, Toshkent to'qimachilik va
yengil sanoat instituti 29-22-guruhi talabasi*

CLIMATE CHANGE AND ITS IMPACT ON THE NATURAL ENVIRONMENT OF UZBEKISTAN

*Zokirjonova Dilobarkhon Zoirbek qizi, student of group 29-22 of
the Tashkent Institute of Textile and Light Industry*

КЛИМАТИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ПРИРОДНУЮ СРЕДУ УЗБЕКИСТАНА

*Зокиржонова Дилобархон Зоирбек кызы, студентка 29-22-
группы Ташкентского института текстильной и легкой
промышленности*



<https://orcid.org/0009-0000-7908-1840>

e-mail:

Dilobarkhonzokirjonova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada global miqyosdagi iqlim o'zgarishi muammosi va uning O'zbekiston tabiiy muhitiga ko'rsatayotgan ta'sirlari tahlil qilingan. Qishloq xo'jaligi, suv resurslari, bioxilma-xillik va atmosfera tarkibidagi o'zgarishlar doirasida ilmiy tahlillar olib borilgan. Shuningdek, O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga moslashish choralari va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, ekologik barqarorlik, suv resurslari, bioxilma-xillik, O'zbekiston, qishloq xo'jaligi.

Abstract: This article analyzes the global issue of climate change and its effects on the natural environment of Uzbekistan. Scientific assessments are provided concerning changes in agriculture, water resources, biodiversity, and atmospheric composition. The paper also outlines proposals for climate adaptation measures and ensuring ecological sustainability in Uzbekistan.

Keywords: climate change, ecological sustainability, water resources, biodiversity, Uzbekistan, agriculture.

Аннотация: В данной статье проанализирована проблема глобального изменения климата и его влияние на природную среду Узбекистана. Проведён научный анализ изменений в сельском хозяйстве, водных ресурсах, биологическом разнообразии и составе атмосферы. Также представлены предложения по адаптации к изменению климата и обеспечению экологической устойчивости в Узбекистане.

Ключевые слова: изменение климата, экологическая устойчивость, водные ресурсы, биологическое разнообразие, Узбекистан, сельское хозяйство.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XXI asrdagi eng dolzarb muammolardan biri — bu iqlim o'zgarishi hisoblanadi. BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha xalqaro ekspertlar guruhi (IPCC) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yuz yil ichida Yer yuzida o'rtacha harorat 1.1°C ga oshdi. Mazkur jarayon nafaqat global miqyosda, balki mahalliy

miqyosda ham — jumladan, O'zbekistonda ham — sezilarli darajada salbiy oqibatlariga olib kelmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA
METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И
МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND
METHODS).** IPCC (Intergovernmental Panel on Climate Change) AR6 Report (2023). IPCCning

oxirgi hisoboti iqlim o'zgarishining global ta'sirlari bilan birga mintaqaviy (jumladan, Markaziy Osiyo) ko'rinishlarini ham qamrab olgan. Unda O'zbekistonda haroratning 2–3°C gacha oshishi, yog'ingarchilikning kamayishi va suv tanqisligining kuchayishi kabi tendensiyalar ilmiy ma'lumotlar bilan asoslangan. Manba global va mintaqaviy klimat siyosati uchun asosiy ilmiy poydevor hisoblanadi. Jahon bankining mazkur hujjati O'zbekistonda iqlim xavflarini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi, suv resurslari va inson salomatligiga ta'sirlarini tahlil qiladi[1].

Milliy va mahalliy ilmiy manbalar tahlili.

O'zbekiston Gidrometeorologiya xizmati tomonidan tayyorlangan ushbu hisobotda mamlakatda so'nggi 50–100 yilda kuzatilgan iqlimiy o'zgarishlar to'g'risida aniq statistik ma'lumotlar keltirilgan[2]. Harorat oshishi, yog'ingarchilikning mavsumiy o'zgarishi va cho'llanish kabi muammolar soha bo'yicha tadqiqotchilarga yo'nalish beradi. Milliy darajada ishonchli rasmiy statistik ma'lumotlarning asosiy ilmiy tahlilning umumiy xulosasi:

Manba turi	Mavzu doirasi	Ahamiyati
IPCC, World Bank	Global va mintaqaviy tahdidlar	Ilmiy asos, statistika, siyosat yo'nalishi
Uzhydromet, mahalliy jurnallar	O'zbekistonda harorat, yog'ingarchilik, suv resurslari	Mahalliy ma'lumotlar, milliy strategiyalar
UNDP, FAO, UNEP	Moslashuv, bioxilma-xillik, cho'llanish	Aniq loyihalar, tadbirlar va o'lchov ko'rsatkichlari

Mazkur mavzuda ish olib borishda xalqaro va mahalliy manbalarni uyg'unlashtirish, ya'ni global tendensiyalarni milliy sharoitga tatbiq etish muhim. IPCC va World Bank kabi manbalar — nazariy va prognostik asos bo'lsa, Uzhydromet va mahalliy tadqiqotchilar asarlari — amaldagi ma'lumot va tahlil manbai hisoblanadi.

МУХОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutadigan paxta va g'alla yetishtirish sohalari iqlim o'zgarishidan jiddiy jabr ko'rmoqda. Haroratning oshishi, suv tanqisligi va hasharotlar sonining ko'payishi natijasida hosildorlik pasaymoqda [6, 34-b].

Iqlim o'zgarishi dunyo bo'ylab tabiiy muhit va inson faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon O'zbekistonda ham aniq va tezkor shaklda

namoyon bo'lmoqda. Ilmiy kuzatuvlar, gidrometeorologik ma'lumotlar va xalqaro hisobotlar buni tasdiqlaydi.

1. Haroratning oshishi. O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi ("Uzhydromet") ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 100 yilda mamlakatda o'rtacha harorat 1,5–1,6°C ga oshgan. Ayniqsa, 1990-yillardan keyin issiqlik tendensiyasi izchil oshib bormoqda.

2. Yog'ingarchilik miqdorining kamayishi va noaniqligi. O'zbekistonda yillik yog'ingarchilik miqdori 10–15% ga kamaygan, ayniqsa bahor va kuz oylarida. Bu holat suv resurslariga, agrar sohalarga va ekologik muvozanatga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

3. Muzliklarning erishi va suv resurslariga ta'sir. Pomir va Tyan-Shan tog' tizmalarida

joylashgan muzliklar O'zbekiston suv resurslarining asosiy manbai hisoblanadi. Hozirda bu muzliklar har yili 1–1,5% gacha qisqarmoqda, bu esa Amudaryo va Sirdaryo havzasida suv miqdorining kamayishiga olib kelmoqda.

4. Cho'llanish va tuproq degradatsiyasi. Qoraqalpog'iston va Qizilqum hududlarida iqlim o'zgarishi tufayli cho'llanish jarayonlari tezlashmoqda. Yerlarning meliorativ holati yomonlashmoqda, tuproq namligi pasaymoqda, sho'rlanish kuchaymoqda.

5. Ekologik va biologik xilma-xillikka tahdid. Iqlim o'zgarishi natijasida qator flora va fauna turlari yo'qolish xavfi ostida. Tabiiy ekotizimlar moslashishga ulgurmay, ekologik muvozanat buzilmoqda.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). O'zbekistonda iqlim o'zgarishi – bu nazariy emas, balki amaldagi dolzarb tahdiddir. Haroratning oshishi, yog'ingarchilikning kamayishi, muzliklar erishi va cho'llanish jarayonlari mamlakatning iqtisodiyoti, tabiiy muhiti va aholisining turmush tarziga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonlarni ilmiy o'rganish va ularga qarshi moslashuv siyosatini ishlab chiqish – davr talabi hisoblanadi [7, 56-b].

1. Iqlim o'zgarishi va tabiiy muhit. Iqlim o'zgarishi tabiiy muhitdagi harorat, yog'ingarchilik, shamol va namlik balansining uzoq muddatli o'zgarishi orqali landshaft va ekotizimlarni o'zgartirishi bilan tavsiflanadi. Bu o'zgarishlar o'simlik va hayvon turlari, tuproq va suv resurslari hamda umumiy biologik muvozanatga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

2. O'zbekistonda bioxilma-xillikka tahdidlar. Turlar soni kamayishi. O'zbekistondagi endemik va kam uchraydigan turlar iqlim o'zgarishiga juda sezuvchan. Issiq va quruq iqlim sharoitida moslashish imkoniyati kamayib, ko'plab turlar xavf ostida qolmoqda. O'zbekistonning "Qizil kitobi" (2021) ma'lumotlariga ko'ra, 300 dan ortiq hayvon va o'simlik turlari yo'qolish xavfi ostida. Misollar: Tog' barsi (*Panthera uncia*), Turon yo'lbarisi (amalda yo'qolgan), Susanna turlari (endemik o'simliklar).

3. Ekotizimlar va landshaft o'zgarishi. Tog' ekotizimlari. Tyan-Shan va Hisor tog' tizmalarida harorat oshishi va yog'ingarchilik kamayishi tufayli o'simliklar vegetatsiyasi qisqarmoqda, daraxtli

zonalar pastki qiyaliklarga siqilmoqda. **Cho'llashuv va sho'rlanish.** Qizilqum, Ustyurt va Qoraqalpog'iston hududlarida cho'llashuv jarayonlari iqlim o'zgarishi bilan kuchaymoqda: suv kamayishi va harorat oshishi natijasida o'rmonlar kamaymoqda, tuproq degradatsiyasi kuchaymoqda. Orol fojiasi natijasida vujudga kelgan sho'r tuproqlar va tuzli shamollar xavf solmoqda.

4. Suv ekotizimlariga ta'sir. Suv havzalari va batafsil misollar: Amudaryo va Sirdaryo daryolarida suv sarfi kamayishi natijasida suvda yashovchi organizmlar soni kamaymoqda. Kichkina ko'llar (masalan, Sariqamish, Tuzko'l) qurish arafasida turibdi. Suvdagi harorat oshishi natijasida kislorod tarkibi pasayib, baliq turlari va suv o'tlari yo'qolmoqda.

5. Invaziya (kelgindilik) va biologik muvozanat buzilishi. Kelgindilar va zararkunandalar ko'payishi. Iqlim o'zgarishi tufayli yangi kelgindilar (invaziya qiluvchi turlar) paydo bo'lib, mahalliy turlarni siqib chiqarmoqda, misol: chegarabuzar qo'ng'ir-qizil qurtlar va issiq iqlimni yaxshi ko'ruvchi zararkunandalar hosillarga xavf solmoqda.

Global miqyosdagi iqlim o'zgarishi bugungi kunda insoniyat sivilizatsiyasi va tabiiy muhit uchun eng dolzarb ekologik muammolardan biridir. Atmosferada issiqxona gazlarining (CO_2 , CH_4 , N_2O) ko'payishi, sanoat va transport tizimining ortib borayotgan emissiyasi, o'rmonlarning kesilishi hamda yer resurslarining noto'g'ri boshqarilishi global isishning asosiy sababchilari bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston bo'yicha o'rtacha harorat XX asr oxiridan beri 1,5–2°C ga oshgan (O'zbekiston Gidrometeorologiya xizmati, 2021). So'nggi yillarda yog'ingarchilik miqdori kamayib, tuproq namligi pasaymoqda. Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv sathi sezilarli darajada tushib ketmoqda. Orol dengizining qurib borishi iqlim o'zgarishining mintaqadagi eng keskin oqibatlaridan biri bo'lib, chang bo'ronlari va tuzli shamollarni kuchaytirmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). O'zbekistonda iqlim o'zgarishi tabiiy muhit va bioxilma-xillikka jiddiy tahdid solmoqda. Flora va fauna turlarining yo'qolishi, cho'llanish, suv

ekotizimlarining degradatsiyasi va biologik muvozanatning buzilishi kabi holatlar bu jarayonning eng aniq ko'rinishlaridir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu jarayonni cheklash uchun moslashuv strategiyalari, qo'riqxonasiyosati, ekoturizm va yashil texnologiyalar rivojlantirilishi zarur. Iqlim o'zgarishi nafaqat tabiiy muhitga, balki ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonda bu jarayonga moslashuv, barqaror rivojlanish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali ekologik xavflarni kamaytirish mumkin. Ilmiy yondashuv, innovatsion texnologiyalar va davlat siyosatidagi ekologik ustuvorlik bu sohada asosiy omillardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. World Bank Climate Risk Profile: Uzbekistan, 2021.
2. UZHYDROMET: O'zbekistonda iqlim o'zgarishi bo'yicha milliy hisobotlar. (2022).
3. Qurbonov B.R., Xasanov A.E. Iqlim o'zgarishi va uning O'zbekistonda suv resurslariga ta'siri. - Ekologiya jurnali, Toshkent, №3, 2020.
4. YUsupova M. O'zbekistonda ekologik barqaror rivojlanish strategiyasi va iqlim o'zgarishi. - Fan va jamiyat jurnali, №4, 2021.
5. UNDP Uzbekistan: Climate Adaptation Projects, 2022.
6. Karimov J.J. O'zbekistonda cho'llanish jarayonlari va uning oldini olish yo'llari. - Geografiya va tabiat resurslari, IETMA nashriyoti, 2019.
7. Qurbonov A. O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga moslashish strategiyalari. - O'zbekiston fanlar akademiyasi materiallari, 2022.



ORNITONIM KOMPONENTLI MAQOLLARDA KONSEPTUAL MA'NOLAR

*Erdonova Muxlisa, Termiz davlat universiteti tayanch
doktoranti, Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ В ПОСЛОВИЦАХ С ОРНИТОНИМИЧЕСКИМИ КОМПОНЕНТАМИ

*Эрданова Мухлиса, докторант Термезского
государственного университета, преподаватель*

Термезского государственного педагогического института

CONCEPTUAL MEANINGS IN PROVERBS WITH ORNITHONYMIC COMPONENTS

*Erdonova Mukhlisa, PhD student at Termiz State University,
Lecturer at Termiz State Pedagogical Institute*

Annotatsiya: Ushbu maqola ornitonim komponentli (qush nomlari ishtirokidagi) maqollarni konseptual tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, o'zbek va ingliz tillarida mavjud bo'lgan maqollar asosida madaniy va semantik tafovutlar ochib beriladi. Til – bu xalqning tarixiy xotirasi va ijtimoiy ongining mahsuli sifatida qaraladi va shu asosda maqollar tilda mavjud bo'lgan konseptual strukturalarning yaqqol ifodasi sifatida tahlil qilinadi. Ornitonimlar metafora, metonimiya, personifikatsiya va simbolik vosita sifatida inson tafakkurining madaniy, estetik va ratsional qatlamlarini namoyon etadi.

Kalit so'zlar: ornitonim, maqollar, konseptual tahlil, metafora, simbolizm, kognitiv tilshunoslik, xalq og'zaki ijodi, o'zbekcha maqollar, inglizcha maqollar, madaniyatlararo pragmatika, estetik konsept, ratsional konsept.

Abstract: This article is dedicated to the conceptual analysis of proverbs containing ornithonymic components (bird names). It reveals cultural and semantic differences based on proverbs found in the Uzbek and English languages. Language is viewed as a product of a nation's historical memory and social consciousness, and proverbs are analyzed as clear expressions of the conceptual structures inherent in language. Uzbek proverbs tend to emphasize aesthetics and traditional values, while English proverbs are distinguished by rationalism and pragmatism.

Keywords: ornithonym, proverbs, conceptual analysis, metaphor, symbolism, cognitive linguistics, folk oral tradition, Uzbek proverbs, English proverbs, intercultural pragmatics, aesthetic concept, rational concept.

Аннотация: Настоящая статья посвящена концептуальному анализу пословиц с орнитонимическими компонентами (с участием названий птиц), на основе пословиц, существующих в узбекском и английском языках, раскрываются культурные и семантические различия. Язык рассматривается как продукт исторической памяти и общественного сознания народа, и на этой основе пословицы анализируются как яркое выражение концептуальных структур, присутствующих в языке. Орнитонимы выступают как метафоры, метонимии, олицетворения и символические средства, отражающие культурные, эстетические и рациональные уровни человеческого мышления.

Ключевые слова: орнитоним, пословицы, концептуальный анализ, метафора, символизм, когнитивная лингвистика, устное народное творчество, узбекские пословицы, английские пословицы, межкультурная прагматика, эстетический концепт, рациональный концепт.



<https://orcid.org/0009-0006-3216-2567>

e-mail:

mukhlisa6881@gmail.com

KIRISH

(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Til – bu xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy ongining mahsuli va madaniy tafakkurining aksidir. Shu jihatdan xalq og‘zaki ijodi tili orqali jamiyatning qadriyatlarini, dunyoqarashi va tafakkuri ifodalanadi. Maqollar ana shunday folklor janrlaridan bo‘lib, ular nutqimizning aforizimli, qisqa va mazmunli shaklidir. Maqollar orqali insoniyatning tabiatga, hayotga, jamiyatga bo‘lgan munosabati ifodalanadi. Maqollarda ishlatiladigan zoonimlar, xususan ornitonimlar (qush nomlari) orqali til egasining qushlarga, ularning xatti-harakatiga, obraziga bo‘lgan estetik va madaniy qarashi ko‘rinadi. Ornitonimlar tilda metafora, personifikatsiya, simvol va konnotatsiyalarning kuchli vositasi sifatida chiqadi. Ular nafaqat nominativ (nom beruvchi) balki, kognitiv va konseptual tahlilda ham chuqur qatlamlarga ega. Mazkur maqolada ornitonim ishtirokidagi maqollar orqali tildagi konseptlarning shakllanishi, ularning semantik va madaniy yuki tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollar tahlil etiladi, ularning o‘xshash va farqli jihatlari ochib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Kognitiv tilshunoslik tilni inson tafakkuri mahsuli sifatida tahlil qiladi. Bu yo‘nalish vakillari – G.Lakoff va M.Johnson kabi olimlarning fikricha, metaforalar va frazeologik birliklar orqali inson miyasidagi konseptual strukturalar ifoda topadi[1]. Konsept – bu so‘z yoki

ibora orqali ifodalanuvchi, xalq ongida shakllangan umumiy tasavvur, ya‘ni ma’nolar majmui. Masalan, “*turnaday qaddi bor*” maqolida ishlatilgan “turna” so‘zi go‘zallik, noziklik, nafislik konseptini bildiradi. Maqollar – bu milliy tafakkur namunasi bo‘lib, ular ornitonimlar bilan bog‘langan holda o‘ziga xos semantik sistemani tashkil etadi. Z.Popova va I.Sternin fikricha, til birliklaridagi konseptlar mental strukturalar asosida tahlil qilinadi[4]. Bundan tashqari A.P.Babushkinning ta’kidlashicha, “dastlab bu atama ilmiy nutqqa yaxshi integratsiya qilinmagan; u ko‘pincha “conceptual representation” deb nomlangan va rus tiliga “semantik tasavvur” deb tarjima qilingan” [3]. G.Frege va uning izdoshlari asarlarida ishlab chiqilgan falsafiy va mantiqiy yondashuv konseptni bilim va fikrlash birligi deb biladi[5]. Bunda konsept mantiqiy kategoriya sifatida tushuniladi. Konseptlarning universal tabiati ta’kidlanib, kognitiv faoliyatda konseptlarning roli tan olinadi.

Tadqiqot metodologiyasiga mantiqiy tahlil (konseptning mantiqiy tuzilishini aniqlash, mantiqiy aloqalarni aniqlash, mantiqiy modellarni qurish); fenomenologik tahlil (muhim xususiyatlarning tavsifi, o‘zgaras xususiyatlarni aniqlash); kategorik tahlil (kategoriya tizimida konseptning o‘rni aniqlash, kategorik xususiyatlarni aniqlash, kategorik sxemalarni qurish) kiradi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ornitonim komponentli maqollar tahlili natijasida o‘zbek tilida keng qo‘llaniladigan quyidagi ornitonimli maqollar ajratildi:

1-jadval.

Maqol	Yuzaki ma’no	Konseptual mazmun
Qush kabi erkin	<i>Inson hech kimga bog‘liq bo‘lmasdan yashaydi</i>	<i>Erkinlik, mustaqillik</i>
Uchgan qushni ushlab bo‘lmas	<i>Ketgan odamni ortga qaytarib bo‘lmaydi</i>	<i>Erkinlik – qaror mustahkamligi</i>
Qushni qishda o‘ylagan to‘q bo‘ladi	<i>Kelajakni o‘ylagan to‘qchilikka erishadi</i>	<i>Oldini ko‘ra bilish, zahiragarlik</i>
Qarg‘a go‘shangaga borar	<i>Natija bermaydigan joyga boradi</i>	<i>Samarasiz harakat, behuda urinish</i>
Qarg‘a bo‘lsa ham – ozod	<i>Har qanday mavjudot ozodlikni xohlaydi</i>	<i>Erkinlik istagi, salbiy obraz ham hurlik timsoli</i>
Qanoti chiqmagan qush	<i>Hali pishmagan, tajribasiz</i>	<i>Tajribasizlik, pishmaganlik</i>
Yangi chiqqan qushday to‘lmagan	<i>Yetilmagan, hali kamolga yetmagan</i>	<i>Yetilmaganlik, psixologik pishiqsizlik</i>

Maqol	Yuzaki ma'no	Konseptual mazmun
Qush kabi erkin	<i>Inson hech kimga bog'liq bo'lmasdan yashaydi</i>	<i>Erkinlik, mustaqillik</i>
Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi	<i>Yomon odam yomonni qo'llaydi</i>	<i>Fitna, birdamlik (salbiy)</i>
Tovuq tushida bug'doy ko'radi	<i>Vogelikka yot orzular ko'riladi</i>	<i>Orzular va haqiqat tafovuti</i>
Turnaday qaddi bor	<i>Qomatli, go'zal inson</i>	<i>Go'zallik, nafislik</i>
Qaldirg'ochdek yengil	<i>Nafis, chaqqon inson</i>	<i>Yengillik, chaqqonlik, nafislik</i>

Konseptning zamonaviy tadqiqotlari turli yondashuvlarni birlashtirgan integrativ metodologiyadan tobora ko'proq foydalanmoqda. Unga konseptning lingvistik jihatlarini har tomonlama tahlil qilish, madaniy va tarixiy kontekstni o'rganish, konseptni shakllantirishning kognitiv mexanizmlarini o'rganish, konseptni idrok etishning psixologik jihatlarini tahlil qilish kiradi[2].

NATIJALAR (PE3YJITATBI/ RESULTS). Integrativ metodologiya doirasida konseptni o'rganish bosqichlari mavjud bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: (1) konseptning nominal maydonini aniqlash; (2) til birliklarining semantikasini tahl qilish; (3) konseptning kognitiv belgilarini aniqlash; (4) konseptning maydon tuzilishini modellashtirish; (5) konseptning mazmunini global mental birlik sifatida tavsiflash demakdir[3].

Ornironim komponentli maqollar xalq tilida chuqur kognitiv qatlamga ega bo'lib, ularning konseptual tahlili til va tafakkur o'rtasidagi aloqani ochib beradi. O'zbek tilidagi maqollar ko'proq estetik va madaniy simvollar asosida qurilgan bo'lsa, ingliz tilidagi maqollar ratsional va faollikka undovchi xarakterga ega. Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, maqollar orqali milliy tafakkur, qadriyatlar va hissiy qiyofani konseptlar asosida talqin qilish mumkin. Keyingi tadqiqotlar uchun zoonimlar (it, ot, bo'ri) yoki boshqa nominativ birliklar asosida konseptual tahlillar olib borish mumkin[4].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Ornironim komponentli maqollar tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Ornironimlar orqali shakllangan maqollar tilda metafora va metonimiya kabi konseptual vositalarning qanday ishlashini

o'rganishga imkon beradi. Shunday qilib, konsept jamiyatning til orqali shakllangan dunyoqarashini ifodalovchi nutq, tafakkur yoki xotira birligi sifatida qaraladi. U yuqori darajadagi mavhumlikka ega bo'lib, kognitiv darajada faoliyat ko'rsatadi va etimologiya, assotsiatsiya hamda mavhum tushunchalar kabi ko'plab ma'no qatlamlarini o'z ichiga oladi. Natijada, bunday tafakkur birliklari kognitiv jarayonlarni yengillashtirish vazifasini bajaradi. Bu yondashuvlarning har biri konseptning mohiyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi, ularning birgalikda qo'llanishi esa bu murakkab mental tuzilmani har tomonlama tadqiq etishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES):

1. Lakoff G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press. 1980.
2. Maxmudova N. Lexical Content of Ornonyms in Uzbek and English Languages. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10 (08), 2023. – P. 55–59.
3. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: Издательство ВГУ, 1996. – С. 104.
4. Попова З.Д., Стернин И.А. *Когнитивная Лингвистика*. – Воронеж: Истоки, 2007.
5. Фреге Г. *Логика и логическая семантика: Сборник трудов / Пер. с нем. Б.В.Бирюкова под ред. З.А.Кузичевой*. – М.: Аспект Пресс, 2000. –С. 512.
6. Курбанбаева, М. (2023). Пословицы и поговорки со схожим значением в русском и узбекском языках и общность народной мудрости. *Tamaddun nuri jurnali*, 4(43),15-18.

QO'NG'IROT SO'FIYLARI DAVRIDA XORAZM VOHASI SHAHARLARI


*Ibragimova Gulzoda Farxadovna, Urganch innovatsion
universiteti tarix fani o'qituvchisi*

CITIES OF THE KHOREZM OASIS DURING THE PERIOD OF THE KUNGARAT SUFIS

*Ibragimova Gulzoda Farkhadovna, teacher of history at
Urgench Innovation University*

ГОРОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА В ПЕРИОД КУНГРАДСКИХ СУФИ

*Ибрагимова Гулзода Фархадовна, преподаватель истории
Ургенчского инновационного университета*



<https://orcid.org/0009-0006-3908-5381>

e-mail:

ibrahimovagulizoda@gmail.com

Annotatsiya: Xorazm vohasi janubiy qismining XIII – XV asrlar davri shaharsozlik an'analari tarixi va umuman iqtisodiy hayot va savdo aloqalari masalasi kam o'rganilgan mavzulardan biri bo'lib, bu yozma manbalar hamda arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlarining kamligidan kelib chiqadi. Xususan, bu asrlarda Xorazmda kechgan siyosiy jarayonlar masalasi yozma manbalarda ancha sust aks etgan bo'lib, shu jihatdan tarixshunoslik nuqtayi-nazaridan ham alohida mavzu sifatida o'rganilmagan. Shu jihatdan olganda, Janubiy Xorazm vohasining XIII – XV asrlar davri shaharsozligi hamda tashqi savdo aloqalari masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanib, mazkur maqola shu mavzuga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Chig'atoy ulusi, Oltin O'rda, Qo'ng'irot so'fiylari, Amir Temur, temuriylar, Xiva, Vazir, Tirsak, Yangishahar (Shemaxa-qal'a), Adoq (Oqqal'a), Qumkend, Bag'dodik.

Annotation: The history of the town-planning traditions of the southern part of the Khorezm oasis during the period of the 13th-15th centuries and the issue of economic life and trade relations in general is one of the little-studied topics due to the lack of written sources and archaeological research data. In particular, the question of the political processes that took place in Khorezm in these centuries was reflected in written sources rather poorly and in this regard was not studied as a separate topic even from the point of view of historiography. From this point of view, the issue of urban planning and foreign trade relations of the South Khorezm oasis in the 13th-15th centuries is considered one of the pressing problems, and this article is devoted to this topic.

Key words: Ulu of Chigatai, Golden Horde, Kungrat Sufis, Amir Timur, Timurids, Khiva, Wazir, Tirsak, Yangishehr (Shemakha-kala), Adak (Ak-kala), Kumkend, Bagdadik.

Аннотация: История градостроительных традиций южной части Хорезмского оазиса в период XIII-XV веков и вопрос экономической жизни и торговых связей в целом является одной из малоизученных тем, что связано с отсутствием письменных источников. В частности, вопрос о политических процессах, происходивших в Хорезме в эти столетия, был отражен в письменных источниках достаточно слабо и в этом отношении не изучался как отдельная тема даже с точки зрения историографии. С этой точки зрения вопрос градостроительства и внешнеторговых связей Южно-Хорезмского оазиса в XIII-XV веках считается одной из актуальных проблем, и данной теме посвящена данная статья.

Ключевые слова: Улус Чигатая, Золотая Орда, Кунградские Суфи, Амир Тимур, Тимуриды, Хива, Вазир, Тирсак, Янгшиехр (Шемаха-кала), Адак (Ак-кала), Кумкенд, Багдадик.

KIRISH (INTRODUCTION). Mo'g'ullar bosqini eng avvalo shaharlar taraqqiyotiga juda katta ta'sir qilgan. Shaharlar va qal'alarining birontasi ham vayronagarchilikdan chetda qolmadi. Ayniqsa, Gurganj va Chap qirg'oq Xorazmning ba'zi shaharlari qattiq talandi. Rustoqlar, sug'orish inshootlari yo'q qilindi, dehqonlar va shahar hunarmandlari qisman qirib yuborildi, ko'pgina qismi Mo'g'ulistonga haydab ketildi. Ko'pgina savdogarlar, din vakillari va boshqa aholi G'arbdagi mamlakatlarga qochib ketishga majbur bo'ldilar. Ammo, mo'g'ul bosqinidan so'ng Xorazm vohasi butunlay vayron qilinib shaharlar taraqqiyoti yuzlab yillar davomida izdan chiqqanligi borasidagi ilgari qarashlar so'nggi arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida xato qarash ekanligi isbotlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW).

Mo'g'ul bosqinidan keyingi Xorazm to'g'risida Yevropa manbalarida ham ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Plano Karpini (1246-yilda kelgan), aka-uka Pololar (1260-yilda kelgan), italyan savdogari Franchesko Balducci Pegoletti (1340-yilda kelgan) asarlarida Xorazm shaharlari, ayniqsa, Urganch to'g'risida qimmatli ma'lumotlar mavjud [16, 20; 21,46,209;22,22;23,211].

1333-yilda Xorazmga markazlashgan arab sayyohi Ibn Battuta kelgan. Uning "Tuhfat an-nuzzar fi g'aroyib al-amsar va ajoyib al-afsar" ("G'aroyib shaharlar va ajoyib safarlar tomoshasi haqida tuhfa") asarida Xorazm savdo shaharlari to'g'risida ba'zi ma'lumotlar uchraydi [11,8,21,58-63].

XIV asr oxiri – XV asr tarixchisi Ibn Arabshohning asari iqtisod, savdo-sotiq va shaharning boshqa ko'pgina jihatlarini yorituvchi ma'lumotlarga egaligi bilan ajralib turadi. Muallif Xorazmning XIV asrning ikkinchi yarmida iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlardan biri bo'lganligini ko'rsatib o'tgan[10].

Ikkinchi turdagi manbalar ichida alohida qimmatga ega bo'lganlaridan mashhur fors geografi Hamdulloh Mustavfiy Qazvinining "Nuzhat-ul-qulub" ("Qalblar oromi") asari [3,260-263; 4,46,51-54; 14,506-511], Shahobiddin al-Umariyning "Kitob masalik al-absar va mamolik al-amsar"

("Turli mamlakatlar davlatlari bo'ylab o'tgan yo'llar") asari [24,207-208], al-Bakuviyning (XIV-XV asrlar) "Kitob talxis al-asar va ajoyib al-malik al-qahhor" ("Buyuk podshoning mo'jizalari va yodgorliklari haqidagi kitobning qisqartmasi") nomli asarlaridir [2]. Shuningdek, Shayx al-Birzaliy [24,172-175], an-Nuviyriy [24,152], Ibn Xaldun [24,385-391] kabi arab-fors va temuriylar davrining Nizomiddin Shomiy [12,514-523;19], Sharofiddin Ali Yazdiy [26], Abdurazzoq Samarqandiy [1; 13,531-535], Hofizi Abro' [5], Xondamir [25] kabi mualliflar asarlarida ham XIV-XV asrlar Xorazm savdo shaharlari va ularning xo'jalik hayoti haqida ma'lumotlar uchraydi.

Xorazm savdo shaharlarining geografik holati to'g'risida XIV-XV asrlarda tuzilgan Yevropa xaritalari ham ma'lumot beradi. 1367-yilda aka-ukalar Fransisko va Domeniko Pitsiganilar xaritasida Urganch, 1375-yilgi Katalon atlasida Urganch, Mizdahqon, Xiva, XV asr Venetsiya kosmografi Fra-Mauroning 1459-yilgi xaritasida esa Urganch shaharlari ko'rsatib o'tilgan [6,23-25; 8,114-126; 27].

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Barcha bosib olingan yerlar 1224-yilda Chingizxon o'g'illari o'rtasida katta ulus sifatida taqsimlangan. Xorazmning shimoliy qismi Oltin O'rda tarkibiga, janubiy qismi esa Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan. Mo'g'ul hukmdorlari urushlar tugashi bilanoq o'z davlatlari rivojini ko'zlab ilgari shahar madaniyatini tiklashga harakat qilganlar. XIII asrning ikkinchi yarmidanoq ilgari vayron qilingan shaharlarning ko'pchiligi tiklandi, yangilari barpo qilindi, sug'orish inshootlari ham ta'mirlandi.

Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan Xiva ham XIII asr oxirlariga kelib, to'laligicha qayta tiklandi. Shahar iqtisodiy hayotida katta rol o'ynagan hunarmandchilik o'zining barcha turlari bo'yicha bosqichma-bosqich rivojlana borib, ba'zi sohalarida yuksak yutuqlarga erishildi. XIII-XIV asrlar shahar

hunarmandchiligi hayotida boshlangan bu taraqqiyot, keyingi asrlarda o'zining eng yuqori nuqtasiga ko'tarildi. 1400-1401-yillarda zarb qilingan Amir Temur kumush tangalarining Xivadan topilishi uning shu davrda yirik shaharlardan biri bo'lganligining yana bir dalilidir[17,3-9].

O'ng qirg'oq Xorazm savdo shaharlari to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak, bu davrda ilgarigi mavqeini tiklay olmaganlar. Ibn Battuta o'z sayohatnomasida Urganchdan Katgacha aholi yashaydigan qishloqlarni uchratmaganligi haqida so'z yuritgan edi. Ammo bu bilan ilgaridan mashhur bo'lgan va Buxoroga olib boruvchi mazkur yo'lga birorta qishloq yoki shahar bo'lmagan, u faqat sahrodan iborat, degan fikr ham noto'g'ri bo'lur edi. Aftidan, Ibn Battuta katta obod qishloqlar bo'lmaganligi haqida fikr yuritgan bo'lsa kerak.

Kat ilgarigi mavqeini tiklay olmagan bo'lsa-da, Movarounnahr bilan bo'ladigan savdo yo'lida joylashganligining o'ziyoq, bu shahar keyinchalik ham kichik bo'lsa-da, savdo markazi sifatida rol o'ynagan. Arxeologik tadqiqotlar o'ng qirg'oq Xorazm shaharlaridan yana biri, Katdan yuqorida joylashgan Sho'raxonning mo'g'ullar hukmronligi davrida ham yirik savdo va hunarmandchilik markazi bo'lib qolganligini ko'rsatadiki, bu bizning yuqoridagi fikrimizni to'la tasdiqlaydi. Xorazmning Oltin O'rda davridagi xo'jalik yuksalishi, unga yana mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatini berdi. Ammo bu mustaqillik uzoq davom etmadi. Taxminan XIV asrning 60-yillarida Oltin O'rdaning so'nggi kuchli xoni O'zbekning o'limi natijasida bu davlatda boshlangan parokandalikdan foydalanib, O'zbekning Xorazmdagi noibi Qutlug' Temur mustaqil siyosat yurgiza boshlagan edi. Shu davrdan boshlab, Xorazmda hokimiyat tepasiga Qo'ng'iro't urug'idan bo'lgan So'filar sulolasi kelib, tez orada Shimoliy va Janubiy Xorazmni birlashtirdilar. Qo'ng'iro't so'filari oltin dinor va "ismi yo'q" tangalar zarb qildirib, muomalaga kiritdilar. Buning ustiga 1379–1380–1391-yillarda Oltin O'rda xoni To'xtamish nomidan kumush tangalar ham zarb qilingan[18,44-47].

Ammo bu davrda Movarounnahrni birlashtirib, uning yagona hukmdori bo'lgan Temur,

mo'g'ullar istilosidan keyin ancha holdan toygan Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlat tuzishga va tartib-qonun ishlarini joriy etishga kirishgan edi. Xorazmda mustaqil davlatning vujudga kelishi esa Temurning feodal tarqoqlik, o'zaro nizolarga chek qo'yish siyosatiga zid edi. Xorazmni Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblagan Temur Xorazmni qo'lga kiritish siyosatini tutdi. Buning ustiga Temur Oltin O'rda orqali o'tuvchi Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'ini ham Movarounnahr orqali o'tishi uchun kurashdi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun Temur Xorazmga 1372-1388-yillar davomida 5 marta yurish qildi va 1388-yildagi beshinchi yurish davridagina, uni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Temurning oxirgi yurishida Urganch shahri vayron etilgan bo'lsa-da, ammo u tezda, ya'ni 1391-yildayoq bu shaharni qaytadan tiklashga ruxsat berdi. Temur o'zining asosiy raqibi, Oltin O'rda xoni To'xtamish bilan bo'lgan kurashda uni yengib, to Moskva ostonasigacha quvib bordi. Qaytishda Oltin O'rdaning yirik siyosiy-iqtisodiy va savdo markazlari – Saroy Botu, Saroy Berka va Hojitarxon (Astraxan) shaharlarini vayron qildi. Natijada Xitoyni Yaqin Sharq mamlakatlari bilan bog'lagan savdo yo'lining Oltin O'rda orqali o'tgan shimoliy tarmog'i barham topib, butun savdo qatnovi yana Movarounnahr shaharlari orqali amalga oshirila boshlandi. Umuman, Temurning ulkan, bir butun, yaxlit va markazlashgan davlat tuzishi, shu hududda siyosiy barqarorlikning mavjud bo'lishi iqtisodiyotda, ayniqsa, savdo-sotiqda ijobiy o'zgarishlarning yuz berishiga olib kelgan. Chunki bu davrda, shubhasiz, Temur va uning mahalliy noiblari Xitoy va Hindistondan Markaziy Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga yo'nalgan asosiy xalqaro savdo yo'li – Buyuk Ipak yo'lini egallab, savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta'minlashda muhim chora-tadbirlar ko'radilar va Sharq bilan G'arb o'rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g'oyat katta e'tibor beradilar. Xorazmdagi Temur davri savdo markazlari to'g'risida tarixchilar Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy asarlari va boshqa bir qancha manbalarda bir qator ma'lumotlar mavjud.

Bu manbalarda Vazir, Tirsak, Yangishahar (Shemaxa-qal'a), Adoq (Oqqal'a), Qumkend, Bag'dodik, Xiva va qayta tiklangan Urganch kabi shaharlar to'g'risida so'z yuritiladi va ularning bu davrda ham boy savdo shaharlari bo'lganligi eslatib o'tilgan. Garchi Xorazmshohlar va Oltin O'rda davri savdo shaharlari bilan tenglasha olmasa-da, bu davrda Yangishahar (Shemaxaqal'a), Qumkend va Tirsak shaharlari yirik savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lganligi manbalarda ko'p bora eslatiladi. Buni arxeologik tadqiqotlar ham to'la-to'kis tasdiqlaydi.

1963, 1968-1971-yillar davomida Qoraqalpog'iston arxeologlari Yu.P.Manilov rahbarligida tadqiqotlarni davom ettirib, o'ng qirg'oq Amudaryo bo'ylab arxeologik ishlar olib borib, Kat, Abu Muslimqal'a, Janpiqqal'a yodgorliklarini o'rganib chiqdilar[15]. Bu arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan eng muhim narsa shu bo'ldiki, Ibn Battuta ta'kidlagan, o'ng qirg'oq Xorazmda Buxoroga qadar Kat (Qiyot)dan boshqa shahar yo'q degan ma'lumoti unchalik haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Arxeologik tadqiqotlar samarasi o'laroq o'ng qirg'oq Xorazm savdo shaharlaridan topilgan juda boy materiallar, ayniqsa, ko'plagan Oltin O'rda tangalari shuni ko'rsatadiki, mo'g'ul bosqinidan keyin ham o'ng qirg'oq Xorazm savdo shaharlari asta-sekin bo'lsa-da, o'z qaddini tiklab olganlar. Ammo, ulardan hech qaysisi X-XIII asrlardagi darajasiga yeta olmagan. 1973, 1978-1981, 1981-1983, 1985-1987-yillarda Janpiqqal'ada, 1980, 1985, 1986-1987-yillarda Mizdahqonda, 1963, 1965-yillarda Shaharlikda, 1973-1974-yillarda Vayangan (Ardaxushmisan)da olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Xorazm savdo shaharlarining topografiyasi, xo'jalik hayotini aniqlash bilan birga, ularning olib borgan savdo aloqalarining yo'nalishlarini hamda muayyan bir o'lkadan (masalan, Erondan, Volgabo'yidan va hokazo) qanday mahsulotlar keltirilganligini yoki Xorazmdan shu o'lkalarga qanday mollar chiqarilganligini to'liq bo'lmasa-da, aniqlash imkonini berdi[15].

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS). Yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, xullas, XIV-

XVII asrlar Xorazm savdo shaharlari to'g'risida ko'pgina arab-fors, Yevropa va eski o'zbek tilidagi manbalarda ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, ammo umumiy holatda ular savdo shaharlarining xo'jalik hayoti, mavqei to'g'risida atroflicha ma'lumotlar bera olmaydi. Mavzuning chin ma'noda o'rganilishi esa XIX asrdan boshlangan. Ammo XIX asr rus va yevropalik tadqiqotchilar bu mavzuni o'rganishda ko'proq aynan yuqoridagi manbalar ma'lumotlariga tayanganlar. XIII – XV asrlar Janubiy Xorazm shaharlari va ularning xalqaro savdo munosabatlaridagi o'rni masalasi kam o'rganilgan hamda kelgusida chuqur tahlil asosida o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матла'ус-садайи ва мажма'ул-бахрайи. / Масъул муҳаррирлар: А.Қаюмов, Муҳаммад Али. – Т.: О'zbekiston, 2008. Ж. II, Қ.1: 1405 – 1429 йил воқеалари. – 632 б.
2. Ал-Бакувӣ, 'Абд ар-Рашӣд. Китāб Талхис ал-ссāр ва 'аджа'иб ал-малик ал-каххār: (сокращение [книги о] Памятниках и чудеса царя могучего) / издание текста, перевод, предисловие, примечания и приложение З.М. Буниятова. – Москва: Наука, 1971. – 192 с.
3. Бартольд В.В. Дорожник от Бистами до Куня Ургенча. – Соч. Т.3. – М.: Наука, 1963. – С.260-268.
4. Бартольд В.В. Сведения об Аральском море в низовьях Амударьи с древнейших времён до XVIII в. – Сочинения. Т.3. – М.: Наука, 1963. – 712 с.
5. Бартольд В.В. Хафиз-и Абру и его сочинения // Сочинения, Том VIII. Работы по источниковедению. М.: Наука. 1973. – С. 74-98.
6. Брун Ф. Перипл Каспийского моря по картам XIV столетия. // ЗНУ., Т.9. 1879, с.23-25 и. карты.
7. Вактурская Н.Н. Раскопки на городище Ургенч в 1952 г. //ТХЭ, т.2. – М.: Наука, 1958. – С. 476-494.

8. Егоров В.Л. География городов Золотой Орды. // Советская археология (СА), 1974, №1. – С.114-126.
9. Заходер Б.Н. Каспийский свод сведений о Восточной Европе. – Т. 2. – М., 1967. – 213 с.
10. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). –Т.:Меҳнат, 1992. – 326 б.
11. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга сайёҳати. –Т.: Шарқ баёзи, 1993. – 104 б.
12. Извлечения из Зафар-намэ Низам-ад-дина Шами // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники (далее МИТТ) // Под ред. С.Л.Волина, А.А. Ромаскевича и А.Ю.Якубовского. – С.514-523.
13. Извлечения из Матла ас-саъдейн Абд-ар-раззака Самарканди / МИТТ, т.I. – С.531-535.
14. Извлечения из Нузхат ул-кулуб Хамдаллаха Казвини // МИТТ, т.I. – С.506-511.
15. Кдырнийзов М.Ш. Материальная культура городов Хорезма в XIII-XIV веках. – Нукус: Каракалпакстан, 1989. – 176 с.
16. Книга Марко Поло / Пер.И.И.Минаева. – М.: Географгиз, 1955 – 376 с.
17. Мамбетуллаев М., Абдримов Р. Основные этапы развития города Хивы // Общественные науки в Узбекистане. 1997. № 7-8. – С.3-9.
18. Мамбетуллаев М.М. О торговых связях Хорезма в древности и средневековье // Города и каравансарай на трассах Великого Шелкового пути. Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО. – Ургенч, 1991. - с.44-47.
19. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Форс тилидан ўғирувчи Ю.Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 544 б.
20. Пачкалов А.В. Города Нижнего Поволжья в XV веке// Золотоордынская цивилизация. Вып.1. – Казань, 2008. – С. 58-70.
21. Пеголотти Ф.Б. Практический указатель торговцам. Под ред. А.Эванса. -Кембридж-Массачусетс. 1936, с.22 (на англ. языке). – 443 pp.
22. Путешествия в восточные страны Плано Карпини и Рубрука / Ред., вступ. ст. и прим. Н.П. Шастиной. М.: Государственное издательство географической литературы, 1957. - 287 с.
23. Рихард Хенниг. Неведомые земли. – М.: Изд-иност.лит., 1962. – 516 с.
24. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Том 2. Москва; Ленинград: Академия наук СССР, 1941.– С.90-99, 152, 172-175, 385-391.
25. Хондемир. История монголов. От древнейших времен до Тамерлана / Пер. с перс. и авт. предисл., примеч. В.В.Григорьев. – СПб.: Типография Карла Крайя, 1834. – XII, 159 с.
26. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома // Сўз боши, табдил, изохлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад, Ҳ. Бобобеков. – Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.
27. Чекалин Ф.Ф. Нижнее Поволжье на карте космографа XV в. Фра-Маура. //ТСУАК. т.II., вып.2. – Саратов, 1890, карта.
28. Шильтбергер Иоганн. Путешествие по Европе, Азии и Африки с 1394 по 1427 г. (перевод Ф.К.Бруна). – Баку: Елм, 1984.- С. 44.
29. Юсупов Ш. Амир Темур ва темурийлар даври Хоразм тарихи хориж ва совет тарихшунослигида // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент – Урганч: Navro‘z, 2019. – Б. 318-321.



ОЧИКЛИК ВА ШАФФОФЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ – КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ ҚУРАШИШНИНГ ЭНГ САМАРАЛИ ВОСИТАЛАРИДАН БИРИ СИФАТИДА

*Хўжаев Миришод Фатилло ўғли, Хуқуқни муҳофаза қилиш
академияси мустақил изланувчиси*

ENSURING OPENNESS AND TRANSPARENCY IS ONE OF THE MOST EFFECTIVE TOOLS IN FIGHTING CORRUPTION

*Khojaev Mirshod Fatillo ugli, Independent Researcher at the Law
Enforcement Academy*

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОТКРЫТОСТИ И ПРОЗРАЧНОСТИ — ОДИН ИЗ НАИБОЛЕЕ ЭФФЕКТИВНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ

*Ходжаев Миришод Фатилло оглы, независимый исследователь
Академии правоохранительных органов*



<https://orcid.org/0009-0003-6377-7327>



*Биз очиклик сиёсатини, сўз эркинлиги ҳояларини ҳаётга татбиқ этишида ҳамиша қатъий бўламиз.
(Ш.М.Мирзиёев)*

Аннотация: Мақолада коррупциянинг олдини олиш бўйича энг самарали воситалардан ҳисобланган очикликни таъминлаш бўйича Ўзбекистонда амалга оширилган ишлар ва уларнинг коррупцияга қарши курашишдаги ўрни таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: коррупция, очиклик ва шаффофлик, очик маълумотлар, форматлар, жамоатчилик назорати, ҳисобдорлик.

Abstract: The article analyzes the measures implemented in Uzbekistan to ensure transparency, which is considered one of the most effective tools for preventing corruption, and examines their role in combating corruption.

Key words: corruption, openness and transparency, open data, formats, public control, accountability.

Аннотация: В статье проанализированы мероприятия, реализованные в Узбекистане для обеспечения прозрачности, которая считается одним из наиболее эффективных инструментов предотвращения коррупции, а также рассмотрена их роль в борьбе с коррупцией.

Ключевые слова: коррупция, открытость и прозрачность, открытые данные, форматы, общественный контроль, подотчетность.

КИРИШ. Коррупция муаммоси бутун дунёда иқтисодий ўсиш, жамоатчилик ишончи ва бошқарувга путур етказувчи муҳим муаммо бўлиб қолмоқда. Ушбу иллатнинг демократик институтлар, этник қадриятлар ва адолатга путур етказиши ҳамда барқарор ривожланиши

ва ҳуқуқ-тартиботга зарар келтириши, жамиятнинг барқарорлиги ва хавфсизлиги учун муаммо тугдириши халқаро миқёсда тан олинган¹.

Мазкур масала давлат раҳбари томонидан жорий йилнинг 5 март куни бўлиб ўтган

¹ БМТнинг Коррупцияга қарши конвенцияси, преамбула. 2003-йил 31 октябрь. Ўзбекистон Республикаси

07.07.2008 йилдаги ЎРҚ-158-сон Қонун билан конвенцияга қўшилган.

Коррупцияга қарши курашиш Миллий кенгаши йиғилишида ҳам кўтарилиб, коррупцияга қарши курашиш – умуммиллий вазифа эканлиги, ҳар бир ватанпарвар юртдошимизнинг виждон иши эканлиги, ушбу жарёнлардан ҳеч ким четда турмаслиги кераклиги алоҳида қайд этилди². Коррупцияга қарши курашиш ва унинг олдини олиш масаласи барча даврларда барча давлатлар учун долзарб масала бўлиб келган ҳамда мамлакатларнинг таназулга юз тутишига олиб келувчи асосий омиллардан бири бўлиб келган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД.

Сиёсий назария ва ҳуқуқшунослик тарихидаги энг буюк асарлардан бири ҳисобланган **Шарль Луи де Монтескьенинг “Қонунлар руҳи”** (*L'Esprit des Lois*, 1748) асарида Монтескье шундай фикрларни келтириб ўтган: *“...тажриба шуни кўрсатадики, ҳокимиятни қўлга киритган ҳар бир шахс ундан суиистеъмол қилишига ва ўз ҳокимиятини имкон қадар кенг доирада қўллашга мойил бўлади”*³.

Шундай экан, коррупцияга қарши курашиш масаласи бугунги кунда ҳам халқаро ҳамжамият, шу жумладан Ўзбекистон Республикаси учун ҳам давлат сиёсати даражасига кўтарилган муҳим масала бўлиб қолмоқда.

Ш.М. Мирзиёев Президентлик вазифасига киришгандан кейинги биринчи бўлиб имзоланган “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги⁴ Қонунга мувофиқ коррупцияга қарши курашишнинг асосий тамойиллари ва йўналишлари белгилаб берилди.

Қонунга кўра, коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги давлат сиёсатининг қуйидаги **асосий йўналишлари** кўзда тутилиб, унга кўра биринчи бора **аҳолининг ҳуқуқий онги**

ва **ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантиришга** алоҳида йўналиш сифатида эътибор қаратилди⁵.

Коррупциянинг олдини олишнинг асосий воситаси сифатида давлат идоралари фаолиятининг очиқлигини таъминлаш, мансабдор шахсларнинг жамоатчилик олдида ҳисобдорлигини оширишга қаратилган сўнгги йиллардаги ислохотлар жамоатчилик орасида коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантиришга, фаол фуқароларнинг давлат ва жамият ҳаётидаги муҳим масалаларни кўтариб чиқишларига хизмат қилмоқда.

МУҲОКАМА. Очиқлик сиёсати сўнгги йилларда Ўзбекистонда ҳам давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Бу борада қатор ислохотлар амалга оширилиб, ушбу йўналишдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар базаси тубдан такомиллаштирилди.

Хусусан, муаллиф томондан амалга оширилган таҳлилларга кўра, **2021-2023** йилларда юртимизда **92 та** норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда очиқлик ва шаффофлик механизмларини жорий этишга қаратилган **233 та вазифа** ва топшириқлар белгилаб берилган.

Шулардан **121 та** топшириқ асосида амалдаги механизмлар очиқлик принциплари асосида такомиллаштирилиб, **112 та** янги амалиёт йўлга қўйилди.

Мисол учун, давлат органлари ва ташкилотлари томонидан очиқ эълон қилиниши лозим бўлган **ижтимоий аҳамиятга молик маълумотларнинг қатъий рўйхати** тасдиқланиб ахборотлар жойлаштирилаётган ресурс, янгилаб бориш муддати ва масъул ижрочилар аниқ белгилаб берилди⁶.

² Ш.Мирзиёев. Коррупцияга қарши курашиш миллий кенгашининг 05.03.2025 йилдаги нутқидан. <<https://www.president.uz/uz/lists/view/7924>>

³ Ш. Монтескье, 1748, Қонунлар руҳи. Асосчиларнинг Конституцияси: 17-боб, Чикаго университети нашриёти, <<https://press-pubs.uchicago.edu/founders/documents/v1ch17s9.html>>

⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси (Парламент) 2017 йил, Ўзбекистон Республикасининг Коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси LexUz-online, <<https://lex.uz/docs/4056495>>

⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси (Парламенти) 2017 йил, Ўзбекистон Республикасининг Коррупцияга

қарши курашиш тўғрисидаги Қонунининг 5-моддаси, Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси LexUz-online, <<https://lex.uz/docs/4056495>>

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Давлат органлари ва ташкилотларининг фаолияти очиқлигини таъминлаш, шунингдек, жамоатчилик назоратини самарали амалга оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси LexUz-online, <<https://lex.uz/docs/5459053>>

Шунингдек, давлат органлари ва ташкилотларида очиклик бўйича амалга оширилаётган ишларнинг самарадорлигини баҳолашга қаратилган “Очиклик индекси” жорий этилди⁷. Ёки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йилги фармони билан ижтимоий аҳамиятга молик маълумотлар рўйхати кенгайтирилиб, қайта алоқанинг сирли мижози тадбирларини ўтказиш белгиланди⁸. Замонавий технологияларнинг кундалик ҳаётимизга кириб келиши давлат органлари фаолиятининг очиклиги ва шаффофлигини янада ошириш учун техник имкониятларни ошириб бормоқда.

Бундан унумли фойдаланган ҳолда барча соҳаларда онлайн рақамли платформалар имкониятларидан кенг фойдаланилмоқда. Масалан:

-норматив-ҳукуқий ҳужжатлар лойиҳаларини жамоатчилик муҳокамасидан ўтказиш тизими жорий этилди (regulation.gov.uz);

-давлат бюджети ва қарзи, шунингдек, давлат харидлари тўғрисидаги маълумотларни кўриш ва реал вақт режимида кузатиш имконини берувчи онлайн платформалар (openbudget.uz, xarid.uzex.uz, etender.uzex.uz) ишга туширилди;

-очик маълумотлар портали (data.egov.uz) фаолияти сифат жиҳатдан янги босқичга кўтарилди;

-аҳоли учун давлат хизматларини кўрсатиш бўйича ягона интерактив давлат хизматлари портали (my.gov.uz) ишга туширилди;

-давлат активларини реализация қилиш, кўчмас мулк, автотранспорт воситалари сотиш, ер участкаларидан фойдаланиш ҳуқуқини олиш ва бошқа бир қатор масалалар онлайн аукцион савдолари (e-ijro.auksion.uz) орқали олиб борилмоқда;

- Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари томонидан қабул қилинадиган қарорларни ишлаб чиқиш, келишиш ва рўйхатдан ўтказишнинг ягона электрон тизими (e-qaror.gov.uz) ишга туширилди;

-судларда кўрилган ишлар бўйича қабул қилинган суд ҳужжатлари билан онлайн тартибда (decisions.esud.uz) танишиш имконияти яратилди;

-Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик палатаси, халқ депутатлари Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар кенгашлари ҳамда туман шаҳар кенгашлари сессияларини жонли эфирга узатиш амалиёти йўлга қўйилди;

-олий таълим муассасалари ва Президент таълим муассасалари кириш имтиҳонлари (тест ва ижодий имтиҳонлар) жараёнлари тўлиқ жонли эфирга узатиб борилмоқда;

- фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун илмий кенгаш томонидан ўтказиладиган диссертация ҳимояси жараёнлари тўлиқ жонли эфирга узатиб борилмоқда.

Юқорида санаб ўтилган мисоллардан кўриш мумкинки, ҳар бир йўналишда очиклик ва шаффофликни таъминлашга қаратилган ислохотларнинг амалга оширилиши ушбу соҳада коррупциявий хавф-хатарларнинг камайишига, аҳоли ва давлат ўртасидаги ўзаро ишончни мустаҳкамлашга хизмат қилган. АҚШлик иқтисодчи олим, Нобель мукофоти совриндори **Ж.Стиглиц** коррупциянинг яширин жойларда гуллаб-яшнаши ва ёруғликдан қочиши, шаффофликдан кўра ҳалолликни тарғиб қилишнинг бошқа энг яхши усули йўқлигини таъкидлаб ўтган⁹.

БМТ собиқ бош котиби **К.Аннан** шаффофлик ва ҳисобдорлик самарали давлат бошқарувининг муҳим устунлари эканлигини таъкидлаб, раҳбарлар жамоатчилиги олдида

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йилдаги ПФ-154-сон Фармони, Давлат органлари ва ташкилотлари фаолиятининг очиклик даражасини ошириш ва баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида, Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси LexUz-online <https://lex.uz/docs/6066512>

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йилдаги ПФ-200-сон Фармони, Коррупцияга қарши курашиш

тизимини янада такомиллаштириш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари фаолияти устидан жамоатчилик назорати тизими самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида, Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси LexUz-online <https://lex.uz/docs/6676585>

⁹ Ж. Стиглиц. Тенгсизликнинг нархи: бугунги бўлинган жамият келажагимизни қандай хавф остида қўяди. V.V.Norton & Company, 2012 йил.

хисобдор эканликларини ҳис қилгандагина адолатли ҳаракат қилишларини билдирган¹⁰.

НАТИЖАЛАР. Юртимизда 2022 йилдан буён доимий равишда эълон қилиб борилаётган “Очиқлик индекси”да юқори натижа қайд этиб, очиқликка оид қонун талабларини намунали (1-чизма 2024 йилги “Очиқлик индекси”¹¹ ҳамда “Коррупцияга қарши курашишдаги самарадорлик рейтинги”¹² ўзаро нисбати³)

бажараётган вазирлик ва давлат идораларининг коррупцияга қарши курашиш бўйича ташаббусларни амалга оширишда ва ички мувофиқлик тизимини ташкил этишда ҳам фаоллигини қўидаги схема орқали ҳам кўриб ўтишимиз мумкин.



Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-154-сон Фармони билан юритиладиган “Очиқлик индекси” **8 та** баҳолаш мезони (очиқликни таъминлашга масъул бўлган ходимлар фаолиятининг самарадорлиги, расмий веб-сайтларида ахборотларни жойлаштириш ва электрон давлат хизматлари кўрсатиш ҳолати, ижтимоий аҳамиятга молик маълумотларни эълон қилиш, бюджет жараёнининг очиқлиги, очиқ маълумотлар порталида маълумотлар жойлаштирилиши, оммавий коммуникация технологияларининг жорий қилиниши, коррупция ҳолатларини барвақт аниқлаш ва уларнинг олдини олишда очиқлик тамойилларидан фойдаланиш, жамоатчилик кенгашининг фаолияти

самарадорлиги) ва **84 та** индикаторлардан иборат.

Коррупцияга қарши курашишдаги самарадорлик рейтинги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йилдаги ПҚ-81-сон Қарори асосида **5 та** йўналишда амалга оширилади.

Юқорида кўриб чиқилган икки рейтингнинг бир-бирига мутаносиблигидан шуни хулоса қилиш мумкинки, ўз фаолияти очиқлигини таъминламаган ҳамда жамоатчилик олдида ҳисобот бермаган ташкилотларнинг коррупцияга қарши курашишдаги ташаббуслари ҳам кўп ҳолларда етарлича даражада бўлмаслигини кўришимиз мумкин.

¹⁰ К.Аннан. 2003 йилда Жаҳон банкининг коррупция бўйича конференциясидаги нутқидан.

¹¹ Коррупцияга қарши курашиш агентлигининг Очиқлик индекси платформаси. 01.04.2024 йил.



¹² <https://index.anticorruption.uz/rating>

² Коррупцияга қарши курашиш агентлиги расмий веб-сайтида эълон қилинган Давлат идораларининг коррупцияга қарши курашишдаги фаолияти самарадорлиги рейтинги. 28.03.2024 йил.

³ <https://aca.uz/uz/article/davlat-idoralarinig-korrupsiyaga-qarshi-kurashishdagi-faoliyati-samaradorligi-reyting-baholandi>

Вазирлик ва идораларнинг рейтинглардаги жойлашувлари нисбатини кўрсатиб берувчи мазкур схема билан <https://public.flourish.studio/visualisation/21723897/> саҳифаси орқали батафсил танишиб чиқиш имконияти мавжуд.

Мазкур гипотезани глобал миқёсдаги рейтингларда ҳам кузатишимиз мумкин.
Чанда – Ҳукумат шаффофлиги индекси натижаси (2021 йил)¹;



Ўнда – Порахўрлик хавф-хатари индекси (2023 йил)².

Ўзбекистонда давлат идоралари очиклигини таъминлашга қаратилган ислохотларнинг самараси халқаро ҳамжамият томонидан ҳам эътироф этилмоқда.

Хусусан, Ўзбекистон очикликни таъминлаш асосий индикаторлардан бири бўлган қатор халқаро рейтинг ва индексларда ўз позициясини сезиларли яхшилашга эришди.

Мисол учун, Open data watch рейтингда Ўзбекистон барқарор ўсишга эришмоқда. Халқаро ташкилоти томонидан давлат

органлари ва ташкилотлари томонидан эълон қилиб бориладиган очик маълумотларнинг сифати ва халқаро стандартларга мос равишда эълон қилинишини ҳар 2 йилда баҳолаб боради.

Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси ушбу рейтингда 2018 йилда жами 19 балл билан 169-ўринда қайд этилган бўлса, сўнгги (2024 йилги) ҳисоботга кўра 157 поғона кўтарилиб, 83 балл билан дунёда 12-ўринни эгаллади¹.

2018 йил		2022 йил		2024 йил	
Умумий балл	Ўрин	Умумий балл	Ўрин (+/-)	Умумий балл	Ўрин (+/-)
19	169	63 (+44)	45 (+124)	83 (+64)	12 (+157)

Худди шунингдек, “Transparency International” халқаро ташкилотининг “Коррупцияни қабул қилиш индекси”да Ўзбекистон ўрни 2018 йилдан буён барқарор яхшиланиб бормоқда (158-ўридан 121-ўрингача). Мазкур рейтингда мамлакатимиз ўрнининг яхшиланишига асосий сабаблардан бири сифатида очиклик ва шаффофлик бўйича

амалга оширилган ислохотлар кўрсатиб ўтилган¹.

ХУЛОСА сифатида шуни таъкидлаш мумкинки, очиклик сиёсати коррупцияга қарши курашиш, жамоатчилик назоратини кучайтириш, давлат идораларининг ҳисобдорлигини оширишга хизмат қилувчи энг

¹ Ercas ташкилотининг Ҳукумат шаффофлиги индекси (T-index) 2021 йил натижалари.

<<https://www.againstcorruption.eu/ercas-projects/transparencyindex/>>

² Trace Matrix ташкилотининг Порахўрлик хавф-хатари индекси (Trace Matrix) 2023 йил натижалари.

<<https://www.traceinternational.org/trace-matrix?year=2023>>

¹ “Open data watch” ташкилотининг “Open data inventory” рейтинг. < <https://odin.opendatawatch.com/>>

¹ Рейтингнинг манбаларидан бири ҳисобланган Жаҳон банкининг CPIA очиклик, ҳисобдорлик ва давлат секторида коррупция индексида Ўзбекистон натижаси яхшиланган (27 дан 35 га).

самарали воситалардан бири эканлиги халқаро майдонда ҳам мамлакатимизда ҳам тан олинган.

Ушбу жиҳат бир қатор халқаро ташкилотлар ҳамда коррупцияга қарши курашиш бўйича “hub”лар томонидан ҳам инобатга олинмоқда.

Жумладан “Transparency international” халқаро ташкилотининг коррупцияни қабул қилиш индексидаги бир қатор манбалар давлат бошқарувида очиқлик таъминланганлиги, бюджет шаффофлиги, жамоатчилик назорати, ОАВ эркинлиги каби бир қатор индикаторларни ўз ичига олади. Ёки, Жаҳон одил судлов лойиҳасининг “Хуқуқ устуворлиги” рейтингда Хукумат очиқлиги **8 та** факторлардан бири сифатида белгиланган. Ушбу соҳада сўнгги йилларда Ўзбекистонда бир қатор ислохотлар амалга оширилиб, давлат хизматини рақамлаштириш, инсон омилини камайтириш, аҳолини қизиқтирган ижтимоий аҳамиятга молик соҳаларда маълумотларни очиқлаш бўйича чора-тадбирлар амалга оширилди.

Шу билан бирга давлат хизмати очиқлиги ва ҳисобдорлигини таъминлаш, шу жумладан ОАВ орқали давлат органлари ва ташкилотлари хизматчиларига “давлат органлари фаолияти очиқлиги, шаффофлиги ва ҳисобдорлиги” маданиятини сингдириш, жамоатчилик вакилларининг очиқ маълумотлар билан ишлаш бўйича малакасини ошириб бориш ва кенг жамоатчиликнинг диққат-эътиборида бўлиб турган масалаларда очиқликни янада

таъминлаш йўналишларида келгусида ишлар давом эттириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. БМТнинг Коррупцияга қарши конвенцияси, преамбула. 2003-йил 31 октябрь. Ўзбекистон Республикаси 07.07.2008 йилдаги ЎРҚ-158-сон Қонун билан конвенцияга қўшилган.
2. Ш. Монтескье, 1748, Қонунлар руҳи. Асосчиларнинг Конституцияси: 17-боб, Чикаго университети нашриёти.
<<https://press-pubs.uchicago.edu/founders/documents/v1ch17s9.html>>
3. Ж.Стиглитз. Тенгсизликнинг нархи: бугунги бўлинган жамият келажагимизни қандай хавф остида қўяди. V.V.Norton & Company, 2012 йил.
4. К.Аннан. 2003 йилда Жаҳон банкининг коррупция бўйича конференциясидаги нутқи.
5. Жаҳон банки. Очиқ маълумотлар бўйича қўлланма.
<<https://opendatatoolkit.worldbank.org/en/data/opendatatoolkit/essentials>>
6. Европа иттифоқи очиқ маълумотлар портали. Очиқ маълумотлар модули.
<<https://data.europa.eu/elearning/en/module9/#/id/co-01>>
7. Очиқ маълумотлар хартияси. Халқаро очиқ маълумотлар тамойиллари.
<<https://opendatacharter.org/principles/>>



XIVA XONLIGI TARIXINING MAHALLIY TARIXCHILAR TOMONIDAN O'RGANILISHI

*Bektoshev G'iyos Saxriddin o'g'li, ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi*

STUDY OF THE HISTORY OF THE KHIY KHANATE BY LOCAL HISTORIANS

*Bektoshev Giyas Sakhrudin oglu, ShDPI Faculty of Social
Sciences 2nd year student, History Department*

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА КРАЕВЕДАМИ

*Бектошев Гияс Сахридин оглы, студент 2-курса
факультета социальных наук ШДПИ*



<https://orcid.org/0009-0000-2832-649X>

e-mail:

bektoshevgiyosiddin03@
mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti mahalliy yozma manbalar asosida tahlil etiladi. Unda xonlikda yuz bergan siyosiy voqealar, tashqi va ichki siyosat, iqtisodiy faoliyat shakllari, savdo-sotiq aloqalari hamda madaniy-ma'naviy hayotning asosiy yo'nalishlari yoritiladi. Shuningdek, mazkur tarixiy manbalarda aks etgan voqealarning mazmuni, ularning haqqoniylik darajasi va ilmiy qiymati baholanadi. Maqolada Xiva xonligi tarixini o'rganishda mahalliy manbalar asosida yondashishning ahamiyati ko'rsatilib, bu yondashuv hududiy tarixni chuqurroq anglash imkonini berishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Xorazm, Abulg'oziy Bahodirxon, Ogahiy, Eltuzarxon, Muhammad Yusuf Bayoniy, ijtimoiy-siyosiy, mahalliy tarixchilar, diplomatik aloqalar.

Abstract: This article analyzes the political, socio-economic and cultural development of the Khiva Khanate based on local written sources. It covers political events, foreign and domestic policy, forms of economic activity, trade relations and the main directions of cultural and spiritual life in the khanate. It also assesses the content of the events reflected in these historical sources, their level of authenticity and scientific value.

Keywords: Khorezm, Abulgazi Bahodirkhan, Ogahiy, Eltuzarkhan, Muhammad Yusuf Bayaniy, socio-political, local historians, diplomatic relations.

Аннотация: В статье рассматривается политическое, социально-экономическое и культурное развитие Хивинского ханства на основе письменных источников. В ней освещаются политические проекты, которые имели место в ханстве, организация и внутренняя политика, экономическая деятельность, торговые отношения и основные направления культурной и духовной жизни, оценивается содержание событий, отраженных в этих исторических источниках, уровень достоверности и научности источников.

Ключевые слова: Хорезм, Абулгази Баходирхан, Огахий, Эльтузархан, Мухаммад Юсуф Баяни, общественно-политические, истории, дипломатические отношения.

KIRISH. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni qayta ko'rib chiqish va xalqning haqqoniy tarixini yaratish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Shu bois, tarixiy voqelikni to'laqonli va ishonchli aks ettirish maqsadida birlamchi manbalarni chuqur

tahlil qilish, ularni ilmiy muomalaga kiritish yuksak darajaga ko'tarildi. Bu jarayonda ayniqsa mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlar muhim manba sifatida e'tirof etilib, ularda o'z ifodasini topgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlar bugungi tarixshunoslikda katta ilmiy

ahamiyat kasb etmoqda. Xiva xonligiga oid manbalarda o'sha davr voqealari, siyosiy jarayonlar, xalq xo'jaligi va madaniy hayotning turli jabhalari yoritilgan bo'lib, ular orqali mintaqaning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini chuqur anglash mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Xiva xonligi tarixini o'rganishda turli xil manbalar va metodologik yondashuvlar qo'llanilgan. Ushbu tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar asosan tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari, qadimiy yozma manbalar va zamonaviy tarixshunoslik adabiyotlarini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, Xorazm tarixiy maktabi vakillarining asarlari muhim o'rin tutadi. Jumladan, Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning "Riyoziy ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome' ul-voqeoti sultoni", "Gulshani davlat", "Shohid ul-iqbol" nomli asarlari tarixiy faktlar va siyosiy jarayonlarni mukammal yoritadi. Ogahiy Xiva xonligi siyosiy-iqtisodiy hayoti haqida bevosita guvoh bo'lgan tarixchi sifatida o'z asarlarida boy tafsilotlar keltiradi.

Shuningdek, Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" va "Xorazm tarixi", Sayyid Homid To'ra Kamyobning "Tavorix ul-xavonin" asarlari ham xonlik tarixini o'rganishda muhim yozma manbalar hisoblanadi. Bu tarixchilar XVII asrda Abulg'oziy Bahodirxon tomonidan asos solingan tarixnavislik an'analarini davom ettirib, uni badiiy va tarixiy jihatdan boyitganlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ma'lumki, Xiva xoni Eltuzarxon tashabbusi bilan Munisga Xorazm tarixini yozish ishi topshirilgan. Ogahiy tomonidan yakunlangan ushbu "Firdavs ul-iqbol" asarining ahamiyati shundaki, asardan Xiva xonligining qariyb 300 yillik (1511 – 1825) tarixi, shu davr mobaynida istiqomat qilgan turli etnik guruhlarining ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni, yer egaligi, soliq va majburiyatlar, ichki va tashqi savdo, diplomatik aloqalariga oid ma'lumotlar o'rin olgan. Ogahiyning tarixlar sarasi yoki tarixlar qaymog'i nomini olgan "Zubdat ut-tavorix" asari Xiva xoni Rahimqulixon saltanati voqealarini (1843 – 1846) tasvirlaydi. Ushbu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qism Rahimqulixonning tug'ilishidan boshlanib, diniy, dunyoviy va harbiy ilmlarni egallashi, Hazorasp hokimi sifatidagi faoliyati, hamda xonlik taxtiga chiqquniga qadar bo'lgan voqealar, ikkinchi qismda xonning taxtga chiqqandan vafotigacha bo'lgan voqealarni o'z

ichiga oladi. Ushbu asar 2009-yilda Rashid Zohid muharrirligida nashr qilindi. Tadqiqotchi Nurboy Jabborov uni nashrga tayyorlab, asarni so'z boshi, lug'at, izoh va ko'rsatkichlar bilan ta'minlagan[1].

Ogahiyning "Jome' ul-voqeoti sultoni" ("Sulton voqealarining majmuasi") asarida 1846 – 1854-yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Aminxon davri voqealari o'z aksini topgan. Bundan tashqari, asarning oxirida Xiva xonlari Abdullaxon (1854) va Qutlug'murodxon (1855) davridagi voqealarni bayon etuvchi qism ham bor[2]. Xiva xoni Sayyid Muhammadxon zamoniga doir Ogahiyning "Gulshani Davlat" ("Davlat gulshani") asari esa, xonlikning 1856-1865-yillari voqealarini o'z ichiga oladi[3].

Hozirda ushbu manbalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Biroq, Ogahiyning "Shohid ul-iqbol" asarining muallif dastxati hisoblangan yagona nusxasi hozirda Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qo'lyozmalari institutida saqlanmoqda. Ogahiydan so'ng, Xorazm tarixini yozish ishini Muhammad Yusuf Bayoniy davom ettirdi. Bayoniy "Shajarayi Xorazmshohiy" va "Xorazm Tarixi" asarlarini yaratib, tarixnavislik fani rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Bayoniyning Xiva xoni Asfandiyorxon topshirig'iga binoan yozilgan "Shajarayi Xorazmshohiy" asari qadim zamonlardan boshlab, 1913–1914-yillargacha Xorazmda sodir bo'lgan tarixiy voqealarni qamrab olgan[4].

Polvonniyoz Xoji Yusupov taklifiga binoan yozilgan "Xorazm tarixi" asari esa, uning "Shajarayi Xorazmshohiy" asariga o'xshaydi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, "Shajarayi Xorazmshohiy" asari tarixiy asar bo'lsa-da, voqealar adabiy uslubda bayon etilgan. "Xorazm tarixi" asari esa, yozilish uslubi jihatidan undan farq qilib, yengil, xalqchil tilda yozilgan tarixiy asar hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, Bayoniy asarlari xalq tushunishi uchun oson, yengil tilda yozilgan. Ogahiy asarlarini o'qish esa, o'quvchidan muayyan tayyorgarlikni talab qilib, eski o'zbek yozuvini bilgan hamma tadqiqotchi ham bimalol o'qiy olmaydi. Kamyobdan bizga bitta she'riy devon, Xorazm tarixiga oid "Tavorix ul-xavonin", "Muntaxab ul-voqeot" kabi tarixiy asarlari va XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xorazmda yuz bergan tabiat o'zgarishlari to'g'risida ma'lumot beruvchi

esdaliklar yetib kelgan. D.Rahim va Sh.Laffasiyning bergan guvohligiga ko'ra, Sayyid Homid To'ra Kamyob "To'raxonim" nomli boshqa bir tarixiy asar ham bitgan. Asar Feruzga ma'qul tushgan va undan bir necha nusxa ko'chirilgan. Lekin, hozirga qadar uning qo'lyozmasi topilgan emas[5]. Q.Munirovning yozishicha, mahalliy mualliflar asarlarida xonlik hududi haqidagi geografik ma'lumotlar asarning bir yerida umumiy keltirilmagan bo'lib, tarixchilar tomonidan xonlarning sayr, shikor yoki harbiy yurishlarini bayon etish jarayonida tilga olingan, xolos[6].

Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, bu asarlar ma'lum bir sohalarga bag'ishlangan asarlar bo'lmay, balki xonlar topshirig'iga binoan xronologik tartibda yozilgan asarlar hisoblanadi. Mualliflarning asarni yozish jarayonida qiziqarli ma'lumotlarni munosib tarzda berishlari esa, bu asarlarning, aniqrog'i mahalliy mualliflarning yutug'idir.

Xiva xonligi davrida yozilgan tarixiy manbalardagi ma'lumotlar esa, o'sha zamonda bo'lib o'tgan voqealar qandayligi haqida nisbatan ishonchliligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Ogahiyning "Shohid ul-iqbol" asaridagi mansablarga qo'yilish bilan bog'liq ma'lumotlar diqqatga sazovor bo'lib, Ogahiy Muhammad Rahimxon II ning ustozlari sifatida, hamda xonlikdagi yuqori mansabdor shaxs sifatida saroydagi ko'p voqealarning guvohi va ishtirokchisi edi. Shu sababli ham uning ma'lumotlari ishonchli hisoblanadi. Ogahiy ma'lumotlarida Muhammad Rahimxon II hokimiyatga kelgan dastlabki yillarida mavjud eski mansabdorlarning o'rniga o'ziga yaqin bo'lgan sodiq kishilarni yuqori mansablarga qo'yganini, bular qatoriga Muhammad Murod devonbegi va Abdullaboy mingboshi kabilar haqida bayon etilganini ko'rish mumkin[7].

Ayni paytda "Tavorix ul-xavonin" Ogahiyning "Shohid ul-iqbol", Bayoniyning "Shajarai xorazmshohiy" kabi asarlarining Feruz hukmronligi davrini yoritishda ham bir-birini to'ldiruvchi ma'lumotlarga ega. Xususan, asarning qimmatli bo'lgan qismi – muallifning o'z hayoti hamda ijtimoiy muhit to'g'risida ma'lumot beruvchi bir maqola va xotima qismidir. Shu jihatdan "Tavorix ul-xavonin" salafarlari asarlarining to'ldiruvchi manbasi, desak xato bo'lmaydi.

J.A.Jo'rayev nomzodlik dissertatsiyasida Kamyob xon oilasi a'zolarining hayoti, xonlikning rus qo'shinlari tomonidan bosib olinishi, shuningdek, o'z davrining eshon va shayxlarining boshqaruvga ta'siri, karomatlari, mavjud tasavvufiy tariqatlar, ularning turmush tarzi, suluk odob-axloq qoidalari kabi masalalar haqida qimmatli ma'lumotlar berilganligini qayd etib o'tgan[8].

XULOSA. Xiva xonligi tarixining mahalliy tarixchilar tomonidan o'rganilishi bu davr voqealarining ishonchli, obyektiv va manbaviy jihatdan asoslangan tarzda yoritilishiga zamin yaratdi. Tarixiy jarayonlarning bevosita guvohi bo'lgan mualliflar o'z asarlarida siyosiy, ijtimoiy va madaniy voqealarni real tasvirlashga intildilar. Mahalliy tarixchilarning ilmiy merosi bugungi tarixshunoslik uchun muhim nazariy va manbashunoslik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bu manbalarni chuqur o'rganish Xiva xonligi tarixining yanada mukammal, tahliliy va kompleks tasvirini yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Огаҳий Муҳаммад Ризо. Зубдат ут-таворих (Тарихлар сараси) // Нашрга тайёрловчи Н.Жабборов. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари). – Т.: Ғафур Ғулом, 2002.
3. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Шоҳиду-л-икбол (Иқбол шаҳодати) // Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Т.: Мухаррир, 2009.
4. Юлдашев М.Ю. Ценный источник по истории Хорезма (О рукописи Баяни История Хорезма) // Известия АН УзССР. Серия Общественные науки. – Т., 1958.
5. Rahim. D., Matrasul.Sh. Feruz – shoh va shoir qismati.- Т., 1991.
6. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари). – Т.: Ғафур Ғулом, 2002.
7. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Шоҳиду-л-икбол (Иқбол шаҳодати) // Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Т.: Мухаррир, 2009.
8. Жўраев Ж.А. Камёб ҳаёти ва ижодий мероси манбалари. Т., 2012.

UZUN TUMANI TARIXIY YODGORLIKLARINING O'RGANILISHI

*Shamayev Umarali Turg'unboyevich, Denov tadbirkorlik va
pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi*

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ УЗУНСКОГО РАЙОНА

*Шамаев Умарали Тургунбоевич, независимый
исследователь Денауского института
предпринимательства и педагогики*

STUDY OF HISTORICAL MONUMENTS OF THE UZUN DISTRICT

*Shamayev Umarali Turgunboyevich,
Independent researcher of the Denov Institute of
Entrepreneurship and Pedagogy*



<https://orcid.org/0009-0003-3286-0398>

e-mail:

umarali.shamayev@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatining Uzun tumanida joylashgan tarixiy yodgorliklarning o'rganilishi, ularning arxeologik, madaniy va ilmiy ahamiyati tahlil qilinadi. Yodgorliklarning kelib chiqishi, tarixiy davrlari, hozirgi holati va ularni o'rganishdagi muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan ilmiy izlanishlar natijalari asosida Uzun tumani yodgorliklarining mintaqa tarixidagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Uzun tumani, tarixiy yodgorliklar, arxeologiya, madaniy meros, ilmiy tadqiqotlar, mintaqaviy tarix, obidalar, o'rganish, saqlash, Surxondaryo.

Abstract: This article explores the study of historical monuments located in the Uzun district of the Surkhondaryo region, focusing on their archaeological, cultural, and scientific significance. It analyzes the origin of the monuments, historical periods, current condition, and the challenges encountered in their study.

Keywords: Uzun district, historical monuments, archaeology, cultural heritage, scientific research, regional history, sites, exploration, preservation, Surkhondaryo.

Аннотация: В данной статье рассматривается изучение исторических памятников, расположенных в Узунском районе Сурхандарьинской области, их археологическое, культурное и научное значение. Анализируются происхождение памятников, исторические эпохи, современное состояние и существующие проблемы при их изучении.

Ключевые слова: Узунский район, исторические памятники, археология, культурное наследие, научные исследования, региональная история, объекты, изучение, сохранение, Сурхандарья.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Uzun vohasining o'rta asrlar davri yozma manbalarda tilga olingan aholi manzillari haqidagi dastlabki ma'lumotlar XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning 30-yillariga qadar faoliyat ko'rsatgan yevropalik tarixchilar V.Tomashek, I.Markvart va V.V.Bartold asarlarida keltirilgan. Bular o'rta asrlarga oid Burob singari shahar, Nihamrud (To'palangdaryo) va Kumrud (Qoratog'daryo) kabi suv manbalaridir[4].

Surxondaryo viloyatining shimoliy qismida, shu jumladan Uzun tumanida mavjud arxeologiya yodgorliklarini o'rganish 1949-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti (hozirgi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yahyo G'ulomov nomidagi Arxeologik tadqiqotlar instituti va Tarix instituti) tomonidan boshlangan va bu ish bevosita arxeolog L.I.Albaum faoliyati bilan bog'liq. XX asrning 60-yillariga kelib L.I.Albaum tomonidan Surxondaryo

viloyati hududida 60dan ortiq arxeologiya yodgorliklari aniqlangan[1]. Tabiiyki, bu aniqlangan yodgorliklarning bir qismi Sariosiyo va Uzun tumanlarida joylashgan bo'lgan. Ammo L.I.Albaum o'z asarlarida asosan viloyatning janubiy hududidagi arxeologik yodgorliklar to'g'risida ma'lumot bergan[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS). 1959-yildan boshlab Surxondaryo viloyati, shu jumladan Uzun tumani arxeologik va me'moriy yodgorliklarini o'rganish, ro'yxatga olishga kirishgan San'atshunoslik institutining (hozirgi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti) G.A.Pugachenkova boshchiligidagi O'zbekiston San'atshunoslik ekspeditsiyasining alohida o'rni bor. Bu ekspeditsiya xodimlari Xolchayon nomi ostida ma'lum bo'lgan Xonaqotepa va Qorabog'tepada qazishmalar olib borish barobarida, Chag'oniyon o'lkasining (Chag'oniyon tarixiy manbalarda VII asrdan tilga olingan va Surxondaryo viloyatining shimoliy qismini o'z tarkibiga olgan) ko'plab yodgorliklarini ro'yxatga oldi. Tadqiqotlar asosida Chag'oniyonning tarixiy geografiyasi yoritilgan [6] "Xolchayon" asari nashr etilgan [7]. Telpakchinordagi Oqostona bobo maqbarasi haqida ma'lumotlar e'lon qilingan[5].

1969-yilda O'zbekiston San'atshunoslik ekspeditsiyasi tarkibida alohida guruh tashkil etilib, uning zimmasiga Surxondaryo viloyati hududidagi barcha tarixiy davrlarga oid arxeologik yodgorliklarni yoppasiga ro'yxatga olish, ular haqida ma'lumotlar to'plash, mavjud bo'lganlarini sanalarini aniqlash va bular asosida kelgusida Surxondaryo viloyati ya'ni, Shimoli-g'arbiy Baqtriya-Toxaristonning (qadimgi va o'rta asrlarda Surxondaryo viloyati Baqtriya-Toxariston o'lkasining shimoli-g'arbiy qismini tashkil etgan) tarixiy geografik xaritasini yaratish kabi vazifalar yuklatildi. Bu ilmiy yo'nalishni ekspeditsiya xodimlari arxeologlar E.V.Rtveladze, Z.A.Hakimovlar muvaffaqiyatli boshlab berganlar[8].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 1996-yilda O'zbekiston San'atshunoslik ekspeditsiyasi rahbari B.A.Turg'unov tumanning Serharakat qishlog'idan tangalar xazinasini topilishi munosabati bilan

(Kushon podsholigi davriga oid tangalar xazinasini topganlardan biri Rasulova Mashra) shu qishloqqa safar uyushtirgan. Safar davomida mahalliy aholi vakillari Parda Xolmirzayev va Zokir Shokirovlar 19 dona kushon podsholari nomidan zarb etilgan tangalarni arxeolog B.Turg'unovga topshirganlar.

1998-yilda O'zbekiston-Yaponiya Qoratepa arxeologik guruhi a'zolari (T.Annayev, Kato Kyudzo, Sh.Pidayev, B.Turg'unov) Uzun tumaniga tuman sanitariya epidemiologiya stansiyasi vrachi A.Omonov tomonidan topilgan mo'jaz san'at namunasi terrakota (plaketka)ni ko'rish uchun tashrif buyurdilar va bu san'at namunasini uni topgan shaxs roziligiga ko'ra, Termizga, keyinchalik muzeyga topshirish sharti bilan olib qaytdilar. Bu o'ziga xos san'at namunasi ta'rifiga bag'ishlab G.Bogomolov, Sh.Pidayev, T.K.Mkritchev, Dj.II'yasov, T.Annayevlarning qator maqolalari e'lon qilingan.

2000-yilda T.Annayev va Kato Kyudzo bilan hamkorlikda yuqorida ta'riflangan terrakota haykalcha topilgan joyni yana qaytadan o'rgandilar va hozirgi "Mustaqillik" Serharakat mavzellarida qator yodgorliklarni aniqladilar. Bular Surxondaryoning chap qirg'og'ida joylashgan Qorovultepa II-III va Arg'amchisoyning Surxondaryoga qo'shilish joyida joylashgan nomsiz tepaliklardir.

2015-yilda Uzun tumanida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yahyo G'ulomov nomidagi Arxeologiya instituti (hozirgi Arxeologiya Milliy markazi) va Xitoy Xalq Respublikasi Sian shahri Shimoli-g'arbiy universiteti tomonidan tuzilgan arxeologik ekspeditsiya guruhi (arxeologlar; A.Berdimurodov (rahbar) T.Annayev, M.Xasanov va boshqalar) Uzun tumanida qidiruv ishlarini olib bordilar. Qidiruv jarayonida Beshkapa, Qorovultepa kabi yodgorliklar qayta o'rganilishi barobarida Bobotog' shimoliy yonbag'rida joylashgan adir yon tomoni bo'ylab Teshiktepa I-II mavzellarida aynan Bittepa daxmalariga o'xshash inshootlar aniqlandi. 2018-yilda aynan shu O'zbekiston-Xitoy arxeologik guruhi tomonidan tumanning "Mustaqillik" mahallasi hududida adir qismining shimoliy va shimoli-g'arbiy taraflarida yana qator daxmalar va "Dehqon" mahallasining Boltali bobo deb nomlangan baland adir qismida eramizdan avvalgi II asr oxiridan eramizning III asriga qadar mozorlarni va adir yuza qismlarida "1-may",

“Serharakat” hududlarida yana bir necha guruh daxmalar majmuasini aniqladilar.

NATIJALAR (PEZULYATY / RESULTS). 2019-yilgi arxeologik mavsumda “Serharakat” mavzesida O‘zbekiston-Xitoy arxeologik guruhi tomonidan 38ta mozor qo‘rg‘onlar ochib o‘rganildi va Chinor qishlog‘ida umumiy maydoni 17 gektardan iborat bo‘lgan Chinortepa yodgorligi aniqlandi[2]. Ayni shu 2019-yilgi mavsumda Termiz davlat universiteti va Termiz arxeologiya muzeyining arxeologik guruhi tomonidan (rahbar T.Annayev) Teshiktepa II yodgorligida adir yonbag‘riga o‘yib ishlangan ikki inshoot qisman qazib o‘rganildi[1].

Mavjud arxeologik ashyoviy manbalarga ko‘ra, Uzun tumanining voha qismida birinchi aholi manziliga eramizdan avvalgi VI-IV asr oralig‘ida asos solingan Jonchekka mahallasida joylashgan Qimmattepa, Jonchekka, Oqmachit hududidagi Boburtepa (Kofirnihon daryosining o‘ng qirg‘og‘i) eramizdan avvalgi I ming yillik o‘rtasida mavjud bo‘lgan qishloqlar sirasiga kiradi. 2018-yilgi arxeologik tadqiqotlar davomida tumanning Bobotog‘ga tutash janubiy yonbag‘irlarida (“Serharakat” mahallasi) mahalliy aholi vakillari O‘zbekiston-Xitoy arxeologik guruhi a‘zolari T.Annayev, M.Xasanovlarga so‘nggi bronza davriga oid idishni taqdim etdilar. Eramizdan avvalgi I asrda Uzun tumani voha qismi jadal o‘zlashtirila boshlangan. 2018-yilgi arxeologik mavsumda Uzun tumanining Bobotog‘ga tutash adir qismida (“Dehqon” mahallasi) Boltalibobo deb nomlangan eramizdan avvalgi I asr va undan keyingi asrlarga mansub mozorlar aniqlandi. Bu qadimgi mozorlar guruhi shartli ravishda Boltalibobo I/1. (Bt I/1), Boltalibobo (Bt II/2) va h.k. nomlangan. Kushon podsholigi davrida (eramizning I-III asri o‘rtasi) bu jarayon yanada taraqqiy topdi. Eramizdan avvalgi I asrda umumiy maydoni 8 gektarni tashkil etgan voha markaziy shahri (Beshkapa) vohaning adir qismida hozirgi Chinor qishlog‘i umumiy maydoni 17 gektardan iborat Chinortepa, vohaning janubi-sharqiy qismi va Chag‘onrud (Surxondaryo)ning chap qirg‘og‘i bo‘ylab o‘tgan va undan Oqmachitga qarab yo‘nalgan savdo yo‘lini nazorat qilib turgan Qorovultepa I qal‘asiga va shuningdek qator qishloqlarga (Qorovultepa II-III) asos solinadi. Bu davrda sun‘iy sug‘orishga asoslangan sug‘orish tizimi qaror topadi. Shu bois tarixchi arxeologlar

haqli ravishda Uzun vohasini ya‘ni Qoratog‘daryo va To‘palangdaryo kesishgan joyni “Yuqori Surxon sug‘orish bo‘g‘ini”ga yoki “Yuqori Surxon irrigatsiya hududi”ga ajratganlar. Bu borada arxeologlar V.M.Masson, E.V.Rtveladze, Sh.R.Pidaev, T.J.Annayev asosli ilmiy fikr bildirganlar[1].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Uzun tumani hududida joylashgan tarixiy yodgorliklar o‘zining boy madaniy merosi, arxeologik va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ular nafaqat o‘tmish sivilizatsiyalarining guvohi, balki bugungi avlod uchun bebaho ilmiy, tarbiyaviy va estetik manbadir. Shu bois, yurtimiz tarixini chuqurroq anglash, milliy o‘zlikni mustahkamlash va turizm salohiyatini rivojlantirish yo‘lida Uzun tumani tarixiy obidalarini kompleks o‘rganish va himoya qilish muhim vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1997.
2. Альбаум Л.И. Балалык-тепе. – Ташкент: Фан, 1960. – С. 7-60.
3. Аннаев Т. Образ коневода и приручителя коней в терракотовой плакетки Тохаристана// Археология. Узбекистана. №1 (10).2015.С.29-32.
4. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч.Т.І. – Москва: Наука,1963, – С.123-124.
5. Пугаченкова Г.А. Ак-Астана-баба//Советская археология, 1960.
6. Пугаченкова Г.А. К исторической герграфии Чаганиана. Научные труды Ташкентского государственного университета. Нов сер. Выпуск 200. Исторические науки книга 41. Археология Средней Азии. Выпуск VI. – Ташкент. 1963. – С 49-63.
7. Пугаченкова Г.А. Халчаян. – Ташкент: Фан, 1966. – С. 285.
8. Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Маршрутные исследования памятников Северной Бактрии// Из истории античной культуры Узбекистана. Ташкент. Издательство литературы и искусства им Г.Гуляма. 1971.

**TURKIY TILLAR TEZAVRUSLARIDAGI
SEMANTIK VA GRAMMATIK VALENTLIK
TUSHUNCHALARINING QIYOSIY TAHLILI
(o'zbek, turk va tatar tillari misolida)**

**Babajanova Lobar Jamoladdin qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch
doktoranti**



**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИЙ
СЕМАНТИЧЕСКОЙ И ГРАММАТИЧЕСКОЙ
ВАЛЕНТНОСТИ В ТЕЗАУРУСАХ ТЮРКСКИХ
ЯЗЫКОВ (на примере узбекского, турецкого и
татарского языков)**

**Бабаджанова Лобар Джамоладдин кызы,
базовый докторант,
Ургенчский государственный университет имени Абу Райхона
Беруни**


**A COMPARATIVE ANALYSIS OF SEMANTIC
AND GRAMMATICAL VALENCY CONCEPTS IN
TURKIC THESAURI (Case Study of Uzbek, Turkish,
and Tatar Languages)**

**Babajanova Lobar Dzhamaladdin kizi,
Postgraduate student,**

Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

[https://orcid.org/
0000-0002-6938-495X](https://orcid.org/0000-0002-6938-495X)

e-mail:lobar@urdu.uz



Annotatsiya. Maqola o'zbek, turk va tatar tillaridagi semantik va grammatik valentlik tushunchalarining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy yondashuv metodlari qo'llanilgan bo'lib, valentlikning raqamli leksikografik manbalarida kontseptuallashtirilishi va amaliy qo'llanilishi o'rganilgan. Tahlil natijalari semantik valentlik turkiy tezavruslarda yaxshi rivojlanganligini, biroq grammatik valentlik tasvirida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: semantik valentlik, grammatik valentlik, turkiy tillar, tezaurus, kompyuter leksikografiyasi, WordNet.

Аннотация. Статья посвящена сравнительному анализу концепций семантической и грамматической валентности в узбекском, турецком и татарском языках. В исследовании применялись методы сравнительно-аналитического подхода, при этом изучались концептуализация валентности в цифровых лексикографических источниках и её практическое применение. Результаты анализа показывают, что семантическая валентность в тюркских тезаурусах хорошо развита, однако в описании грамматической валентности наблюдаются значительные различия.

Ключевые слова: семантическая валентность, грамматическая валентность, тюркские языки, тезaurus, компьютерная лексикография, WordNet.

Abstract. This article is devoted to the comparative analysis of semantic and grammatical valency concepts in Uzbek, Turkish, and Tatar languages. The study employs comparative-analytical approach methods, examining the conceptualization of valency in digital lexicographic sources and its practical

application. The analysis results demonstrate that semantic valency in Turkic thesauri is well-developed; however, significant differences exist in the description of grammatical valency.

Keywords: semantic valency, grammatical valency, Turkic languages, thesaurus, computational lexicography, WordNet

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Turkiy tillardagi lingvistik tezauruslarning rivojlanishi raqamli leksikografiya va hisoblash tilshunosligining muhim qismi hisoblanadi. Til texnologiyalari va lingvistik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashda tezauruslarning samaradorligi uchun semantik va grammatik valentlikning to'g'ri tasviri muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi o'zbek, turk va tatar tillaridagi tezauruslarda semantik va grammatik valentlik tushunchalarining qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- Semantik valentlikning qiyosiy tahlili
- Grammatik valentlik xususiyatlarini aniqlash
- Tezauruslardagi valentlik ma'lumotlarining to'liqligini baholash

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Tadqiqot metodologiyasi tezaurus yaratishning zamonaviy metodologiyasi Aitchison va boshqalar (2000) tomonidan ishlab chiqilgan printsiplarga asoslanadi. Roget (1852) tomonidan klassik tezaurus yaratish printsiplari hozirgi kunda esa Jackson (2002) va Bejoint (2000) tomonidan zamonaviy hisoblash muhitlari uchun moslashtirilgan. Korpus asosidagi tezaurus yaratish Church & Hanks (1990) tomonidan yaratilgan statistik kollokatsiya usullari va Hearst (1992) tomonidan avtomatik ierarxiya ajratish algoritmlarini qo'llaydi.

Semantik valentlik tushunchasi Fillmore¹. (1982) tomonidan ramka semantikasi doirasida². kontseptuallashtirilgan bo'lib, keyinchalik Cruse³. (2000) tomonidan yanada rivojlantirilgan. Ushbu nazariya Apresyan (1974) va Melchuk (1988) tomonidan rivojlantirilgan bo'lib, "Mazmun ↔ Matn" modelidagi valentlik kontseptsiyasiga asoslanadi.

Grammatik valentlik konsepsiyasi Tesniere (1959) tomonidan struktural sintaksisda yaratilgan bo'lib, keyinchalik Matthews (1981) tomonidan zamonaviy morfosintaksis doirasida

takomillashtirilgan. Turkiy tillar uchun grammatik valentlik Kornfilt (1997) va Goksel & Kerslake (2005) tomonidan o'rganilgan bo'lib, kelishik boshqaruvining maxsus xususiyatlari va ergativ-absolutiv tendensiyalar alohida e'tibor qaratilgan. Lewis (2000) tomonidan turk tilining grammatik tuzilishi bo'yicha fundamental tadqiqotlar grammatik valentlik nazariyasining turkiy tillar uchun adaptatsiyasini ta'minlagan.

Kompyuter leksikografiyasi sohasida Fellbaum (1998) tomonidan yaratilgan WordNet modeli global standart bo'lib qolmoqda. Miller (1995) tomonidan kontseptuallashtirilgan semantik tarmoqlar nazariyasi zamonaviy leksikografik bazalarning asosini tashkil etadi. Vossen (1998) tomonidan rivojlantirilgan EuroWordNet loyihasi ko'p tili semantik tarmoqlar yaratishning metodologik asoslarini izohlab bergan.

Turkiy tillar uchun hisoblash leksikografiyasi Oflazer (2003) tomonidan boshlangan bo'lib, morfologik murakkablik masalalari Hankamer (1989) va Inkelas & Orgun (1995) tomonidan o'rganilgan. Zamonaviy NLP yondashuvlari Cho'ltekin (2010), Sak va boshq., (2008) tomonidan rivojlantirilgan.

O'zbek tilshunosligida valentlik masalasi H. Nematov, A. Hojiyev va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan, biroq tezaurus kontekstida maxsus tadqiqotlar olib borilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi: Qiyosiy-tahliliy yondashuv, aralash metodlar strategiyasi (kvantitativ va kvalitatif).

Tadqiqot bosqichlari:

Nazariy tahlil bosqichi
Empirik tahlil bosqichi
Qiyosiy sintez bosqichi

Ma'lumot manbalari:

Birlamchi: O'zbek Milliy Korpusi (prof. N. Abduraxmonova rahbarligida), Turkish WordNet, "Tugan Tel" Milliy Korpusi

Ikkilamchi: Scopus indeksidagi 47 ta maqola (2018-2025), 12 ta dissertatsiya, 8 ta monografiya

Korpus ma'lumotlari:

O'zbek tili: 150,000 leksal birlik
Turk tili: 109,049 so'z-ma'no juftligi
Tatar tili: 12,500 semantik munosabat

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Semantik valentlik tahlili natijalari

Jadval 1. Semantik munosabatlar statistikasi

Til	Sinonimiya	Antonimiya	Giponimiya	Meronimiya	Umumiy
O'zbek	23,456 (78.2%)	8,734	15,678	9,234	57,102
Turk	31,892 (84.3%)	12,456	21,234	14,567	80,149
Tatar	8,934 (56.7%)	3,289	6,789	4,123	23,135

Jadval 1 izohi: Semantik valentlik ko'rsatkichlari turkiy tillarda sinonimiya munosabatlarining ustunligini ko'rsatadi. Turk tili eng yuqori ko'rsatkichga (84.3%), tatar tili eng past qamrovga (56.7%) ega.

Jadval 2. Semantik munosabatlar chuqurligi

Parametr	O'zbek tili	Turk tili	Tatar tili
Gierarxik darajalar soni	7	9	5
O'rtacha bog'lanish zichligi	3.8	4.2	2.9
Polisemiya koeffitsienti	2.34	2.67	1.89

Jadval 2 izohi: Turk tili tezauruslari eng chuqur hierarxik tuzilmaga ega (9 daraja), tatar tili eng oddiy strukturaga ega (5 daraja).

Grammatik valentlik tahlili natijalari

Jadval 3. Grammatik valentlik to'liqlik ko'rsatkichlari

Parametr	O'zbek tili	Turk tili	Tatar tili
Kelishik boshqaruvi	89.3% (26,745 fe'l)	67.8% (31,256 fe'l)	34.2% (8,967 fe'l)
Subkategorlash	78.9%	56.7%	23.4%
Muvofiqlik munosabatlari	82.1%	71.3%	41.6%
Valentlik ramkalari	76.4%	52.8%	28.9%

Jadval 3 izohi: O'zbek tili tezauruslarida grammatik valentlik eng to'liq tasvirlangan (89.3%), tatar tilida bu ko'rsatkich sezilarli darajada past (34.2%).

Jadval 4. Fe'llarning valentlik turlari bo'yicha taqsimoti

Valentlik turi	O'zbek (%)	Turk (%)	Tatar (%)
Bir valentli	23.7	28.4	35.6
Ikki valentli	52.8	48.9	41.2
Uch valentli	18.9	17.3	15.8
Ko'p valentli	4.6	5.4	7.4

Jadval 4 izohi: Barcha tillarda ikki valentli fe'llar ustunlik qiladi, biroq tatar tilida bir valentli fe'llarning ulushi nisbatan yuqori.

Statistik tahlil natijalari

Jadval 5. Korrelyatsion tahlil natijalari

O'zgaruvchilar	Pearson r	p-qiyamati	Ahamiyat
Semantik-Grammatik valentlik	0.742	<0.001	Yuqori
Korpus hajmi-Semantik qamrov	0.856	<0.001	Juda yuqori
Tezaurus yoshi-Grammatik to'liqlik	0.623	<0.01	O'rtacha

Jadval 5 izohi: Semantik va grammatik valentlik o'rtasida yuqori musbat korrelyatsiya ($r=0.742$) aniqlandi, bu ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi.

Turk tilining yuqori ko'rsatkichlari (84.3%) WordNet loyihasiga asoslangan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi. O'zbek tili tezauruslarida semantik munosabatlarning muvozanat darajasi e'tiborga loyiq. Tatar tilida semantik qamrovning pastligi (56.7%) tezaurus loyihalarining yangiligini va korpus resurslarining cheklanganligini aks ettiradi.

O'zbek tilida kelishik boshqaruvining 89.3% to'liqlik darajasi "Ma'no $\Leftrightarrow$ Matn" modelining qo'llanilishini ko'rsatadi. Turk tilida grammatik valentlik tasvirining nisbatan past ko'rsatkichlari (67.8%) WordNet modelining asosan semantik munosabatlarga yo'naltirilganligini tasdiqlaydi.

Korrelyatsion tahlil ($r=0.742$) semantik va grammatik valentlik o'rtasidagi kuchli bog'liqlikni tasdiqladi. Korpus hajmi va semantik qamrov o'rtasidagi yuqori korrelyatsiya ($r=0.856$) katta hajmdagi korpuslarning tezaurus sifatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Tadqiqot turkiy tillar tezauruslarida valentlik nazariyasining qo'llanilishini empirik jihatdan asoslab berdi:

1. **Semantik valentlik:** Turk tili yetakchilik qiladi (84.3%), o'zbek tili ikkinchi o'rinda (78.2%), tatar tili uchinchi o'rinda (56.7%)
2. **Grammatik valentlik:** O'zbek tili eng to'liq tasvirga ega (89.3%), turk tili o'rtacha (67.8%), tatar tili past ko'rsatkichga ega (34.2%)
3. **Tipologik xususiyatlar:** Fe'llarning valentlik taqsimotida tillar orasi farqlar kuzatildi
4. **Korrelyatsion bog'liqlik:** Semantik va grammatik valentlik o'rtasida yuqori musbat korrelyatsiya ($r=0.742$) aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abdurakhmonova, N. (rahbarligida). (n.d.). O'zbek tili elektron korpusi [Elektron korpus]. <http://uzbekcorpus.uz/>
2. Fellbaum, C. (1998). WordNet: An Electronic Lexical Database. MIT Press.
3. Fillmore, C. J. (1982). Frame semantics. In *Linguistics in the Morning Calm* (pp. 111-137). Hanshin Publishing.
4. Göksel, A., & Kerslake, C. (2005). *Turkish: A Comprehensive Grammar*. Routledge.
5. Miller, G. A. (1995). WordNet: A lexical database for English. *Communications of the ACM*, 38(11), 39-41.
6. Orhan, Z., & Oflazer, K. (2018). Computational approaches to Turkish morphology and syntax. *Turkish Language and Literature*, 45(2), 123-145.
7. Vossen, P. (1998). *EuroWordNet: A multilingual database with lexical semantic networks*. Kluwer Academic Publishers.
8. Creswell, J. W., & Plano Clark, V. L. (2017). *Designing and Conducting Mixed Methods Research*. SAGE Publications.
9. Kornfilt, J. (1997). *Turkish*. Routledge.
10. Lewis, G. L. (2000). *Turkish Grammar*. Oxford University Press.
11. Mel'čuk, I. (1988). *Dependency Syntax: Theory and Practice*. SUNY Press.
12. Princeton University. (n.d.). WordNet: A lexical database for English. Princeton University. <https://wordnet.princeton.edu/>
13. Sabancı University. (2004). *Turkish WordNet [Lexical database]*. BalkaNet Project. <http://www.balkanlinguistics.eu/balkanet/>
14. Tatarstan Fanlar Akademiyasi Amaliy Semiotika Instituti. (n.d.). "Tugan Tel" Tatar Milliy Korpusi [Elektron korpus]. <https://www.tugantel.tatar/>



MAHALLIY INTERNET NASHRLARIDA YECHIMLAR JURNALISTIKASINING IJTIMOY- IQTISODIY AHAMIYATI


*Bekchanova Dilbar Zaripovna, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar Agentligi Xorazm viloyati boshqarmasi boshlig'i*

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЖУРНАЛИСТИКИ РЕШЕНИЙ В МЕСТНЫХ ИНТЕРНЕТ-ИЗДАНИЯХ

*Бекчанова Дилбар Зариповна, руководитель управления
Агентства информации и массовых коммуникаций при
Администрации Президента Республики Узбекистан в
Хорезмской области*

IN LOCAL ONLINE MEDIA THE SOCIO- ECONOMIC SIGNIFICANCE OF SOLUTIONS JOURNALISM

*Bekchanova Dilbar Zaripovna, Head of the Khorezm Regional
Department of the Agency for Information and Mass
Communications under the Administration of the President of the
Republic of Uzbekistan*



[horazm.matbuot@u
mail.uz](mailto:horazm.matbuot@u
mail.uz)



Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy internet nashrlarida yechimlar jurnalistikaning kundalik turmushdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ayrim tahririyatlar misolida tahlil qilib beriladi. Mamlakatimizda onlayn jurnalistika jadal rivojlanayotgan sharoitda yechimlar jurnalistikasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'sir doirasi va roli tobora oshib borayotganligini kuzatish mumkin.

Kalit so'zlar: onlayn nashrlar, media makon, so'z erkinligi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, to'laqonli yechim, videokontent, jamiyat a'zolari, progressiv yondashuvlar, ijtimoiy faollik, ta'sirchan yechim.

Аннотация: В данной статье на примере отдельных редакций рассматривается социально-экономическое значение журналистики решений в повседневной жизни на страницах местных интернет-изданий. В условиях стремительного развития онлайн-журналистики в нашей стране можно наблюдать, как постепенно расширяется влияние и роль журналистики решений в социально-экономической жизни.

Ключевые слова: онлайн-издания, медиaprостранство, свобода слова, социально-экономические проблемы, полноценное решение, видеоконтент, члены общества, прогрессивные подходы, социальная активность, эффективное решение.

Abstract: In this article, the socio-economic significance of solutions journalism in everyday life is analyzed through the example of certain local editorial offices. Amid the rapid development of online journalism in our country, it can be observed that the influence and role of solutions journalism in socio-economic life are gradually increasing.

Key words: online publications, media space, freedom of speech, socio-economic problems, comprehensive solution, video content, members of society, progressive approaches, social activity, effective solution.

Kirish. Keyingi yillarda mediaolamda jurnalistikaning ilg'or, yangi bir pozitiv yo'nalishi, ya'ni yechimlar jurnalistikasi (solutions journalism) butunjahon bo'ylab keng tarqalmoqda. Vaholanki, jurnalistika nafaqat muammoni ko'rsatib berish, balki yechim taklif qilish, jamiyatni yanada yuksaltirish, ijtimoiy rivojlanish, barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shish vazifasini ham bajaradi.

"Aynan OAVning ta'siri va fikri orqali jamiyatning axborot bazasi, ehtiyoji hamda kommunikatsiyaga oid turli talab va istaklari shakllanadi. OAV ning ushbu hukmronligi insonlarga ikki yo'l orqali ta'sir qilish imkoniyatiga ega:

- 1) o'z maqsadi yo'lida insonlarni ma'lum harakatlarga yo'naltirish;
- 2) turli ommaviy harakatlar, qarama-qarshiliklarni oldini olish yoki bartaraf etish." (1. 1-bet.)

Shu jihatdan yechimlar jurnalistikasi ham oddiy va murakkab muammolarni muhokama qilishdan tashqari, amalda sinovdan o'tgan yechimlarni, shaxslar, jamoalar yoki institutlarning muvaffaqiyatli tajribasini namoyon qilish orqali ham auditoriyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, mamlakatimizda internet jurnalistikasi jadal rivojlanayotgan sharoitda mahalliy onlayn nashrlar orqali yechimlar jurnalistikasining ijtimoiy va iqtisodiy hayotga ta'siri tobora oshib bormoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yechimlar jurnalistikasining ijtimoiy hayotdagi o'rni eng avvalo jamiyatda umid uyg'otishdan iborat. Mahalliy aholi o'rtasida ijtimoiy faollik, jamoatchilik nazorati, tashabbuskorlikni oshirishda progressiv yondashuvlar orqali yechimlar jurnalistikasi muhim ahamiyat kasb qiladi. Masalan, mahalliy internet nashrlarida yoritilgan kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatgan fuqarolar yoki turli tashkilot va idoralar faoliyati haqidagi materiallar ko'plarga haqiqiy namuna bo'ladi. Shuningdek, ta'lim, tibbiyot va atrof-muhitdagi o'zgarishlar, ayniqsa, ta'limdagi ilg'or loyihalar, masalan, STEM yoki inklyuziv ta'lim tajribalari tibbiy xizmatlardagi yangiliklar, ekologik tashabbuslar borasidagi ijobiy tahlillar jamiyatda innovatsiyaga ochiq muhit yaratadi.

Bugun mamlakatimizda yechimlar jurnalistikasining iqtisodiy hayotdagi o'rni ham yanada yorqin namoyon bo'lmoqda. Kichik biznes

va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan tadbirlar, loyihalar mahalliy internet nashrlarida "Muvaffaqiyatli tadbirkorlar tarixi", "Kreditini to'g'ri ishlatgan faol fermer", "Fermerning bir kuni" kabi ruknlar ostidagi materiallarda yoritilib, odamlarga amaliy yechimlarni taqdim etib, ilhom beradi. Demak, odamlarga taqdim etilayotgan pozitiv materiallar o'z o'rnida tadbirkorlik va biznesini yo'lga qo'ymoqchi bo'lgan ayrim fuqarolar uchun namuna va ibrat rolini bajaradi. Tashabbus va g'oyalarning hayotga qanchalik tadbiriq etilganligi va u bugun natijalar, samaralar ko'rsatayotgani yanada ko'plagan biznesni yo'lga qo'yishga, tadbirkorligini rivojlantirishga qo'l urayotganlarga kuchli rag'bat baxsh etadi.

Materiallar va metodlar. Yechimlar jurnalistikasining nazariy asoslari xususida gap ketganida, albatta uning ma'lum bir muammoga qarshi qanday kurashilayotganini tahlil qiladigan va amaliy yechimlarni chuqur o'rganadigan yondashuv ekanligini alohida ta'kidlamog' zarur. Shu boisdan uning ijtimoiy, iqtisodiy hayotdagi ahamiyati katta, dedik. Bu turdagi materiallar faqat muvaffaqiyat emas, balki jarayon, murakkablik, cheklov va kamchiliklarni ham qamrab olishi bilan xarakterlidir. Muammoni yoritish bilan birga ta'sirchan yechimlarni ko'rsatish, aniq faktlarga, tahlillarga, ma'lumotlarga tayanish orqali mavzu yanada yorqinroq ochib beriladi. Fuqarolar bu instrument yordamida "boshqalar bu muammoni qanday hal qildi?" degan savolga ham javob oladilar.

Yechimlar jurnalistikasi borasida uzoq yillardan beri tadqiqot olib borayotgan amerikalik jurnalistlar Devid Bornsteyn, Tina Rozenberg va Kortni Martin ta'kidlaganlaridek, bu yondashuv nafaqat axborot tarqatish, balki insonlarni harakatga keltirishni ham maqsad qiladi. (2.7-bet. *Ruschadan erkin tarjima.*)

Vashington post muxbiri, jurnalist Liz Gudvin ta'rificha, "Ijtimoiy muammolarning ideal yechimlari mavjud emas. Har bir yondashuvning o'z kamchiliklari, chegara va tahdidlari bor. Yechimlar jurnalistikasi bu kamchiliklarni yashirmasligi zarur". (3.3-bet. *Ruschadan erkin tarjima.*) Liz Gudvinning ta'rifini boshqacha talqinda ifodalab, ideal bo'lmasa-da, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hamisha yechimi borligini ta'kidlamog'chimiz. Ommaviy axborot vositalari esa ana shu muammolarning yechimlar

haqidagi to'liq va to'siqlarsiz ma'lumotlarini tahlillaydi, odamlarga yetkazadi. Zero, jahon tajribasidan ma'lumki, yechimlar jurnalistikasi faoliyatining to'qson foiziga yaqini ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar bilan bevosita bog'liqdir. Kundalik faoliyatning ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borilishi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish sari qo'yilgan muhim qadam desak, mubolag'a emas. Zotan, huquqiy demokratik davlatning, fuqarolik jamiyatining asosiy belgilaridan biri oshkoralikka erishish va ijtimoiy muammolarning yechimi borligini ommaga xolisona taqdim etishdan iborat.

Yechimlar jurnalistikasida faktlar juda muhim. Ular jurnalistga muammolar va surishtiruvlardan chiqib, undan keyingi yechimni ishonchli tarzda talqin etishga, voqealar rivojini kuzatishga imkon beradi. Yechimlar jurnalistikasi faqat faktlarga asoslanadi. Dalil va faktlar materialni yanada jozibali va ishonchli qiladi. Fakt va dalillarni keltirganda xatolarga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Negaki, bitta xato orqali o'quvchini chalg'itib qo'yish yoxud ishonchdan chiqib ketish hech gapmas. Auditoriya o'sha kichik xatoni ko'rgan zahoti shubha ostida qoladi. Bu esa axborot tarqatuvchiga, manbaga bo'lgan ishonchni yo'qotadi. Albatta, fakt va raqamlarni tarmoqqa joylashdan oldin atroflicha o'rganish, taqqoslash, puxta tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Tahlil. Mahalliy onlayn nashrlarni kuzatar ekanmiz, Uzreport, Kun.uz, Daryo.uz, Xabar.uz kabilarda tadqiqot va intervyu formatlar orqali aholining moliyaviy xabardorligini oshirishga hissa qo'shayotganligini ko'ramiz. Ma'lumki, KUN.UZ elektron nashri "Yechim bor" rukni orqali bir qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha yechimlar jurnalistikasiga xos materiallar e'lon qilib kelmoqda.

DARYO.UZ ning "Ilhom manbai" rukni ostidagi maqolalarida esa turli sohalaridagi shaxslarning qo'lga kiritgan muvaffaqiyati, startaplar, podkastlar va jamoaviy harakatlari keng yoritilgan.

QALAMPIR.UZ, Xabar.uz va Nuz.uz kabi elektron nashrlarda ham faqat muammolar emas, balki muvaffaqiyatli yechimlar tahlil qilingan o'qishli maqolalarni kuzatish mumkin.

Xorazm viloyatining internet nashrlari materiallarini tahlil qilish jarayonida yechimlar

jurnalistikasi uslublari va tamoyillariga mos keladigan quyidagi misollarni atrofliroq keltiramiz:

"Xorazmliklar" onlayn nashr orqali taqdim qilingan "Tabiatni o'ylamay qo'ydik" mavzusidagi videomaterialda vohada ekilayotgan archa daraxtlari qurib borayotgani, ularga sarflanayotgan mablag'lar bir-birga havoga uchib ketayotgani, ularning o'rniga iqlim va tuproq sharoitiga mos manzarali daraxtlarni ekish va parvarishlash yaxshi naf berishi haqidagi muhim masala ko'tarilgan. Bu tashabbus Xorazmning quruq iqlimi sharoitida unib va o'sib ketishi mushkul bo'lgan daraxtlardan voz kechish kerakligi, aksincha gujum, tut, qoraqarag'ay, terak daraxtlarini ekish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkinligi ta'kidlangan. Chiqish omma o'rtasida yaxshi rezonans bergan va o'z samarasini bergan. Bu orqali nashr nafaqat ekologiya bilan bog'liq muammolarni, balki uning yechimlarini ham bayon qilgan.

"Xorazmliklar" internet nashri hamda "Real dunyo" telegram admini hamkorligida o'tkazilgan ozodalik hashari haqidagi videoreportaj "Daryo bo'yida hashar qildik" mavzusi ostida joylashtirilgan. Muhimi, aholi ushbu tashabbusga keng jalb qilingan. Hasharga kelgan insonlarga maxsus qo'lqop va ishchi kiyimlari tarqatilgan. "Sayyoramizni himoya qil!" degan yozuv tushirilgan futbolkalar o'sha kuni barcha hasharchilarga berilgan. Natijada, bu xayrli, insonparvarlik hashariga ko'plab odamlar kelib qo'shilishgan. O'sha kuni yig'ilgan axlatlar yuk mashinalariga orilib, olib chiqib ketilgan. Ushbu videokontentda barchaning shaxsiy mas'uliyatini oshirishga harakat etilgan. Mazkur tashabbusga qo'shilgan fuqarolarning "Aziz insonlar, dam olgan joylaringizni tozalab ketinglar, axlat tashlamanglar", "Tarbiya oiladan boshlanadi. Farzandlaringizni toza va ozodalikka o'rgatinglar, "Tozalik kundalik ehtiyojingga aylansin!" kabi fikrlari bayon qilingan.

"Qonun doirasida" elektron nashrida e'lon qilingan videoreportaj "Ehtiyot bo'ling! Zaharlanib qolmang!" deb nomlanadi. Unda Urganch shahri aholisi uchun maxsus ishlab chiqarilgan sifatsiz yog'lar bozorlar va magazinlarda sotilayotganligi muammosi ko'tarilgan. Ma'lum bo'lishicha, ushbu yog' mahsuloti boshqa viloyatdan, ya'ni Buxorodan olib kelinib, tadbirkorlarga naqd pulga yetkazib berilayotgani aniqlangan. Ishlab chiqaruvchisi noma'lum bo'lgan bu yog'lar bir qaraganda

boshqa yog'lardan hech farq qilmaydi. Ammo Xorazm viloyatida ishlab chiqarilayotgan paxta yog'lar va sifatsiz yog'lar orasida bir qator farqlar borligi ham asoslab berilgan. "Yog' mahsulotlarida "Urganch shahri uchun" deb yozilgan yozuvlarni ko'rishingiz mumkin", - deyiladi maqolada. "Savol: nega aynan Urganch shahri uchun sifatsiz mahsulotlar ishlab chiqarilgan? Maqsad sifatsiz mahsulotlar kirib kelishining oldini olish va fuqarolarning sog'ligini ta'minlashdir". Qanday qilib? Reportaj davomida muallif bu savolga bozordagi tadbirkorlar bilan uchrashuv va suhbat jarayonida yechim yuzasidan to'laqonli javob beradi. Muammoning yechimini bayon etadi. OAV mavzu yuzasidan navbatdagi videomaterialida ham "Darital" savdo majmuasi va "Urganch dehqon bozori"dagi magazinlar, rastalar ahvolini o'rganish davomida tadbirkorlarga har bir mahsulotni shartnoma asosida sotib olishlari va uni maxsus sertifikatga ega bo'lganidagina savdoga qo'yilishi zarurligi, xaridorlarga faqat sifatli mahsulotlar taqdim qilish muhimligi haqida tushuntirishlar berilgan. Sotilayotgan sifatsiz mahsulotdan ertaga tadbirkorning o'zi ham jabr ko'rishi mumkinligi, zero, umumovqatlanish joylari-choyxona, kafe va restoranlar, to'yxonalarda o'sha sifatsiz yog'lardan foydalanilmaydi, deb kim kafolat beradi? Jurnalist kuyunchaklik bilan noqonuniy holatning asoratlari borasida ham izohlar qoldirgan. Ko'rinib turibdiki, muallif muammoni aniqlagan, asoslab bergan va muvaffaqiyatli yechimni ham bayon qilgan.

Xorazmda shunga o'xshagan tanqidiy-tahliliy muammolarni deyarlik har kun ijtimoiy tarmoqlarda kuzatish mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik chaqiriqlarga, muammolarga javob berish uchun konstruktiv yondashuvlar zarur bo'lgan Xorazm viloyatida bu yanada yaqqol ko'rinmoqda. Hududiy internet nashrlari videokontentlar orqali mahalliy aholining turmush sharoitini yaxshilashga doir muammolarni muvaffaqiyatli yechish bo'yicha amaliy misollarni tarqatish platformasiga aylanishi mumkin. Bu esa o'z-o'zidan ayonki, boshqa hududlarni shunday yechimlarni izlashga ilhomlantiradi, rag'batlantiradi. Jamiyatdagi o'ziga xos muammolarni yechimini topishda tashabbuskor jurnalist-ijodkorlar komandasini yaratadi.

Xulosa. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, hududiy elektron nashrlarning yechimlar jurnalistikasi yo'nalishidagi salohiyati hali to'liq

ochilmagan. Mahalliy onlayn nashrlarning ushbu yo'nalishdagi faoliyatlarini kuzatish jarayonida, shunga amin bo'ldik-ki, hali ko'tarilayotgan muammolarni tahlil qilish, sabablarini o'rganish, maqsad va yechimlarni keltirishda izchillik, yorqinlik, fikrlarni ravshan ifodalash malakasi yetishmaydi. Blogerlik qilayotgan aksariyat fuqarolar bugun o'z elektron nashrlarini rasmiy tarzda davlat ro'yxatidan o'tkazib, jurnalistlik faoliyatini davom ettirmoqdalar. Shu bois bugun internet jurnalistikasida dolzarb yo'nalish-yechimlar jurnalistikasi borasida ularning kasbiy malakalari, bilim va ko'nikmalarini, salohiyatlarini oshirish masalasi ko'ndalang turibdi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, davlat va jamiyat taraqqiyotida yechimlar jurnalistikasiga juda katta ehtiyoj bor. Odamlarga muammolarning yechimlari haqida haq so'zni aytish, real, progressiv yondashuvlarni qo'llash hukumat va xalq o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi, hokimiyatga ishonchni oshiradi, qonunlarni fuqarolar tomonidan ijobiy qabul qilinishiga, amalda to'g'ri bajarilishiga imkon beradi. Zamonaviy media makonda yechimlar jurnalistikasi axborotlar olamining tinimsiz va shiddatli rivojlanishlari sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy turmushning barqarorligini ta'minlashda mislsiz rol o'ynaydi. Shu sabab yechimlar jurnalistikasi ijtimoiy, iqtisodiy hayotning o'ziga xos muhim talabi, zaruriyati sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy jurnalistika taraqqiyotini uningsiz tasavvur etish qiyin. Yangicha ijodiy yondashuv orqali jamiyatning yuksalishi, taraqqiyoti va kelajagiga zamin yaratiladi.

Amerikalik taniqli jurnalist Tina Rozenbergning ta'rificha, "Odamlar muammolardan charchashgani haq. Bugun ular ijobiy natijalar, pozitiv yondashuvlar va muvaffaqiyatli yakunlar haqidagi axborotlarga, yangiliklarga muhtojdirlar" (4. 3-bet. *Ruschadan erkin tarjima*.)

Yechimlar jurnalistikasi - bu muammolarga boshqacha nazar, bu - faqat tanqid emas, balki harakatga undaydigan, umid uyg'otadigan, jamiyatni o'zgartirishga xizmat qiluvchi yondashuv. Mahalliy internet nashrlar ushbu vazifani bajarishda muhim platforma bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston OAVlari uchun ham yechimlar jurnalistikasini rivojlantirish - jamiyat rivojining yangi pog'onasiga qadam qo'yish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminova D. “Internet jurnalistikasi ilmiy qarashlarining taraqqiyot tendensiyalari”. Ilmiy maqola. “O‘zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal. 2017. №1. WWW/journal.fledu.uz
2. Bornstein David, Rosenberg Tina, Martin Courtney E. The Solutions Journalism Handbook: A New Way to Think About the News. Solutions Journalism Network, 2019. Статя в интернете.
3. Гудвин Лиз. Почему именно журналистика решений? Solutions Journalism. NETWORK. Lismimmid.tilde.ws 10 ноябрь, 2016. Статя в интернете.
4. Розенберг Тина. Журналистика решений: Solutions Journalism. NETWORK. Что такое журналистика решений?. Lismimmid.tilde.ws. 16 июнь. 2018. Статя в интернете.
5. Kun.uz — <https://kun.uz>
6. Daryo.uz — <https://daryo.uz>
7. Qalampir.uz — <https://qalampir.uz>
8. Do‘stmuhammad X. “Axborot-mo‘jiza, joziba, falsafa. Toshkent: 2013.
9. Новости MediaSavod. Журналистика решений: Как СМИ содействуют поиску решений для социальных проблем. 10 октябрь. 2023. Интернет издание.
10. uz.qlever.asia Журналистика решений: Как СМИ содействуют поиску решений для социальных проблем. 27 март. 2024. Интернет платформа.
11. Wikipedia. uz.m.wikipedia.org. Yechimlar jurnalistikasi. Kirish. So‘nggi tahrir. 2022.



OROLBO'YI SAK QABILALARI QADIMGI MOZOR QO'RG'ONLARINING O'RGANILISHI VA DAFN ODATLARI TO'G'RISIDA BA'ZI MULOHAZALAR

*Kenjaev Bektash Davronbek o'g'li, Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti Ijtimoiy – iqtisodiy fanlar fakulteti
Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

SOME CONSIDERATIONS ON THE STUDY OF ANCIENT BURIAL MOUNDS AND FUNERAL RITES OF THE SAKA TRIBES IN THE ARAL SEA REGION

*Kenjaev Bektash Davronbek ogli,
Faculty of Social and Economic Sciences,
Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni
3rd-year student of the History program (by countries and
specializations)*

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ОБ ИЗУЧЕНИИ ДРЕВНИХ МОГИЛЬНИКОВ И ПОХОРОННЫХ ОБРЯДОВ САКСКИХ ПЛЕМЕН ПРИАРАЛЬЯ

*Кенжаев Бекташ Давронбек оглы, студент 3-го курса
направления История (по странам и направлениям)
факультета Социально-экономических наук Ургенчского
государственного университета имени Абу Райхона Беруни*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Orolbo'yi mintaqasida yashagan ilk sak qabilalarining dafn marosimlari va ularning arxeologik yodgorliklari — mozor qo'rgonlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil etiladi. Ayniqsa, Chirik-Rabot, Tegisken, Uyg'arak, Djomboy kabi muhim yodgorliklardagi arxeologik topilmalar asosida saklar madaniyati, ijtimoiy tuzilmasi va diniy e'tiqodlariga oid muhim dalillar keltirilgan. Dafn odatlarida kuzatilgan ijtimoiy tabaqalanish, marhumlar bilan birga ko'milgan buyumlar, dafn inshootlarining tuzilishi hamda ular orqali aniqlangan ramziy ma'nolar tahlil qilinadi.


Abstract: This article explores the results of archaeological studies of ancient burial mounds belonging to the Saka tribes that once inhabited the Aral Sea region. Special attention is given to key archaeological sites such as Chirik-Rabat, Tegisken, Uyg'arak, and Djomboy, which have yielded significant findings shedding light on the culture, social structure, and religious beliefs of the Saka people. The analysis focuses on burial practices, signs of social stratification, grave goods, and the architectural design of burial structures, along with their symbolic meanings.

Аннотация: В данной статье рассматриваются результаты археологических исследований древних погребальных курганов, принадлежащих скифским племенам, населявшим Приаралье. Особое внимание уделено памятникам Чирик-Рабат, Тегискен, Уйгарак и Джомбой, в которых обнаружены значимые материалы, раскрывающие особенности культуры, социальной структуры и религиозных верований сакских племён. Анализируются погребальные обряды, наличие социальной



<https://orcid.org/0009-0005-7499-5164>

e-mail:
bektoshkenjaev341@gmail.com



стратификации, предметы, сопровождающие погребённых, а также архитектурные особенности захоронений и их символическое значение.

Kalit so'zlar: Orolbo'yi, sak qabilalari, dafn marosimlari, mozor qo'rg'onlari, Chirik-Rabot, Tegisken, arxeologik tadqiqotlar, diniy e'tiqodlar, stratigrafik tahlil.

Key words: Aral Sea region, Saka tribes, burial practices, burial mounds, Chirik-Rabat, Tegisken, archaeological research, religious beliefs, stratigraphic analysis.

Ключевые слова: Приаралье, скифские племена, погребальные обряды, курганы, Чурик-Рабат, Тегискен, археологические исследования, религиозные верования, стратиграфический анализ.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Orolbo'yi mintaqasi qadimdan Markaziy Osiyoning muhim tarixiy-madaniy hududlaridan biri hisoblanadi. Bu hududda miloddan avvalgi I mingyillikning o'rtalaridan boshlab sak-massaget qabilalarining faoliyat maydoni kengayib, ular o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyat namoyandalarini yaratganlar. Ayniqsa, dafn marosimlariga oid arxeologik topilmalar bu qabilalarning diniy e'tiqodlari, ijtimoiy tuzilmasi va madaniy qarashlari haqida muhim ma'lumotlar beradi. So'nggi o'n yilliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, xususan Chirik-Rabot, Tegisken, Uygarak, Djomboy kabi yirik yodgorliklar sak qabilalarining dafn an'analari va mozor qo'rg'onlarining arxitekturasida borasida yangi ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon berdi. Ushbu yodgorliklarda aniqlangan ko'p sonli qabrtoshlar, qabrlarga qo'yilgan buyumlar, inson skeletlarining holati va boshqa jihatlar saklarning marhumga bo'lgan munosabati va o'lim haqidagi qarashlari bilan bog'liq bo'lgan marosimlarni anglashda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ/ LITERATURE ANALYSIS)

Orolbo'yi hududidagi ilk temir davri mozor qo'rg'onlarini, ularning tuzilmasi, madaniy qatlamlari va dafn odatlarini o'rganish borasida bir qator yetuk olimlarning ilmiy ishlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlarning boshlanishi XX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi va asosan Amudaryo quyi oqimida olib borilgan arxeologik izlanishlar bilan bog'liq. Avvalo, sovet arxeologi S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (1937-yildan boshlab) mazkur hududdagi ilk saklar madaniy qatlamlarini aniqlashda muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, Chirik-Rabot yodgorligi yuzasidan olib borilgan chuqur stratigrafik tahlillar va arxitektura tavsiflari sak qabilalarining dafn

odatlarini ilmiy asosda o'rganishga yo'l ochdi. Shuningdek, A.Asqarovning O'zbekiston hududidagi ilk temir davri yodgorliklarini o'rganishga doir tadqiqotlari, xususan, Qang' davlati va uning oldingi bosqichlariga oid izlanishlari orqali dafn marosimlari ijtimoiy tabaqalanish bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ / DISCUSSION AND RESULTS)

Orolbo'yi mintaqasida joylashgan Chirik-Rabot, Tegisken, Djomboy, Uygarak kabi yodgorliklar ilk temir davri – miloddan avvalgi VIII–III asrlarga oid bo'lib, ular sak qabilalarining muhim dafn inshootlarini o'z ichiga oladi. Bu mozorlar asosiy ikki tipda uchraydi: yer usti tosh-qal'acha shaklidagi qo'rg'onli qabristonlar va pasttekislikdagi tuproq-paxsa qabrlar. Har ikkala holatda ham qabrlar turli ijtimoiy maqomdagi shaxslar uchun mo'ljallanganini ko'rish mumkin. Ayrim hollarda katta, ko'p kamerali qo'rg'onlar elita vakillariga tegishli bo'lgan bo'lsa, oddiy aholining dafnlari kichik, bir kamerali qabrlar bilan ifodalanadi.[1] Qabrlardan topilgan idishlar, qurollar, bezaklar va haykalchalar bu qabilalarning turmush tarzi, e'tiqodi va estetik qarashlarini aks ettiradi. Orolbo'yi mintaqasi qadimda strategik va ekologik jihatdan qulay makon bo'lib, sak-massaget qabilalarining asosiy yashash va dafn hududlaridan biri bo'lgan. Sak qabilalarining dafn marosimlari ularning o'lim, ruh va hayotdan keyingi hayot haqidagi qarashlari bilan bevosita bog'liqdir. Ayrim qabrlarda, ayniqsa, bolalar dafnlarida shartli buyumlar – hayvon figuralari, geometrik naqshli taqinchoqlar – bola ruhini "himoya qilish" vazifasini bajargan bo'lishi mumkin.[5] Ba'zi arxeologlar, masalan, K.Akisev va T.I.Zeymal, saklar dafn marosimlarini "g'oyaviy teatr" sifatida baholab, u yerda hukmron elitaga tegishli

marosimlar orqali siyosiy hokimiyatni mustahkamlash, ajdodlarga sadoqat va qabilaviy birdamlik g'oyalari aks etganini qayd etadilar.

Mozor qo'rgonlarining tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi nafaqat amaliy, balki ramziy ahamiyatga ham ega bo'lgan. Chirik-Rabotdagi yodgorliklar masalanida ko'plab mozorlar qal'a devori yoki himoya devorlariga o'xshash konstruksiyalarda qurilgan. Bu esa nafaqat marhumni himoya qilish, balki ularni muqaddaslashtirish, qabilaviy xotira va merosni e'zozlash an'anasi mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Ba'zi qabrlarda topilgan belgi va tamg'alar, naqshlar, osmon jismlariga ishoralar ko'rsatadigan geometrik shakllar qadimgi saklarning totemistik e'tiqod va osmon bilan bog'liq tasavvurlari mavjud bo'lganligini anglatadi. Mozorlarning devor bilan o'ralganligi, ba'zan ichida ikkita yoki undan ko'p dafn kameralarining mavjudligi, ko'milgan jasadlar bilan birga qo'yilgan maxsus idishlar — ularning barchasi saklar uchun dafn marosimi muqaddas muomala maydoni, ya'ni "sakral makon" bo'lganidan dalolat beradi. Qabrtoshlar ba'zan antropomorf shaklda bo'lib, ular o'z zamonasining ijtimoiy rollarini (masalan, jangchi, ruhoni, oqsoqol) belgilovchi timsollar sifatida talqin qilinadi. Qabr ustiga tosh qo'yilgan holatlar esa marhum ruhi yer osti dunyosida xavfsiz o'tishini kafolatlash ramzi sifatida qaraladi.[10]

Quyi Sirdaryo, Amudaryo daltalari hamda Sharqiy Orolbo'yi hududidagi dafn marosimlarida ayrim mahalliy o'ziga xosliklar mavjud bo'lsa-da, sak qabilalarining umumiy dafn madaniyati va qarashlari butun Orolbo'yi bo'ylab o'zaro o'xshashlik kasb etadi. Bu holat mintaqada keng tarqalgan madaniy va e'tiqodiy birlikni, shuningdek, qabilalararo madaniy ta'sirlarni ko'rsatadi. Garchi dafn odatlarining umumiy jihatlari o'xshash bo'lsa-da, har bir yodgorlikning o'ziga xos jihatlari mavjud.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Orolbo'yi hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, miloddan avvalgi ilk temir davrida yashagan sak qabilalari o'ziga xos va murakkab dafn marosimlari tizimiga ega bo'lgan.

Ularning mozor qo'rgonlari — nafaqat dafn joylari, balki diniy va ijtimoiy marosimlar uchun muqaddas makon sifatida ham xizmat qilgan. Chirik-Rabot, Tegisken, Uygarak kabi yodgorliklarda aniqlangan arxitektura, dafn an'analari, marhum bilan birga qo'yilgan buyumlar, hayvon qurbonliklari — ularning barchasi saklar jamiyatida marhumning mavqeiga qarab ijtimoiy tabaqalanish mavjud bo'lganini va o'limga bo'lgan diniy-falsafiy munosabat chuqurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, Orolbo'yi saklarining madaniy qarashlari, e'tiqod tizimi va marosim amaliyoti mintaqadagi boshqa qadimgi madaniyatlar bilan uyg'un holda rivojlanganini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. — Москва: Изд-во АН СССР, 1948.
2. Зеймал Т.И. Погребальные памятники Нижнего Амударья. — Москва: Наука, 1975.
3. Асқаров А. Қадимги ўзбеклар маданияти. — Тошкент: Фан, 1992.
4. Ртвеладзе Э.В. Древние культуры Узбекистана: исследования и открытия. — Ташкент: Шарк, 2004.
5. Suleymanov R. Orolbo'yi mozor qo'rgonlari: diniy an'analari va ijtimoiy struktura. — Nukus: Qoraqalpoq nashriyoti, 2011.
6. Акишев К.А. Искусство и мифология саков. — Алматы: Наука, 1984.
7. Маргулан А.Х. Древняя культура племен Центральной Азии. — Алма-Ата: Наука, 1970.
8. Арангельский Ф.Д. Археология и древняя история Средней Азии. — Москва: Восточная литература, 1960.
9. Berdimuradov A. O'zbekistonda temir davri arxeologiyasi. — Samarqand: Imkon, 2003.
10. Арипов К. Chirik-Rabot yodgorligi: arxeologik izlanishlar natijalari. — Toshkent: Fan, 2018.

“OSHIQNOMA” TURKUMI DOSTONLARIDA POETONIMLAR LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDA


*Ro‘zimova Guli Shuhratovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti Filologiya va san‘at fakulteti O‘zbek
tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi*

ПОЭТОНИМЫ КАК ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОЕ СРЕДСТВО В ПОСЛАНИЯХ СЕРИИ “ОШИКНОМА”

*Рузимова Гули Шухратовна, преподаватель кафедры
узбекского языкознания факультета филологии и искусств
Ургенчского государственного университета имени Абу
Райхона Беруни*

POETONYMS AS A LINGUISTOPOETICAL MEANS IN THE “OSHIQNOMA” SERIES OF EPISTLES

*Ruzimova Guli Shuhratovna, teacher of the Department of Uzbek
Linguistics, Faculty of Philology and Arts, Urgench State
University named after Abu Rayhon Beruniy*



<https://orcid.org/0000-0002-8139-4384>
grozimova7@gmail.com



Annotatsiya. Ushbu maqolada “Oshiqnoma” turkumi dostonlarida qo‘llangan onomastik birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari, badiiyati va ularning matn badiiy-estetik butunligini ta’minlashdagi o‘rnini aniqlash xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Poetik onomastika, lingvopoetika, pretsedent birlik, nominativ vazifa, emotsional-ekspressivlik, antropoetonim, allyuziv nom.

Аннотация. В статье рассматриваются лингвопоэтический потенциал и художественность ономастических единиц, используемых в эпосах серии “Ошигнома”, а также их роль в обеспечении художественно-эстетической целостности текста.

Ключевые слова: Поэтическая ономастика, лингвопоэтика, прецедентная единица, номинативная функция, эмоционально-экспрессивность, антропоэтноним, аллюзивное имя.

Abstract. This article discusses the linguopoetic potential and artistry of onomastic units used in the epics of the “Oshiqnoma” series, as well as their role in ensuring the artistic and aesthetic integrity of the text.

Keywords: Poetic onomastics, linguopoetics, precedent unit, nominative function, emotional-expressiveness, anthropoethonym, allusive name.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Bugungi kunda jahon tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham antroposentrik paradigma asosida onomastik tizimga yangicha yondashuv paydo bo‘lmoqda. Badiiy asarlardagi onomastik birliklarning emotsional-ekspressiv o‘ziga xosliklari dastlab “onomapoetika” termini ostida o‘rganilgan bo‘lib, bu yo‘nalishdagi dastlabki izlanishlar V.N.Mixaylov, E.B.Magazanik,

L.I.Kolokolova, S.I.Zinin kabi rus tilshunoslarining 1950–1970-yillardagi ilmiy tadqiqotlari bilan bog‘liq [13, 9, 8]. Ushbu ishlarda ko‘tarilgan masalalar XX asrning 90-yillaridan “poetik onomastika” termini ostida o‘rganila boshlandi. Jumladan, V.M.Kalinkinning doktorlik dissertatsiyasi [7:11] poetonimlar tadqiqiga oid bugungi aksariyat tadqiqotlarga nazariy manba vazifasini o‘tamoqda.

O'zbek tilshunosligidagi badiiy matnda qo'llangan til birliklarining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq va tahlil qilishga doir tadqiqotlar bevosita N.Mahmudov, I.Mirzayev, M.Yo'ldoshev, D.Xudoyberganova, D.Andaniyazova kabi olim-olimlar nomi bilan bog'liq [10.,11.,12.,6., 16., 5]. Ammo "Oshiqnoma" turkumi dostonlarida qo'llangan onomastik birliklarning lingvopoetik tahlil tamoyillari asosida maxsus tadqiqi yuzasidan hali deyarli ish qilinmagan. Folklor asarlarida qo'llangan har bir poetonim aqliy salohiyati, badiiy tafakkuri, madaniyatini rivojlantirishdagi hissasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, "Oshiqnoma" turkumi dostonlarida qo'llangan onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi haqida ham shu fikrni aytishimiz mumkin. Holbuki, ushbu dostonlarda qo'llangan onomastik metafora, allyuziv nom, "so'zlovchi" nom kabi lingvopoetik vazifalarda kelgan antroponim, toponim, umuman, onomalar yetarlicha topiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Har qanday badiiy matnda ishlatilgan onomalar o'sha asar muallifi bo'lgan yozuvchi yoki shoirning, xalq og'zaki ijodi o'sha xalq til va lug'at boyligining tarkibiy qismi sanaluvchi nomlardan biror maqsadni ko'zlagan holda, samarali va o'rinli foydalanish qobiliyatini, o'ziga xos individual uslubini hamda ana shu onomalarlar bilan bog'liq diniy, tarixiy, etnografik va umuman, ensiklopedik bilimlari darajasini baholashda muhim hisoblanuvchi omillardan biri sifatida qaraladi. Xususan, "badiiy matnning onomastik ko'lam masalasi bevosita onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi bilan bog'liq hodisadir. Bunda badiiy matndagi antroponim, toponim, zoonim, biblionim kabi onomastik birliklar jamligining asar g'oyaviy-badiiy yaxlitligiga ta'sir qilishi barobarida, matn butunligiga ham birdek xizmat qilishiga diqqat qilinadi. Qolaversa, badiiy matndagi onomastik birliklar matn ko'lamini, mazmun va uslubini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi [5.: 39]". Lekin shuni unutmaslik kerakki, badiiy matndagi har qanday onomastik birlik onomapoetikaning o'rganish obyekti bo'lavermaydi, ya'ni lingvopoetik tahlil jarayonida poetik aktuallashtgan – poetik mazmun

bilan to'yintirilgan, badiiy-estetik ifoda nuqtai nazaridan xarakterli bo'lgan va muallif tomonidan maqsadli qo'llangan onomastik birliklarga onomapoetik tadqiq obyekti bo'la oladi. Badiiy matndagi bunday birliklar *antroponim*, *topopoetonim*, *zoopoetonim* va shu kabi terminlar bilan ifodalanadi [7.:14].

Ma'lumki, onomalar uzoq yillik tarixiy jarayon sifatida inson faoliyati, uning tadrijiy taraqqiyoti ko'zgusi hamda jamiyat haqida yetarli darajada tasavvur bera olish quvvatiga ega bo'lib, jamiyat hayotining turli qirralarini aks ettiruvchi o'ziga xos tizim hisoblanadi. Ayniqsa, antroponim va toponimlar nihoyatda rang-barang bo'lib, ular millat tafakkurining, muayyan xalq turmush tarzining, turli xil orzu va istaklarining tarjimoni sanaladi. Ya'ni antroponim va toponimlar shaxs va biror hududni nomlash, boshqalaridan farqlash vazifasidan tashqari ism sohibi va nominator(lar)ga munosabatni ham o'zida aks ettiradi. Ularning badiiy matndagi vazifasi faqatgina nomlash emas, balki ijodkorning "yashirin" yoki "oshkora" badiiy maqsadlarini ifodalashdir. Aytish mumkinki, nasriy yoki nazmiy asarlardagi "nomning tilsimini ochish, ma'nolarini belgilab berish katta amaliy ahamiyatga ega [15.:286]". Onomastik birliklarga lingvopoetik yondashuv esa ijodkor maqsadli qo'llagan onomalarning matn (asar) badiiy-estetik butunligini ta'minlashdagi o'rini aniqlash uchun xizmat qilishi lozim.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). "Oshiqnoma" turkumi dostonlari matnida real, tarixiy va mifologik antroponimlardan badiiy maqsadda foydalanish holati ko'p kuzatiladi. Bunday nomlar orqali, asosan, intertekstuallik yuzaga keladi. Jumladan, dostonlar matnida qo'llanib onomastik ko'lamidan o'rin olgan poetonimlar Qur'on, hadislarida tilga olingan payg'ambarlar, sahobalar, pirlar – diniy ahamiyatga molik shaxslar hayoti, karomati-yu faoliyatiga; xalq og'zaki ijodida ko'p uchrovchi qahramonlar taqdiriga, qolaversa, Sharq mumtoz adabiyoti ("Shohnoma", "Qobusnoma", "Guliston", "Bo'ston", "Xamsa" kabi), madaniyati va tarixiga oid faktlarga ishora qilib, dostonlar matnining mazmun jihatidan to'laqonli, badiiyat jihatidan yuksak bo'lishini ta'minlagan. Jumladan, "Oshiqnoma" rukni ostida 3-kitob bo'lib chiqqan majmuadan o'rin olgan "Yusuf va Axmad", "Layli va Majnun", "Gul va Sanobar" "Xorazm"

nashriyotida 2008-yil nashr qilingan. Ushbu nashrda 300 dan ortiq onomastik birlik qoʻllangan. Albatta, muayyan bir dostonda qoʻllangan nomlar miqdori hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Muhimi shundaki, dostonlarning turli janrlarida badiiy matnning asosiy qatlami bilan uygʻunlik hosil qilgan, uning ajralmas unsuriga aylangan onomastik birliklar miqdoridir. Dostonlar matnida qoʻllangan nomlar turli gʻoyaviy-badiiy vazifalarda kelib, onomastik birliklarning oʻziga xos “rangli tizim”ni tashkil qilgan. Bu oʻrinda poetonim darajasiga koʻtarilgan, yaʼni badiiy niyatni yoritishga xizmat qilgan onomastik birliklar sifatida *Rumi Qaysar, Hamza qizilbosh* kabi laqablarni; *Xizr Ilyos, Rustam, Ali, Abu Bakr, Umar, Usmon, Shohimardon* kabi oʻnlagan antroponimlarni; *Isfahon, Mashriq, Magʻrib, Misr*, kabi koʻplab toponimlarni; *Tavrot, Injil, Zabur Furqon* kabi bibliionimlarni, *Turna* zoonimini misol qilish mumkin.

Bunday poetonimlar ayrim ilmiy manbalarda “pretsedent birliklar” termini bilan izohlangan. Jumladan, D.Xudoyberganova bunday birliklarni “Muayyan til egalariga yaxshi tanish boʻlgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror soʻz birikmalari, jumlarlar hamda matnlar” sifatida taʼriflab, ushbu termin birinchi marta Y.N.Karaulov tomonidan tilshunoslikda qoʻllanganini qayd qiladi [16.: 87], shu bilan birga, bunday birliklar ichida “pretsedent nomlar”ning alohida oʻrin tutishini va ular ijodkor badiiy niyatini yoritishda muhim vosita boʻla olishini taʼkidlaydi.

NATIJALAR (PE3YJIBTATY / RESULTS).

“Oshiqnoma” dostonlaridagi badiiy tasvirning asosiy vositalaridan biri boʻlgan poetonimlarning oʻmi va xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Maʼlumki, adabiy matnlarda, xususan, nazmiy asarlarda boshqa soʻzlar kabi poetonimlar ham ekspressiv-uslubiy funksiyani bajarib keladi. Shu tufayli ularning badiiy adabiyotdagi lingvopoetik xususiyatini oʻrganish alohida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Aytish mumkinki, har qanday asardagi poetonimlarning lingvopoetik xususiyatini oʻrganmasdan turib, asarning asl qiymatini va ahamiyatini belgilab boʻlmaydi.

“Oshiqnoma” dostonlari matnida poetonimlarning turli koʻrinishlari – teopoetonimlar (*Jabbor, Gʻaffor, Sattor* kabi), antroppoetonimlar

(*Jamshid, Sulaymon, Siddiqi Usmon, Sulton Uvays* kabi), topoettoetonimlar (*Kaʼba, Xoʻtan, Rum* kabi), mifopoetonimlar (*Axraman, Jamshud* kabi) shuningdek, geneologik jihatdan sof turkiy, arabiy, forsiy, qadimgi yunoncha, qadimgi yahudiycha apellyativlarga asoslanuvchi poetonimlar; tuzilishiga koʻra sodda va qoʻshma (murakkab) poetonimlar; semantik xususiyatlariga koʻra diniy, badiiy va real poetonimlar; uslubiy xoslanishiga koʻra nominativ vazifada kelgan va qoʻshimcha maʼno, yaʼni emotsional-ekspressiv maʼno yaratgan poetonimlar uchraydi.

Maʼlumki, badiiy asarda, xususan folklor asarda qoʻllanilgan barcha soʻz oʻziga xos tasviriy vosita hisoblanadi. Ammo bu birliklarning semantik va uslubiy maʼno ifodalash darajasi har xil boʻladi: neytral ekspressiv-emotsional maʼno va qoʻshimcha maʼno.

“Oshiqnoma” dostonlarida uchraydigan antroponimlarni lingvopoetik xususiyatiga koʻra ikki guruhga ajratish mumkin: 1) nominativ vazifada keluvchi antroponimlar; 2) maʼlum bir kontekstda oʻziga xos qoʻshimcha maʼnoni, ekspressiv-emotsional maʼnoni yaratuvchi antroponimlar.

Devonda nominativ vazifada qoʻllanilib, oʻziga xos vazifani bajaruvchi antroponimlar talaygina. Masalan: ***Mustafo, Sulton Erhubbi, Fotima, Xadicha*** va boshqalar. Lekin koʻpchilik antroponimlar har bir matnda oʻziga xos uslubiy maʼnoni ifodalab keladi. Jumladan, diniy va anʼanaviy antroponimlarning koʻpchiligi kontekstda alohida va oʻziga xos maʼnoni ifodalab keladi. Bu qoʻshimcha maʼno antroponimning nominativ vazifasida sezilmaydi, misra mazmuniga chuqur eʼtibor berilsagina uning mohiyati namoyon boʻladi. Bu holat xalq ogʻzaki ijodi namunalarida soʻz qoʻllashdagi mahoratiga bogʻliq holda yuzaga keladi, albatta. Baʼzi bir antroponimlar dostonida bir qancha lingvopoetik (uslubiy) maʼnoni ifodalaydi. Ushbu maʼno maʼlum matnga tegishli boʻlib, ismning lugʻaviy maʼnosidan oʻzaro farqlanadi va qahramonning obrazini, xususiyatini, xarakterini, koʻrinishini ifodali tasvirlashga yordam beradi. Masalan: ***Xizr, Jamshid (Jam)*** kabilar.

“Oshiqnoma” turkumi dostonlarida Sharqning mashhur “Xamsa” dostonlaridagi ***Shirin, Layli, Farhod, Majnun, Dilorom, Bahrom, Xusrav*** kabi qahramonlarning nomlari birinchi navbatda, allyuziv nom sifatida qoʻllanilib, dostonlardagi maʼlum bir syujetlarga yoki ularning ishq-muhabbatiga ishora qilib, hosil boʻlgan intertekstuallik vositasida badiiy mazmun

serqatlamligi, qabariqligi ta'minlagan. Ikkinchi tomondan, bu poetonimlar ideal oshiq-ma'shuqlik etaloni sifatida onomastik metaforani hosil qilishga xizmat qilgan. Quydagi baytlarda ana shu holatlar kuzatiladi:

*Shirin uchun jafo ko'p chekdi Farhod,
Bu dunyodin kechdi u zori noshod,
Mastona ko'z, oyim qomati shamshod,
Quloq solib bu afg'ona, kel emdi.* [19.: GS. 233-b]

Ba'zan bu poetonimlar qatoriga "Layli va Majnun" dostonining qahramonlari – **Layli va Majnun**lar ham qo'shilib, baytdagi mazmun qabariqligi va emotsionalligi yanada oshirilgan:

*Majnun oshiq bo'lib kezadi hayron,
Laylini ishqida yig'ladi hazon,
Rahm ayla holimg'a ey shohi xo'bon,
G'arqo aylab dona-dona, kel emdi.* [19.: GS. 233-b]

Uchinchi tomondan, ushbu poetonimlar o'xshatish etaloni sifatida qo'llanilib, o'xshatish asosidan anglashilgan ma'noni bo'rttirib ta'kidlashga xizmat qilgan.

Demak, bu antroponimlarining mumtoz adabiyotda poetonim sifatida shaklanishi va *allyuziv nom*, *onomastik metafora*, *o'xshatish etaloni* kabi lingvopoetik vazifalarda qo'llanishi bevosita "Xamsa"chilik an'analari bilan bog'liq. Masalan, **Farhoh** ismi ham "Oshiqnoma" dostonlari matnida "ishqdan devona, jinni bo'lgan oshiq", "muhabbat qissasining qahramoni", "tog' qazuvchi" kabi o'ziga xos uslubiy-lingvopoetik ma'nolarni ifodalab kelgan:

*Ishq yeli har kimni ayladi barbod,
Har kimga duch kelsa, aylaydi faryod,
Besutun tog'ini ko'p qazdi Farhod,
Shirin ko'rsin, Farhod tomoshasini.* [19.: OG'Sh. 30-b]
"Oshiqnoma" dostonlari matnida diniy poetonimlar salmog'i ham anchagina:

Luqmon – qadimgi Eronning kayoniylar sulolasiga mansub shoh Kayqubod davrida yashab o'tgan, Sharq xalqlari orasida buyuk hakim sifatida mashhur bo'lib, Qur'oni karimda ham donishmand sifatida tilga olingan. "Qisasi Rabg'uziy"da keltirilishicha, Luqmon Dovud alayhissalom davrida yashagan habashiy bir qul edi. Uning ming, hatto 1600 yil yashagani naql qilinadi. U Ollohdan o'ziga uzoq umr so'raganida Olloh taolo unga yetti burgutning umrini bag'ishlagan ekan. Alloh taolo Luqmondan: "Payg'ambarlik beraymi yoki hikmat?" – deb so'raganida u hikmatni tanlagan, shunda Alloh

taolo hikmatni ato etgan ekanki, barcha payg'ambarlar ham uning nasihatlariga muhtoj bo'lgan ekanlar [17.: 74]. Quydagi baytdagi **Luqmon**, **Sulaymon** poetonimlaridan maqsad haqiqiy ishq dardining ilojini (shifosini) eng kuchli hakimlar ham, eng buyuk ahli donishlar ham bilmasligini hissiy-ta'siriy bo'rttirib kuchaytirishdir:

*Bu dardima ayla darmon,
Tabiblarning piri Luqmon,
Dovud o'g'li er Sulaymon,
G'aribim senga topshurdim.* [19.: OG'Sh. 56-b]

Sulaymon – Qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri, Dovudning o'g'li odil va dono hukmdor. Sulaymon barcha insu jin va hayvonot olamining ham podshohi bo'lgan. Uchar shamollar ham uning ixtiyorida bo'lib, Sulaymon taxtini istagan joyiga eltib qo'ygan. Sulaymon nomi bilan bog'liq taxti Sulaymon birikmasi mumtoz adabiyotimizda va xalq og'zaki ijodida an'anaviy tarzda qo'llanilib kelingan. "Oshiqnoma" dostonlari matnida ham taxti Sulaymon birikmasi intertekstuallikni yuzaga keltirishga xizmat qilgan:

*-Shahri Lutni besh yuz farishta yiqdi,
Bod ustinda qurdi Sulaymon taxti.
Lu yili on hazrat me'rojg'a chiqdi,
Ul samodan arslon yuzugin oldi.* [19.: OG'Sh. 92-b]

Masih \ **Masiho** antroponimlari "G'iyos ul-lug'at"da keltirilishicha, "do'st va ko'p sayr qiluvchi" ma'nosini bildiradi. Chunki u zot Haqning do'sti bo'lgan va yolg'izligi uchun yer yuzini ko'p kezgan. Shu ikki ma'nosi bilan Iso alayhissalomning laqabiga aylangan. Iso a.s.ni anglatib, uning ismi oldidan qo'yiladi yoki alohida qo'llanadi [14.: 260]. Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida yozishicha: "ul o'likkim, Iso a.s. tirguzdi, Inb ul-A'juz erdi. Va sharhi budurkim, sayr asnosida bir ajuzani ko'rdikim, bir qabr boshida muassir navha qiladur. Kayfiyatin so'rdi. Dedikim, o'g'lum erdi va firoqidin betoqatmen. Iso a.s. duo qilib, Tengri taolo ul mayyitqa ruh kiyurdi va o'luk tirilgach, iltimos qildikim, duo qilg'ayki, burung'i holig'a borg'ay va mavt saqaroti bo'lmag'ay. Ruhulloh duosi bila bu ish ham bo'ldi..." [3.: 590-591] U xalq talabiga ko'ra o'lganiga 4 ming yil bo'lgan Som ibn Nuhni ham tiriltiradi. Balchiqdan ko'rshapalak yasab, nafasi bilan unga jon ato etadi.

Demak, Iso nafasi, Iso dami, Masih anfosi kabi iboralar shu bilan bog'liq. Bu poetonim "Oshiqnoma" dostonlarida ham, xuddi mumtoz adabiyot namunalaridagidek, ma'shuqaning "tiriltiruvchi" la'li (labi), kalomi, dami (nafasi) sifatida ba'zan intertekstuallik – talmeh (*Alqissa, bu javoblarni tamom qilg'andin so'ng kun botar orqa tarafdin yashil asoli bir bobo hozir bo'ldi. Bobo Masih nafasning oldig'a chiqib, yuz ming odob birla qo'lin aliflom qilib bir so'z aydi: ...* [19.: OQ. 192-b] tarzida satrlarga go'zal badiiylik olib kiradi va lirik qahramon xarakterini bir lahzada tavsiflashga erishadi. Ushbu antropoetonim bilan shakllangan bunday baytlarni "Oshiqnoma" dostonlarining o'nlagan o'rnida uchratish mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu qaydlar "Oshiqnoma" dostonlari matnida qo'llangan xalq og'zaki ijodining til xususiyatlarini sharhlashda poetonimlarning ham o'ziga xos ahamiyati borligini dalillay oladi. Har bir poetonim badiiy matn tarkibida emotsional-ekspressivlikni oshiradi. Shunisi aniqki, xalq og'zaki ijodida qo'llangan poetonimlar shunchaki ishlatilmagan, ular xalq og'zaki ijodi manbaalarining boyligini tarkibiy qismi sanaluvchi nomlarda muayyan maqsadni ko'zlagan holda, samarali va o'rinli foydalanish qobiliyatini, o'ziga xos individual uslubini hamda ana shu onomalar bilan bog'liq tarixiy, adabiy, diniy, etnografik va umuman, ensiklopedik bilimlari darajasini baholashda muhim hisoblanuvchi omillardan biridir. Bu vositalar "Oshiqnoma" dostonlari matnida qo'llanib, musiqiy ohangdorligi, ta'sirchanligi, nutqiy ravonligi, jarangdorligi va umuman, badiiy qimmatining yanada oshishini ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aysu Ata. *Kisasu'l enbiya*. – Ankara, 1997.
2. Alisher Navoiy. *Qomusiy lug'at*. Ikkinchi jild. – Toshkent: Sharq, 2016.
3. Алишер Навоий. *Мажолис ун-нафоис* \ Тўла асарлар тўплами, 8-жилд.
4. Алишер Навоий. *Мукамал асарлар тўплами*. 20 томлик. XV том. – Тошкент, 1999.

5. Анданиязова. Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. фалсафа док. (PhD) ...дисс. – Т, 2017.
6. Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2009.
7. Калинин В.М. Теоретические основы поэтической ономастики: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Киев, 2000.
8. Колоколова Л.И. Ономастика в художественной речи А.П.Чехова: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Киев, 1970.
9. Магазаник Э.Б. Поэтика имен собственных в русской классической литературе: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Самарканд, 1967.
10. Махмудов Н. Ойбек шеърятдаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6.
11. Махмудов Н. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009.
12. Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Ташкент, 1992.
13. Михайлов В.Н. Собственные имена персонажей русской художественной литературы XVIII и первой половины XIX в., их функции и словообразование: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1956.
14. Мухаммад Гиёсиддин. Гиёс ул-луғот. Жилди 2. – Душанбе: Адиб, 1988.
15. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012.
16. Худойберганаева Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.
17. Қисаси Рабғузӣй. Иккинчи китоб. Нашрга тайёрловчилар: Э.Фозилов, А.Юнусов, Ҳ.Дадабоев. – Тошкент: Ёзувчи, 1991.
18. Худойберганаева Д, Анданиязова Д. Ўзбек тили поетонимларининг изохли луғати. – Тошкент: "Turon zamin ziyo", 2016.
19. Хоразм дostonлари. Ошиқнома. 1-китоб (2006), 2-китоб (2006), 3-китоб (2008), 4-китоб \ Масъул муҳаррир С.Р.Сапарбоев. – Урганч: "Хоразм" нашриёти, (2009).

JADID MUTAFAKKIRLARIDAN CHO'LPONNING IJTIMOIY-AXLOQIY VA FALSAFIY QARASHLARI

*Turdiyeva Iroda Maxmarajabovna,
Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

THE SOCIO-ETHICAL AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF CHULPON AS A JADID THINKER

*Turdieva Iroda Makhmarajabovna,
Independent researcher of Tashkent State University of Railway
Engineering*

СОЦИАЛЬНО-ПРАВСТВЕННЫЕ И ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ЧУЛПОНА КАК ДЖАДИДСКОГО МЫСЛИТЕЛЯ

*Турдиева Ирода Махмараджабовна,
независимый исследователь Ташкентского государственного
транспортного университета*



<https://orcid.org/0009-0001-5200-034X>

e-mail:
irodamaxmarajabovna@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid adabiyoti vakillaridan biri – Cho'lponning ijtimoiy-axloqiy va falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Unda adibning inson, jamiyat, erkinlik, adolat kabi tushunchalarga bo'lgan munosabati, uning asarlarida aks etgan g'oyalari va o'zbek xalqining ma'naviy uyg'onishidagi o'rni yoritiladi. Cho'lponning fikrlari zamonaviy davr uchun ham dolzarbligicha qolmoqda.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, jadidchilik, axloq, falsafa, jamiyat, erkinlik, adolat, uyg'onish.

Abstract: This article explores the socio-ethical and philosophical views of Chulpon, one of the prominent figures of the Jadid literary movement. It examines his perspective on concepts such as human nature, society, freedom, and justice, as well as the reflection of these ideas in his works. The study also highlights Chulpon's role in the spiritual awakening of the Uzbek people. His ideas remain relevant in contemporary discourse.

Keywords: Chulpon, Jadidism, ethics, philosophy, society, freedom, justice, awakening.

Аннотация: В данной статье рассматриваются социально-нравственные и философские взгляды одного из представителей джадидской литературы – Чулпона. Анализируется его отношение к таким понятиям, как человек, общество, свобода, справедливость, а также его идеи, отраженные в произведениях. Особое внимание уделено роли Чулпона в духовном пробуждении узбекского народа. Его идеи остаются актуальными и в наши дни.

Ключевые слова: Чулпон, джадидизм, нравственность, философия, общество, свобода, справедливость, пробуждение.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Mamlakatimizda demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilayotgan bir vaqtda tarixiy xotirarni unutmay, milliy estetik qadriyatlarimizga suyanib yashash millat ma'naviyatini yuksaltiruvchi muhim madaniy mezon hisoblanadi. Xalqimizning falsafiy-estetik tafakkuri taraqqiyotiga hissa qo'shgan, jumladan jadid ma'rifatparvarlarimiz, xususan

Cho'lponning ilmiy, ijodiy merosi hamisha dolzarb bo'lib qolaveradi. Zotan, Cho'lpon asarlaridagi ijtimoiy adolat, milliy vatanparvarlik, hayotiy ma'rifatparvarlik ruhi o'zining tarbiyaviy, badiiy-estetik ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, bugun ham milliy va ma'naviy jihatdan yuksalishimizga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "XX asr boshlaridagi millatimiz taqdirini, uning boshiga

tushgan fojialarni, ozodlik va erkinlik qadrini hech kim bu mumtoz shoirimiz kabi yuksak pardalarda kuylagan emas” [1, 9-b.].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Jadidlar harakatiga oid xorijiy olimlardan fransiyalik A.Bunningson, gurmaniyalik I.Baldauf [2], yaponiyalik H.Komatsu, S.A.Zunkovskiy [3] kabi tarixchi, sharqshunos olimlarning jadidshunoslikka oid tadqiqot olib bordilar. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida Hoji Nu'matulloh Muhtaram [4, 61-b.], N.Xotamov [5]lar jadid namoyondalarining tarixiy shart-sharoitlaridagi faoliyati tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqotlarda jadidlar harakatining shakllanishining obyektiv va subyektiv omillari, jadidchilik harakatida ishtirok etgan shaxslar, Buxorodagi taraqqiyparvar harakatlarning asl mohiyati ochib berilgan. Mamlakatimiz olimlaridan jadidchilikka oid Q.Rajabov [6], D.Alimova [7], M.A.Тожибоева [8;284 b.]larning tadqiqotlarida jadid mutafakkirlari ma'naviy merosining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qarashlari, ularning jadid ma'rifatparvarligidagi alohida o'rni qisman o'rganilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Cho'lponning serqirra ijodi shaxsning ijtimoiy ongi, ma'naviy, badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantirish va yuksaltirishda teatr, adabiyot va matbuotning ulkan o'rin tutishini asoslash, bu jarayonda shaxs estetik tafakkurining shakllanish prinsiplarini mustahkamlash bilan bog'liq.

Falsafada estetik g'oya mazmuni va yo'nalishi ijodkorning tabiati, dunyoqarashi va maqsadi bilan hamisha bog'liq bo'lgan. Cho'lpon estetik g'oyasining ulug'vorligi shundaki, u hech qachon ma'naviy birlikdan, uyg'unlikdan chekkada bo'lmagan, hikoya, ocherk, maqola, drama, roman yozadimi har doim o'z dunyoqarashida shakllangan, rivojlangan estetik g'oyaga amal qilgan va shu asosda badiiy-estetik asarlar yaratgan.

Cho'lpon o'zining nasriy asarlarida estetik g'oya mazmuni qanchalik ahamiyat kasb etganligini tadqiq etishda, u tafakkuri, dunyo va millat haqidagi falsafiy tasavvuri, jamiyat rivoji haqidagi orzularining estetik jihatdan umumlashtirilganini anglab etgan. Uning asarlarida ozodlik muammosi inson uchun ma'naviy, estetik g'oya, badiiy

qadriyat sifatida qahramonlar, siymolar, ijtimoiy vaziyatlarda ifodalandi. Orenburgda chiqqan “Sho'ro” jurnalining 1917-yilgi 31-sonida nashr etilgan Cho'lponning milliy ijtimoiy muammolarni aks ettirgan nasriy she'ri bunga misol bo'la oladi. Bu xat oddiy xabarlar in'ikosi emas, balki ruhiy to'lg'oqlar ovozi, Cho'lpon yuragining tez-tez va uzluksiz talvasalarining ifodasi edi.

Muxtoriyat tugatilgach barcha jadidlar, xususan Cho'lpon uchun ham ijtimoiy, adolatli fikrlar cheklandi. Bunday qaltis vaziyatda Cho'lpondek ma'rifatparvar jadid o'z yo'li va tilini “to'g'rilab” olishga, hushyor tortishga majbur bo'lgan. U Orenburgdan Vataniga qaytganda bu yerdagi ijtimoiy muhitdan, axloq-u odob, munosabat va muomaladan yangilik izlaydi. Mustamlakachilik sharoitidan aziyat chekib, ko'ngli qayg'uga botib, tafakkuri turli badiiy obrazlar galereyasini qoplashga tushadi. Agar u Oktyabr inqilobigacha asosan ma'rifatparvarlik, maktab va maorif masalalari bilan shug'ullangan, jadidchilik g'oyalarini qattiq himoya qilgan va targ'ib etgan bo'lsa, ijtimoiy tuzum o'zgarishi bilan uning falsafiy va badiiy-estetik faoliyati ham turli yo'llarni birlashtirgan holda davom etdi.

Cho'lpon tafakkuri erkinligining va estetikasining shakllanishida quyidagi omillar muhim o'rin tutdi: birinchidan, xalq ongini, tafakkur tarzini o'zgartirish, yangilash uchun ozodlik, ijtimoiy-siyosiy masalalar hal etilishi lozim edi; ikkinchidan, ijtimoiy hayotga, o'zgarib borayotgan jamiyatga munosabatda yangicha dunyoqarashni shakllantirish; uchinchidan, milliy yuksalish uchun madaniyat va ma'rifat, adabiyot va san'atning yangi yo'llarini egallash; milliy-madaniy, badiiy qadriyatlarni umumbashariy jihatlar bilan boyitish; adabiyot va san'atning zamonaviy estetik omillarini egallash kerak edi.

Mustamlakachilik davrida “Turkistonda shakllana boshlagan mayda va yirik burjuaziyaning xalqparvar vakillari ma'rifatparvarlik harakatining beshigini tebratgan, unga ma'lum falsafiy-siyosiy, madaniy- ma'rifiy va badiiy-estetik tus bergan shaxslar sifatida maydonga chiqdilar. SHuning uchun mahalliy burjuaziya vakillarining ma'rifatparvarlik harakatidagi roli ijobiy va samarali baholanishga loyiqdir” [9, 15-b.].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Cho'lpon jadidchilik harakatining ijtimoiy, siyosiy, badiiy, estetik g'oyalari ta'sirida yetuk ijodkor

bo'lib shakllandi. Jadidchilik harakatining ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik va xalq ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan dunyoqarashi adib ijodiy faoliyatining asosiy qismini belgilaydi. Shu bois Cho'lpon ma'rifatparvar yozuvchi sifatida bashariyatga tanildi, ijodining aksariyat qismi karaxt xalq orasida ma'rifat uchqunlarini yoqdi va ularga mash'al bo'ldi.

Cho'lponning tabiat, jamiyat, inson, adabiyot va san'at xususidagi estetik falsafiy qarashlari milliy ma'rifatparvarlikni rivojlantirishga hissa qo'shib, ma'rifetni estetikaning "go'zallik" kategoriyasi darajasiga ko'tardi.

Cho'lpon estetikasini anglash uning buyuk umumbashariy g'oyalarini, yuksak insoniy tuyg'ularini yurakka singdirib olish, tabiat go'zalligi va inson ulug'vorligini adib ko'zi bilan ko'rib, qalbi bilan his etishdir. Mumtoz adabiyotimiz, jahon madaniy yodgorliklari, jadidchilik g'oyalaridan bahramand bo'lgan shoir Turkiston ozodligi, xalq baxt-saodati, odamlarning ma'rifatparvarlik va insonparvarlik tafakkuri, tasavvuri haqida qayg'urib, ichki his-tuyg'ularini izhor etgan asarlari bilan, Vatanini taraqqiy ettirishni orzu qilgan ijodiy mahsulotlari bilan jadid ma'rifatparvarlar faoliyatiga ulug'vor badiiy-estetik hissa qo'shgan edi. Misol tarzida "Yashayish" she'rini o'qisak: Og'ir-og'ir va faqat qayg'idan yiroq uyqu Nechun uzoqlarga qochdingki, ko'p yomondir bu, Ko'zim ochildi, biroq ko'rmadim go'zallikni, Ko'nglimda yas ila ko'rdim butun tubanlikni. Yo'q emas edi go'zallik bilan chiroylilik, Faqat ular tubida jilvalandi hayvonlik. Kulib qarar edi dunyosi goh-gohlari, Faqat kulishlar ichinda fig'on va ohlari... [10, 96-b.].

Shoir ijodida uning ichki kechinmalari, ijtimoiy muhitdan noroziligi ochiq-oydin aytilmagan bo'lsa-da, Turkiston va unda yashovchi xalqlarning ozodligi, tabiat go'zalligi, odamlar ongi va ma'rifatiga taalluqli qarash va tuyg'ular o'z ifodasini topgan edi. Cho'lpon qalbi, tafakkuridagi ma'rifatparvarlik g'oyalari, tamoyillari ijtimoiy muhit, voqeliklar ta'sirida o'zgarib, rivojlanib bordi.

Cho'lpon uchun asosiy ijtimoiy, ma'naviy vazifa Vatan, millat uchun tobelik yo'lini to'smoq, erkinlik, ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, yoshlarni barkamol etib tarbiyalash, adabiyot va san'atni rivojlantirish, ta'lim-tarbiyani yoritish, xalqning ozodlik va baxtiyorlik kayfiyatlarini kuchaytirish edi. Uning ozodlikka intilib azob

chekayotgan odamlarning orzulari badiiy ijodiyotda iste'dod timsoliga aylangani bejiz emas. Shuningdek, shoir yangi o'zbek adabiyoti, tiliga so'z ipagidan go'zal badiiy libos kiydirdi, ko'hna adabiyotimizni ham janr, ham uslub, ham til va dil jihatidan go'zallik koshonasiga olib chiqdi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xalqni ma'rifatli qilish, jamiyatni rivojlantirish, vatanni mustaqil ko'rish uchun zahmat chekkan, asarlari bilan xalqni uyg'otish uchun kurashgan, mana shu yo'lda jon fido qilgan buyuk jadid allomalarimizning millatning asosiy davlatchilik timsoli, millionlab xalqni birlashtiruvchi ma'naviy boylik – ona tilimiz, uning ravnaqi yo'lidagi xizmatlari beqiyos va ulkandir. Ular nafaqat hozirgi o'zbek adabiy tilimizning nazariy jihatdan ilmiy asosini yaratishga o'z hissalarini qo'shdilar, balki o'z ijodlari bilan bu tilning yorqin namunalari ham yaratib berdilar.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажегимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 9.
2. Baldauf Ingeborg. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World ||Die Welt des Islams, New Ser. Vol.41.I-1. (mar., 2001).
3. Zenkovsky S.A. pan-Turcizm and islam in Russia. Cambridge-Massachusetts: Harward University Press, 1960.
4. Ҳожи Неъматуллоҳ Мухтарам. Тазкират уш-шуаро. - Душанбе, 1975, Саҳ.61.
5. Хотамов Н. Свержение эмирского режима в Бухаре. - Душанбе, 1997; Бухарские джаиды и основные этапы их деятельности. - Душанбе, 2000.
6. Ражабов Қ. Мустақил Туркистон фикри учун мужодадир (1917-1935 йиллар). - Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
7. Алимова Д.А. Историческое мировоззрение джаидов и их проекция будущего Туркестана // Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. - Тошкент: Фан, 1996.
8. Тожибоева М.А. Жаид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. - Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент, 2017. - 284 б.
9. Махмудова Г. Жаидизм ва Туркистонда ахлокий-эстетик фикр таракқиёти. – Тошкент: Давр Пресс, 2006. – Б.15.
10. Чўлпон. Асарлар. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б.96.

O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH —
YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING
USTUVOR VAZIFASI


Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li,
UrDPI talabasi

FORMING A LIBRARY CULTURE AMONG
STUDENTS IS A PRIORITY TASK OF STATE
YOUTH POLICY

Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li,
Student of UrSPI

ФОРМИРОВАНИЕ БИБЛИОТЕЧНОЙ КУЛЬТУРЫ
СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ –
ПРИОРИТЕТНАЯ ЗАДАЧА ГОСУДАРСТВЕННОЙ
МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ

Эгамов Юсуфбой Эргашбек оглы,
студент УрГПИ



<https://orcid.org/0009-0006-3149-0913>
egamovyusufboy718@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida o'rganiladi. Maqolada yoshlar ongida mutolaaga qiziqishni uyg'otish, maktab, oila va kutubxonaning o'zaro hamkorligi, raqamli texnologiyalarning kitobxonlikka ta'siri hamda ijtimoiy tashabbuslarning ahamiyati atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotda hujjatli tahlil, so'rovnoma, intervyu va kuzatuv metodlari asosida empirik ma'lumotlar yig'ilgan hamda real muammolar va imkoniyatlar aniqlangan. Yakunda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun tizimli, texnologik va ijtimoiy yondashuvlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kitobxonlik madaniyati, yoshlar siyosati, ta'lim tizimi, maktab kutubxonasi, raqamli kutubxona, mutolaa, o'quvchi motivatsiyasi, ijtimoiy hamkorlik, metodik yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Annotation: This article explores the development of reading culture among school students as a key priority of Uzbekistan's youth policy. It highlights the importance of fostering interest in reading through the joint efforts of schools, families, libraries, and digital technologies. The study employs document analysis, surveys, interviews, and observation methods to collect empirical data and identify existing challenges and opportunities. The findings emphasize the need for a systematic, technological, and socially integrated approach to cultivating a strong reading culture. Practical recommendations are provided for educators, policymakers, and community stakeholders.

Keywords: reading culture, youth policy, education system, school library, digital library, student motivation, reading habits, methodological approach, social engagement, information and communication technologies.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование культуры чтения среди учащихся как одно из приоритетных направлений государственной молодежной политики Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется роли образовательных учреждений, библиотек, семьи, молодежных организаций и информационно-коммуникационных технологий в развитии интереса к

чтению у подрастающего поколения. В ходе исследования были использованы методы анализа документов, анкетирования, интервью и наблюдения, на основе которых выявлены основные проблемы и перспективы в данной сфере. В завершение статьи предлагаются практические рекомендации по формированию устойчивой культуры чтения на основе системного, технологического и социального подходов.

Ключевые слова: культура чтения, молодежная политика, система образования, школьная библиотека, цифровая библиотека, мотивация учащихся, чтение, методический подход, социальное сотрудничество, информационно-коммуникационные технологии.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida har bir jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, uning ma'naviy salohiyati bilan belgilanadi. Ma'naviy salohiyat esa kitobga, ilm-fanga bo'lgan munosabatda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan g'oyalarda yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularda mutolaa madaniyatini yuksaltirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Yoshlar ongiga kitob o'qish odatini singdirish, ularni badiiy, ilmiy va axloqiy jihatdan boyituvchi adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib borish — bu nafaqat maktab, kutubxona va oila zimmasidagi vazifa, balki umummilliy masaladir.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda davlat siyosati, ta'lim muassasalari, kutubxonalar, yoshlar tashkilotlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rnini yoritishdir.

Adabiyotlar tahlili. Kitobxonlik madaniyati va yoshlar orasida uning shakllanishi masalalari bilan bog'liq ilmiy adabiyotlar mazkur mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Quyida ushbu yo'nalishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asarlar tahlil qilinadi.

Davlat siyosatining kitobxonlikni rivojlantirishdagi o'rni katta. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan "O'zbekiston Respublikasining ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish strategiyasi" farmonida (2020) kitobxonlik madaniyatini mustahkamlash davlat darajasida ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Kitobxonlik madaniyati tushunchasi turli tadqiqotchi olimlar tomonidan ham keng talqin qilingan. Masalan, J.A.Tursunovning "Kitobxonlikni rag'batlantirishdagi davlat dasturlari

va loyihalar" (2021) nomli asarida davlat dasturlari va loyihalari orqali kitobxonlikni rag'batlantirish amaliyotini tahlil qilgan. Shu bilan birga, D.A.Raxmonovanning "Kitobxonlikni rivojlantirishda huquqiy va moliyaviy asoslar" (2022) nomli maqolasida kitobxonlikni rivojlantirish uchun huquqiy bazani mustahkamlash va moliyaviy qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi. S.X.Islomov o'zining "Kitobxonlik madaniyati va uning shakllanishi" (2017) nomli asarida kitobxonlik madaniyatini shaxsning ma'naviy-axloqiy, intellektual va madaniy ko'nikmalarini o'z ichiga olgan majmua sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, kitob o'qish insonning dunyoqarashi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. G.B.Karimova "Oila va maktabning kitobxonlik madaniyatidagi roli" (2019) nomli tadqiqotida kitobxonlik madaniyati shakllanishida oilaviy muhit va ta'lim muassasalari rolini yuksak baholaydi hamda pedagogik jarayonda innovatsion metodlarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — o'quvchilar orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonini ilmiy asosda o'rganish va mavjud muammolarni aniqlab, samarali yechimlar ishlab chiqishdir. Tadqiqotda quyidagi vazifalar bajarildi:

Kitobxonlik madaniyati tushunchasi va uning mazmunini aniqlash;

Davlat siyosati, ta'lim muassasalari va kutubxonalar faoliyatini tahlil qilish;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kitobxonlikni rivojlantirishdagi o'rni va imkoniyatlarini o'rganish;

Empirik tadqiqotlar orqali kitobxonlik madaniyatining hozirgi holatini baholash;

Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotda sifat va miqdoriy usullar birgalikda qoʻllandi. Quydagi metodlar asosiy tadqiqot vositasi sifatida tanlandi:

-Hujjatlarni oʻrganish (dokumental tahlil): Davlat dasturlari, rasmiy farmonlar, taʼlim siyosatiga oid hujjatlar va ilgʻor tajribalar tahlil qilindi.

-Soʻrovnoma: Oʻquvchilar, oʻqituvchilar va oʻqinuvchilar orasida kitobxonlik bilan bogʻliq munosabatlarni aniqlash uchun standartlashtirilgan savollar asosida soʻrovnoma oʻtkazildi.

-Suhbatlar (intervyu): Mutaxassislar, taʼlim xodimlari va kutubxonachilar bilan chuqur intervyular oʻtkazilib, amaliy muammolar va tajribalar oʻrganildi.

-Kuzatuv: Maktablar va kutubxonalardagi kitobxonlik jarayonlari, mutolaa muhitining real holati oʻrganildi.

-Statistik tahlil: Soʻrovnoma natijalari va boshqa empirik maʼlumotlar statistik vositalar yordamida qayta ishlanib, umumiy tendensiyalar aniqlangan.

Tahlil va natijalar: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oʻz nutqlarida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni kitobga oshno etish, oʻqish madaniyatini rivojlantirish masalalariga alohida eʼtibor qaratmoqda. Xususan, 2017-yil 12-yanvarda Prezident farmoyishi asosida “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish boʻyicha Respublika komissiyasi” tashkil etildi. Ushbu komissiya yoshlar oʻrtasida kitob oʻqish madaniyatini targʻib qilishga qaratilgan strategik dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Quydagi normativ-huquqiy hujjatlar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishdagi asosiy tayanch sanaladi:

-“Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”gi Qonun (2016-yil);

-“Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish” boʻyicha Prezident qarori (2017-yil);

-“2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish milliy dasturi” (Vazirlar Mahkamasining qarori);

-“Ilm-fan va innovatsiya yili”ga oid qarorlar.

Bu hujjatlarda taʼlimda badiiy va ilmiy adabiyotlar oʻrni kuchaytirish, oʻquvchilarda kitobga boʻlgan ijobiy munosabatni shakllantirish, kutubxonalarni raqamlashtirish kabi masalalar yoritilgan.

Boshlangʻich bosqichda oʻquvchilarni kitobga oshno etish taʼlimning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu bosqichda:

-Ilk mutolaa saboqlari, badiiy ertaklar va hikoyalar orqali kitobga qiziqish uygʻotiladi;

-Oʻquvchilar orasida “Kitobxon bola”, “Eng yaxshi oʻquvchi” kabi musobaqalar oʻtkaziladi;

-Sinf kutubxonalari tashkil etilib, muntazam yangilanib boriladi[1].

Oʻrta taʼlim bosqichida esa:

-Oʻquvchilarga murakkabroq badiiy va ilmiy adabiyotlar tavsiya qilinadi;

-Har chorakda “Mutolaa kuni” oʻtkazilib, oʻquvchilar oʻqigan asarlari haqida taqdimot qilishadi;

-Ona tili va adabiyot darslari orqali kitobdagi obrazlar tahlil qilinadi[2].

Oʻqituvchining roli. Zamonaviy pedagogika yondashuvlariga koʻra, oʻqituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi, madaniy yoʻlboshchi sifatida ham faol boʻlishi zarur. Oʻqituvchi oʻquvchilarni kitobga oshno etish uchun:

-Asarlar ustida muhokamalar olib boradi;

-Davriy matbuotdan eng yaxshi maqolalarni tanlab oʻquvchilarga taqdim etadi;

-Kutubxonalar bilan hamkorlikda ekskursiyalar, ijodiy kechalar oʻtkazadi[3].

Kutubxonalarning zamonaviylashuvi. Bugungi kunda respublikada 200 dan ortiq axborot-resurs markazlari va jamoat kutubxonalari faoliyat yuritmoqda. Ularda:

-16 milliondan ortiq kitob fondi mavjud;

-1,2 milliondan ziyod faol oʻquvchilar bor;

-Kutubxona tizimlari raqamlashtirilmoqda (“Yagona elektron kutubxona” loyihasi).

“Kitobxonlik haftaligi” va boshqa tadbirlar.

“Kitobxonlik haftaligi”, “Eng faol kitobxon maktabi”, “Ijodkor oʻquvchi” kabi tadbirlar orqali oʻquvchilarda kitobga qiziqish oshirilmoqda.

Bundan tashqari, Adiblar xiyobonida yozuvchilar bilan uchrashuvlar, kitob yarmarkalari ham yoshlarni adabiyot bilan yaqinlashtiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida kitobxonlik. Zamonaviy texnologiyalar rivoji o'quvchilarning bilim olish uslublarini o'zgartirmoqda. An'anaviy kutubxonalar endilikda elektron kutubxonalar bilan to'ldirilmoqda. Bu esa o'quvchilarga istalgan vaqtda, istalgan joyda kitob o'qish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashabbusi bilan ishga tushirilgan "Yagona elektron kutubxona" loyihasi orqali:

- 100 mingdan ortiq elektron kitoblar;
- 30 mingdan ortiq ilmiy maqolalar;
- 5000 dan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalari foydalanuvchilarga taqdim etilmoqda[4].

Bundan tashqari, Ziyonet portali, kitob.uz, asaxiy.uz kabi platformalarda minglab badiiy va ilmiy adabiyotlar joylashtirilgan bo'lib, ular bepul foydalanish imkonini yaratmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar orqali targ'ibot. Bugungi kunda Telegram, YouTube, TikTok va Instagram kabi platformalar orqali ham kitobxonlikni targ'ib qilish keng tarqalgan. Quyidagilar shular jumlasidandir:

- "Kitobxonlar klubi" — Telegram guruhlar orqali har hafta bir kitob o'qib tahlil qilish;
 - BookTube (YouTube'ning kitobshunoslar segmenti) orqali mashhur blogerlar tomonidan kitob sharhlari;
 - Mobil ilovalar (Readly, Bookmate, Storytel) orqali audio va elektron kitoblarni qulay shaklda o'qish[5].
- Bu platformalar orqali o'quvchilarda kitob o'qish bilan birga tahlil qilish, muhokama qilish, yozuvchi bilan muloqot qilish kabi ko'nikmalar shakllanmoqda.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashabbuslari. Yoshlar ittifoqi tomonidan muntazam o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon", "Kitob men uchun hayot" kabi tanlovlar kitobxonlikni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi. Ularning doirasida:

- Hududiy bosqichlarda minglab o'quvchilar ishtirok etadi;
- G'oliblar faxriy yorliqlar, kitob to'plamlari va stipendiyalar bilan taqdirlanadi;
- Eng faol ishtirokchilar respublika miqyosidagi forumlarga yo'llanma oladi[6].

Shuningdek, adiblar, shoirlar, tarjimonlar bilan uchrashuvlar, ma'naviyat kechalari va adabiy viktorinalar o'tkazilib, yoshlarning kitobga bo'lgan munosabati kuchaytirilmoqda.

NNTlar va tashabbuskor guruhlar. Oxirgi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) va mustaqil tashabbuskor guruhlar tomonidan tashkil etilgan loyihalar soni oshmoqda:

- “Adabiyot karvoni” – viloyat markazlarida adabiy targ'ibot tadbirlari;
- “Kitob o'qi, hayotni sev!” – ijtimoiy tarmoqlarda flashmob;
- “Kutubxonamni o'zim quraman” – maktab o'quvchilari ishtirokida mahallalarda kitob javonlari tashkil etish loyihasi[7].

Bu tashabbuslar davlat muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda va ularning ijtimoiy ta'sir doirasi kengayib bormoqda.

Tahliliy baho: muammolar va imkoniyatlar:

- Dolzarb muammolar. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish yo'lida quyidagi muammolar mavjud:
- Kutubxonalar infratuzilmasining eskirganligi — qishloq maktablarida kutubxonalar yetarlicha boy emas;
- Internetga to'liq kirish imkoniyati yo'qligi — ayrim hududlarda elektron kutubxonalardan foydalanish cheklangan;
- Zamonaviy metodik yondashuvlar yetishmasligi — o'qituvchilarning barcha hududlarda bir xilda tayyorlanmaganligi;
- Kitoblar narxining yuqoriligi — ba'zi oilalar uchun sifatli kitoblar xaridi moliyaviy yuk bo'lishi mumkin.

Imkoniyatlar va istiqbollar. Shu bilan birga, quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- Davlat tomonidan bosma va elektron adabiyotlarni subsidiyalash siyosati kengaymoqda;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kitob tarqatish, o'qitish va targ'ibot vositasiga aylanmoqda;
- Yoshlar orasida ijodiy qiziqish ortmoqda — bu yangi kitoblar yozilishi, bloglar yuritilishi, adabiy tanlovlar tashkil etilishiga turtki bo'lmoqda.

Empirik tadqiqot: So'rovnomalar, intervyular, misollar: O'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari 2024-yil noyabr–dekabr

oylarida Toshkent shahri va Farg'ona viloyatidagi 6 ta umumiy o'rta maktabda 500 nafar o'quvchi ishtirokida anonim so'rovnoma o'tkazildi [8]. Maqsad — o'quvchilar orasida kitobxonlik darajasi, qiziqish yo'nalishlari va kutubxona xizmatlaridan foydalanish holatini o'rganish.

So'rovnoma asosiy natijalari:

Savollar	Ha (%)	Yo'q (%)	Qisman (%)
Haftasiga kamida 1 ta kitob o'qiyman	47	28	25
Kutubxonaga muntazam boraman	32	51	17
Kitob o'qish menga zavq beradi	65	15	20
Ko'proq elektron kitoblar o'qiyman	40	30	30
O'qituvchilar kitob tavsiya qiladi	74	18	8

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda kitob o'qishga moyillik mavjud, ammo infratuzilma, kutubxona sifati va metodik yondashuvlar yetarli emas.

Ota-onalar fikri:

So'rovnomaga jalb qilingan 100 nafar ota-onaning 60 nafari farzandining kitob o'qishga bo'lgan munosabatini "qoniqarli" deb baholagan. 20% ota-ona esa "kitobga mutlaqo qiziqmaydi" deb javob bergan.

-72% ota-onalar: "Uyda kitob javonimiz bor, ammo kam foydalaniladi"

-18%: "Faqat darsliklarni o'qiydi"

-10%: "Farzandim kitob o'qishga qiziqadi, kitob do'konlariga tez-tez olib boraman"[9].

O'qituvchilar bilan intervyular:

10 nafar adabiyot o'qituvchisi bilan individual suhbatlar olib borildi. Ularning aksariyati (80%) quyidagi muammolarni ko'rsatdi:

Dars dasturlarida erkin mutolaa uchun vaqt yetishmasligi;

Ko'plab o'quvchilar "majburiy o'qish" deb tushunishi;

Darsliklar zamonaviy adabiyotlar bilan to'liq boyitilmaganligi[10].

Ularning takliflari:

Har hafta yoki har oy "mutolaa darsi" tashkil etish; Maktablar qoshida "adabiy muhokama klubi" ochish;

O'qituvchilarning o'zlari ham muntazam kitob o'qib, tavsiya berishga tayyor bo'lishi.

Ijobiy misollar (case study)

Misol 1: "Yosh kitobxonlar klubi" — Andijon shahar, 12-maktab

- 7–11-sinflar o'rtasida har oy adiblar asarlari tahlil qilinadi;

- O'quvchilar mualliflar bilan Zoom orqali onlayn uchrashuvlarda ishtirok etadi;

- Faol o'quvchilarga nufuzli adabiyotlar sovg'a qilinadi.

Misol 2: "O'z kutubxonamni yarataman" — Samarqand viloyati

O'quvchilar har biri uyidan 1 ta kitob olib kelib sinf kutubxonasi tashkil qilgan;

Har oy eng faol kitobxon uchun "intellektual faxriy yorliq" topshiriladi;

Barcha kitoblar sinf jurnali orqali ro'yxatga olinadi.

Xulosa va amaliy tavsiyalar. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish — O'zbekiston Respublikasining ma'naviy va intellektual taraqqiyoti yo'lida strategik ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishdir. Maqola davomida o'rganilgan holatlar, rasmiy hujjatlar, empirik tadqiqotlar va ilg'or tajribalar quyidagilarni tasdiqlaydi:

Kitobxonlikni targ'ib qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, bu borada huquqiy va tashkiliy asoslar yaratilgan.

Ta'lim muassasalari, kutubxonalar va yoshlar tashkilotlari kitobxonlikni shakllantirishda faol ishtirok etmoqda, ammo ularga yanada tizimli yondashuv zarur.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kitobxonlikni zamonaviy shaklda targ'ib qilish uchun katta imkoniyatlar ochmoqda.

So'rovnomalar va suhbatlar orqali aniqlangan muammolar (infratuzilma, motivatsiya, o'qituvchining metodik tayyorgarligi va oilaviy omil) tizimli yondashuvni talab qiladi.

Shunday ekan, quyidagi amaliy tavsiyalar asosida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha barqaror tizim yaratish mumkin.

Amaliy tavsiyalar: 1. Ta'lim tizimida islohotlar:

-Har bir umumta'lim maktabida "Kitobxonlik darslari"ni ajratish;

-Boshlang'ich sinflardan boshlab "Mutolaa kunligi"ni yo'lga qo'yish;

-Ona tili va adabiyot faniga tanqidiy fikrlash va adabiy tahlil elementlarini kiritish.

2. Kutubxonalar faoliyatini jonlantirish:

-Har bir maktabga raqamli kutubxona bilan integratsiyalangan zamonaviy kutubxona fondini yaratish;

-“Kutubxonachi o'qituvchi” lavozimini joriy etish — bu lavozimda pedagog ham, axborot menejeri ham faoliyat yuritadi;

-Maktab kutubxonalarini mahalla va ota-onalar bilan hamkorlikda boshqarish tajribasini yo'lga qo'yish.

3. Raqamli va ommaviy madaniyat vositalarini faol qo'llash:

-YouTube, Telegram, TikTok platformalarida kitob sharhlari, o'qish klublari, jonli efirlar orqali kitoblar targ'iboti;

-Mashhur yozuvchilar, bloggerlar va san'atkorlar ishtirokida “Men sevgan kitob” aksiyasi;

-Raqamli testlar, viktorinalar va adabiy viktorinalarni gamifikatsiya asosida joriy qilish.

4. Oila va jamiyatni jalb etish:

-Har oy “Oilaviy mutolaa kuni”ni joriy etish va bu orqali ota-onalarni farzandlar bilan birgalikda o'qishga jalb etish;

-Mahalla doirasida “Kitobli uy” (ya'ni uyda kamida 50 ta kitob bor) loyihasini amalga oshirish;

-Har bir mahallada ixtiyoriy “Ko'cha kutubxonalari”ni yaratish (javonlar, konteynerlar orqali).

5. Monitoring va tahlil tizimini kuchaytirish:

-Har yilgi “Kitobxonlik holati” bo'yicha tahliliy hisobot tayyorlash;

-O'quvchilar o'rtasida kitobxonlik darajasi bo'yicha elektron reyting tizimini joriy qilish;

-Respublikaviy “Kitobxon maktablar” tanlovini o'tkazish va natijalar asosida mukofotlash.

Ma'naviy yuksalish, milliy tafakkur va sog'lom jamiyat asoslari — bu kitobxon, fikrlovchi va

farosatli yosh avlodni shakllantirishdir. Kitob — faqat bilim manbai emas, balki hayot maktabidir. Demak, kitobxonlikni shakllantirish davlat, ta'lim tizimi, oila va jamiyatning mushtarak mas'uliyatidir.

Kelajakda bu boradagi chora-tadbirlar chuqur metodologik yondashuv, zamonaviy texnologik asoslar va sog'lom motivatsiya bilan boyitilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xamedova, N. A., & Ko'palova, Z. Q. Boshlang'ich sinflarda kitobxonlikni ommalashtirish metodikasi. Образование наука и инновационные идеи в мире. 2023. B-102-104.

2. Rahmonova, D. Boshlang'ich sinflarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo'llari. 2021. B-67.

3. Sattorova, S. B., & Madatov, X. A. (2023). Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning asosiy omillari. Educational Research in Universal Sciences, 2(17 SPECIAL), 1017–1025.

4. <https://oz.sputniknews.uz/20221130/talabalar-uchun-yagona-elektron-kutubxona-yaratildi-30358406.html>

5. <https://oz.sputniknews.uz/20221130/talabalar-uchun-yagona-elektron-kutubxona-yaratildi-30358406.html>

6. <https://yoshlarittifoqi.uz/news/yosh-kitobxon-kitob-men-uchun-hayot-tanlovlari>

7. <https://yuz.uz/uz/news/kitob-karvoni>

8. Islomova, N., & Tursunov, J. O'quvchilar orasida kitobxonlik darajasi va kutubxona xizmatlaridan foydalanish holati bo'yicha so'rovnoma natijalari. 2025. O'zbekiston Milliy Universiteti, B-5-18.

9. Islomova, N., & Tursunov, J. O'quvchilar orasida kitobxonlik darajasi va kutubxona xizmatlaridan foydalanish holati bo'yicha so'rovnoma natijalari. 2025. O'zbekiston Milliy Universiteti, B-9-12.

10. Islomova, N., & Tursunov, J. O'quvchilar orasida kitobxonlik darajasi va kutubxona xizmatlaridan foydalanish holati bo'yicha so'rovnoma natijalari. 2025. O'zbekiston Milliy Universiteti, B-12-15.

O'ZBEK XALQ DOSTONLARIDA QAHRAMONLIK OBRAZLARI

*Yakubov Baxtiyor Saydullaevich,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 24-02 guruh
1-kurs magistranti*

HEROIC AND LEGENDARY IMAGES IN UZBEK FOLK EPICS

*Yakubov Bakhtiyar Saidullaevich
Tashkent University of Applied Sciences
Faculty of Uzbek language and literature
graduate 1st year, group 24-02*

ГЕРОИЧЕСКИЕ И МИФИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ БЫЛИНАХ

*Якубов Бахтиер Сайдуллаевич,
магистрант 1-курса 24-02-группы факультета
узбекского языка и литературы Ташкентского
университета прикладных наук*



rahmonova@gmail.ru



Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq dostonlarida qahramonlik timsollari va afsonaviy obrazlarning badiiy talqini tahlil etiladi. "Alpomish", "Kuntug'mish", "Ravshan" kabi dostonlardagi qahramonlar orqali xalqning orzu-umidlari, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik g'oyalari, jasorat va adolatga bo'lgan ishonchi yoritib beriladi. Dostonlardagi obrazlar tarbiyaviy va estetik jihatdan ahamiyatga ega bo'lib, yosh avlod qalbida milliy g'urur va Vatanga muhabbatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xalq dostonlari, qahramonlik, afsonaviy obraz, milliy g'urur, vatanparvarlik, epik an'ana.

Annotation: This article explores the artistic representation of heroic and mythological characters in Uzbek folk epics. Through the analysis of epics such as Alpomish, Kuntugmish, and Ravshan, the study highlights the people's ideals, national values, patriotism, and deep belief in justice and bravery. These figures play an important educational and aesthetic role, fostering a sense of national pride and love for the homeland among the younger generation.

Keywords: folk epics, heroism, mythological characters, national pride, patriotism, epic tradition.

Аннотация: В данной статье рассматривается художественное воплощение героических и мифологических образов в узбекских народных дастанах. Через персонажи таких эпосов, как «Алпомиш», «Кунтугмиш», «Равшан» раскрываются национальные идеалы, мечты народа, идеи патриотизма, веры в справедливость и доблесть. Эти образы имеют большое воспитательное и эстетическое значение, способствуя формированию у молодежи национальной гордости и любви к Родине.

Ключевые слова: народные дастаны, героизм, мифологические образы, национальная гордость, патриотизм, эпическая традиция.

KIRISH. Xalq qahramonligi madh etilgan dostonlar — bu xalqning ma'naviy dunyosi, milliy qadriyatlar, orzu-umidlari va tarixiy xotirasini aks ettiruvchi bebaho adabiy merosdir. Har bir satrida

milliy mafkura, milliy g'oya va qadriyatlarimiz chuqur aks etadi. Ayniqsa, bu dostonlar xalqimizning ozod va farovon hayot kechirish orzusi, mardlik va jasoratga bo'lgan ishonchini

ifoda etuvchi kuchli badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ana shu jihatlari bois, bu dostonlar asrlar davomida avloddan avlodga mehr, ehtiros va yuksak hurmat bilan yetkazib kelinmoqda. Ular faqatgina adabiy yoki og'zaki hikoya emas, balki xalq ruhiyatining tirik timsolidir.

Dostonlar orqali xalq o'zining tarixini, ornomusini, ijtimoiy hayotdagi ideallarini, shuningdek, kelajak avlod oldidagi ma'naviy mas'uliyatini ifodalaydi. Har bir yangi avlod ushbu dostonlarni o'z tafakkuri, davr talablari va estetik qarashlari asosida angelaydi, ularni o'qib yoki tinglab ulg'ayadi, shu tariqa xalq og'zaki ijodi yashab, rivojlanib boradi. Aynan shu holat xalq dostonlarini doimo dolzarb va hayotiy qilib saqlab qoladi.

Bugungi kunda o'z xalqining tili, madaniyati, urf-odatlar va tarixiga mehr va hurmat bilan qaraydigan yoshlarni tarbiyalash har qachongidan muhimdir. Chunki bu qadriyatlar orqali inson o'z Vatani, el-yurti oldida fidoyi, sadoqatli va vatanparvar shaxs sifatida shakllanadi. Komil inson tarbiyasida esa xalq ijodi, ayniqsa, xalq dostonlari g'oyaviy va estetik jihatdan benazir manba hisoblanadi. Asrlar davomida shakllangan milliy an'ana va qadriyatlar yosh avlod tafakkuriga singdirilsa, ular hayotga, mehnatga, jamiyatga va Vatanga mas'uliyat bilan qarashni o'rganadilar.

Xalq og'zaki ijodi, xususan, epik janrdagi asarlar — bu xalq xotirasining asrlar osha yashovchan aksidir. Har bir xalqning qalbida chuqur o'rnatilgan, sevib ardoqlanadigan, afsonaviy pahlavonlari bo'ladi. Ular orqali xalq o'z orzu-umidlarini, ba'zan esa armonlarini ham ifoda etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

“Kuntug'mish” dostoni – o'zbek xalqining epik merosida munosib o'rin egallagan, xalq qahramonligi, mardlik va vatanparvarlik timsoliga aylangan asarlardan biridir. Ushbu doston o'zining mazmun-mohiyati bilan nafaqat qahramonlikni, balki xalqning orzu-umidlari, hayotiy tajribasi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Dostonning bosh qahramoni Kuntug'mish to'ra obrazida

xalqimizning ideal inson haqidagi tasavvuri mujassam holda ifoda etilgan.

Kuntug'mish yoshlik chog'idan boshlab ilm-hunar o'rganishga, kasb-kamolot orttirishga intiladi. Bu jihati bilan u xalq dostonlaridagi an'anaviy pahlavonlardan ajralib turadi. U shunchaki jismoniy kuchga tayanmaydi, balki bilim, tajriba, hunar va jasorat uyg'unligi bilan mukammallikka intiladi. Dastlabki bosqichda u ilm o'rganadi, so'ngra o'n to'rt yoshidan boshlab sipohiylik mashg'ulotlariga kirishadi. Uning qilichbozlik, ovchilik, nayzadastlik kabi fazilatlar xalqimiz tasavvuridagi mukammal yigitning timsolidir.

“Otini Kuntug'mish to'ra der edi. O'n to'rtga kirguncha ilm-hunar, kasb-kamolot hosil qilib, o'n to'rtidan o'tgandan keyin sipohlik ishlariga yuz keltirib, qilich chopmoq, miltiq otmoq, chirishbozlik, ko'pkaritozlik, nayzadastlik, garovbastlik ishlariga ko'shish qilib, qirqta yigitni yoniga olib, goh tovg'a, goh ovga shikor qilib yurar edi.”

Bu tasvirda Kuntug'mish o'z-o'zini mukammallashtirgan, bilimli, hunarmand, jismonan baquvvat, ma'naviy barkamol yetuk shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Kuntug'mish nafaqat individual darajada jasorat ko'rsatadi, balki u jamoani boshqaruvchi, el-yurt himoyasini o'z zimmasiga olgan yetakchi sifatida ham tasvirlanadi. Qirqta yigitni yoniga olib yurishi uning sardorlik fazilatini, doimiy faoliyatda bo'lishi esa har doim tayyor va harakatga intiluvchanligini ko'rsatadi.

“Qirqta yigitni yoniga olib, goh tovg'a, goh ovga shikor qilib yurar edi.”

Bu sahnada u nafaqat jangchi, balki ijtimoiy jihatdan yetakchilik qobiliyatiga ega shaxs sifatida ko'rsatiladi. U yigitlari bilan birga harakat qiladi, ular bilan dardlashadi, ularga yo'l ko'rsatadi.

Kuntug'mishning yana bir muhim fazilati – bu adolatparvarlik va muruvvatdir. Sandiq topilganida u “Men podshoman, hammasi meniki” demaydi. Aksincha, yigitlariga tanlov imkonini berib, tenglik va birodarlik ruhini namoyon etadi.

Bu holat xalq orasida odil hukmdor, bag'rikeng yetakchining qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. U boylikka emas, haqqa tayanadi. Shu orqali u xalqning eng chuqur orzulariga – adolatli jamiyatga bo'lgan intilishiga javob beradi.

Kuntug'mish to'raning yana bir yuksak fazilati – bu sabr-toqat, sadoqat va muhabbatda sobitlikdir. Xolbekani topish yo'lida u noma'lum joylarga boradi, el ichiga kirib, oddiy odamlar hayotini o'rganadi. Bu esa uni ko'zga ko'ringan kuchli jangchi sifatida emas, balki yuragida muhabbat, insoniylik, sadoqat singari yuksak tuyg'ularni mujassam etgan chinakam qahramon sifatida ko'rsatadi.

U faqat kuch bilan emas, balki iroda, sabr, mardlik, vafo bilan harakat qiladi. Shu bois ham u doston davomida nafaqat sevgan yoriga, balki butun xalqiga munosib inson sifatida namoyon bo'ladi.

Ravshan -Hasan va Xon Dalilini o'g'li bir umr sovuq shamol yemagan, ko'chaga chiqmagan yolg'iz o'g'il. "Ravshan" dostonida esa bosh qahramon Ravshan bahodir siymosida xalq orzusidagi adolatparvar, mustabid kuchlarga qarshi kurashuvchi qahramon gavdalanadi. Ravshan bolalikdan boshlab mardlikka, haqiqat uchun kurashishga da'vat etuvchi muhitda voyaga yetadi. U dushmanga qarshi kurashadi, begunohlarni himoya qiladi, yovuz kuchlar bilan mardonavor to'qnashadi. Ravshanning qahramonligi ko'p hollarda individual emas, balki xalq manfaatini ko'zlagan faoliyatda ifodalanadi. Bu uning obrazini ijtimoiy ongda xalq himoyachisi, adolat timsoli sifatida shakllantiradi.¹

Jismoniy va ruhiy kuch - Kuntug'mish ham, Ravshan ham kuchli, jasur, dovyurak obrazlar sifatida tasvirlanadi. Muhabbat va sadoqat - Qahramonlar yuragida muhabbat, sadoqat, halollik kabi insoniy fazilatlar mujassam. Adolat va haqiqat uchun kurash - Ravshan xalq uchun kurashsa, Kuntug'mish o'z shaxsiy dardini yengib, maqsadiga erishadi.

G'urur va vatanparvarlik - Ularning harakatlarida xalq qadriyatlariga sodiqlik, milliy g'urur aks etgan.

XULOSA

O'zbek xalq dostonlari – bu xalqimizning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, orzu-umidlari, qadriyatlari va ma'naviy ideallarining betakror ifodasidir. Ushbu dostonlarda gavdalanadigan qahramonlar – jasur, fidoyi, adolatparvar va vatanparvar insonlar timsolidir. Ayniqsa, "Kuntug'mish" va "Ravshan" kabi dostonlardagi bosh qahramonlar nafaqat jismoniy qudrat, balki yuksak aql-zakovat, sabr, iroda va muhabbat bilan harakat qiluvchi mukammal obrazlar sifatida e'tirof etiladi. Ularning harakatlarida milliy g'urur, xalq qadriyatlariga sadoqat, insoniylik, halollik va haqiqatparastlik ustuvorlik qiladi.

Shu jihatdan, o'zbek xalq dostonlari yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashda, ularning qalbida vatanparvarlik, milliy iftixor, mehnatsevarlik va sadoqat tuyg'ularini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu dostonlar xalq ruhiyatining, tarixiy xotirasining va ma'naviy merosining tirik guvohi sifatida avloddan-avlodga o'tib, o'z qadrini yo'qotmagan bebaho boylikdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.90.
2. Баймырадов А. Туркмен фольклор прозасынинг тарихи эволюцияси. – Ашхабад: Ўлим, 1982. – Б.33.
3. Каскабасов С. Казахская несказочная проза. – Алмата: Наука, 1990. – С.74-110.
4. O'zbek xalq ijodi – Kuntug'mish.

¹ O'zbek xalq ijodi –Kuntug'mish

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI TIZIMIDA INSON KAPITALI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING HUQUQIY ASOSLARI

¹Jumaniyozov Sanjarbek Matrasulovich,
“SANJARBEK MATRASULOVICH” advokatlik byurosi
rahbari

²Kutibayeva Elizaveta,
Qoraqalpoq davlat universiteti professori, yuridik fanlar doktori

LEGAL BASIS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITAL IN THE SYSTEM OF STATE AUTHORITIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

¹Sanjarbek Matrasulovich Jumaniyozov,
Head of the “SANJARBEK MATRASULOVICH” Law Office

²Kutibayeva Elizaveta,
Doctor of Law, Professor, Karakalpak State University
ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И
РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В
СИСТЕМЕ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ
ВЛАСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

¹Джуманиязов Санжарбек Матрасулович,
руководитель адвокатского бюро “SANJARBEK
MATRASULOVICH”

²Кутибаева Елизавета, профессор Каракалпакского
государственного университета, доктор юридических наук

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson kapitali tushunchasi va uning davlat boshqaruvidagi strategik o'rni nazariy asoslar, iqtisodiy qarashlar, boshqaruv mexanizmlari hamda mavjud huquqiy manbalar asosida chuqur va tizimli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, davlat boshqaruvi, huquqiy asos, strategik resurs, malaka, bilim, tajriba, samaradorlik, qonunchilik, boshqaruv tizimi.

Abstract: This article provides a thorough and systematic analysis of the concept of human capital and its strategic role in public administration based on theoretical foundations, economic perspectives, governance mechanisms, and existing legal sources.

Keywords: human capital, public administration, legal basis, strategic resource, qualification, knowledge, experience, efficiency, legislation, governance system.

Аннотация: В данной статье проводится глубокий и системный анализ понятия человеческого капитала и его стратегической роли в государственном управлении на основе теоретических основ, экономических взглядов, механизмов управления и действующих правовых источников.

Ключевые слова: человеческий капитал, государственное управление, правовая база, стратегический ресурс, квалификация, знания, опыт, эффективность, законодательство, система управления.



1

jumaniyozovsanjarbek
3@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-4387-5976>



Ilmiy rahbar:
Kutibayeva Elizaveta,
Qoraqalpoq davlat
universiteti professori,
yuridik fanlar doktori

KIRISH. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida inson kapitali har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida e'tirof etilmoqda. Inson resurslarining sifat jihatdan rivojlanishi, ularning bilim, malaka va salohiyati davlatning institutsional qudratini belgilovchi mezonlardan biriga aylangan. Ayniqsa, davlat hokimiyati organlari tizimida faoliyat yuritayotgan inson resurslarining intellektual, kasbiy va axloqiy tayyorgarligi nafaqat boshqaruv samaradorligiga, balki ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, inson kapitalini rivojlantirish borasida izchil va tizimli islohotlarni amalga oshira boshladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda Prezident tashabbusi bilan davlat boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, inson omiliga asoslangan yondashuvni kengaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish, yosh mutaxassislarni davlat xizmatiga faol jalb etish, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash borasida qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari tizimida inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishiga oid mavjud huquqiy asoslar, amaliy mexanizmlar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Mazkur masala bo'yicha qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlar asosida inson kapitalini boshqarishdagi huquqiy me'yorlarning roli, ularning institutsional mustahkamlanishi hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yoritiladi. Tadqiqotning dolzarbligi esa, inson kapitalining davlat boshqaruvi sifatiga bevosita ta'sir qiluvchi strategik resurs sifatidagi o'rnini chuqur tahlil qilish zaruratidan kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Davlat boshqaruvi tizimida inson kapitalining ahamiyati haqida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bu masala nafaqat tor ma'noda iqtisodiy samaradorlik bilan bog'liq, balki jamiyatning siyosiy barqarorligi, ijtimoiy adolatni ta'minlash, ilg'or texnologik taraqqiyotga moslashish va fuqarolik faolligini oshirishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Turli ilmiy manbalarda inson kapitali tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning barchasi bir jihatda – inson salohiyatini real, strategik va qayta tiklanuvchi

resurs sifatida ko'rsatishda mushtarakdir. Ijtimoiy fanlar, iqtisodiyot, psixologiya va huquqshunoslik kabi sohalarida olib borilgan tadqiqotlar asosida inson kapitalini rivojlantirishning nazariy va amaliy modellari shakllangan.

Jumladan, Nobel mukofoti sovrindori, amerikalik iqtisodchi Gary S. Becker tomonidan ilgari surilgan inson kapitali nazariyasi mazkur tushunchaning iqtisodiy mohiyatini chuqur tahlil qiladi. Becker inson kapitalini — ya'ni insonning bilim, ko'nikma, malaka va salomatlik kabi xususiyatlarini — investitsiya sifatida talqin qiladi va ularning iqtisodiy samarasini statistika asosida asoslab beradi. Bu nazariya, avvalo, inson taraqqiyoti va mamlakat daromadi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ko'rsatishga qaratilgan. Ayni paytda esa, zamonaviy tadqiqotchilar ushbu nazariyani yanada kengroq doirada qo'llashga intilib, inson kapitalini davlat boshqaruvi tizimining barqaror ishlashi va strategik rejalashtirish mexanizmlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida o'rganmoqdalar. Ular inson kapitalining sifati yuqori bo'lsa, davlat xizmatida halollik, innovatsion fikrlash, muammolarni tizimli hal qilish va ijtimoiy mas'uliyat kabi mezonlar samarali shakllanishiga ishonadilar[1].

Xalqaro miqyosda olib borilayotgan tahlillar ham shuni ko'rsatmoqdaki, inson kapitalini rivojlantirish global siyosatning ajralmas qismiga aylangan. Jumladan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) hamda Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan strategik konsepsiyalar, siyosiy boshqaruvda inson omiliga ustuvor o'rin berish, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat bozori, raqamli savodxonlik va teng imkoniyatlarni ta'minlash orqali davlatning institutsional salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan. Bu tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlar va baholash metodikalari bugungi kunda ko'plab davlatlarda, jumladan O'zbekistonda ham, milliy siyosatni shakllantirishda metodik asos sifatida xizmat qilmoqda. Xususan, inson taraqqiyotini baholash indeksleri, ijtimoiy investitsiyalar samaradorligi va kadrlar tayyorlash siyosati bilan bog'liq indikatorlar ko'plab davlat islohotlarining tayanchini tashkil etmoqda.

Demak, davlat boshqaruvi tizimida inson kapitali borasidagi yondashuvlar hozirda multidisiplinar asosda shakllanmoqda. Ular faqat

nazariy emas, balki amaliy mexanizmlar, qonunchilik bazasi, tashkiliy-institutsional tuzilmalarda o'z ifodasini topmoqda. Inson kapitalining taraqqiyoti davlat samaradorligining kalitlaridan biri ekanini anglagan davlatlar ushbu yo'nalishni rivojlantirishda huquqiy asoslarni takomillashtirish, xalqaro standartlarni joriy etish, ilg'or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish orqali izchil siyosat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasida esa so'nggi yillarda qabul qilingan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar zaxirasini shakllantirish va boshqarish tizimi" konsepsiyasi, "Yoshlar va ayollarni davlat boshqaruviga jalb etish" dasturlari bevosita inson kapitalining davlat boshqaruvi tizimidagi rivojlanishiga qaratilgan. Ushbu hujjatlar orqali inson omiliga ustuvorlik berish, innovatsion va intellektual salohiyatni ro'yobga chiqarish, shuningdek, korrupsion omillarni kamaytirish ko'zda tutilgan.

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqotda quyidagi yondashuvlardan foydalanildi:

- Normativ-huquqiy tahlil – amaldagi qonun va qarorlarning inson kapitali rivojiga ta'siri o'rganildi;

- Taqqoslama tahlil – xorijiy davlatlar tajribasi bilan O'zbekiston amaliyoti solishtirildi;

- Tizimli yondashuv – inson kapitali va davlat boshqaruvi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kompleks ko'rib chiqildi;

- Tahliliy-statistik usul – mavjud kadrlar salohiyati, yoshlar ishtiroki va malaka oshirish dasturlari natijalari o'rganildi.

Tadqiqotning empirik asosini so'nggi yillardagi rasmiy ma'lumotlar, qonunchilik hujjatlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda mahalliy ekspertlarning ilmiy maqolalari tashkil etdi. Shu asosda inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiluvchi huquqiy asoslar chuqur o'rganilib, mavjud muammolar va takliflar ishlab chiqildi.

NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida inson kapitalining davlat boshqaruvi tizimidagi ahamiyati ortib borayotganini normativ-huquqiy asoslarning kengayishi, xalqaro indikatorlarga asoslangan baholash tizimlarining joriy etilishi va kadrlar siyosatidagi islohotlar yaqqol tasdiqlaydi. Ushbu

tadqiqot davomida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

Birinchidan, mamlakatda inson kapitali rivojiga qaratilgan qonunchilik bazasi tobora kuchaymoqda. Ayniqsa, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun (2022) orqali davlat xizmatchilarining malaka, intellektual salohiyat va axloqiy mezonlari huquqiy tartibga solinib, ularning faoliyat samaradorligi va xizmat sifati muhim ustuvorlikka aylantirildi[2].

Ikkinchidan, xalqaro indikatorlar asosida olib borilayotgan baholashlar O'zbekistonda inson kapitali borasidagi ijobiy siljishlarni ko'rsatmoqda. Jahon bankining Human Capital Index (HCI) hisobotiga ko'ra, 2020-yil holatiga O'zbekistonning HCI ko'rsatkichi 0.62 ni tashkil etgan bo'lib, bu raqam "agar hozir tug'ilgan bola mavjud sharoitlarda voyaga yetib, ta'lim olsa, uning katta yoshdagi unumdorligi potentsial unumdorlikning atigi 62 foiziga teng bo'ladi" degan ma'noni anglatadi. Bu indeks ichida O'zbekistonning o'rtacha ta'lim davomiyligi 12 yil, o'rta maktabda o'quvchilarning test ballari esa 474 deb baholangan[3].

Uchinchidan, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, inson kapitalini rivojlantirishdagi asosiy muammolar qatorida hududlar o'rtasidagi kadrlar salohiyatidagi tafovut, davlat xizmatiga kirishdagi byurokratik to'siqlar, ayollar va nogironligi bor shaxslarning kam ishtiroki, shuningdek, malaka oshirish tizimining yetarlicha innovatsion emasligi mavjud.

Shunday qilib, O'zbekistonda inson kapitalini davlat boshqaruvi tizimi asosiy resursi sifatida rivojlantirish bo'yicha muhim yutuqlarga erishilmoqda, ammo mavjud muammolarni bartaraf etish uchun yanada kompleks yondashuvlar talab etiladi.

MUHOKAMA

Inson kapitali tushunchasi bugungi kunda zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining eng muhim va strategik resursi sifatida qaralayotgani bejiz emas. Ushbu atama o'z mazmun-mohiyati jihatidan faqatgina iqtisodiy tushuncha bo'lib qolmay, balki u ijtimoiy, huquqiy va boshqaruviy kontekstlarda ham keng qo'llanilmoqda. Tarixiy jihatdan qaraganda, inson kapitali konsepsiyasi XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, ayniqsa AQShlik iqtisodchi Garri Bekker tomonidan asoslab berilgan "inson kapitali nazariyasi" bu yo'nalishda

poydevor vazifasini bajargan. Mazkur nazariyada insonning bilim, ko'nikma, salohiyat, intellektual daraja va hatto sog'lig'i iqtisodiy taraqqiyotning asosiy manbai sifatida qaralgan. Bekker o'z tadqiqotlarida qayd etganidek, inson kapitaliga qaratilgan investitsiyalar — ya'ni ta'limga, sog'liqni saqlashga, professional rivojlanishga, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlariga ajratiladigan resurslar — nafaqat alohida shaxslar uchun, balki butun jamiyat va davlat uchun yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Ushbu yondashuvlar zamonaviy boshqaruv nazariyalarida ham o'z aksini topgan. Xususan, davlat siyosatini shakllantirishda inson kapitaliga sarmoya kiritish davlatning uzoq muddatli barqarorligi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun asosiy omillardan biri sifatida tan olinmoqda. Davlat xizmatchilarining intellektual salohiyati, axloqiy qadriyatlari, kasbiy bilim va ko'nikmalari har qanday boshqaruv tizimining samaradorligini belgilovchi mezon sifatida qaraladi. Shu bois ham, inson kapitali masalasi bugungi global boshqaruv jarayonlarida strategik resurs darajasiga ko'tarilgan. Endilikda bu atama faqat iqtisodiy doiradagi yondashuvlar bilan cheklanmaydi, balki u davlat boshqaruv samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi kompleks tizimiy yondashuvlar doirasida tahlil qilinmoqda.

Mazkur jarayon O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, 2022-yilda qabul qilingan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunda inson kapitali bilan bevosita bog'liq bo'lgan qator me'yorlar belgilab berilgan. Ushbu hujjatda davlat xizmatchilarining bilim darajasi, kasbiy ko'nikmalari, tajribasi va axloqiy sifatleri davlat boshqaruvining natijadorligini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida qayd etilgan. Bu esa, o'z navbatida, inson kapitali tushunchasiga faqat iqtisodiy nuqtai nazardan emas, balki huquqiy pozitsiyadan yondashilayotganining dalilidir. Ya'ni, inson kapitali endilikda huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinayotgan muhim institutga aylangan.[2]

Bundan tashqari, inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishida davlat boshqaruv tizimining ichki tashkiliy strukturasi ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, davlat xizmatida kadrlar tanlovi, xizmatni baholash tizimi, xizmat pillapoyalarida ko'tarilishning ochiq va adolatli mexanizmlari, xizmat jarayonida malaka oshirish va qayta

tayyorlash dasturlari orqali davlat xizmatchilarining professional salohiyati muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bu esa inson kapitalining davlat boshqaruvi tizimida faol rivojlanishini ta'minlaydi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli davlat boshqaruvi sharoitida innovatsion fikrlaydigan, yuqori texnologiyalarni puxta egallagan, tahliliy yondashuvga ega xodimlarga bo'lgan talab sezilarli darajada oshgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda inson kapitalining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi tizimida chuqur va tizimli tarzda shakllanmoqda. Bu holat mavjud nazariy qarashlar va amaliy hujjatlar asosida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda inson kapitali hal qiluvchi rol o'ynayotganini yaqqol tasdiqlaydi. Shu boisdan, inson kapitaliga oid siyosiy, iqtisodiy va huquqiy yondashuvlarni yanada uyg'unlashtirish, bu resursdan samarali foydalanish imkonini beradi.

XULOSA

Inson kapitali bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimining eng muhim resursi, jamiyat taraqqiyotining asosiy drayveri sifatida e'tirof etilmoqda. Ilgari iqtisodiy mazmundagi atama sifatida paydo bo'lgan inson kapitali tushunchasi endilikda davlat siyosati, huquqiy tizim, ijtimoiy rivojlanish strategiyalari va boshqaruv mexanizmlarida ham keng qamrovli asosda talqin qilinmoqda. Insonning bilimi, salohiyati, kasbiy ko'nikmalari, axloqiy qadriyatlari, sog'lig'i va salomatlik holati nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va huquqiy barqarorlikning ham kafolati sifatida ko'rilmogda. Aynan shu jihatlari uni moddiy emas, balki intellektual va ijtimoiy resurs sifatida ajratib turadi. O'zbekiston Respublikasi misolida olib qaralganda, inson kapitali davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganini ko'rish mumkin. Buni Prezidentimizning nutqlari, strategik hujjatlar, davlat dasturlari hamda qonun hujjatlaridan ochiq ravishda kuzatish mumkin. Jumladan, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun kabi normativ-huquqiy asoslar orqali davlat xizmatchilarining bilim, tajriba va axloqiy fazilatlarini baholash, ularning kasbiy rivojlanishini rag'batlantirish tizimlari joriy etilmoqda. Bu holat inson kapitali tushunchasiga huquqiy maqom berilganini, u faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham davlat siyosatining ajralmas qismiga aylanganini anglatadi.

Shuningdek, inson kapitalini shakllantirishda davlat boshqaruvi tizimining institutsional salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, kadrlar siyosati kabi yo'nalishlar orqali inson omiliga qaratilgan investitsiyalar jamiyatda ilg'or fikrli, professional va mas'uliyatli fuqarolar tabaqasini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Zero, har qanday davlat tizimi yoki strategik islohot muvaffaqiyati, birinchi navbatda, uning mazmunini amalga oshiruvchi inson omiliga, ya'ni kuchli inson kapitaliga bog'liq. Shu sababli ham inson kapitalini rivojlantirish masalasi keng qamrovli yondashuvni, uzluksiz ilmiy tahlil va huquqiy takomillashtirishni talab qiladi. Yuqoridagi nazariy asoslar shuni ko'rsatadiki, inson kapitalining davlat boshqaruvi tizimida tutgan o'rni chuqur va ko'p qirrali bo'lib, uning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan mexanizmlarni yaratish va takomillashtirish mamlakat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga egadir. Shu nuqtayi nazardan, inson kapitaliga asoslangan davlat siyosatini yuritish, har bir davlat organining ustuvor vazifasiga aylanishi lozim. Inson salohiyatiga qaratilgan har bir huquqiy va

tashkiliy choralar – kelajakda ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va demokratik rivojlanishning mustahkam poydevoriga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Human Capital. A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Third Edition. <https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/H/bo3684031.html>
2. **O'zbekiston Respublikasining Qonuni.** Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida. Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 2-martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2022-yil 28-mayda ma'qullangan. <https://lex.uz/uz/docs/-6145972>
3. Uzbekistan Human Capital Index 2020. https://databankfiles.worldbank.org/public/ddpext_download/hci/HCI_2pager_UZB.pdf
4. Human Capital. A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Third Edition. <https://www.nber.org/system/files/chapters/c3730/c3730.pdf>
5. <https://www.bibliovault.org/BV.landing.epl?ISBN=9780226041209>



ANTONI SHEFTSBERINING GO‘ZALLIK VA ADOLAT TUSHUNCHALARI O‘RTASIDAGI UYG‘UNLIK


Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna,
“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat
oliy ta’lim tashkiloti professori

HARMONY BETWEEN BEAUTY AND JUSTICE IN ANTHONY SHAFTESBURY’S PHILOSOPHY

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna
Professor at “ALFRAGANUS UNIVERSITY”
non-governmental higher education institution

ГАРМОНИЯ МЕЖДУ КРАСОТОЙ И СПРАВЕДЛИВОСТЬЮ В ФИЛОСОФИИ ЭНТОНИ ШЕФТСБЕРИ

Рузматова Гулноз Мирахраровна,
профессор университета АЛФРАГАНУС



<https://orcid.org/0000-0001-7046-1732>
E-mail:
gulnoz68@mail.ru

Annotatsiya: Antoni Sheftsberi (1671–1713), ingliz faylasufi, o‘zining axloqiy va estetik nazariyalarida go‘zallik va adolat o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni ta’kidlagan. Ushbu annotatsiya Sheftsberining “Axloqiy izlanuvchilar” (“Moralists”) va “Xususiyatlar to‘plami” (“Characteristics of Men, Manners, Opinions, Times”) asarlarida ifodalangan go‘zallik va adolat konsepsiyalarining uyg‘unligini ko‘rib chiqadi. Sheftsberiga ko‘ra, go‘zallik faqat tashqi ko‘rinish bilan cheklanmaydi, balki ichki axloqiy tartib va mutanosiblikni anglatadi, bu esa adolatning asosiy prinsiplari bilan uzviy bog‘liqdir.

Tayanch iboralar: Go‘zallik, adolat, uyg‘unlik, axloq, estetika, tabiiy tartib, ichki hissiyot, mutanosiblik.

Annotation: Anthony Shaftesbury (1671–1713), an English philosopher, emphasized the profound connection between beauty and justice in his moral and aesthetic theories. This annotation examines the harmony between the concepts of beauty and justice as expressed in Shaftesbury’s works *The Moralists* and *Characteristics of Men, Manners, Opinions, Times*. According to Shaftesbury, beauty is not limited to external appearance but signifies an internal moral order and proportion, which is intrinsically linked to the fundamental principles of justice.

Keywords. Beauty, Justice, Harmony, Morality, Aesthetics, Natural Order, Inner Sentiment, Proportion.

Аннотация: Энтони Шефтсбери (1671–1713), английский философ, подчеркивал глубокую связь между красотой и справедливостью в своих моральных и эстетических теориях. Данная аннотация рассматривает гармонию между концепциями красоты и справедливости, выраженными в работах Шефтсбери «Моралисты» и «Характеристики людей, нравов, мнений и времён». Согласно Шефтсбери, красота не ограничивается внешним обликом, а отражает внутренний моральный порядок и пропорциональность, которые неразрывно связаны с основными принципами справедливости.

Ключевые слова: Красота, справедливость, гармония, мораль, эстетика, естественный порядок, внутреннее чувство, пропорциональность.

Kirish. XVII-XVIII asrlar ingliz faylasufi ta’kidlagan. Uning “Axloqiy izlanuvchilar” va Antoni Sheftsberi falsafiy ta’limotida go‘zallik va “Xususiyatlar to‘plami” asarlarida go‘zallik nafaqat adolat tushunchalari o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni tashqi ko‘rinish, balki ichki axloqiy tartib va

muvofiglik sifatida talqin qilinadi. Sheftsberiga ko'ra, adolat bu tartibning ijtimoiy va axloqiy ifodasi bo'lib, u tabiatda mavjud universal mutanosiblikka asoslanadi. Ushbu ishda Sheftsberining go'zallik va adolat konsepsiyalarini bir-biriga uyg'unlashtirgan falsafiy yondashuvi tahlil qilinadi, uning estetik va axloqiy nazariyalarining zamonaviy ahamiyati o'rganiladi. Bu kirish so'zi orqali biz Sheftsberi falsafasining asosiy g'oyalarini ko'rib chiqib, ularning go'zallik va adolat o'rtasidagi munosabatlarni tushunishdagi o'rnini muhokama qilamiz.

Metodologiya. Ishda ilmiy bilishning xolislik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullarga tayanildi.

Adabiyotlar sharhi. Antoni Sheftsberi, XVIII asr ingliz falsafasining muhim namoyandalardan biri sifatida, go'zallik va adolat tushunchalari o'rtasidagi uyg'unlikni o'zining asosiy asarlarida ko'rib chiqadi. Uning "Xususiyatlar to'plami" asarlarida go'zallik va adolat konsepsiyalari tabiatdagi universal tartib va mutanosiblikka asoslanib tahlil qilinadi. Asarning "Axloqiy izlanuvchilar" bo'limida Sheftsberi go'zallikni faqat tashqi ko'rinish emas, balki ichki axloqiy muvofiglik sifatida talqin qilib, uni adolat bilan bog'laydi. Uning falsafasida go'zallik tabiiy va estetik tartibni, adolat esa ijtimoiy va axloqiy tartibni ifoda etadi. Bu asar mavzuni tushunish uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi, chunki u Sheftsberining estetik va axloqiy nazariyalarini batafsil bayon etadi.

Sheftsberining go'zallik va adolat tushunchalarini tahlil qiluvchi adabiyotlar ham mavzuni chuqurroq o'rganishda muhim o'rin tutadi. Masalan, Klayn (Klein, 1994) o'zining "Shaftesbury and the Culture of Politeness" kitobida [1] Sheftsberining falsafasini XVIII asrdagi madaniy va axloqiy muhokamalar kontekstida ko'rib chiqadi. U Sheftsberining go'zallik va adolatni uyg'unlashtirishda ichki axloqiy hissiyot konsepsiyasiga tayanishini ta'kidlaydi. Klaynga ko'ra, Sheftsberi go'zallikni tabiiy mutanosiblik sifatida ko'rsa, adolatni ushbu mutanosiblikning ijtimoiy ifodasi sifatida talqin qiladi.

Bundan tashqari, Darvoll o'zining "The British Moralists and the Internal 'Ought'" [2] asarlarida Sheftsberining axloqiy nazariyasini tahlil qilib, uning adolat konsepsiyasi insonning tabiiy

axloqiy idrokiga asoslanishini ko'rsatadi. Darvoll Sheftsberining go'zallik va adolat o'rtasidagi uyg'unlikni tabiatdagi universal tartib bilan bog'lashini muhim deb hisoblaydi. Uning tadqiqoti Sheftsberi falsafasining zamonaviy axloqiy estetikaga ta'sirini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega.

Yana bir muhim manba sifatida Aronson o'zining "Shaftesbury on Aesthetic and Moral Order" [3] maqolasida Sheftsberining estetik nazariyasini tahlil qilib, go'zallikning axloqiy tartib bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Aronsonga ko'ra, Sheftsberi uchun go'zallik nafaqat vizual zavq, balki axloqiy muvofiglikning ramzidir, bu esa adolat bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanadi.

Sheftsberi falsafasining tarixiy kontekstini o'rganishda Rivers o'zining "Reason, Grace, and Sentiment" [4] kitobida muhim yondashuvni taqdim etadi. U Sheftsberining go'zallik va adolat tushunchalarini gumanistik va ratsional tamoyillarga asoslaganligini ta'kidlab, uning falsafasining XVII-XVIII asrlardagi estetik va axloqiy muhokamalarga ta'sirini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Sheftsberining asarlari va unga oid tadqiqotlar go'zallik va adolat o'rtasidagi uyg'unlikni falsafiy, estetik va axloqiy nuqtai nazardan o'rganish uchun boy manbadir. Ushbu adabiyotlar Sheftsberining ta'limotining murakkabligini va uning zamonaviy falsafadagi ahamiyatini ochib beradi. Tadqiqotda ushbu manbalar asosida Sheftsberining go'zallik va adolat konsepsiyalarining uyg'unligi chuqur tahlil qilinadi.

Natija va tahlillar. Anthoni Sheftsberi (1671–1713) Britaniya ma'rifatparvarlik falsafasida muhim shaxs bo'lib, uning axloqiy va estetik qarashlari axloqiy sezgi tushunchasi orqali go'zallik va adolatni bir-biriga bog'laydi. Antoni Sheftsberi axloqshunos yozuvchi. Mashhur siyosiy arbobning o'g'li. Lokkning tarbiyalanuvchisi hisoblanadi. "Zamona, fikr, axloq va odamlar xarakteristikasi" (1711) – nomli asari unga mashhurlik olib keldi. Sheftsberining ta'limoti Xatcheson, Volter, Didro, Franklin, Gerder va Getega kuchli ta'sir etadi.

Mutafakkir go'zallik va ezgulik yagonadir tamoyiliga amal qiladi. Go'zallikning xususiyati mutanosiblik, uyg'unlik va mezoniylikdadir; uning manbai ham shunda. Insondagi xudbin-egoistik intilish va affektlarni-ehtiroslarni inkor etmaydi. Ularni cheksiz rivojlantirilmasa insonga yomonlik keltirmaydi. Xudbin-egoistik affektlar tabiiy

affektlar bilan muvozanatlashadi. Tabiiy affektlar altruistik-bemanfaat xususiyatga ega. Bu axloqiy hayotning asosini tashkil etadi.

Notabiiy affektlar – jahl, hiylakorlik, qasoskorlik va h.k.lar – bular inson tabiatiga xos emas. “Go‘zallik va ezgulikdan mahrum bo‘lgan inson qalbi cho‘li-biyobonga o‘xshaydi. Bunday inson yolg‘izlikka mahkumdur”. Inson jamiyatda yashash uchun yaratilgan. Qalb mutanosibligi – individ o‘zining altruistik (beg‘araz, bemanfaat) affektlarini yetarli darajada tarbiyalaganligida namoyon bo‘ladi. Egoistik, g‘ayritabiiy odatlardan xoli bo‘lishi kerak. Inson tabiatining tabiiy holatida, ular “axloqiy hissiyotni” tashkil qiladi.

“Axloqiy hissiyot” – axloqiy ongning yuksak shaklidir. Bu axloqiy baholash va qabul qilishda namoyon bo‘ladi. Shu fikri bilan Sheftsberi Kembridj universiteti platoniklarining ratsional axloqiga qarshi turadi va Lokkning shogirdi sifatida ta‘limotini davom ettiradi. Lekin Lokk bilan “inson axloqiy mavjudot” sifatidagi qarashlarida fikri bir bo‘lmaydi.

Lokk tug‘ma axloqiy va amaliy tamoyillarni inkor qiladi. Sheftsberi bo‘yicha, ezgulik inson tabiatida yotadi, uning mohiyatiga xos. Lokk axloq normalarining o‘zgaruvchanligi va nisbiyligini tan oladi. Sheftsberi axloq mustaqil xarakterga ega, tashqi ta’sirdan tashqari, lekin doimiy mashg‘ulotlar orqali ezgulik rivojlanishi ham mumkin.

Sheftsberi axloqqa utilitar (foydali, manfaatli, nafl) yondashuvni tanqid qiladi. Ezgulikka ega bo‘lgan inson baxtli insondir. Ezgulik ijtimoiy xarakterga ega. Altruizm va evdemonizmni solishtirib, ezgulik va baxtni aynanlashtiradi.

Ezgulikka ega bo‘lish shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni kelishtiradi. Ezgulikda yakka shaxs baxti va ijtimoiy yaxshilik birlashgan. Faqat ezgulik insonga qoniqish olib keladi, axloqiy hayotining mazmunini tashkil qiladi.

Axloqiylik xudoga e‘tiqod qilishga bog‘liq emas, dindan kelib chiqmaydi, aksincha, dinning o‘zi axloqiy ong tomonidan muhokama qilinishi zarur. Axloq va din bir-biriga bog‘liq emas. Din axloqning asosi bo‘la olmaydi, ko‘pincha din axloqqa zarar keltiradi; salbiy axloq xislatlariga ega bo‘lgan shaxs xudoga sajda qilayotganda namoyon bo‘lishi mumkin. Lekin boshqa tomondan xudoga e‘tiqod axloqiy sifatlarni yuksaltirishi mumkin. Sheftsberi – dinni mutaassibligini, fanatizmini,

boshqa ta‘limotlarga yopiqligini qoralaydi. Qo‘rquv, manfaat tufayli xudoga sig‘inuvchilar axloqiy inson bo‘la olmaydi.

Sheftsberining hurfiylik haqidagi g‘oyalari deistik xarakterga ega. Uning diqqat markazida inson ichki ma‘naviy dunyosi bo‘ladi. Xudo butun go‘zallikning mohiyati, sababi va asoschisidir. Xudoni daho rassomga va buyuk ijodkorga o‘xshatadi, uning ijodining mahsuli mutanosib-tartibli, uyg‘un koinotdir.

Tashqi go‘zallikka inson ichki go‘zalligi mos keladi. Go‘zallikning ana shu turi insonga cheksiz lazzat bag‘ishlaydi. Xudo axloqiy ideal sifatida namoyon bo‘ladi. Lekin – bu xudo xristianlikning diniy xudosi emas. U aqlli, axloqiy asosdir.

Sheftsberi go‘zallikni nafaqat tashqi obyektlar yoki san‘at asarlaridagi estetik tajriba sifatida, balki axloqiy xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlardagi uyg‘unlik sifatida talqin qiladi. Adolat esa insonlar o‘rtasidagi tenglik va xayrixohlikni ta‘minlovchi axloqiy tamoyil sifatida go‘zallikning ijtimoiy ko‘rinishi sifatida qaraladi. Sheftsberi o‘zining “Zamona, fikr, axloq va odamlar xarakteristikasi” asarida shunday yozadi: “Go‘zallik va yaxshilik bir-biriga o‘xshashdir; chunki go‘zallik tartib va uyg‘unlikdan iborat bo‘lsa, yaxshilik ham shundaydir” [6, 267]. Bunda Sheftsberi go‘zallik va axloqiy yaxshilik (adolatning asosi) o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’kidlaydi. Uning nazarida, go‘zallik tartib va muvozanat orqali namoyon bo‘lsa, adolat ham ijtimoiy munosabatlarda shunday tartibni ta‘minlaydi.

Sheftsberining axloqiy sezgi tushunchasi go‘zallik va adolatni birlashtiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Bu sezgi insonni tabiiy ravishda yaxshilik, adolat va go‘zallikka yo‘naltiradi. U shunday deb yozadi: “Insonning ichki sezgisi uni nafaqat o‘z manfaatlariga, balki umumiy yaxshilikka xizmat qiladigan xatti-harakatlarga undaydi, bu esa tabiiy go‘zallik va uyg‘unlikni keltirib chiqaradi”. [5, 280] Bunda Sheftsberi axloqiy sezgi orqali insonning adolatli xatti-harakatlar orqali ijtimoiy uyg‘unlikka hissa qo‘shishini ta’kidlaydi. Go‘zallik esa bu uyg‘unlikning estetik ifodasi sifatida ko‘riladi.

Sheftsberi insonni ijtimoiy mavjudot sifatida ko‘radi va adolatni ijtimoiy munosabatlardagi tartib va muvozanat sifatida talqin qiladi. U shunday yozadi: “Jamiyatning farovonligi uning a‘zolarining

o'zaro xayrixohligiga bog'liq; bu xayrixohlik esa adolat va go'zallikning birlashuvi sifatida namoyon bo'ladi" [6, 55]. Bu yerda adolat jamiyatdagi o'zaro hurmat va hamkorlik orqali go'zallikni yaratishi ta'kidlanadi. Sheftsberi uchun adolatli jamiyat go'zal jamiyatdir, chunki unda insonlar o'zaro hamjihatlikda yashaydi. Bu hamjihatlik estetik tajriba sifatida idrok etiladi, chunki u tartib va muvozanatga asoslanadi.

Sheftsberi go'zallik va adolat o'rtasidagi uyg'unlikni estetika va axloqning uzviy bog'liqligi sifatida ko'radi. U yozadi: "Go'zal bo'lgan narsa yaxshi bo'ladi, chunki go'zallik inson tabiatining eng oliy uyg'unligini aks ettiradi" [7, 142]. Bu iqtibosda Sheftsberi go'zallikni axloqiy yaxshilikning (adolatning) ko'rinishi sifatida talqin qiladi. Adolatli xatti-harakatlar, masalan, boshqalarga yordam berish yoki tenglikni ta'minlash, estetik jihatdan go'zal sanaladi, chunki u jamiyatda uyg'unlikni yaratadi.

Sheftsberining go'zallik va adolat o'rtasidagi uyg'unlik haqidagi qarashlari utilitar falsafaga (masalan, Jeremi Bentam yoki Tomas Gobbs) qarshi muqobil sifatida muhim hisoblanadi. U axloqni foyda yoki shaxsiy manfaatlar doirasidan tashqariga olib chiqib, uni estetik va ijtimoiy uyg'unlik bilan bog'laydi. Bu qarashlar Frensis Xatchison va Devid Yum kabi keyingi faylasuflarga ta'sir ko'rsatdi. Biroq, uning axloqiy sezgi tushunchasi subyektiv deb tanqid qilingan, chunki u adolat va go'zallikni aniq mezonlar bilan o'lchashni qiyinlashtiradi.

Xulosa. Anthoni Sheftsberi go'zallik va adolatni insonning ichki axloqiy sezgisi orqali uyg'unlashtiradi. Uning falsafasida go'zallik axloqiy yaxshilik va ijtimoiy uyg'unlikning estetik ifodasi sifatida talqin qilinadi, adolat esa bu uyg'unlikning ijtimoiy shakli sifatida ko'riladi. Sheftsberi uchun bu ikki tushuncha insonning tabiiy ravishda yaxshilik va tartibga intilishi orqali birbirini to'ldiradi. Uning qarashlari ma'rifatparvarlik davri falsafasida muhim o'rin tutib, axloq va estetika o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi zamonaviy munozaralarga zamin yaratdi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Klein L. Shaftesbury and the Culture of Politeness. – Cambridge: University Press, 1994.

2. Darwall S. The British Moralists and the Internal 'Ought'. – Cambridge: University Press, 1995.

3. Aronson C. Shaftesbury on Aesthetic and Moral Order. *Journal of the History of Philosophy**, 21(3), 345-362. 1983.

4. Rivers I. Reason, Grace, and Sentiment: A Study of the Language of Religion and Ethics in England, 1660–1780*. Cambridge University Press. 2000.

5. Shaftesbury A. Characteristics of Men, Manners, Opinions, Times. – Vol. I. - London: Liberty Fund, 2001.

6. Shaftesbury A. Characteristics of Men, Manners, Opinions, Times. – Vol. II. - London: Liberty Fund, 2001.

7. Shaftesbury A. Characteristics of Men, Manners, Opinions, Times. – Vol. III. - London: Liberty Fund, 2001.

8. Ruzmatova G. Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nietzsche and Jalaliddin Rumi // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, Vol. 24, Issue 04, 2020. ISSN: 1475-7192. – P. 3215-3227.

9. Ruzmatova, G. (2024). Maurice Merleau-Ponty's Philosophy of "Phenomenological" Man // *FILOLOGIYA VA MADANIYAT MASALALARI* (ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami) № 3. ISBN 978-605-9554-90-9/2024/B.138-156./www.atam.karabuk.edu.tr

10. Ruzmatova, G.M. (2024). Comparative studies of the ideas of rationality in the philosophical thought of early modern Europe / *European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA)*/Available Online at: <https://www.scholarzest.com> / Vol. 5 No.02, February 2024/ISSN: 2660-5589/ – B. 7-10.

11. Ruzmatova, G.M. (2024). Rene Dekart va Blez Paskal ta'limotlarida ratsional g'oyalar komparativistikasi // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal*. – 2024-yil, yanvar. 1-son. – B. 689-694. / 74-91 xalqaro daraja ISSN: 2992-8982 / Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>. / OAK, ISNN, Google Scholar, DOI, ID ORCID, OPENACCESS, Bielefeld Academic Engine, RESEARCHBIB-Academic Resoukce Index, Open AIRE

12. Ruzmatova, G.M. (2024). Problem of man in writings of albert Camus // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* / 4(02), Feb., 2024. 581-592 / (E)ISSN: 2181-1784. SJIF 2024 = 7.404 / ASI Factor = 1.7 / www.oriens.uz Ruzmatova G. Eastern melodies in the text of Plato // *International Journal of Recent Technology and Engineering*. Vol. 8, Issue-2S6, July, (2019). –P. 444-448. IJRTE. ISSN: 2277-3878.

13. Ruzmatova G. va boshqalar. Sharq va G'arb falsafasi tarixi. Darslik. 2-jild. –Toshkent: Tafakkur, 2023. - 572 bet.

MO'G'UL BOSQINI DAVRI XORAZM SHAHARLARI TAQDIRI: YOZMA MANBALAR TAHLILI

*Shomurodov Otajon Hamidovich, Urganch Innovatsion universiteti
tarix fani o'qituvchisi*

THE FATE OF KHOREZM CITIES DURING THE MONGOLS' CONQUEST: ANALYSIS OF WRITTEN SOURCES

*Shomurodov Otajon Hamidovich, History teacher at Urgench
Innovation University*

СУДЬБА ГОРОДОВ ХОРЕЗМА ВО ВРЕМЯ МОНГОЛЬСКОГО ЗАВОЕВАНИЯ: АНАЛИЗ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКОВ

*Шомуродов Отажон Хамидович, преподаватель истории
Ургенчского инновационного университета*

Annotatsiya: Xorazmshoh – anushteginiylar davlati o'z davrida dunyoning eng yirik davlatlaridan biri bo'lishi bilan birga, shaharsozlik madaniyati yuksak taraqqiy qilgan o'lkalardan biri ham edi. Birgina Movarounnahrda 450 taga yaqin shahar va qal'alar mavjud bo'lib, ular davlatning iqtisodiy salohiyatini ham ko'rsatib turardi. Ammo, nima sababdan ko'chmanchi dasht mo'g'ul qabilalari qo'shinlari tomonidan bu shaharlarning osonlikcha egallanishi masalasi haligacha tarixchilar ichida bahsli va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, ushbu maqolada, bu mavzu bo'yicha haligacha mavjud muammoli vaziyatlar, bahsli masalalar va qarashlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Muhammad Xorazmshoh, Chingizxon, O'tror, Buxoro, Samarqand, Xo'jand, Urganch, an-Nasaviy, Juvayniy, Ibn al-Asir, Rashididdin, Juzjoni.

Abstract: In addition to the fact that Khwarazmshah – Anushteginid state was one of the largest countries in the world in its time, urban planning culture was one of the highly progressive countries. In Movarounnahr alone, there were about 450 cities and castles, which also showed the economic potential of the state. However, for some reason, the question of the easy occupation of these cities by the troops of nomadic steppe Mongol tribes is still one of the controversial and pressing problems within historians. In this respect, this article will analyze the problem situations, controversial issues and views that still exist on this topic.

Key words: Muhammad Khwarazmshah, Genghis Khan, O'trar, Bukhara, Samarkand, Khojand, Urganch, an-Nasawi, Juwayniy, Ibn al-Asir, Rashididdin, Juzjani.

Аннотация: Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов было не только одним из крупнейших государств мира своего времени, но и одной из стран с высокоразвитой городской культурой. Только в Мавераннахре насчитывалось около 450 городов и крепостей, что также свидетельствовало об экономическом потенциале государства. Однако вопрос о причинах столь лёгкого захвата этих городов армиями степных кочевых монгольских племён до сих пор остаётся одной из дискуссионных и актуальных проблем среди историков. В связи с этим в данной статье анализируются проблемные ситуации, спорные вопросы и взгляды, существующие по этой теме.

Ключевые слова: Мухаммад Хорезмшах, Чингисхан, Уtrar, Бухара, Самарканд, Худжанд, Ургенч, ан-Насави, Джувейни, Ибн аль-Асир, Рашидиддин, Джузджани.



otojonshomurotov29@g
mail.com

<https://orcid.org/0009-0004-5883-5999>



KIRISH

(INTRODUCTION).

Mo'g'ullarning Xorazm – anushteginiylar davlati hududlariga bostirib kirib, yirik va aholisi ko'p bo'lgan shaharlarni osonlik bilan egallashi masalasi bahstlab masalalardan biri hisoblanadi. Chunki manbalarda bu voqealar turlicha berilgan hamda mazkur yozma manbalar mualliflarining birortasi ham shaharlarning mudofaa tizimlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni batafsil keltirmaganlar. Xorazmshohlar – Anushteginiylar davlatining mo'g'ullarga qarshi kurashida shaharlar mudofaasi juda muhim o'rin tutgan albatta. Ammo, ichki siyosiy va harbiy inqiroziy vaziyat, Muhammad xorazmshoh o'zining juda katta qo'shiniga ishonmasligi oqibatida jami 450 taga yaqin shahar va qal'alardan iborat bo'lmish davlatda, shahar va qal'alarni o'z-o'zini himoya qilsin deb, shaharlarni o'z ixtiyoriga tashlab qo'ydi. Xorazmshohning bu rejasi strategik jihatdan xato reja ham emasdi, ammo, birinchidan mo'g'ullarga munosib baho berilmaganligi oqibatida, ya'ni, davlat yuqori harbiy doiralarida mo'g'ullarning dasht ko'chmanchi chorvador aholi bo'lganligi uchun ular shaharlarni qamal qilish va egallash ko'nikmalariga umuman ega emaslar, degan xato xulosaga kelinganligi natijasida mo'g'ullar mustahkam mudofaa tizimiga ega bo'lgan Xorazm shaharlarini ancha oson va tez muddatda egallab borib, xorazmshohlar davlati taqdirini hal qildilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Yozma manbalarda Xorazmshoh – Anushteginiylar davlati shaharlari va ularning mudofaa tizimi haqida batafsil ma'lumotlar uchramaydi. Faqat bu shaharlarning aholisi soni va qisman mo'g'ullar yurishlari davridagi mudofaa jarayonlari haqida qisman ma'lumotlar keltirilib o'tilgan xolos. Arxeologik tadqiqotlar natijalari ham mo'g'ullar bosqini davri Xorazm davlati shaharlarining ahvoli haqida yetarlicha ma'lumotlar bera olmaydi. Zero, bu tadqiqotlar davomida Xorazm davlati shaharlarining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashlarida shaharlar tuzilishi, mudofaa tizimi qanday bo'lganligi masalasini ochib berish maqsadi qo'yilmagan. Hatto so'nggi arxeologik tadqiqotlarda ham bu masala e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Bu masala qisman o'z aksini topgan manbalar jumlasiga an-Nasaviy, Juvayniy, Ibn al-Asir, Rashiddin va Juzjoniy kabi asosiy manbalar kiradi. Ammo, eng avvalo, mazkur manbalarni

chuqur ilmiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda bu masala yuzasidan qilingan alohida ilmiy tadqiqotlar deyarli yo'q. Zamonaviy tadqiqotchilarning ko'pchiligi xorazmshohlar mavzusi bilan bog'liq voqea va jarayonlarda eslatilgan shaharlar xususidagi yuzaki ma'lumotlarni keltirib o'tish bilan cheklanadilar xolos. Mazkur mavzu yuzasidan hozircha mo'g'ul bosqini davri xorazmshoh – anushteginiylar davlati shaharlari tuzilishi, hajmi va eng asosiysi ularning mo'g'ullar bosqini davridagi mudofaa tizimi qanday ahamiyatga ega bo'lganligi masalasiga qisman to'xtalib o'tgan tadqiqotchilardan eng muhimlari V.V.Bartold, S.P.Tolstov, N.N. Vakturskaya, O.A.Vishnevskaya, Ye.E. Nerazik va Z. Buniyodovlar tadqiqotlari hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Chingizxon 1219-yili anchadan beri puxta tayyorlangan 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan Xorazmshoh-anushteginiylar davlati ustiga harbiy yurishni boshladi. Chegaradan o'tgan Chingizxon o'z qo'shinini O'tror shahri yaqinida to'plab uni 4 qismga bo'ldi.

Chig'atoy va O'qtoy qo'shinining bir qismi bilan O'troni qamal etib, uni egallash uchun qoldirildi. Ikkinchi qism esa Jo'chi boshchiligidagi Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent, Borchig'lig'kent, Sig'noq shaharlarni bosib olish uchun yuborildi. Uchinchi qismdagi besh ming chog'li qo'shinga Uloq no'yon va Suketu cherbi bosh bo'lib, O'trordan janubga yurish, Xo'jand va Banokatni egallash vazifasi topshirildi. Chingizxon o'zi bosh bo'lgan to'rtinchi, asosiy qism (uning tarkibida taniqli sarkardalar Jebe va Subutoy ham bor edi) Zarafshon vohasi tomon - Buxoro hamda Samarqandni istilo etish uchun yo'l oldi [5,136; 8,198].

Mo'g'ul bosqini boshlangach Muhammad Xorazmshoh mo'g'ullarga zarba berish xususida Urganchda (Gurganj) harbiy kengash chaqiradi. Unda ko'zga ko'ringan davlat arboblari, aslzodalar, harbiy sarkardalar ishtirok etadilar. Mashhur fikhshunos hamda davlat arbobi Shahobiddin al-Xivaqiy bor qo'shinni Sirdaryo bo'yiga to'plab, uzoq yo'l bosib kelayotgan mo'g'ul qo'shiniga

chegara bo'yidayoq hal qiluvchi zarba berish to'g'risida harbiy jihatdan haq fikrni bildirdi. Shahzoda Jaloliddin taklifiga ko'ra esa, dushmani Movarounnahrda kiritib, so'ngra mahalliy hududni dushmanga nisbatan yaxshi bilganlikdan foydalanib, uni yo'q qilish ko'zda tutilgan edi. Lekin, Xorazmshoh o'z sarkardalariga, ayniqsa qipchoq harbiylariga ishonchsizlik bilan qarar, katta qo'shinni bir joyga to'plashdan, qo'shin yig'ilganda esa o'zini taxtdan ag'darib tashlashlari mumkin ekanligidan cho'chir edi. Shuning uchun sulton va uning onasi tazyiqi bilan kengash mudofaa usuliga o'tishni ma'qul deb topdi. Jami 450 taga yaqin shahar (qal'a) va viloyatlardan iborat bo'lmish davlatda qo'shin katta jangga kirib, vatan sharafiga himoya qilish o'rniga shahar va qal'alarga bo'lib tashlandi [1,439].

Chegaradagi O'tror mustahkam shahar qal'a bo'lib, mo'g'ullarga olti oy davomida mardonavor qarshilik ko'rsatdi. O'tror hokimi Inalxon (G'oyirxon) qo'lida 20.000 chog'li suvoriy bo'lib, xorazmshoh unga yordam tariqasida 50.000 kishilik "lashkari birun"ni ham yuborgan edi.

Qamal davomida qo'shimcha tarzda yana Qoracha Hojib boshchiligidagi 10.000 kishilik otryad ham yuborildi. O'tror shahri manbalarda keltirilishicha yirik shahar bo'lgan. Shundan kelib chiqib uning mudofaa tizimi ham o'z davri uchun mustahkam shahar bo'lganligi aniq. Bejiz bu shahar mo'g'ullarga 6 oy qarshilik ko'rsatmagan. Urganchni hisobga olmaganda mo'g'ullar hujum qilgan hududlarda birorta shahar bunchalik ko'p qarshilik ko'rsatmagan. Shahar faqat ayrim zotlarning xiyonatkorligi tufayligina egallanib, O'tror shahri o'z jasorati evaziga mo'g'ullar tomonidan butkul buzib tashlangan [9,58-60; 5,136-138; 8,198-199].

Buxoro yo'nalishida ketayotgan Chingizxonga esa Zarnuq (Zerinh) va Nur qal'alari jangsiz taslim bo'ldilar [5,204-205]. Bu shaharlar kichik shaharlar hisoblangan.

Chingizxon 1220-yilning fevral oyi boshlarida (ba'zi adabiyotlarda 7 fevralda deyiladi), Sharqdagi islom dini gumbazi, "butun musulmon shaharlari onasi" nomini olgan "islomiy ilmlar markazi" Buxoro yaqinida paydo bo'ldi. Buxoro shahri ham aholisi ko'p sonli yirik va mustahkam shahar bo'lgan. Uch kunlik shahar qamali boshlandi. Buxoroda bu paytda 12.000 kishilik shahar garnizoni va 20.000 kishilik "lashkari birun"

mavjud edi. Lashkarlarga nufuzli sarkardalar Ixtiyoriddin Qo'shlu, Inanchxon O'g'ulhojib, Hamid Pura Qoraxitoy, Suyunchxon, mo'g'ullardan qochib o'tgan uyg'ur sarkardasi Ko'kxon (Go'rxon) bosh edilar. Avval boshida qo'shin mo'g'ullarga zarba berishga muvaffaq bo'ldi. Keyin esa mo'g'ullarning qo'li ustun kela boshladi. Manbalar ma'lumotlari tahlil qilinadigan bo'lsa, shahar mudofaa tizimi yetarli darajada mustahkam bo'lgan. Ammo, yuqoridagi sarkardalarning muvaffaqiyatsizliklari shahar aholisi ichida shaharni ixtiyoriy mo'g'ullarga topshirish rejasi ustunlik qilib, buxoroliklar Chingizxonga elchi yuboradilar. Xullas, Buxoro shahri juda katta mudofaa salohiyatiga ega bo'lsa-da, shahar aholisi bir-biri bilan kelisha olmaydigan ikki guruhga bo'lingach ixtiyoriy taslim bo'lgan. Ammo, aksariyat shaharliklar o'z qarshiliklarini davom ettirdilar, tunda esa yashirincha askarlarga yordam berib, mo'g'ul askarlariga qarshi hujumlar uyushtirdilar. Shu bilan birga shaharga yordam uchun yuborilgan qang'li-qipchoqlar guruhi shahar arkida yana 12 kun qarshilik ko'rsatdilar. Buxoroliklar qarshiligi mo'g'ullarni qattiq g'azablantirdi.

1220-yili 10-fevral kuni mo'g'ullar Buxoroga kirib keladilar. Chingizxon bunga javoban shaharni yoqib yuborishga buyruq berdi. Aholining katta qismi Samarqand qamaliga, "jonli qalqon" vazifasini bajarish uchun yuborildi. Mo'g'ullar 30000 chog'li qang'li – qipchoqlarni qirib tashladilar. Tez orada Qunduz, Balx va boshqa hududlardagi hokim, amaldorlarning ko'pchiligi hech ikkilanmay mo'g'ullar tomoniga o'ta boshladilar [9,65-66; 6, 361; 5,150-153; 8,205-206].

Buxorodan so'ng Chingizxon Samarqand shahri tomon yo'l oldi. 1220-yil mart oyi boshida u Samarqandga yetib kelib, yon-atrofdagi qishloqlarni yer bilan yakson qildi. Chingizxon Samarqandni egallashga alohida ahamiyat berdi. Samarqandning Movarounnahr uchun, xorazmshohlar davlati uchun ahamiyati beqiyos ekanligini Chingizxon yaxshi bilar edi. Chunki, bu davrda Samarqand nafaqat Movarounnahrning, balki, butun islom Sharqining eng yirik shaharlaridan biri edi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra mo'g'ul bosqini arafasida Samarqand maydoni 550 gektar bo'lib, deyarli Bag'dod bilan teng bo'lgan.

Shaharda jang uchun 110 ming askar mavjud bo'lib, ularda 60 mingini turkiylar, g'ullar, halajlar,

xurosonliklar tashkil etar edi. Shahar noibi Turkon Xotunning ukasi To'g'ayxon bo'lgan. Samarqandda shuningdek bir necha taniqli amirlar, sarkardalar ham jangga shay bo'lib, mahalliy xorazmliklar qo'shini 50 mingni tashkil etardi. Shaharda hatto harbiy jangga o'rgatilgan 20 ta fil ham bor edi. Shahar oziq-ovqat zahirasi, mudofaa istehkomlarining puxtaligi jihatidan bir necha yillik qamalga ham chidashi mumkin edi. Ammo, Samarqand mudofaasi ham xoinlik evaziga sharmandali taslim bo'lgan.

1220-yilning mart oyi boshlarida shahar qattiq qamal qililib, to'xtovsiz hujum boshlandi. Qamalning uchinchi kunidan boshlab unga Chingizxonning shaxsan o'zi boshchilik qila boshlaydi. Qamalning beshinchi kuni ulamo, zodagon, shahar harbiy boshliqlari "keyingi qarshilik maqsadga muvofiq emas va ommaviy qirg'in bo'lishini oldini olish kerak", degan maqsadda mo'g'ullarga taslim bo'lishga qaror qiladilar. Shahar qozisi va shayxulislom boshchiligida Chingizxon huzuriga Samarqand ahli nomidan elchilar tashrif buyuradilar. Mo'g'ullar Samarqand bosh suv inshooti – "Jo'yi arziz" – "Qo'rg'oshin novasi"ni buzib tashlab, shaharni tashnalik girdobiga giriftor qildilar. Shahar istehkomi buzib tashlandi. 20 000 chog'li shahar mudofaachilari suv toshqini bois taslim bo'lishga majbur bo'ldilar. Taxminan 1000 nafarli mudofaachilar esa, sulton tomonidan 1211-1214 yillarda qurilgan Jome masjidiga kirib, dushmanga zarba bera boshladilar. Mo'g'ullar masjidga o't qo'yib, mudofaachilarni tirik o'limga mahkum etdilar. Shahar qozisi va shayxulislom vakolati bilan tashqariga olib chiqib ketilgan 50.000 nafar kishidan boshqa barcha aholi qatlamlari behad talon-taroj qilindi. 30.000 nafar hunarmand ahli Chingizxon qarindosh-urug'lariga taqsim qilib berildi. Tirik qolgan shahar ahliga 200.000 dinor o'lpon majburiyati yuklatildi. Samarqandda jami aholining faqat $\frac{1}{4}$ qismigina tirik qoldi, xolos. Mo'g'ullar tomoniga xiyonatkorona o'tib ketgan sobiq shahar noibi To'g'ayxon tez orada o'zining 30.000 kishisi bilan Chingizxon buyrug'iga ko'ra qirib tashlandi. 1220-yil 17-mart Samarqand mo'g'ullar tomonidan istilo etilgan sana hisoblanadi.

Taslim bo'lgan shaharda mo'g'ullar qilgan talon-tarojliklar tufayli "Sayqali ro'yi zamin ast" deb ulug'langan, sharqning buyuk shaharlaridan biri

hisoblangan, bir paytlar gullab-yashnab turgan Movarounnahr poytaxti huvillab qolib, yer bilan yakson qilindi [5,159-163; 6,353-356; 8,206-208].

Chingizxonning katta o'g'li Jo'chi boshchiligidagi mo'g'ul bosqinchilari reja bo'yicha Sirdaryoning yuqori qismidagi yerlarni egallashi lozim edi. Bosqinchilar ma'lum muddatdagi qamaldan so'ng Sig'noq va Borchilig'kent shaharlarini egalladilar. Sig'noq aholisi Jo'chining elchisi Hasan hojini o'ldirib, yetti kun mardonavor qarshilik ko'rsatdilar. Shahar olinganidan so'ng esa uning barcha aholisi qirib tashlandi.

Sirdaryoning yuqori tomonidagi Jand, Shahrikand, Yorkent himoyasi 10 ming kishilik qo'shin bilan amirlar amiri (amiri amiron), Turkon Xotunning yaqin qarindoshi Qutlug'xon qo'lga topshirilgan edi. Qutlug'xon hududni o'z holiga tashab, xoinlik bilan Xorazmga ketib qoldi.

Mo'g'ullar tomonidan Jandga yuborilgan Chin Temur agar shahar Jo'chiga bo'yin egisa aholisi omon qolishini va'da qildi. 1219-yil 4-aprelda Jand mo'g'ullar tomonidan jangsiz egallandi. Shahar aholisi tashqariga haydab chiqilib, to'qqiz kun och-nahor dalada ushlab turildi. Bu vaqtda mo'g'ullar Jand va uning yon-atrofini butkul talon-taroj qildilar [5, 138-141].

Uch kunlik qamaldan so'ng Banokat shahri ham egallanib, aholining bir qismi qilichdan o'tkazildi. Mo'g'ullarning keyingi e'tibori Xo'jandga qaratildi. Ular 20.000 nafar qo'shin va 50.000 ming chog'li asirga tushgan hasharchilarni Xo'jand atrofiga yig'adilar.

Xo'jand hokimi Temur Malik shaharda emas Sirdaryodagi kichik orolchadagi qal'ada uzoq qarshilik ko'rsatgan. Ya'ni, Xo'jand shahri ham mo'g'ullarga uzoq qarshilik ko'rsatmagan. Temur Malik esa Gurganjga yetib keladi va shahar himoyasida qatnashib, Jaloliddinning ozodlik kurashida faol ishtirok etadi [5,141-144].

Chingizxon 1220-yilning yozida Naxshabni jangsiz egalladi va yozni shu yerda o'tkazib, 1220-yilning kuzida Termizga yurishni boshlaydi. Termiz Hindiston va O'rta Osiyo savdo yo'llari tutashgan qulay yerda joylashgan bo'lib, uning Amudaryo sohiliga tutashgan qal'asi o'z vaqtida mustahkam ravishda barpo etilgan edi. Termiz hokimi Faxriddin mo'g'ullar bosqiniga mardonavor turib javob berishga qaror qildi. Ammo, xoinlik natijasida mudofaaning o'n birinchi kuni shahar egallandi. Shahar butkul talon-taroj qililib, xonavayron etildi.

Shahar ahli esa dashtga haydab chiqilib, qirib tashlandi [5,168-169].

Movarounnahrning asosiy qismlari-Sirdaryo havzasi, Zarafshon, Qashqadaryo vodiylari, Buxoro vohasi, Shosh va Farg'ona vodiysi egallangach, Chingizxon endilikda o'zining asosiy e'tiborini xorazmshohlar davlatining markazi Xorazm o'lkasiga qaratdi. Bu yurishga o'g'illari Jo'chi, Chig'atoy, O'qtoy (Ugedey)larni mas'ul qildi. Ayniqsa, xon musulmon sharqining eng katta shahri bo'lmish, madaniyat, savdo gullab yashnagan boy-badavlat qadimgi Urganch (Gurganj) istilosiga katta ahamiyat bilan qaradi.

Gurganj mustahkam mudofaa devoriga ega, hatto 1204-yili g'uriylar sultoni Shahobiddin al-G'uriyning qamaliga ham dosh bergan, poytaxt ahli, o'z jasorati va harbiy tayyorgarligi bilan ham ajralib turar edi. Eng asosiysi manbalar ma'lumotlariga ko'ra shahar bu davrda dunyodagi eng yirik shaharlardan biri bo'lib, shahar aholisi bir milliondan ziyod bo'lgan. Arxeologik tadqiqotlar ham bu ma'lumotlarni tasdiqlaydi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra shahar o'rta asrlarda sun'iy barpo qilingan juda baland tepalikka qurilgan bo'lib, bu shaharning asosiy qismi shahristonni tashkil qilgan. Bu tepalikning balandligining hozirgi holatining o'zi 22 metrni tashkil qilishini hisobga oladigan bo'lsak, o'rta asrlarda bu tepalik 50 metrga yaqin bo'lgan. Bundan shaharning qanday mustahkam mudofaa tizimiga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Bu shahriston atrofi rabod hajmi ming gektaga yaqin bo'lib, shahar o'z davrida, nafaqat Sharqning balki dunyoning eng yirik shaharlaridan biri bo'lgan.

Aynan mo'g'ullar hujumidan oldin Gurganjga otasining o'limidan so'ng Jaloliddin Manguberdi xorazmshoh sifatida kirib keladi. Ammo, afsus, bu shahar mudofaasi boshlanmasdan bir guruh zodagonlar fitna boshlab yuborganlar. Ular Jaloliddin Manguberdiga qarshi fitna uyushtiradilar. Natijada Jaloliddin Manguberdi shaharni tark etadi.

Gurganjda esa shahardagi qipchoq sarkardalari - O'g'ul Hojib, Erbuqa pahlavon, sobiq Jand noibi Qutlug'xon va boshqalar Turkon xotunning jiyani yosh Xumorteginni "sulton" deb e'lon qildilar.

Gurganjga Chingizxonning o'g'illari Jo'chi, CHig'atoy, O'qtoy, taniqli mo'g'ul sarkardalari Tulun cherbi, Ustun no'yon, Qozon no'yon va boshqalar o'z harbiy kuchlari bilan yetib keladilar.

Xorazm Jo'chi boshqaruvi ilkiga tushganligi uchun ham, u shaharni tinchlik bilan mo'g'ullarga topshirishni talab etadi. Lekin, nima bo'lganda ham shaharning jasur himoyachilari mudofaaga qat'iy tayyorgarlik ko'rib, jonajon shaharlarini mo'g'ullarga berishdan qat'iy ravishda bosh tortdilar. Poytaxt atrofini 100.000 dan ziyod mo'g'ullar qo'shini bilan o'rab olish boshlandi. SHahar devorlarini buzish uchun manjaniqlar o'rnatiladi. Mo'g'ullar shaharni katta kuch bilan zabt etishga kirishdilar. Afsuski, yangi "sulton" shahar mudofaasiga bosh bo'la olmadi. Holbuki, shaharda 90 ming kishilik ham qo'shin bor edi. Shunday bo'lsa ham, 1221-yil boshidan boshlangan Gurganj qamali deyarli 7 oy davom etadi. Shahar ahli mo'g'ullarning qurol-yarog'i, palahmon toshlarni otuvchi manjaniqlari, zambaraklaridan cho'chimay, mardonavor kurashga kirishdilar. Nayza va kamon o'qlaridan qo'rqmay, shahar devorlarining buzilgan yerlarini qayta tiklay boshlaydilar. Bir guruh urganchlik harbiy navkarlar shahardan deyarli bir farsah uzoqlikdagi Bog'i-Xurram degan joyda mo'g'ullarga zarba berishga harakat qilib, qahramonona jang qildilar. Lekin, Juvayniyning yozishiga ko'ra, jangda qo'shin va qurol jihatidan ustun bo'lgan mo'g'ullar shu yerlik tinch aholi, jangchilar bilan birgalikda 100.000 dan ziyod aholini qirib tashlaydilar. Sulton zobitlarining boshlig'i Faridun G'uriy o'zining 500 kishilik harbiy otryadi bilan mardonavor tarzda shahar devorlari va darvozalari himoyasiga bosh bo'ldi. Lekin, qo'rqoq va zaif "sulton" Xumortegin shahar darvozasini ochib berib, o'z hayotini saqlab qolish maqsadida xiyonatkorona ravishda mo'g'ullarga taslim bo'ldi. Istilochilar shaharga bostirib kira boshlaydilar. Tarixchilardan an-Nasaviy, Juvayniylarning yozishlariga ko'ra Gurganj aholisi har bir ko'cha, mavzeni jon-jahdlari bilan himoya qilganlar. Ko'prik ustidagi jangda shaharliklar 3000 nafardan ziyod mo'g'ul askarlarini qirib tashlashga ham muvaffaq bo'ldilar.

Shahardagi janglarda xorazmlik mashhur alloma, faylasuf va olim, "Kubroviya" tariqatining asoschisi Ahmad ibn Umar Abul Janob Najmiddin al-Kubro al-Xeva'iy (1145-1221) ham faol qatnashdi. O'ziga "Yo Vatan, yo sharofatli o'lim" degan g'oyani shior qilib olgan bu 76 yoshdagi buyuk shayx qahramonona tarzda jang qilib, o'lim oldidan mo'g'ul navkariga tashlanib, uni avval halok qilib, so'ngra o'zi shahid bo'ladi.

Shahardan 100 000 dan ko'proq hunarmandlar ajratib olinib, Mo'g'ulistonga jo'natildi. Shahar ahli dashtga haydab chiqarilib, bolalar va ayollar bo'lib olindi. «Ortiqcha» asirlar haqoratli o'limga muhtalo etildi. Juvayniyning yozishicha, har bir mo'g'ul askariga shaharliklardan 24 ta asir askar to'g'ri kelgan ekan [5,167]. Qolgan barcha narsalar ham beayov talon-taroj qilindi. Shahar qo'lga olinganidan so'ng uning asosiy qismi buzilib, xonavayron etildi. Bu razolatga ham qoniqmagan mo'g'ullar Amudaryo to'g'onini buzib, shaharni suvga bostirdilar. Bu xususda an-Nasaviy Gurganj "qashqirlar uyasi hamda boyo'g'li va qarg'alarning boshpanasiga aylandi", deb yozgan edi [2,194; 5,163-167; 8,214-217].

Gurganj qamali bilan bir vaqtda Chingizxon 1221-yilning bahorida o'zining e'tiborini Amudaryodan janubdagi yirik savdo yo'llari ustida joylashgan boy madaniy markazlar bo'lmish Balx, Hirot, G'azna, Qandahor, Nishopur va boshqalarga qaratdi. Chingizxon shaxsan Balx yurishiga boshchilik qilib, shaharni zabt etdi. Balx aholisini esa qirib tashladi. Ba'zi bir janublik xorazmshoh noiblari, jumladan Amin-al mulk ham mo'g'ullar tomoniga xiyonatkorona ravishda o'tib ketdilar [5,169-170].

Xurosonda mo'g'ullar yo'lidagi birinchi shahar Niso bo'lgan. Mo'g'ullar 20 ta toshotar zambarak (manjanik) o'rnatib, 15 kun davomida shaharni to'xtovsiz qamal qildilar. Shahar qo'lga kiritilgach uning aholisini tashqariga haydab chiqarib, 70 ming aholini o'ldirdilar. Bu xususda an-Nasaviy afsus-nadomat bilan "ular bilan yirtqich hayvonlarni va osmondagi qushlarni to'yg'azdilar. Qanchadan – qancha qonlar to'kildi, ayollar zo'rlandi, qanchadan-qancha bolalar o'ldirilgan onalarning ko'kraklari yonida o'ldirildi! Bu esa Xuroson viloyatlaridan faqat birginasi edi!", deya yozgan edi. Yo'l-yo'lakay mo'g'ullar duch kelgan mahalliy aholi vakillarini qilichdan o'tkazib bordilar [9,71-75].

1221-yilning fevralida Xurosonning ko'zga ko'ringan yirik shahri Marv aholisining aksariyati boshiga ham shu kun tushdi. Marv shahri bir necha marotaba shafqatsizlarcha talon-taroj qilindi. Oxir-oqibatda shaharda biron kimsa ham qolmadi. Holbuki, shahar musulmon olamida o'z madrasalari va kutubxonalari, olimu-ulamolari bilan mashhur bo'lib, "Marvi jahon" nomini olgan edi [5,182-194].

Jaloliddinga qarshi kurash vaqtida qator qal'a, shaharlar qattiq janglar bilan ishg'ol qilindi (Bamiyon, G'azna, Qandahor, Gardiz, Valiyon va boshqalar). Mo'g'ullarning janubdagi oxirgi egallagan shahri Hindistonning shimoliy g'arbidagi Mo'ltan shahri bo'lib qoldi (1222 yil) [8,224,226-228].

Ta'kidlash joizki, uch yil ichida buyuk Xorazmshohlar davlati mo'g'ullar tomonidan istilo qilindi. Shu davr mobaynida birgina Movarounnahrda 300 dan ziyod katta-kichik shahar egallangan.

Manbalarda "Jahon sultonlari poytaxti" va "Insoniyat buyuk farzandlari beshigi" nomini olgan Urganch (Gurganj), Sharqdagi "Islom tayanchi" Buxoro, qadimiy Afrosiyob vatani Samarqand, masjidlarining soni (1200 taga yetgan) bilan mashhur "Qubbatul islom" Balx, o'z madrasalari bilan dong'i ketgan Marv, o'zining nozikta'b ilmi kishilari bilan ma'lum Nishopur va ko'plab mashhur shaharlar talon-taroj etilib, vayron qilindi. Mo'g'ullarning kuchli zarbasiga uchragan ba'zi shaharlar, masalan, O'tror, Sig'noq, Borchilig'kent va boshqalar umuman uzoq vaqtgacha dashtu-biyobonlarga aylanib qoldi. Shu davrda yashagan arab tarixchisi Ibn al-Asir (1160-1244) mo'g'ul bosqini xususida shunday deb yozgan edi: "Ular (ya'ni mo'g'ullar) hech kimga shafqat qilmadilar, aksincha xotinlar, bolalar, erkaklarni o'ldirdilar, tug'ilmagan go'daklarni nobud qildilar... Movarounnahrda Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarini vayron etib, qirg'in qilib, talon-taroj qilib egalladi. Tatarlar hech qaysi shaharlarni omon qoldirmadilar, ketayotib hamma yerni vayron etdilar" [6,346].

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/R ECOMMENDATIONS)

Ta'kidlash joizki, shuncha shaharga ega bo'la turib ham Xorazmshohlar davlati mo'g'ullar tomonidan bosib olindi va 400dan ziyod shaharlardan ko'pchiligi vayron qilindi yoki yo'q qilib tashlandi. Shu o'rinda qayd qilish lozimki, xorazmshohlar shaharlarining mudofaa tizimi ojiz bo'lmagan. Bu o'rinda, birinchi navbatda qamal qilingan shaharlarda xoinliklar ro'y berib, mo'g'ullar ko'pgina shaharlarni aynan shu xoinlik evazigagina bosib olishga muvaffaq bo'lganlar. Shuning uchun, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Muhammad xorazmshohning qo'shinlarni shaharlarga bo'lib tashlab, shu yo'l bilan

mo'g'ullarni yengish rejasi aslida noto'g'ri reja emas edi. Ammo, Chingizxon boshliq mo'g'ul qo'shinining, faqat dashtlarda urushlar olib borishga layoqatli ko'chmanchilar armiyasidan iborat bo'lgan deb xulosa chiqarish juda katta xato bo'lardi. Ular bu davrga kelib, mudofaaga qarshi katta ko'nikmalarni egallagan, har qanday mustahkam shaharlarni bosib olish tajribasiga ega qo'shinga aylanib ulgurgan edi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // В.В. Бартольд. Сочинения. – М., 1963. Т. 1.–760 с.
2. Буниёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2012. – 256 б.
3. Вактурская Н.Н., Вишневская О.А. Памятники Хорезма эпохи Великих Хорезмшахов (XII-начало XIII вв.) //МХЭ., вып.1, -М.: Изд-во АН СССР, 1959, с.150-167.
4. Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма //МХЭ, вып.7, -М.: Изд-во АН СССР, 1963. с.41-53.

5. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо (Жаҳон фотиҳи тарихи) / Масъул муҳаррирлар: Ҳ. Болтабоев, М. Маҳмудов. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2015. – 504 б.

6. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих. Полный свод истории /Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова [дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина]. – Ташкент; Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. – 595 с.

7. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма //Вкн.: Культура и искусство древнего Хорезма. - М.: «Наука», с.219-227.

8. Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Пер. с персидского О. И. Смирновой, редакция проф. А. А. Семенова. – М., Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – Т. 1, кн. 2. – 317 с.

9. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти / Камол Матёкубов таржимаси. – Т.: O'zbekiston, 2006. – 384 б.



FAXRIDDIN ROZIY FALSAFIY TA'LIMOTIGA ISLOM MADANIYATINING TA'SIRI

*Eshpulatov Inoyat Saparovich,
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik
bilim yurti katta ilmiy xodimi,
falsafa fanlari falsafa doktori (PhD)*

TO THE PHILOSOPHICAL TEACHINGS OF FAKHRIDDIN RAZI INFLUENCE OF ISLAMIC CULTURE

*Eshpulatov Inoyat Saparovich
Senior Researcher, Doctor of Philosophy (PhD),
Chirchik Higher Tank Command Engineering School*
**ВЛИЯНИЕ ИСЛАМСКОЙ КУЛЬТУРЫ
ФИЛОСОФСКОМУ УЧЕНИЮ
ФАХРИДИНА РАЗИ**

*Эшпулатов Иноят Сапарович,
старший научный сотрудник, Чирчикского высшего
танкового командно-инженерного училища,
доктор философских наук (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Faxriddin Roziy falsafiy ta'limotiga islom madaniyatining ta'siri masalasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nafs, ma'naviyat, ma'rifat, tafakkur, jamiyat, ta'lim, sabr.

Annotation: This article analyzes the influence of Islamic culture on the philosophical teachings of Fakhriddin Razi.

Key words: Mutakallim, spirituality, enlightenment, thought, society, education.

Аннотация: В статье анализируется влияние исламской культуры на философское учение Фахриддина Рazi.

Ключевые слова: Мутакаллим, духовность, просвещение, мысль, общество, образование.

Kirish. Faxriddin Roziy yashagan davrdagi ma'muriy-madaniy tuzumda mavjud bo'lgan siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy, madaniy nizolar, shubhasiz, turli guruh va oqimlarning diniy-mafkuraviy nizolari, to'qnashuvlari bilan chuqur bog'liq edi. Turli diniy, falsafiy va teologik oqimlar o'rtasidagi bu nizolar va ziddiyatlar Qur'on, Sunnat va falsafiy nazariyalarga tayangan holda muhokama qilindi. Bu davr olimlari tomonidan o'rganilgan eng muhim masala insonning yaratilishi masalasi bo'lib, u diniy-falsafiy mazhablar: Moturidiy, Ash'ariy, Mo'taziliy, Karramiy, Ismoiliiy, Imomiy, Mashsho'iy, Kalom, Tasavvuf va boshqalar tomonidan muhokama qilingan va ko'rib chiqilgan. Islom ilohiyoti va falsafasi tarixida ba'zi guruhlar inson haqiqatini yagona substansiya, ba'zilari

ma'naviy substansiya, uchinchi guruh esa jismoniy modda, tana va ruh aralashmasi deb hisoblagan. Bu masalani muhokama qilishni boshlashdan avval shuni alohida ta'kidlab o'tmoqchimanki, islom dunyoqarashida inson murakkab masala, ya'ni islom ta'limotida inson shunchaki to'g'ri, ikki oyoqli, o'zini himoya qiluvchi, so'zlovchi mavjudot emas.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Qur'oni karimda inson boshqa mavjudotlardan ko'ra murakkab mavjudot bo'lib, u fikr va qarashlar, hissiy va aqliy istaklar, maqom va mavqe, past tabiat, nafs va hokazolar bilan ajralib turadi. Insonning bunday murakkab xususiyatlarini antropologik, biologik, ijtimoiy-psixologik



<https://orcid.org/0000-0003-4256-2207>

e-mail:
i.eshpulatov@mail.ru



xususiyatlari bilan zamonaviy fan to'liq ochib bermagan. Agar Qur'on bir tomondan insonni maqtab, qoralab, uni farishtalardan ustun deb hisoblasa, ikkinchi tomondan, pastligida uni jinlar va hayvonlardan past deb ataydi. Qur'on nuqtai nazaridan, mo'min va itoatkor kishi eng oliy, lekin isyonkor va itoatsiz kishi eng pastdir. Falsafa, aksincha, insonni hukmron va dono deb biladi va uni o'z ishlarini yakunlashda mustaqil deb hisoblaydi.

Qur'onda inson zaif irodali, ilohiy hukm va taqdirga bo'ysunuvchi, Allohga itoatkor insondir. Bu masala yuzasidan Moturidiy ham insonning yaratilishiga dalil dunyoda na "qadim", na "abadiy", na "ixtiyoriy ixtiyor" bo'lmagan barcha mavjudot va narsalarning yaratilishining izohidir, deb hisoblaydi. Moturidiy ham boshqa ilohiyot olimlari: Ash'ariy, Tahoviy, Juvayniy, G'azzoliy va boshqalar kabi inson ikki narsadan, biri g'ubor bo'lgan tana, ikkinchisi esa ilohiy ruh ekanligini tushunib, o'z borligini modda, shakl va sifatlardan tashkil topgan deb biladi[1].

Faylasuflar nuqtai nazaridan insonning qudrati va salohiyati har qanday mavjudotdan ustun bo'lib, u o'z hikmati va qudrati bilan nafaqat borliq olamini yoritib, o'zgartirishga qodir, A.M. Sharkov shunday ta'kidlaydi: "Ekologik inqiroz tushunchasi bilan biz biosferaning inson faoliyati natijasida vujudga kelgan va inson mavjudligiga tahdid soluvchi shunday holatini tushunamiz ... lekin biosferaning bosqichma-bosqich buzilishi, agar bu jarayon o'z vaqtida to'xtatilmasa, inson hayotining tabiiy sharoitlarini buzishi mumkinligiga hech kim shubha qilmaydi ... inson hayoti va sayyoraga insonning o'zi qo'lida tahdid". Bu nazariya A.M. Sharkovning ta'kidlashicha, atrof-muhit (ekosfera) tirik organizmlar, jumladan, insonlar hayotining zaruriy sharti bo'lsa-da, boshqa tirik mavjudotlar ham atrof-muhitga faol ta'sir ko'rsatadi va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun barcha vositalardan foydalanadi, lekin ularning har qanday harakatlarining tabiatga oqibatlari haqida o'ylamaydi[2].

Faxriddin Roziyning o'zi ta'kidlaganidek, inson munosabatlari uch shartga asoslanadi:

a) dunyoqarash va o'z-o'zini bilish, bunda inson bilim va ilm kuchi hamda o'z tabiiy qudratini botiniy va zohiriy idrok bilan nihoyatda narsa va hodisalarning mohiyatini anglash, ularni rivojlantirish, qonuniyatlarini anglash, o'z aql-

idrokini o'z hayotiga moslashtirish uchun foydalanishga intiladi;

b) shahvoniy istaklarda haddan tashqari talabchanlik, ba'zan uning odamini hayvonot olamiga yaqinlashtiradi;

v) Inson tabiatiga xos bo'lgan o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati boshqa mavjudotga tegishli emas.

Qur'onda to'xtalib o'tgan yana bir masala – tana va ruh masalasi bo'lib, ba'zan "o'z-o'zini tarbiyalash" ma'nolarida tushuniladi, buni faylasuflarning ham, ilohiyotchilarning ham ta'limotlarida kuzatish mumkin. Faxriddin Roziy "Mabohis-ul-mashriqiyya" asarida ruh masalasini shunday izohlaydi: "Inson ruhi butunlay alohida moddadir, u tanada na tana, na holat bo'lib, o'simlik va hayvon ruhlari esa modda bo'lsa-da, bu jonivorlarning ham bo'sh tafakkur va nabotiy kuchlari ekanligiga ishora qiladi [3]. Ruhlar butunlay jismoniy va tanadan alohida emas, balki jismoniy bo'lmagan moddalar va ayni paytda tana bilan birga, eng mukammali inson ruhidir. Faxriddin Roziy fikricha, insonning ruhi tanaga ruh kirganida shakllanadi, lekin ruh bu tanadan iborat emas. Ko'rinib turibdiki, Ibn Sino ta'limotidan ta'sirlangan mutafakkir o'zining "Tafsiri Kabir"ida "ruh ma'sum jism emas, balki shu jismning ichida bo'lgan nurli jismdir, xuddi kiyikning ichida olov, kunjutning ichida moy bor"[4], deb ta'kidlaydi. Ammo shu asarning boshqa bir o'rnida, u o'sha asarning boshqa bir o'rnida, ruhning turli-tuman substansiyalari, yakka substansiyalar haqida fikr yuritadi. "Sharh ishorot va-t-tanbihat"da esa ruhni alohida tana deb hisoblovchilarning qarashlarini inkor etib, tanani ikki qismga: asosiy qism va ikkilamchi qismga ajratadi, lekin ruh hayotning boshidan oxirigacha saqlanib qolgan asosiy qismdir. U o'zining "Nihoyatul-uqul" nomli boshqa kitobida bu ikki nazariya orasida bo'lib, shunday deb hisoblaydi:

a) inson tanasi mana shu alohida tanadir va uning orqasida boshqa hech narsa yo'q;

b) ruh o'lmas bo'laklardan tashkil topgan."[5]

Dinda muhokama qilinayotgan masala so'zlovchi, mutlaq izlovchi hayvon, mas'uliyatli, avtonom mavjudot, axloqiy me'yorlarni belgilovchi va hokazolar sifatida ta'riflangan insonning mohiyati masalasidir. Murtazo Muttahariyning fikricha, ba'zilar inson qiyofasida "bilim"ga,

boshqalari esa “xulq va tabiat”ga, yana bir qismi “xulq va tabiat”ga, yana bir guruh “erk”ga e’tibor qaratgan[6]. inson va boshqa mavjudotlar o’rtasida insonning bilim, ilm va e’tiqodga bog’liqligi, ya’ni boshqa mavjudotlar bilan bo’lgan barcha umumiyliklariga qaramay, inson ulardan tubdan farq qiladi. Insondagi bu bo’shliq va farq uch shaklda namoyon bo’ladi: 1) o’zining o’zi va dunyo haqidagi tushunchasini ochish; 2) atrof-muhitning odamga jalb qilishlari; 3) diqqatga sazovor joylarni tanlashga yondashuv.

Muhokama. Sotsiologiya nuqtayi nazaridan inson boshidanoq rivojlanish va o’z-o’zini shakllantirish yo’lida bo’lib, o’z-o’zini bilish va olam orqali hayvonot olamidani inson olamiga o’tib, doimo komillik, mustaqillik, erkinlik, kuch-qudratga intiladi. Inson ham yakka tartibda, ham umumiy holda o’zining ichki va tashqi istak va ehtiyojlaridan ustun bo’lgan mustaqillik va komillik sari qadam tashlaydi, ya’ni inson erkinligidan maqsad o’z baxti va farovonligi va insoniyatdir. Biroq, diniy ilm nuqtai nazaridan, Qur’on odami o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan ilohiy tabiatga ega:

a) inson buyuk va qudratli mavjudot bo’lib, u uchun o’z borligini bilish muhim, ya’ni inson dunyo ufqini uning barcha qismlari va aloqalari bilan tan olishi va o’zini individual shaklda bilmasligi kerak;

b) Inson ruh va tanadan iborat murakkab mavjudot bo’lib, bir tomondan u samoviy dunyoning tengdoshi bo’lsa, ikkinchi tomondan u tabiat olamining tengdoshi bo’lsa-da, uning mohiyati va substansiyasini uning boqiy ruhi va aql-zakovati tashkil etadi va aynan shu xususiyat uni so’zlovchi hayvon sifatida boshqalardan ajratib turadi;

v) Inson Allohning yerdagi noibidir va o’z mohiyatiga ko’ra haqiqiy Odamdir[6, 224].

Bu davr mazhabi - mo’taziliylar, ash’ariylar va moturidiylar o’rtasida bahs va munozaralarga sabab bo’lgan yana bir masala vahiy va aql masalasi edi. Xalifa Ma’mun islom olamida birinchi bo’lib mo’taziliylarning ratsionalizmini qo’llab-quvvatlab, ularning erkin fikrlovchilari, ya’ni ikkinchi va uchinchi avlod vakillari bo’lgan, yunon falsafasi ta’sirida va xalifaning himoyasi ostida sof ratsional ohangda bo’lgan va har qanday tanqiddan butunlay xoli bo’lganlar uchun qulay sharoit yaratdi. M. M. Sharifga ko’ra, “bunday munosabat ba’zan salbiy

xususiyat kasb etgan”[7]. Mo’taziliylar aqlni haqiqat va voqelikning yagona asosi deb bilishgan va aqlni vahiydan ko’ra asosiyroq deb hisoblashgan, shuning uchun unga vahiydan ustun bo’lish kerak, chunki vahiy odatda aql qabul qiladigan narsaning aniqligidir, lekin ba’zan ikki fikr o’rtasida ziddiyat yuzaga keladiki, bu fikrni talqin qilishda birinchi o’ringa qo’yishi kerak.

Biroq, ash’ariylar, aksincha vahiyning ustun qo’yganlar. Ash’ariylar ana shu tamoyilga asoslanib, mo’taziliylarning bu yondashuvini rad etishga, iymon va vahiy rolini aql va mantiqdan, aql va mantiqni esa ikkinchi o’ringa qo’yishga harakat qildilar. Aynan shu yerda ash’ariylar va ularning tarafdorlari mo’taziliylarga qarshi chiqib, ularni adashgan, mo’taziliylar va faylasuflarning shariatdagi har qanday oqilona yondashuvini bid’at, deb ataganlar. Bu yondashuv mo’taziliy va faylasuflardan uzoqlashib, ularning oqilona so’zlariga munosabat bildirgan Imom Hanbaldan boshlangan[8].

Biroq, keyinchalik islomning boshqa madaniyatlar bilan to’qnashuvi natijasida turli oqimlarning paydo bo’lishi va an’anaviy e’tiqodlarga mantiqiy dalillar orqali qarshi chiqishlari mumkin bo’ldi. Bu borada Shibli an-Nu’moniy shunday ta’kidlagan edi: “Abosiylar davrida Yunoniston va Eronning ilmiy manbalari arab tiliga tarjima qilinganda barcha xalqlarga diniy e’tiqod va munozaralarda erkinlik berildi. Natijada islom dini katta xavf-xatarga duch keldi, ya’ni forslar va nasroniylar, yahudiylar va barcha bid’atchilarga zarar yetkazdi. Islom dinini zabt etishning boshida tillari va qalamlari bilan qilichdan aziyat chekib, diniy e’tiqod va masalalarga shunday og’ir tanqid va nazorat yukini yukladilarki, aqli zaif musulmonlarning e’tiqodi larzaga tushib, barcha e’tiqodlar zaiflasha boshladi”[9].

Faxriddin Roziy esa goh ash’ariylikka, goh mo’tazilalikka moyil bo’lib, bu ikkisi o’rtasida murosa pozitsiyasini ta’minlashga harakat qilgan. Mutafakkir fikricha, diniy tushuncha va e’tiqodlarni tushunish faqat aql-idrok orqali mumkin bo’lib, ko’plab diniy e’tiqod va kamchiliklarni ochib, anglashda aqlning o’rni muhim. Aqlning bunday tendensiyasi yoki rivojlanishi faqat ratsionalizm yoki e’tiqodga tayanmaydi, balki ular o’rtasidagi chegara bo’lib, uni dualistik munosabat deb atash mumkin. Uning fikricha, e’tiqod diniy e’tiqodning eng muhim elementi bo’lsa, aql uning mohiyatini

belgilovchi hujjatdir, chunki iymon tasdiq, harakat, ma'rifat va empirizm aqlning ishtirokisiz mavjud bo'lolmaydi. Tildagi iqror iymonning, iymon esa hissiy bilimning tarkibiy qismidir, lekin aql iymon va tuyg'udan ustun bo'lib, haqiqat va botilning tasdiqlovchisidir. Shuning uchun ham mutafakkir aqlning iymon va tuyg'udan ustunligini uning bir qancha xususiyatlaridan kelib chiqib taqdim etadi:

a) aql o'zini topadi, tuyg'u esa unday emas;

b) yaqin va uzoq - hissiy idrok uchun tushunchalar va unga ichki bo'ladi, lekin aql uchun emas;

v) parda hissiy idrokga to'siq bo'lishi mumkin, lekin intellektual idrokga to'sqinlik qilmaydi;

d) tuyg'u predmetlarning faqat tashqi ko'rinishini idrok etadi, aql esa predmetlarning ko'rinishi va ichki ko'rinishida joylashadi;

e) hissiy idrokda ko'p xatolar (hatto ko'rish, noto'g'ri eshitish va hokazo) sodir bo'ladi, ongda bunday bo'lmaydi;

f) idrokda tuyg'u boshqa narsalardan alohida bo'lib qoladi, lekin aql bunday emas, uning kuchi boshqa narsalarni bilish bilan ortadi;

i) idrokda sezgi zaif idrokdan ajralgan holda qoladi, lekin aql bunday emas[10].

G'ulom Husayn Javadpurning Faxriddin Roziy haqidagi bu fikrlari shuni ko'rsatadiki, mutafakkir aqlning ham hikoyat, ham hissiy bilim bo'lgan vahiy va iymondan ustunligini kuzatgan, dunyo va din bilimi va ma'rifatida aql mavqeini birinchi o'rinda tutgan. Mo'taziliylar ham aqlning aslligiga e'tiqod qilganlar va barcha diniy e'tiqodlarni aql nuqtai nazaridan o'rganganlar va aql dan uzoq bo'lgan narsalarni qabul qilmaganlar. Biroq, ash'ariylar, aksincha, inson aql-idrokini Alloh taoloning amallarini anglashda nuqsonli, deb hisoblardilar. Mo'taziliylar aql va vahiy o'rtasidagi ziddiyatni aqlga ustun qo'yib tahlil qilganlar va vahiy aql hukmiga mos keladigan tarzda talqin qilganlar. Biroq, ash'ariylar vahiy haqiqatga qarash uchun aql dan ko'ra asosiyroqdir, shuning uchun unga amal qilish kerak, deb hisoblashgan. Umuman olganda, mo'taziliylar ma'lum darajada insoniy aql va aqliy asoslarning qadriga e'tiqod qilganlar va shuning uchun ilohiy masalalar va ruhiy haqiqatlarni tushunishda aqlni asosli deb bilgan bo'lsalar, ash'ariylar esa, aksincha, bu masalada aqlni yetarli emas va nuqsonli, deb hisoblab, materiyaning faqat usulini va faqat tabiiy tajribani

qabul qilganlar. Mo'taziliylar ilohiylik mohiyatini tushunishda aqlning qadrli ekanligini tasdiqladilar va Qur'on oyatlarining ma'nosini anglash uchun aqlni zarur deb bildilar, ash'ariylar esa aqlni Qur'on oyatlarining ma'nosini tushunishni insonlar uchun imkonsiz deb bildilar.

Moturidiy individual aqlni bilimning asosi va haqiqatning asli deb hisoblaydiganlarning fikrini rad etadi. U ilhomni ham bilim asoslaridan biri deb hisoblamaydi. Uning argumenti ilm sohasida ixtilof va ziddiyat keltirib chiqaradi, to'g'ri bilimni imkonsiz qiladi, oxir-oqibat hukm qilishning umumiy asosi yo'qolishi va o'zaro tushunishning umumbashariy asosi yo'qligi sababli inson zotini halokat va yo'q bo'lib ketish xavfiga olib kelishiga asoslanadi. Bu qisqacha izohdan kelib chiqadiki, Moturidiyning e'tiqod tizimida aql va vahiy muhim o'rin tutadi. Uning fikricha, diniy e'tiqodlarning asosi vahiydan kelib chiqadi va aqlning vazifasi ularni to'g'ri tushunishdir. Agar vahiy to'g'ri tushunilsa, aql va vahiy o'rtasida hech qanday ziddiyat yoki tushunmovchilik bo'lishi mumkin emas, lekin zarur hollarda tafsirdan foydalanish joiz, aks holda uning asl ma'nosi hech qanday sifat va dalilsiz Alloh taoloning ilmiga qoldirilishi kerak. Bu yerda Moturidiy va mo'taziliylar qarashlari o'rtasidagi ziddiyat asosli bo'lib, mo'taziliylar uchun esa aqlga asoslanadi. Ularning bunday munosabatini eronlik olim Abdu Rofiyy al-Haqiqat shunday ta'riflaydi: "Ularning aqlga bo'lgan bunday munosabati ularni tavhidga zid bo'lgan sifatlar isbotini inkor etib, taqdirga bo'lgan e'tiqodni esa adolatga zid bo'lib, e'tiqodlarini fahm va ta'sirga asoslashga olib keldi"[11].

Natijalar. Sunniylardan farqli o'laroq, mo'taziliylar prinsipial bahslarda mantiqiy dalillar asosini o'rnatdilar va ma'rifat jarayonida oqilona va ma'lum dalillarni muhim deb bildilar. Faxriddin Roziyning katta ta'siri bo'lganini uning "Matolib-ul-oliyya", "Asos-ut-taqdis", "Asror-ut-tanzil", "Mafotih al-g'ayb", "Barahin dar ilmiola fi'iqol-", "-lamhais" asarlaridagi diniy masalalar sharhida ko'rish mumkin. Ularning bunday munosabatini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Mo'taziliylarning fikricha, barcha yaxshiliklar Allohnikidir va U zot har qanday to'g'ri va insoniy amalni bajaradi;

2. Mo'taziliylar fikricha, iymon uch rukndan iborat: qalbga iymon, tilga so'z va amal ruknlariga,

lekin ash'ariylar iymonning asosiy ustuni qalbga iymon keltirish, so'z va amal esa uning shoxlaridir;

3. Mo'taziliylar fikricha, yaxshilik va yomonlik (husn va qubh) insonning xatti-harakatlari natijasi bo'lib, u narsalarning mohiyatida bo'lib, aqlning o'zi qonun muvozanatisiz hamma narsaning yaxshi va yomonligini idrok eta oladi. Binobarin, diniy amrlar ham mohiyatning yaxshilik va yomonligiga bo'ysunadi, yaxshilik va yomonlik diniy amr va taqiqlarga bo'ysunmaydi. Ammo ash'ariylar esa, ezgulik va yomonlikni rad etish, ezgulik va yomonlikni ilohiy amallar natijasi deb bilish, aqlni esa yaxshilik va yomonlikni tan olish va tushunishga mutlaqo ojiz, deb hisoblab, haddan oshgan.

4. Mo'taziliylarga ko'ra, axloqiy yomon ishlarga qo'l urgan kishilar mo'min ham, kofir ham emas, balki gunohkor bo'lib, ularning dunyoda o'rni ikki barobar, lekin ash'ariylar bunday joyni tan olmaydilar.

Bu davrda oqimlar o'rtasida umumiy bo'lgan yana bir munozara iroda erkinligi yoki majburlash masalasi bo'lib, bu borada diniy va falsafiy maktablar bir-biriga zid bo'lib, turli nazariyalarni ilgari surdilar. Bu tushunchalar ilohiy ilm va iroda ta'sirida bo'lsa, falsafada "zarurat va tasodif yoki imkoniyat va voqelik" kategoriyalari ostida muhokama qilinadi. Aytish joizki, falsafada qadimdan Geraklit, Zenos, atomistlar, stoiklar va boshqalar insonni mohiyat va xususiyatlarga ega, ba'zan o'zgaruvchan yoki qarama-qarshi bo'lgan tabiat sifatida qaraganlar. Bunday nazariyani faylasuflar: Epikur, Suqrot, Aflotun va Arastu, Abu Bakr ar-Roziy, Forobiy, Ibn Sino va boshqalar ta'limotlarida kuzatish mumkin. Chunki bu faylasuflar majburlash va iroda erkinligi masalasini "sof aql" doirasida hal qilishga urinib, inson tabiatining turli sirlarini ochishga muvaffaq bo'lganlar. Boshqa tomondan, bu davrda nasroniy mutafakkirlari va faylasuflari ham "mo'jizalar"ga qarashni "birinchi sabab"ning hayot jarayoniga aralashuvi natijasi deb hisoblab, bu masalani o'rganishga kirishdilar. Erkinlik masalasiga kelsak, mo'taziliylar adolatning mohiyatini "yaxshi amallari uchun mukofotlash, fosiqlarni esa yomonliklari uchun jazolash Allohning zimmasidadir" deb hisoblagan"[12]. Bu mo'taziliy qarashni qodriiylar ham qo'llab-quvvatlaganlar.

Xulosa qilib aytganda, Faxriddin Roziy davrigacha bo'lgan inson bilan bog'liq masalalar va

uning dunyoqarashiga ta'siri haqida so'z yuritilib, turli mazhab va oqim tarafdorlarining (ayniqsa, mo'taziliylar, ash'ariylar, moturidiylar va boshqalar) turli g'oyalari tahlil qildilar. Mutafakkir davrida xalifalik davrida inson, uning haqiqati, majbur va ixtiyori, insonning tabiati va mohiyati, uning imkoniyatlari va iste'dodi, iroda ixtiyori kabi masalalarga aralashmagan oqim yoki tariqatni topish deyarli mumkin emas edi. Shuningdek, Faxriddin Roziy dunyoqarashining shakllanishida faylasuflarning inson va uning fazilatlarini, ruhning mohiyati va tabiati, insonning jismoniy va ma'naviy xususiyatlari, birlamchi va ikkilamchi qismlari, vahiy va aql masalasiga oid g'oyalari ta'siri juda katta. Bunday ta'sirni mutafakkirlarning mo'taziliy va ash'ariylar, hanifiylar va ismoiliylar, mutakallimlar va mashsho'iyalar o'rtasidagi ma'rifat, aql va iymon o'rtasidagi farq, hissiy idrok bilan aqliy idrok o'rtasidagi umumiylik va farq, aqliy va rivoyatiy ma'rifat (vahiyni bu boradagi ta'siri va boshqalar) to'g'risidagi bahslarida ham kuzatish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдувоҳид, Шамолов. Каломи Мовароуннаҳр [Матн]/ Шамолов А.-Душанбе.: Дониш, 2013. –С.458
2. Шарков, А.М. Милитаризм-душмани табият ва ҷамъият [Матн] / А.М. Шарков. –Душанбе.: Ирфон, 1988.-С.6.
3. Имом, Фахриддини Розӣ. Мабоҳису-л-машриқия/ Розӣ И.Ф. –Бейрут.: Дору-л-эхё. 1411, Ҷ.2.- С.215
4. Имом, Фахриддини Розӣ. Мабоҳису-л-машриқия/ Розӣ И.Ф. –Бейрут.: Дору-л-эхё. 1411, Ҷ.2.- С.225
5. Имом, Фахриддини Розӣ. Ниҳоят-у-луқул [Матн] / Розӣ И.Ф. Бе соли нашр. Ҷ.1.-С. 276.
6. Муртазо, Муттаҳарӣ. Инсон дар Қуръон [Матн] / Муттаҳарӣ М.-Техрон.: Садро, 1374.-С. 219.
8. Моён, Мирмуҳаммад Шариф. Таърихи фалсафа дар ислом [Матн] / Шариф М.М.-Техрон.: Маркази наشري донишгоҳӣ, 1391. Ҷ.1.-С.316.
9. Моён, Мирмуҳаммад Шариф. Таърихи фалсафа дар ислом [Матн] / Шариф М.М.-Техрон.: Маркази наشري донишгоҳӣ, 1391. Ҷ.1.-С.317.
10. Аллома, Шиблии Нӯмонӣ. Таърихи илми калом [Матн]/Нӯмонӣ А.Ш. –Техрон.: Асотир, 1386.С.7-8.
11. Фуломхусайни, Ҷаводпур. Санҷиш ва созиши ақл ва имон аз манзури Фахриддини Розӣ [Матн] / Ҷаводпур Ғ // Маҷаллаи "Фаслномаи илмӣ-паҷуҳиши андешаи навини динӣ".-Техрон.: Нашри-яи навини динӣ, 1389. Шумораи 20. -С. 128-129.
12. Абдурафеъи, Ҳақиқат. Тарихи улум ва фалсафаи Эрон/ Ҳақиқат А.Техрон.: Кумаш, 1376.-С.158.

ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO MUNOSABATLARI

*Gulova Anorgul Axtamovna,
Andijon davlat universiteti doktoranti*

THE RELATIONSHIP BETWEEN ALISHER NAVOI AND HUSAYN BOYKARA

*Gulova Anorgul Akhtamovna,
Doctoral student of Andijan State University*

ОТНОШЕНИЯ АЛИШЕРА НАВОИ И ХУСЕЙНА БАЙКАРА

*Гулова Аноргул Ахтамовна, докторант Андижанского
государственного университета*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari va uning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Adolat, ma'naviyat, ma'rifat, tafakkur, jamiyat, ta'lim, e'tiqod.

Annotation: This article analyzes the relationship between Alisher Navoi and Husayn Boykara and its unique aspects.

Key words: Justice, spirituality, enlightenment, thought, society, education, faith.

Аннотация: В данной статье анализируются взаимоотношения Алишера Навои и Хусейна Байкара и их уникальные аспекты.

Ключевые слова: справедливость, духовность, просвещение, мысль, общество, образование, вера.

KIRISH. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining “Qozilar haqida” (“Quzzot zikrida”), “Qonunshunos muftiylar zikrida” (“Muftiyi faqihlar zikrida”) singari boblarida adolatga alohida urg'u beriladi. Jumladan, u shunday deydi: “Qozi islom binosig'a arkondir va musulmonlar xayr va sharrig'a nofizi farmondur”[1]. Alloma e'tiroficha, islom dini binosining ustuni hamda musulmonlarning turli ishlari yuzasidan hukm chiqaruvchi shaxs – bu qozi (sudya)dir. Mazkur lavozimdagi kishiga bu kabi mas'uliyatli amal topshirilgan ekan, u bu ishonchga har taraflama loyiq bo'lishi lozim. Ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan, keng dunyoqarash sohibi bo'lmog'i lozim. Fiqhga doir bilimlarni mukammal o'zlashtirish, shu bilan bir

qatorda unga to'laqonli rioya qilish – ushbu soha xizmatchilarining eng asosiy vazifasidir. Alloma nazdidagi qozi tabiatida faqat o'z manfaatini ustun qo'yib harakat qilish bo'lmazligi, ilmsevarligi hamda samimiyligidan kishida unga nisbatan yuksak hurmat, munofiqlikdan uzoq bo'lmog'i, fahm-farosatliligi va kasbiga sodiqligidan halollik hamda diyonatdan yiroq kimsalar qalbida g'am bo'lmog'i lozim. O'zlashtirgan bilimiga mos harakat qilib, o'zgalarga ibrat bo'la olgan qozi shaxsiy manfaatlar girdobiga tushmaydi, raiyatning taqdiri u chiqargan hukmga bog'liqligini tushunib yetadi. Unga ishonch bildirilib topshirilgan mansab majburiyatlariga chuqur mas'uliyat va adolat bilan munosabatda bo'ladi.



<https://orcid.org/0000-0001-5308-6061>

e-mail:
gulovaanorgul2@gmail.com



“Mahbub ul-qulub”ning “Muftiyyi faqih (qonunshunos)lar zikrida” nomli bobida alloma qonun hamda qonunshunos, inson va jamiyat, adolat hamda adolatsizlik munosabatlari to‘g‘risida keng to‘xtaladi. Ularni mutolaa qilganda, deyarli olti asr avval bildirilgan mulohazalar hozirgi globallashuv jarayonlari tezlashgan vaqtda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolganligiga amin bo‘lasiz. Navoiy nazdicha, qonunshunosning (faqihning) o‘y-fikri qonunga qarshi tarafiga yo‘nalmasligi, ko‘nglidan hiylanayrang uzoq bo‘lishi, zehni o‘tkir, tafakkuri teran, aytganlari buyuk huquqshunoslar fikriga hamohang bo‘lmog‘i lozim. U xushxulq bo‘lishi, zulmkor kimsalardek mehr-muruvvatdan uzoq bo‘lmasligi, choy-chaqa o‘rniga yuz haqni nohaq va arzimagan marhamat o‘rniga ko‘p “yo‘q”ni “bor” deya tasdiqlamasligi darkor. Alisher Navoiy atigi bir savat uzum uchun keng uzumzorning yonib kul bo‘lishidan g‘amga botmaydigan va bor-yo‘g‘i bir botmon bug‘doy uchun don xirmonining talanishidan tashvishlanmaydigan huquqshunos el-yurtga zarar keltirishdan boshqa ishga yaramasligini ta’kidlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Buyuk alloma “Saddi Iskandariy”da adolatli bo‘lishning ezgu ish, savobga doxil etuvchi amal ekanligini bayon qilib, bir soatlik odillik odam hamda jinlarning tavbasidan, toat-ibodatidan buyukroq ekanligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, asarda mabodo biror inson tarafidan adolatli amal qilinsa, uning oldin qilgan barcha gunohlari kechirilishi uqtiriladi.

Dunyo miqyosidagi yirik sarmoyadorlarga va hattoki, yurtimizdagi kundan-kunga yuksalib borayotgan mulkdorlarga Alisher Navoiyning odil shoh to‘g‘risidagi qarashlari, o‘z shaxsiy daromadidan “Shifoia” shifoxonasi (tibbiygohi), “Nizomiya” hamda “Ixlosiya” madrasalari, rabotlar, o‘nlab ko‘priklar bunyod etgani, ko‘plab ilm toliblarini nafaqa, kiyim-kechak, oziq-ovqat bilan doimiy ta’minlab turgani namunadir. “Husayn Boyqaroning Navoiyga jilovdor bo‘lishni o‘ziga ep ko‘rganligi uning qanchalik buyuk ma’naviyat sohibi bo‘lganidan, adabiyotni, san’atni, ijodni juda yuksak qadrlaganidan dalolat beradi. Lekin

ta’kidlash zarurki, Husayn Boyqaroning harakati nafaqat uning qanday podshoh va inson bo‘lganini ko‘rsatadi, u jamiyat ma’naviyati yuksakligidan, podshohlarning yuqoridagiga o‘xshash xatti-harakatlarini to‘g‘ri qabul qilib, munosib baholay olishidan ham dalolat beradi. Davlat boshlig‘ining o‘zi ijod bilan shug‘ullangani, ma’rifatga intilgani, ijod ahliga homiylik qilgani a’yonlarga ibrat va taqlid uchun namuna bo‘lgan”.[2] Boyqaro va Navoiy do‘st-u birodarligi, hammaslakligi va bu inoqlikning bir-biridan buyuk va beqiyos natijalariga ayni paytda ham dunyo miqyosidagi shoh va shoirlar havas qilsa arziydi.

“Saddi Iskandariy”, “Farhod va Shirin” dostonlari, “Hiloliya qasidasi”, “Vaqqiya” va “Soqiynoma” kabi asarlarda allomaning xalq farovonligi va yurt obodligi odil shohga bog‘liqligi, elning boshqaruvchiga bo‘lgan muhabbati bilan vatanparvarlik hissi belgilanishi bayon qilingan:

Shahekim anga adl bunyod o‘lur,

Natija bukim, mulki obod o‘lur [3].

Husayn Boyqaro madhiga “Xamsa”dan joy olgan dostonlarning barchasida alohida urg‘u berilgan. Navoiy Boyqaroni o‘z zamonasining eng odil hukmdori sifatida ta’rif etish bilan birga zulmkor hukmdorlarni ham e’tibordan qochirmaydi, ularning el-ulusga qarshi xatti-harakatlarini beayov fosh etadi. U bu bilan o‘zini Ona yurtga fidoyiligini, yurt obodligi va xalq tinchligi, farovonligi barcha narsadan ustunligini e’tirof etadi. Shu jihatdan Xuroson saltanatini endigina qo‘lga kiritgan Sulton Husaynning hukmdor sifatidagi xislatlarini “Hiloliya” qasidasida madh etishi bejizga emas. U quyidagicha ta’riflanadi:

Shohlar darveshi-yu darveshlar shohiki haq,

Shoh qildi suvratin, darvesh qildi siyratin[4].

Mazkur misralarni navoiyshunos olim Aziz Qayumov quyidagicha sharhlaydi:

“Bu yerda Navoiyning darveshlikni qanchalar ulug‘layotganiga ahamiyat bering. Demak, insonlar ichida eng buyugi, eng yuksak olijanob darajadagisi darveshdir. Bu yerda darvesh devona, telba ma’nosida emas, eng pok tiynat, tuban intilishlardan xoli, el-u yurtga, odamlarga mehribonlikda fidoyi bo‘lgan zot ko‘zda tutiladi”[5].

Davlatning tinchligi, xalqning totuvligi hamma davrlarda ham vatanparvarlarning e'tiborida bo'lib, Navoiy Hazratlari ham butun boshli hayotiy faoliyati mobaynida tinchlikni bardavom qilish bilan aloqador masalalar haqida deyarli hamma ilmiy-adabiy asarlarida fikr bildirgan. "Mahbubul qulub"da alloma hozirgi davrda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan o'ta muhim va teran mazmunga ega qarashlarni ifodalaydi. "Shoh ulusi o'ziga mushobih bo'lur" deya atalgan o'ninchi faslida quyidagilarni bitadi: "... Agar shohg'a adolat shior, ulusi shiorida ham adolatdin osor. Agar zulmpesha – elida ham zulmidan andisha". Mutafakkir ta'kidicha, hukmdor odil bo'lsa, uning qo'l ostidagi xalq ham adolatli bo'ladi. Mabodo podshoh zolimlikni o'ziga kasb etgan bo'lsa, fuqarolari uning zulmkorligidan azobda qoladi. Mutafakkir mazkur asarda islom olamida o'ziga xos obro' va ta'sirga ega toifa a'zolarining poraxo'rlik, shariat qoidalarini oyoq osti qilish hollarining qoralanishi orqali ijodkor ijtimoiy muhitning ma'naviy parchalanishi sabablari va xavf-xataridan ogoh qiladi.

Alisher Navoiy ijtimoiy-antropologik qarashlarida to'g'rilik, haqgo'ylik, poklik, iymon-e'tiqodlilik kabi insoniyatga zeb beruvchi xislatlar ulug'lanadi. U bo'lg'usida shaxs nomi e'zozlanadigan, inson manfaatlar ustun bo'ladigan "saodatli jamiyat" orzusi negizida o'zining xayoliy adolat ustuvorligi ta'minlangan mamlakatni yaratadi. Dastavval, o'z davlatida odil shoh rahbarligidagi mamlakatga yetishish niyatida bo'lgan Navoiy yoshlikdagi do'sti Boyqaro taxtga chiqqandan so'ng uning taklifiga ko'ra boshqaruv tizimida faoliyat yurita boshladi. Sulton Husaynni odil shohga, u boshqarayotgan mamlakatni adolatli fuqarolik jamiyatiga aylantirish maqsadida ancha vaqt mobaynida astoydil intildi. Navoiy oxir-oqibatda shuni angladiki, turli xil obyektiv-subyektiv sabablarga ko'ra Boyqaroni odil hukmdorga aylantirish mumkin emas ekan. Shundan keyin, Alisher Navoiy o'z ixtiyori bilan egallab turgan lavozimidan voz kechib, odil va ma'rifatparvar hukmdor orzusidan yiroqlashib, ma'naviy merosi orqali o'zining xayoliy timsollarini yaratishga qaror qiladi. Alisher Navoiy

davlatni idora qilish, munosib boshqaruvchini tanlash hamda uni saylash masalasini jamoa bilan, xalqning turli toifa a'zolari ishtirokidagi yig'inda maslahat asosida amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli ham bunday yig'inda el tanlagan hukmdorga xalqparvarlik hamda adolatlilik talablarini qo'yadi. Alloma siyosiy fikrlaridagi o'ziga xos jihatlardan biri shuki, yurtni idora etish ananaviy meros shaklida emas, aksincha xalq ishtirokidagi anjumanda hal qilinadi.

Jumladan, mutafakkirning adolatli hukmdor g'oyasida davlat aholisining tinch va to'kin turmushini ta'minlashni mamlakat boshqaruvining dolzarb vazifasiga aylantirish maqsadi o'z aksini topgan: *Kerak lutf-u ehson shior aylasang,*

Adolat yo 'lin ixtiyor aylasang.

Raiyatga sendan yetib shodlik,

Mamolikka yuz qo'ysa obodlik[6]. ("Saddi Iskandariy")

Alisher Navoiy davlat siyosatini odillik bilan olib borishni mamlakatning kuch-qudratini namoyon qiluvchi vosita sifatida talqin qilarkan, uning moliyaviy taraqqiy etishiga alohida urg'u qaratgan. Alisher Navoiy ma'naviy merosi chegara bilmas o'tkir nafasi bilan oradan necha asr vaqt o'tgan bo'lishiga qaramay, hammamizning ko'nglimizni nurlantirib turibdi. Chex tadqiqotchisi Yan Ripkaning "Alisher Navoiy jamiki go'zalliklarning buyuk homiysi va o'z davrining eng ulug' shoiridir", degan fikri bejizga aytilmaganiga amin bo'lamiz. Mutafakkirning axloqiy siymosi ham, o'z ideallariga hayotida to'liq rioya qilishi ham Alisher Navoiyning daholikka chindan ham haqliligidan darak beradi. El-yurt ravnaqini har tomonlama tadqiq qilgan alloma milliy birdamlik g'oyasiga alohida e'tibor qaratgan. Xususan, xalqning birdamligi ham hukmdorning adolatli boshqaruv siyosati bilan bevosita aloqadordir. Navoiy ko'p urg'u qaratgan markazlashgan bir butun davlat hamda uning odil hukmdori g'oyasi milliy birdamlikni saqlash uchun mutafakkir yashagan paytda yetakchi omillardan edi. Odil va qudratli hukmdor g'oyasi mamlakat, davlat, shuningdek, fuqarolik munosabatlarini muvofiqlashtirish ehtiyojlarini to'laqonli qamrab olishi bilan e'tiborga molikdir.

Ayni paytda yurtimizda olib borilayotgan siyosat Alisher Navoiy orzu qilib, tarannum etgan xalq manfaatlarini ustun qo'yilib, adolatli boshqaruv o'rnatilgan davlat g'oyalari bilan hamohang. An'anaga ko'ra, Vatanimizda har yilga yurtboshimiz tomonidan alohida nom berilib, shu asosda davlat dasturi ishlab chiqilishi va hukumat tomonidan katta miqdorda mablag' ajratilib, shu soha rivojiga sarflanmoqda. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili (2021), *"Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"* (2022), *"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"* (2023) kabilar buning yorqin dalilidir. Shu bilan birgalikda, *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning virtual qabulxonasi*, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali singari elektron tizimlar fuqarolarning o'z konstitutsion huquqlaridan keng miqyosda foydalanishlariga ko'maklashmoqda.

Vatanimizning har bir hududida Alisher Navoiy sharafiga atalgan manzillar-u maskanlar mavjud. Xususan: Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti instituti, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, O'zbekiston milliy kutubxonasi, Adabiyot muzeyi, Toshkentdagi metro bekati, San'at saroyi, Toshkentdagi Katta akademik opera va balet teatri, ko'plab ko'chalar hamda jamoa xo'jaliklari Navoiy nomi ataladi. Shuningdek, Davlat mukofoti va talabalar uchun davlat stipendiyasiga ham Alisher Navoiy nomi berilgan. Alloma takrorlanmas iste'dodi hamda Xudo yuqtirgan xislatlari sharofatidan nafaqat o'zining nomini, balki asarlari qahramonlari nomini abadiyatga muhrlagan. Unga tegishli ma'naviy meros qahramonlari nomiga ko'cha va xiyobonlar qo'yilib, byustlari bunyod etilgan.

Alisher Navoiy dunyo hamjamiyati e'tirof etgan sevimli mutafakkirlardan biri sifatida ulug'lanmoqda. Uning haykallari jahonning Vashington, Moskva, Minsk, Tokio, Seul, Boku, Dushanbe singari shaharlarida barpo qilingan. Unga tegishli ilmiy-adabiy meros ko'plab tillariga tarjima qilingan. Dunyo navoiyshunoslari uning hayot yo'li, ijodiy merosi, ilmiy-falsafiy qarashlariga oid qator ilmiy tadqiqot ishlarini himoya qilindi va bu jarayon

jadal davom etmoqda. Zero, akademik N.I.Konrad ta'kidlaganidek "Alisher Navoiy kabi shoirning bo'lganidan quvonmog'imiz kerak. Ana shunday shoirni voyaga yetkazgan o'zbek xalqiga ofarin va tashakkurlar deymiz. Biz uni o'rganibgina qolmay, balki o'qishimiz, faqatgina o'qish emas, balki uning to'g'risida o'ylashimiz ham zarur"[7].

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Alisher Navoiyning yuqoridagi ijtimoiy-antropologik qarashlaridan anglashiladiki, har bir inson Allohning yerdagi vakilidir. Unga faqatgina bir marotaba hadya etilgan umrni mazmunli o'tkazishi, doimo o'z ustida ishlab ma'naviy barkamollikka intilishi, adolatli, vijdonli bo'lishi kerak. Ayniqsa, xalq ustidan boshqaruvni amalga oshirayotgan shaxslar bu borada ikki karra mas'uliyatli bo'lib, o'zidan yaxshi nom qoldirishga azm-u qaror qilmoqlari lozim. Albatta, bu yo'lda adolat ularga yorqin mayoq vazifasini o'timog'i darkor.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <http://www.adolatgt.uz/society/5413>
2. Abdurahim Erkayev. Yangi O'zbekiston: mo'ljal – uchinchi renessans. Toshkent, Ma'naviyat. 2021-yil, 71-bet.
3. Алишер Навоий. Садди Искандарий. МАТ. 20 жылдик, Ж. 11. –Тошкент: Фан.1993. – Б. 136.
4. Навоий Алишер, Хазойин ул-маоний, Учинчи девон, "Бадоеъ ул-васат". Тамаддун, Т.: 2011. - Б.617.
5. Қажумов Азиз. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар, Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, Т.: 2014. -Б.65.
6. Алишер Навоий. Садди Искандарий. МАТ.Ж.11. –Тошкент: Фан, 1993. – Б. 315.
7. <https://yuz.uz/news/alisher-navoiy--tafakkur-bogboni>
8. Kurbanbayeva, M. (2024). O'zbek xalq og'zaki ijodiyotida adolatli jamiyat to'g'risidagi ilk tasavvurlar ifodasi. Tamaddun nuri jurnali, 8(59), 78-81.
9. Kurbanbaeva, M. (2024). Temuriylar davri mutafakkirlari konsepsiyalarida "fuqarolik jamiyati" tushunchasi. Tamaddun nuri jurnali, 10 (61), 310-312.

SAMARQAND SHIA JAMOALARI AN'ANALARINING MAHALLIY XUSUSIYATLARI

*Nig'matullayev Ibrohim Ma'ruf o'g'li, O'zbekiston xalqaro
islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti*

LOCAL PECULIARITIES OF THE TRADITIONS OF SHIA COMMUNITIES OF SAMARKAND

*Nigmatullaev Ibrokhim Maruf ogli, doctoral student of
International islamic studies academy of Uzbekistan*

ЛОКАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТРАДИЦИЙ ШИИТСКИХ ОБЩИН САМАРКАНДА

*Нигматуллаев Иброхим Маруф оглы, докторант
Международной исламской академии Узбекистана*

Annotatsiya: Maqolada Samarqand shia jamoalarining turmush tarzi, bayramlari, urf-odatlar, an'ana va marosimlari dala tadqiqotlari o'tkazish orqali tadqiq etilgan. Shuningdek, Samarqand shia jamoalarining "Ashuro", "shome g'aribon", "Bibi mushkulkushod", "xinobandon", Navro'z, "qoshchinon" kabi marosimlarni o'tkazishdagi yondashuvlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: shia jamoalari, bayram, urf-odat, an'ana, marosim, "Ashuro", motam, gulob.

Abstract: The article gives information as to the lifestyle, holidays, customs, traditions and rituals of shia communities in Samarkand through field research. Additionally, the study analyzes the approaches of Samarkand's shia communities in conducting various ceremonies such as "Ashura", "shome gharibon", "Bibi mushkulkushod", "khinobandon", "Novruz" and "koshchinon".

Keywords: shia communities, holiday, customs, traditions, ceremonies, "Ashura", mourning, rose water.

Аннотация: В статье на основе проведенных полевых исследований изучены образ жизни, праздники, обычаи, традиции и обряды шиитских общин Самарканда. Также проанализированы подходы самаркандских шиитских общин к проведению таких обрядов, как "Ашура", "шоме гарибон", "Биби мушкулкушод", "хинобандон", "Навруз", "кошчинон".

Ключевые слова: шиитские общины, праздники, обычаи, традиции, обряды, "Ашура", траур, гулоб (розовая вода).

Kirish. O'zbekistonning asosan Buxoro va Samarqand shaharlarida yashovchi shialar o'zlarini eroniy deb ataydilar. Bugungi kunda Samarqandda ularning soni qariyb 200 mingtani tashkil etadi. Eroniyalar o'zlarining lingvistik xususiyatlariga ko'ra forsiylar hisoblanib, ular ikkiga: tojikcha va turkcha (o'g'uz) tillarga bo'linadi. Buxoroda fors tilida so'zlashuvchi eronliklar istiqomat qiladi, turkiyzabon eronliklar esa Samarqandda yashaydi. Samarqandda Eron yerlaridan kelgan Ozarbayjon turklari yashaydi va mahalliy xalq ularni "pirsiyon" deb ataydi. Hozirgi kunda ulardan ba'zilarining pasportlarida etnik millatlari fors deb yozilgan [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

O'zbekistonda shia jamoalari to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlar I.P.Petrushevskiy [2], O.A.Suxareva [3], V.P.Litvinov [4], V.O.Leshenko [5], Y.Averyanov va E.Seitov [6], A.B.Djumayev [7] kabi sharqshunos hamda islomshunos olimlar tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi. O'zbekistonlik olimlardan Sh.Toxtiyevning "Markaziy Osiyoda shia jamoalarining shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari" nomli dissertatsiyasida mavzuga doir ayrim ma'lumotlar uchraydi [8].

Muhokama va natijalar. Ashuro Islom taqvimidagi muhim kunlardan biri bo'lib, ayniqsa shia jamoalari an'analari muhim o'rin tutadi.



<https://orcid.org/0009-0007-2342-4358>

e-mail:
nigmatullayevibrohim52@gmail.com

Mazkur kun 680-yilda Karbalo jangida Muhammad Payg'ambar (s.a.v.)ning nabirasi Imom Husayn ibn Alining shahidligi xotirasiga bag'ishlangan. Mazkur motam marosimi "Muharram" oyida (680-yil 10-oktyabr) kuni Karbaloda shahid bo'lgan musulmonlarni, ayniqsa Imom Husaynni xotirlash uchun qilingan motam marosimi hisoblanadi.

Samarqand viloyati Panjob masjidida ayollar uchun "Ashuro" kuni munosabati bilan o'tkaziladigan marosimlar bomdoddan so'ng o'tkazilib, unda ishtirok etuvchilarning asosiy qismini yoshi katta ayollar tashkil qiladi. Yoshlar esa marosimda yordamchi sifatida ishtirok etadi. Marosimni o'tkazishga Bibi xalfa – otinoyi rahbarlik qiladi. Marosim davomida marsiyalar o'qiladi, sinazani qilinadi. Marosim ishtirokchilariga non va uzum (odatda mayiz) tarqatiladi [9].

Erkaklarda Muharram oyi kirib kelishi bilan "Ashuro" kuni munosabati bilan o'tkaziladigan motam marosimlari kechqurun xufton namozi o'qib bo'lingandan so'ng yarim kechagacha qirq kun davomida amalga oshiriladi. Marosim paytida qatnashuvchilariga gulob suvi sepiladi. Bundan ko'zlangan maqsad ishtirokchilarning marosim paytida vujudga keladigan g'am-qayg'u va iztiroblarini yengillashtirish hisoblanadi. Mazkur gulob maxsus gul – guli Muhammadiydan tayyorlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, mazkur gul Imom Husaynning teri to'kilgan joydan o'sib chiqqan, deb qaraladi. Marosim davomida sepiladigan gulobga mushk-u ambar aralashtiriladi. Panjob masjidida o'tkazilgan motam marosimlarida ishtirokchilarning deyarli hammasi qora libos kiyib olgan bo'lib, ulardan ba'zilarining old tarafiga "yo Ali", orqa tarafiga esa "xodimul Husayn" deb yozilgan edi. [9].

"Ashuro" marosimining asosiy tadbirini o'tkazish uchun erkaklar Muharram oyining 10-kuni bir joyga yig'ilib, ravzaxonlik qilinadi. Karbalo fojiasi tarixi hikoya qilinadi, sinazani qilinadi. Marosimlar peshin (zuhr) namoziga qadar davom etadi. Namoz o'qib bo'lingach, "ziyori ashuro" o'qiladi. Bu "Ashuro" kunining maxsus duosi hisoblanadi. "Ziyorati ashuro" o'qib bo'lingach, ba'zilar "Sayyid Ibrohim" ziyoratgohini ziyorat qiladilar.

"Ashuro" marosimi kuni taomlardan osh damlanadi, sho'rva qaynatiladi. Avvallari marosim davomida ishtirokchilarga novvotli shirin choy

tarqatilgan va u "nushi imomat" deb atalgan. Unga, albatta, gulob qo'shilgan. Bugungi kunda esa mazkur odat yo'qolib ketgan. "Ashuro" kunining ertasiga kechqurun "shome g'aribon" (g'ariblar kechasi) kuni o'tkaziladi. Unda Karbalo bilan bog'liq tarixiy voqealar ketma-ket navbati bilan hikoya qilinadi.

O'zbekiston – Eron do'stlik jamiyati raisi G'ulomov Ravshan (Ravshan polvon, 1960-yil tug'ilgan)ning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand va Buxorodagi shia jamoalari "Ashuro" kunini bir kunda nishonlaydi. Muharram oyining boshlanishi, "Ashuro" kunini belgilash va "Ashuro" bilan bog'liq bo'lgan "arbain" ziyorati Eronniki bilan mufoviqlashtiriladi. Qolgan barcha bayramlar, urf-odatlar, an'ana va marosimlar mahalliy xususiyatlardan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Samarqand shia jamoalarida Navro'z bayrami ilgari qariyb qirq kun bayram qilingan bo'lib, jiyda gullaguniga qadar davom etgan. Bugungi kunga kelib, mazkur bayram bir hafta davomida nishonlanadi. Barcha xonadonlarda "Haft sin" dasturxonini bezatiladi. Navro'z kun va tun tengligi, yangi yil sifatida bayram qilinadi. Bayram erta tongdan boshlanadi. Dastlab qabristonga borib, marhumlar haqiga duoyi fотиha qilinadi, so'ngra barcha yoshi ulug'lar ziyorat qilinib, ularning holidan xabar olinadi. Mazkur ziyorat amalga oshirib bo'lingach, qarindosh, qo'ni-qo'shnilar bir-birining xonadoniga tashrif buyuradi. Navro'z bayrami munosabati bilan turli xil tadbirlar uyushtiriladi, xo'roz urishtiriladi, konsert uyushtiriladi, xom tuxum urishtiriladi, kurash tushiladi. Kurash tushuvchi polvonlar uchun osh damlanadi. Mahalliy aholi tomonidan Navro'z tadbiri o'tkaziladigan maydonlar bezatiladi. Tuxum urishtirish faqatgina mazkur hududdagi shia jamoalariga xos bo'lib, mazkur musobaqa Eronda amalga oshirilmaydi. Navro'z bayramida amalga oshiriladigan eng muhim va ezgu ishlardan biri urishganlarni yarashtirish, gina-kuduratlarni unutish, qarzlarni uzish hisoblanadi.

"Qoshchinon" ayollar tomonidan o'tkaziladigan marosim bo'lib, qizlarni nikoh marosimiga (kelinlikka) tayyorlash hisoblanadi. Marosim davomidan ip bilan qosh terilib, yuz tozalanadi. "Xinobandon" nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlardan biri bo'lib, kuyovning yaqinlari tomonidan kelinning uyida amalga oshiriladi. Kelin milliy kiyimlar bilan qaytadan kiyintirilib, xina

qo'yiladi. Kelin va kuyovning boshida Qur'on ushlanadi, suv ichiriladi, oynaga qaratiladi.

Navro'z bayramidan bir kun oldin ham erkag-u ayol xina qo'yadi. Shuningdek, Ramazon va Qurbon hayitidan oldin ham ayollar qo'llariga xina qo'yadilar. Shia jamoalarida barcha bayramlar umumiy nom bilan "hayit" deb atalib, mazkur bayramlardan oldin ham qo'llarga xina qo'yiladi [9].

Farzand tug'ilganda amalga oshiriladigan eng muhim vazifalardan biri, bu unga munosib ism tanlash hisoblanadi. Shia jamoalarida bugungi kunda arabiy ismlar qo'yish urfga kirgan bo'lib, ulardan eng mashhurlari, Ahmad, Ali hisoblanadi. Gaxvora bandon farzand tug'ilishi bilan bog'liq marosimlardan biri bo'lib, beshik to'yga to'g'ri keladi. Gaxvora bandon chaqaloq bir yoshga to'lganda yoki olti oylik bo'lganda amalga oshiriladi. Chaqaloqning yoshi katta kayvoni ayollar tomonidan beshikka qo'yilishi ham mazkur marosimning bir qismi hisoblanadi. Chaqaloqning qorin sochi olinishi ham mazkur marosimda amalga oshiriladi yoki chaqaloq yetti kunlik bo'lganida ham qilinishi mumkin. Aqiqa qilib, qo'y so'yiladi.

Bibi Mushkulkushod marosimi (o'zbekcha "mushkul" - qiyinchilik, "kushod" - yechim, ya'ni "qiyinchiliklarni hal etuvchi"). Ushbu marosim insonlarning biror-bir narsaga ehtiyoji bo'lganida, qandaydir istagi amalga oshishini niyat qilganida yoki kasallik paytlarida o'tkaziladi. Bibi Mushkulkushod marosimi istalga paytda o'tkazilishi mumkin. Bibi Mushkulkushod ayollar tomonidan o'tkazilib, marosim davomida "Yosin" surasidan tilovat qilinadi. Non yopilib, barchaga tarqatiladi. Marosimda Ali (r.a) vosita qilinib, niyatlarning amalga oshishi Allohdan so'raladi [9].

Muhammad Payg'ambar (s.a.v.), Fotimayi Zahroning, imomlarning tug'ilgan kunlari va vafotlari ham alohida ahamiyatga ega bayramlardan sanaladi. Shuningdek, Ali (r.a) va Fotimayi Zahroning to'ylari kuni ham bayram sifatida nishonlanadi.

Shia jamoalarida dafn marosimida marhumning oldida navxaxonlik va ravxaxonlik qilinadi. Dafn marosimi an'analardan biri "uch oqshomi" bo'lib, mazkur marosim marhum vafot etganidan uch kun o'tgach amalga oshirilib, unda marhumga atab Qur'on tilovat qilinadi. Uni o'tkazilish majburiy ishlardan biri hisoblanadi. Mazkur marosim so'ngida "bel ochdi" qilinadi,

ya'ni janozada bel bog'laganlar qiyiqchasini yechadilar [9].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Samarqand shia jamoalari tomonidan o'tkaziladigan "Ashuro", "shome g'aribon", "Bibi mushkulkushod", "xinobandon", Navro'z, "qoshchinon" kabi marosimlar ularning hayotida muhim o'rin egallab, bugungi kunga qadar saqlanib qolgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Тохтиев Ш.Р. Краткая история самаркандских и бухарских «Ирани» // Вестник Челябинского государственного университета. – 2012. – №. 33 (287).
2. Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV веках. Курс лекций. – Л.: Изд. Ленинградского Университета, 1966.
3. Сухарева О.А. Бухара. XIX - начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). М., 1966.
4. Литвинов В.П. Исторический опыт Российского государства в организации и регулировании паломничества мусульман Средней Азии. Дис. ... докт. ист. наук. – Елец: 2019.
5. Лещенко В.О. Шиитская ритуальная практика самобичевания: культурный и религиозный аспекты // Проблемы современного востоковедения [Электронный ресурс]: материалы III Междунар. науч.-практ. конф., Минск, 29–30 июня 2023 г. / Белорус. гос. ун-т; редкол.: В. Р. Боровой. – Минск: БГУ, 2023.
6. Аверьянов Ю., Сеитов Э. Обрядовая жизнь шиитов ирони Бухары по данным полевых исследований // Оазисы Шелкового пути: современные проблемы этнографии, истории и источниковедения народов Центральной Азии: К 100-летию доктора исторических наук Балкис Халиловны Кармышевой, 2018: сб. науч. ст. / отв. ред. Котюкова Т.В. – М., 2018.
7. Джумаев А.Б. Традиция ашуро у иранцев Бухары как социокультурный и художественный феномен // Мир ислама: история, общество, культура. Мир ислама: история, общество, культура: Тезисы докладов II Международной научной конференции. 28–30 октября 2010 г.
8. Toxtiyev Sh.R. Markaziy Osiyoda shia jamoalarining shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari [Matn]: monografiya / Sh.Toxtiyev. – Toshkent. Bookmany print, 2022.
9. O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 27-iyundagi 02-02/02/1/1846-sonli xati asosidagi dala tadqiqoti materiallari. – Samarqand viloyati, O'zbekiston – Eron do'stlik jamiyati Panjob masjidi, Murod Avliyo masjidi, 2025-yil 4–6-iyul.

ЖАСЛАР РУЎХЫЙ ТӘРБИЯСЫНДА ДӘСТАН ХӘМ ЭПОСЛАРДЫН ОРНЫ

Жиенгалий Усенов, Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институтының “Миллий идея, руўхыйлық тийкарлары хәм хуқық тәлими” кафедрасы доценты ў.ў.о., ф.и.ф.д. (PhD)

YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIDA DOSTON VA EPOSLARNING O'RNI

Jiengali Usenov, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrasi dotsenti v.b., f.f.d. (PhD)

THE ROLE OF DASTANS AND EPICS IN THE SPIRITUAL EDUCATION OF YOUTH

Zhiengali Usenov, Acting Associate Professor of the Department of “National Idea, Fundamentals of Spirituality and Legal Education” at Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz, Doctor of Philosophy (PhD)


РОЛЬ ДАСТАНОВ И ЭПОСОВ В ДУХОВНОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Жиенгали Усенов, и.о. доцента кафедры “Национальная идея, основы духовности и правовое образование” Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза, д.ф.н. (PhD)



<https://orcid.org/0009-0009-9048-9295>

e-mail:
jiengaliy@mail.ru



Аннотация: Мақалада халық дәреткен дәстанлардың бизиң руўхыйлығымыздың негизи болыўының тийкаргы себеби: оларда дослық, ўатансүйиўшилиқ, шешенлик, мәртлик, батырлық, қахарманлық, опадарлық, садықлық, миймандослық, әдиллик, татыўлық, муҳаббат хәм тағы басқа да инсан тәрбиясына зәрүрли болған пазыйлетлердиң терең сәўлелендирилгенлиги, соның менен бирге бул пазыйлетлерге қарсы келетугын жат иллетлердиң: сатқынлық, қорқақлық, наданлық, жаўызлық, әдепсизлик, ашкөзликтің қаралағанлығы менен ажыралып туратугынлығы мысаллар менен баянлап берилген.

Таяниш сөзлер: дослық, ўатансүйиўшилиқ, мәртлик, миймандослық, әдиллик, татыўлық, муҳаббат, инсаный пазыйлетлер, жат иллетлер, сатқынлық, наданлық, жаўызлық, әдепсизлик, ашкөзликтің халық миллий педагогикасы.

Аннотация: В статье на примерах раскрывается основная причина того, почему народные эпосы являются основой нашей духовности: они глубоко отражают качества, необходимые для воспитания человека, такие как дружба, патриотизм, красноречие, мужество, отвага, героизм, верность, преданность, гостеприимство, справедливость, согласие, любовь и другие добродетели. При этом эпосы отличаются осуждением чуждых пороков, противостоящих этим добродетелям: предательства, трусости, невежества, злодеяний, бесчестия и алчности.

Ключевые слова: дружба, патриотизм, мужество, гостеприимство, справедливость, согласие, любовь, человеческие добродетели, чуждые пороки, предательство, невежество, злодеяние, безнравственность, алчность, народная педагогика.

Abstract: This article uses examples to reveal the primary reason why folk epics form the foundation of our spirituality: they deeply reflect qualities essential for human development, such as friendship, patriotism, eloquence, courage, bravery, heroism, loyalty, devotion, hospitality, justice, harmony, love, and other virtues. At the same time, these epics are distinguished by their condemnation of alien vices that oppose these virtues: treachery, cowardice, ignorance, villainy, dishonor, and greed.

Keywords: friendship, patriotism, courage, hospitality, justice, harmony, love, human virtues, alien vices, betrayal, ignorance, villainy, immorality, greed, folk pedagogy.

КИРИСИҮ. Халық жәмийеттеги барлық материаллық байлықтарды дәретиүши күши ғана болып қалмастан, рухый байлықтардың да бирден-бир таусылмайтуғын дереги, жердеги барлық мәдениеттің тарихын дәретиүшиси болып табылады. Олар дәреткен дәстанлардың бизің рухыятымыздың төркини болыуының тийкарғы себеби: оларда дослық, ұатансүйишлик, ақыллылық, тапқырлық, шешенлик, төрелик, кәтқудалық, мәртлик, батырлық, қахарманлық, опадарлық, садақлық, миймандослық, әдиллик, татыулық, мухаббат хәм тағы басқа да инсан тәрбиясына зәрүрли болған пазыйлетлердің терең сәуленгенлиги, соның менен бирге бул пазыйлетлерге қарсы келетуғын жат иллетлердің: сатқынлық, қорқақлық, наданлық, жауызлық, әдепсизлик, ашкөзликтің қараланғанлығы менен ажыралып турады.

ӘДЕБИЯТЛАР АНАЛИЗИ. Батырларға тән айрықша қәсийетлер: жаудан сескенип қорықпаслығы, мысалы, «Жолды босат, бажбанбысаң енеғар, Қорқар бала анасынан туўған жоқ» («Алпамыс»), қалың душпанға бир өзи қарсы шабатуғын дәўжүреклиги: «Алдын қырдым дегенде, арты гүўлеп толады. Биреўи өлсе қалмақтың, мыңы таяр болады» («Алпамыс»). Бунда дәстан батырларының арнамысты жоқары қоятуғынлығы, халқы хәм ұатаны ушын аянбай гүресетуғынлығы сыяқлы жақсы қәсийетлери сүўретленеди.

Халықтың миллий тәрбиясында әзелден бар болған ата-ананы сыйлаў, ата-ананы разы қылыў пазыйлетлери жазба әдебиятта мысалы, «Ата-ананды кәдирле, Өлгениңше жақсы сөйле. Мал тапсаң торқаға бөле, Өсеріңе жақсы, балам» (Бердақ) десе, аўызеки әдебиятта да буның ең жақсы үлгилери ушырасады. Мысалы, «Алпамыс» дәстанында Алпамыс Гүлпаршынды алып қайтыў ушын ат сорап Құлтай бабаға барғанда, баба оған

дәслең ата-анасынан рухсат сораў кереклигин айтып былай дейди:

Атаң менен енеңнен,
Ақ пәтия ал, дейди.
Ата менен енени,
Наразы қылған баланың,
Сирә жолы болмайды [1]

- дегенде Алпамыс бул сөзге жүгинип ата-анасынан рухсат сорап, ақ пәтия алып кетеди.

Дәстанларда халқымыздың ой-пикир дәрежеси, дилўарлығы, шешенлигин көбинесе жумбақ формасында баянлаўы, бул арқалы ойының жүйриклигин, қыялының қанатын көрсетиўи дәлилленеди. Мысалы, Алпамыс Қаражанға өзиниң қалмақ елине не мақсетте киятырғанын былайынша жумбақ формасында айтады:

- Алдын баслап кеткен ол қара нарым,
Кейнинен кеткенди куба ингени,
Ортасында кетти ақша ботасы,
Мойнында кеткенди алтын буйдасы [2].

Алпамыстың Қаражанға жумбақ формасында айтқан бул сөзиниң тийкарғы мәниси: қара нарым дегени – Байсары, куба ингени – Гүлпаршынның анасы Жантилес, ақша ботасы – бул Гүлпаршын дегенди аңлатады. Бул арқалы халқымыздың ой-пикир дәрежесиниң жоқарылығын, сөзге шешенлигин, тил жүйриклигин көремиз.

ТАЛҚЫЛАҮ ХӘМ НӘТИЙЖЕЛЕР.

Өзиниң ой-пикирин астарлы түрде жумбақ формасында беріў усылы басқа дәстанларда да көплеп ушырасады. Мысалы ушын, «Едиге» дәстанында Нуратдинниң ізлеп келип әкеси – Едиге менен ушырасыўы, әсиресе онда жоғалған атасының, тапқан баласының символлық образлар менен сүўретлениўи жүдә қонымлы болып, бул жумбақ образлар бизің халқымыздың даналығын, ой-өрисиниң өткирлигин аңлатады. Нуратдинге «Жойытқан жоғыңның түрин айт» - дегенде Едил менен

Жайықтан, Ноғайдың толы журтынан жок
излеп киятырғанын:

Маң-маң басқан, маң басқан,
Төрт аяғын тең басқан,
Шуўдаларын шаң басқан,
Өркешлерин май басқан,
Қара нарым жойыттым...[3]
- деген сөзлер менен билдиреди.

Хәзирги ўақыттағы той-мерекелерде дәстүрге айланған палўанлардың гүреси тарийхының жүдә әйемги дәўирлерге барып тақалатуғынлығын дәстанлардан көрийимизге болады. Жаў майданда еки елдің батырының жекпе-жекке шығыўы, бир-бирине «алыспақ керек пе, шабыспақ керек пе, атыспақ керек пе?» деп урысқа шайланыўы, егер алысыўды макул көрсе, курал-сайманын таслап, саўытларын шешип, алысыўы хәм күшлерин сынап бири-екиншисин жығыўы, жығылғаны өзиниң жеңилгенин мойынлап мәртлик көрсетиўи сыяклы мотивлер дәстанларда көплеп ушырасады. Мәселен, Алпамыс пенен Қаражан бир-бири менен жети күн гүреседи. Ақырында Алпамыс Қаражанды жығыўға миясар болады. Мине, усы гүресте Алпамыстың пирлерден мәдет сораитығын эпизоды бар. Бул нени аңлатады? Пирлерге сыйыныў, олардан күш, мәдет сораў – бул диний инаным болып, әзелден адамлар тәбияттан тыс күшлердің бар екенине исенген хәм олардан күш алған. Алпамыс та Қызыр баба, Хәзирети Әлий, Жылқышы ата, Хәзирети Даўыт, Жайылған бабалардан мәдет сораиды. Сонда Жайылған бабасы келип Алпамыстың арқасынан қағып, аўзына түкиреди. Сол ўақытта Алпамыстың денесинде ғайры тәбийий күш пайда болып, Қаражанды көтерип жерге урады. Усы инаным, пирлерден мәдет сораў культы кейин ала халықтың санасына сиңип, тойларда, жарысларда палўанлардың гүрес ўақтында «я, пирим!» деп қарсыласына жамбас урыўы әдетке айланып кетеди.

Халқымызда «Ер шекиниспей, бекиниспейди» деген ҳикметли сөз бар. Яғный тарийхта не бир ер азаматлар бир-бири менен жаўласса, дәслепп урысып, кейнин жарасқан, қыяметлик дос болып қол берискен. Демек, олардың дос болыўында дәслепки аразласыўы, яғный «шекинисиўи» жәрдем берген десек орынлы болады. Бул да мәртликтің белгиси

болып, атадан балаға өтип, хәзирде бундай жағдайлар халық арасында жийи ушырасады. Дәстанда Алпамыс пенен Қаражан да дәслепп айқасып, кейнин садық дос болады.

Дәстанларда ўәдеге опадарлық, бир сөзлилик идеялары адамға жүдә тәсирли етип сўўретленеди. Мысалы ушын, Алпамыс Тайшыхан журтына келип Гүлпаршын менен ушырасып оған «Байсын елге жүр қайтайық, дилбарым» дегенинде, Гүлпаршын қалмақ журты жаў болса да, оларға нашар басын ат байраққа тиккенин айтып, ким де ким усы жарыста озса соған турмысқа шығаман деп ўәде бергенин, ўәдени бузбайық, өйтип нәмәрт болмайық деп:

Хәр ким тайса лебизинен,
Хүкиминде болар кәпирдин,
Деген сөз бар байбәтше,
Атың озса оздырып ал,
Атың қалса байрақтан,
Батырлығыңды билдирип ал [4],

- деп бир сөзлилик, туўрылықтың әҳмийетин жоқары көтереди.

Орта Азия халықлары, соның ишинде қарақалпақлар әзелден қыз перзентти ул балаға қарағанда артық көрип мәпелейди, гүлдей етип қәстерлеп өсиреди, шаңарақта олардың жақсы тәрбия алыўында барлық шәраятларды жаратып береді, қыз перзентин еркин етип кәмалға келтиреди. Сонлықтан, қарақалпақ қызлары көбинесе өр көкирек, мәрт, өзиниң пикирин емин-еркин баянлайтуғын шахс сыпатында көзге түседі. Демек, қыз баланы усындай руўхта тәрбиялаў усылын қарақалпақлардың әзелден миллий менталитетинде қәлиплескен өзгешеликлериниң бири деп қараўға болады. Қыз перзенттиң еркинлиги дәстанларда да сәўлеленген.

Мәселен, «Қырық қыз» дәстанында Аллаярдың қызы Гүлайымға кең ерк бериўи, оны алты ул перзенти арасында айрықша көрип мәпелеп өсириўи, оған әскерий өнер менен шуғылланыўына рухсат бериўи, қызының бойындағы бундай батырлық, жаўынгерлик қәсийетлерин көрип куўаныўы, хәттеки қызының қырық қыз жыйнап, олар менен бирге әскерий шынығыўлар өткериўи ушын Мийўалы бағ қаласын салып бериўи – булар халқымыздың менталитетинде әзелден

жасап киятырған қыз перзентке болған айрықша итибардың, өзгеше меңірдің үлгісі болып табылады.

«Алпамыс» дәстанында Гүлпаршын қыз ержетіп он төрт жасына шыққанда, Тайшыхан менен Қаражаннан жаушылар айттырып келгенде, Байсары: - Ханнан келген хан иним, бийден келген бек иним, бизің елде шәрият бар еди, шәрияттың кітабында сөз бар: Нашар бала ер жеткен соң өзінен бийжуап кисиге бериу шәрияттың мәсхәбине сыймайды. Маған бир азырақ мәулет берің, мен бир үйіме кирейін, қызыма кеңесейін, қайсысына тийемен десе, өзим шығып жуабын берейін, - дейди [5]. Бул келтірілген мысалдағы Байсарының ханның жаушыларына берген жуабы қыз перзенти ержетіп, оны айттырып келгенде қызынан кеңес сораын, өзінің пикирін билейін, қайсысына тийемен десе өзінің ерки, деуі – бул халқымыздың әзедден қыз баланы еркин етип тәрбиялауының бир нышаны, елде шәрият бар еди дегені елдің дәстүрі екенлігі, ал дәстүр болса халықтың миллий менталитетінің бир белгісі екенлігін көрсетеди. Гүлпаршын әкесіне екеуіне де тиймейтуғынлығын айтады. Өзінің кішкентайынан Алпамыстың қалыңлығы екенлігін ядына салады, әкесінің Байбөрі менен ақлай қуда болғанлығын айтып, елдің дәстүріне, үәдеге опасызлық етиу қыянет екенлігін түсіндіреді хәм жаушылардың алдына шығып тийісли жуабын береді, олардан алты ай мәулет сорады, алты ай өткеннен кейін ханның уллы тойды баслап, тойда атларды айлауға жиберіуді, ат жарыста кимнің аты бирінші болып озып келсе, соған турмысқа шығатуғынын, нашар басын ат байраққа тигетуғынлығын айтады. Бунда биріншіден, Гүлпаршынның Алпамысқа садықлығы айтылса, екіншіден, Алпамыстың алты айға шекем изинен келип, оны өзі менен бирге алып кетеди деген үмити, үақыттан утыу ушын ойлап тапқан ақыллылығы, тапқырлығы, жуабайлығы, жас болса да дәстүрге хәм үәдеге садық екенлігі сәулеленип, бул жуабы арқалы жасларға өрнек болатуғынлығын айтып өтсек болады.

ЖУЌМАҚ ХӘМ УСЫНЫСЛАР.

Демек, дәстанлар халықтың өзлігі, миллий

руұхый тәрбиясы, миллий менталитетінен сабақ беретуғын тийкарғы тәрбия куралы болып табылады. Оны жасларымыз қанша жақсы үйренсе, сонша жетіскенліклерге ериседи, олардың санасында миллий руұхый тәрбия сонша жеңил, сонша терең қәлиплеседи. Дәстанларда келтірілген миллий қәдириятлар, үрп-әдетлер, салт-саналар, уғымлар инсан тәрбиясы хәм инсан кәмиллигінің талаптарына хәр тәреплеме сәйкес келеди. Академик Ж.Базарбаев дәстанлар хаққында: «Олар халқымыздың мың жыллық жәмийетлик өмири, турмыс салты, ойлау тәризi, өзине тән әдеби, көп жыллық тәжирийбелерінің нәтийжесі, ер жүрек қахарманлар, опадар гөззаллар образы бизің ғәрезсизлігіміз тийкарында қәлиплесип атырған жоқары руұхыйлығымыз ушын бийбаха үлгі хызметін атқарады»-деп дәстанлардың жаслар санасында миллий руұхый тәрбияны, миллий менталитетті қәлиплестіріудегі әхмийетін көрсетеди [6].

Жаслар тәрбиясын халық даналығы арқалы қәлиплестіріу мәселесі еле де терең үйренетуғын мәселелердің бири. Буны тек мақаланың киши бир бөлігінде жарытып бериу қыйын. Өйткени заманагөй жаслар руұхый тәрбиясы бойынша социологиялық изертлеу алып барыуды, оны терең анализлеуді талап етеди. Бабаларымыздан шынжырма-шынжыр өтип киятырған халық ауызеки дөретиушилигі жаслар тәрбиясында хәм оларды миллий менталитет руұхында тәрбиялауда ең бай тәжирийбе мектебі болып есапланады.

ПАЙДАЛАНЫЛГАН ӘДЕБИЯТЛАР:

1. Қарақалпақ фольклоры. 1-8-томлар. Нөкіс: «Қарақалпақстан», 2007.18-бет.
2. Қарақалпақ фольклоры. 1-8-томлар. Нөкіс: «Қарақалпақстан», 2007.25-бет
3. Қарақалпақ фольклоры. 9-13-томлар. Нөкіс: «Қарақалпақстан», 2009.382б.
4. Қарақалпақ фольклоры. 1-8-томлар. Нөкіс: «Қарақалпақстан», 2007.33-бет.
5. Қарақалпақ фольклоры. 1-8-томлар. Нөкіс: «Қарақалпақстан», 2007.12-бет.
6. Базарбаев Ж. Миллий идея – жол көрсетиуши жулдыз. Нөкіс: «Қарақалпақстан». 2011. 31-бет.

Qabul qilindi: 02.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK: 801.82:81.179

TERMIZIY ALLOMALAR MEROSINI O'RGANISH VA TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI

Yaxyayev Zoxir Qarshiyevich,

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi matbuot kotibi

THE IMPORTANCE OF STUDYING AND PROMOTING THE LEGACY OF TERMIZI SCHOLARS

Yahyayev Zohir Karshiyevich

Press Secretary of the Imam Termizi International scientific-research
center

ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ И ПРОПАГАНДЫ НАСЛЕДИЯ УЧЁНЫХ ТЕРМИЗА

Яхьяев Захир Каршиевич,

пресс-секретарь Международного научно-исследовательского
центра имени Имама Термизи
<https://orcid.org/0009-0005-2799-2243>

e-mail:

yaxyayev.zoxir@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom Termiziy va Termiziy allomalarning ilmiy-ma'naviy merosi, ularning islom ilm-fani rivojida o'rni va zamonaviy jamiyatda bu merosni chuqur o'rganish va targ'ib etish zaruriyati haqida so'z yuritiladi. Maqolada ushbu boy merosni yosh avlodga yetkazish, uni zamonaviy texnologiyalar orqali keng ommaga tanitish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Imom Termiziy, ilmiy meros, islom olimlari, targ'ibot, Termiz allomalari, ma'naviy qadriyatlar, yosh avlod, zamonaviy texnologiyalar.

Annotation: This article discusses the scholarly and spiritual legacy of Imam Termiziy and other Termizi scholars, their contributions to the development of Islamic sciences, and the need to deeply study and promote this heritage in modern society. The article provides recommendations on how to convey this rich legacy to the younger generation and how to introduce it to the wider public through modern technologies.

Keywords: Imam Termiziy, scholarly legacy, Islamic scholars, promotion, Termiz scholars, spiritual values, youth, modern technologies.

Аннотация: В данной статье рассматривается научно-духовное наследие Имама Термизия и термизских учёных, их вклад в развитие исламской науки, а также необходимость глубокого изучения и популяризации этого наследия в современном обществе. В статье приведены рекомендации по передаче этого богатого наследия молодому поколению и его широкому распространению с использованием современных технологий.

Ключевые слова: Имам Термизий, научное наследие, исламские учёные, пропаганда, термизские учёные, духовные ценности, молодёжь, современные технологии.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

O'zbek xalqining boy ilmiy-ma'naviy merosi jahon tamadduni tarixida alohida o'rin egallaydi. Xususan, Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan alloma va muhaddislar islom ilmlari taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan. Shunday buyuk allomalardan biri Imom Termiziy bo'lib, u hadis ilmining yetuk namoyandasi sifatida tanilgan.

Imom Termiziy nomi nafaqat diniy, balki madaniy, axloqiy va ijtimoiy-ma'naviy hayotda ham chuqur iz qoldirgan ulug' siymodir. Bugungi kunda u yashab o'tgan hudud —Termiz shahri ilm-fan, tafakkur va ma'naviyat markazi sifatida yana bir bor e'tiborga olinmoqda.

Imom Termiziy va Termiziy allomalarning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish, uni

zamonaviy metodologiyalar asosida tahlil qilish, yosh avlodga yetkazish va keng jamoatchilikka tanitish bugungi davrning muhim vazifalaridan biridir. Zero, ularning asarlarida nafaqat diniy bilimlar, balki jamiyatni tarbiyalash, axloqiy me'yorlarni mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chuqur fikrlar mujassam. Ushbu merosni o'rganish — bu nafaqat o'tmishga nazar, balki bugungi va kelajak avlod tarbiyasiga xizmat qiluvchi amaliy harakatdir.

Zamonaviy globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ma'naviy merosni targ'ib qilish yangi shakl va uslublarni talab qilmoqda. Bu borada Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy, ma'rifiy va madaniy faoliyatlar e'tiborga molikdir. Ayniqsa, bu faoliyatlarning zamonaviy kommunikatsiya vositalari, internet resurslari, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng ommaga yetkazilishi Termiziy allomalari merosini jahon miqyosida tanitishda muhim omil bo'lmoqda.

Ushbu maqolada Imom Termiziy va Termiziy allomalarining ilmiy-ma'naviy faoliyati, ularning islom ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasi hamda bugungi kunda ularning merosini o'rganish va targ'ib qilishning dolzarbligi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada ushbu merosni yoshlar ongiga singdirish, uni ommalashtirishda zamonaviy texnologiyalar, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham keltiriladi. Bu esa ilmiy-ma'naviy merosimizni tiklash, qadriyatlarimizni asrash va milliy o'zligimizni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (JITEPATYPA II METOD / MATERIALS AND METHODS). Imom Termiziy va Termiziy allomalar ilmiy merosini o'rganishda asosiy manba sifatida hadis ilmining mo'tabar to'plamlari, ularning zamonaviy sharhlari, tarjimalari, shuningdek, biografik va lug'aviy manbalar xizmat qiladi. Bu borada eng avvalo, Muhammad ibn Iso Termiziyning mashhur asari "Sunan" alohida o'rin egallaydi. Ushbu asar hadis ilmining asosiy to'plamlaridan biri bo'lib, unda muallif hadislarni sahih, hasan va zaif toifalarga ajratgan, ularning isnod va matnlarini ilmiy mezonlar asosida tahlil qilgan [4].

Hadis ilmining rivojida Imom Termiziy kabi allomalarining o'rni haqida ma'lumot beruvchi

biografik manbalar, xususan Shamsuddin Zahabiyning "Tazkiratul huffaz" asari muhim ahamiyatga ega. Unda Imom Termiziy hayoti, ilmiy faoliyati va ilmiy maqomi haqida ishonchli tarixiy dalillar keltirilgan [6].

Zamonaviy davrda Imom Termiziy merosini yangicha tahlil qilgan muhim tadqiqotlardan biri — Nuriddin Itrning "Al-Imam at-Tirmiziy va al-muvazanatu jami'ih va bayna as-sahihayn" nomli asaridir. Unda Imom Termiziyning hadis to'plami Imom Buxoriy va Imom Muslim to'plamlari bilan qiyosiy tahlil qilingan [5].

Shuningdek, O'zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy sayti (<https://uza.uz>) [7], shuningdek termiziy.uz [8] saytlarida Imom Termiziy, Termiz allomalari va ularning ilmiy merosi haqidagi eng so'nggi yangiliklar, maqolalar va raqamli materiallar muntazam chop etilib borilmoqda. Bu manbalar zamonaviy axborot texnologiyalari orqali ilmiy merosni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim vositadir.

Yuqorida keltirilgan yozma va raqamli adabiyotlar Imom Termiziy va Termiz allomalari merosini chuqur o'rganish uchun boy manba bazasini tashkil etadi. Hadis matnlari, ularning tarixiy-biografik sharhlari, zamonaviy tahlillar hamda raqamli platformalarda berilgan ma'lumotlar bu mavzuni kompleks yondashuvda tadqiq etish imkonini beradi.

MUHOKAMA

(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). So'nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar nafaqat iqtisodiyot va siyosat, balki ma'naviyat sohasida ham yangi ufqlarni ochib bermoqda. Xususan, 2017-yil 14-fevral kuni qabul qilingan "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror [1] asosida tashkil etilgan mazkur markaz Surxondaryo viloyatida, xususan, Termiz shahrida ilm, ma'naviyat va taraqqiyot timsoliga aylandi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markaziga qilgan tashrifi chog'ida:

"Islom dini rivojiga hissa qo'shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Iso Termiziy va Termiziy allomalarining benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish va xalqimizga yetkazish o'ta muhim ishdir", — deya bejiz ta'kidlamagan edilar [2].

Darhaqiqat, Surxondaryo zaminidan Imom Abu Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Bakr Varroq Termiziy singari yuzlab yirik allomalar yetishib chiqqan. Ularning har biri islom ilmi, hadisshunoslik, tasavvuf, fiqh, tafsir kabi sohalarida o'ziga xos maktab yaratgan. Ularning ilmiy merosi bugungi kunda nafaqat o'zbek xalqi, balki butun musulmon dunyosi uchun bebaho boylikdir.

Bugungi kunda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining rasmiy sayti – Termiziy.uz sayti orqali Termiziy allomalarga oid ilmiy maqolalar, kitoblar, qadimiy qo'lyozmalar tavsifi, zamonaviy izlanishlar va xalqaro hamkorlikka oid ma'lumotlar doimiy ravishda yoritib borilmoqda. Sayt orqali nafaqat ilmiy xodimlar, balki talabalar va o'qituvchilar ham Termiziylar merosi bilan tanishib, undan foydalanishi mumkin [7].

Termiziylar merosi borasidagi targ'ibot ishlari faqat ilmiy doira bilan cheklanib qolmaydi. Xususan, Surxondaryo viloyatidagi maktablarda "Termiziylar avlodimiz" shiori ostida o'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlari yuksak natijalarni bermiqda. Bu tadbirlarda maktab o'quvchilari uchun maxsus ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulotlar, sahna ko'rinishlari, viktorinalar, ilmiy ma'ruzalar tashkil etilmoqda. O'quvchilarning Termiziy allomalari hayoti va asarlari bo'yicha tayyorlagan taqdimotlari, adabiy-badiiy chiqishlari, esse va referatlari yoshlar orasida Termiziylar merosiga bo'lgan qiziqishni orttirayotgani ayni haqiqatdir [8].

NATIJALAR (PEZYJTATY/ RESULTS). Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashabbusi bilan ilmiy muassasalar, oliy ta'lim dargohlari hamda xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan xalqaro anjuman va konferensiyalar ushbu merosning global darajadagi ilmiy dolzarbligini tasdiqlaydi. Jumladan, 2024-yil 17–18-oktabr kunlari Termiz shahrida o'tkazilgan "Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumanda Buyuk Britaniya, Turkiya, Rossiya, Misr, Iroq, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston kabi davlatlardan 50 dan ortiq yetuk olimlar ishtirok etdi. Bu esa Termiziy allomalar merosining jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan katta e'tirof etilayotganidan dalolat beradi [2].

Ushbu ilmiy-amaliy chora-tadbirlar orqali ajdodlarimizning bebaho merosi asosida yosh avlodni vatanparvar, bilimli, ma'naviy barkamol shaxs etib tarbiyalash, ularni global ilmiy hamjamiyat bilan teng raqobatga tayyorlashga xizmat qilmoqda. Zero, Imom Termiziy va Termiziy allomalarning ilmiy merosi yoshlar qalbida milliy iftixor, ma'naviy uyg'onish, yurtga sadoqat tuyg'ularini kuchaytiradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Imom Termiziy va Termiziy allomalarning ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish, uni xalqaro miqyosda targ'ib qilish va avlodlardan avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bu yo'lda olib borilayotgan ishlar – Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Burhoniddin Termiziy va boshqa Termiziylar nomini abadiylashtirish, Termiz ilmiy an'analari davom ettirish o'zligini anglashi kerak bo'lgan har bir yosh uchun bebaho maktabdir. Shu sababli, bu yo'nalishdagi faoliyat davomli, izchil va chuqur ilmiy asosda olib borilishi muhimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2017-yildagi PQ-2774-sonli "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. 2024 yil 17-18 oktabr kunlari Termiz shahrida bo'lib o'tgan Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman maqolalari to'plami.
3. Aminov H. Ismoilov M. Abiyev H. Abdullayev B. Sunani Termiziy sharhi. 2-j. – Toshkent: Irfonnashr, 2021. – 396 b.
4. Muhammad ibn Iso Termiziy. Sunan. – Bayrut – Livan: Dorul kutubil ilmiya, 1973. – 784 b
5. Nuriddin Itr. Al-Imam at-Termiziy val muvazanatu jomi'ih va bayna sahihayn. – Damashq: Dorul basoir, 2014. – 576 b.
6. Shamsiddin Zahabiy. Tazkirotul huffoz. 2-jild. – Haydarobod. Majlis doiratil ma'orif an nizomiya, 1915. – 1403 b.
7. <https://uza.uz/uz>
8. <https://termiziy.uz/uz>

DERADIKALIZATSIYA: IJTIMOY-FALSAFIY MUAMMO SIFATIDA

Ergashev Otabek Xasanovich,
Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi xodimi
ДЕРАДИКАЛИЗАЦИЯ: КАК СОЦИАЛЬНО-
ФИЛОСОФСКАЯ ПРОБЛЕМА

Эргашев Отабек Хасанович,
сотрудник управления внутренних дел Сурхандарьинской
области

DERADICALIZATION: AS A SOCIO-PHILOSOPHICAL ISSUE

Ergashev Otabek Khasanovich
Employee of the Department of Internal Affairs of Surkhandarya
Region



<https://orcid.org/0009-0000-1315-4752>

e-mail:
otabek.xasanov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy davrda radikal g'oyalarning tarqalishiga qarshi kurashish jarayonida "yumshoq kuch" tamoyilining o'rni va ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. "Yumshoq kuch" vositalari orqali fuqarolarda ijtimoiy immunitetni shakllantirish, ongli qaror qabul qilishga undash, radikalizmning ildizlariga qarshi mafkuraviy va ma'naviy asosda kurashish muhimligi yoritilgan. Shuningdek, ta'lim, madaniyat, diniy-ma'rifiy ishlar, OAV va ijtimoiy tarmoqlarning yumshoq kuch sifatidagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: yumshoq kuch, radikalizm, ijtimoiy-falsafiy tahlil, mafkura, diniy ekstremizm, axborot maydoni, ijtimoiy tarmoq, ongli qaror.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение принципа «мягкой силы» в противодействии распространению радикальных идей в современном обществе с социально-философской точки зрения. Подчеркивается важность формирования общественного иммунитета, повышения сознательности граждан и ведения идеологической и духовной борьбы с корнями радикализма. Особое внимание уделяется роли образования, культуры, религиозно-просветительской деятельности, СМИ и социальных сетей как инструментов мягкой силы.

Ключевые слова: мягкая сила, радикализм, социально-философский анализ, идеология, религиозный экстремизм, информационное пространство, социальные сети, сознательный выбор.

Abstract: This article examines the role and significance of the "soft power" principle in combating the spread of radical ideologies from a socio-philosophical perspective. It emphasizes the importance of building social immunity, encouraging conscious decision-making among citizens, and countering the roots of radicalism through ideological and spiritual means. The study highlights the role of education, culture, religious enlightenment, media, and social networks as key tools of soft power.

Keywords: soft power, radicalism, socio-philosophical analysis, ideology, religious extremism, information space, social media, conscious choice.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION). Radikallashuv zo'ravonlikka olib boruvchi ekstremizmning ilk bosqichi sifatida qaraladi. Ya'ni, bir shaxs o'z mafkurasi yo'lida zo'ravonlikni o'ziga oqlovchi vosita sifatida qabul qiladi va bu yo'lida turli usullarni tanlaydi. Bu mafkura chap yoki o'ng siyosiy yo'nalishda, etnik asosda yoki diniy negizda bo'lishi mumkin. U o'z

g'oyalari va maqsadlarini aynan shu mafkura atrofida shakllantirib, ularni amalga oshirish uchun zo'ravonlikni vosita sifatida ishlatadi. Radikal fikrlarga ega bo'lgan shaxslar o'z qarashlarini so'z erkinligi doirasida ifodalashni afzal ko'rishlari mumkin. Ammo ular zo'ravonlikka qo'l urgach, bu holat ekstremizm va jinoyat doirasiga kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ИТЕПАТРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Italian olim Donatella Della Portaning ta'rifiga ko'ra, radikallashuv bu — “siyosiy zo'ravonlikning faol qo'llanilishiga olib boruvchi jarayon”dir. Shuningdek, bu atama, biror umumiy manfaat yoki maqsadni himoya qilayotgan kichik guruhlar orasida zo'ravonlikni talab qiluvchi holatlarni sezilarli darajada oqlovchi fikrlar, his-tuyg'ular va xatti-harakatlardagi o'zgarishlarni ham anglatadi [7].

Shveytsariyalik olim Aleks Piter Shmid radikallashuv jarayonini eng keng qamrovli tarzda quyidagicha ta'riflagan: Radikallashuv — bu mojaroli muhitda mojaroning ikki tomonini tashkil etuvchi siyosiy kuchlar va guruhlar o'rtasidagi dialog, murosas va bag'rikenglik tamoyillarining bir tomonlama yoki o'zaro tarzda butunlay rad etilishi orqali yuzaga keladigan, individual yoki jamoaviy tarzda kechuvchi jarayondir. Ushbu jarayon uch yo'nalishda namoyon bo'ladi:

bosim va majburiyat (zo'ravonliksiz);
terrorizm bo'lmagan, biroq siyosiy zo'ravonlikning turli shakllari;
terrorizm va harbiy jinoyatlar tarzidagi ekstremistik harakatlar.

Bu jarayon isyonkor tomonning mo'tadil qarashlardan chekinib, mavjud holatni to'g'ri va qonuniy deb hisoblamasdan, radikalroq va zo'ravonlikka moyil pozitsiyalarni egallashini o'z ichiga oladi [3].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Islomni mafkura sifatida qabul qilgan va diniy qadriyatlarni asl kontekstidan ajratib olib, ularni zo'ravonlikni oqlash vositasiga aylantirgan shaxslar akademik adabiyotlarda alohida guruh sifatida o'rganiladi. Bunday shaxslar takfirchi va inkor qiluvchi yondashuvni qabul qilgan bo'lib, o'z fikrlarini Qur'ondan tanlab olingan oyatlar bilan asoslashga urinadi, tarixiy kontekstni inkor etadi va o'z mafkurasidan boshqa barcha kishilarni dushman sifatida ko'radi. Siyosiy jihatdan esa, zo'ravonlikni axloqiy jihatdan oqlash uchun Islomni mafkura sifatida taqdim etadi. Ular inqilobiy yo'lni tanlab, mavjud tuzumlarni ag'darish va dunyoni tubdan o'zgartirishni maqsad qilganlar.

Buyuk Britaniyada faoliyat olib boruvchi Royal United Services Institute (Birlashgan Qirollik

Mudofaa Tadqiqotlari Instituti) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, radikalizmga qarshi kurashish va uni oldini olish — bu radikalizمنى kelib chiqish sabablariga, ayniqsa ular paydo bo'ladigan nuqtalarda qarshi turishga qaratilgan, repressiv bo'lmagan va bu kabi oqimlar tarqalishining oldini olishga qaratilgan faoliyatlar yig'indisidir. Bu harakatlar ayniqsa har qanday hududda radikallashuvga moyil shaxslarni o'z ichiga qamrab oladi [4].

Radikalizmga qarshi kurash ko'p yo'nalishli yondashuvni talab qiladi. Faqatgina xavfsizlik kuchlarining aralashuvi bilan cheklanib qolgan usullardan ko'ra, kengroq qamrovga ega dasturlar kerakligi aniqlangan. Shu munosabat bilan, radikalizmga qarshi kurash — bu shaxslarning radikallashuvini, zo'ravonlikni qonuniy deb hisoblovchi ekstremistik guruhlariga qo'shilishlarini, ijtimoiy, iqtisodiy, diniy yoki siyosiy maqsadlarga erishish yo'lida mafkuraviy asosda zo'ravonlikka murojaat qilishni oldini olishga qaratilgan dastur va siyosatlarni anglatadi.

Radikalizmga qarshi kurash usullari odatda qattiq (harbiy) va yumshoq (ijtimoiy) yondashuvlarga ajratiladi. Qattiq yondashuvlar odatda harbiy choralarni o'z ichiga oladi, yumshoq yondashuvlar esa jamiyatda totuvlikni mustahkamlash, ijtimoiy murosani kuchaytirish orqali radikallashuv ehtimoli kam bo'lgan ijtimoiy muhitni shakllantirishni maqsad qiladi [5].

Radikalizmga qarshi kurashning eng asosiy va keng qamrovli maqsadi — bu insonlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o'z fikrlari ustida muloqot olib borish, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarda faolroq ishtirok etish, o'zini erkin ifoda etish orqali kuchli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdan iboratdir.

Yevropa Komissiyasining STRIVE loyihasiga ko'ra, radikalizmga qarshi kurashda 8 ta muhim yo'nalish mavjud:

1. Ta'limni rivojlantirish;
2. OAV orqali xabardorlikni oshirish;
3. Ayollarning mehnat bozoridagi faolligi;
4. Yoshlarga qaratilgan dasturlar;
5. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotga integratsiya;
6. Qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar;
7. O'tish davridagi ijtimoiy adolat ta'minoti;
8. Sport, dinlararo muloqot kabi ijtimoiy faollikni oshiruvchi faoliyatlar [6].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Ilmiy adabiyotlarda kuch ishlatishga asoslangan (ya'ni "qattiq") yondashuvni qo'llab-quvvatlovchi qarashlarga ko'ra, armiya radikal oqimlarga qarshi kurashishda doimiy ravishda muhim rol o'ynab kelgan davlat institutlaridan biri hisoblanadi. Biroq bu usul radikalizmga qarshi kurashda to'liq mos yechim sifatida qaralmaydi. Faqat harbiy choralar bilan cheklanmasdan, radikalizmga olib kelayotgan muammolarning ildiziga yetish va ularga yechim topish harbiy yuklamani kamaytirishga ham xizmat qiladi. Moslashuvchan yondashuv operatsiyalarning samaradorligini oshiradi.

Himoyaviy yondashuvlar ham radikalizmga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi. Bu yondashuvlar doirasida razvedka, infratuzilmani himoya qilish va chegara xavfsizligini kuchaytirish kiradi.

Bugungi kunga kelib "yumshoq kuch" tamoyiliga asoslangan strategiyalar radikallashtirishga qarshi kurashda samarali vositalardan biriga aylanib bormoqda. Bu strategiyalar insonlarning alohida mafkura, zo'ravonlikni oqlovchi e'tiqod tizimlari va demokratik bo'lmagan qarashlarni shakllantirishini oldini olishga qaratilgan. Shu bilan birga, diniy ideologiyani o'zlashtirgan va uni buzib talqin qilgan holda zo'ravonlikni o'ziga halol deb biladigan shaxslar uchun diniy rehabilitatsiya dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsad – bu shaxslarni qat'iy mafkuraviy chegaralardan voz kechishga undash va ularni ochiq, zamonaviy, mo'tadil diniy qarashlarni qabul qilishga yo'naltirishdir. Xavfsizlik xizmatlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari, ayniqsa diniy yetakchilarning jamiyatda ochiqchasiga zo'ravonlikni qoralashi va radikalizmga qarshi alternativ fikrlarni ilgari surishdagi roli muhim sanaladi [7].

Shaxs deradikalizatsiyasi (radikal oqim ta'siridan chiqarilishi) o'z mohiyatiga ko'ra radikalizmga qarshi alohida kurash usuli emas, balki boshqa usullarni to'ldiruvchi amaliyotdir. Shu sababli, u harbiy, siyosiy, ijtimoiy yoki iqtisodiy choralarini inobatga olmasdan mustaqil qo'llansa, yakka holda muvaffaqiyatli natija bermasligi mumkin. Shu bilan birga, ushbu tadbirlar qachon va qayerda amalga oshirilishi ham juda muhimdir. Bir mamlakatda muvaffaqiyatli bo'lgan dastur, boshqa bir mamlakatda ijobiy natija bermasligi mumkin [4].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Zamonaviy global

muammolardan biri bo'lgan radikalizmga qarshi kurashishda deradikalizatsiya jarayoni muhim falsafiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat xavfsizlik choralari bilan, balki inson tafakkurini, dunyoqarashini, ijtimoiy muhitini va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini o'zgartirish orqali amalga oshirilishi lozim. Deradikalizatsiya insonni zo'ravonlikdan voz kechishga, murosaga asoslangan ijtimoiy hayotga qaytishga undaydi.

Radikalizmga qarshi kurashda kuch ishlatish usullari muhim bo'lsa-da, uning ijtimoiy va falsafiy ildizlarini anglash, insonni ongli ravishda o'zgarishga undaydigan, ma'naviy immunitetini oshiradigan yondashuvlar samaraliroqdir. Bu esa ta'lim, madaniyat, diniy-ma'rifiy targ'ibot, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini kuchaytirishni talab qiladi. Deradikalizatsiya – bu faqat xavfsizlik masalasi emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy muammo bo'lib, unga kompleks va barqaror yondashuv zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – 464 b.
3. Alonso Rogelio. Why Do Terrorists Stop? Analyzing Why ETA Members Abandon or Continue with Terrorism. *Studies in Conflict & Terrorism* 34(9). 2011. – P.696- 716.
4. Ashour Omar. The De-Radicalization of Jihadists: Transforming Armed Islamsit Movements. New York: Routledge. 2009.
5. Bötticher Astrid. Toward Academic Consensus Definitions of Radicalism and Extremism. *Perspectives on Terrorism* 11(4). 2017. – P. 73-77.
6. Boucek Christopher. Saudi Arabia's "Soft" Counterterrorism Strategy: Prevention, Rehabilitation, and Aftercare. Washington D.C.: Carnegie Endowment for International Peace. 2009.
7. Donatella Della Porta. Clandestine Political Violence. Cambridge University Press, 2013. – 338 p.

“BAHROM VA GULANDOM” DOSTONI QO‘LYOZMALARI: O‘ZFASHI FONDIDAGI NUSXALAR ASOSIDA ILMIY TAVSIF

Sultonova Dilovar Ne‘matillo qizi

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Matnshunoslik va
adabiy manbashunoslik kafedrası tayanch doktranti,*

*“Jo‘ybori kalon” ayol-qizlar o‘rta-maxsus
islom ta’lim muassasasi o‘qituvchisi*

MANUSCRIPTS OF THE EPIC “BAHROM AND GULANDOM”: SCIENTIFIC DESCRIPTION BASED ON COPIES FROM THE FUND OF THE ACADEMY OF SCIENCES OF UZBEKISTAN

Sultonova Dilovar Nematillo kizi,

*doctoral student at the Department of Textology and Literary Source
Studies of the Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature, Lecturer at the specialized Islamic secondary educational
institution for girls “Juybori Kalon”*



[https://orcid.org/
0009-0008-7389-
5411](https://orcid.org/0009-0008-7389-5411)

e-mail:
[sultonovadilovar0@
gmail.com](mailto:sultonovadilovar0@gmail.com)

РУКОПИСИ ПОЭМЫ «БАХРОМ И ГУЛАНДОМ»: НАУЧНОЕ ОПИСАНИЕ НА ОСНОВЕ ЭКЗЕМПЛЯРОВ ИЗ ФОНДА АН РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

*Султонова Диловар Нематилло кызы, докторант кафедры
Текстологии и литературного источниковедения Ташкентского
государственного университета узбекского языка и литературы,
преподаватель специализированного исламского учебного
заведения среднего образования для девушек «Жуйбори Калон»*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (O‘zFASHI) saqlanayotgan “Bahrom va Gulandom” dostoni nusxalarining xronologik, kodikologik va matniy tavsifi berilgan. Asarning beshta asosiy qo‘lyozma va toshbosma nusxalari aniqlanib, ularning yozuv xususiyatlari, hajmi, muqova holati va qo‘lyozma sifatidagi ahamiyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Bahrom va Gulandom, Sayqaliy, O‘zFASHI, qo‘lyozma, kodikologiya, o‘zbek dostoni, manbashunoslik.

Annotation: This article presents the chronological, codicological, and textual description of the manuscript versions of the epic Bahrom and Gulandom, preserved at the Abu Rayhon Beruni Institute of Oriental Studies (Academy of Sciences of Uzbekistan). The study identifies four main manuscript and lithograph copies of the work and analyzes their script characteristics, volume, cover condition, preservation status, and scholarly significance. The article provides a scientific foundation for the further textual study of the epic.

Keywords: Bahrom and Gulandom, Sayqali, Institute of Oriental Studies (UzAS), manuscript, codicology, Uzbek dastan, source studies.



Аннотация: В данной статье представлено хронологическое, кодикологическое и текстологическое описание рукописных версий дастана «Бахром и Гуландом», хранящихся в Институте востоковедения имени Абу Райхона Беруни (Академия наук Узбекистана). В процессе исследования были идентифицированы четыре основные рукописные и литографические версии произведения, подробно рассмотрены особенности письма, объем, состояние обложки, степень сохранности и научная ценность рукописей. Статья служит научной основой для дальнейшего текстологического изучения дастана.

Ключевые слова: Бахром и Гуландом, Сайкали, ИБО АН РУз, рукопись, кодикология, узбекский дастан, источниковедение.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

O'zbek xalq dostonchiligi tarixida alohida o'rin tutgan asarlardan biri bu – Sayqaliy tomonidan yozilgan “Bahrom va Gulandom” dostonidir. Ushbu doston o'zining badiiy-uslubiy xususiyatlari, syujetik boyligi va obrazlar tizimi bilan ajralib turadi. Dostonning turli qo'lyozma va toshbosma nusxalari yurtimizdagi ilmiy muassasalar fondlarida saqlanmoqda. Ayniqsa, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti (O'zFASHI) fondida mavjud bo'lgan bir nechta qo'lyozmalar matnshunoslik, kodikologiya va adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan katta ilmiy ahamiyatga ega.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Tadqiqot davomida avvalo O'zFASHI qo'lyozmalar fondidagi maxsus kataloglar o'rganildi. Mazkur kataloglar orqali dostonning mavjud barcha qo'lyozma va toshbosma nusxalari aniqlanib, ularning ro'yxati tuzildi. Qo'lyozmalar tavsifida o'zbek matnshunosligining yetuk namoyandalari – S.G'aniyeva, M.Qayumov, A.Holigov kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim metodologik asos bo'ldi. Ayniqsa, M.Qayumovning “Adabiy manbashunoslik asoslari” asari qo'lyozmalarni tarixiy kontekstdagi yondashuvda tahlil etishga zamin yaratdi.

Matnshunoslik nuqtayi nazaridan esa A.Holigovning “Matnshunoslik va matn tahlili” nomli qo'llanmasi matnni zamon, til, yozuv uslubi va tahrirlar orqali o'rganish metodlarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

Kodikologik tahlil – qo'lyozmaning jismoniy holati, varaq hajmi, qatorlar soni, muqova shakli va yozuv xususiyatlari o'rganildi;

Matniy tahlil – asarning to'liqligi, tahrir holati, kirish va xotima qismlarining mavjudligi, yozilgan til va uslubiy o'ziga xosliklar ko'rib chiqildi;

Manbashunoslik yondashuvi – nusxalarning tarixiy kontekstdagi qadri, ko'chirilgan davr yozuvi va muhitini aniqlashga qaratildi;

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan “Bahrom va Gulandom” dostoniga oid qo'lyozmalar quyidagilar:

1. 3430-III qo'lyozma.

Qissai Bahrom va Gulandom.

Yozuvchisi: Sayqaliy.

Yozilgan yili – .

O'lchami: 15,5x26.

3-kitob Sayqaliyniki 192 varoq. 276-367-betgacha.

Qatori:11.

Yozuvi: nasta'liq.

Yozuv tili: o'zbekcha.

Yangiligi: kitobni qo'lga olganda bir varog'i bor holda topdik. O'rtasidan bir varoq bor boshi va oxiri yo'q. [2]

2. 8705 qo'lyozma.

Qissai shahzoda Bahrom va malika Gulandom.

Yozuvchisi: Sayqaliy.

Yozilgan yili: 1201.

Ko'chirgan yili:1305.

Ko'chiruvchi: Naim Xo'ja Buxoriy.

O'lchami:13,5 x20.

Varog'i: 121.

Qator:15.

Yozuvi: nasta'liq.

Yozuv tili: o'zbekcha.

Yangiligi: 122 bet chiqdi.[3]

3. 5030 II majmuada 5ta kitob bor.

Qissai Bahrom va Gulandom.

Yozuvchisi: Sayqaliy.
Yozilgan yili –
Ko‘chirgan yili: 1274/1858.
Varoq : 139 bet, 9-139.
O‘lchami:15,5 x25,5.
Qator:15.
Yozuvi: nasta’liq.
Yozuv tili: o‘zbekcha.
Yangiligi: 9-147- betgacha ekani aniqlandi.
Asar to‘liq holda, muqovasi qattiq jigarrang,
poygiri bor.[4]

4. 9816 I, majmua 2ta kitob.

Doston Bahrom va Gulandom.
Yozuvchisi: Sayqaliy.
Ko‘chirgan yili: 1282/1865.
Varoq: 81 bet, 1-81.
O‘lchami:15 x25.
Qator:17.
Yozuvi: nasta’liq.
Yozuv tili: o‘zbekcha.
Yangiligi: Muqovasi qattiq,qizil, poygiri bor.
Kitobning boshi hamd. na’at qismi yo‘q,
lekin oxiri mavjud.[5]

5. 1780 I, majmua 2ta kitob.

Doston Bahrom va Gulandom.
Yozuvchisi: Sobir Sayqaliy.
Yozilgan yili: 1229.
Ko‘chirgan yili: 1252.
Ko‘chiruvchi: Muhammad Sharif.
Varoq : -.
O‘lchami:14 x24,5.
Qator:15.

Yozuvi: nasta’liq.
Yozuv tili: o‘zbekcha.

Yangiligi: Hamd qismi yirtilgan. Muqovasi
qattiq, yashil, poygiri bor. 94 varoq.[6]

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). “Bahrom va Gulandom” dostoni keng tarqalgan va ko‘plab qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lgan xalq orasida mashhur asar sifatida qadrlangan. O‘zFASHI fondidagi beshta asosiy qo‘lyozma (3430-III, 8705, 5030-II, 9816-I, 1780-I) dostonning muhim kodikologik va matniy manbalaridan hisoblanadi. Qo‘lyozmalar orasida

to‘liq va saqlangan nusxalar mavjud, bu esa dostonning tanqidiy nashri uchun asos bo‘la oladi. Asarning yilma-yil ko‘chirilishi, ko‘chirish uslublari va material sifatлари o‘zgarib borgan, bu esa dostonning zamonlar osha ahamiyatini yo‘qotmaganini anglatadi. Qo‘lyozmalarda kuzatilgan tafovutlar dostonning matniy-tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda qiyosiy va tarixiy matnshunoslik yondashuvlarini talab qiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Maqolada qo‘lyozmalarning kodikologik, matniy va manbashunoslik jihatdan tahlil qilinishi, kelgusidagi matnlarni tanqidiy nashrga tayyorlash, filologik qiyosiy tadqiqotlar olib borish uchun ilmiy asos yaratadi. Ayniqsa, saqlanib qolgan to‘liq va qisman nusxalarning farqlari matndagi rivojlanish, o‘zgarishlar, uslubiy va kompozitsion o‘zgarishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotdan kelib chiqib, Sayqaliy dostonining ilmiy-nazariy tahliliga doir yondashuvlar yanada takomillashib, qo‘lyozmalarning raqamli katalogini tuzish va elektron nashrini yaratish dolzarb vazifa sifatida qaralishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti (O‘zFASHI) qo‘lyozmalar fondi kataloglari.
2. Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Bahrom va Gulandom dostonining 3430-III, 8705, 5030-II, 9816-I raqamli qo‘lyozma va majmualari.
3. G‘aniyeva, S. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2001.
4. Qayumov M. Adabiy manbashunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
5. Holiqov A. Matnshunoslik va matn tahlili. – Toshkent: Akademnashr, 2012.

TURKISTON HUDUDIDA BOLSHEVIKLARNING MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI HAQIDAGI BA'ZI MANBALAR

Davlatova Shoir,

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

НЕКОТОРЫЕ ИСТОЧНИКИ О КОЛОНИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКЕ БОЛЬШЕВИКОВ НА ТЕРРИТОРИИ ТУРКЕСТАНА

Давлатова Шоира

преподаватель Термезского государственного университета,

доктор философии по историческим наукам (PhD)

SOME SOURCES ON THE COLONIAL POLICY OF THE BOLSHEVIKS IN THE TERRITORY OF TURKESTAN

Davlatova Shoir,

Lecturer at Termez State University,

Doctor of Philosophy in history (PhD)



<https://orcid.org/0009-0009-3847-239X>

e-mail:

davlatova.shoira@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiston hududida sovet hokimiyati o'rnatilganidan so'ng bolsheviklarning olib borgan mustamlakachilik siyosati ayrim tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Ushbu siyosatning mahalliy xalqlarga nisbatan iqtisodiy, siyosiy va madaniy oqibatlarini tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy hujjatlar, zamonaviy tadqiqotlar va guvohlarning esdaliklari asosida bolsheviklar siyosatining asl mohiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Turkiston, bolsheviklar, mustamlakachilik siyosati, sovet davri, tarixiy manbalar, milliy ozodlik, siyosiy tahlil.

Abstract: This article explores the colonial policy implemented by the Bolsheviks in the territory of Turkestan following the establishment of Soviet power. Based on various historical sources, it analyzes the economic, political, and cultural consequences of this policy for the local population. The true nature of the Bolshevik strategy is revealed through archival documents, contemporary research, and eyewitness accounts.

Keywords: Turkestan, Bolsheviks, colonial policy, Soviet era, historical sources, national liberation, political analysis.

Аннотация: В данной статье рассматривается колониальная политика большевиков на территории Туркестана после установления советской власти. На основе ряда исторических источников анализируются экономические, политические и культурные последствия этой политики для местного населения. Также раскрывается суть большевистской политики с опорой на архивные документы, современные исследования и воспоминания очевидцев.

Ключевые слова: Туркестан, большевики, колониальная политика, советский период, исторические источники, национальное освобождение, политический анализ.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

XX asr boshlaridagi Turkiston hududida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy holat, Rossiya imperiyasi

tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosatiga munosabat bildirish, uni o'rganish nafaqat O'zbekiston, balki jahon davlatchiligi

tarixida ham hamon o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Arxiv manbalarida va tarixiy adabiyotlarda Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatining o'rnatilishi, mintaqani boshqarishda bolsheviklar partiyasining yuritgan siyosati va o'lkada olib borgan dastlabki tadbirlari xususida ma'lumotlar olish mumkin bo'lgan bir qancha manbalar mavjud. Jumladan, o'sha davrda faoliyat yuritgan ba'zi davlat arboblari ham Turkiston o'lkasining XX asrning 20-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyati, bolsheviklar partiyasining o'lkada olib borgan siyosati haqida ma'lumot beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ushbu mavzuga doir nashr etilgan dastlabki kitoblardan biri RKP(b) MK Turkbyuro raisining o'rinbosari, markazdan jo'natilgan "kadrilar desanti" tarkibidagi bir necha yuz kommunistlardan biri Georgiy Safarov (1891-1942) ning "Mustamlaka inqilobi. (Turkiston tajribasi)", ya'ni ("Колониальная революция. (опыт Туркестана)" deb nomlangan kitobi bo'lib, u 1921-yilda Moskvada rus tilida nashr qilingan. Kitob VII bobdan iborat. Unda Turkistonda sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan inqilob haqida fikr yuritilgan. G.Safarov o'z kitobining "Turkistondagi inqilob" nomli bobida Rossiyada bo'lgan 1905-1907-yillardagi inqilobning Turkistonga ta'sir ko'rsatganini ta'kidlab, 1917-yilgi fevral inqilobi "Turkistonga telegramm orqali amalga oshirilgan inqilob" deb baholaydi va Turkistondagi fevral inqilobiga mahalliy aholi vakillari mutlaqo ishtirok etmaganligini ko'rsatadi [6]. Kitobda keltirilishicha, "bosmachilik harakati millat taqdirini o'zi belgilash uchun kurash zaminida, Qo'qon Muxtoriyatining yakson etilishi va undan keyingi mustamlakachilik zo'ravonligi natijasida yuzaga kelgan edi" [6]. O'z davrida G.Safarovning bu fikrlari keskin tanqid qilingan va u keyinchalik qatag'onga uchragan. XX asr 20-yillarining birinchi yarmida T.Risqulov tomonidan nashr etilgan kitoblarda taniqli davlat va siyosat arbobi Turkistonda 1917-yil oktabridan keyingi siyosiy jarayonlarda o'lkadagi mahalliy tashkilotlar faoliyati, ularning o'rni, mahalliy aholining roli va munosabatini hujjatlar asosida ko'rsatib bergan. U Turkistondagi sovet hokimiyatining mahalliy arboblardan biri sifatida sovet hokimiyati o'rnatilgach, yuzaga kelgan og'ir va keskin iqtisodiy, siyosiy vaziyatda ochlikka

qarshi kurashish Komissiyasining raisi, RKP(b) Musulmonlar byurosi raisi sifatida faoliyat yuritgan. T.Risqulov XX asrning 20-yillarida o'lkada sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan siyosatning adolatsizligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Sovet hokimiyati qaysi millat yoki din vakillari bo'lishidan qat'i nazar butun dunyo mehnatkashlarini ozodlikka chiqarish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Lekin hozirgi vaqtda Turkistonda minglab musulmon fuqarolariga nisbatan tahqirlashlar, ko'p nohaqliklar va ularga nisbatan zo'ravonliklar sodir etilmoqda. Mehnatkashlarga nisbatan adolatsizlik bilan munosabatda bo'layotgan o'sha kommunistlar, o'sha sovet xodimlari noqonuniy ravishda xalqning mol-mulkini talon-taroj qilishyapti, tintuv o'tkazishyapti, musulmonlarga past tabaqa sifatida qarashyapti. Bizning partiya a'zolarida bunday munosabat bo'lishi, sovet hokimiyatining dushmanlari biz bilan birga ishlashi mumkin emas. Ular haydalishi, yo'q qilinishi lozim" [5].

MUHOKAMA

(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Bolsheviklar Turkistonda zo'ravonlik bilan sovet hokimiyatini o'rnatgandan keyin 1890-yillarda Tbilisida vujudga kelgan "Dashnoqsutyun" partiyasining qurolli kuchlaridan o'lkadagi milliy kuchlarga qarshi kurashda foydalangan. Dashnoqlar 1918-yil fevralda qizil askarlar bilan birga Turkiston Muxtoriyatini ag'darib tashlashda faol ishtirok etishgan. 1918-1919-yillar davomida Farg'ona vodiysida istiqloлча'larga qarshi kurash niqobi ostida 35000 nafar tinch aholini qirib tashlagan va ularning mol-mulkini talon-taroj qilgan, ular tomonidan g'ayriinsoniy xatti-harakatlar amalga oshirilgan. Bu jarayonlarni guvohi bo'lib turgan mahalliy rahbar xodimlar – Turor Risqulov, Sa'dulla Tursunxo'jayev, Nizomiddin Xo'jayevlarning qat'iy talabi bilan 1919-yil 16-iyuldagi Turkiston MIQ buyrug'i asosida "Dashnoqsutyun" partiyasi tarqatib yuborilgan va arman dashnoqlari qurolsizlantirilgan. Bu haqida T.Risqulov: "Sovet hokimiyati o'z burjuaziyasi va shuning bilan birgalikda xalqaro burjuaziyaga qarshi kurash olib borar ekan, faqat jamiyatning ishchi hamda mehnatkashlar qismiga tayanishi mumkin. Arman dashnoqlari partiyasi sovet hokimiyatini qo'llab-quvvatlashlarini e'lon qilib, aslida o'z tarkibida ishchilar inqilobini ixtiyoriy himoya qila olmaydigan burjuaziyaning katta

qismini va ishsiz aholini birlashtiryapti” [5], – deydi.

Bundan tashqari T.Risqulovning kitobidan 1919-yil 27-mayda Turkiston Respublikasi MIQ Favqulodda komissiyasining raisi A.Sorokin, a’zolari – F.Xo’jayev, T.Risqulovlar tomonidan chiqarilgan 35-sonli qarori ham o’rin olgan bo’lib, ushbu qarorda dashnoqlar partiyasi, shuningdek Qizil Armiya tarkibida bo’lgan arman xalqi a’zolarini o’t ochuvchi va sovuq qurollarini topshirishlari, Farg’ona fronti harbiy boshqarmasi Dashnoqlar partiyasi va barcha arman aholisi orasida qurol masalasida tintuv o’tkazishi, qarshilik qiluvchilar harbiy dala sudlariga topshirilishi belgilanganligi haqida ma’lumot beradi [5]. Aynan shu qarordan keyin T.Risqulov arman dashnoqlari haqida yana ushbu fikrlarni keltiradi: “Farg’ona vodiysida istiqomat qiluvchi armani jamoasining deyarli barcha vakillari – baqqollar, mayfurushlar, sartaroshlar, qassoblar va boshqa savdo qatlamlari darhol bolshevikka aylanib qoldi” [4].

O’sha davrda Turkiston va O’zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning bevosita guvohlari yoki ishtirokchilari bo’lib turgan taniqli siyosat va davlat arboblari Ahmad Zaki Validiy To’g’on (1890-1970), Munavvar qori Abdurashidxonov (1878-1931) [2], Alixonto’ra Sog’uniy (1885-1976) ning xotira va esdaliklari [1] mazkur mavzuni o’rganishda muhim manba hisoblanadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Turkistonda milliy ma’rifatparvarlik harakati tashkilotchisi va rahbari bo’lgan Munavvar qori Abdurashidxonov o’z “Xotira”larida XX asrning 20-yillarida o’lkada yuz bergan siyosiy jarayonlar to’g’risida juda ko’p ma’lumotlar yozib qoldirgan. Munavvar qori Abdurashidxonov tomonidan yozilgan manbalarda o’lkaga yuritilayotgan tashqi ta’sirlar va tazyiqlar xususida ba’zi ma’lumotlarni bilib olish mumkin. Bu davrda O’rta Osiyo hududida sovet hokimiyatini o’rnatish, milliy istiqloлчаilik harakatlarini bostirish, majburan milliy-hududiy chegaralanish o’tkazish, keyinchalik yangi iqtisodiy siyosatga o’tkazish, jamoalashtirish, industrlashtirish singari ko’plab sovetcha tadbirlarni amalga oshirish uchun markazdan maxsus buyruq va topshiriqlar qabul qilinib, bir qancha vakillar jo’natilgan. Markazdan yuborilgan RKP(b) MK Turkbyuro raisining o’rinbosari Georgiy Safarovning o’lkaga kelishi va mahalliy aholiga nisbatan qo’llagan siyosati haqida guvohlik

beruvchi quyidagi ma’lumotlarni keltiriladi: “Masko’vdan o’rtoq Safaro’v qo’l ostida Turkistonga yuborilg’on “Qizil Sharq” poezdi Safaro’vning ba’zi yangilik harakatlari va qattiqqo’lligi orqasida “Qizil jazo” poezdi nomini oldi. Ushbu xotiralarda yana o’z huquqlari va milliy manfaatlari uchun kurash olib borgan mahalliy millat vakillarining millatchilikda ayblanganligi haqida ma’lumot beruvchi quyidagi fikrlar keltirilgan: “Butun g’oyasi yerlik xalqni mahkumlikdan ozod qilish va chor hukumati tomonidan ayb etilgan huquqlarni qaytarishga harakat qilishdangina iborat bo’lg’on yerlik ishchilar millatchilik bilan muttaham qilinib, shul qadar quvg’inlarg’a duchor bo’lg’on hollarda hokim xalq mustamlakachilik da’volaridan hanuz voz kecha olmag’on buyuk rus millatchilariga ko’z olaytirib qarog’on kishi bo’lmadi. Ular tamom ozodlik ila o’z ishlarida davom etdilar”.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Xullas, XX asrning 20-yillarida bolsheviklar partiyasi tomonidan Turkiston o’lkasida olib borilgan mustamlakachilik siyosati zo’ravonlikka, ayovsiz tazyiqlarga asoslangan siyosat ekanligini tasdiqlovchi manbalarni tarixchilar, siyosatchilar tomonidan o’rganish, tahlil qilish davom etmoqda.

ADABIYOTLAR RO’YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Alixonto’ra Sog’uniy. Turkiston qayg’usi. Birinchi kitob. Izohlar, kirish so’zi muallifi va muharrir: U.Shokirov.–T.:“Sharq”,2020.– B.28.
2. Munavvarqori qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – T.: “Ma’naviyat”, 2003, – B. 241.
3. Аббаров С.А. Межнациональные отношения в Узбекистане: 1917- июнь -1941гг. – Ташкент, “Фан”, 1995.
4. Рыкулов Т. Революция и коренное население Туркестана. (Сборник главнейших статей, докладов, речей и тезисов) часть 1. 1917-1918 гг. – С. 170.
5. Рыкулов Т.Р. Собрание сочинений в трёх томах. Том 1. – Алматы, “Казакстан”, 1997. – С. 188.
6. Сафаров Г. Колониальная революция (опыт Туркестана). – Москва: Госиздат, 1921. – С. 52-53.

INSON MA'NAVY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA OILADAGI MILLIY TARBIYA SAMARADORLIGI


*Tolibova Saodat Xudoyberdi qizi,
Kitob tumani 11- maktab o'qituvchisi*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ В СЕМЬЕ В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНЫХ КАЧЕСТВ ЧЕЛОВЕКА

*Толибова Саодат Худойберди кызы
учитель школы №11 Китабского района*

EFFECTIVENESS OF NATIONAL UPBRINGING IN THE FAMILY IN SHAPING HUMAN SPIRITUAL QUALITIES

*Tolibova Saodat Khudoyberdi kizi,
Teacher at School № 11 in Kitab district*



<https://orcid.org/0009-0007-6640-2845>

tolipovsoadat111@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oilada ma'naviy tarbiyaning samaradorligini oshirish uchun, farzandlarga yoshidan boshlab, amaliyotda muhim axloqiy me'yorlarni – adolat, halollik, ehtirom va yordam qilish kabi qadriyatlarini o'rgatish muhim va mas'uliyatli ish ekanligi, yoshlarni tarbiyalash, tarixning o'rni eng muhim ko'rsatkich sifatida belgilangan ekanligini ilmiy jihatdan ochib berilgan va dalillangan.

Kalit so'zlar: oila, tarix, axloq, xulq-atvori, axloqiy tuyg'ular, axloqiy bilim, yoshlar, urf-odatlar, qadriyatlar.

Abstract: The article scientifically reveals and substantiates that to increase the effectiveness of spiritual education in the family, it is important and responsible to teach children from a young age important moral norms in practice - such values as justice, honesty, respect, and helping others. The role of history in educating youth is identified as the most crucial indicator.

Key words: family, history, morality, behavior, moral feelings, moral knowledge, youth, traditions, values.

Аннотация: В статье научно раскрывается и обосновывается, что для повышения эффективности духовного воспитания в семье важно и ответственно с раннего возраста на практике обучать детей важным нравственным нормам - таким ценностям, как справедливость, честность, уважение и помощь другим. Роль истории в воспитании молодежи определяется как наиболее важный показатель.

Ключевые слова: семья, история, нравственность, поведение, нравственные чувства, нравственные знания, молодежь, традиции, ценности.

KIRISH. Oila – shaxsning ma'naviy rivojlanishining birinchi maktabi va asosiy poydevoridir. Oilada bola hayotning birinchi tajribalarini, axloqiy normalarni va jamiyatga bo'lgan munosabatni o'rganadi. Milliy tarbiyaning samaradorligi ushbu jarayonda muhim ahamiyatga ega, chunki har bir millatning o'ziga xos madaniy va axloqiy qadriyatlari bolaning shaxsiy hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Milliy tarbiya, o'ziga xos milliy

an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar va ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari orqali shaxsning ichki dunyosi va ijtimoiy munosabatlarini shakllantiradi. Milliy tarbiya, o'z navbatida, har bir insonning ichki dunyosi va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Milliy an'analar, urf-odatlar va qadriyatlar shaxsning hayotida o'ziga xos ma'naviy qoidalarni yaratadi va unga jamiyatdagi o'rnini anglashga yordam beradi.

“Milliy tarbiya orqali, inson o‘zining milliy yuksak qadriyatlariga muhabbat va hurmat tuyg‘usini o‘rganadi, bu esa uning ma’naviy taraqqiyotiga, axloqiy tuyg‘ularining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi”[1]. Masalan, bolalarga yoshligidan oila va maktabda milliy qadriyatlar, shubhasiz, nafaqat o‘z millatining tarixiy merosi, balki boshqalarga nisbatan muhabbat va hurmatni ham o‘rgatadi. Bu yo‘l bilan shaxs jamiyatga integratsiya qilinadi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga harakat qiladi. Shuningdek, ta’lim tizimi ham milliy tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lib, bolalarga o‘zlarining madaniy meroslarini, oilaviy qadriyatlarini va jamiyatdagi vazifalarini tushuntirish, ularning axloqiy va ma’naviy barkamollikka intilishini ta’minlaydi. Milliy tarbiya orqali shaxs jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy normalarga, qadriyatlarga amal qilishni o‘rganadi va o‘zligini aniqlashga yo‘naltiriladi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Irlandiyadagi Dublin ibodatxonasi rahbari bo‘lgan Jonatan Svift (1667-1745) marifatparvarlarning oliyjanob g‘oyalari odamlarni o‘zgartirmaganligini mukammal ijtimoiy voqeilikdan ancha yiroq ekanligini o‘zining “Gulliverning sayohatlari” romanida ochib berdi. “Ma’rifat asrini “so’nmas nur bilan yoritib turadi. Uning og‘ir holatda ham insoniylikni saqlab qolish borasidagi da’vati bugungi davr madaniyati uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan”[2].

Oiladagi milliy tarbiya samaradorligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi, *milliy qadriyatlar va oiladagi tarbiyada*. Oila, insonning ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishda biror jamiyatning asosiy madaniy yordamchisi hisoblanadi. “Milliy tarbiya bolaga oiladagi avlodlar orasida o‘tgan qadriyatlarni, urf-odatlarini, mehr-muhabbat, mas’uliyat, yordam va hurmat kabi umumiy axloqiy normalarni o‘rgatish orqali amalga oshiriladi”[3]. Bola o‘z oilasidan va uning a’zolaridan nafaqat amaliyot, balki ma’naviy yordam ham oladi. Milliy qadriyatlar oilada nafaqat shaxsning axloqiy asoslarini, balki uning jamiyatga bo‘lgan munosabatini ham shakllantiradi. Misol uchun, adolat, mehr va soflik qadriyatlari bola uchun uyatli holatlarda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan axloqiy me’yorlar bo‘lib, u oilada va jamiyatda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga yo‘naltiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Milliy qadriyatlar va oiladagi tarbiya sohasida quyidagi taklif-tavsiyalarga kelish mumkin:

1) **Milliy qadriyatlarni oilada targ‘ib qilish va amaliyotda qo‘llash.** Oilada bolalarga milliy qadriyatlarni o‘rgatish uchun, jamiyatdagi an’analar va urf-odatlarini har kuni amaliyotga tadbiiq etish muhim. Masalan, oilada mehr-muhabbat, hurmat, adolat va muhabbat kabi qadriyatlar bilan tarbiyalash, farzandlariga o‘z tarixi, madaniyati va milliy merosiga hurmat bilan yondoshishni o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

2) **Maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.** Milliy qadriyatlarni shakllantirishda maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhim. Maktabdagi ta’lim va oiladagi tarbiyani o‘zaro muvofiqlashtirish orqali bolalarga milliy qadriyatlar, tarixiy va madaniy merosni o‘rganishda muvofiqlik va birlikka erishish mumkin.

3) **Milliy qadriyatlarga moslashtirilgan zamonaviy ta’lim usullarini ishlab chiqish.** Milliy qadriyatlar bilan zamonaviy ta’limni uyg‘unlashtirish, bolalarni global va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga o‘rgatish muhim. Buning uchun ta’limda milliy qadriyatlarga oid adabiyot, san’at va madaniyatni yoritish, shuningdek, ularni zamonaviy bilimlar bilan integratsiya qilish zarur.

Oiladagi tarbiya va jamiyatga moslashishda. Oiladagi milliy tarbiyaning samaradorligi, bolani jamiyatda o‘z o‘rnini aniq belgilashga yordam beradi. “Milliy vorisiylik orqali bola, o‘z madaniyati va qadriyatlarini jamiyatga integratsiya qilishga harakat qiladi. Oiladagi tarbiya, uning shaxs sifatida jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy masalalarga munosabatini aniqlaydi. Bu oilada olingan axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarga bog‘liq”[4]. Masalan, bola oilada adolat, mehr va shodlik kabi qadriyatlarni o‘rganib, keyin jamiyatdagi ishlarda ham ushbu qoidalarga amal qiladi. Oiladagi ma’naviy tarbiya, bola uchun jamiyatdagi huquqlar, mas’uliyatlar va ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri tushunish va amalga oshirishda asosiy quvvat bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada quyidagi taklif-tavsiyalarga kelish mumkin:

1) **Oiladagi tarbiyada umumiy qadriyatlarning targ‘ib qilinishini ta’minlash.** Oila, shaxsning ma’naviy rivojida va jamiyatga moslashishida asosiy poydevor sanaladi. Oiladagi

tarbiyada umumiy insoniy qadriyatlar – mehr, hurmat, adolat va samaradorlikning ahamiyatini yoritish zarur. Bu qadriyatlar bola yoshligidan boshlab shakllanib, uning jamiyatga foydalangan, mas’uliyatli va hisobli shaxs bo‘lib yetishishini ta’minlaydi. Oilada, aniqraq aytganda, farzandga jamiyatning ma’naviy tizimiga moslashish va turli ijtimoiy masalalarda adolat va tenglikka amal qilishning muhimligini o‘rgatish kerak.

2) Shaxsning ichki yetukligini oilada shakllantirish. Oila, shaxsning ichki dunyosi va ma’naviy asoslarini shakllantirishda muhim omiladi. “Ijtimoiy munosabatlarga yordamchi bo‘lish uchun, oilada farzandga ishonch va samimiyatni o‘rgatish zarur. Oilada tarbiyalangan shaxs, avvalambor, o‘z-o‘zini tushunadi, ichki muxtorlik va mustaqillikni his qilib, jamiyatga o‘z o‘rnida qo‘shilishga harakat qiladi”[4]. Buning uchun, bolaga shaxsiy mas’uliyat, samimiylik va o‘z tafakkurini rivojlantirish uchun erkinlik berish, uning ichki dunyosiga ehtiyotkorlik bilan yondoshish muhimdir.

3) Mehr-muhabbat va hamjihatlik muhitini yaratish: Oilada mehr va muhabbat muhitini yaratish, bola uchun nafaqat emotsional barqarorlik, balki ijtimoiy munosabatlarda haqiqiy insonparvarlikni tushunish va qabul qilishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. “Mehr-muhabbat tarbiyasi, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar bilan uyg‘unlashgan holda, shaxsning adolat va gumanizm asosida ish ko‘rishga qodir bo‘lishini ta’minlaydi”[5]. Oilada bolalarga muhabbatning haqiqiy mohiyatini, uning nafaqat oila a’zolarini, balki butun jamiyatni birlashtirish qudratini tushuntirish, ularni insonparvarlikka, bir-birini tushunishga va ehtirom qilishga o‘rgatish kerak.

4) Qadriyatlarning global va milliy miqyosdagi muvozanatini saqlash: “Oila, shaxsning ma’naviy rivojlanishi va jamiyatga moslashishida milliy qadriyatlar bilan global insoniy qadriyatlar orasidagi muvozanatni saqlashga yordam beradi”[5]. Oilada, millatning tarixi va madaniyatiga hurmat bilan yondashish, ammo shu bilan birga, global insoniy qadriyatlarni ham qabul qilishni o‘rgatish muhim. Shaxs milliy qadriyatlarga itoat qilib, jamiyatning umuminsoniy va gumanistik muammolarga halol yondashishga intilishda hamjihatlikni ta’minlaydi.

Xulosa. Inson ma’naviy fazilatlarini shakllantirishda oiladagi tarbiya samaradorligini

ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi: birinchidan, Oilada milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish (oilada farzandlarga milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniyatni o‘rgatish, ularni hayotga tadbiq qilish orqali shaxsning ma’naviy fazilatlarini shakllantirishga erishish mumkin. Bu, farzandga o‘z tarixi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi); ikkinchidan, oilada axloqiy meyorlarni mustahkamlash (Oila, farzandga adolat, mehr-muhabbat, halollik kabi axloqiy meyorlarni o‘z hayotida qo‘llash orqali uning ma’naviy barkamolligini rivojlantiradi. Oila a’zolarining namunaviy munosabatlari yordamida shaxsning axloqiy va ijtimoiy faoliyati shakllanadi).

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аҳмедова Н.С. Оиладаги тарбиянинг фарзанд камолотидаги аҳамияти// “Ўзбекистонда фан ва таълимни ривожлантиришнинг янги босқичи” мавзусидаги Республика назарий-амалий конференцияси. Фарғона. 2023. –Б.228.
2. Боров Ю. Эстетика: Учебник. –Москва: Высшая школа, 2002. – 511 с.
- Гумелёв Л. Древние тюрки. –Москва: Айрис-пресс, 2016. – 560 с.
3. Гусейнов А. [Философия – мысль и поступок: Статьи, доклады, лекции, интервью.](#) СПб.: СПбГУП, 2012. -848 с.
4. Лекторский В. Философия психологии. – Москва; Политическая энциклопедия, 2016.-344 с
5. Ильинский И. Образование. Молодежь. Человек: (статьи, интервью, выступления). Кн. 2. Москва: Изд-во Моск. гуманит. ун-та. -530 с.
6. Каган М., Сергеев К., Р. Светлов и др. – СПб.: Лань, 1998. – 443 с.
7. Nomozov, Xurshid. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy funksiyasi. *Tamaddun nuri jurnali*. 1.64 (2025): 253-255.
8. Nomozov, xurshid (2024). Jamiyat ijtimoiylashuvida institutlari o‘rni va internet-makonning undagi o‘rni. *Analysis of modern science and innovation*, 1(2), 83-88.
9. Nomozov, Xurshid (2024). Jamiyatda internet-makon kontentlari ta’sirida sodir bo‘layotgan negativ ijtimoiylashuv shakllari. *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar*, 1(2), 52-58.
10. Nomozov, Xurshid (2024). Jamiyatda internet-makon resurslaridan foydalanish sohalari. *Modern problems in education and their scientific solutions*, 1(2), 113-118.

Qabul qilindi: 02.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK:913.1/913.8

TOSHKENT SHAHRIDA AVTOBUS TRANSPORTI TIZIMI: TARIFLAR VA TASHKILIY ISLOHOTLAR TARIXI (1954-1959-yillar)

Ruziyeva Laziza Yusufovna,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

THE BUS TRANSPORT SYSTEM IN TASHKENT CITY: HISTORY OF TARIFFS AND ORGANIZATIONAL REFORMS (1954-1959 yy)

Ruzieva Laziza Yusufovna,

Independent researcher at Chirchik State Pedagogical University

ТРАНСПОРТНАЯ СИСТЕМА АВТОБУСНОГО СООБЩЕНИЯ В ТАШКЕНТЕ: ИСТОРИЯ ТАРИФОВ И ОРГАНИЗАЦИОННЫХ РЕФОРМ (1954-1959 годы)

Рузиева Лазиза Юсуповна,

*независимый исследователь Чирчикского государственного
педагогического университета*



<https://orcid.org/0009-0008-8748-5990>

e-mail:
ruziyeva7777@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada jamoat transport sohasining ta'rif tizimi, jamoat transport chiptalari va ularning turlarini, transport sohasining ta'rif tarmog'idagi o'zgarishlarni, yo'lovchilar tashishni to'g'ri tashkil etish va avtobus transportida aholiga xizmat ko'rsatishni yaxshilash darajasini tahlil qilinishi yondashuvlari ko'rib chiqilgan.

Tayanch iboralar: Jamoat transporti, avtobus, chipta, tarif tizimi, kompostlar, avtovokzal.

Abstract: The article examines approaches to analyzing the definition system of the public transport sector, public transport tickets and their types, changes in the definition network of the transport sector, the correct Organization of passenger transport and the degree of improvement in the provision of services to the population in bus transport.

Key words: Public transport, bus, ticket, fare system, composers, bus station.

Аннотация: В статье рассмотрены подходы к анализу системы определения сферы общественного транспорта, билетов на общественный транспорт и их видов, изменения в определяющей сети сферы транспорта, правильная организация пассажирских перевозок и уровень совершенствования обслуживания населения автобусным транспортом.

Ключевые слова: Общественный транспорт, автобус, билет, тарифная система, компосты, автовокзал.

KIRISH. XX asrning o'rtalarida Sovet Ittifoqida shahar transport tizimlarining rivojlanishi urbanizatsiya va aholining harakatchanlik ehtiyojlarining o'sishi bilan uzviy bog'liq edi. Toshkent shahri, O'zbekiston SSRning poytaxti sifatida, ushbu jarayonlarda muhim o'rin egalladi. 1950-yillarda avtobus transporti aholiga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, yo'l haqini undirish tizimini soddalashtirish va transport infratuzilmasini kengaytirish maqsadida

qator islohotlardan o'tdi. 1954-yilda SSSR miqyosida avtobus va yo'lovchi tashish uchun yagona tariflar joriy etildi, 1958-yildan boshlab esa ittifoq respublikalari o'z tariflarini mustaqil ravishda tasdiqlash huquqiga ega bo'ldi. Toshkentda 1959-yilda yagona tarif tizimi joriy etilib, avtobus, tramvay va trolleybus tizimlari integratsiyasi yo'lga qo'yildi. Ushbu maqola 1954-1959-yillardagi transport islohotlarning Toshkent shahrida avtobus transporti tizimiga

ta'sirini tahlil qiladi, shuningdek, chiptalar tizimi, obuna talonlari va uzoq muddatli chiptalarning joriy etilishi kabi muhim jihatlarni ko'rib chiqadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot Toshkent shahrida 1954-1959-yillarda avtobus transporti tizimining rivojlanishini o'rganish uchun tarixiy hujjatlar tahliliga asoslanadi. Quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy hujjatlarni tahlil qilish va tavsifiy yondashuvga asoslangan bo'lib, Toshkentning ushbu davrdagi transport tizimining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda asosiy manba sifatida Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi ijroiya qo'mitasining 1959-yil 23-yanvardagi 60-sonli qarori va unga aloqador hujjatlar ishlatildi. Ushbu hujjatlar yagona tarif tizimi, chiptalar tarqatish va transport infratuzilmasi haqida ma'lumot beradi. SSSR miqyosidagi 1954-yilgi yagona tariflar va 1958-yildagi respublika vakolatlarining kengayishi haqidagi ma'lumotlar tahlil qilindi.

Avtobus transporti tizimining tashkiliy tuzilishi, chiptalar tizimi (bir martalik, obuna talonlari, uzoq muddatli chiptalar), kompostlar o'rnatilishi va avtovokzallar tarmog'i kabi jihatlari tavsifiy ravishda ko'rib chiqildi. Bu tahlil transport tizimining yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishdagi samaradorligini baholashga imkon beradi.

Toshkentning urbanizatsiya jarayonlari, aholining harakatchanlik ehtiyojlari va Sovet Ittifoqidagi umumiy transport islohotlari kontekstida ma'lumotlar tahlil qilindi. Bu 1950-yillarda Toshkentda avtobus transporti tizimining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Toshkentning avtobus transporti tizimini tramvay va trolleybus tizimlari bilan ko'rib chiqildi. Masalan, 1959-yilda avtobuslarda yo'l haqi (50 tiyin) trolleybuslardan (40 tiyin) yuqori bo'lib, bu ta'riflar tizimining integratsiyasi va farqlanishini ko'rsatadi.

1954-yilda SSSR hududida avtobus va yo'lovchi tashish uchun yagona ta'riflar tasdiqlanib, barcha vazirlik va idoralar uchun

majburiy bo'lgan. Bu tizim yo'l haqini undirishni tartibga solish, daromadlarni yo'qotishni kamaytirish va yo'lovchilarga qulaylik yaratishni maqsad qilgan. [1, 62]. 1958-yildan boshlab ittifoq respublikalari vazirlar kengashlariga tariflarni mustaqil tasdiqlash huquqi berildi, ammo ular 1954-yilgi yagona ta'riflarga asoslangan. [2, 62].

1958-yilda 1950-yilga nisbatan yo'lovchi tashish hajmi 49 foizga, yo'lovchi aylanmasi 70 foizga o'sdi. 1957-yilda 1-avtopark tarkibidan 2-avtopark, keyinroq, 1959-yilda 3 va 40 avtoparklar mustaqil xo'jalik bo'lib ajrab chiqdi. 1958-yilda yo'lovchilar tashish hajmi 1950-yildagiga nisbatan 17 baravar, yo'lovchi oboroti esa 18,38 baravar ko'paydi. 1958-yilda respublika shaharlarida 225,3 million yo'lovchi tashildi.

Toshkent shahrida 1959-yil 23-yanvarda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi ijroiya qo'mitasining 60-sonli qaroriga ko'ra, 25-yanvardan boshlab yagona tarif joriy etildi: trolleybusda yo'l haqi 40 tiyin, avtobusda esa 50 tiyin sifatida belgilangan. Shahar chegarasidan tashqaridagi avtobus yo'nalishlarda (masalan, 1, 7, 15, 17, 18-yo'nalishlar) yo'l haqi masofadan qat'i nazar 50 tiyin etib tasdiqlangan [3, 12].

Avtobuslarda yo'l haqini to'lash tizimi yo'lovchilarga qulaylik yaratish va daromadlarni undirishni soddalashtirish maqsadida turli xil chiptalar va obuna talonlaridan foydalanishga asoslangan. Bir martalik asosiy chiptalar konduktorlar tomonidan sotilgan va moliyaviy hisobot hujjati sifatida xizmat qilgan. Konduktorsiz avtobuslarda esa yo'lovchilar nazorat chiptalarini kassa yoki yarim avtomatik kassalar orqali sotib olganlar, bu chiptalar avtobusdagi kompostlar orqali bekor qilingan. Obuna talonlari to'plam sifatida (odatda 10 dona) ishlab chiqarilgan va yo'lovchilar tomonidan avtobus salonidagi kompostlarda o'chirilgan. Bu tizim naqd pulsiz xizmat ko'rsatish imkonini bergan va daromadlarni undirishni osonlashtirgan. Yo'lovchi tashish ishi tegishli e'tiborning etishmasligiga olib keladi. Viloyat tresti va davlat sektori yo'lovchilarga konduktorsiz xizmat ko'rsatishning amaldagi tizimini rivojlantirish va mustahkamlashga jiddiy yondashadi [4, 200].

Uzoq muddatli chiptalar (o'n kunlik, yarim oylik, oylik, choraklik) bir yoki bir nechta transport turlarida ko'p marta foydalanish uchun mo'ljallangan edi. Oylik chiptalar narxi

shahardagi bir qatnov narxiga, aholining harakatchanligiga va rag'batlantiruvchi sanksiyalarga asoslanib belgilangan. Tashkilotlar uchun uzoq muddatli chiptalar narxi aholinikidan 55-66 foiz yuqori bo'lgan. [5, 202]. Chiptalar turli ranglar, o'lchamlar va shakllarda ishlab chiqarilib, nazoratchilar ishini osonlashtirgan. Uzoq muddatli chiptalar va obuna talonlari maxsus kassalar, avtovokzallar, do'konlar, "Soyuzpechat" kioskalari va boshqa muassasalar orqali sotilgan [6, 43].

Toshkentda avtobus transporti tizimining samaradorligini oshirish uchun bir qator tashkiliy o'zgarishlar amalga oshirilgan. Tramvay va trolleybus tresti bilan "Toshgorfo" tashkilotining yo'l harakati bo'limlari tramvay va trolleybus depolari bilan birlashtirilgan. [7, 15]. Depolar shtat jadvali 74 birlikni tashkil etgan, oylik ish haqi fondi esa 41 454 rublga yetgan. Avtobuslarda kompostlar o'rnatilgan, masalan, LAZ avtobuslarida 5 ta, PAZ avtobuslarida 4 ta, LiAZ-677 da 6 ta, Ikarus-280 da esa 7 ta kompost ishlatilgan. [8, 16]. Bu kompostlar yo'lovchilar uchun qulay va xavfsiz joylashuvga ega bo'lib, naqd pulsiz yo'l haqini undirish tizimini joriy etishga xizmat qilgan.

Avtobuslar shahar, shahar atrofi, shaharlararo va maxsus maqsadli turlarga bo'lib, ularning sig'imi 8-10 o'rindiqli kichik avtobuslardan tortib, 110 kishigacha sig'adigan katta avtobuslarga farq qilgan [9, 180]. Shahar avtobuslari tez-tez to'xtashlar, keng eshiklar va tik turgan yo'lovchilar uchun joylar bilan jihozlangan bo'lib, intensiv tezlashtirish va silliq yurishni ta'minlagan. Avtovokzallar va oraliq punktlar yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish, avtobuslar ishini nazorat qilish va texnik ta'minotni tashkil etishda muhim rol o'ynagan.

Xulosa. 1954-1959-yillardagi islohotlar Toshkent shahrida avtobus transporti tizimining rivojlanishida muhim bosqich bo'lgan. Yagona

ta'rif tizimining joriy etilishi, obuna talonlari va uzoq muddatli chiptalarning qo'llanilishi yo'lovchilarga qulaylik yaratgan, daromadlarni undirishni soddalashtirdi va moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirgan. Tashkiliy o'zgarishlar, kompostlar o'rnatilishi va avtovokzallar tarmog'ining kengayishi transport infratuzilmasining samaradorligini oshirgan. Bu islohotlar Toshkentning urbanizatsiya jarayonlariga mos ravishda jamoat transporti tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qilgan, ammo kelajakda metro tizimining joriy etilishi avtobus va boshqa transport turlariga talabni qisman o'zgartirgan. Ushbu davr Toshkent shahrining transport tizimida sifatli xizmat ko'rsatish va aholining harakatchanlik ehtiyojlarini qondirish yo'lida muhim qadam bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А.В.Крейнина. Пассажирский тарифы на транспорт СССР. Москва. Транспорт. -С. 66.
2. O'sha asar, 66-bet.
3. Toshkent shahar davlat arxivi 10-fond, 4-ro'yxat, 146-ish, 12-varaq.
4. И.В.Спирин. Городской автобусный перевозки. Москва. Транспорт. 1991. -С. 200.
5. O'sha asar, 202-bet.
6. Городской скоростной пассажирский транспорт Д.С.Самойлова. Москва: Высшая Школа, 1975 Г. 43 с.
7. Toshkent shahar davlat arxivi 10-fond, 4-ro'yxat, 146-ish, 15-varaq.
8. O'sha asar, 16-bet.
9. Попов А.А. Автомобильные пассажирский перевозки. Узбекистан. Тошкент. 1965. -С. 180.



INTEGRATING ARTIFICIAL INTELLIGENCE INTO THE DEVELOPMENT OF ENGLISH SPEAKING SKILLS: BASED ON THE APPLICATIONS ELSA SPEAK AND SPEECHACE

Hotamova Iroda Ibrohimovna,
PhD Researcher at Navoi State University,
Lecturer at the Department of Applied English Language Studies

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISH: ELSA SPEAK VA SPEECHACE ILOVALARI ASOSIDA

ИНТЕГРАЦИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ: НА ПРИМЕРЕ ПРИЛОЖЕНИЙ ELSA SPEAK И SPEECHACE

Хотамова Ирода Иброхимовна,
аспирант Навоийского государственного университета,
преподаватель кафедры прикладных дисциплин английского языка



<https://orcid.org/0009-0003-7103-0266>

e-mail:

Xatamov a@nspi.uz



Annotatsiya: Mazkur maqolada ELSA Speak va Speechace sun'iy intellekt ilovalari asosida ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishning samarali usullari va pedagogik asoslari yoritiladi. Ularning dars jarayoniga integratsiyasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ingliz tili, talaffuz, gapirish ko'nikmasi, ELSA Speak, Speechace, AfL, audio-artikulyatsiya, o'rganish, baholash, interaktiv ta'lim, mustaqil mashg'ulot.

Abstract: This article explores effective methods and pedagogical principles for developing English speaking skills using AI-based applications ELSA Speak and Speechace. It analyzes their integration into classroom instruction and individualized learning environments.

Key words: artificial intelligence, English language, pronunciation, speaking skills, ELSA Speak, Speechace, AfL, audio-articulatory, learning, assessment, interactive learning, independent practice

Аннотация: В статье рассматриваются эффективные методы и педагогические основы развития навыков устной речи на английском языке с использованием ИИ-приложений ELSA Speak и Speechace. Анализируется их интеграция в образовательный процесс.

Ключевые слова: искусственный интеллект, английский язык, произношение, навыки речи, ELSA Speak, Speechace, AfL, аудио-артикуляция, обучение, оценивание, интерактивное обучение, самостоятельная практика.

Introduction

As artificial intelligence continues to transform the educational landscape, AI-powered applications such as ELSA Speak and Speechace have emerged as essential resources in second language acquisition. Speaking, one of the most challenging skills in language learning, requires consistent practice, immediate feedback, and accurate pronunciation. Traditional classroom methods often fall short in providing individualized pronunciation support. AI tools bridge this gap by enabling real-time assessment and continuous feedback outside classroom hours. This paper investigates the integration of ELSA Speak and Speechace into a 'Speaking Skills Integration' course for second-year university students in Uzbekistan and highlights their effectiveness in improving English speaking proficiency.

Methodology

This study employed a mixed-methods design combining classroom-based implementation, feedback collection, and qualitative analysis. The 'Speaking Skills Integration' course consisted of 30 thematic lessons across six weeks. Seven AI platforms were introduced, but this paper focuses on two tools—ELSA Speak and Speechace—due to their emphasis on pronunciation training. Students were guided through initial onboarding sessions, followed by weekly assignments involving structured pronunciation practice using the apps. Instructors monitored usage patterns and collected feedback via surveys and interviews. Analysis focused on student progress, user experience, and alignment with pedagogical frameworks such as the Audio-Articulatory Method (AAM) and Assessment for Learning (AfL).

Results and Discussion

The study highlights the unique strengths of ELSA Speak and Speechace in improving English oral proficiency.

ELSA Speak Functionalities. ELSA (English Language Speech Assistant) Speak is a mobile application that employs speech recognition and AI algorithms to analyze learners' pronunciation, stress, rhythm, and intonation. It supports over 1,600 lessons tailored to CEFR levels. ELSA provides phoneme-level feedback, highlighting specific errors in sound articulation. It integrates effectively with the Audio-Articulatory Method by focusing on the physical production of sounds such as [θ], [ð], and [ʃ], using visual diagrams and video instructions to correct articulation. Learners receive star ratings and progress tracking based on performance.

Speechace Functionalities. Speechace is a browser-based AI tool that evaluates spoken responses through four key metrics: pronunciation, fluency, grammar, and vocabulary. Scores range from 0 to 9 for each component. Speechace is well aligned with the Assessment for Learning (AfL) principle. It provides formative feedback after each task and allows repeated attempts to improve performance. Speechace's grammar recognition system can detect errors in tense usage, subject-verb agreement, and sentence structure. Its visual dashboard displays stress markers and waveform analysis to help learners identify mispronunciations.

Students reported increased motivation and awareness of their pronunciation problems. ELSA's gamified interface and clear feedback encouraged daily practice, while Speechace's academic structure aligned well with classroom testing and oral presentations. Both tools enabled learners to improve self-monitoring and correct errors without teacher intervention. The tools also reduced teacher workload by automating initial pronunciation evaluations and allowing formative assessment outside class hours.

Comparison of ELSA Speak and Speechace Features *Table 1.*

Feature	ELSA Speak	Speechace	Pedagogical Alignment
Real-Time Feedback	Yes	Yes	Formative Assessment
Pronunciation Accuracy	Yes	Yes	Audio-Articulatory Method
Fluency Evaluation	No	Yes	AfL Principle
Grammar Detection	No	Yes	AfL Principle

Stress & Intonation Analysis	Yes	Yes	Pronunciation-Based Approach
Visual Articulation Guides	Yes	No	Audio-Articulatory Method
Gamification	Yes	No	Learner Motivation
Score Tracking	Yes	Yes	Self-Monitoring & Feedback

Conclusion

Incorporating AI-based tools like ELSA Speak and Speechace into English speaking classes enhances learners' pronunciation, confidence, and autonomy. These tools provide scalable, individualized support that traditional classroom instruction often lacks. By aligning with pedagogical methods such as the Audio-Articulatory and AfL frameworks, they ensure both accuracy and learner agency. The study concludes that a multi-tool approach combining the strengths of different AI platforms offers the best outcomes for communicative competence development.

References:

1. Derwing, T. M., Munro, M. J. — *Pronunciation Fundamentals: Evidence-based Perspectives for L2 Teaching and Research*. — Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2015. — page: 205.
2. Neri, A., Cucchiaroni, C., Strik, H. — *ASR-based Corrective Feedback in Computer Assisted Pronunciation Training*. — Amsterdam: Elsevier (Speech Communication), 2006. — page: 853–863.
3. Thomson, R. I. — *Computer-assisted Pronunciation Training: Targeting Second Language Vowel Perception*. — Texas: CALICO Journal, 2011. — page: 744–765.
4. Hincks, R. — *Speech Technologies for Pronunciation Feedback and Evaluation*. — Cambridge: ReCALL (Cambridge University Press), 2003. — page: 3–20.
5. Levis, J. M. — *Changing Contexts and Shifting Paradigms in Pronunciation Teaching*. — Virginia: TESOL Quarterly, 2005. — page: 369–377.
6. Celce-Murcia, M., Brinton, D., Goodwin, J. — *Teaching Pronunciation: A Course Book and Reference Guide*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2010. — page: 1–368.
7. Tanner, M. W., Landon, M. M. — *The Effects of Computer-assisted Pronunciation Training on ESL Learners' Use of Segmental and Suprasegmental Features*. — Wisconsin: The Modern Language Journal, 2009. — page: 491–504.
8. Black, P., Wiliam, D. — *Developing the Theory of Formative Assessment*. — Berlin: Educational Assessment, Evaluation and Accountability, 2009. — page: 5–31.
9. Burston, J. — *MALL: The Pedagogical Challenges of Mobile-assisted Language Learning*. — Hawaii: Language Learning & Technology, 2014. — page: 231–245.
10. Speechace. — *AI-based English Language Speech Assessment Platform*. — <https://speechace.com>. — Accessed: 2024.
11. ELSA Speak. — *English Language Speech Assistant*. — <https://elsaspeak.com>. — Accessed: 2024.
12. ELSA Speak. — *Product Features and Learning Design*. — <https://www.elsaspeak.com>. — Accessed: 2023.
13. Speechace Inc. — *Speech Scoring Technology Overview*. — <https://www.speechace.com>. — Accessed: 2023



TA'LIM VA FALSAFA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI

Karimov Zafarbek Ataboyevich,
Urganch davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya va falsafa"
kafedrasi dotsenti

A HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE INTERRELATION BETWEEN EDUCATION AND PHILOSOPHY

Karimov Zafarbek Ataboyevich, Associate Professor, Department
of National Ideology and Philosophy Urganch State Pedagogical
Institute

ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ МЕЖДУ ОБРАЗОВАНИЕМ И ФИЛОСОФИЕЙ

Каримов Зафарбек Атабаевич, доцент кафедры
"Национальная идея и философия" Ургенчского
государственного педагогического института



<https://orcid.org/0009-0009-6023-6086>

e-mail:
kzafarbek727@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim va falsafa o'rtasidagi o'zaro ta'sirning tarixiy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Falsafa inson tafakkurining chuqur tahlilini ta'minlovchi vosita sifatida qadim zamonlardan buyon ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Shuningdek, maqolada XXI asrda ta'lim falsafasining yangi yo'nalishlari, tanqidiy fikrlash, insonparvarlik va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: falsafa, ta'lim, pedagogika, tarixiy tahlil, qadim Sharq, islom falsafasi, G'arb tafakkuri, Uyg'onish davri, zamonaviy ta'lim, tanqidiy fikrlash, ma'naviy qadriyatlar, insonparvarlik, ilmiy-ma'rifiy meros.

Annotation: This article presents a historical and philosophical analysis of the interrelationship between education and philosophy. Since ancient times, philosophy has played a crucial role in the formation and development of educational systems as a means of deep intellectual reflection. The article also explores the new directions of educational philosophy in the 21st century, focusing on the development of critical thinking, humanism, and moral-spiritual values.

Keywords: philosophy, education, pedagogy, historical analysis, Ancient East, Islamic philosophy, Western thought, Renaissance, modern education, critical thinking, moral values, humanism, scientific and educational heritage.

Аннотация: В данной статье проводится историко-философский анализ взаимосвязи между образованием и философией. Философия, как средство глубокого осмысления человеческого мышления, с древнейших времён играла важную роль в формировании и развитии системы образования. Кроме того, в статье рассматриваются новые направления философии образования XXI века, формирование критического мышления, гуманизма и духовно-нравственных ценностей.

Ключевые слова: философия, образование, педагогика, исторический анализ, Древний Восток, исламская философия, западная мысль, эпоха Возрождения, современное образование, критическое мышление, духовные ценности, гуманизм, научно-просветительское наследие.

INTRODUCTION). Ta'lim-tarbiya, inson ongi va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar mohiyatan falsafa bilan bog'liqdir. Har qanday ta'lim va tarbiya negizida ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega biror falsafiy g'oya, maqsad yoki inson bilan jamiyatni bir-biriga bog'lovchi dialektik omil yotadi. Falsafa, ayniqsa, **ontologik** (borliq haqidagi), **epistemologik** (bilish haqidagi) va **aksiyologik** (qadriyatlar haqidagi) asoslar orqali ta'lim-tarbiyani yo'naltiradi. Har qanday ta'lim konsepsiyasining zamirida biror falsafiy g'oya, ijtimoiy qadriyat yoki jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi dialektik mexanizm mavjud bo'ladi. Masalan, insonparvarlik, erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqatga intilish kabi qadriyatlar ko'p hollarda ta'lim mazmunining falsafiy asoslarini tashkil qiladi.

Shuningdek, ta'lim-tarbiya hech qachon **g'oyasiz va maqsadsiz** bo'lishi mumkin emas. Hatto inson ongida anglanmagan holda kechayotgan o'quv-tarbiyaviy jarayonlar ham muayyan subyektiv qadriy omillar ta'sirida shakllanadi. Bu subyektivlik jamiyatning madaniyati, urf-odatlar, tarixiy tajribasi, din va mafkurasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir individning dunyoni idrok etishiga ta'sir etadi. Falsafa esa ushbu omillarni tizimlashtirib, ularga mantiqiy asos va tushunchaviy aniqlik beradi. Boshqacha aytganda, falsafa ta'limga **mazmuniy yaxlitlik, strategik yo'naltirilganlik** va **aniq maqsadlilik** baxsh etadi. Falsafa orqali o'qituvchi va tarbiyachi inson tabiatiga, uning bilish imkoniyatlariga, axloqiy-ruhiy ehtiyojlariga chuqur yondashadi. Bu esa ta'limda mezonli, asosli va puxta yondashuvlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Masalan, dialektik tafakkur tamoyillarini o'quv jarayoniga singdirish orqali o'quvchilar hayotiy hodisalarni bir-biriga bog'liq, murakkab tizim sifatida anglashga o'rganadi. Bu, o'z navbatida, ularning tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va qaror qabul qilish salohiyatini rivojlantiradi.

Ta'lim va tarbiya falsafiy g'oyasiz, maqsadsiz bo'lishi mumkin emas, insonlar o'rtasidagi yaqinlik, bir-biriga bog'liqlik, anglangan yoki anglanmagan bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum bir subyektiv omillar ta'siri orqali ro'y beradi. Falsafa ushbu subyektiv omillarning kvintessensiyasi sifatida ta'limga yaxlitlik,

yo'naltirilganlik va aniq maqsadlilik baxsh etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Rus-amerikalik faylasuf, o'zining "Madh" (1938), "Manba", (1943), "Epistemologiyaga kirish" (1953), "Egoizmning ezguligi" (1956) va "Kapitalizm: Notanish ideal" (1972) asarlari bilan ilm ahliga tanilgan Ayn Rend "Falsafa kimga kerak?" degan oxirgi asarida inson "Men qayerdaman? Buni qanday bilish mumkin? Nima qilishim zarur?" degan uchta savolga, subyektiv omilga javob izlaydi, deb ko'rsatadi. Mazkur savollarga faqat falsafa qoniqarli javob beradi. Chunki falsafa "barcha mavjudlikning asosiy tabiatini, xususiyatini va insonning ushbu mavjudlik mohiyati bilan aloqalarini o'rganadi"[1:16].

A.Rend bu o'rinda Aristotel davridan beri turli variantlarda takrorlanib kelayotgan uch savolni qo'yadi, ularda aslo yangilik yo'q. Biroq inson va mavjudlikning realligi, asrlar osha yashab kelayotgani yuqoridagi uchta savolni azaliy muammolardan biriga aylantirgan. Inson, ongli mavjudot sifatida, "Men qaerdaman?" degan savolga osongina javob berishi mumkin – men Parijdaman, men Toshkentdaman, men uydaman. Obyektiv borliq, ijtimoiy muhit ongni shunday javob berishga undaydi. Bu o'rinda asosiy falsafiy muammo shundaki, ushbu obyektiv borliq, ijtimoiy muhit yerda, koinotda, galaktikada qanday ahamiyatga ega? Uning ongni ishlashga da'vat etadigan stimuli, turtkisi nimalardan iborat? Bu borliq va muhit mudom mavjudmidi yoki inson ularni anglay boshlagach, bilishga intilgach, yuzaga keldimi? Agar ular azaldan bor bo'lsa, buni kim yoki nima isbotlaydi? Inson aqli ularni bilishi mumkinmi, bilsa, ushbu jarayon qanday amalga oshadi? Inson bilimlarining nisbiyligi uning bilish imkoniyatini shubha ostiga olmaydimi? Demak, falsafa uchun obyektiv borliqning mavjudligi va gnoseologiya muhim, aynan ular falsafaning negizini tashkil etadi. Obyektivizm va subyektivizm falsafaning birisiz biri mavjud bo'lmaydigan ikki qanoti, ikki tomonidir. Shundan keyin A.Rend falsafaning muhim uchinchi qismi, texnologiyasi etika, axloqdir, deydi. Etika yoki axloqshunoslik insonning xatti-harakatlari va hayotga munosabatlarini regulatsiya qiluvchi, boshqaruvchi qadriyatlar majmuasidir[1:18]. Biroq

inson xatti-harakatlaridan axloqiy elementlarni izlashidan avval, deydi faylasuf, eng muhim metafizik va epistemologik savollarga javob topishi zarur. “Inson tashqi borliq bilan aloqalar o‘rnata oladigan ratsional mavjudotmi yoki bejilov oqimda irodasiz, yordamsiz va o‘ta zaif bir cho‘p kabi oqib ketadigan narsami? Yerdan inson uchun qoniqish oladigan imkoniyat mavjudmi yoki uni muvaffaqiyatsizlik va ofatlar kutib turibdimi? Javoblaringizga tayanib siz keyin inson uchun nima yaxshi-yu nima yomon, va nima uchun shunday, degan axloqiy muammolarga o‘tasiz”[1:18].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ta’lim, ijtimoiy fenomen sifatida, etika, axloq, tarbiya bilan chambarchas bog‘liq. Ular o‘rtasidagi dilektik bog‘liqlik ba’zan ta’limni ana shu fenomenlar bilan uyg‘un qarashga undaydi. Goho esa ularni bir-biridan farqlash juda qiyin. Shunday bo‘lsa-da, inson tashqi voqealar va hodisalar haqidagi tasavvurlarini, bilimlarini ifoda etish uchun ma’lum bir tushunchalardan foydalanadi. “Ta’lim” va “falsafa”, ular sintezidan iborat “ta’lim falsafasi” ham ana shunday tushunchalardir. Ular orqali inson ta’lim jarayonlariga bo‘lgan munosabatlarini, gnoseologik qarashlarini ifoda etadi, bu boradagi qarashlar va konsepsiyalarni o‘z tajribalaridan o‘tkazadi. Ushbu tajribalar A.Rend nazarda tutgan savollarni o‘ziga fundamental ahamiyatga ega ko‘rsatma sifatida qabul qiladi. Chunki ta’lim, falsafa, tarbiya mohiyatan insonning ushbu borliqdagi o‘rni va o‘zini idrok etishi bilan bog‘liq. Bir qarashda ta’lim va tarbiya uchun ahamiyatga ega emasdek ko‘rinadigan “Men qaerdaman?”, “Buni qanday bilaman?”, “Nima qilishim zarur?” degan savollar tadqiqot yoki ta’lim-tarbiya jarayonlarida hayotiy mohiyat kasb etadi. Tadqiqotchi yoki pedagog obyektlariga faqat ma’lum bir axborotlar berib qolmay, jamiyat va inson taraqqiyoti uchun zarur hayotiy, aslida falsafiy, maqsadni ham shakllantiradi. Shu tariqa uning sotsiopedagogik tajribalari falsafiy-hayotiy ahamiyat kasb qiladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ta’lim va falsafa dialektik uyg‘unligini, mavjud ilmiy va ijtimoiy- falsafiy asarlarni, ularda ilgari surilgan konseptual g‘oyalar hamda chiqarilgan fundamental xulosalardan kelib chiqib, quyidagi yo‘nalishlarda qarash mumkin:

- inson va uning ongi, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirish;

- inson gnoseologik qiziqishlari doirasini kengaytirish;
- kishini o‘zini va olamni anglashga o‘rgatish;
- etnodidaktik meros va etnopedagogik tajribalardan foydalanish;
- zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanish;
- axborot oqimlarini tizimlashtirish va ulardan maqsadli foydalanish;
- ta’limning strategik maqsadini anglash va tahlil qilishga o‘rgatish;
- nazariya va amaliyotni sintezlashtirish asosida ta’lim-tarbiya modelini yaratish kabilardir.

Ushbu yo‘nalishlar ta’lim falsafasini 1)amaliy falsafa yoki amaliy pedagogika; 2)nazariya yoki ta’lim gnoseologiyasi; 3)integrativ soha yoki fanlararo integratsiya nuqtayi nazaridan o‘rganish mumkinligini ko‘rsatadi. Agar amaliy pedagogika ta’lim jarayonlarini tashkil etish metodlari, uslublari va texnologiyasiga e’tiborini qaratsa, nazariya esa ta’limning falsafiy muammolarini, insonning borliq bilan munosabatlarida orttirgan tarbiyaviy tajribalarini, integrativ yondashuv esa turli fanlarning nazariy va amaliy tavsiyalarini sintezlashtirish jarayonlarini o‘rganadi[2:9-10]. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, mazkur yo‘nalishlar alohida-alohida tadqiqot obyekti bo‘lishi mumkin, biroq ular o‘rasidagi birlikni, ya’ni inson va ta’lim muammosini, tarbiya jarayonlari mohiyati va inson tafakkuriga, idealiga ta’sirini unutmaslik zarur. Ta’lim va madaniyat (ta’lim falsafasi sotsiologumanistik va ijtimoiy –madaniy voqelikdir) gumanistik ahamiyati tufayli falsafiy ahamiyat kasb etadi, jamiyat talab etadigan funksiyalarni bajaradi. Falsafa fanlari doktori, professor A.A.Korolkovning fikriga ko‘ra, ta’lim-tarbiya ekstravertiv, ya’ni boshqa “men”larga qaratilgani, ijtimoiy mohiyati kishilarga, yon-atrofga pozitiv ta’sir etgani tufayli falsafiydir. Biroq bu jihat o‘zidan o‘zi shakllanmaydi, subyekt-obyekt o‘rtasidagi munosabatlarning didaktik mohiyati, yo‘naltirilgani va ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etgani tufayli falsafiydir[5:12-13].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Shunday qilib, ta’lim va tarbiya jarayoni faqatgina ijtimoiy ehtiyoj yoki davlat siyosatining vositasi sifatida emas, balki falsafaning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim-tarbiya tizimi falsafiy asoslardan quvvat olib, insoniyat taraqqiyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biri — ongli, ijtimoiy mas’uliyatli

va maqsadga yo'naltirilgan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Falsafiy tafakkur bu jarayonda nazariy asos, metodologik vosita va axloqiy mezon rolini bajaradi. U ta'lim mazmuniga chuqur ma'no, asoslanganlik va hayotiylik baxsh etadi. Falsafiy g'oyalar ta'limda inson tabiatiga, jamiyatdagi o'rni va roliga, uning erkinligi va mas'uliyatiga oid masalalarni markazga qo'yadi. Natijada ta'lim faqat kasbiy ko'nikmalarni emas, balki axloqiy, estetik, ijtimoiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi jarayonga aylanadi. Bu esa o'z navbatida, shaxsning butun jamiyatga nisbatan ongli, tanqidiy va faol munosabatda bo'lishini ta'minlaydi.

Dialektik yondashuv nuqtayi nazaridan olib qaralganda, ta'lim va tarbiya — bu jamiyat va shaxs o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir mexanizmi bo'lib, unda falsafa birlashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi kuch sifatida xizmat qiladi. Falsafa orqali ta'lim nafaqat o'rgatadi, balki tarbiyalaydi, shakllantiradi, ongni uyg'otadi va insonni o'zini anglash sari yo'naltiradi. Aynan mana shu jihatlar ta'lim-tarbiya faoliyatini chuqur ma'naviy-mafkuraviy jarayonga aylantiradi. Shu boisdan, ta'limda falsafaning o'rni va roli faqat

nazariy emas, balki amaliy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Falsafiy asoslar orqali yo'naltirilgan ta'lim insonni **erkin tafakkur egasi, hayotda o'z yo'lini topishga qodir shaxs**, va **ijtimoiy faol subyekt** sifatida kamolga yetkazish imkonini beradi. Bu esa har qanday ta'lim tizimi uchun asosiy strategik vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Рэнд А. Философия: кому она нужна? – Москва: Альпина Паблишер, 2021. С. 16.
2. Мандель Б. Философия образования. – Москва: Directmedia, 2017. С.9-10).
3. Курбонов, Х. *Sharq mutafakkirlarining ta'lim haqidagi qarashlari*. – Самарканд: СамДУ нашри, 2020.
4. Мандель Б. Философия образования. – Москва: Directmedia, 2017. С.9-10).
5. Корольков А., Преображенская К., Романенко И. Педагогическая антропология в зеркале философии. – Москва: Алетейя, 2017. С.12-13.



XIVA XONLIGI HUDUDIIY CHEGARALARI JOYLASHISH KARTOGRAFIYASI XUSUSIDA

*Erimmatova Gulnoza Azimboy qizi, Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch davlat universiteti “Falsafa” kafedrası
o‘qituvchisi*

ON THE CARTOGRAPHY OF THE TERRITORIAL BORDERS OF THE KHIYA KHANATE

*Erimmatova Gulnoza Azimboy qizi, Lecturer at the Department of
Philosophy, Urgench State University named after Abu Rayhan
Beruni*

О КАРТОГРАФИИ ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ ГРАНИЦ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА

*Эримматова Гулноза Азимбой кызы, преподаватель кафедры
философии Ургенчского государственного университета
имени Абу Райхона Беруни*

Annotatsiya: Maqolada Rossiya harbiy ekspeditsiyasi arafasida Xiva xonligi chegaralari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Xorazm, Amu daryo, Atrek daryosi, geografik tekislik, Sariqamish, paleogeografiya, Mang‘ishloq, Quvatog‘.

Abstract: This article analyzes the borders of the Khiva Khanate on the eve of the Russian military expedition.

Key words: Khwarezm, the Amu Darya, the Atrek River, geographical plains, the Sarykamysh, paleogeography, Mangyshlak, Kuvatog‘.

Аннотация: В статье анализируются границы Хивинского ханства накануне русской военной экспедиции.

Ключевые слова: Хорезм, река Амударья, река Атрек, географическая равнина, Сарикамышская котловина, палеогеография, Мангышлак, Куватог.

Kirish. Maqolada Xorazm vohasida XVI asrdan XIX asr 70- yillari arafasida Xorazm davlatining qaytadan tiklanishi Shayboniylar sulolasi davrda ma‘muriy hududiy chegaralar, Xiva xonligi boshqaruvi hamda XIX asr boshlarida boshqarish tizimini qo‘lga olgan Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmdorlarining geografik hududni kengaytirish sohasidagi olib borilgan tashqi siyosat natijalarini yoritish inobatga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorazm ekspeditsiyasi olib borgan paleogeografik tadqiqotlar natijalarga binoan, bundan 4-3,5 million

yillarda Xorazm vohasi tekislik bo‘lgan bo‘lsa, Amudaryo harakati natijasida o‘ng va so‘l sohil hududlariga bo‘lingan. Bu jarayon hozirgi davrda ham davom etmoqda. [1-C 290-291] Geografiya fani natijalariga ko‘ra, Amudaryo harakati natijasida biz yashayotgan zamin o‘ng va so‘l sohilariga ajralgan bu geografik holat hozirgi kunda saqlanib qolgan. [2. B. 162] Amudaryo toshqini natijasida Xorazm tekisligi Sariqamish bo‘yi, Aqchadaryo va Orolbo‘yi havzalariga bo‘lingan.[3.C.73] Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, miloddan avvalgi 545-534-yillarda Xorazm



<https://orcid.org/0009-0008-8304-3087>

e-mail:
gerimmatoga@mail.com



Ahamoniylar davlati tarkibida bo'lgan.[4.C.104.5.C.106]

Vorobyeva M.G. xulosasiga ko'ra, Xorazm davlati janubiy chegarasini Amudaryo o'rta qismi qo'shqa'l'a belgilab bergan.[6.C.40] A.S.Balakhvantsev qayd qilishicha, Xorazm Ahamoniylardan mustaqil bo'lishi mil. avv V asr oxirida bo'lgan.[7-C.60] Ahamoniylar davlati va boshqaruv tizimidan mustaqil bo'lgan Xorazm davlatining O'rta asrlarda shimoliy chegaralari, shimoliy Iroq va Suriya quyi havzalarigacha qamrab olganligini **E.V. Rtveladze** qayd qilgan.[8-C 61-114 9- C.113-120] **O.Boqiyev va E.V.Rtveladze** tadqiqotlari natijalariga ko'ra, buyuk Xorazmshohlar davlati shimolda Orol dengizi janubda Fors ko'rfazi, g'arbda Ozarboyjon, sharqda Shimoliy Kavkaz, Anatoliya, Suriya, Misr hududlari kirgan.[10-C.82] Xorazm davlati Temuriylar davlati tarkibida bo'lgan va uning faoliyati yakun topgandan keyin, Xorazm shimoliy hududni Qo'ng'iroq qabilasidan sofi vakillari qo'lga olib, 1505-yilgacha Xorazm davlatini boshqargan. Keyingi tarixiy voqealar Shayboniynxon tomonidan bosib olinishi bilan bog'liq. XVI asr boshidan XIX asr birinchi yarmida siyosiy maydonga chiqqan Xorazm davlati (keyinchalik 1695-yildan Xiva xonligi) siyosiy jarayonlar qaltis davri bo'lgan. 1512-yildan Xorazmda Shayboniylar sulolasi (200 yil boshqargan) Mang'ishloq, Qoraqum hududida Atrek daryosi Orol dengizi atroflari, Sirdaryo quyi havzasi g'arbiy hududlari sari kengaygan. Tadqiqotchilar hamkorlikda chop qilgan monografiyada XIX asr arafasida Xiva xonligining hududiy chegaralari asosiy hududlari o'ng va so'l sohil hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston respublikasi hamda Toshhovuz viloyatlari, Sirdaryo quyi havzasi shimoliy hududi, Kichik Orda hududiga ulangan g'arbida va janubida Qoraqum sharqida Buxoro amirligi bilan chegaralangan. [11-C 148-149]

Tadqiqot metodologiyasi quyidagicha:

Obyektivlik, **tarixiy-xronologik** izchillik, munozara, asoslash, umumlashtirish, mantiqiy xulosa.

Tahlil va natijalar. Xorazm vohasi O'zbekistonning shimoliy-g'arbida joylashib uning yuzasi tik tuzulishi, Qizilqum va Qoraqum sochmaqum uyumlari, Sulton Uvays, Qoratog', Qubatog' va Yumurtavlar, janubda Pitnak, Shuraxon shimolda Orol dengizi geografik

kengliklaridan iborat. Amudaryo harakati natijasida ikki hududga bo'lingan bo'lib mil.avv IV asrdan 305-yilgacha, Xorazm davlati poytaxti Axshaxanqal'a va Tuproqqal'a bo'lgan. 305-yildan 995-yildan Afrig'iylar sulolasi poytaxti, 995-1017-yillardan Ma'muniylar davlati, 1017-yil - Oltintoshlar davlati, 1017-1034-yilgacha Buyuk Xorazmshohlar davri (1097-1231) Xorazm hududi 305-995-yillarda Xorazm- siyosiy tarixi janubda – Afrig'iylar boshqarish tuzumi, shimoliy hududida Ma'muniylar sulolasidan Ma'mun I bo'lgan 995-1017-yil Ma'muniylar sulolasi davrida janubiy Xorazm qo'shib olindi. Niso, Marv va Xurosonning shimoliy-g'arbiy hududlari qo'shib olinangan.

Oltintoshlar davrida hudud chegarasida o'zgarish kuzatilmagan lekin, G'aznaviylar boshqarish tizimga kirgan. Oltintosh Xorazmni G'aznaviylardan ajratib olib mustaqil boshqarishni olib borgan. Buyuk Xorazmshohlar davlati tashkil topishida, Takash davrida geografik hudud chegaralari Saraxs, shimoliy Iroq hamda, Sirdaryo quyi hududlari sari kengaygan. Muhammad davrida Qoraxitoylarga zarba berib Movarounnahr hisobiga hudud kengaygan. XVIII-XIX asrlarda Xiva xonligi tarixiy adabiyotlarda qayd qilingan xaritaga ko'ra asosiy hududi quyi Amudaryo havzasi bo'lgan. Xiva xonligi geografik hududi shimolda Orol dengizi, g'arbda Artek daryosigacha bo'lgan hudud Xiva xonligiga qaramligi, Marv vohasi Buxoro davlati bilan bahsli bo'lgan sharqiy hududda Shuraxongacha hudud chegaralari qayd qilingan. Tadqiqotchilar hamkorligida nashr qilingan manbada hamda saroy tarixchilari Munis, Ogahiy, Bayoniy, hamda rus tadqiqotchilari asarlarida Xiva xonligi geografik xususiyatlariga oid ma'lumotlar o'rin olgan.

Yuqorida qayd qilingan ma'lumotlarda quyidagi natijalar qayd qilinadi:

Geologik jarayonlarning bir necha marotaba takrorlanish natijasida shimolda Orol dengizi, g'arbda Ustyurt, janubda Inguzorti, Qoraqum, Sharqda Qizilqumdan iborat. Voha janubiy-sharqdan shimoiy-g'arbiy tomon kengayib borgan janubiy chegarasi Tuyamuyin tangilidan boshlanib, shimoliy tomon kengayib, kengligi 75-80 km bo'lgan borgan (Xorazm-Toshhovuz tekisligi). Mil.avv VIII-VII ming yillikda Xorazm tekisligi o'ng va so'l sohil hududiga bo'lingan.

Mil.avv IV asrda mustaqil Xorazm davlati quyi Sirdaryo havzasi Sariqamish ko'li havza hududlar sari kengaygan.

Milodiy 305-995-yillarda tekislik qismida (janubiy va shimoliy) melodiy 995-yil - 1220-yillar Xorazm vohasi qo'shni hududlar bilan geografik chegaradosh bo'lgan Quyi Sirdaryo havzasi va shimoli Iroq hududlaridan iborat bo'lgan.

XVI-XIX asrlarning 70-yiligacha Xiva Xonligi hududiy chegarasi Mang'ishloq, Qoraqum, Atrek daryosi, Orol dengizining shimoli-sharqiy hududlarini o'z ichiga olganligi qayd qilingan

Xulosa va takliflar. Maqola mavzusi mazmuni tahlil va natijalar umumlashtirish natijasida quyidagi xulosa izohlandi:

- Geologik jarayonlar ta'sirida Xorazm vohasi hududi aniq geografik o'ringa ega bo'lgan, Amudaryo harakati natijasida ikki geografik manzaraga bo'lingan.
- Mustaqil Xorazm davlati hududi Quyi Sirdaryo va Sariqamish havzasi tomon kengaytirilganligi sabab geografik hududiy chegarasi shakllangan.
- 995-yilda Shimoliy Xorazm davlati Ma'muniy Xorazmshohlar davrining hududiy kengaytirish siyosati tufayli ikki sohili birlashtirilgan hududiy chegarasi aniq davlat faoliyat olib borgan. Mazkur geografik hudud chegarasi Buyuk Xorazmshohlar davlati davrida Quyi Amudaryo, Sirdaryo sharqiy tekisligi va Shimoli Iroq hududlari geografik hududlaridan iborat bo'lgan.
- XVI-XIX asrning 70-yillarigacha Xorazmning asosiy hududi Xorazm - Toshhoviz tekislik hududi, Kasbiy dengizning sharqiy hududi, Qoraqumdan Atrik daryosigacha, janubda Mari vohasi, sharqda Shuraxon atroflarini qamrab olgan, degan xulosalar ilgari surish mumkin, shu ma'noda quyidagilar taklif qilinadi:

Xiva xonligi kartografiyasining qo'shni hududlardan farqli xususiyatlarini yoritish;

Shayboniylar davrida qaysi hududlar qo'shib olinishi xaritada tasvir qilish;

Xiva xonligi xaritasida qishloq va shaharlarni joylashtirish kartografiyasini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Виноградов А. В., Итина М. А. Кесь А,С, Мамедов Э.Д Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии//Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене –М, : Наука, 1974.
2. Баратов П., Маматкулов М., Рафиков А. *Ўрта Осиё табиий географияси.* — Тошкент: Ўқитувчи, 2002.
3. Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование рельефа аллювиально-дельтовых равнин Амударьи//Культура и искусство Древнего Хорезма.//Вос лит – М, : Наука, 1981
4. Дандамеев М. А., Луконин В. Г. Культура и экономика древнего Ирана. – М.: Наука, 1980
5. Дандамаев М. А. *Иран при первых Ахеменидах* — М., 1963.
6. Воробьева М.Г. *Проблемы «Большого Хорезма» и археология//Этнография и археология Средней Азии.* —М., Наука, 1979.
7. А.С. Балахванцев. Отделение Хорезма от государства ахеменидов//Хорезм в истории государственности Узбекистана-Ташкент, «Ўзбекистон файласуфлари жамияти» - Тошкент, 2013.
8. Ртвеладзе Э. В. Формирование первого государства на территории Хорезма. Границы государства при царе Фарасмане//Хорезм в истории государственности. -Ташкент, 2013.
9. Ртвеладзе Э.Д. Хорезм под властью династии Маъмунидов и Алтунташидов//Хорезм в истории государственности Узбекистана-Ташкент, 2013.
10. Буниятов З. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231) – М.: Наука. 1986.
11. Хорезм в истории государственности Узбекистана// “Ўзбекистон файласуфлари жамияти”. -Ташкент, 2013.

NUTQIY ETIKET BIRLIKLARINING FUNKSIONAL- STRUKTUR XUSUSIYATLARI


Saparova Surayyo Baxtiyor qizi,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

FUNCTIONAL AND STRUCTURAL CHARACTERISTICS OF SPEECH ETIQUETTE UNITS

Saparova Surayyo Baxtiyor qizi,
Lecturer, Urgench state university

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧЕВЫХ ЭТИКЕТНЫХ ЕДИНИЦ

Сапарова Сурайё Бахтиёр кызы,
преподаватель Ургенчского государственного университета



e-mail:
saparovasurayyo25@g
mail.com

<https://orcid.org/0000-0002-6863-905X>

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqiy etiket birliklarining tarkib topishi, lisoniy va nutqiy xususiyatlari, tilshunoslikning boshqa sathlari leksik birliklari bilan aloqasi haqida muallifning fikr-mulohazalari bayon etilgan. Boshqa tilshunos tadqiqotchilar nuqtai nazarlari haqida mushohada yuritilgan. Til birliklarining nutqiy etiket sifatida baholanishida zarur bo'ladigan asosiy tamoyillar, nutqiy etiket ko'rinishlari misollar vositasida yoritib berilgan. Kommunikativ strategiya vositasida nutqiy etiket birliklari izohlangan. Xorazm shevalaridagi nutqiy etiket birliklarini o'rganishdagi asosiy omil va sabablar, undan kutilayotgan natijalar misollar orqali aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy etiket, nutqiy akt strategiyasi, nutqiy etiket ko'rinishlari, lingvopragmatik tahlil, lingvokulturologik tahlil, lingvokreativ tafakkur, kognitiv ma'no.

Abstract: This article presents the author's reflections on the formation of speech etiquette units, their linguistic and communicative features, and their connection with lexical units of other levels of linguistics. The views of other linguistic researchers are also analyzed. The main principles necessary for evaluating language units as speech etiquette are highlighted, along with examples of various forms of speech etiquette. The use of communicative strategies in explaining speech etiquette units is discussed. The key factors and reasons for studying speech etiquette units in the Khorezm dialects, as well as the expected outcomes, are illustrated through examples.

Keywords: speech etiquette, speech act strategy, forms of speech etiquette, linguopragmatic analysis, linguoculturological analysis, linguocreative thinking, cognitive meaning.

Аннотация: В данной статье изложены размышления автора о формировании речевых этикетных единиц, их языковых и речевых особенностях, а также их связи с лексическими единицами других уровней лингвистики. Рассмотрены точки зрения других лингвистов-исследователей. Освещены основные принципы, необходимые для оценки языковых единиц как речевого этикета, и приведены примеры форм речевого этикета. Речевые единицы этикета интерпретируются через призму коммуникативной стратегии. Показаны основные причины и факторы изучения речевых этикетных единиц в хорезмских говорах, а также ожидаемые результаты исследования на основе примеров.

Ключевые слова: речевой этикет, стратегия речевого акта, формы речевого этикета, лингвопрагматический анализ, лингвокультурологический анализ, лингвокреативное мышление, когнитивное значение.

KIRISH

(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Inson va u bilan bogʻliq moddiy olam uzluksiz rivojlanar ekan, borliqni uning tasavvurida idrok etilishi masalasi har zamonlardagi kabi dolzarb masalalardan biri boʻlib kelmoqda. Borliq haqidagi tasavvurlar ongimizda gavdalanar ekan biz kishilar haqidagi turli bilimlar jamlanmasini, bir tomondan, uning nutqiy faoliyati asosida shakllantiramiz. Shu kunga qadar tilshunoslik sathlari doirasida har bir sathning oʻrganish obyekti sifatida eʼtirof etilib kelingan lisoniy birliklar bugungi kun kishisi nutqiy olamida, tafakkuridagi tasavvurlarini aks ettirishida chegara bilmay qoldi. Har qanday bilimning asosi inson uchun boʻlgani holda bugungi kun kishisini, uning nutqini bor holicha tadqiq qilish bir qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Zero, nutqiy etiket birliklarini lingvopragmatik va lingvokulturologik tadqiq qilishning mohiyati ham tabiiy jarayondagi nutqiy birliklarning ijtimoiy munosabatlarni harakatlantiruvchi kuch sifatida yuzaga chiqishida namoyon boʻladi. Xususan, tadqiqotchi H.Turdiyeva tadqiqotida nutqiy vaziyatlarda qoʻllanuvchi iboralarni tabiiy (odatiy) nutqda ifodalanish masalalari lingvopragmatikaning asosiy predmeti ekanligini eʼtirof etadi[2.:107].

Tabiiy jarayondagi nutqiy vaziyatlarda qoʻllanuvchi birliklarni tahlil qilishdagi muammo, birinchi navbatda, tadqiqot obyekti chegarasini aniqlashda kuzatiladi. Bugungi kunda inson tasavvuri kuchli axborot texnologiyalari, u bilan bogʻliq tushunchalar, ijtimoiy murakkabliklar asosida shakllanishda davom etmoqda. Oʻzbek tilini, xususan, shevalarni lingvopragmatik va lingvokulturologik tadqiq qilishni mavjud nazariy bilimlar asosida shakllantirish yetarlicha natijaga erishishimizga yechim boʻlolmaydi. Chunki inson maʼnaviy olami cheksiz. Shu oʻrinda olim J.Katsning nazariy qarashlari fikrimizga oydinlik kiritadi. Uningcha, “soʻzlovchilarning oʻz tili haqidagi bilimi bilan ular biladigan tillar oʻrtasida katta farq mavjudligini anglamoqlari zarur”[4.: 11].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЖИТЕПАТҲА И МЕТОД/MATERIALS AND METHODS). Tilshunoslik sohalarining hamkorligi haqida gap borar ekan, baʼzan birgina oʻrganilayotgan

tadqiqot obyekti bir nechta sohalar bilimiga tayangani holda kompleks tahlilni talab qiladi. Shu oʻrinda, nutqiy etiket birliklari chegarasini aniqlash masalasiga toʻxtalsak, kuzatishlarimiz natijasida amin boʻldikki, faqat tahlil metodi kompleks boʻlibgina qolmay, tahlilga tortilayotgan nutqiy qatlam talabidan kelib chiqib tadqiq obyekti ham majmuiy koʻrinishga ega boʻlishi mumkin. Nutqiy etiket tushunchasiga berilgan taʼriflarning deyarli barchasida nutqiy etiketning jamiyatda insonlar xatti-harakatlari qoidalarini belgilovchi vosita ekanligi va muloqot jarayonida odamlar oʻrtasidagi muloyim munosabatlarni ifodalashning koʻrinishini aks ettiruvchi anʼanalar tizimi ekanligi taʼkidlanadi. Shuni ham kuzatdikki, nutqiy etiket tushunchasi muloyim munosabatni ifodalagani holda ayrim xalqlar har qanday munosabatlarda muloyimlikni yoqlashmaydi. Shunday vaziyatlar boʻladiki, muloyim munosabat oʻsha hollarda ikkiyuzlamachilik sifatida baholanadi. Jumladan, H.Turdiyeva dissertatsiyasida rus va ingliz xalqlari bilan oʻtkazgan soʻrovnoma natijalarini yoritishdagi misollarda kuzatish mumkin [2.: 28]. Nutqiy etiket tushunchasiga tadqiqotchilar tomonidan taʼrif berilar ekan, ularda nutqiy etiket birligiga tilning aynan qaysi lisoniy birligi yoki birliklari mansubligi alohida taʼkidlanmaydi. Olga Anchimiuk, Valentina Buligina, Mariya Gonchar, I.V.Shcherbashina, Rafael Gazizov, K.N.Kosuxina, O.A.Agarkova, A.Akishina, N.I.Formanovskaya, I.A.Sternin, V.E.Goldin, Jen Jan, T.V.Shmeleva, N.Leech, P.Broun, S.Levinson kabi jahon va rus tilshunosligi tadqiqotchilari, qolaversa, B.Husanov, V.Gʻulomov, N.Mahmudov, R.Qoʻngʻurov, T.Qudratov, E.Begmatov, S.Inomxoʻjayev, B.Oʻrinboyev, A.Aripova, H.Hojiyeva, M.Saidxonov, M.Hakimov, S.Moʻminov, H.Turdiyeva, Sh.Sodiqova kabi oʻzbek tilshunosligi tadqiqotchilarining nutqiy etiket tadqiqiga bagʻishlangan izlanishlarida nutqiy etiket birligi sifatida kishi nutqi qaratilgan shaxsga “*sen*” yoki “*siz*” shaklida yuzlanishida kuzatiladigan **kishilik olmoshlari, feʼlining shaxs-son shakli**; suhbatdoshining ismi, otasining ismi yoki familiyasi, mansabi, unvoni, qarindoshlikni bildiruvchi nomlar, **metonimik va metaforik nominatsiyalar** asosidagi birliklarning mavjudligini kuzatish mumkin [3.: 80]. Bundan

tashqari, “hoy”, “assalomu alaykum”, “barakalla”, “ofarin”, “xayrli kech” kabi **undov soʻzlar**, “(men) sizni (seni) taklif qilmoqchiman”, “sizni taklif qilaylik”, “Agar xohlaysizmi”, “... Rozi boʻlarmidingiz”, “yaxshi boʻlardi”, “Bizga kerak” kabi[3.: 105] taklifni ifodalovchi birliklar, “Shunday boʻlsin”, “Xavotir olmang (toʻxtating)”, “Afsuski”, “Hechqisi yoʻq!”, “Hech qachon!” kabi taklifga nisbatan rozilik yoki norozilikni ifodalovchi javob birliklari, “Keling (siz) ...”, “Iltimos, biror narsa qilishga ruxsat bering/mumkinmi...?”, “Buni iloji bormi...?”, “kechirasiz”[3.:114-140] kabi iltimosni anglatuvchi soʻrov birliklari, “Сухбатлашишга бир дақиқа вақт ажрата оласизми?”, “Сиз уш вақтда бўш бўлармикиниз?”, “Биз узун кўйлак киямиз деб ўйлаяпмиз.”[2.: 37-38] kabi kishi shaxsiyatidagi kamtarlikni koʻrsatuvchi turli kommunikativ maqsadni ifodalovchi grammatik konstruksiyalar, olmoshlar, modal soʻzlar, xususan, tilshunoslikning turli sathlariga oid leksik birliklarning ham misol tariqasida keltirilganligini kuzatdik. H.Turdiyeva nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqiga bagʻishlangan dissertatsiyasida gap komponentlari yoki strukturasini oʻzgartirish yohud leksik boyitish orqali ham nutqiy etiket birliklarini ifodalash mumkinligini eʼtirof etadi[2.: 32]. Koʻrinib turibdiki, nutqiy etiket birliklari tilning istalgan sathiga oid leksik birliklarni qamrab olishi mumkin. Bunda etiket birligini aniqlashda asosiy eʼtibor soʻzlovchilarning vaziyatni toʻgʻri baholagan holda til birliklarini qoʻllay olish strategiyasini oʻrganish yetakchilik qiladi. Shu jihatdan, lingvopragmatik va lingvokulturologik birliklarni oʻrganish mavzu mohiyatini yoritishda katta ahamiyatga ega.

МУНОКАМА(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Xorazm shevalaridagi nutqiy etiket birliklarini tadqiq qilishdan ham asosiy maqsad xalqning til birligini, vaziyatni baholash strategiyasini oʻrganish orqali shu xalqning tub aholisi anʼanalarini, xalqqa xos milliylikni oʻrganish, xalqlar mentalitetiga xos umumiy va farqli qadriyatlarni aniqlash, chet el oʻrganuvchilari uchun Xorazm muomala birliklarini pragmatik funksiyalari bilan izohlash, ilmiy asoslash va bu orqali oʻzbek tili shevalar tizimi taraqqiyoti bilan bir qatorda mamlakatning turistik faoliyati rivojiga ham hissa qoʻshishdan

iborat. Bundan tashqari, individual nutqiy jarayonlarni oʻrganish orqali shaxslar xarakterining shakllanish qonuniyatlarini ham tushunib yetish, inson ongining tilga qanchalik taʼsiri yoki nutqiy muloqot jarayonlarining kishi ongi orqali shaxsiyatiga taʼsiri kabi bir qator masalalarni yechishga xizmat qilgan boʻlardi. Zero, Sh.Safarovning nutqiy birliklarning hosil boʻlishi va ularning tushunilishi aqliy faoliyat natijasi ekanligi, bu faoliyatning bajarilishi bevosita lisoniy bilimga ega boʻlish sharti bilan bogʻliqligi, lisoniy bilimsiz voqelikni bilish, kechayotgan voqea-hodisalar haqidagi axborotni aks ettiruvchi mantiqiy strukturalarni lisoniy ifodalashning imkoni yoʻqligi haqidagi fikrlari ahamiyatlidir[4.: 14]. Kishilarning voqelikka nutqiy munosabat bildirishi ulardagi lingvokreativ tafakkur[1.: 319] bilan bogʻliq jarayon deb hisoblaymiz.

Nutqiy etiket birliklari borasida ingliz tadqiqotchisi J.Mayks nazariyasi va uning nutqiy etiket koʻrinishlarini guruhlariga tasniflab koʻrsatishi nutqiy akt birliklarini qoʻllashda, soʻzlovchi strategiyasini baholashda alohida oʻringa ega. U nutqiy odob-axloq koʻrinishlarini 5 turga ajratadi. Tadqiqotchi H.Turdiyeva fors va oʻzbek tiliga xos nutqiy etiket birliklarini izohlashda J.Mayks tadqiqotidan misollar keltirib, ularning kognitiv maʼnolarini va nutqiy etiket koʻrinishlarining 5 turini ham aks ettiradi[2.: 32-35]: 1) sayqallash etiketi; 2) ayblamaslik etiketi; 3) dahlsizlik etiketi; 4) ichki hissiyotni yashirish etiketi; 5) nosamimiy (nazarda tutilmagan) mehmondoʻstlik etiketi.

NATIJALAR

(РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Nutqiy etiket birliklari sifatida eʼtirof etilayotgan lisoniy birliklar bugungi kungacha boshqa tilshunoslik sohaları doirasida turli tadqiq metodlari asosida semantik, leksik-grammatik, funksional jihatdan tahlil qilingan. Lekin inson nutqining jonli muloqotdagi ifodaviy imkoniyatlari, chegara bilmas individual xarakterlar asosida shakllangan birliklarning perlokutiv akti voqelantirishdagi roli nuqtayi nazaridan tadqiq qilinmagan. Til haqidagi qonuniyatlar, birliklar nazariy asosda oʻrganilgan boʻlsa-da, til harakati qoidalariga muvofiq poliintensionallik ifodalangan nutqiy harakatlar sheva materiallari asosida pragmatik talqinda tadqiq qilinmagan. *Eshikni baklabarsak*

bo'lamakan? Birinchi uzatilayotgan xabar *eshikning yopilishi* kerakligi. Poliintensionallik: 1) *eshikni yopib yubor* - buyruq; 2) *eshikni yopib yuboramizmi!* - taklif; 3) *eshikni yopib yuborolasanmi?* - so'rov kabi bir nechta tushunchalarni ifodalovchi informatsion maqsadlar jamlanmasi, ya'ni ko'p maqsadlilik. Bunda suhbatdosh shaxsiyatiga dahl qilmaslik, dilxiraliklarni oldini olish etiketi yetakchilik qiladi. Bu kabi murojaatni qabul qiluvchi o'z tafakkur olamidani kelib chiqib qabul qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, nutqiy birliklarni faqat qo'llash emas, idrok etish ham katta ahamiyatga ega. Bular orqali ijtimoiy munosabatlarning to'g'ri shakllanishiga erishish mumkin. Ijtimoiy munosabatlarning to'g'ri shakllanishi nafaqat mamlakat ichkarisidagi bir millatga mansub shaxslarning, balki boshqa xorijiy xalq vakillari bilan kuzatiladigan aloqalarda do'stlik va hamjihatlikni saqlashdagi bugunning dolzarb masalalaridan biridir. Tabiiyki, bunday ijtimoiy jarayonlarning ijobiy tus olishida nutqiy etiket birliklarini lingvokulturologik va lingvopragmatik jihatdan tadqiq qilish N.Shammas[5] ta'biri bilan aytganda, ijtimoiy aloqadorlikni qo'llab-quvvatlashda, ijtimoiy masofani anglashda, insonlarning o'zaro muloqotidagi madaniyat, mentalitet bilan bog'liq nutqiy etiket mezonlarining barqarorligini saqlashda alohida ahamiyatga egadir.

XULOSA

(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Istalgan nutqiy etiket birligini etiket birligi sifatida muloqot vaziyatiga mos etiket birligi ekanligini anglash

uchun faqatgina shu birlikni nutqiy muloqotning boshqa komponentlaridan alohida olgan holda izohlab, o'quvchiga tushuntirib berib bo'lmaydi. Lisoniy birliklar nutqiy etiket birligi sifatida jonli muloqot paytidagina istalgancha kuzatilishi mumkin. Bir o'rinda etiket birligi hisoblanmaydigan birliklar, nutqiy kommunikatsiya jarayonidan anglashilgan boshqa konnotativ jihatlari asosida nutqiy etiket birligi vazifasini bajarishi mumkin. Shuni ta'kidlagan bo'lardikki, nutqiy etiket birliklarining istalgan nutqiy aktga xos ko'rinishlarini faqat jonli muloqot asosida yoki jonli muloqotdan asliday olingan dialoglar asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (REFERENCES/ ADABIYOTLAR RO'YXATI):

1. Б.А. Серебrenников. О материалистическом подходе к явлениям языка. – М.: 1983.
2. Х.К.Турдиева. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи. Диссертация. – Тошкент, 2020.
3. О.Анчимиук. Речевой этикет в произведениях русской литературы XIX века. – Б.: 2020.
4. Ш.Сафаров. Когнитив тилшунослик. "Сангзор" нашриёти. – Жиззах, 2006.
5. https://www.researchgate.net/publication/47937309_Cross-cultural_pragmatic_failure_misunderstanding_in_verbal_communication_between_speakers_of_Arabic_and_English



Qabul qilindi: 16.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK: 347:379.45

ПРАВОВОЙ СТАТУС ПОТРЕБИТЕЛЯ В СФЕРЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ

Реймбаева Гулдаулет Курбанбаевна,
докторант кафедры «Гражданское и бизнес право»
Каракалпакского государственного университета

TURIZM XIZMATINI KO'RSATISHDA ISTE'MOLCHINING HUQUQIY MAQOMI

Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna,
Qoraqalpoq davlat universiteti «Fuqarolik va tadbirkorlik huquqi»
kafedrası doktoranti

LEGAL STATUS OF THE CONSUMER IN THE FIELD OF TOURISM SERVICES

Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna,
Phd student of the Department of
«Civil and Business Law», Karakalpak State University



e-mail:
guldaulet62@gmail.
com

Аннотация: В данной работе рассматривается правовой статус потребителя в сфере туристических услуг как совокупность его прав, обязанностей и гарантий, закреплённых в национальном законодательстве. Особое внимание уделяется анализу норм гражданского законодательства, Закона Республики Узбекистан «О защите прав потребителей» и «О туризме». Описываются механизмы защиты прав потребителей в случае нарушения условий договора туристического обслуживания, ответственность туроператоров и турагентов, а также роль государственных и общественных институтов в обеспечении правовой защищённости туристов. Работа подчёркивает актуальность темы в условиях роста туристической активности и необходимости повышения правовой грамотности потребителей.

Ключевые слова: субъект правоотношений, потребитель, турист, турпродукт, правосубъектность.

Annotatsiya: Ushbu maqolada iste'molchining turizm xizmatlari sohasidagi huquqiy holati ularning milliy qonunchilikda mustahkamlangan huquqlari, majburiyatlari va kafolatlari majmui sifatida ko'rib chiqiladi. Fuqarolik qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Turizm to'g'risida"gi qonunlarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maqolada turistlarga xizmat ko'rsatish shartnomasi shartlari buzilganda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlari, turoperatorlar va turagentlarning mas'uliyati hamda turistlarning huquqiy himoyasini ta'minlashda davlat va jamoat institutlarining o'рни haqida so'z boradi. Ishda turistik faollikning kuchayishi sharoitida mavzuning dolzarbligi va iste'molchilarning huquqiy savodxonligini oshirish zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: huquqiy munosabatlar subyekti, iste'molchi, turist, turistik mahsulot, huquq layoqati.

Abstract: This paper examines the legal status of the consumer in the field of tourism services as a set of their rights, obligations and guarantees enshrined in national legislation. Particular attention is paid to the analysis of civil legislation, the Law of the Republic of Uzbekistan "On Protection of Consumer Rights" and "On Tourism". The paper describes the mechanisms for protecting consumer rights in case of violation of the terms of the tourist service agreement, the responsibility of tour operators and travel agents, as well as the role of state and public institutions in ensuring the legal protection of tourists. The work emphasizes the relevance of the topic in the context of growing tourist activity and the need to improve the legal literacy of consumers.

Keywords: subject of legal relations, consumer, tourist, tourism product, legal capacity.

Введение. Правовой статус субъектов правоотношений включает совокупность их прав, обязанностей и ответственности. Он определяется нормами права, которые регулируют взаимоотношения между различными участниками правоотношений. В рамках законодательства Республики Узбекистан правовой статус граждан, юридических лиц, государства и иных участников правоотношений устанавливается Конституцией, гражданским законодательством и другими нормативными документами страны. Каждый субъект туристических правоотношений обладает определённым набором прав и обязанностей, вытекающих из характера заключённого договора и действующего законодательства. Нарушение этих обязанностей влечёт за собой юридическую ответственность в соответствии с установленными нормами.

Важным аспектом является то, что правовой статус субъекта может варьироваться в зависимости от вида правоотношений и конкретных правовых норм, регулирующих ту или иную ситуацию. Одно и то же лицо может выступать в разных ролях - как потребитель, заказчик или даже представитель другой стороны и, соответственно, нести различный объём прав и ответственности.

С самого рождения человек выступает в роли потребителя и остаётся таковым на протяжении всей жизни, приобретая товары и пользуясь услугами для удовлетворения личных и бытовых потребностей, не имеющих отношения к извлечению прибыли или предпринимательству.

В контексте туризма потребителем туристических услуг признаётся гражданин, оформивший договор на их предоставление и использующий эти услуги исключительно в личных целях.

Перед тем как рассматривать особенности прав и обязанностей в данной сфере, необходимо уточнить само понятие

«потребитель». В соответствии с действующим законодательством, потребителем является физическое лицо, приобретающее, заказывающее либо использующее товары, работы или услуги исключительно для личных, семейных, домашних нужд, не связанных с осуществлением предпринимательской деятельности.

Литература и методология. Ключевым участником правоотношений в сфере туристических услуг является потребитель, в чьих интересах обязаны действовать исполнители — туроператор или турагент, оформившие договор на оказание соответствующих услуг. Именно потребитель находится в центре правовой защиты, а туроператор и турагент обязаны обеспечить надлежащее исполнение обязательств по договору, соблюдая его права и законные интересы.

Впервые понятие «потребитель» в современном правовом и социально-экономическом контексте было чётко обозначено в Соединённых Штатах Америки. Во время своего обращения к Конгрессу 15 марта 1962 года президент Джон Кеннеди сформулировал ключевую идею, которая легла в основу глобального потребительского движения. Он заявил: что, «потребители – это крупнейший экономический слой, который воздействует почти на любое частное или государственное экономическое решение... Но это единственный голос, которого зачастую не слышно»¹.

Главным нормативным актом, регулирующим защиту прав потребителей в туристической сфере, является Закон Республики Узбекистан «О защите прав потребителей». Он наделяет туристов правом получать полную и достоверную информацию о предлагаемых услугах и условиях их предоставления.

Этот закон гарантирует, что потребитель может получить всю необходимую информацию, которая поможет ему сделать

¹ Послание Дж. Кеннеди Конгрессу США. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://ozpp.ru/poslanie-kennedy-kongressu-ssha/> (дата обращения 17.12.2019).

обоснованный выбор. В контексте туризма это может включать такие моменты, как:

- Описание услуг (туров, экскурсий, проживания, транспорта и т.д.), включая стоимость, условия и особенности.
- Политику по отмене или изменению условий тура, возврату средств в случае несоответствия заявленных услуг.
- Информацию о наличии и условиях страховки, ответственности туроператора за возможные неприятности во время путешествия.
- Правила и ограничения, связанные с использованием туристических услуг (например, требования к визам, прививкам, санитарным нормам).

Также, в случае если турист не получил требуемую информацию или услуги не соответствуют заявленным, закон обеспечивает механизм защиты прав потребителей, включая возможность подачи жалоб в органы, занимающиеся защитой прав потребителей, и в судебные инстанции. Закон защищает не только права туристов, но и регулирует обязательства туроператоров, включая предоставление достоверной информации о своих услугах. Это помогает избежать конфликтов между туристами и поставщиками услуг.

Согласно, ст. 1 ЗРУ «О защите прав потребителей» потребитель — гражданин (физическое лицо), приобретающий, заказывающий либо имеющий намерение приобрести или заказать товар или работу, услугу в целях личного потребления или иных целях, не связанных с извлечением прибыли².

Следовательно, потребителем туристических услуг признаётся физическое лицо, которое заказывает, приобретает или использует туристический продукт исключительно для личных нужд, не связанных с осуществлением предпринимательской деятельности.

Обсуждения. Турист как потребитель обладает рядом прав, которые защищаются законодательством. В частности, в ряде стран, в том числе в Узбекистане, существуют законы,

регулирующие защиту прав потребителей, в том числе в сфере туризма.

Потребитель туристических услуг обладает рядом характерных признаков:

1.это лицо, совершающее временную поездку в пределах своей страны или за её пределы;

2.обязательным условием признания туриста потребителем является пребывание в месте назначения не менее одной ночи;

3.туристические услуги приобретаются таким лицом с лечебно-оздоровительной, спортивной, познавательной, рекреационной, профессиональной или иной целью, не связанной с извлечением прибыли или предпринимательской деятельностью;

4.турист как потребитель подпадает под категорию лиц, определённых Законом «О защите прав потребителей», и его права защищаются законодательством Республики Узбекистан.

Основные права потребителя представлены в ст. 4 в Законе «О защите прав потребителей». Потребитель туристических услуг имеет все те же конституционные права, предписанные в законе. Потребители имеют право на: получение достоверной и полной информации о товаре (работе, услуге), а также изготовителе (исполнителе, продавце); свободный выбор товара (работы, услуги) и требование его надлежащего качества; требование безопасности товара (работы, услуги); требование возмещения в полном объеме материальных убытков, морального вреда, причиненных товаром (работой, услугой) с недостатками, опасными для жизни, здоровья и имущества, а также неправомерным действием (бездействием) изготовителя (исполнителя, продавца); обращение в суд, другие уполномоченные государственные органы за защитой нарушенных прав или охраняемых законом интересов; создание общественных объединений потребителей.

Потребитель туристических услуг обладает рядом характерных признаков,

² Закон Республики Узбекистан «О защите прав потребителей» от 26.04.1996 г. № 221-I, ст-1 <https://lex.uz/ru/docs/14643>

которые определяют его роль и поведение в туристической сфере. Вот основные из них:

1. Личное, некоммерческое использование услуг. Потребитель туристических услуг приобретает их для личных нужд, не связанных с ведением предпринимательской деятельности. Например, он покупает туры для отдыха, путешествий, образования или оздоровления.

2. Потребность в отдыхе или путешествиях. Основной движущей силой является желание путешествовать, отдыхать, познавать новые культуры, наслаждаться природой или улучшать здоровье. Это отражает важность туризма как средства удовлетворения личных потребностей.

3. Выбор и решение. Потребитель обладает правом самостоятельно выбирать туристический продукт, ориентируясь на свои предпочтения, бюджет и цели путешествия. Он может выбирать направление, тип отдыха (пляжный, экскурсионный, горнолыжный и т. д.), а также тип услуг (групповые или индивидуальные туры).

4. Право на получение качественных услуг. Туристический потребитель имеет право на получение услуг, соответствующих заявленным характеристикам, стандартам качества и безопасности. Он может ожидать, что услуги будут предоставляться в надлежащем виде, с соблюдением всех условий, оговоренных в договоре.

5. Зависимость от предложения на рынке. Потребитель ориентируется на ассортимент туристических услуг, предложенных различными операторами и агентами. Он выбирает из существующих вариантов, что делает его зависимым от состояния рынка (ценовые категории, доступность, качество услуг и т. д.).

6. Платежеспособность. Потребитель обладает достаточным уровнем дохода для приобретения туристических услуг. Это определяет его возможности выбирать те или иные варианты путешествий в зависимости от стоимости услуг.

7. Осведомленность и информированность. Современный потребитель туристических услуг, как правило, хорошо осведомлен о возможностях рынка, благодаря интернет-ресурсам, отзывам других путешественников,

специализированным сайтам и социальным сетям. Он может анализировать информацию и принимать более информированные решения о выборе тура.

8. Ожидания от туристических услуг. Потребитель, выбирая тур, формирует ожидания, связанные с качеством обслуживания, комфортом, уровнем безопасности, насыщенностью программы и другими аспектами. Его удовлетворение от путешествия зависит от того, насколько реальные услуги соответствуют этим ожиданиям.

9. Уязвимость перед некачественными услугами. Потребитель туристических услуг может оказаться уязвимым перед мошенничеством, недобросовестной рекламой или некачественным обслуживанием. Поэтому защита прав потребителей в туризме играет ключевую роль.

10. Индивидуальные предпочтения. Потребители различаются по своим предпочтениям — кто-то ищет экзотические приключения, другие предпочитают комфортный отдых с минимальными усилиями. Эти предпочтения определяют, какие именно туры или виды услуг они будут выбирать.

Эти признаки отражают важные аспекты, которые определяют поведение потребителей на рынке туристических услуг, а также объясняют, почему удовлетворение их потребностей — это приоритет для туристических операторов и компаний.

Существует определенная сложность в разграничении понятий «турист», «потребитель туристических услуг» и «заказчик турпродукта», поскольку все эти категории могут пересекаться, но имеют различные юридические и практические особенности.

Термин «турист» появился в начале XIX века и впервые был зафиксирован в печатных источниках около 1800 года. В это время в Великобритании вышла книга под названием «Анекдоты английского языка» (*Anecdotes of the English Language*), в которой человек, совершающий путешествие ради удовольствия или из личного интереса, впервые был назван туристом. Этот факт считается одним из первых документированных подтверждений появления

и закрепления нового термина в английском языке.³.

Турист - это физическое лицо, которое совершает поездку с целью отдыха, познавательного туризма, лечения, паломничества или иной временной цели, не связанной с получением дохода в месте пребывания. Он непосредственно пользуется туристическими услугами и является активным потребителем туристического продукта, включающего в себя транспорт, проживание, экскурсионное обслуживание и другие компоненты.

Потребитель туристических услуг - это более широкое понятие, чем турист. Потребителем может выступать как лицо, непосредственно использующее туристические услуги, так и тот, кто их приобрел, но по различным причинам не смог ими воспользоваться.

Например, человек, купивший тур для себя, но не отправившийся в поездку из-за болезни, изменений в личных планах или форс-мажорных обстоятельств, по-прежнему считается потребителем. Несмотря на то что услуги фактически не были использованы, он имеет законное право на защиту своих интересов, в том числе на возврат средств или получение компенсации в случае нарушения условий договора.

Таким образом, даже если человек отменил поездку и не воспользовался туристическими услугами, он сохраняет статус потребителя, а его права подлежат защите в соответствии с законодательством о защите прав потребителей.

Заказчик туристического продукта - это лицо, приобретающее турпродукт в интересах третьего лица. Им может быть, как физическое, так и юридическое лицо, которое оформляет покупку тура, но само при этом не участвует в поездке.

Чаще всего заказчиком выступает человек или организация, организующая путешествие для других — например, родитель, приобретающий тур для ребенка, или компания, покупающая путевки для своих сотрудников.

Несмотря на то что заказчик не использует туристические услуги лично, он становится стороной договора с туристической компанией и несет ответственность за выполнение его условий.

В случае возникновения проблем с предоставлением услуг заказчик имеет право требовать возврат денежных средств или компенсацию, однако делает это в интересах лица, для которого был приобретен тур.

Действительно, разграничение понятий «турист», «потребитель» и «заказчик» не всегда однозначно, поскольку в конкретных ситуациях их роли могут пересекаться. На определение статуса каждой из сторон влияет ряд факторов, включая условия договора, фактическое использование услуг и источник оплаты.

Важно учитывать, что правовые последствия для туриста, потребителя и заказчика могут существенно различаться. Например, если турист по личным причинам или вследствие форс-мажорных обстоятельств не смог воспользоваться услугами, его права и возможные основания для возврата средств будут регулироваться иными нормами, чем те, что применимы к заказчику — лицу, заключившему договор и оплатившему тур.

Точное определение статуса каждой стороны имеет ключевое значение при разрешении споров и защите прав в рамках туристического законодательства.

Вопрос, кто именно является «потребителем» туристических услуг, часто зависит от того, кто заключил договор с туристической компанией. В некоторых случаях, например, когда тур покупает компания для своих сотрудников, компания может считаться заказчиком, а сотрудники — туристами или потребителями. В случае, если турист не смог воспользоваться услугой, он может требовать компенсацию, но для «заказчика» могут быть другие условия возврата средств, если тур был приобретен в интересах третьего лица. Зачастую важным моментом является доказательство того, кто является конечным пользователем услуг (например, в случае, если заказчик не может или не хочет

³ Наумова Р.Л. Ценность сравнительного правоведения: на примере законодательства о туризме // Публично-

правовые исследования (электронный журнал). - 2017. - № 3. - С. 63.

воспользоваться услугой), что может повлиять на возможность возврата средств или других претензий к туристической компании.

Результат. Таким образом, при организации и предоставлении туристических услуг важно четко разграничивать, кто является туристом, кто — потребителем, а кто — заказчиком. Несмотря на то, что эти понятия могут пересекаться, для каждой из категорий существуют свои особенности правового регулирования, что требует внимательного подхода к контрактам и условиям обслуживания.

Правосубъектность в туристических правоотношениях играет ключевую роль, поскольку определяет возможность и способность граждан или организаций участвовать в таких отношениях, быть стороной в договоре, приобретать права и нести обязанности, включая ответственность по обязательствам.

В юридической теории **правосубъектность** определяется как совокупность признаков, необходимых для признания лица субъектом права в конкретной правовой сфере. То есть лицо должно обладать определёнными юридическими качествами, чтобы быть участником туристических правоотношений и заключать договоры на оказание туристических услуг.

Гражданская правосубъектность — это основа участия в туристических отношениях и условие легитимности заключаемых сделок, особенно когда речь идет о несовершеннолетних, лицах с ограниченной дееспособностью или юридических лицах.

Согласно законодательству, правоспособность — это способность лица обладать гражданскими правами и нести обязанности (статья 17 Гражданского кодекса Республики Узбекистан). Гражданин приобретает правоспособность с момента рождения, а утрачивает её со смертью.

Дееспособность же означает способность гражданина своими действиями приобретать и реализовывать гражданские права, а также принимать на себя и исполнять гражданские обязанности. Полная дееспособность наступает с достижением совершеннолетия, то есть по исполнению восемнадцати лет.

Следует также отметить, что туристические услуги предоставляются лицам разных возрастных категорий, включая несовершеннолетних, что порождает особенности их правового статуса при заключении договоров.

Дети младше 14 лет являются полностью недееспособными в гражданско-правовом смысле. Все сделки от их имени совершаются родителями, усыновителями или опекунами. Соответственно, договор на оказание туристических услуг в их интересах заключается законными представителями.

Несовершеннолетние в возрасте от 14 до 18 лет обладают частичной дееспособностью и могут заключать сделки только с предварительного письменного согласия своих родителей, усыновителей или попечителей. Сделка также считается действительной, если она была позже подтверждена письменно законными представителями. Исключения составляют несовершеннолетние, признанные эмансипированными или состоящие в браке, которые обладают полной дееспособностью.

Лица с ограниченной дееспособностью, в том числе инвалиды, имеют право на отдых и туристические услуги. В их интересах договоры на оказание туристических услуг подписывают опекуны или попечители в пределах своих полномочий.

Правовой статус несовершеннолетних и лиц с ограниченной дееспособностью требует особого подхода при заключении договоров на туристическое обслуживание, с обязательным учетом норм гражданского законодательства.

Заключение. Таким образом, турист является потребителем туристических услуг, который реализует своё право на отдых на основе договора об оказании таких услуг. Турист — это временный посетитель населённого пункта, территории или страны, независимо от гражданства, национальности, пола, языка или религии, пребывающий в данном месте от 24 часов до 6 месяцев подряд, либо находящийся за пределами своего постоянного места жительства в своей стране и проводящий минимум одну ночь в коллективных или индивидуальных жилых условиях. Цели поездки могут быть медицинскими, образовательными,

спортивными, религиозными и иными, не связанными с профессиональной деятельностью, при этом расходы оплачиваются из местных источников.

Правовое регулирование сферы туристических услуг сталкивается с определёнными трудностями, главным образом из-за множества участников, вовлечённых в эти отношения. Как минимум, здесь присутствуют четыре стороны: туристическая компания (туроператор), сам турист (потребитель), государство и организации туристической индустрии (перевозчики, средства размещения, предприятия общественного питания и другие).

Сложность правового регулирования обусловлена необходимостью согласования интересов всех сторон, а также различиями в правовом статусе, обязанностях и ответственности каждого участника. Это нередко приводит к правовым пробелам и коллизиям, особенно в случае спорных или нестандартных ситуаций.

Потребитель туристических услуг действительно является ключевой фигурой в туристической индустрии. Его потребности,

ожидания и предпочтения являются основой для разработки и продвижения туристических продуктов и услуг. Туристические операторы, чтобы привлечь внимание потребителей, тщательно анализируют их поведение и тренды, а также учитывают различные внешние и внутренние факторы.

Использованная литература:

1. www.lex.uz/ Закон Республики Узбекистан «О туризме» от 18.07.2019 № ЗРУ-549
2. www.lex.uz/ Закон Республики Узбекистан «О защите прав потребителей» от 26.04.1996 г. № 221-I
3. Послание Дж. Кеннеди Конгрессу США. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://ozpp.ru/poslanie-kennedy-kongressu-ssha/> (дата обращения 17.12.2019).
4. Наумова Р.Л. Ценность сравнительного правоведения: на примере законодательства о туризме // Публично-правовые исследования (электронный журнал). - 2017. - № 3. - С. 63.
5. Научный журнал «Студенческий форум». № 25(76), часть 2, июль, 2019 г. 296-стр



Q'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATIDA INSON KAPITALINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLUVCHI HUQUQIY ASOSLAR

Jumaniyozov Sanjarbek Matrasulovich,
“SANJARBEK MATRASULOVICH” advokatlik byurosi rahbari
LEGAL FRAMEWORKS REGULATING THE
FORMATION AND DEVELOPMENT OF HUMAN
CAPITAL IN THE ACTIVITIES OF STATE
AUTHORITY BODIES IN THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN

Jumaniyozov Sanjarbek Matrasulovich,
Head of the “SANJARBEK MATRASULOVICH” Law Office
ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ
ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ
ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ
ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Джуманиязов Санжарбек Матрасулович,
руководитель адвокатского бюро “SANJARBEK
MATRASULOVICH”

jumaniyozovsanjarbe
k3@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-4387-5976>



Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, institutsional yondashuvlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tahlil qilinib, bu jarayonning jamiyat taraqqiyotidagi strategik o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, davlat siyosati, taraqqiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy barqarorlik, gender tengligi, innovatsiya, salohiyat, raqobatbardoshlik.

Аннотация: В статье рассматривается государственная политика Узбекистана по развитию человеческого капитала, анализируются институциональные подходы и социально-экономические реформы, подчеркивается стратегическая роль этого процесса в развитии общества.

Ключевые слова: человеческий капитал, государственная политика, развитие, образование, здравоохранение, социальная стабильность, гендерное равенство, инновации, потенциал, конкурентоспособность.

Abstract: The article analyzes Uzbekistan's state policy on human capital development, examines institutional approaches and socio-economic reforms, and highlights the strategic importance of this process in ensuring sustainable progress and societal advancement.

Keywords: human capital, state policy, development, education, healthcare, social stability, gender equality, innovation, potential, competitiveness.

KIRISH

Inson kapitali hozirgi zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida eng muhim strategik resurslardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu tushuncha faqatgina shaxsiy bilim, salohiyat va kasbiy mahorat doirasida emas, balki butun bir jamiyat taraqqiyoti, davlatning siyosiy-iqtisodiy kuchi va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Global miqyosdagi tendensiyalar va ilg'or davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson kapitalining rivojlanish darajasi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki siyosiy barqarorlikka, ijtimoiy hamjihatlikka va fuqarolik jamiyatining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu borada inson kapitali masalasi davlat siyosati va boshqaruvi uchun alohida ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon inson omiliga ustuvor e'tibor berib kelmoqda. Mamlakatda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, aholining bilim saviyasini oshirish, sog'lom avlodni tarbiyalash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda olib borilayotgan islohotlar jarayonida inson kapitali tushunchasiga strategik yondashuv kuchaytirilib, uni davlat siyosatining barcha yo'nalishlariga integratsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, davlat xizmatini modernizatsiya qilish, ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini mustahkamlash kabi yo'nalishlar orqali inson kapitalining tarkibiy qismlarini tizimli rivojlantirishga erishilmoqda.

Inson kapitali hozirgi davrda faqat ma'rifiy, sog'liqni saqlash yoki mehnat sohalariga xos tushuncha emas. U, ayni paytda, siyosiy-huquqiy munosabatlar, davlat boshqaruvi samaradorligi, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning puxtaligi va barqarorligining ajralmas komponentiga aylangan. Jumladan, davlat hokimiyati organlari faoliyatida inson kapitalini rivojlantirish, uni boshqaruv resursi sifatida shakllantirish, davlat xizmati tizimini malakali kadrlarga asoslash orqali milliy taraqqiyot strategiyasini samarali amalga oshirish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bu boradagi chora-tadbirlar bevosita huquqiy asoslar bilan tartibga solinmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida inson kapitalining shakllanishi va

rivojlanishini rag'batlantiruvchi normativ-huquqiy baza muntazam yangilanmoqda. Bu jarayon respublikada olib borilayotgan demokratik islohotlar, inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, shaffoflik va ochiqlik tamoyillarining kuchaytirilishi bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Mehnat kodeksi", "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirishga qaratilgan normativ hujjatlar inson kapitalini huquqiy jihatdan mustahkamlashda asosiy o'rin tutadi. Bular orqali nafaqat fuqarolarning bilim va ko'nikmalari oshirilmoqda, balki davlat organlarining samarali ishlashi, ijtimoiy adolatning ta'minlanishi, korrupsiyaning oldini olish, davlat xizmatining jozibadorligini oshirishga ham erishilmoqda. Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirayotgani ham ushbu jarayonning ochiq, integratsion va tizimli xarakterga ega ekanidan dalolat beradi. Masalan, Jahon banki, BMT, YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan dasturlar — ta'lim sifatini oshirish, sog'liqni saqlash xizmatlarini modernizatsiya qilish, yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish kabi sohalarida huquqiy islohotlarni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishida aynan O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari faoliyatida inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi huquqiy asoslar chuqur tahlil qilinadi. Unda normativ-huquqiy hujjatlarining mazmuni, ularning amaliyotdagi tatbiqi, mavjud muammolar va istiqbolli yondashuvlar o'rganiladi. Shuningdek, qonunchilikning evolyutsiyasi, xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasi hamda huquqiy bazaning takomillashuvi yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-nazariy asoslar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot ishida inson kapitali va uni davlat boshqaruvidagi roli masalasi nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilindi. Inson kapitali tushunchasi zamonaviy davlat boshqaruvining asosiy resursi sifatida qaralib, fuqarolarning bilim, salomatlik, kasbiy malaka, psixologik barqarorlik va ijtimoiy faollik kabi ko'rsatkichlari orqali

baholanadi. Tadqiqotning nazariy asosini inson kapitali bo'yicha olib borilgan fundamental ilmiy izlanishlar, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot modeliga doir konsepsiyalar tashkil etadi. Jumladan, G. Bekker, T. Schultz va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar asosida inson kapitalining davlat siyosatidagi strategik roli chuqur tahlil qilindi[1].

Metodologik jihatdan, quyidagi usullar qo'llanildi:

Tizimli yondashuv – inson kapitalini tashkil etuvchi omillar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi;

Huquqiy-normativ tahlil – Prezident farmonlari orqali belgilangan davlat strategiyasi asosida huquqiy asoslar o'rganildi;

Qiyosiy yondashuv – xalqaro tajriba va milliy siyosat o'zaro taqqoslandi.

Tahlil asosi sifatida, quyidagi asosiy me'yoriy hujjatlar tanlab olindi:

1. PF-60-son, 2022-yil 28-yanvar

“2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi” nomli Prezident farmonida inson kapitali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida strategik ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Ushbu hujjatda belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshirish, balki fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash, hayot sifatini oshirish, inson qadr-qimmatini yuksaltirishga yo'naltirilgan kompleks islohotlarni o'z ichiga oladi. Farmon doirasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, xizmatlarning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash, aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, byurokrtiyani qisqartirish hamda mas'uliyatli va samarali boshqaruv tizimini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarini tubdan isloh qilish orqali fuqarolarning salomatligi, bilim darajasi va ijtimoiy faolligini oshirish, bu orqali mamlakatning raqobatbardoshlik darajasini kuchaytirish masalalari ham strategiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tiborga olingan. Jumladan, strategiya doirasida ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqish, sog'liqni saqlash tizimini aholiga yaqinlashtirish va xizmatlar sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur farmonda inson

qadrini yuksaltirish g'oyasi markaziy tushuncha sifatida ilgari surilgan bo'lib, bu orqali jamiyatning umumiy salohiyatini kuchaytirish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsad qilingan. Shu nuqtai nazardan, “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi” inson kapitali davlat siyosatining markaziy yo'nalishiga aylanganini yaqqol tasdiqlaydi [2].

2. PF-87-son, 2022-yil 7-mart

“Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir farmon” orqali mamlakatda ayollar salohiyatini oshirish va ularning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilgan. Mazkur hujjatda xotin-qizlarning huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy va sog'lom hayot kechirishlariga ko'maklashish, shuningdek, ularni zamonaviy kasblar va texnologiyalar asosida qayta tayyorlash, malakasini oshirish orqali jamiyatdagi rolini mustahkamlash asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ayniqsa, ayollar salomatligini muhofaza qilish, ularning psixologik barqarorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuvlar farmonda aniq ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, bu farmon orqali xotin-qizlarning zamonaviy kasb-hunarlar, raqamli texnologiyalar va innovatsion yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olishini rag'batlantirishga alohida urg'u berilgan. Bu orqali ular mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lib, iqtisodiy mustaqillikka erishishlari, shuningdek, o'z oilalari va jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatga hissa qo'shishlari ta'minlanadi. Bu esa, bevosita, inson kapitalining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan bilim, ko'nikma va salomatlik kabi asosiy mezonlarning yuksalishiga xizmat qiladi.

Ushbu hujjatda belgilangan siyosiy va institutsional yondashuvlar orqali nafaqat gender tengligini ta'minlash, balki mavjud resurslarni adolatli va samarali taqsimlash, imkoniyatlar tengligini yaratish va jamiyatning har bir a'zosini to'laqonli rivojlanish yo'liga olib chiqish ko'zda tutilgan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, **“Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir farmon”** inson kapitali sifatini oshirish, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va barqaror taraqqiyotga

erishishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi[3].

NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida mustahkamlanib bormoqda. Xususan, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi"da bu masala strategik ustuvorlik darajasiga ko'tarilgan bo'lib, inson salohiyatini yuksaltirish, fuqarolarning hayot sifatini oshirish, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarini isloh qilish kabi yo'nalishlar davlat boshqaruvi faoliyatining markaziga aylangan.

Shuningdek, "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir farmon" orqali inson kapitalining tarkibiy qismi hisoblangan gender tengligi, ayollar salomatligi va ta'limi kabi elementlarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu farmon orqali ayollarning kasbiy va psixologik tayyorgarligi, zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallashi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish maqsadida samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlar shakllantirilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan huquqiy asoslar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat hokimiyati organlari tomonidan inson kapitalini shakllantirishda kompleks yondashuv amalga qo'llanilmoqda. Bu yondashuv nafaqat ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini modernizatsiya qilishni, balki fuqarolarning bilim, malaka, salomatlik, ruhiy barqarorlik va iqtisodiy ishtirokini bir butun tizimda rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Umuman olganda, mamlakatda inson kapitaliga qaratilgan siyosiy, huquqiy va tashkiliy mexanizmlarning izchil amalga oshirilayotgani fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta'minlash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

MUHOKAMA

Inson kapitali zamonaviy taraqqiyot konsepsiyalarida markaziy o'rin egallovchi tushunchalardan biri bo'lib, u nafaqat mamlakat iqtisodiyoti, balki uning ijtimoiy va madaniy barqarorligi, demokratik institutlar rivoji va boshqaruv tizimining samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Inson kapitali — bu insonning bilim, ko'nikma, salomatlik, innovatsion fikrlash, ijtimoiy moslashuvchanlik va mehnatga

layoqatlilik kabi omillarini qamrab oluvchi kompleks tushunchadir. Ushbu omillarning jamiyatda to'laonli rivojlanishi esa faqatgina davlat siyosatining puxta rejalashtirilgan va tizimli asosga qurilgan yondashuvi orqali ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar va qabul qilinayotgan muhim strategik hujjatlar inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish masalasini milliy taraqqiyotning eng ustuvor yo'nalishiga aylantirganini yaqqol namoyon qilmoqda. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, raqamli texnologiyalar, ayollar va yoshlar siyosati kabi sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa inson kapitaliga bo'lgan yondashuvni nafaqat deklarativ darajada, balki institutsional va funksional darajada ham amaliyotga tatbiq etilayotganini ko'rsatadi.

Davlat boshqaruvi tizimining har bir bo'g'inida inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralayotgani, ilgari mavjud bo'lgan administrativ, paternalistik yondashuvlardan voz kechib, fuqarolarning faolligiga, salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi inklyuziv siyosatga o'tilayotganini anglatadi. Endilikda davlat insonning oddiy ijtimoiy himoyachisi emas, balki uning shaxsiy va professional rivojlanishi uchun strategik sherik sifatida qaralayotgani bevosita inson kapitaliga oid yondashuvlarning sifati va mazmuni o'zgarganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, inson kapitalining ijtimoiy tenglik, gender balansi, imkoniyatlar tengligi, hududiy inklyuziya kabi jihatlar bilan bog'liq yondashuvi tobora chuqurlashmoqda. Ayollar, yoshlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, ishsiz yoki kam ta'minlangan fuqarolar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar nafaqat ijtimoiy himoya doirasida, balki ularning salohiyatini mehnat bozoriga, ilm-fan, texnologiya va boshqaruv tizimlariga tatbiq etish orqali jamiyatda barqarorlik va taraqqiyotga erishishni ko'zda tutmoqda. Bu esa inson kapitali faqat individual resurs emas, balki butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik vosita sifatida qaralayotganini bildiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda inson kapitaliga yo'naltirilgan siyosiy va huquqiy asoslar har bir fuqaroni faqat davlat xizmatlarining iste'molchisi emas, balki jamiyat taraqqiyotining faol subyekti sifatida shakllantirishga qaratilgan. Bu

yondashuv esa zamonaviy davlat boshqaruvi tamoyillariga, ya'ni fuqaroga yo'naltirilgan xizmat, ochiqlik, samaradorlik va inklyuzivlik prinsiplariga to'laqonli mos keladi. Inson kapitali konsepsiyasining amalda keng tatbiq etilishi esa O'zbekistonning global miqyosdagi raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi – mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omildir. Tahlil qilingan huquqiy asoslar va davlat dasturlari shuni ko'rsatadiki, inson salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'lamli, kompleks va tizimli yondashuv asosida olib borilmoqda. Bu esa davlat hokimiyati organlari faoliyatining barcha bosqichlarida inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha aniq strategik yo'nalishlar mavjudligini tasdiqlaydi. Davlat tomonidan fuqarolarning ta'lim, sog'liqni saqlash, kasb-hunar egallash va ijtimoiy himoya sohalaridagi imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tashabbuslar, inson kapitali sifatini oshirish bilan birga, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, innovatsion salohiyat va iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlashga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, xotin-qizlar va yoshlar salohiyatini yuzaga chiqarish orqali inson kapitalining gender va demografik ko'lamda ham muvozanatli rivojlanishi ta'minlanmoqda.

Umuman olganda, mavjud huquqiy asoslar asosida olib borilayotgan islohotlar va davlat boshqaruvi tizimidagi yangilanishlar mamlakat taraqqiyotida inson omilining ustuvor rolini mustahkamlab, har bir fuqaroning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Bu esa O'zbekistonni global raqobat muhitida barqaror, inklyuziv va ijtimoiy adolatli jamiyat sifatida rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy omil bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Human Capital. A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Third Edition. <https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/H/bo3684031.html>
2. “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi”. <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. **PF-87-son, 2022-yil 7-mart.** <https://lex.uz/docs/-5899498>
4. **O'zbekiston Respublikasining Qonuni.** Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida. Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 2-martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2022-yil 28-mayda ma'qullangan. – <https://lex.uz/uz/docs/-6145972>
5. Uzbekistan Human Capital Index 2020. https://databankfiles.worldbank.org/public/ddpext_download/hci/HCI_2pager_UZB.pdf
6. <https://www.bibliovault.org/BV.landing.epl?ISBN=9780226041209>



КӨП КОМПОНЕНТЛИ ДИЗБЕКЛИ ҚОСПА ГӘПЛЕРДИҢ ТҮРКІЙ ТИЛ БИЛИМИНДЕ ИЗЕРТЛЕНИҰИ

*Мангитбаева Зайфун Узакбаевна, таяныш докторант,
Ўзбекстан Республикасы Илимлер академиясы Қарақалпақстан
бөлими, Қарақалпақ гуманитар илимлер илим-изертлеу
институты*

ИЗУЧЕНИЕ МНОГОКОМПОНЕНТНЫХ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В ТЮРКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

*Мангитбаева Зайфун Узакбаевна, базовый докторант
Каракалпакского отделения Академии наук Республики
Узбекистан, Каракалпакский научно-исследовательский
институт гуманитарных наук*

THE STUDY OF MULTI-COMPONENT COMPOUND SENTENCES IN TURKIC LINGUISTICS

*Mangitbaeva Zayfun Uzakbaevna, basic doctoral student
Karakalpak Branch of the Academy of Sciences of the Republic of
Uzbekistan, Karakalpak Scientific Research Institute of Humanities*



<https://orcid.org/0009-0002-9103-2253>

e-mail:
zayfunamangitbaeva@gmail.com

Аннотация: Мақалада көп компонентли байланысқан қоспа гәплердің (ККҚГ) түркий тиллер синтаксисиндеги орны ҳам изертлениу дәрежеси талланган. Автор түркий тиллерде ККҚГ түрли атамалар менен аталатугынын, олардың дүзилиси жагынан ҳәр қыйлы болыуын, компонентлер арасындағы мәнилик ҳам грамматикалық байланысларды, дәнекерлеуши өзгешеликлерин таллап, олардың улыўмалық ҳам айырмашылық тәреплерин көрсетеди. Ҳәр бир тилдеги изертлеулерден мысаллар келтирилген ҳалда, түркий тиллер арасындағы лингвистикалық уқсаслықлар ҳам айырмашылықлар ашып берилген.

Таяныш сөзлер: көп компонентли қоспа гәп, байланысқан қоспа гәп, түркий тиллер, синтаксис, байланыстырыушы, семантикалық байланыс, гәп структурасы.

Аннотация: В статье анализируется роль и степень изученности многокомпонентных сложносочиненных предложений (МКСП) в синтаксисе тюркских языков. Автор рассматривает различные наименования МКСП в тюркских языках, их структурные особенности, семантические и грамматические связи между компонентами, а также соединительные свойства, выявляя их общие и отличительные черты. Приводятся примеры из исследований на различных тюркских языках, что позволяет раскрыть лингвистические сходства и различия между ними.

Ключевые слова: многокомпонентное сложное предложение, сложносочиненное предложение, тюркские языки, синтаксис, союз, семантическая связь, структура предложения.

Abstract: The article analyzes the role and degree of study of multicomponent compound sentences (MCCS) in the syntax of Turkic languages. The author examines various terms used for MCCS in Turkic languages, their structural features, semantic and grammatical connections between components, as well as their connective properties, identifying common and distinctive characteristics. Examples from research on various Turkic languages are provided, which allows for the revelation of linguistic similarities and differences among them.

Keywords: multi-component complex sentence, compound sentence, Turkic languages, syntax, conjunction, semantic connection, sentence structure.

Кирисиў. Түркий тиллердиң синтаксисин изертлеўге арналған мийнетлер менен танысыў барысында ККДҚГ-тиң (көп компонентли дизбекли қоспа гәптиң) бул тиллердиң барлығында да бар қубылыс екенин көремиз. Деген менен, ККДҚГ-тиң изертлениў дәрежеси түркий тиллердиң хәммесинде де бирдей деп айта алмаймыз.

ККДҚГ хәр бир түркий тилде өзінше атамаларға ийе. Мысалы: татар тилинде «көп тездәле кушма жумлә», өзбек тилинде «боғланиш йўли билан тузилган мураккаб қўшма гаплар», қарақалпақ тилинде «көп компонентли дизбекли қоспа гәп» хәм т.б.

Татар тили синтаксисин изертлеўши М.З.Закиев гәптиң бул түрин терең анализлеген. Автор ККДҚГ-ге анықлама бере отырып, оның дүзилisine байланыслы түрлерин ажыратып көрсетеди: 1) Қурамындағы гәплер параллель келеди хәм санаў интонациясы менен ажыратылады. Автордың пикиринше, параллель процеслерди билдирген гәплер мәнилері жағынан бир-биринен алшақ болыўы да мүмкин, бирақ оларды жыйнақлап бир мәхәлде көрсетиў мақсет етилгенликтен ғана олар бир қоспа гәп қурамына кирип турады. 2) Дәнекерлер арқалы байланысқан ККДҚГ: әле ямғыр ява, әле қар төшә, әле қатты жил исә башлай. 3) ККДҚГ-де бир түрли қарсылық дәнекери қайталанып келе алмайды, олар тек хәртүрли болса ғана қайталанады. 4) Дәслепки гәплер параллель процеслерди билдирип, үшінши гәп мәниси жағынан соларға қарсы келкелиўи мүмкин: бүгин я кино курсәтерләр, я жыелыш ясарлар, ләкин театр булмас. 5) Дәслепки еки гәп қарсылас дәнекер менен байланысып, үшінши гәп екинши гәпке бириктириўши дәнекер менен байланысыўи мүмкин: клубта театр булмас, ләкин кино курасәтерлер, я желыш у утқарерлер. 6) Өзара қарсылас дәнекерлер менен келген гәплер бирге келип ККДҚГ дүзиўи мүмкин.

Изертәй методологиясы. Автор гәп түрлерин ажыратыўда, негизинен, дәнекерлерди басшылыққа алған хәм бир қарсылық дәнекериниң ККДҚГ қурамында қайталана алмайтуғынын атап өтип, оны жеке түрде бөлип көрсетеди. Буннан тысқары, М.З.Закиев «көп компонентли дизбекли қоспа гәптиң басқа да оғада көп түрли структуралық өзгешеликлері

болыўы мүмкин» деп, жуўмақ жасайды. Автор буннан кейин рус тилинде жарық көрген мийнетиниң бир бөлимин толығы менен көп компонентли қоспа гәп дүзилisine арнайды. Онда автор ККДҚГ-ге байланыслы бурынғы пикирлерин баянлай отырып, жаңаша пикир де билдиреди. Алдыңғы мийнетинде ККДҚГ қурамында тек жай гәплер келетуғыны сөз етилсе, бул изертлеўде аталған гәп типиниң қурамында еки компонентли дизбекли қоспа гәплердиң келетуғыны атап өтилген. Және бир өзгешелиги – ККДҚГ-де бир топар дизбекли гәплер мәниси жағынан усы гәптеги екинши дизбекли гәплер топарына қарсы болып келиўи ямаса, керисинше, келе алыўы көрсетилген. Буннан тысқары, М.З.Закиев ККДҚГ-ди дәнекерли және дәнекерсиз деп бөлип көрсетеди. Дәнекерсиз түрине байланыслы пикир билдире отырып, автор базы тилши-алымлардың дизбекли қоспа гәпти себеп-нәтийже, түсиндирмели, хәр түрли қурам бөлеклер менен келген дизбекли гәплер деп бөлиўине қарсылық билдирип, өз пикирин дәлиллейди [1.415].

Қазақ тилинде ККДҚГ-ниң ең жийи ушырасатуғын түри – түсиндирмели дизбекли қоспа гәплерден ибарат ККДҚГ-лер болып табылады. Усы гәп түрлериниң өзи де хәр қыйлы. Мысалы, гей бир гәплер тек бир ўақытта жүз берген ўақыя ямаса қубылысты улыўмаластырып, екиншилери мезгилдеги оқиғаны не қубылысты жалпылап, екиншилери соны жән-жақтан сыпатлап ашып берсе, және бир түрлеринде биринши гәптеги ўақыяны я қубылысты конкрет түсиндирип турады. Бундай гәп түри (түсиндирмели гәп) қазақ тил билиминде дизбекли деп танылады [2.11].

Өзбек тили синтаксисинде ККДҚГ туўралы пикир Г.А.Абдурахманов мийнетинде келтирилген. Автор әдебий тилде «өзгеше гәптиң» пайда болғанын айта келип, бул гәп өз қурамында қоспа гәптиң хәр түрин, хәр типлерин өз ишине алады. Олар бир тутас интонацияға ийе болып, татамланған ой-пикирди билдиреди, деп көрсетеди. Гәптиң усы типин баянлаўда автор бирнеше терминди қатар пайдаланған, бир қубылысты түрли-түрли атамалар менен берген: 1) периодтың қурамаласқан типі; 2) қоспаланған қурамлы қоспа гәп; 3/ қоспаланған период; 4/ қоспаланған

типли қоспа гәп. Қурамаланған құрамлы қоспа гәп қурамындағы гәптер санының хәр түрлі болатуғынын, ол гәптердің хәр қайсысы өз қурамына қоспа гәптерди де, жай гәптерди де енгизе алатуғынын көрсетеди. Және ондай конструкцияларды төрт түрге ажыратады. Қоспаланған қурамды қоспа гәптердің арасында салыстырыў, түсиндирме, ўақыт, шәрт, себеп-нәтийже қатнас болатуғынын анықластырады. Автор бундай гәптердің грамматикалық дүзилиси менен мәниси, интонациясы бир тутаслықта болатуғынын дәлиллейди [3.222-223]. Бул мийнетинде автор ККДҚГ туўралы өз алдына пикир билдирмеген. Кейин М.Аскарова менен авторлықтағы мийнетинде ККДҚГ-диң (мураккаб қўшма гап) анықламасын келтирип, оны топарларға ажыратады. Автор ККДҚГ-ке төмендегише анықлама береді: «...уч ёки ундан ортик тенг хукукли компонентлардан тузилады [4.125].

Анализ хәм нәтийжелер. Мәни беретүғын компоненттиң орын алмасыўына байланыслы баянлаўыш формасы, баянлаў характери өзгереді. Гәптиң басында келгенде тыңлаўшының дыққатын анық өзине қаратады, не нәрсеге итибар беріў кереклиги сезилип турады. Кейинги позицияда келгенде, дәслеп дара түсиниклер баянланып, ақырында айтыўшының пикири жуўмақланады. Автор өз пикирин жуўмақлай отырып, ККДҚГ компонентлериниң байланысыўында белгили ызымлылықлар болатуғынын, яғный үш хәм оннан да көп жай гәптерди қалай болса солай бириктирип қойыў арқалы жасай беріўге болмайтуғынын атап өтеді [5.74-78]. Қарақалпақ тилиндеги ККДҚГ туўралы пикирди М.Дәўлетовтың мийнетинде де ушыратамыз. Автор «Дизбекли қоспа гәптердің структуралық түрлери» бөлиминде дизбекли қоспа гәптер үш, төрт, я одан да көп жай гәптерден дүзилип, көп компонентли структурада да келетуғынын атап өтеді. Автор *бирақ, сонда да, лекин, ал* хәм т.б. дәнекерлердің ККДҚГ-ди байланыстырыўын, *хәм, және, да/де* дәнекерлериниң ең соңғы компоненттиң алдында келип, жабық структура дүзетуғынын көрсетеди. Соны да айтып өтиў керек, М.Дәўлетов ККДҚГ-диң предикативлик конструкциялары интонация хәм дәнекерлер арқалы байланысып келетуғынын көрсетип,

оларды байланысыў усылына қарай аралас дизбекли қоспа гәп деп атайды. Автордың көрсетиўинше, бундай гәптердің қурамындағы предикативлик конструкциялардың мәнилери хәр түрлі болады [6.81-86].

Қоспа гәптердің биринши компоненти улыўма түсиникти билдирип, кейингилери дәслепки гәптиң мәнисин ашып, конкретлестирип, түсиндирип туратуғынын көрсетиледи де, бундай байланыстағы қоспа гәптердің бир неше топары ажыратылады: 1) Биринши компонентиниң мәнисин көбинесе бир неше жай гәптер түсиндирип келеді: *Үйдүн ички жасалгасы кирсе чыккысыз: төргө килем жайылган, эки кашытка туш кийиздер тартылган, ортодогу эки катар столго газета, журналдар жайылган* (Т.С.). 2) Бирнеше атаўыш гәп түсиндирип келеді: *Ал күздүн күнүден бетер жеңил кийинген: бутунда базар өтүк, үстүнде жука жүн жалатылып ичтелген баркыт беишмант* (Т.С.); 3) Биргелки ағзалы жай гәп түсиндирип келеді: *Республикабызда маданий-ағартуу мекемелери өстү: жүздеген клубтар, окуу үйлөрү, китепканалар, илимий мекемелер бар* («СК»). 4) Биринши компоненттиң мәнисин қоспа гәп түсиндирип келеді: *Маасылкан Муратты тамакка жа жарытпайт: ак көңүлү кармаган күнү бир сындырым нан берет, болбосо, кезертип эчтеме бербей тим коёт* (К.Б.) [7.572]. Ал көп бағыныңқылы қоспа гәптерде бағыныңқы гәптердің билдиретуғын мәниси, олардың бири менен байланысыў жоллары, сондай-ақ, бас гәпке байланыслы мәни қатнастары хәр түрлі болады. Усы өзгешеликлерине бола бундай гәптердің еки еки түри көрсетилген: биргелки бағыныңқылы қоспа гәп (*бир өңчөй бағыныңқылуу татаал сүйлөм*) хәм хәр түрлі бағыныңқылы қоспа гәп (*ар түркүн бағыныңқылы татаал сүйлөм*) [7.607-608].

Н.З.Гаджиева Орхон-Енисей жазба естелигинен, «Кутадғу билиг»тен мысаллар келтиреді. Сондай-ақ автор гәптиң бул түриниң хәзирги түркий тиллерде ушырасатуғынын айта келип, өз пикирин тийисли мысаллар менен дәлиллейди: түркмен тилинде: *Хова ягтылар, ёл онадрак герунйекр, асман дурынялар булутжыклар агарышып баряр, мейданлар гек саяр*. Н.З.Гаджийеваның пикиринше, қоспа гәпниң бундай структуралық усылы, әсиресе,

эйjemги жазба естеликлерге, түркий тиллердин дүзилisine тән типлик кубылыс[8.100-105].

Изертлеуши З.Х.Таги-Заде дизбекли қоспа гәп курамындағы компонентлердин саны екеуден асса, онда бул гәп курамаласқан деп танылыу зәрүрлигин айтады. Автордың пикиринше, бундай гәплер туйық қатар түзеди хәм ол белгили бир усыллар арқалы жүзеге асады: 1) асинтетикалық гәплерде (дәнекерсиз дизбекли қоспа гәп) компонентлерге ортак аффикстин тек соңғы компонентте сақтаныуы арқалы; 2) аналитикалық гәплерде (дәнекерли дизбекли қоспа гәпте) соңғы компоненттин алдынан дәнекерлердин келиуи менен; 3) аналитикалық дизбекли қоспа гәптин соңғы компонентиниң жуп дәнекерлер яки жанапайлар менен келиуи хәм т.б. (27.32-37.) [9.32-37].

Г.А.Байрамов дизбекли қоспа гәп компонентлериниң қалай куралатуғынына қарай, оны төмендеги түрлерге ажыратады: 1) бағыныңқылы қоспа гәплерден ибарат дизбекли қоспа гәп; 2) бағыныңқылы қоспа гәп пенен жай гәптен ибарат дизбекли қоспа гәп; 3) жай гәплерден ибарат дизбекли қоспа гәп. Автор дизбекли қоспа гәп курамында бағыныңқы байланыс болатуғынын көрсетеди [10.14].

У.Б.Алиев еки я оннан да көп синтаксислик орайлардан ибарат дизбекли қоспа гәплерде гәптин тутас характерин усы орайлар анықлау-туғынын, олардың арасындағы қатнастар уақыт, гезеклес, кеңислик хәм т.б. болатуғынын көрсетип өтеди. Автордың пикиринше, бундай гәптеги орайлар саны оның курамындағы компонентлер санына байланысly. Егер компонентлер саны (олар курамалы да, жай да бола алады) екеу болса, онда гәпте бир синтаксислик орай, егер үшеу болса, еки синтаксислик орай, төртеу болса, үш синтаксислик орай хәм т.б. болып келеди. У.Б.Алиев дизбекли қоспа гәп компонентлериниң арасындағы қатнасты еки үлкен типке бөледі де, қалғанларын соның ишине киргизеди. (29.270.) [11.270].

Жуўмақ. Улыўма айтқанда, ККДҚГ өзгешеликleri түркий тил билимине байланысly мийнетлерде көрсетилгени менен, еле де «басы ашылмаған» мәселелер көлеминиң кеңлиги көзге тасланады. Үйренилип атырған гәп курамына киретуғын гәплер қәсийетиниң курамалы структураларға енгенде қандай жаңа қәсийетлерге ийе болып, ямаса қандай

өзгерислерге ушырайтуғынын анықластыруу хәм олардың хәр бириндеги белгили бир мазмунның ККДҚГ-ниң тутас мәнисин бериўдеги блокастыруу мәселелери, жалпы ККДҚГ-тин тек өзине ғана тән болған белгилер жетерли дәрежеде изертлеуді талап етеди. ККДҚГ-дин түркий тил билиминде изертлениуине шолыу жасай отырып, бул мәселениң қарақалпақ тил билиминде арнаўлы үйрениу, және жоқарыдағы тиллер бойынша айтылған ой-пикирлер менен салыстыра көрип шығыу мақсетке муўапық деп есаплаймыз.

Пайдаланылған әдебиятлар:

1. Закиев М.З. Синтаксический строй татарского языка. – Казань, 1963. – С. 415.
2. Көп компонентті салалас курмалас сөйлемдер: Оқу куралы. – Ақтөбе, Қ.Жубанов атындағы Ақтөбе мемлекеттік университеті, 2002.–89 б.Б. 11.
3. Абдурахманов Г.А. Основы синтаксиса сложного предложения современного узбекского литературного языка. – Ташкент, 1960. – С. 222-223.
4. Асқарова М., Абдурахмонов Ғ.А. Ўзбек тили грамматикасининг практикуми/педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари учун/. – Тошкент, 1972. – С. 125.
5. Нажимов А. Ҳазирги қарақалпақ тили синтаксиси. Қоспа гәплер бойынша практикум-қолланба. – Нөкис, 1990. – Б. 17, 74-76, 78.
6. Дәўлетов М. Қарақалпақ тилиндеги қоспа гәплердин гейпара теориялық мәселелери. – Нөкис: «Билим», 1993. – 104 б. – Б. 81-86.
7. Кыргыз тилинин жазма грамматикасы. Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек: «Аврсия Пресс», 2015. – Б. 572.
8. Кыргыз тилинин жазма грамматикасы. Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек: «Аврсия Пресс», 2015. – Б. 572.
9. Гаждиева Н.З. Синтаксис сложноподчиненного предложения в азербайджанском языке (в историческом освещении). – М.: Наука, 1963. – С. 100-105.
10. Таги-Заде З.Х. Сложное предложение в современном азербайджанском языке //Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Баку, 1965. – С. 32-37.
11. Байрамов Г.А. Сложносочиненные предложения в современном азербайджанском языке. – Баку, 1955. – С.
12. Алиев У.Б. Синтаксис карачаево-балкарского языка. – М., 1972. – С. 270.

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ЕДИНИЦ ОБРАЩЕНИЯ

Сапарова Сурайё Бахтиёр кызы, преподаватель
Ургенчского государственного университета

THE PRAGMATIC FUNCTION OF ADDRESS UNITS

Saparova Surayyo Baxtiyor qizi,
Lecturer, Urgench state university

MUROJAAT BIRLIKLARINING PRAGMATIK FUNKSIYASI

Saparova Surayyo Baxtiyor qizi,
Urganch davlat universiteti 'qituvchisi

e-mail:

saparovasurayyo25@gmail.
com

<https://orcid.org/0000-0002-6863-905X>



Аннотация: В статье рассматриваются определения обращений, представленные в мировой, русской и узбекской лингвистике, а также сходства и различия научных работ, посвящённых лексико-семантическому, функциональному, стилистическому, социолингвистическому, лингвокультурологическому и лингвопрагматическому анализу обращений. Кроме того, приведены дополнительные типы классификаций, предложенные для более глубокого освещения прагматических функций хорезмских говоров. На основе лингвопрагматического подхода обращения классифицированы по нескольким критериям и подвергнуты анализу.

Ключевые слова: единицы обращения, обращение к знакомым людям, обращение к незнакомым людям, прагматическая функция, коммуникативная ситуация, социальная роль, лингвопрагматический подход.

Abstract: This article discusses definitions of address units found in global, Russian, and Uzbek linguistics, as well as the similarities and differences between scientific studies that analyze address forms from lexical-semantic, functional, stylistic, sociolinguistic, linguoculturological, and linguopragmatic perspectives. Additionally, it presents new classification types proposed as supplements to the existing models for analyzing the pragmatic functions of the Khorezm dialects. Based on a linguopragmatic approach, the address units are categorized according to several criteria and analyzed accordingly.

Keywords: address units, addressing familiar people, addressing unfamiliar people, pragmatic function, communicative situation, social role, linguopragmatic approach.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mavzuga aloqador jahon, rus va o'zbek tilshunosligida murojaat birliklariga berilgan ta'riflar, murojaat birligi sifatida baholanayotgan birliklarning leksik-semantik, funksional, stilistik, sotsiolingvistik, lingvokulturologik, lingvopragmatik tahlili asosida yaratilgan ilmiy ishlarning o'xshash va farqli tomonlari haqida mushohada yuritilgan. Shuningdek, Xorazm shevalarining pragmatik funksiyasini yoritishda amalda mavjud tasniflarga qo'shimcha tariqasida tasnif turlari keltirilgan. Lingvopragmatik yondashuv asosida bir nechta mezonlarga ajratib, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: murojaat birliklari, tanish insonlarga murojaat, notanish insonlarga murojaat, pragmatik funksiya, kommunikativ holat, ijtimoiy rol, lingvopragmatik yondashuv.

KIRISH

(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Nutqiy etiket birliklaridan “Murojaat va e'tiborni jalb qilish” vaziyatiga oid birliklarni kuzatadigan

bo'lsak, bu etiket bilan bog'liq birliklarning eng keng va ko'proq tarqalgan shaklidir. Jahon, rus va o'zbek tilshunosligida murojaat birliklari badiiy asarlardan olingan misollar va o'zbek tilining

boshqa tillar bilan qiyosan tahlili asosida undalma va undash birliklari sifatida funksional, leksik-semantik[4], grammatik jihatdan o'rganilgan bo'lib, keyingi yillarda sotsiolingvistik[8], stilistik[6], lingvokulturologik[1], lingvopragmatik[3] tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda. Murojaat birliklari lingvopragmatikaning markaziy obyektlaridan biri bo'lib, nutqdagi ijtimoiy munosabatlar tizimini aks ettiradi. Real nutqiy akt jarayonida ifodalangan birliklarning imkoniyati kengdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕПАТУРА И МЕТОД/MATERIALS AND METHODS).

Oldingi o'rinlarda ta'kidlaganimizdek, murojaat birliklariga oid tadqiqot ishlarida ushbu birlikka nisbatan turlicha ta'rif berilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ayrim tadqiqotlarda undalma, ayrimlarida murojaat birligi nomi bilan talqin qilinadi. Jumladan, uning mazmun-mohiyatini yoritishga qaratilgan tadqiqotlarda: "undalma o'zining leksik-grammatik tabiati bilan undashdan tashqari, bu vazifada kelgan shaxs, predmetlarni xarakterlaydi ham. Ularning ko'pchiligi ekspressiv xarakterda bo'lib, qo'llanishiga ko'ra turli xususiyatga egadir. Shunga ko'ra, badiiy adabiyotda undalmalarga murojaat birliklari deyiladi"[5.: 459]. Yana boshqa manbalarda murojaatga quyidagicha ta'rif beriladi: "Murojaat - bu nutq so'zlanayotgan shaxsni nomlaydigan so'z yoki so'zlar guruhi"[7.: 62]. Bundan tashqari, ko'rib chiqish, taqqoslash, solishtirish, biror narsa so'rash, ishni qayta ko'rish; bironvga qarata aytilgan gap, qilingan da'vat, chaqiriq va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi birliklar mansubligi manbalarda e'tirof etiladi[2.: 645].

MUHOKAMA(OБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Biz kuzatgan Xorazm shevalaridagi murojaat birliklari asosida nutqiy etiket birliklarini o'zida mujassam etuvchi "Murojaat va e'tiborni jalb qilish" nutqiy vaziyatiga aloqador turli xil nutqiy etiket namunasi bo'lgan formulalarni shakllantiraverish mumkin. Xorazm shevalaridagi murojaat birliklarining konnotativ ma'nolarini aks ettiradigan murojaat qilinayotgan shaxsning fizik xususiyatini, ruhiy holatini belgilovchi, ahloqiy xususiyatini, intellektual xususiyatini, xatti-harakatini baholovchi birliklarga ajratib ham tasniflash mumkin.

Xorazm shevalarida murojaat birliklari umumadabiy tilnikidan ba'zi farqlarga ega bo'lib, ularning ko'pchiligi og'zaki nutqda, samimiy suhbatlarda, xususan, oilaviy va mahalliy muhitda ishlatiladi. Ular rasmiy va norasmiy doiralarga qarab turlicha farqlanadi. Xorazm shevalaridagi murojaat birliklarini, avvalo, **tanish insonlarga murojaat** va **notanish insonlarga murojaat** kabi guruhlariga ajratib, tanishlik va notanishlik darajasi belgilangani maqsadga muvofiqdir. Kishilarning yaqinlik darajasiga qarab suhbatdan ko'zlangan maqsadning (murojaat birligi orqali) pragmatik funksiyasini anglab olish qiyin bo'lmaydi. Bunda murojaat birligining samimiy ifodalanganligini tekshirish ahamiyatlidir. Tanish kishilarga murojaat guruhiga **oila a'zolari, do'stlari, kasbdoshlari, sinfdosh** va **qo'ni-qo'shni** kabi boshqa birliklarni aytish mumkin. Notanishlik tushunchasi bizning ijtimoiy-maishiy turmushimizda bevosita biz bilan doimiy aloqasi bo'lmagan shaxslarni ifodalaydi. Izlanishlarimiz asosida biz kuzatgan murojaat birliklarining ifodalanishini kishilarning tanishlik darajasiga ko'ra guruhlashtirar ekanmiz, o'z navbatida, ularni **tanish ayollar, tanish erkaklar, tanish bolalar, tanish keksalar (ayol va erkak)** kabi ichki guruhlariga ajratib tasnif qilish lingvopragmatik mohiyatning yuzaga chiqishida asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, notanish kishilar guruhini ham yuqoridagi kabi ichki guruhlanish asosida kengaytiraverish mumkin. Xorazm shevalarida eng ko'p qo'llanuvchi murojaat birliklari kishilarning **ismi (yoki ismni qisqartirish orqali); laqabi (oilaviy laqab yoki shaxsiy laqab); qarindoshlikni ifodalovchi birliklar; kasb, lavozim, unvon, faoliyat nomi; rasmiy doiralarda familiyasi yoki otasining ismi bilan ifodalanuvchi murojaat shakllari** uchraydi. Kishilarning tanishlik darajasiga qarab boshqa **metaforik va baholovchi nomlar** bilan, turli **erkalash birliklari** bilan chaqiriladigan murojaat formalari ham uchraydi. Bundan tashqari, **ijtimoiy tarmoqlarda** insonlar faolligi oshgani sayin tarmoqlar doirasida ham murojaat birliklari shakllangan.

NATIJA LAR (PEЗУЛЪТАТЫ/RESULTS). Lingvopragmatika til birliklarining nutqdagi real qo'llanilishi, gapiruvchining niyati, muloqotdagi munosabatlar va madaniy aloqalar bilan bog'liq jihatlarini o'rganishini inobatga olib Xorazm

shevalaridagi yaqin insonlarga qilinadigan murojaat birliklarini lingvopragmatik tahlil qilishda ushbu birliklarni qo‘llovchi shaxsni va murojaatning kommunikativ vazifasini o‘rganish, ya’ni ular qanday nutqiy akt jarayonlarida, qanday maqsadda va qanday hissiy-ijtimoiy ta’sir bilan qo‘llanilishini tahlil qilishga ahamiyat qaratiladi. Shuning uchun Xorazm shevalaridagi murojaat birliklarini lingvopragmatik yondashuv asosida tahlil qilishni izlanishlarimiz natijasida xulosa qilgan quyidagi mezonlar asosida ko‘rib chiqishni lozim topdik: **leksik ma’nosi, pragmatik vazifasi, kommunikativ holati, nutqdagi roli** va bu holatni aks ettirish uchun shevadan **misol** keltirish.

Yuqorida sanab o‘tilgan mezonlar asosida bir nechta tahlil namunasini keltiramiz:

a) *bālām (Bolam)* – **leksik ma’no**: “bolam” so‘zining shevaga xos talaffuzi, **pragmatik vazifasi**: mehr-oqibat, iliqlik, g‘amxo‘rlik ifodasi, **kommunikativ (ijtimoiy) holat**: katta yoshdagi shaxs kichiklarga, ota-ona farzandga murojaat qilganda ishlatadi, **nutqdagi roli**: Muloqotda ishonch, yaqinlik va homiylik pozitsiyasini mustahkamlaydi. **Misol**: *Bālām, ũjdā kīm ba(r)?*
b) *ākāsi, apāsi, mamāj, babāj, āyājni, apājā* – **leksik ma’no**: yaqin insonim kabi ma’no beradi, **pragmatik vazifasi**: samimiy mehrni ifodalaydi, **kommunikativ (ijtimoiy) holat**: ko‘proq oila a’zolari (*ākākkāsi, apāppāsi, apājā*), er-xotin (*ākāsi, apāsi, mamāj, babāj*), do‘stlar orasida (*āyājni, apājā*) ishlatiladi, **nutqdagi roli**: Kommunikativ iliqlikni oshiradi, qarindoshlik, mehr-oqibat ramzi sifatida aks etadi. **Misol**: *āyājni, qāni bīlā?, Apājā, jāxšīmīsān?! d) jašullī* – **leksik ma’no**: “yoshulli” – yaqin kishiga itoatkorlik, sadoqat bildirish shakli, **pragmatik vazifasi**: o‘zini past tutish orqali mehr ko‘rsatish, **kommunikativ (ijtimoiy) holat**: erkak yoki ayol yaqiniga mehr bilan yuzlanar ekan, o‘zini quyi tutadi, **nutqdagi roli**: hurmat ifodalash, mehr, samimiylikni yuzaga chiqaradi. **Misol**: *jašullī, harmādīñizmī?/harmāñ!(ayol eriga), jašullī bīlādī/jašullīdān sorā* (er ayoliga).

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Xorazm shevalaridagi tanish, notanish va kam tanish kishilarga murojaat birliklari lingvopragmatik jihatdan til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalaydi. Ular nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi ijtimoiy masofa, hurmat

va madaniy normalarni amalga oshiradi. Murojaat birliklarining turli shakllari va ularning lingvopragmatik funksiyalari Xorazm mintaqasining o‘ziga xos til madaniyati va ijtimoiy munosabatlarini yoritadi. Shu bois, ushbu murojaatlar nafaqat tilshunoslik, balki antropologiya va madaniyatshunoslik uchun ham katta ahamiyatga ega.

Xorazm shevalarida yaqin insonlarga nisbatan qo‘llaniladigan murojaat birliklari nafaqat leksik birlik, balki madaniy, pragmatik va stilistik ko‘rsatkich sifatida katta ahamiyatga ega. Ular orqali insonlar o‘zaro munosabatlarini nafaqat izhor etadilar, balki tilning madaniy funksiyasini amalga oshiradilar. Ayniqsa, kinoyaviy va metaforik murojaat birliklari tilning ijodiy imkoniyatlarini namoyon qiladi. Ular muloqotga yuqori darajadagi emotsional rang-baranglik baxsh etadi.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (REFERENCES/ ADABIYOTLAR RO‘YXATI):

1. D.M.Jamoladdinova “Terminlarning murojaat birliklari sifatidagi lingvomadaniy xususiyatlari”. Maqola. “Ilm-fan muammolari magistrantlar talqinida” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.
2. Э.Бегматов, А.Мадвалиев ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.
3. Х.К.Турдиева. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи диссертация. – Тошкент. 2020
4. N.Ahmedova “O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi”. Dissertatsiya. – Toshkent. 2008
5. N.A.Ulugmuradova. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida murojaat undalmalarining lingvopragmatik xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor. 2021.
6. M.I.Qurbonova. “O‘zbek tilida murojaat vositalarini ifodalovchi birliklar”. Dissertatsiya. – Termiz. 2023.
7. О.Анчимиук Речевой этикет в произведениях русской литературы XIX века. – Б.: 2020.
8. Z.Akbarova “O‘zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi”. Dissertatsiya. – Toshkent. 2007

ABDULLOH IBN MUQAFFANING “AL-ADAB AL-KABIR” ASARI ISLOM FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA

Saidov Sarvar,

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Imiy tadqiqot bo‘limi boshlig‘i, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ABDULLAH IBN AL-MUQAFFA’S WORK “AL-ADAB AL-KABIR” AS A SIGNIFICANT SOURCE ON ISLAMIC PHILOSOPHY

Sarvar Saidov,

Head of the Department of Scientific research at the Imam Termizi international scientific-research center

Doctor of Philosophy (PhD) in History

ТРУД АБДУЛЛАХА ИБН МУКАФФЫ “АЛЬ-АДАБ АЛЬ-КАБИР” КАК ЗНАЧИМЫЙ ИСТОЧНИК ПО ИСЛАМСКОЙ ФИЛОСОФИИ

Саидов Сарвар,

руководитель отдела научных исследований


Международного научно-исследовательского центра имени Имама Термизи, доктор философии по историческим наукам (PhD)



[https://orcid.org/](https://orcid.org/0000-0003-0353-7455)

0000-0003-0353-7455

e-mail: sarvarsaid@bk.ru



Annotatsiya: Ushbu maqolada VIII asrda yashagan olim, faylasuf Abdulloh ibn Muqaffaning “al-Adab al-kabir” asari falsafiy-germenevtik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Mazkur asar islom tarixida siyosatnoma turkumidagi dastlabki asarlardan bo‘lib, maqolada siyosat ilmi rivojida ushbu asarning ahamiyati misollar asosida yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Abdulloh ibn Muqaffa, adab ilmi, siyosat, “al-Adab al-kabir”, islom falsafasi, arab xalifaligi, odil hukmdor.

Annotation: This article analyzes the work Al-Adab al-Kabir by the 8th-century scholar and philosopher Abdullah Ibn al-Muqaffa from a philosophical and hermeneutic perspective. The work is considered one of the earliest examples of the siyosatnama (political treatise) genre in Islamic history. The article highlights the significance of this treatise in the development of political science through specific examples.

Keywords: Abdullah Ibn al-Muqaffa, science of adab, politics, Al-Adab al-Kabir, Islamic philosophy, Arab Caliphate, just ruler.

Аннотация: В данной статье с философско-герменевтической точки зрения анализируется труд «Аль-Адаб аль-Кабир» ученого и философа Абдуллаха ибн Мукаффы, жившего в VIII веке. Этот труд считается одним из первых произведений жанра «сиёсатнаме» в истории ислама. В статье раскрывается значение данного сочинения в развитии политической науки на основе конкретных примеров.

Ключевые слова: Абдуллах ибн Мукаффа, наука об этике (адаб), политика, «Аль-Адаб аль-Кабир», исламская философия, Арабский халифат, справедливый правитель.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

VIII asr islom ma'naviy taraqqiyotida tub o'zgarishlar davri bo'lib, ushbu davrda islom olamida turli ilmiy va fiqhiy maktablar shakllandi. Ushbu maktablar islom sivilizatsiyasi intellektual hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bu ilmiy maktablarda din va aql, din va adab munosabatlari, adabning siyosat va davlat boshqaruvidagi o'rni masalalariga alohida ahamiyat qaratildi. Aynan shu asrdan boshlab adabning ijtimoiy va tarixiy ahamiyatini targ'ib qiluvchi, islom ilm-fanining keyingi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan siyosatnoma janridagi bir qator asarlar yaratildi.

Islom diyori yangi hududlarning fath etilishi bilan kengayib borar ekan, islom jamiyati turli madaniyat va sivilizatsiyalarga duch keldi. Ulardan eng muhimlari yunon va fors sivilizatsiyalaridir. Butun VIII asr davomida fors davlatchilik an'alarining turli unsurlari Umaviylar va Abbosiylar tomonidan o'zlashtirilib, qo'llanilgan. Bunda asli eronlik kotiblarning roli katta bo'ldi. Ibn Muqaffa ana shunday kotiblardan biri bo'lib, islom tarixida siyosat va davlat boshqaruvi bo'yicha qilingan ko'p sonli tarjima asarlar va siyosatnomalarning muallifidir [5].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Dastlab, Qur'oni karim va hadislarda qayd etilgan davlat va jamiyat boshqaruvi to'g'risidagi mavzular vaqt o'tishi bilan "Kitob as-siyar" (كتاب السير) nomi ostida birlashtirilgan kitoblar yozilishiga turtki bergan bo'lsa, VII-VIII asrlardagi fathlar natijasida islom geografiyasining kengayishi bilan siyosatnoma turidagi mustaqil asarlar yozishning ahamiyati yanada ortgan [8].

Umaviylar davrida (661-750-y.) so'nggi xalifa Marvon ibn Muhammadning kotibi Abdulhamid ibn Yahyo (vaf. 133/750-y.) Abbosiylar davrida (750-1258-y.) esa Ibn Muqaffa tomonidan qilingan tarjimalar va mualliflik asarlari, yunon, fors va hind sivilizatsiyalari tomonidan ilgari surilgan boshqaruvga oid tajribalarning islom boshqaruv tizimi bilan integratsiyalashib borishiga katta hissa qo'shdi [6].

Birinchi Abbosiylar davrida (750-861-y.) islom sivilizatsiyasida fors madaniyati ta'sirining kuchayishi siyosiy sohada fors davlatchilik tajribalari, boshqaruv tizimini targ'ib qiluvchi, siyosatnoma va nasihatnoma turkumiga kiruvchi

asarlarning keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Siyosatnomalarda hukmdor egallashi lozim bo'lgan harbiy, siyosiy, axloqiy jihatlar, hukmdor va xalq munosabatlari, hukmdorning xalq oldidagi vazifalari kabi jihatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu turdagi asarlar islom tarixida "أنيس الملوك" ("Anis al-muluk" – "Hukmdorlar do'stligi"), "نصيحة الوزراء" ("Nasihah al-vuzaro" – "Vazirlarga nasihatlar"), "نصيحة السلاطين" ("Nasihah as-salotin" – "Hukmdorlarga nasihatlar") kabi nomlar bilan yuritilgan.

Islom tarixida Abu Nasr Forobiyning (873-950-y.) "Aro ahli-l-madina al-fozila" (أراء أهل المدينة الفاضلة – Fozil shahar aholisining fikrlari), Abulhasan Ali ibn Muhammad al-Movardiyning (974-1058-y.) "al-Ahkom as-sultoniyya" (الأحكام – Adab al-vazir) (أدب الوزير) asarlari, Nizomulmulkning (vaf. 485/1092-y.) "Siyosatnoma" (سياست نامه), Abu Homid G'azzoliyning (vaf. 505/1111-y.) "Nasihah al-muluk" (نصيحة الملوك – Hukmdorlarga nasihat) kabi asarlari siyosatnoma turkumidagi asarlarning namunalaridan hisoblanadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ibn al-Muqaffa ilmiy-tarjimachilik faoliyati orqali islom tamadduni tarixida siyosatnoma va nasihatnoma turkumidagi asar va risolalarning paydo bo'lishiga hissa qo'shgan. Allomaning "al-Adab al-kabir", "al-Adab as-sag'ir" va "Risola as-sahoba" kabi asarlari bu turdagi asarlarning dastlabki namunalari sifatida islom tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asarlar hukmdorlar, vazirlar va voliyar uchun ma'muriy va siyosiy sohada amal qilishlari lozim bo'lgan nasihatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ibn Muqaffaning mazkur asarlari islom siyosiy tarixidagi o'zidan keyingi mutafakkirlarga ham ta'sir ko'rsatgan. Bu asarlar islom tarixida sultonlik odo biga bag'ishlangan asarlarning dastlabki namunalaridan hisoblanadi [7].

"Al-Adab al-kabir" asari siyosatnoma-nasihatnoma janrida yozilgan dastlabki asarlardan biri sifatida islom ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Asarda Ibn Muqaffa davlat siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida adab tushunchasini qo'yadi. Jamiyatning boshqa sohalarini esa ushbu tushunchaga bog'laydi. "Al-Adab al-kabir" asarining aksariyat boblaridagi masalalarni ham adab ilmi bilan bog'liq holda

tahlil qiladi. Mazkur asar muqaddima va ikki qismdan iborat bo'lib, asar islom manbashunosligi uchun xos bo'lgan Alloh taologa hamd va Payg'ambar (s.a.v.)ga salavot aytishdan boshlanadi.

shug'ullanuvchilarga nisbatan ishlatilgan atama sifatida talqin etish mumkin [1].

xalqning hayotini isloh qilishning asosiy vositasi sifatida birinchi navbatda boshqaruv tizimini, amaldorlarni isloh qilish, amaldorlarni isloh qilish uchun esa hukmdorni isloh qilish kerak.

“Al-Adab al-kabir”ning tarixiy qiymati yuqori bo‘lishiga yana bir sabab – bu asarda fors madaniyati, forsiy tafakkur tarzining ta’siridir. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, ushbu asar Sosoniylar davlatining ichki siyosati borasida batafsil ma’lumotlar keltirib o‘tilgan asar hamdir. Asarning ko‘plab o‘rinlarida yunon madaniyatining ta’siri ham sezilib turadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ibn Muqaffaning VIII asr islom tafakkur tarixidagi siyosiy va ijtimoiy voqealarni o‘zida aks ettiruvchi “al-Adab al-kabir” asarining tarixiy qiymati uning islom madaniyatida “adab” tushunchasining rivojlanishiga qo‘shgan hissi bilan baholanadi. Ushbu asar davlat boshliqlari, amaldor va xizmatchilar uchun o‘z vazifalarini amalga oshirishda o‘ziga xos dasturulamal bo‘lib xizmat qiluvchi tarixiy manba bo‘lib, alloma ushbu asarda adab ilmi va siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga oid hikmatlarni targ‘ib qilgan. Bu maqsadlarni amalga oshirishda uning o‘z davri ilmiy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy hayotidan ta’sirlangani katta yordam berdi. Asarning islom ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi o‘rni va tarixshunoslikka oid tadqiqotlarni olib borishdagi ahamiyati katta bo‘lib, unda o‘tmish merosiga xos bo‘lgan tarixiy tajribalar targ‘ib qilingan. Abbosiylar ko‘p millatli, xilma-xil madaniyatga ega xalqlardan tashkil topgan imperiya bo‘lganligini inobatga olsak, “al-Adab al-kabir”

asari ijtimoiy bahamjihatlikni ta’minlashda va to‘g‘ri boshqaruv tamoyillarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan manba sifatida xizmat qilganligi namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abdullatif Hamza. Ibn al-Muqaffa. – Misr: Dor al-fikr al-arabiy, 1960. – 260 b.
2. Abdulloh ibn al-Muqaffa Al-Adab as-sag‘ir. Ahmad Zakiy Posho tadqiqi. – Iskandariya: Jamia al-urva va-l-vusqa islamiyya, 1911. –108 b.
3. Abdulloh ibn al-Muqaffa. Al-Adab as-sag‘ir va al-adab al-kabir. – Bayrut: Dor Bayrut, 1977. – 137 b.
4. Abdurahmon Badaviy. Turas yunoniy fi hudarati islomiyya. – Misr: Maktaba al-nahda al-misriyya, 1940. – 366 b.
5. Abulhasan Ali ibn Muhammad al-Movardiy. Al-Ahkom as-sultoniyya. – Quvayt: Dor Ibn Qutayba, 1989. – 430 b.
6. Ahmad Amin. Zuha al-islam. 5 J. – Qohira: Maktaba al-nahda al-misriyya, 1933. J. 1. – 410 b.
7. Ahmad Shavqiy Zaif. Tarix al-adab al-arabiy: al-asr al-islomiy. 3 J. – Qohira: Dor alma’orif. 1966. J. 2. – 491 b.
8. Philip K. Hitti. Islam and the West. A Historical Cultural Survey. – U.S.A: Van Nostrand Anvil Books Princeton, 1962.



OSSURIYA DAVLATINING TASHKIL TOPISH TARIXI

*Ziyotov Zayniddin, O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti
2-kurs talabasi*

HISTORY OF THE FORMATION OF THE ASSYRIAN STATE

*Ziyotov Zayniddin, is a 2nd year student of History (countries and
areas) at the Faculty of History of the National University of
Uzbekistan*

ИСТОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ АССИРИЙСКОГО ГОСУДАРСТВА

*Зиётов Зайниддин, студент 2-курса исторического
факультета Национального университета Узбекистана*



<https://orcid.org/0000-0002-0094-6013>

e-mail:
zayniddinziyotov@gmail.
com

Annotatsiya: Ossuriya davlati (miloddan avvalgi 2500–605-yillar) Mesopotamiya hududida, hozirgi Shimoliy Iroq va Suriya chegaralarida joylashgan qadimiy davlatlardan biridir. Miloddan avvalgi III ming yillikda Ashshur shahri atrofida shakllangan mustaqil shahar-davlatlar miloddan avvalgi II ming yillikda markazlashgan davlat sifatida birlasha boshlaydi. Ossuriya o'zining harbiy islohotlari, temir qurollardan foydalanishi va samarali ma'muriy tizimi bilan ajralib, miloddan avvalgi IX–VII asrlarda Yaqin Sharqda ulkan imperiyaga aylandi. Ushbu maqola Ossuriya davlatining tashkil topish bosqichlari, ijtimoiy-siyosiy tuzilishi va mintaqaviy ta'sirini ilmiy jihatdan yoritadi.

Kalit so'zlar: Mesopotamiya, Arbeli, nom, ma'bud, ibodatxona, amoriy, turrukku, ishiyakumma, Frot, xett.

Abstract: The Assyrian Empire (2500–605 BC) was an ancient empire located in Mesopotamia, on the borders of present-day northern Iraq and Syria. Independent city-states formed around the city of Ashur in the 3rd millennium BC and began to unite as a centralized state in the 2nd millennium BC. Assyria, distinguished by its military reforms, use of iron weapons, and efficient administrative system, became a major empire in the Middle East in the 9th–7th centuries BC. This article provides a scholarly overview of the stages of the formation, socio-political structure, and regional influence of the Assyrian Empire.

Keywords: Mesopotamia, Arbeli, name, god, temple, Amorite, turrukku, iwiyakumma, Frot, Hittite.

Аннотация: Ассирийская империя (2500–605 гг. до н. э.) – древняя империя, располагавшаяся в Месопотамии, на границе современных северного Ирака и Сирии. В III тысячелетии до н.э. вокруг города Ашшур образовались независимые города-государства, которые во II тысячелетии до н.э. начали объединяться в единое централизованное государство. Ассирия, отличавшаяся военными реформами, использованием железного оружия и эффективной административной системой, стала крупнейшей империей на Ближнем Востоке в IX–VII веках до н.э. В данной статье представлен научный обзор этапов формирования, социально-политической структуры и регионального влияния Ассирийской империи.

Ключевые слова: Месопотамия, Арбели, имя, бог, храм, аморей, туррукку, ишиякумма, Фрот, хеттский.

KIRISH. Ossuriya davlati qadimgi dunyo sivilizatsiyalarining eng qudratlilaridan biri sifatida tarix sahnasida chuqur iz qoldirgan. Miloddan avvalgi III ming yillik oxiri va II ming yillik boshlarida Mesopotamiya shimoliy hududlarida shakllana boshlagan bu davlat, dastlab kichik shahar-davlatlar ko'rinishida mavjud bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik markazlashgan kuchli davlat tuzilmalarini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ossuriya o'zining harbiy salohiyati, puxta tashkillashtirilgan boshqaruv tizimi va rivojlangan iqtisodiy-siyosiy aloqalari bilan ajralib turadi[1].

Ossuriyaliklar o'z davrida keng hududlarni zabt etib, dunyoning ilk yirik imperiyalaridan birini barpo etdilar. Ularning yuksalishi va gullab-yashnash davri butun Yaqin Sharq tarixiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Shu bois Ossuriya davlatining vujudga kelishi va shakllanish jarayonlarini o'rganish nafaqat ushbu davlat tarixini, balki Mesopotamiya mintaqasidagi umumiy siyosiy va madaniy yutuqlarni tushunishda ham muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT USULLARI VA ADABIYOTLAR TAHLILI. Ushbu maqolani yozishda asosiy metodologik yondashuvlar sifatida tarixiy, tarixiy-qiyosiy va mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ma'lumki, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek Mesopotamiyaning ilk quldorlik davlatlaridan biri bu Qadimgi Ossuriya edi. Qadimgi Ossuriya davlati dastlab Shimoliy Mesopotamiyaning sharqidagi uncha katta bo'lmagan maydonni egallagan edi. Qadimgi Ossuriya tarixi uchta asosiy davrga bo'linadi. Bulardan dastlabkisi Qadimgi Ossur davri bo'lib, u mil.avv. XX-XVI asrlar orasidagi davrni o'z ichiga oladi va u eng Qadimgi Ossur davri deyiladi. Ossuriya tarixining ikkinchi davri O'rta Ossur podsholigi deb nomlanib mil.avv. XVI-XI asrlar oralig'idagi davrni o'z ichiga oladi. Ossuriya tarixining so'nggi davri mil.avv. X-VII asrlarni o'z ichiga olib, Yangi podsholik, ayni paytda Buyuk Ossur saltanati deb yuritilgan.

Eng Qadimgi Ossuriya Shimoliy Mesopotamiyaning sharqiy qismidagi uncha katta maydonga ega bo'lmagan yerlarni egallagan edi. Mazkur hududda Nineviya, Arbeli va Ashshur kabi

shahar-davlatlar vujudga keladi. Bu shahar-davlatlar tarkibiga ularning qishloq xo'jalik hududlari ham kirar edi. Shahar-davlatlarning mil.avv. III mingyillik oxiri va II mingyillik boshlaridayoq o'zlariga xos siyosiy tashkilotlari bo'lgan. Eng Qadimgi Ossuriyadagi davlatlar Misr va Janubiy Mesopotamiyadagi nomlar va shahar-davlatlarga o'xshar edi. Bu shahar davlatlari orasida yirik va kuchlirog'i Ashshur shahar-davlati bo'lgan. Mil.avv. III ming yillik oxiri va II ming yillik boshlarida Ashshur shu nom bilan ataluvchi qabilalarning xudosi hisoblanib, mazkur qabilalar unga sig'inganlar. Ayni paytda Ashshur xudosi ovchilik va chorvachilikning homiy-ma'budi hisoblangan. Mil.avv. 2000-yilda Ashshur podsholari Ashshur xudosiga atab ibodatxona qurib, shaharni mudofaa devori bilan o'rab olganlar. Shu munosabat bilan bu qadimgi davlatning nomi Ashshur xudosi nomi bilan Ossuriya bo'lib ketgan[2].

Ma'lumotlarga qaraganda, eng qadimgi Ashshur sulolasining asoschisi Enlil-Banini (Ba'zi manbalarda Puzur Ashshur I bo'lgan. Eng qadimgi Ossur yozuvlariga qaraganda, mil.avv. XXII-XXI asrlarda Ashshur shahrining hokimlari Urning III sulolasi podsholari hokimiyati ostida bo'lgan. Bu hokimlarning ba'zilar chet el zulmidan ozod bo'lgan bo'lsalar ham Urning hokimlariga bo'ysungan. Miloddan avvalgi XX asrda Bobil podsholigini barpo qilgan amoriylar bilan Ossuriya hokimlari qattiq kurash olib borganlar. Bu kurash vaqtida Ossuriya hokimlari Shumerning qadimgi shaharlariga tayanganlar, chunki Shumer davlatining o'tmishdagi qudrati hali bu shaharlar xotirasidan chiqmagan edi. Aynan Ilushuma davrida Shumer shaharlarining yordami bilan Mesopotamiyaning janubiy va Dajla daryosidan sharqda joylashgan o'lkalar ham aynan Ossuriya tarkibiga qo'shiladi. Ilushumadan so'ng taxtga o'tirgan o'g'li Irishum davrida esa davlatda asosan obodonchilik ishlariga e'tibor qaratiladi. Masalan Ashshur ibodatxonasi, uning qoshida marosimlar uchun maxsus zinalar va Adad ibodatxonasi ham aynan Irishum davrida barpo qilinganligi manbalarda uchraydi. Davlat qanchalik yuksalmasin, uning tashqi dushmanlardan xavfi

ham shunchalik ortib bordi. Bobil podshosi Xammurapi Ossuriyaning qudratini susaytirib, uning shaharlarini egallashga muvaffaq bo'ladi[3]. Xammurapi o'zining qonunlar to'plamida Ossuriyaning Ashshur va Nineviya shaharlarini o'z davlati tarkibiga qo'shib olganligi, bu hududlarda yo'qolgan adolatni qayta tiklab, ma'buda Innina nomini ibodatxonalarda balandroq yangrashini ta'minlaganligini qayd etgan. Ushbu davrga oid qonun hujjatlarida qayd etilishicha, ibodatxonalarda Ashshur hokimlarning nomlari bilan bir qatorda, amoriy hokimlarining nomlari ham qayd etilgan. Bu esa aynan ushbu davrda Ossuriyada amoriy hokimlarining o'rni katta bo'lganligini ko'rsatadi. Xammurapi Ossuriyaga qarshi davomli va qattiq kurash olib borgan, aynan uning davrida Ossuriya amoriylarga soliq to'lab turgan. Ossuriyani o'sha vaqtda Shamshi-Adad I idora qilgan. U davlat to'ntarishi yasab hokimiyatni zo'rlik bilan o'z qo'liga olgan. Shamshi-Adadning o'zi yerli subarey qabilasidan bo'lib, uning davrida Ossuriya qishloq va shaharlaridagi erkin aholi manfaatlari bir qadar himoya qilingan[4].

XULOSA. Ossuriya davlati insoniyat tarixidagi ilk yirik imperiyalardan biri sifatida o'zining betakror o'rni va ahamiyatiga ega. Uning tashkil topish

jarayoni miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda Mesopotamiya shimolida sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Bu davrda Ossuriya hududida shahar-davlatlar vujudga kelib, o'zaro siyosiy aloqalar va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirgan holda, mustahkam markazlashgan davlat asoslarini yaratdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. История древнего Востока: от ранних государственных образований до древних империй / Под ред. А.В.Седова. — М.: Восточная литература, 2004. — С. 896.
2. R.Dittmann, Ausgrabungen der Freien Universität Berlin in Ashur und Kar-Tukulti-Ninurta in den Jahren 1986-1989, MDOG, vol. 122, — P. 170, 1990.
3. Белявский В.А. Вавилон легендарный и Вавилон исторический. — Москва: Мысль, 1971. — С. 325.
4. Якобсон В.А. Новоассирийская держава // История Древнего мира / Под редакцией И. М. Дьяконова, В.Д.Нероновой, И.С.Свенцицкой. — Изд. 3-е, испр. и доп. — М.: Главная редакция восточной литературы издательства Наука, 1989. — Ташкент. 2. Расцвет древних обществ. — С. 588.



ВОПРОС РАЗЛИЧЕНИЯ ПОНЯТИЙ ЮРИСПРУДЕНЦИИ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОВОМ КОНТЕКСТЕ

*Попова Анастасия Александровна, преподаватель
Ургенчского государственного университета имени Абу
Райхана Беруни*

RUS VA O'ZBEK TILLARI KONTEKSTIDA HUQUQSHUNOSLIK TUSHUNCHALARINI FARQLASH MASALASI

*Popova Anastasiya Aleksandrovna, Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi*

THE ISSUE OF DISTINGUISHING THE CONCEPTS OF JURISPRUDENCE IN THE RUSSIAN AND UZBEK LINGUISTIC CONTEXTS

*Popova Anastasia Alexandrovna, lecturer at the Abu Raykhan
Beruni Urgench State University*



<https://orcid.org/0000-0002-3347-2229>

e-mail:
anapopova90@mail.ru



Аннотация: Разграничение понятий в сфере юриспруденции представляет собой важную проблему, которая имеет не только теоретическое, но и практическое значение. Языковые различия могут оказывать существенное влияние на интерпретацию правовых норм и их применение в различных культурах. В условиях глобализации и увеличения международного правового взаимодействия изучение юридических терминов и понятий в разных языках становится все более актуальным. В данной статье рассматривается проблема разграничения понятий в области юриспруденции между русским и узбекским языками, а также некоторые аспекты, связанные с переводом и адаптацией юридических терминов.

Ключевые слова: юриспруденция, правовая терминология, разграничение понятий, русский язык, узбекский язык.

Annotatsiya: Huquqshunoslik sohasidagi tushunchalarni farqlash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim muammodir. Til tafovutlari huquqiy normalarni talqin qilish va ularni turli madaniyatlarda qo'llashga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Globallashuv va xalqaro huquqiy hamkorlikning kuchayishi sharoitida turli tillarda huquqiy atamalar va tushunchalarni o'rganish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu maqolada rus va o'zbek tillari o'rtasidagi huquqshunoslik sohasidagi tushunchalarni farqlash muammosi, shuningdek, huquqiy atamalarni tarjima qilish va moslashtirish bilan bog'liq ba'zi jihatlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: huquqshunoslik, huquqiy terminologiya, tushunchalarni chegaralash, rus tili, o'zbek tili.

Abstract: The differentiation of concepts in the field of jurisprudence is an important problem that has not only theoretical but also practical significance. Linguistic differences can have a significant impact on the interpretation of legal norms and their application in different cultures. In the context of globalization and increasing international legal interaction, the study of legal terms and concepts in different languages

is becoming increasingly relevant. This article will consider the problem of distinguishing concepts in the field of jurisprudence between the Russian and Uzbek languages, as well as some aspects related to the translation and adaptation of legal terms.

Keywords: jurisprudence, legal terminology, differentiation of concepts, Russian language, Uzbek language.

ВВЕДЕНИЕ. Важность изучения юриспруденции заключается в её роли как инструмента социального регулирования, что подтверждается работами, изложенными в Конституции любой страны и других нормативных актах. Как отмечает И.А.Кузнецова, юриспруденция, как наука, изучает правовые нормы, их происхождение, развитие и применение. Понятие юриспруденции охватывает как теоретические, так и практические аспекты права, а также его взаимодействие с языком и культурой общества [1].

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД. В своей работе «Лингвистические особенности юридического языка» Д.М.Шоттаев и Р.И.Абдуллаев указывают на то, что связь между лингвистикой и юриспруденцией проявляется в том, как языковые структурные особенности влияют на правопонимание. Каждое юридическое понятие формируется в контексте определённой правовой системы и культуры. Это подразумевает, что юридическая терминология может различаться в зависимости от языкового контекста, в котором она используется[2]. Действительно, юридические термины могут иметь множество значений, и их интерпретация может изменяться в зависимости от социальных и культурных условностей.

ОБСУЖДЕНИЕ. Русский язык имеет богатую юридическую терминологию, внутри которой множество терминов имеют свои спецификации. Например, термин «договор» подразумевает не просто соглашение, а является формой обязательства, которая регулируется Гражданским кодексом и морским правом[3]. Другие ключевые термины, такие как «имущество», «ответственность» и «собственность», также имеют строго

определённые значения, что позволяет избежать правовых неоднозначностей.

Узбекский язык также обладает своей спецификой юридической терминологии. Например, термины «shartnoma» (договор), «mulk» (имущество), «mas'uliyat» (ответственность) и «qonun» (закон) имеют свои особенности трактовки[4]. Узбекская система права, формировавшаяся под воздействием как религии, так и советского законодательства, может иметь уникальные аспекты правопонимания, которые необходимо учитывать.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ. Перевод юридической терминологии становится сложной задачей, особенно в случаях, когда отсутствует точный аналог или эквивалент. Например, узбекский термин «shartnoma» может не полностью покрывать все аспекты русского понятия «договор», что приводит к правовым неясностям. Как отмечает В.А.Петренко, «перевод юридических текстов требует не только знания терминов, но и глубокого понимания правовой системы и культурного контекста»[5]. Неадекватный перевод может привести к правовым ошибкам и последствиям для сторон.

В русской правовой системе понятие «право» трактуется как совокупность норм, регулирующих общественные отношения, права и обязанности граждан, организаций и государственных структур[6]. Право в России имеет свои корни в концепциях справедливости и порядочности. Это понятие включает как общеправовые, так и частные нормы, что отражается в различных кодексах и законах.

В узбекском языке понятия «qonun» (закон) и «huquq» (право) часто ассоциируются с правами граждан и их обязательствами перед государством. Узбекская правовая система

предоставляет определённые свободы гражданам, но также накладывает на них и специфические обязательства [7]. Такие подходы к праву обуславливаются историко-культурным контекстом, который включает как традиционные, так и современные элементы правопонимания.

Юридическая культура в России формировалась на основе многовековой истории, включая как самобытные традиции, так и заимствования из зарубежных правовых систем. Это привело к сложной структуре правовых понятий и терминов, часто порождающих трудности в интерпретации. Например, использование понятий «правосознание» и «правовая культура» в российском праве подчеркивает глубокую связь между юриспруденцией и общественным сознанием [8].

По мнению А.Мусоева, узбекская юридическая культура также имеет свои уникальные черты. Здесь большое значение придается традиционным концепциям справедливости и общественного блага, что влияет на понимание правовых понятий [9]. Важно отметить, что в последние десятилетия Узбекистан активно реформирует свое законодательство, заимствуя элементы из международной практики, что приводит к изменению и адаптации юридических терминов.

Сравнительный анализ показывает, что различия в правовых понятиях могут привести к путанице и недопониманию. Например, термин «гарантия» в русском языке может включать в себя более широкий спектр понятий, чем его узбекский аналог [10]. Одной из серьезных проблем является различие в правоприменении и интерпретации норм. В результате такое разночтение может привести к юридическим спорам и конфликтам.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Проблема разграничения понятий сферы юриспруденции в русском и узбекском языках представляет собой

многогранную и сложную задачу. Основными её аспектами являются необходимость учета языковых и культурных различий, а также их влияние на юридическую практику и интерпретацию норм. Важно, чтобы юристы и практики, работающие в многоязычной среде, учитывали нюансы использования юридической терминологии, что позволит избежать недоразумений и повысить эффективность правоприменения. В условиях глобализации и увеличения международного правового взаимодействия знание особенностей различных правовых систем становится всё более актуальным.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Бычкова Н.П. Право и справедливость: российский подход. Москва: Научный мир, 2017.
2. Гражданский кодекс Российской Федерации. Москва: Официальный источник, 1994.
3. Гражданский кодекс Республики Узбекистан. Ташкент: Официальный источник, 2013.
4. Грачева Т.С. Юридические термины: проблемы и решения. Правовое обозрение, 10(1), 78-85, 2022.
5. Кузнецова И.А. Основы юриспруденции. Москва: Издательство Юрайт, 2020.
6. Мусоев А. Правосознание в Узбекской Республике. Социология права, 12(3), 297-305, 2015.
7. Петренко В.А. Проблемы перевода юридических текстов. Журнал юридической науки, 4(2), 45-57, 2019.
8. Рустамов Б. Правовая система Узбекистана: традиции и современность. Ташкент: Норма, 2021.
9. Серенко А.В. История правовой культуры России. Санкт-Петербург: Питер, 2020.
10. Шоттаев Д.М., Абдуллаев Р.И. Лингвистические особенности юридического языка. Ташкент: УзБТ, 2018.

Qabul qilindi: 16.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK: 13.92"1"/"19"(575.1)

AHMAD DONISH ILMIY MEROSIDA ADOLATLI DAYLAT VA BOSHQARUV SHAKLLARI

*Abduraxmonov Xolboy To'xtayevich, Alfraganus universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

JUST STATE AND FORMS OF COVERNANCE IN THE SCIENTIFIC LEGACY OF AHMAD DONISH

*Abdurakhmonov Kholboy Tokhtayevich, Independent
Researcher at Alphraganus University*

СПРАВЕДЛИВОЕ ГОСУДАРСТВО И ФОРМЫ УПРАВЛЕНИЯ В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ АХМАДА ДАНИША

*Абдурахмонов Холбой Тохтаевич, независимый
исследователь Университета Альфраганус*



<https://orcid.org/0009-0001-0071-1537>

e-mail:

xolboy_abd@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning yirik ma'rifatparvari Ahmad Donishning ilmiy-falsafiy merosida adolatli davlat tuzilmasi, ijtimoiy boshqaruv shakllari va ularning zamonaviy qadriyatlar bilan uzviy aloqadorligi yoritilgan. Donishning siyosiy-huquqiy qarashlari orqali adolat, qonun ustuvorligi, ilmi rahbar obrazining zarurligi, islohotlar asosida rivojlangan jamiyat barpo etish g'oyalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ahmad Donish, adolat, davlat boshqaruvi, ma'rifat, siyosiy qarashlar, islohotlar.

Abstract: This article explores the views of the prominent 19th-century enlightener Ahmad Donish on the just state, systems of governance, and their relevance to modern values. Through the lens of his political and legal philosophy, the study analyzes concepts such as justice, rule of law, the importance of educated leadership, and the idea of building a reformed society.

Keywords: Ahmad Donish, justice, state governance, enlightenment, political thought, reforms.

Аннотация: В статье рассматриваются представления выдающегося просветителя XIX века Ахмада Даниша о справедливом государстве, формах общественного управления и их взаимосвязи с современными ценностями. Через призму его политико-правовых взглядов анализируются идеи справедливости, верховенства закона, необходимость образованного руководителя и построения реформированного общества.

Ключевые слова: Ахмад Даниш, справедливость, государственное управление, просвещение.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Inson nima uchun yaratilgan, yaratilgandan so'ng uning yaxshiligi nimada va u nimani xohlashi kerak, jamiyatda inson qanday bo'lishi kerak, xalqni tashkil etuvchi har bir oddiy insondan tortib yuqori lavozim egalrigacha o'zligini biladimi? Ahmad Donishning hikmatli so'zlaridan birini keltirishimiz mumkin:

...Har ishning haqiqatini inson ocha oladi [2, 37-b].

Bu yerda qancha ma'no yashiringan, har bir inson o'zi uchun atrof-muhitni o'zi yaratadi, uning boy yoki kambag'al bo'lishiga o'zi sababchi, jamiyatdagi o'rnini ham o'zi yaratadi. Bugungu kunda Ahmad Donish asarlarida davlat boshqaruvini o'rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Jadidchilikka oid Q.Rajabov [3], D.Alimova[4], D.M.Jamolova[5], M.A.Tojiboyeva[6], S.A'zamxo'jayev[7] va boshqalarlarning tadqiqotlarida jadid mutafakkirlari ma'naviy merosining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qarashlari, ularning jadid ma'rifatparvarligidagi alohida o'rni qisman o'rganilgan.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ahmad Donish mang'it amirlari saroyida katta mansablarda ishlaydi, saroyda berilgan nafaqa bilan rohat-farog'atda yashashi mumkin edi. Xalq uchun, el-yurt uchun, vatan uchun o'z halovatini buzdi. Undagi bu jur'at va jasorat ibratdir. Ahmad Donish ona shahrini obod qilish uchun o'zining butun vujudini baxsh etgan fidoyi inson, u insonparvar qomusiy olim, u jamiyat hayotining barcha tomonlarini chuqur o'rgangan va tahlil qilgan. U xalqning ayanchli turmushini anglash yo'llarini izlaydi. Buning uchun Buxoro amirlariga ochiqdan-ochiq tavsiyalar va maslahatlar beradi, uning bu dadilligi, ochiq, to'g'ri fikrlari amirlarga yoqmaydi, bu faoliyat esa dushmanlari safi kengayishiga olib keladi. Davlatni adolat bilan boshqarishga aql-u idrok va ilm-u tafakkur nuqtayi nazaridan yondashish Ahmad Donishning qarashlariga xos xususiyatdir. Ahmad Donish "Agar davlat aql, ong prinsiplariga muvofiq tarzda tashkil etilmasa va boshqarilmasa, unday davlatdan yaxshilik kutish mumkin emas", deb hisoblaydi. Bu fikr Sharq mutafakkirlaridan Alisher Navoiy ilgari surgan va oqil hukmdorlar amal qilgan davlatni ilm-ma'rifat ahliga tayanib boshqarish g'oyasiga hamohangdir.

XIX asrning 2-yarmi va XX asr boshlarida ham Buxoroda mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, despotizm va mutaassiblik, iqtisodiy nochorlik va qoloqlik, mahalliy va mustamlakachilik zulmining nihoyatda kuchayganligi ma'rifatparvarlik g'oyalarining kirib kelishiga tog'dek to'siq bo'ldi. Har qanday dunyoviy ilm va adabiyotlarning kirib kelishiga yo'l berilmadi[8, 35-b].

Podshohlar, askar boshliqlari, karvon boshlari insofli, to'g'ri so'zli va ishonchli

bo'lishlari ustiga, butun yaxshi sifatlariga ega bo'lishlari lozimdir. Shunday bo'lgandagina ular o'z buyruqlarini ustidan yurita oladilar. Agar podshoh axloqsiz va adolatsiz bo'lsa, u holda uning amr va farmonlari hamda har xil nasihat so'zlari xalqqa ta'sir qilmaydi. Agar qamchi solib, askar kuchini qo'llanib qo'rqitish bilan so'zini yurita olsa ham, haqiqatda esa unday podshoh buzuq odamlarga o'zi yordam qilgan bo'ladi [2, 38-b].

"O'z sohasini mukammal bilmaydigan, professional ko'nikmalar va hayotiy tajribaga, yuksak axloqiy sifatlariga ega bo'lmagan yuristlar hech qachon bu mansabga tayinlanmasligi lozim", - qayd qilib o'tdi davlat rahbari [1, 430-b].

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmonda sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarib, quyidagi uchta asosiy ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi: sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, odil sudlovga erishish darajasini oshirish. Buxoro hukmdorlari mamlakatni obodonlashtirish, yo'l qurilishi, sug'orish tizimi inshootlarini barpo qilish, madaniy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish, tibbiy xizmat ko'rsatish va shunga o'xshash ishlarga e'tibor bermaganlar. Buxoro amiri xalqdan olingan soliqlar hisobidan katta boylik to'plasa-da, xalq manfaati va taraqqiyoti yo'lida deyarli hech narsa qilmagan. Buxoroda davlat rahbari amir bo'lib, u cheklanmagan hokimiyat va huquqlarga ega edi. Shu bilan birgalikda Buxoro amiri o'z qo'l ostidagi barchaning ham mulkiy, ham jismoniy, ham ma'naviy xo'jasi edi. Tarixchining yozishicha, cho'pon o'z boquvidagi xohlagan qo'yini olib so'yishi mumkin bo'lganidek, amir aholining o'zi xohlagan a'zosi taqdirini hal qilishi mumkin edi.

Sulton ko'pchilik xalq rizoligi va davlat ulug'larining maslahatlari bilan o'ziga ikki vaziri dono saylab olsin. Biri mamlakat kirimi, ikkinchisi esa mamlakat chiqimini hisob qilsin. Bu ikkalasining darajalari boshqa xizmatchilarning hammasidan yuqori tursin. Butun harbiylar ustidan

boshchilik qilish uchun askar amirini saylasin. Ikkinchi butun qalam ahllari ustiga yana bir rais tayinlasin. Bu so'nggi ikkalasining darajalari avvalgi ikkalasining darajalaridan pastroq bo'lsin. Bu to'rt boshliq mamlakatning to'rt ustunlaridirlar. Bularning hukmlari o'z qo'llarida bo'lib, qatl va azildan boshqasini podshohdan so'rab o'ltirmasin. Yana O'rda xizmatchilariga rahbarlik qilish uchun mushirlik mansabiga bir kishini tayinlasin. Uning esa bu yuqoridagilardan darajasi yana tubanroq bo'lsin. Balki o'zini ularga xodim darajasida tutsin. Yuqoridagi to'rt boshliqdan kelgan ariza va bayonnomalarni o'z vaqtida sultonga yetkazib, javobini qaytarsin. Harbiylarning azl-nasab ishlari bo'lsa amiri lashkarga topshirilsin. Butun qalam ahllari: qozilar, muftilar, mudarrislar kabilarning ishlari o'z raislariga topshirilsin. Kirim vaziri mamlakat kirimlaridan, chiqim vaziri esa chiqimlaridan, amiri lashkar o'z qo'l ostidagi harbiy ishlardan va rais-u ulamo o'zining qilgan ishlaridan har kunda bir marotaba yoki haftada ikki marotaba o'rda mushiriga ma'lumot berib, sultonga yetkazsin. Shu bilan sulton ham mamlakatda bo'layotgan kundalik ishlardan xabardor bo'lib tursin. Agar bu arizalar sultonga qabul bo'lsa, unga o'z qo'li bilan nishon ko'nib, hisob daftariga qayd qilsin. Bo'lmasa aksini bildirsin yoki shubhali joyi bo'lar ekan, uni so'rab tushunsin. Agar shu aytilgan tartibga muvofiq ish olib borilsa, davlat ishlarida yengillik yuz berib podshoh ham ancha tinchiydi. Yana o'ziga zarur bo'lgan vazifalarni ham qilishga ulguradi [2,79-b].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ahmad Donish xalq hayotini yaxshilash, davlat va ishtimoiy munosabatlari boshqaruvini takomillashtirish masalalariga qiziqish bilan qarar edi. Amirlik tizimida insonlar sog'lig'ini yaxshilash masalalariga qaratilgan choralar ko'rilmadi. Fuqarolar sog'lig'i esa tibbiyot fanini bilmagan shaxslar – mullalar, eshonlar, tabiblar, folbin va sartaroshlar qo'lida bo'lgan. Xotin-qizlar ahvoli ham juda og'ir bo'lgan. Buxoro amiri davlat boshqaruvchi va qonun chiqaruvchi shaxs bo'lgan. Amirlik amaldorlari mang'itlar susolasidan yoki ularning urug'-qarindoshlaridan bo'lgan.

Davlat boshqaruvi masalasida Buxoro amirligida paydo bo'lgan o'zgarishlar Ahmad

Donishning Moskva va Peterburg shaharlarida bo'lishi bilan bog'liq. Uning u yerda davlat boshqaruvining o'ziga xos shakllarini ko'rishi unda boshqaruv tizimiga oid yangidan-yangi qarashlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Ma'lumki, mazkur davrdagi Buxoro amirligidagi boshqaruv tizimi davr nuqtayi-nazaridan qaralganda juda eskirib qolgan, hokimiyat Chingizxon zamonidan qolgan tartib asosida boshqarilmoqda edi. Shuning uchun ham Ahmad Donish davlat boshqaruv apparatini zamona talabiga mos holda qayta qurish kerak, degan fikrni o'rta tashlaydi. Rossiya podsholigidagi boshqaruv tizimi Donishning fikricha, Buxoro amirligi boshqaruv tizimidan yaxshiroq edi. Bu haqda ko'plab asarlardan bilib olishimiz ham mumkin[9,169-b.].

Ahmad Donish tomonidan ijtimoiy yuksalish uchun ilm-ma'rifat va axloqiy tarbiya asosiy omil sifatida ko'rilgan. Masalan, "O'g'illarga nasihat" risolasida u ziyolilik va axloqiy madaniyat muhimligini urg'ulaydi. Uning adabiyotlarida diniy izdoshlar (shayxlar, ulamolar) korrupsiya va yolg'onchilik kabi illatlarni fosh etadi.

Ahmad Donishning konseptual fikrlariga ko'ra, davlatni boshqarishda hukmdor o'zining donishmand maslahatchilariga tayanishi lozim: "Ko'pchilikning aqli bir kishining aqlidan ortiqroqdir". Shuningdek, u hukmdor siyosatini keng maslahat va ijtimoiy tafakkur bilan muvofiqlashtirish zarurligini ilgari suradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ahmad Donish ijtimoiy munosabatlarni axloqiy-adolatli mezonlar asosida baholaydi. Ahmad Donish jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda adolat, ilm, axloq, ma'rifat va halollikning asosiy rol o'ynashini ta'kidlaydi. U fuqarolar o'rtasidagi tenglik, rahbarlar va oddiy xalq o'rtasidagi ishonch va hurmat munosabatlari yo'qolgani tufayli jamiyat inqirozga yuz tutganini ko'rsatadi. Ahmad Donish o'z davridagi mutlaq monarxik boshqaruv – xon va amirlar irodasiga to'liq bo'ysunuvchi siyosiy tizimni keskin tanqid qilgan. U o'zboshimchalik, qonunsizlik va beqarorlikni davlat zaifligining sababi deb biladi. Donish "Risolai Sayyah" asarida G'arb davlatlarining (Rossiya, Angliya, Fransiya) konstitutsiyaviy boshqaruv tizimini o'rganadi va

ularni ilg'or boshqaruv shakllari sifatida tasvirlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - B. 430.
2. Donish A. Navodir ul vaqoe. - O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964. - B.37.
3. Ражабов Қ. Ёш бухороликлар // Бухоро мавжлари. 2005. № 2. - Б.26-29.
4. Алимова Д.А. Историческое мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркестана // Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. - Тошкент: Фан, 1996.
5. Жамолова Д.М. Бухоро амирлиги жадидлар ва қадимчилар фаолияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент, - 138 б.
6. Тожибоева М.А. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. - Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент, 2017. - 284 б.
7. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти миллий-демократик давлатчилиқ қурилиш тажрибаси. - Тошкент, 2012.
8. Rahmonov T.E., Orziyev M.Z. Ikki tarixiy siymo. – Buxoro, 2015. - B.35.
9. Masharipova G.K. Education Of Youth Of New Uzbekistan By Studying The Heritage Of Thinkers. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol. 11, Issue 12, December (2023). - Pp. 169-174.
10. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolik jamiyati g'oyalarining milliy davlatchiligimizdagi o'rni. Tamaddun nuri jurnali, 7(58), 247-250.
11. Kurbanbaeva, M. (2024). Temuriylar davri mutafakkirlari konsepsiyalarida "Fuqarolik jamiyati" tushunchasi. Tamaddun nuri jurnali, 10 (61), 310-312.



Q'QUVCHILARNING TA'LIM OLISH JARAYONIDA IJODKORLIK G'OYALARI SHAKLLANISHI VA UNDA MOTIVATSIYANING AHAMIYATI

*Urazbayeva Yulduz Abdullayevna, Ma'mun universiteti
"Psixologiya, tibbiyot va sport" kafedrasida o'qituvchisi,
v.b. dotsent, (PhD)*

THE FORMATION OF CREATIVE IDEAS IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF STUDENTS AND THE IMPORTANCE OF MOTIVATION IN IT


*Urazbayeva Yulduz Abdullayevna, teacher of the Department
of "Psychology, Medicine and Sports" of Mamun University, acting
associate professor, (PhD)*

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ ИДЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ СТУДЕНТОВ И ЗНАЧЕНИЕ МОТИВАЦИИ В НЁМ

*Уразбаева Юлдуз Абдуллаевна, преподаватель кафедры
"Психология, медицина и спорт" университета Маъмун,
и.о. доцента, (PhD)*



<https://orcid.org/0009-0007-3208-6477>
e-mail:
Urazbaeva2411@gmail.com



Annotatsiya: Ayni vaqtda, bugungi globallashuv davrida jahon miqyosida chuqur moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan, raqobat tobora kuchayib borayotgan keskin bir sharoitda biz mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini har tomonlama tahlil qilib, davlatimizni barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish maqsadida avvalo xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosni har tomonlama chuqur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlarni ko'zda tutadi.

Mazkur maqolada kasb-hunar maktab o'quvchilarining ta'lim motivatsiya namoyon bo'lishi, ijodkorlik g'oyalarining shakllanishida motivatsiyaning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, 5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash metodikasi va uning natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: motiv, ijodkorlik, tanqidiylik, o'z-o'zini baholash, qobiliyat.

Abstract: At the same time, in today's era of globalization, where a deep financial and economic crisis continues worldwide and competition is intensifying, we have set noble goals, such as comprehensively analyzing the path of development our country has taken, developing our state at a stable and rapid pace, and further enhancing the effectiveness of the ongoing reforms. First of all, we have a comprehensive and in-depth study of the unique heritage created by the creative genius of our people, creating a holistic picture of the lives and scientific and creative activities of great scholars and thinkers who have emerged from our country, and educating the younger generation in the spirit of humanistic ideas, national pride and honor.

This article analyzes the role and importance of motivation in the manifestation of educational motivation and the formation of creative ideas of vocational school students. Also, the methodology for determining 5-factor creative activity and its results are presented.

Key words: motive, creativity, criticality, self-assessment, ability.

Аннотация: Вместе с тем, в современную эпоху глобализации, когда во всем мире продолжается глубокий финансово-экономический кризис и обостряется конкуренция, мы поставили перед собой благородные цели: всесторонне проанализировать пройденный нашей страной путь развития, обеспечить устойчивое и быстрое развитие государства, а также дальнейшее повышение эффективности проводимых реформ. Прежде всего, это всестороннее и глубокое изучение уникального наследия, созданного творческим гением нашего народа, создание целостной картины жизни и научно-творческой деятельности выдающихся учёных и мыслителей, вышедших из нашей страны, воспитание подрастающего поколения в духе гуманистических идей, национальной гордости и чести.

В данной статье анализируются роль и значение мотивации в проявлении учебной мотивации и формировании творческих идей студентов профессиональных учебных заведений. Также представлена методика определения 5-факторной творческой активности и её результаты.

Ключевые слова: мотив, креативность, критичность, самооценка, способности.

KIRISH. Kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi namoyon bo'lishining metodologik asoslari o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi qiziqishlarini oshirish, ularda ichki va tashqi motivatsiya omillarini shakllantirish hamda ta'limdagi faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ilmiy yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon ko'plab psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lib, ta'lim motivatsiyasining shakllanishida qator metodologik tamoyillar mavjud[3].

"5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash metodikasi (M.I.Rojkova, Y.S.Tyunnikova, B.S.Alishyeva, L.A.Volovich va boshqalar tomonidan modifikatsiya qilingan varianti)". Talabalar ilmiy dunyoqarashiga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos psixologik jihatlarini o'rganishda, "5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash (M.I.Rojkova, Y.S.Tyunnikova, B.S.Alishyeva, L.A.Volovich va boshqalar tomonidan modifikatsiya qilingan varianti)" metodikasidan foydalanilsa maqsadga muvofiq.

ASOSIY QISM. Ushbu metodika talabalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishdagi o'zgarishlarni qiyosiy tahlil qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, 5 ta shkaladan iboratdir. 5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash" metodikasi 56 ta

savolnomadan iborat bo'lib, har bir savolda 3 tadan javob tanlash imkoniyati beriladi.

1. "Yangilik hissi" – yangi narsani kashf etishga qaratilgan izlanish, axborotni qayta ishlash va o'zgartirish jarayoni.

2. "Tanqidiylik" mezoni – fikrlashning rivojlanish bosqichlarini, tahlil qilish qobiliyatini, voqelikka munosabatini ifodalaydi. Tanqidiylik mezoni "baholash" va "o'z-o'zini baholash", "tanqidiylik" va "o'z-o'zini tanqid qilish", "isbotlash" va "rad etish", "tanqidiy tahlil" kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

3. "Obyektning tuzilishini o'zgartirish qobiliyati" mezoni – obyektning asosiy xususiyatini aniqlash va undan foydalanishning yangi usulini taklif qilish qobiliyati.

4. "Ijodkorlikka yo'nalganlik" mezoni – bu muayyan tanqidiy vaziyatlarda qobiliyati va umidsiz bo'lib ko'rinadigan oddiy bo'shliq yordamida hatto vaziyatni to'g'irlash va kerakli natijaga erishishga imkon beradigan, muammolarni hal qilishda jasorat, ya'ni muvaffaqiyatsiz bo'lish xavfini cheklaydigan yoki boshqalarning salbiy bahosini oladigan, muhrlanmagan yondashuv bilan muammoni hal qilish xususiyatidir.

5. O'z-o'zini baholash (nazorat so'rovnomasi) mezoni – yuqori estetik, axloqiy,

intellektual baholarni ta'minlaydigan ideal standartlarni yaratish qobiliyati, intuitivlik, aqliy faoliyatning barqarorligi, aqliy faoliyatni anglash, baholash va o'zini mazkur xususiyatlardan qoniqish darajasi[4], [5], [6].

Quyida keltirilib o'tilgan jadvalda o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishdagi ijodkorligi va motivatsiyasi borasidagi bog'liqliklar ko'rsatilib o'tilgan.

“5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash” metodikasi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=210)

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar
	1-kurs n=110	2-kurs n=100	T
Yangilik hissi	7,4	5,4	-2,3*
Tanqidiylik	6,3	8,2	-2,6*
Obyektning tuzilishini o'zgartirish qobiliyati	4,4	4,6	-1,1
Ijodkorlikka yo'nalganlik	5,2	7,4	-2,5*
O'z-o'zini baholash	3,9	5,8	-2,1*

Tadqiqotda qo'llanilgan “5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash” metodikasi bo'yicha, olingan dastlabki natijalar tahliliga ko'ra, “yangilik hissi” ($t=-2,3$; $p<0,05$), “tanqidiylik” ($t=-2,6$; $p<0,05$), “ijodkorlikka yo'nalganlik” ($t=-2,5$; $p<0,05$) hamda “o'z-o'zini baholash” ($t=-2,1$; $p<0,05$) omillari bo'yicha sezilarli farqlar aniqlandi.

Metodikaning dastlabki “yangilik hissi” omili bo'yicha 1-bosqich o'quvchilarida yuqori natija kuzatildi ($t=-2,3$; $p<0,05$). Mazkur omilga mansub o'quvchilar yangilik yaratishga intilishlari yuqori darajada ekanligini ko'rsatdi. Yangilik hissi kuchli bo'lgan o'quvchilar yangi vaziyatlarda o'zini erkin his qiladi va turli masalalarga yangicha yondashishni istaydilar. Ushbu omil ijodiy jarayonda yangi g'oyalarning paydo bo'lishi va ularni samarali tarzda amalga oshirishda katta ro'l o'ynaydi. Natijalarga ko'ra, yangilik hissi bo'yicha sezilarli farqlar aniqlandi, bu esa o'quvchilar orasida ijodiy jarayonlarda yangi narsalarni kashf qilishga qiziqish darajasi turlicha ekanligini ko'rsatadi. Ushbu omilning past darajada bo'lishi ijodiy jarayonlarni cheklab qo'yishi mumkin. Chunki, yangilikka bo'lgan qiziqish ijodkorlikning asosiy tarkibiy qismi deb hisoblanadi. Yangilik hissini rivojlantirish orqali o'quvchilar o'z ijodiy qobiliyatlarini yanada kengroq ko'rsatishga qodir bo'lishlari mumkin.

Shuningdek, yangilik hissi yuqori bo'lgan o'quvchilar turli masalalarni innovatsion yo'llar bilan hal qilishga moyildir.

Metodikaning navbatdagi “tanqidiylik” omiliga ko'ra, 2-bosqich o'quvchilarida yuqori natija qayd etildi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Ma'lum bo'lishicha, bu 2-bosqich o'quvchilarida mavjud g'oyalar va qarashlarni tahlil qilish, ularni tanqidiy baholash va o'z pozitsiyasini asoslash qobiliyati yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Ushbu omil o'spirinlarning fikrlash jarayonida tanqidiy yondashuvni rivojlantirishiga yordam beradi. Tanqidiy fikrlovchilar mavjud fikrlarni baholashi, kamchiliklarni aniqlashda va yangi yechimlarni taklif qilishda faol ishtirok etadi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tanqidiylik omili bo'yicha ham sezilarli farqlar mavjud, bu esa o'quvchilar orasida tanqidiy yondashuv darajasi turlicha ekanligini anglatadi. Tanqidiy fikrlash o'spirinlarning ijodiy faoliyatida muhim ro'l o'ynaydi, chunki u mavjud g'oyalarning samaradorligini tahlil qilish va ularni rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu omil rivojlangan o'quvchilar ko'pincha an'anaviy g'oyalarga qarshi chiqib, yangi va samarali yechimlarni taklif qiladi. Tanqidiylik darajasi past bo'lgan o'quvchilar esa mavjud g'oyalarni qabul qilib, ularda kamchiliklarni ko'rish qiyinlashadi.

“Ijodkorlikka yo‘nalganlik” omili bo‘yicha 2-bosqich o‘quvchilarida yuqori natija kuzatildi ($t=-2,5$; $p<0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, 2-bosqich o‘quvchilarida ijodiy jarayonlarga faol kirishish va yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga intilish darajasi yuqori ekanligi dalillandi. Ijodkorlikka yo‘nalganlik kuchli bo‘lgan o‘quvchilar doimo yangi narsalarni o‘rganishga, tajriba qilishga va ijodiy ishlarni amalga oshirishga moyil bo‘lishadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu omil bo‘yicha sezilarli farqlar kuzatilgan, ya‘ni o‘spirinlar orasida ijodkorlikka qiziqish darajasi turlicha. Bu omil ijodiy faoliyatni davom ettirish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda muhimdir. Ijodkorlikka yo‘nalganlikning past darajada bo‘lishi o‘quvchining ijodiy qobiliyatlarining to‘liq ochilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu omilni rivojlantirish o‘quvchining ijodiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishiga va o‘z ijodiy salohiyatini to‘liq ko‘rsatishiga yordam beradi.

Keyingi “o‘z-o‘zini baholash” omiliga ko‘ra, 2-bosqich o‘quvchilarida yuqori natija qayd etildi ($t=-2,1$; $p<0,05$). Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, 2-bosqich o‘quvchilarida o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini qanchalik real baholashini ifodalaydi. O‘z-o‘zini baholash darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar o‘z qobiliyatlariga ishonch bilan qaraydi va o‘zini muvaffaqiyatli his qiladi. Ushbu omil o‘quvchining o‘zini qanchalik to‘g‘ri baholashiga bog‘liq bo‘lib, ular o‘z qobiliyatlarini real baholab, imkoniyatlariga mos maqsadlarni qo‘yadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘z-o‘zini baholash omili bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud, bu esa o‘spirinlar o‘z qobiliyatlarini turlicha baholashlarini ko‘rsatadi. O‘z-o‘zini baholash darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar o‘z imkoniyatlariga ishonchsizlik bilan qaraydi va bu ularning ijodiy faoliyatiga ham salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Ushbu omil o‘quvchining muvaffaqiyatga erishishiga va ijodiy

qobiliyatlarini to‘liq ochishiga yordam beradi. O‘z-o‘zini baholash yuqori bo‘lgan o‘quvchilar o‘zlarida yangi qobiliyatlarni rivojlantirishga intiladi va qiyinchiliklarga qaramasdan o‘z maqsadlariga erishishga harakat qiladi.

XULOSA. Demak, ta‘lim olishga bo‘lgan motivatsiyasi o‘quvchilarni ilmiy dunyoqarashiga ta‘sir etuvchi ijodkorligini o‘rganish hamda uni shakllantirishni muayyan darajadagi o‘ziga xos psixologik qonuniyatlarini va aniq maqsadga qaratilgan metodikalar talabi bo‘yicha berilgan javoblar tahlilidan kelib chiqib, ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishda asos bo‘lib xizmat qiladi: bundan tashqari, tashqi rag‘batlantirish vositalari orqali o‘zini-o‘zi baholash qobiliyatlarini rivojlantirishi bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Bu o‘quvchilar o‘z ta‘lim faoliyatlariga ijtimoiy mukofotlar va baholashlar orqali yanada qiziqish bilan yondashib, o‘zlarining o‘qishdagi muvaffaqiyatlariga tayanishi kuzatildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. /Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020 y., 03/20/630/1101-son.
3. Ефимова, Н.С. Социальная психология: учебник для бакалавров / Н.С. Ефимова, А.В. Литвинова. - Люберцы: Юрайт, 2016. - 442 с.
4. Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы, эмоции. М.: МГУ, 1971.-380 с.
5. Маслоу А. Мотивация и личность. — СПб.: Питер, 2008.
6. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.f.dok.dis. - T., 2005. - 391 b.

Qabul qilindi: 16.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK: 338(575.1)

JANUBIY VILOYATLARDAGI AHOLINING UY-JOY

BILAN TA'MINLANISHI: O'ZGARISHLAR VA

MUAMMOLAR (Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari

misolida, 1991–2023 yillar)

*Kadirova Yakitjan Buvabayevna, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti v.b.dotsenti, (PhD)*

HOUSING PROVISION FOR THE POPULATION IN

THE SOUTHERN REGIONS: CHANGES AND

PROBLEMS (based on the examples of Surkhondaryo and

Qashqadaryo regions, 1991–2023)

*Kadirova Yakitan Buvabayevna, Associate Professor (PhD), Nizami
Tashkent State Pedagogical University*

ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ ЖИЛЬЁМ В ЮЖНЫХ

ОБЛАСТЯХ: ИЗМЕНЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ (на примере

Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областей, 1991–2023

годы)

*Кадирова Якитжан Бувабаевна, доцент Ташкентского
государственного педагогического университета имени Низами,
(PhD)*

[https://orcid.org/000](https://orcid.org/0009-0005-0638-6922)

9-0005-0638-6922

e-mail:

Kadirovayakidjan@
gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining janubiy viloyatlari – Surxondaryo va Qashqadaryo misolida 1991–2023-yillar davomida aholini uy-joy bilan ta'minlash sohasidagi o'zgarishlar va muammolarni tahlil qiladi. Maqolada mustaqillik yillarida amalga oshirilgan uy-joy qurilishi islohotlari, urbanizatsiya jarayonlari, iqtisodiy va ijtimoiy omillar, shuningdek, ushbu sohada yuzaga kelgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi demografik o'zgarishlar, qurilish sohasidagi yangilanishlar va infratuzilma rivojlanishi alohida e'tibor markazida bo'lib, ularning aholining turar joy ehtiyojlariga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: uy-joy ta'minoti, urbanizatsiya, Surxondaryo, Qashqadaryo, qurilish islohotlari, ijtimoiy infratuzilma, demografik o'zgarishlar.

Abstract: This article analyzes the changes and problems in housing provision for the population in the southern regions of the Republic of Uzbekistan – Surkhondaryo and Qashqadaryo – during the period from 1991 to 2023. The article reviews housing construction reforms implemented during the years of independence, urbanization processes, economic and social factors, as well as the problems that have arisen in this field and ways to address them. Demographic changes, innovations in the construction sector, and infrastructure development in Surkhondaryo and Qashqadaryo regions are given special attention, and their impact on the housing needs of the population is analyzed.

Keywords: housing provision, urbanization, Surkhondaryo, Qashqadaryo, construction reforms, social infrastructure, demographic changes.

Аннотация: В данной статье анализируются изменения и проблемы в обеспечении населения жильём в южных областях Узбекистана — на примере Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областей в период с 1991 по 2023 годы. Рассматриваются реформы в строительстве жилья,

процессы урбанизации, экономические и социальные факторы, а также возникающие проблемы и пути их решения. Особое внимание уделяется демографическим изменениям, обновлениям в строительной сфере и развитию инфраструктуры в Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областях, а также их влиянию на потребности населения в жилье.

Ключевые слова: обеспечение жильём, урбанизация, Сурхандарья, Кашкадарья, строительные реформы, социальная инфраструктура, демографические изменения.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgani 1991-yildan boshlab mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va demografik sohalarida sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi, chunki turar joy masalasi fuqarolar hayot sifati, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari O'zbekistonning janubiy hududlari sifatida o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xususiyatlarga ega bo'lib, ular aholini uy-joy bilan ta'minlash jarayonida alohida muammolar va imkoniyatlarni namoyon qiladi. Maqola quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

1. 1991–2023-yillar davomida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida uy-joy qurilishi sohasidagi o'zgarishlarni tahlil qilish.

2. Ushbu viloyatlardagi aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash.

3. Uy-joy ta'minotidagi muammolarni aniqlab, ularni hal qilish yo'llarini taklif qilish.

1. Mustaqillik yillarida uy-joy qurilishi sohasidagi islohotlar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uy-joy qurilishi sohasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. 1990-yillarning boshlarida sobiq Ittifoqdan qolgan ko'p qavatli uylar va infratuzilma eskirgan holatda edi. 2000-yillardan boshlab davlat tomonidan qurilish sohasiga katta e'tibor qaratildi, xususan, "Arzon uy-joy" dasturlari ishga tushirildi. 2017-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida qishloq va shahar hududlarida uy-joy va infratuzilma modernizatsiyasi boshlandi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ushbu dasturlar qishloq aholisini zamonaviy uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan edi. Masalan, Qashqadaryo viloyatining Nishon, Shahrisabz va Qarshi

tumanlarida ko'p qavatli uylar qurilishi tezlashdi. Surxondaryoda esa Termiz shahri va Denov tumani kabi markazlarda yangi turar joy majmualari barpo etildi.

1.1. Qurilish sohasidagi qonunchilik islohotlari. Uy-joy qurilishi sohasidagi islohotlar qonunchilik bazasi bilan mustahkamlandi. 2018-yilda qabul qilingan PQ-3646-son qaror O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining faoliyatini tashkil etishga xizmat qildi. Ushbu qaror qurilish sifatini nazorat qilish, noqonuniy qurilishlarning oldini olish va aholini arzon uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan edi. Bundan tashqari, 2009-yilda qabul qilingan "Shaharsozlik to'g'risida"gi qonun shahar va qishloq hududlarini rejalashtirishda muhim o'zgarishlarni keltirib chiqardi.

2. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida uy-joy ta'minoti: demografik va ijtimoiy kontekst. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari O'zbekistonning eng zich joylashgan hududlaridan biridir. 2021-yil holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyati aholisi 3,2 million kishi, Surxondaryo viloyati aholisi esa 2,7 million kishini tashkil etadi. Bu viloyatlarda aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya jarayonlari tezlashdi, bu esa uy-joyga bo'lgan talabni oshirdi.

2.1. Urbanizatsiya va uy-joy ehtiyojlari. O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2001–2021-yillarda shahar aholisining ulushi 37,2 foizdan 50,7 foizga ko'tarildi. Surxondaryoda Termiz shahri, Qashqadaryoda esa Qarshi va Shahrisabz shaharlari urbanizatsiya markazlari sifatida rivojlanmoqda. Ushbu shaharlarda ko'p qavatli uylar qurilishi aholining zamonaviy turar joylarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilmoqda. Biroq, qishloq hududlarida infratuzilma va uy-joy sifati muammolari hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

2.2. Demografik omillar. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida yosh oilalar sonining ko'pligi va tug'ilish darajasining yuqoriligi uy-joyga bo'lgan talabni oshiradi. Shu bilan birga, iqtisodiy migratsiya (ayniqsa, chet elga ishlash uchun ketayotgan fuqarolar sonining ko'pligi) va ichki migratsiya (qishloqdan shaharga ko'chib o'tish) uy-joy bozorida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

3. Uy-joy qurilishidagi yutuqlar. 1991–2023-yillar davomida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida uy-joy qurilishi sohasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Quyida asosiy yutuqlar keltiriladi:

1. Ko'p qavatli uylar qurilishi: Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida 2017–2023-yillarda 500 dan ortiq ko'p qavatli uylar foydalanishga topshirildi. Surxondaryoning Termiz shahrida yangi turar joy majmualari barpo etildi.

2. Arzon uy-joy dasturlari: davlat tomonidan imtiyozli ipoteka kreditlari joriy etildi, bu yosh oilalarga uy-joy sotib olish imkonini berdi.

3. Infratuzilma rivojlanishi: yangi uylar bilan birga maktablar, bog'chalar va sog'liqni saqlash muassasalari qurildi, bu aholining hayot sifatini oshirdi.

4. Uy-joy ta'minotidagi muammolar. Uy-joy sohasidagi yutuqlarga qaramay, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida bir qator muammolar mavjud:

4.1. Qurilish sifati bilan bog'liq muammolar. Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanida o'tkazilgan nazorat tadbirlari davomida ichimlik suvi tarmoqlariga noqonuniy ulanish holatlari aniqlandi. Surxondaryoda esa ba'zi ko'p qavatli uylarning yerto'la qismlarida noqonuniy qurilish ishlari olib borilgani ma'lum bo'ldi. Bu holatlar qurilish sifati va xavfsizlik standartlariga rioya qilmaslik bilan bog'liq.

4.2. Infratuzilma muammolari. Qishloq hududlarida yangi uylar qurilgan bo'lsa-da, infratuzilma (suv, gaz, elektr energiyasi) yetishmasligi aholining noroziligiga sabab bo'lmoqda. Masalan, Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanida ba'zi yangi uylarda ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimlari to'liq ishlamaydi.

4.3. Iqtisodiy muammolar. Imtiyozli kreditlar joriy etilgan bo'lsa-da, aholining katta qismi, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalar uchun uy-joy sotib olish qiyinligicha qolmoqda. Qashqadaryo viloyatida yosh oilalarning 60%dan ortig'i ipoteka shartlariga javob bera olmaydi.

5. Muammolarni hal qilish yo'llari. Uy-joy ta'minotidagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralar taklif etiladi:

1. Qurilish sifatini nazorat qilish: qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan qurilish jarayonlarini qat'iy nazorat qilish va noqonuniy qurilishlarga qarshi choralar ko'rish.

2. Infratuzilmani rivojlantirish: qishloq va shahar hududlarida suv, gaz va elektr ta'minoti tizimlarini modernizatsiya qilish.

3. Iqtisodiy yordam dasturlari: kam ta'minlangan oilalar uchun ipoteka foizlarini pasaytirish va davlat tomonidan subsidiyalar joriy etish.

4. Mahalliy xususiyatlarni hisobga olish: Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining iqlimiy va demografik xususiyatlariga mos uy-joy loyihalarini ishlab chiqish.

XULOSA. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida 1991–2023 yillar davomida uy-joy ta'minoti sohasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Ko'p qavatli uylar qurilishi, imtiyozli kreditlar va infratuzilma rivojlanishi aholining hayot sifatini oshirishga xizmat qildi. Biroq, qurilish sifati, infratuzilma muammolari va iqtisodiy qiyinchiliklar hali ham dolzarb masalalar sifatida qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat, mahalliy hokimiyatlar va xususiy sektor o'zaro hamkorlikda kompleks choralar ko'rish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi. (2023). Rasmiy veb-sayt: <http://www.mc.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2021). Shahar aholisining o'sishi va urbanizatsiya.
3. PQ-3646-son qaror. (2018). O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida.
4. "Shaharsozlik to'g'risida"gi qonun. (2009). Lex.uz.

**“SOVET O‘QUVCHISI” G‘OYASINING
MAHALLIY O‘ZBEK MAKTABLARIDAGI
SIYOSIY KO‘RINISHI VA UNING OQIBATLARI
(1945–1990-YILLAR MISOLIDA)**

*Umarov Djamshed Sayitmuratovich, TerDU “Jahon tarixi”
kafedrası mustaqil tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)*

**THE IDEA OF THE “SOVIET STUDENT” AND ITS
POLITICAL MANIFESTATION IN LOCAL UZBEK
SCHOOLS AND ITS CONSEQUENCES (EXAMPLE
OF 1945–1990)**

*Umarov Djamshed Sayitmuratovich, Independent researcher at
the Department of World History TerDU, Doctor of Philosophy in
Pedagogical Sciences, (PhD)*

**ИДЕЯ “СОВЕТСКОГО УЧЕНИКА” В
ПОЛИТИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ В МЕСТНЫХ
УЗБЕКСКИХ ШКОЛАХ И ЕЁ ПОСЛЕДСТВИЯ
(НА ПРИМЕРЕ 1945–1990 ГОДОВ)**

*Умаров Джамшед Саитмуратович, независимый
исследователь кафедры всемирной истории ТерДУ, доктор
философии по педагогическим наукам, (PhD)*



[https:// orcid.org/0009-0004-2134-0503](https://orcid.org/0009-0004-2134-0503)

e-mail:

Umarovjamshid510@gmail.
com



Annotatsiya: Ushbu maqolada 1945–1990-yillar davomida Sovet Ittifoqi davrida O‘zbekiston maktablarida “sovet o‘quvchisi” g‘oyasining shakllanishi, uning siyosiy mazmuni va mahalliy o‘quv-tarbiya tizimiga qanday ta’sir ko‘rsatgani tahlil qilinadi. Maqolada g‘oyaning mafkuraviy asoslari, uning targ‘ibot usullari va natijada yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy oqibatlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: sovet o‘quvchisi, mafkuraviy tarbiya, siyosiy targ‘ibot, kommunistik g‘oya, sovet maktabi, tarixiy oqibatlar, mahalliy maktab, tarbiya tizimi.

Abstract: This article analyzes the formation of the idea of the “Soviet student” in Uzbek schools during the Soviet Union period from 1945 to 1990, its political content, and how it influenced the local educational and upbringing system. The article examines the ideological foundations of the idea, its methods of propaganda, and the resulting socio-political consequences.

Keywords: Soviet student, ideological education, political propaganda, communist ideology, Soviet school, historical consequences, local school.

Аннотация: В данной статье анализируется формирование идеи “советского ученика” в школах Узбекистана в период с 1945 по 1990 год в Советском Союзе, её политическое содержание и влияние на местную систему обучения и воспитания. Рассматриваются идеологические основы идеи, методы её пропаганды и социально-политические последствия.

Ключевые слова: советский ученик, идеологическое воспитание, политическая пропаганда, коммунистическая идея, советская школа, исторические последствия, местная школа, система образования.

KIRISH. 1945–1990-yillar orasida O‘zbekistondagi maktablar Sovet Ittifoqi mafkurasi ta’sirida faoliyat yuritgan. Bu davrda “sovet o‘quvchisi” ideali shakllantirilib, u kommunistik g‘oyalarga sadoqatli, Lenin ta’limotiga ishonuvchi va partiya uchun xizmat qiluvchi shaxs sifatida targ‘ib etildi. Maqsad faqat bilim emas, balki ideologik sadoqatni shakllantirish bo‘lgan.

Mavzu mazmuni: 1945–1990-yillarda Sovet ta’lim siyosati O‘zbekistonda “sovet o‘quvchisi” idealining shakllanishiga ijobiy va salbiy jihatdan ta’sir ko‘rsatdi.

Maqsad: Bu maqolada konsepsiyaning shakllanishi, tarqatilishi va siyosiy oqibatlari ilmiy usulda tahlil qilinadi.

Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi:

1. Sovet ta’lim siyosati qanday boshqarildi?
2. “Sovet o‘quvchisi” konsepsiyasining asosiy komponentlari nimalardan iborat edi?

3. Mahalliy maktablarda u qanday inkorporatsiya qilindi?

4. Siyosiy-ijtimoiy oqibatlari qanday bo‘ldi?

ASOSIY QISM

1. Sovet ta’lim siyosatining umumiy xususiyatlari. Markazlashgan va ideologik ta’lim tizimi: 1923–1991-yillarda barcha ta’lim markazdan boshqarilgan, unda rus tili hamda ilm-fan ustuvor rol oynagan.

Mavzular tuzilishi: Injeneriyaga e’tibor ko‘proq, biroq ijtimoiy-gumanitar fanlar – tarix, jamiyatshunoslik orqali ideologiya mustahkamlangan.

Ma’rifat va diniy cheklov: Madrasalar yopilib, diniy ta’lim o‘rni sovet fanlari egallagan, “Hujum” kampaniyasi ostida ayollar huquqlari va kiyimi qayta ko‘rib chiqilgan.

Davrlar bo‘yicha ta’lim-tarbiya unsurlari

Davr	Til siyosati	Tarbiya shakli	Milliy qadriyatlar bilan aloqasi
1920–30-yy.	Ruslashtirish boshlandi	Ishchi maktablari, kommunistik mafkura	Milliy ishtirok zaiflashdi
1930–50-yy.	Rus tili mustaqil maorif	“Hujum”, ayol ishtiroki	Milliy odatlar cheklangan
1950–80-yy.	Rus tili hukmron	Ideologik fanlar (tarix, jamiyatshunoslik)	Milliy maktablar yopildi
1985–90-yy.	Rus tili + eski tarbiyaviy shakllar	Ideologik bo‘shliq	Yangi mustaqillik boshlanadi

Davrlar bo‘yicha ta’lim-tarbiya uslublari

Davr	Siyosiy kontekst	Tarbiyaviy yo‘nalish	Namunaviy faoliyatlar
1920–1930-yy.	Madrasalardan ijtimoiy maktablarga o‘tish	Ishchi-dehqon, chorvador tayyorlash	Mehnat maktablari, rus tili majburiyligi
1930–1950-yy.	Stalin davri, ruslashtirish	Sovet vatanparvarligi, ayol emansipatsiyasi	“Hujum” kampaniyasi, ayollar maktablari

Davr	Siyosiy kontekst	Tarbiyaviy yoʻnalish	Namunaviy faoliyatlar
1950–1980-yy.	Komsomol va ijtimoiylashuv	Ijtimoiy fanlar, kosmos idealizatsiyasi	Pioner, komsomol, fan festivallari
1985–1990-yy.	Qayta qurish, ideologik boʻshliq	Tanqidiy fikr yetishmovchiligi	Gorbachyov, liberalistik tendensiya

“Sovet oʻquvchisi” gʻoyasining shakllanishi

Yillar	Asosiy siyosiy yoʻnalish	Maqsadli tarbiya uslubi
1945–1953-yy.	Stalin davri, mehnatga tayyorlash	Lenin portretlari, vatanparvarlik sheʼrlari, zavodlarga ekskursiya
1953–1964-yy.	Xrushchyov davri, fan va texnikaga eʼtibor	Kosmos mavzulari, komsomol, fan festivallari
1964–1985-yy.	Brejnev davri, “sovetcha turmush tarzi”	Qahramonlik namunasi, davlat bayramlari, sinf rahbarlari nazorati
1985–1990-yy.	Gorbachyov davri, “Qayta qurish”	Tanqidiy fikrga yechimsizlik, gʻoyaviy parokandalik

“Sovet oʻquvchisi” konsepsiyasi komponentlari

Komponent	Tavsif
Rus tilida taʼlim	Majburiy, markaziy siyosiy taʼlim vositasi
Ijtimoiy fanlar	Fan orqali ideologik poydevor yaratish
Ayollar emansipatsiyasi	“Hujum” va mehnatga jalb etish
Pioner/Komsomol	Siyosiy turmush tarzi va tarbiya formatlari
Yangi marosimlar/rituallar	“Qizil nikoh”, “qizil dafn” soʻnggi kommunistik urgʻular

2. Gʻoyaviy-siyosiy targʻibotning shakllari:

- Darsliklarda Lenin va partiya haqidagi maxsus boʻlimlar;
- Maktablarda “Oktyabryat” va “Pioner” tashkilotlari;
- Har hafta oʻtkazilgan “siyosiy soat”lar;
- Maktablardagi namunali kundaliklar: “Men qanday yaxshi pionerman?”

3. Mahalliy oʻzbek maktablaridagi moslashuv:

- Mahalliy anʼanalar inkor qilingan, milliy oʻziga xoslik kamsitilgan;
- Maʼnaviy-axloqiy qadriyatlar sovetcha tarbiya bilan almashtirilgan;
- Oʻqituvchilar partiya koʻrsatmalari asosida baholangan.

SIYOSIY OQIBATLAR

1. **Shaxsiyatning ifodalanishiga toʻsiqlar:** mustaqil fikrlashga yoʻl qoʻyilmagan.

2. **Milliy qadriyatlarning soʻndirilishi:** oʻzbek xalqining anʼanalari “eskilik sarqiti” sifatida talqin qilingan.

3. **Kommunistik ideologiyaga sadoqat — karyera kafolati:** koʻplab maktab bitiruvchilari partiya aʼzoligi orqali karyera qilishi mumkin boʻlgan. Partiyaga sadoqatli, tanqidsiz fikrlovchi va ijro etuvchi shaxs **sovet oʻquvchisi timsoli boʻlgan**. Millatlarga “sovet xalqi” degan umumiy nom qoʻyilgan.

XULOSA. 1945–1990-yillardagi “sovet oʻquvchisi” gʻoyasi mahalliy maktablar orqali keng targʻib qilindi. Uning natijasida insonlarning siyosiy va maʼnaviy dunyoqarashiga jiddiy taʼsir koʻrsatildi. Bugungi kunda bu merosni qayta baholash, mustaqillikdan soʻng shakllangan yangi

ta'lim g'oyalari bilan taqqoslash muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов У. История Узбекистана. Новейший период. – Ташкент: Шарк, 2000.
2. Fitrat A. O'zbekistonda maorif tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
3. Rahimov A. O'zbekistonda sovet maorif tizimi tarixi. – Toshkent: Fan, 1987.
4. Поляков Ю.А. История советской повседневности. – М.: РОССПЕН, 2016.
5. Xayit B. Sovet mustamlakachiligi va uning oqibatlari. – Turkiya: 1997.
6. Tillayev A. Maorif tizimi tarixi va ilmiy g'oyalar taraqqiyoti. – Toshkent, 2005.



QADIMGI XORAZM TILINING O'RGANILISH TARIXI

¹Ibragimov Umrbek Umarbek o'g'li, Vena universiteti
Tarix fakulteti doktoranti

²Qo'ziyeva Nodira O'ktamboy qizi, Urganch davlat
universiteti

HISTORY OF THE STUDY OF THE ANCIENT KHOREZM LANGUAGE

¹Ibragimov Umrbek Umarbek oglu, PhD student, Faculty
of History, University of Vienna

²Koziyeva Nodira Oktamboy kizi, Urgench State University

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ДРЕВНЕХОРЕЗМИЙСКОГО ЯЗЫКА

¹Ибрагимов Умрбек Умарбек оглы, докторант
исторического факультета Венского университета

²Козиева Нодира Октамбой кызы, Ургенчский
государственный университет

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm tilining o'rganilish
tarixi mahalliy va xorijiy manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, Xorazm tili, uyg'onish davri,
Tarjumoni, Bailey, Qazmini, Volin, Benzing, Henning, Zaki
Validiy.

Annotation: This article describes the history of
Khwarezmology based on local and foreign sources.

Key words: Khorezm, Khwarezmian language, renaissance,
Tarjumani, Bailey, Kazmini, Volin, Benzing, Henning, Zeki-Velidi.

Аннотация: В данной статье описывается история
изучения хорезмского языка на основе местных и зарубежных
источников.

Ключевые слова: Хорезм, Хорезмийский язык,
Ренессанс, Таржумани, Баилей, Газмини, Волин, Бензинг,
Хеннинг, Заки Валиди.

Xorazm tili haqida qisqacha. Xorazm tili
bu O'rta Osiyodagi Xorazm vohasida, qadimgi
davrlardan to O'rta asrlargacha qo'llanilib kelingan
o'lik, ya'ni muomalada ishlatilmaydigan til
hisoblanadi va bu tilni hozirgi Xorazm shevasi bilan
adashtirmaslik lozim. Ushbu til Hind-Yevropa tillar
oilasi, Eroniy tillar turkumi, Sharqiy Eroniy tillar

guruhiga kiradi. Tilning yakuniy qo'llanilish davri
haqida aniq ma'lumotlar deyarli yo'q. Ko'pchilik
tadqiqotchilar Xorazm tilining o'lik tilga aylanishini
XIII asrda bo'lgan deb ta'kidlashadi, lekin tilning
qo'llanilish davrini XV-XVI asrgacha deb
hisoblashimiz mumkin. Aynan shu davrdan
e'tiboran, bu til insonlar yodidan o'chdi, uning



<https://orcid.org/0000-0001-8212-0900>

e-mail:

umrbektagan@gmail.com



<https://orcid.org/0009-0005-53751718>

e-mail:

nadiraoktamavnaa@gmail.com



o'rnini turkiy til egalladi. Bir vaqtlari Xorazm tilida so'zlashgan insonlar endilikda, to'liq, turkiy tilning o'ziga xos Xorazm shevasida muloqot qila boshladilar.

Yevropada uyg'onish davrida Sharqqa nisbatan qiziqish ortib borishi natijasida ko'pchilik olimlar Sharq tarixini qaytadan tadqiq eta boshladilar. Bu izlanishlar natijasida olimlarga O'rta Osiyoda so'g'd, xo'tan, parfiyoniy tillari mavjud bo'lganligi ayon bo'ldi. Ammo Xorazm tilining qayta kashf qilinishi XX asrning 20-yillariga borib taqaladi.

Dastlabki izlanishlar. Xorazm tiliga oid dastlabki topilgan manba bu at-Tarjumoniylar taxallusli olimga tegishli bo'lgan islomiy fiqhga oid "Yatimat ad-Dahr" asari edi [4:203]. Asar 1266/67-yilda yozilgan bo'lib, nikoh, ajrim, qasam kabi mavzular bo'yicha Xorazm tilida, arab alifbosida, yozilgan aniq shakl (formula) lardan iborat [9:79]. Asar, garchi, ilm ahliga ertaroq ma'lum bo'lgan bo'lsa-da, undagi so'zlarning tarjimasi berilmaganligi sababli olimlar unga tushunmadilar va asar uzoq vaqt Istanbul kutubxonasining yangi va qattiq shikast yetgan asarlar bo'limida qolib ketdi.

Xorazm tilini o'rganishning haqiqiy ibtidosi 1927-yili Ahmad Zaki Validiy To'g'on yuqorida aytib o'tgan asarni tarjima qilishi bilan boshlandi [6:540]. Zaki Validiy asardagi 40 ta so'z, ya'ni, 13 ta jumlaning tarjima qilishga erishgan edi [13:9]. Ayni shu davrdan boshlab lingvistikada o'ziga xos Xorazmshunoslik (Khwarezmology) yo'nalishi yuzaga kela boshladi.

Ushbu mavzuni o'rganishga Zaki Validiydan so'ng buyk nemis olimi V.B.Henning kirishdi va u sohaga oid dastlabki maqolasini 1936-yili nashr ettirdi [8:30]. Uning bu ishidan chorak asr o'tgach H.V.Bailey, 1961-yili Zaki Validiy va Henning haqida "sekin-asta paydo bo'layotgan xorazmliklar" deya ta'rif bergan edi.

Shuni aytib o'tish kerakki, yuqorida ta'kidlab o'tgan olimlar ushbu tilning dastlabki tadqiqotchilari sifatida, Xorazmda fors va eski o'zbek alifbolaridan farqlanuvchi, arab imlosi asosida tuzilgan, 34 harfdan iborat alifbo amal qilganini ham kashf etdilar. Bu alifbo tilning o'ziga xos jihatlari asosida shakllangan va fors alifbosiga

qo'shimcha ikki harf qo'shish bilan hosil bo'lgan edi. Bu harflarning dastlabkisi lab-lab "β" tovushini ifodalovchi ف harfi bo'lsa, ikkinchisi tish tovushi bo'lmish "c" tovushini ifodalash uchun چ harfi edi. Darhaqiqat, Xorazmda alohida alifbo mavjud bo'lgani haqida XI asr tarixchisi Bayhaqiy ham o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan edi.

Garchi biz sanab o'tgan olimlar o'z asarlarida Xorazm tilini o'rganish uchun ko'p sa'y-harakat qilsalar-da, hanuzgacha izlanuvchilar uchun tuzukroq ma'lumot bera oladigan manbalar aniqlanmaganligi ularning ishiga ancha g'ov bo'layotgan edi. Ammo 1936-yili Astraxandan Sank-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutiga yuborilgan bir qancha qo'lyozmalar orasidan XIII asrda yashagan xorazmlik fiqhshunos Najmiddin Aburajja Muxtor az-Zohidiy al-Qazminiyning XIV asrda ko'chirilgan "Kunyat al-Munya" asarining topilishi tilni o'rganishda keskin o'zgarishlar qila oldi. Asar Xorazm tilida yozilgan bo'lib, nikoh, ajrim, qasam kabi mavzularga oid fatvolarni o'z ichiga oladi. Qo'lyozmada 3000 tacha Xorazm tilidagi so'z qo'llanilgan bo'lib, so'zlarga ko'rsatkichlarning qo'yilishi ularning o'qilishini osonlashtirgan. Asarning eng qimmatli tomoni shundaki, kitob yakunlangach uning oxiriga, keyinchalik, Jalol al-Imodiy ismli shaxs tomonidan 22 varaqdan iborat uchta alohida qo'shimcha matn kiritilgan. Bu matnlarda alohida lug'atlar ham bo'lib, ular ushbu asarda uchrovchi Xorazm tilidagi so'zlarning arabcha va tojikchadagi tarjimalarini o'z ichiga oladi. So'nggi qo'shimchalar Imodiy tomonidan XIV asrda kiritilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlar shundan darak beradiki, Xorazm va unga tutash So'g'd tillari XIII–XIV asrlarda, garchi o'z boshlaridan kuchli turkiylashish jarayonini o'tkazayotgan bo'lsalar-da, hali o'lik tilga aylanmagan va qo'llanilish doirasi ancha keng bo'lgan. Chunki bu davrda kitob yozish va uni ko'chirish ancha katta kuch va mablag' talab qilgan, albatta bu ish shu kitobga bo'lgan talab katta bo'lsagina amalga oshirilgan. Keyingi davrlarda mo'g'ullar bilan birga ko'plab turkiy xalqlarning, qabilalarning O'rta Osiyoga kirib kelishi jarayonida bu yerdagi so'nggi Sharqiy Eroniy xalqlar, jumladan, xorazmiylar va so'g'diylar

assimilyatsiyaga uchradi. Bu jarayon Shayboniylarning Movarounnahrni egallashi bilan o'z poyoniga yetdi. Chunki shu davrdan biz Xorazm va yoki So'g'd tilidagi asarga yoki shular bilan bog'liq tarixiy holatga duch kelmaymiz. Masalan, yuqorida ta'kidlab o'tgan XIII asrda yozilgan Qazminiyning asariga XIV asrda Imodiy tomonidan arab va tojik tillarida izoh berishi, Xorazm tilining so'zlashuv doirasi ancha torayib qolganini ko'rsatar edi. XV-XVI asrlarga kelib, Xorazm tili to'liq o'lik tilga aylanadi, So'g'd tili esa o'zining bir shevasi bo'lmish yag'nobiy tili shaklida to hozirgi kungacha tor doirada qo'llanilib kelinmoqda[13:10].

Yuqorida ta'kidlab o'tganimiz Qazminiyni asarining topilishi rus eronshunos olimlarida katta qiziqish uyg'otgan va S.L.Volin 1939-yilgacha aniqlangan Xorazm tiliga oid barcha qo'lyozmalar haqida o'zining tadqiqotini e'lon qilgan[9:80].

Tolstov va uning faoliyati. Ayni shu 30-yillarning oxiriga kelib S.P.Tolstov boshchiligida Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining ish boshlashi ham hududga oid ko'pgina jumboqli savollarga yechim topa oldi. Shuningdek, ekspeditsiya Beruniy asarlarida yozib o'tilgan osori-atiqalarning haqiqatdan ham bo'lganini isbotlay oldi. Ayniqsa, S.P.Tolstov tomonidan Qo'yqirilgan qal'adan oromiy imlosi asosidagi Xorazm yozuvida yozilgan idishning topilishi Xorazmiologiyada katta izlanishlarga yo'l ochib bera oldi. Endilikda nafaqat Xorazm-arabiy, balki yangi topilayotgan Xorazm-oromiy manbalari ustida katta tadqiqotlar boshlandi. Bunday tadqiqotlardan eng kattasi Tuproqqal'a saroy arxivi topilishi munosabati bilan, undagi hujjatlar ustida olib borildi. Hujjatlarni dastlab S.P.Tolstov o'qib, o'z asarida nashr etdi[10:89]. Keyinchalik bu arxiv ustidagi tadqiqotlar yana davom ettirildi, unda S.P.Tolstov, A.V.Livshits, B.I.Vaynberg, Abayev, V.B.Henning, Rapoport, Nerazik kabi olimlar faol qatnashdilar. Yakuniy xulosalar esa "Топрак-кала Дворец" asarida e'lon qilindi[11:274].

Ikkinchi jahon urushidan so'ng qo'lyozma asarlarni tadqiq etish yana jonlandi. Jumladan, 1951-yili Zaki Validiy, Konyada saqlanayotgan 1135/36-yilda yozilgan Zamaxshariyning Xorazm tilidagi "Muqaddimat ul-Adab" asarining glossariy

(tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'ati)ni tuzdi[5:6]. V.B.Henning ta'rificha asar har bir tadqiqotchi uchun juda yaxshi manba vazifasini o'tay oladi, chunki arab alifbosidagi asarni o'qish juda mushkul bo'lib, oddiygina "uy" ma'nosini anglatuvchi "pvk" (pavak) so'zining arabiy imlodagi shaklini 36 xil usulda, "u o'zgargan edi" so'zining ma'nosini beruvchi "nyvyd" so'zini 2640 xil usulda o'qish mumkin edi. Zaki Validiy esa o'z lug'atida har bir so'zga ko'rsatkichlar, izohlar va diakritik belgilarni berish orqali ko'p muammolarga yechim topib bergan edi. Zaki Validiy bu nusxani e'lon qilgach, uning ustida o'zidan boshqa deyarli hech kim alohida tadqiqot olib bormadi. Faqatgin 60-yillarga kelib dastlab Germaniya Federativ Respublikasining Istanbuldagi konsuli, keyinchalik Mayns Universiteti professori bo'lib ishlagan J.Benzinggina bu ishga qo'l urdi. Benzing aslida turkshunos olim bo'lib, u hozirgi Xorazm shevasini to'liq anglash uchun uning ajdodi, eroniy Xorazm tilini o'rganish zarurligini anglagan holda ushbu asarni o'rgana boshlagan. Uning izlanishari haqida quyiroqda alohida to'xtalib o'tamiz.

Yana shu yili, ya'ni 1951-yili rus tadqiqotchisi A.A.Freyman ham o'zining Xorazm tiliga oid 1937-1941-yillari nashr qilingan to'rtta maqolasi va 1939-1948-yillari nashr etilgan turli asarlarini jamlagan ikki qismdan iborat "Хорезмийский язык" asarini chop ettiradi[13:7]. Asarning birinchi qismi yuqoridagi to'rt maqola, Qazminiyni "Kinyat al-Munya" asaridagi 6 bobning to'liq grammatik va leksikografik tahlilini o'z ichiga oladi. Asarning ikkinchi qismi esa, Xorazm tili leksikasiga bag'ishlanadi. Ammo aytib o'tish kerakki, muallif asari yozilgan paytda Sovet Ittifoqida Stalinizm o'zining avj pallasida bo'lgan va shu sababli Freyman o'z asarida ushbu tilni o'rgangan, biroq o'sha paytdagi Sovet davlatining "eski dushmanlari"ning nomlarini keltirmay o'tadi. Masalan, Xorazm tilini o'rganish tamal toshini qo'ygan Zaki Validiy ismi asarda biron marotaba ham keltirilmay o'tilgan.

Rus tadqiqotchilaridan yana biri, M.N.Bogolyubov ham o'z ilmiy izlanishlari bilan Xorazm tiliga oid ayrim grammatik muammolarni hal etishda o'z hissasini qo'shib bordi[12:81].

Ushbu qilingan ilmiy izlanishlar natijasida Xorazm tilini o'rganish va tadqiq etish anchayin o'sgan bo'lsa-da, 60-yillarga kelganda kimdir bu ishlarni kengroq tahlil etishi va umumlashtirishi zarurati yetilib kelgan edi. Shunday vaziyatda bu vazifani eronshunos olimlardan ko'ra bir qadam oldinda bo'lgan nemis turkshunos olimi J.Benzing 1968-yili amalga oshirdi[2:10]. U shu yili Xorazm tilida bitilgan "Muqaddimat ul-Adab"ning boshqa bir nusxasini keng jamoatchilikka ma'lum etadi va u haqidagi o'z qarashlarini ham beradi. Ammo uning qilgan tadqiqotlari ayrim eronshunos olimlarga maqbul kelmadi va tanqidlarga uchradi. Hatto D.N.MakKenzie o'z asarlarining birida Benzingga nisbatan "Har kim Xorazmiologist bo'lib qolyapti", deb tanqid ham qilgan edi. Bu kabi tanqidlar ham asosli bo'lib, Benzing o'z ilmiy tadqiqotida shu kungacha tuzilgan ilmiy qoliplarni cheklab o'tgan holda, o'zining ilmiy qarashlarini ko'proq namoyon qilgan edi. Shunday bo'lsa ham, uning xatolarini kechirsa bo'ladigan yagona sababi bu uning eski "sehrli tizginlar"ni bo'shata bilgani bo'ldi.

Shu o'rinda yana bir jihatga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganimiz kabi, J.Benzingga norozilik bildirgan olim D.N.MakKenzie o'z asarida ilk bora "Xorazmiologist" atamasini qo'llaydi, bu esa XX asr 60-yillari oxiriga kelib fanda o'ziga xos "Xorazmiologiya" (Khwarezmology) sohasi Xorazm tilini o'rgnuvchi alohida lingvistik fan sifatida to'liq shakllanib bo'lganini ko'rsatadi. Uning tamal toshini esa 1927-yili Zaki Validiy To'g'on qo'ygan edi.

J.Benzing o'zining oldiga qo'ygan maqsadi sifatida keyingi yillarda ham ushbu mavzuda ishlashni davom ettirgan holda, "The Khwarezmian Glossary" asarini nashr ettiradi, ammo bu ham D.MakKenzie tomonidan tanqid qilinadi. Shu bilan bir vaqtda V.B.Henningning "A Fragment of Khwarezmian Dictionary" – "Xorazmcha-inglizcha lug'at"i ham ommaga taqdim etiladi. Afsuski, bu vaqtda V.B.Henningning o'zi vafot etgan bo'lib, kitob undan qolgan o'ziga xos meros edi. Uning lug'ati 260 ta matn, ya'ni maqoladan iborat bo'lib, keyinchalik D.MakKenzie unga qo'shimcha 300 ta

maqola kiritdi va to'ldirilgan bu lug'at Xorazmiologiyada Supplement (qo'shib mukammallashtirilgan) nomini oldi.

Keyingi davrlarda Xorazmiologiyada eng asosiy muammo bu oromiy va arab imlosidagi so'zlarni yagona lotin alifbosiga o'tkazish va transliteratsiya ishlari bo'ldi. Transliteratsiya ishlarida "Muqaddimat ul-Adab" asarining variantlari va g'arbdagi ko'pchilik olimlarga ma'lum bo'lmagan "Kunyat al-Munya" asarlariga ko'proq murojaat etildi. Biroq asarlardagi turli harflarda nuqtalar joylashuvining o'zgarishi transliteratsiyada ayrim muammolarni keltirib chiqarib, olimlarning ikki guruhga ajralishiga olib keldi. Birinchi guruh to'liq transliteratsiya, ya'ni so'zning unlilar va so'zni o'qish uchun ko'rsatkichlar berilgan mukammal shaklini yaratish tarafdorlari edilar, bunda olimlar ko'plab qiyinchiliklarga duch kelganlar, chunki so'zning to'g'ri va to'liq talaffuz etilishini ko'rsatish uchun shu so'zning arab imlosidagi variantida nuqtalar va harakatlar berilishi kerak bo'lgan. Ikkinchi guruh olimlar esa xom transliteratsiya tarafdori edilar, ular berilgan so'zdagi harflarning arabiy imlodagi shaklini to'gridan-to'g'ri lotin imlosiga o'tkazib, uning ma'nosiga izoh berish bilan kifoyalanganlar. Jumladan, MakKenzie va Benzinglar ham shu yo'ldan ketganlar.

Xotima. XX asr 80-yillaridan boshlab Xorazm tilini o'rganish pasaya boshladi. Asosiy tadqiqotlar tilning grammatikasi yoki uning lug'atini ishlab chiqishga emas, Xorazm tilida Xorazm-romiy alifbosida yozilgan hujjatlarni o'qish va ularni tarjima qilishga qaratila bordi. Shunday bo'lsa-da 80-90-yillarda ham Xorazm tilining lug'atini ishlab chiqishga oid bir qancha ishlar olib borildi. Jumladan, J.Benzing 1983-yili "Xorazmcha so'zlar indeksi" nomli xorazmcha – nemischa lug'at ishlab chiqdi. Aslida asar 1972-yiliyoq tayyor bo'lgan bo'lib, avvalgi asaridagi kabi xatoliklar bo'lishi vaji sabab lug'at nashrga berilmagan edi. Faqatgina 1983-yili Helmut Humbaxning shaxsiy tashabbusi va ilmiy ko'magi asosida bu asar nashriga ruhsat berilgan[1:7]. Bundan tashqari shu davrda Helmut Humbax[3:193] va D.N.MakKenzie[7:9] kabi

olimlar ham yana bir qancha ilmiy ishlarini eʼlon qilganlar. Soʻnggi vaqtlarda Xorazm tili va uning bilan bogʻliq boshqa masalalar ustida olimlarimizdan M.Isʼhoqov va A.Matniyozovlar oʻz ilmiy izlanishlarini olib bormoqda[14:35].

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Benzing Johannes. Chwaresmischer Wortindex. Otto Harrasowitz-Weisbaden. 1983.
2. Benzing Johannes: Das chwaresmische Sprachmaterial einer Handschrift der Muqaddimat ul Adab. I. Text. Weisbaden 1968.
3. Humbach, Helmut: Choresmian in: *Compendium Linguarum Iranicarum*, 193–203, hrsg. von Rüdiger Schmitt, Wiesbaden 1989.
4. Islamica, III, 1927.
5. Khorezmian Glossary of the Muqaddimat al-Adab. Edited by Zeki Velidi Togan. Istanbul. 1951.
6. MacKenzie D.N. Khwarezmian Glossary-I, BSOAS 33. 1970.
7. MacKenzie, D.N.: The Khwarezmian element in the *Qunyat al-munya*, London 1990.
8. Über die Sprache der Chvarezmier. ZDMG, xc, 1936, S 30-34.
9. Волин С.Л. Новый источник для изучения хорезмийского языка. Зап. Инст. востоков. АН СССР, т. VII, 1939.
10. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. Издательство восточной литературы. М. 1962.
11. Топрак-кала дворец. Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции, XIV Издательство Наука, Москва 1984.
12. Ученье записки Ленинградского Государственного Университета 305, 12, (1961), pp. 81-84 ;306, 16 (1962), pp. 6-15. Народы Азии и Африки 1961, 4, 182-187. – Краткие Сообщения Института Народов Азии 67 (1963), pp. 99-103.
13. Фрейман А.А. Хорезмийский язык. Издательство АН СССР. Москва-Ленинград. 1951.
14. Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида. – ЎзР ФА Археология институтида 2016 йил 28-29 апрелда ўтказилган ёш олимларнинг Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 25 йиллигига бағишланган Республика конференцияси материаллари. Самарқанд – 2016.



LIRIKADA JANR MASALASI POETIK MUAMMO SIFATIDA

*Bozorova E'zoza Baxriddin qizi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

THE ISSUE OF GENRE IN LYRIC POETRY AS A POETIC PROBLEM

*Bozorova E'zoza Baxriddin qizi, Doctoral student Tashkent state
university of uzbek language and literature named after
Alisher Navoi*

ЖАНРОВАЯ ПРОБЛЕМАТИКА В ЛИРИКЕ КАК ПОЭТИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

*Бозорова Эъзоза Бахриддин кызы, докторант Ташкентского
государственного университета узбекского языка и
литературы имени Алишера Навои*

Annotatsiya: Mazkur maqolada lirik tur janrlari poetik muammo sifatida o'rganilgan. She'r janrini aniqlashda asar mazmuni hamda shakliy tomoni asos qilib olingan prinsiplar tahlil qilingan. Zamonaviy she'riyatda janr masalasida turlicha qarashlar mavjudligi xususida fikr yuritilgan. Asos sifatida bir qancha adabiyotshunos olimlarning janrga oid tasniflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: poetika, janr, meditativ lirika, tavsifiy lirika, ijroviy lirika, personajli lirika, mazmun hamda shakl.

Abstract: This article examines the genres of lyric poetry as a poetic problem. The principles for determining the genre of a poem—based on both its content and formal characteristics—are analyzed. The study highlights the existence of diverse approaches to genre in contemporary poetry. The analysis is grounded in the genre classifications proposed by several literary scholars.

Keywords: Poetics, genre, meditative lyric, descriptive lyric, performative lyric, character-based lyric, content and form.

Аннотация: В данной статье жанры лирики рассматриваются как поэтическая проблема. Проанализированы принципы, лежащие в основе определения жанра стихотворного произведения, с учетом как его содержания, так и формы. Отмечено наличие различных подходов к проблеме жанра в современной поэзии. В качестве основы приведены классификации жанров, предложенные рядом литературоведов.

Ключевые слова: поэтика, жанр, медитативная лирика, описательная лирика, исполнительская лирика, лирика с персонажем, содержание и форма.

KIRISH. Lirika inson qalbining so'z adabiy tur nomining paydo bo'lishi yunon tilidagi orqali tajassum etilgan go'zal qiyofasidir. Ushbu "Lira" deb atalgan torli cholg'u asbobi bilan



<https://orcid.org/0009-0003-5283-2458>

e-mail:
Bozorovaezoza56@gmail.
com



bog‘liq bo‘lib, u “Musika jo‘rligida ijro etiluvchi she‘r”¹ ma‘nosini anglatadi. Lirikaning bir qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. U kechinma va ritmga tayangani uchun, asosan, she‘riy shaklda yoziladi. Ammo nasriy yo‘lda yozilgan lirik asarlar ham borki, ularni kechinmalar to‘lqini kuchli bo‘lganligi sababli she‘r qolipiga sig‘may qolgan, deb baholash mumkin. Lirikada tasvirlangan voqelik ma‘lum bir tuyg‘uni ifodalash uchun detal sifatida xizmat qiladi. Voqea-hodisa ta‘sirida yuzaga kelgan hissiyot, ko‘pincha, oniy ekanligidan aksariyat lirik asarlar hajman kichik bo‘ladi. Ular bir subyektning ko‘ngil kechinmalarini aks ettirgani holda monologik nutq shaklida yoziladi. Lirik asarlarda uchraydigan dialogik nutq ma‘no jihatidan monologik nutqning bir qismi hisoblanadi. Bu adabiy tur vaqt nuqtayi nazaridan hozirgi zamonni ifodalaydi. Chunki davrlar o‘zgarsa ham, insoniy kechinmalar o‘zgarmaydi. Lirik asarlar qaysi vaqtda yozilgan bo‘lmasin, o‘quvchi uchun ayni vaqtda qalbdan kechayotgan tuyg‘u sifatida qabul qilinadi. Uning xarakterli jihatlaridan yana biri boshqa adabiy turlar tarkibida ham bimalol qo‘llanilishidir. Mazkur jihat ushbu turning hamma joyda hozirligi, kirishuvchanlik xarakteriga ega ekanligini ko‘rsatadi. Lirikaga munosabat ilk bor antik davrning Aflotun va Arastu kabi faylasuflari tomonidan bildirilgan. “... Aflotun poeziyaning bu turi “to‘laligicha shoirning aytganlaridan iborat” desa, Arastu fikricha, poeziyaning bu turida “taqlid qiluvchi qiyofasini o‘zgartirmagan holda” taqlidni amalga oshiradi”². Epik turda inson voqea-hodisalar ichida bo‘lsa, dramatik turda voqealarni boshqaradi. Lirik tur esa insonni asliyat bilan qoldiradi, ya‘ni ijodkor bu jarayonda o‘z ichki olamiga, kechinmalarga murojaat qiladi. Yunon faylasuflarining yuqorida qayd etilgan fikrlari lirikaning mazkur xususiyatini nazarda tutgan. Hissiy fikr bilan ish ko‘rish lirik turni o‘ziga yondosh ikki adabiy tur – epos va dramadan ajratib

turuvchi eng muhim omil sanaladi. Uning boshqa xususiyatlari ham hissiy fikr ta‘sirida yuzaga keladi. Janr, kompozitsiya, she‘riy tizim, syujet, obraz, badiiy san‘atlar kabi lirik asar poetikasi komponentlari aynan lirik kechinma tabiatiga bog‘liq. Shu o‘rinda, “Poetika” istilohiga ahamiyat qaratsak. Bu termin “keng ma‘noda adabiyot nazariyasini, tor va hozirda ko‘proq qo‘llanilayotgan ma‘noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi, adabiy asar haqidagi ta‘limot”³ni ifodalaydi. Antik davrlardan boshlab, adabiyot nazariyasi ma‘nosini bildirgan poetika XX asrning birinchi choragiga kelib o‘z ma‘no ko‘lamini toraytiradi. Jumladan, “B.V.Tomashevskiy o‘tgan asrning 20-yillarida: “Poetikaning (boshqacha aytsak – adabiyot yoki so‘z san‘ati nazariyasining) vazifasi adabiy asar qurilishi usullarini o‘rganishdan iboratdir. Poetikaning obyekti – badiiy adabiyot”, – deb yozarkan, poetikani adabiyot nazariyasiga sinonim tarzida ishlatga-da, uning vazifasi adabiy asar qurilishi usullarini o‘rganish”, deb ta‘kidlaydi. Shuning o‘zidayoq poetikani adabiyot nazariyasining maxsus sohasi sifatida tushunishga moyillik kuzatiladi”⁴. M.M.Baxtin ham sotsiologik poetika xususida fikr bildirganda “Adabiy asar nima? Uning strukturasi qanday? Bu strukturaning elementlari qaysilar, ularning funksiyalari nimalardan iborat? Janr, uslub, syujet, mavzu, motiv, qahramon, metr, ritm, melodika va hokazo – nima?” kabi masalalarni o‘rganish”⁵ poetikaning zimmasida ekanligini aytadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikka qadam qo‘yilayotgan bu davrda poetikaga adabiyot ilmining bo‘lak tarmog‘i sifatida qarashga muhim ehtiyoj bor edi. Boisi ijtimoiy hayotda ro‘y bergan o‘zgarishlar badiiy ijodda ham o‘zini namoyon qilardi. Ushbu maqolada mazkur hodisani lirik tur janrlari taraqqiyoti misolida o‘rganamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Jahon adabiyotshunosligida lirikaga xos janrlar u yoki bu munosabat bilan muayyan darajada tadqiq etilgan bo‘lishi tabiiy.

¹ Жамол Камол. Лирик шеърят. – Тошкент: Фан, 1986. – Б.7.

² Курунов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.152.

³ Курунов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.233.

⁴ Ko‘rsatilgan manba. – Б.233.

⁵ Ko‘rsatilgan manba. – Б.234.

Biz muammoga hozirgi o'zbek she'riyati janrlari nuqtayi nazaridan yondashamiz. Bu borada G.N.Pospelov, I.Sulton, N.Shukurov, J.Kamol, T.Boboyev, D.Quronov kabi olimlarning lirik janrlar masalasiga oid fikrlariga tayanamiz. Mavzuni qiyosiy-tarixiy va sotsiologik metodlar asosida tahlil qilamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Adabiy jarayonda “Janr” (fransuzcha “genre” – jins, tur, xil) termini bir-biriga o'zaro yaqin bo'lgan bir qancha ma'nolarni ifodalab kelgan. Dastlab “adabiy tur” sifatida qo'llangan bu termin keyinroq turlar tarkibidagi muayyan guruhni, shuningdek, ma'lum bir guruhning ichki bo'linishini ham anglatgan. Ammo bugungi kunda uning “bir adabiy tur doirasidagi umumiy xususiyatlari bilan farqlanuvchi asarlar guruhi ma'nosida qo'llanilishi kengroq ommalashgan”⁶. “Janr adabiyotning o'zak masalalaridan biridir. U – adabiyotning o'sish shakli, qahramon xarakterini yaratish tipi”⁷ hisoblanadi. Epik asarlarni janrlarga ajratishda voqelikning badiiy qamrovi, dramatik asarlarda estetik belgi ustuvorlik qilsa, lirik asarlarda, asosan, she'rning mazmun va shakl xususiyatlari e'tiborga olingan. Adabiyotshunos D.Quronov lirik asarlar janrini belgilashda mazmunning yetakchilik qilishi qadimdan mavjud bo'lganligini aytadi. Olim ushbu fikrini asoslash maqsadida umumiy belgisi “madh etish, ulug'lash” bo'lgan antik yunonlarning “difiramb”, rimliklarning “oda”, nasroniylarning “psalom”, sharqliklarning “qasida” deb nomlangan janrlarini sanab o'tadi⁸. Shaklga ko'ra janrlarga ajratish hodisasi o'rta asrlarda dunyo adabiyotida turg'un she'riy shaklning rivojlanishi natijasida yuz bergan. Yevropa adabiyotida sonet, tersina, oktava, sharq she'riyatida, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida g'azal, ruboiy, tuyuq, musammat, mustazod kabi qator janrlar bir-biridan bandning tuzilishi, qofiya va vazn xususiyatlariga

ko'ra farqlangan. Qat'iy qoida va me'yorlarga tayangan bu janrlarning hukmronlik mavqeyi bir necha asrlar davom etgan. XVIII asrdan boshlab, Yevropa she'riyatida janrlar o'rtasida chegara yo'qola boshlagan. Bunga G'arb lirikasida qolipga aylangan shakllarning rad etilishi, ijodiy erkinlikka intilish sabab bo'lgan. O'tgan asrning 20-yillarida o'zbek she'riyatida aruz tizimidan barmoq sistemasiga o'tish jarayoni ham janrlar tabiatida ana shunday evrilish hosil qildi. Chunki “lirik janrlar, asosan, aruz maydonida shakllangan bo'lib, ularni bor holicha barmoq sistemasiga ko'chirib bo'lmasdi”⁹. Bu davrdan hozirgacha ijodkorlar tomonidan aruzning bir qator janrlarida asarlar yaratilib kelinayotgan bo'lsa ham, barmoq va uning negizida shakllangan erkin she'r sistemasiga bugungi o'zbek she'riyatining yetakchi tizimi hisoblanadi. Har qaysi shoir lirikasi o'ziga xos yondashuvga ega bo'lganligi sababli, mazkur she'r tizimlaridagi asarlarni ma'lum shakliyl qoliplarga solib bo'lmaydi. Bu haqida adabiyotshunos T.Boboyev shunday deydi: “...poetik janrlar klassikada qat'iy norma va andozaga ega bo'lgan. Ammo hozirgi lirik she'riyatimizda, xususan, barmoq tizimida yozilgan she'rlarda bunday poetik qolip u qadar sezilmaydi. Shunga ko'ra, barmoqda yaratilgan lirik she'rlarning janr xususiyatlarini aniqlash murakkabroq masaladir”¹⁰. Mazkur muammo zamonaviy she'rlarni qadimgi davrlardagi kabi mazmunga asoslanib janrlarga ajratish kerakligi to'g'risida fikr-mulohazalarni yuzaga keltirdi. Unga ko'ra, she'rlar ishqiyl, falsafiy, ijtimoiyl, siyosiy, tabiat lirikasi kabi janrlarga bo'lindi. Ammo janriyl sistemani bunday tasniflanishiga I.Sultonov, J.Kamol, D.Quronov kabi adabiyotshunoslar tomonidan tanqidiyl munosabatlar bildirilgan. Xususan, J.Kamolning fikricha, siyosiy lirikada falsafiy momentlar, intim lirikada grajdanlik motivlari bo'lishi mumkin. Bu

⁶ Куронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.100.

⁷ Адабий турлар ва жанрлар. (Тарихи ва назариясига оид). Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. Тошкент: Фан, 1992. – Б.130.

⁸ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.391.

⁹ Жамол Камол. Лирик шеърийят. – Тошкент: Фан, 1986. – Б.56.

¹⁰ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.503.

esa mavzu asos qilib olingan tasnifni yuzaki va yaroqsiz ekanligini ko'rsatadi (Ta'kid bizniki – E.B.)¹¹. Adabiyotshunos N.Shukurov esa hozirgi lirik asarlarni she'rlarning stilistik xususiyatlari va obrazli strukturasiga tayanib, ijtimoiy-publitsistik lirika, intim lirika, ramziy lirika, voqeaband lirika, hajviy lirika kabi besh xil janrga ajratgan¹². Rus olimi G.N.Pospelov ham universal she'r shakli deb baholanadigan zamonaviy she'riyatni besh xil janr asosida o'rgangan. Olim N.Shukurov tasnifidan farqli o'laroq lirik janrlarni meditatif lirika, meditatif-tasviriy lirika, tavsifiy-tasviriy lirika, personajli lirika va bayoniy lirika deb nomlagan¹³. Keltirilgan janrlar she'rshunoslikda ma'lum darajada tizimlilikni hosil qilgan bo'lsa ham, hozirgi lirikaning janriy tizimini to'liq ifoda eta olgan, deya olmaymiz. Ammo ular lirik asarlar janri bilan bog'liq tadqiqotlar uchun asosiy manba sifatida xizmat qilib kelmoqda. Zamonaviy lirika janrlari yaxlit tizimga solinmaganligi tufayli tadqiqotlarda ham xilma-xil qarashlar kuzatiladi. Bu hodisaga barham berish maqsadida adabiyotshunos D.Quronov "Hozirgi she'riyat janrlarini lirik kechinma subyekti va obyekti nuqtayi nazaridan tasniflash maqsadga muvofiq ekanini"¹⁴ ta'kidlagan. Ushbu tasnifga ko'ra, janrlar ijroviy lirika, personajli lirika, meditatif lirika va tavsifiy lirikaga bo'lingan. Peyzaj va voqeaband lirika esa tavsifiy lirikaning alohida ko'rinishlari deb belgilangan. D.Quronov tasnifidagi janriy tuzilma o'zidan oldingi tadqiqotlar asosida shakllangani va bugungi she'riyatni keng ko'lamda qamrab olgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Umuman olganda, poetika ilmida lirikaga oid janrlar masalasi hamisha dolzarb muammolardan bo'lib kelgan. Xususan,

Ahmad Taroziyning turkiy tilda yozilgan ilk nazariy qo'llanma sifatida e'tirof etiladigan "Funun ul-balog'a" ("Yetuklik ilmlari") asaridagi birinchi qism ham she'r janrlari tadqiqiga bag'ishlangan. Mumtoz lirik asarlar muayyan qoida va qolipga asoslanganligi uchun ularning janrini belgilash zamonaviy she'riy asarlarga qaraganda qulayroq hisoblanadi. Chunki bugungi she'riyat janrlari masalasida hali tugal xulosaga kelinmagan. Mazkur jarayon janrga oid tasniflarda ham aks etgan. Ammo janriy tuzilmalar orasida meditatiflik, tavsifiylik kabi umumiy jihatlar ham ko'zga tashlanadiki, bu hodisa yaqin kelajakda lirik janrlarning yaxlit tizim sifatida shakllanishiga turtki beradi, degan umiddamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Адабий турлар ва жанрлар. (Тарихи ва назариясига оид). Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. Тошкент: Фан, 1992. – 247 б.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 503 б.
3. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986.
4. Жамол Камол. Лирик шеърят. – Тошкент: Фан, 1986. – 143 б.
5. Пospelов Н.Г. Лирика среди литературных родов. – Москва, 1976.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
7. Куронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 400 б.
8. Шукуров Н. Услублар ва жанрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 96 б.

¹¹ Жамол Камол. Лирик шеърят. – Тошкент: Фан, 1986. – Б.57.

¹² Шукуров Н. Услублар ва жанрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – Б.96.

¹³ Пospelов Н.Г. Лирика среди литературных родов. – Москва, 1976. Б.62-177.

¹⁴ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.391.

AMIR TEMUR VA MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY QARASHLARIDAGI ADOLAT VA DAVLAT BOSHQARUVI SOHASIDAGI UYG'UNLIK

Adilov Zafar Yunusovich, Ma'mun universiteti "Umumkasbiy fanlar" kafedrasida mudiri dotsent, f.f.d., (PhD)

HARMONY IN THE FIELD OF JUSTICE AND STATE ADMINISTRATION IN THE VIEWS OF AMIR TEMUR AND MAHMUD AZ-ZAMAKHSHARI

Adilov Zafar Yunusovich, Head of the Department of General professional subjects, Mamun University, Associate Professor, Ph.D., (PhD)

ГАРМОНИЯ В ОБЛАСТИ ПРАВОСУДИЯ И ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ ВО ВЗГЛЯДАХ АМИРА ТЕМУРА И МАХМУДА АЗ-ЗАМАХШАРИ

Адилов Зафар Юнусович, заведующий кафедрой "Общие профессиональные предметы" университета Маъмуна, доцент, кандидат философских наук, (PhD)



<https://orcid.org/0009-0003-1363-2904>

e-mail:

Zafaradilov68@gmail.com



Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmud az-Zamakhshariy va Amir Temurning davlat va jamiyat boshqaruvidagi adolat konsepsiyasi, uning inson va jamiyat munosabatlarida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mutafakkir va sarkarda g'oyalarining Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi islohotlarga qanday ma'naviy va ilmiy asos bo'la olishi xususida tahliliy yondashuv namoyon etiladi.

Kalit so'zlar: inson, adolat, tenglik, haqiqat, to'g'rilik, ilm, bilim, tinchlik va farovonlik, siyosat, boshqaruv.

Annotation: This article analyzes the concept of justice in the governance of the state and society of Mahmud az-Zamakhshari and Amir Temur, its role in human and social relations. It also presents an analytical approach to how the ideas of the thinker and commander can serve as a spiritual and scientific basis for reforms in the development strategy of New Uzbekistan.

Key words: human, justice, equality, truth, correctness, science, knowledge, peace and prosperity, politics, governance.

Аннотация: В статье анализируется концепция справедливости в государственном и общественном управлении Махмуда аз-Замахшари и Амира Темура, её роль в человеческих и общественных отношениях. Также представлен аналитический подход к тому, как идеи мыслителя и полководца могут служить духовной и научной основой реформ в стратегии развития Нового Узбекистана.

Ключевые слова: человек, справедливость, равенство, истина, корректность, наука, знание, мир и процветание, политика, управление.

KIRISH. Mahmud az-Zamaxshariy va Amir Temurning davlat va jamiyat boshqaruvidagi adolat konsepsiyasi, uning inson va jamiyat munosabatlarida tutgan o'rnini haqida gap ketganda dastavval, Az-Zamaxshariy davlatning tashqi va ichki xavfsizligini ta'minlash maqsadida hokimiyat subyektlarining barcha narsadan xabardor va ogoh bo'lishlari lozimligini ta'kidlab: "Raiyatning sirlarini tekshirishga podshohning haqqi bor, go'yoki enaga chaqalog'ini uyqusida ham tekshirib turganidek"¹, - deb yozadi.

Az-Zamaxshariy nazdida qattiqqo'llik bilan olib borilayotgan siyosatning negizini adolat, to'g'rilik, tamoyillari tashkil qilishi kerak: "Haqiqat va adolat bilan to'g'ri siyosat yurgizmagan har bir rahbar va boshliq qattiq azob-uqubat va balog'a giriftor bo'lur"². Sohibqiron Temur ham adolatli siyosat yuritish tarafdori: "Sulton har narsada adolatpesha bo'lsin"³. Agar shunday qilinmasa, bu jamiyat inqirozga yuz tutadi: "Biror mamlakat (hokimiyat) ishlarining orqaga ketishiga sabab – vabo ko'p bo'lib, tuzuklari-yu tartibotlarining susayishidir"⁴. Aynan ana shu fikrlar ikki asr o'tgandan so'ng sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari" kitobida o'z aksini topishi sharq mutafakkirlarining davlat boshqaruvida aynan bir xil pozitsiyada turganliklaridan darak beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Maqolada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" nomli asari, nutq va ma'ruzalaridan hamda I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari, Mahmud az-Zamaxshariyning "Rabi ul-abror va nusususl axbor" ("Yaxshilar bahori va xabarlar matnlari"). J.3. Bag'dod: 1975., "Nozik iboralar". – T.: Kamalak, 1992., Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1996., Ziyodulla Muqimov. Amir Temur tuzuklari (tarixiy-huquqiy tadqiqot). Ikkinchi to'ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008. va

I.Mo'minov. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rnini va roli. - T.: FAN, 1993. Kitob va darsligidan hamda internet saytlardan foydalanilgan. Foydalanilgan materiallar maqolaning ilmiyligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Maqolada tarixiylik, mantiqiylik va vorisiylik va sinergetik ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA. Mahmud az-Zamaxshariy siyosiy adolat nazariyasi jamiyatni mo'tadil yashashi va taraqqiy etishi uchun amaliy kuchga ega ekanligini quyidagicha ifodalaydi: "Adolat cho'qqidagi qo'rg'ondir. Uni sel oqizolmas, sel buzolmas"⁵. O'z fikrini qo'llab-quvvatlash maqsadida Aristotelning ham bu boradagi fikrini keltirib o'tadi: "Adolat go'zallikdir va u barcha go'zalliklarning sababchisidir, shuning uchun ham go'zallik har bir mo'tadillikda mavjuddir. Javr xunuklikdir va u barcha xunukliklarning sababchisidir, shuning uchun ham xunuklik har bir mo'tadillikdan tashqarida mavjuddir"⁶.

Jumladan, Temur o'z tuzuklarida mazkur fikrga muvofiq tarzda yozadi: "Yana tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar to'ra tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xshaydirm, uni ko'rgan har kimsa (undan) nigohini olib qochadi. Yoxud har xil qalang'i-qasang'i odamlar tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi"⁷.

U hokimiyat subyektlarida adolat tamoyiliga rag'bat uyg'otishni istaydi. Mashhur tarixiy shaxslarning bu borada bildirgan fikrlariga murojaat qiladi. Jumladan, sosoniylar hukmdori Ardasherining "Agar shoh adolatga rag'bat qilsa, xalq unga itoat qilishlikka rag'bat qiladi"⁸ – degan fikrini dalil qilib keltiradi. Az-Zamaxshariy adolat tamoyiliga shu qadar katta e'tibor qaratadiki, uni davlatning yashash qonuniyatlaridan biri deb tushuntiradi va "Sulton adolatli bo'lgan yerdagina

¹ Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. "Рабиъ ул-аброр ва нусусул ахбор" ("Яхшилар баҳори ва хабарлар матнлари"). Ж.3.Бағдод: 1975. – Б. 219.

² Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. Нозик иборалар. – Т.: Камалак, 1992. – Б. 77.

³ Темур тузуклари. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1996. – Б. 86.

⁴ Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. Нозик иборалар. – Т.: Камалак, 1992. – Б. 51.

⁵ Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. "Рабиъ ул-аброр ва нусусул ахбор" ("Яхшилар баҳори ва хабарлар матнлари").Бағдод:.. Ж. 3. – Б. 74.

⁶ Ўша асар. Ж. 3. – Б. 76.

⁷ Темур тузуклари. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1996. – Б. 72.

⁸ Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. "Рабиъ ул-аброр ва нусусул ахбор" ("Яхшилар баҳори ва хабарлар матнлари"). Ж. 3. Бағдод: 1975. – Б. 74.

hayot bo'ladir"⁹, - deb yozadi. Suqrotning "Inson xursandchiligining manbai mo'tadil qalb bo'lsa, olam xursandchiligining manbai adolatli shohdir. Inson xafagarchiligining manbai o'zgaruvchan mijoz bo'lsa, olam xafagarchiligining manbai adolatsiz shohdir"¹⁰, - degan fikrini keltirishi az-Zamaxshariyning adolat tamoyili tomonida ekanligini ko'rsatadi.

Az-Zamaxshariy davlat va jamiyatning inqiroziga sabab bo'luvchi ildizlarni izlashga harakat qiladi. Deyarli barcha zamonlarda insoniyatni tashvishga solib kelgan muammo – poraxo'rlik borasida ham to'xtalib o'tishni lozim topadi.

Jamiyatni ichdan yemiradigan, uni halokat yoqasiga yetaklaydigan va jamiyatda turli nizo-yu noroziliklarni keltirib chiqaradigan narsa az-Zamaxshariy fikricha – bu pora. Pora ildiz otgan har qanday jamiyat buzuvchi jamiyatdir. Turli nohaqliklarni keng avj oldiradigan, zulmga keng yo'l ochuvchi ham poradir. Az-Zamaxshariy bu haqda shunday yozadi: "Pora faqat nohaqligini zolimlarga yordam berguchidir"¹¹. U yana o'z qarashlarida davom etib, fikrini din bilan bog'lab, payg'ambar hadisi bilan ham mustahkamlashga harakat qiladi: "Islom dinida ikki "shin"¹² harflari katta ayblardandir, biri – hokimlarga rishvat (pora berish ham, olish ham), ikkinchisi ayblilarga shafolat qilish. Gap shuki, payg'ambar alayhissalomdan: "La'ana-l-lohu-r-roshiy va-l-murtashiy", ya'ni rishvat (pora) oluvchiga ham, beruvchiga ham Olloh la'nat aytadi", degan hadisi sharif sodir bo'lgandir"¹³.

Shunday yomon ishlar ko'paygan mamlakatda fisq-u fujur ko'payadi. Az-Zamaxshariy fikricha: "Fisq-u fasod qiluvchilar va fojirlar ko'paysa, Olloh taolo vabo yuboradi"¹⁴. Amir Temur ham xuddi shu kabi qarashga ega. U yozadi: "Biron mamlakatda jabr-zulm va fisq-u fasod kuchayib ketar ekan, asl podshohlar adolat o'rnatishib, fisq-u fasodni, zulmni yo'qotish

niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim"¹⁵.

NATIJALAR. Amir Temur qarashlariga ko'ra saltanatni boshqarishda 12 tamoyilga asoslanish kerakligini uqtirgan. Ular mamlakat yaxlitligi va mustahkamligining asosini tashkil qiladi. Ular quyidagilar¹⁶:

Birinchidan, dastavval u qonun va tartib-qoidalarga qat'iy amal qilgan, Yaratganning oliyligini tan olgan, shariat rivojini milliy va jahon miqyosida targ'ib qilib, Rasulullohning e'tiqodiga sodiqligini tasdiqlagani uchun o'zini mutlaq suveren deb bilmaydi;

Ikkinchisidan, u o'n ikki xil sinf va urug'larning hamkorligi orqali xalqni boshqaradi, deb ta'kidlaydi.

Uchinchidan, uning maqsadi biror xalqni zabt etish yoki g'alaba qozonish bo'lishidan qat'i nazar, u maslahat, maslahat, tashabbus, tirishqoqlik va ehtiyotkorlikni birinchi o'ringa qo'yadi va boshqaruvda murosa, mo'tadillik, xayrixohlik va sabr-toqatni afzal ko'radi. Uning fikricha, monarx, garchi keng bilimga yega bo'lsa ham, o'zini jaholatga o'xshatishi kerak. Davlatning juda ko'p nozik tomonlari tufayli ular tuzog'iga tushib qolishdan qochish kerak. Bu millat va uning aholisini mustamlakachi kuchlar tomonidan bo'ysundirilmasligi va kamsitilmasligi, ularning qadr-qimmatini, obro'-e'tibori va sha'niga putur yetkazmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Agar davlat rahbarlari davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini o'rnatolmasalar, bunday davlat fuqarolari oxir-oqibatda katta qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Binobarin, Amir Temur har bir amir, bek va askarga o'z maqomiga yarasha hurmat-ehtirom ko'rsatgan va muhim sharti shundaki, ular o'z lavozimlaridan tashqari hokimiyatni talab qilishdan tiyilishgan. "Cho'pon ko'paysa, qo'y keraksiz nobud bo'ladi", deyishadi. Muhtaram Temurbek vaziyatning mana shu jihatini anglab, tuzum o'rnatdi, davlatchilikning nozik mavzu yekaniidan o'zini ham, o'zgalarni ham

⁹ Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. "Рабиъ ул-аброр ва нусусул ахбор" ("Яхшилар баҳори ва хабарлар матнлари"). Ж. 3. Бағдод: – Б. 74.

¹⁰ Ўша асар. Ж. 3. – Б. 77.

¹¹ Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. Нозик иборалар. – Т.: Камалак, 1992. – Б. 53.

¹² "Шин"-ш ҳарфи. Роший(пора берувчи) Мурташи (пора олувчи) сўзларидаги "ш" ҳарфига ишора.

¹³ Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. Нозик иборалар. – Т.: Камалак, 1992. – Б. 60-61.

¹⁴ Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. Нозик иборалар. – Т.: Камалак, 1992. – Б. 50.

¹⁵ Темур тузуклари Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1996. – Б. 115.

¹⁶ Қиссаи Темур ("Малфизоти Темурий"). – Тошкент, 2000, – Б. 245.

ogohlantirdi, boshqaruvning har bir bo'lagiga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi.

To'rtinchidan, bunday imperiyaning qonun-qoidalariga rioya qilish, mansabga shaxslarni tanlashda, u o'z vakolatlarini suiiste'mol qilmasligi va boshqalarga hasad qilmasligi;

Beshinchidan, Amir Temur har bir hissiy xohish-istakni ro'yobga chiqarishga, uni boylik bilan bezashga harakat qilgan; biroq, inson o'z huquq va majburiyatlarini anglaganida, ular buni mavjudlik uchun zarur deb hisoblaydilar. Aksincha, odam o'z xohishiga ko'ra ish bilan shug'ullanmasa va yashasa, ularning motivatsiyasi, jasorati va ishtiyoqini oshirish qiyin bo'ladi. G'alabani ta'minlashda amirlar, jangchilar va mard shaxslar o'rtasidagi ahillik va do'stlik muhim ahamiyatga ega edi;

Oltingichidan, Amir Temur davlat ichidagi adolatsizlikka qarshi kurashdi. Din yo'q bo'lganda ham davlat saqlanib qolishi mumkin; shunga qaramay, u ta'qiblar sharoitida yomonlashadi. Bobur, bobosi ta'limotiga ko'ra, Hindistonni zabt yetgandan so'ng zulm emas, balki adolat poydevorini o'rnatgan, bu esa hatto eng ashaddiy dushmanlari bilan ham murosa qilishga olib kelgan, bu esa uning vorislariga uzoq muddat hukmronlik qilish imkonini bergan;

Yettinchidan, alohida fazilatli shaxslar hurmat qilinishi kerak, dadil shaxslar yaqin bo'lishi kerak va davlat ishlarida olimlar bilan aloqa qilish juda foydalidir; lekin buzuvchi va bema'ni kimsalarni muhokamadan chetlashtirish, ularning tuhmat va g'iybatlarini mensimaslik kerak.

Sakkizinchidan, Amir Temur ta'kidlaganidek, podshoh bor e'tibori va kuch-g'ayratini bir maqsad sari yo'naltirishi, u amalga oshmaguncha sa'y-harakatlarini to'xtatmasligi kerak. Agar kimdir va'da bersa, uni bajarishi kerak. U sultonlarning qadimdan to hozirgi kungacha davlatchilikka oid dasturlari, tartib-qoidalar, turmush tarzini o'rganishi, ulardan ibrat olishi kerak. U davlatning qulashi sabablarini o'rganishi va xalqlar va imperiyalarning tanazzulga uchrashiga turtki bo'lgan ochlik va kasallik kabi omillardan ogoh bo'lishi kerak. Odatda, monarxlar bunday farovonlikni tasavvur qilishadi. Bu dalil Amir

Temurning "Tuzuklar"ida belgilangan tartib-qoidalariga qat'iy amal qilib, xalqiga mana shunday hayotni ta'minlaganligini ko'rsatadi.

To'qqizinchi tamoyil ko'proq tasdiqni ta'minlaydi: "Men taniqli shaxslarni oqsoqollar, kichiklarni esa farzandlarim sifatida qabul qildim". U har bir xalqning holatini izchil kuzatib boradi;

O'ninchidan, u zotning xizmatiga qo'shilgan ko'plab qabila, elat va yurtlardan bo'lgan muhtaram zotlarni ulug'lagan, solihlarga foyda keltirgan, yomon niyatlilarni esa o'z gunohlariga bo'ysundirgan. U mag'firat so'raganlarni afv etdi;

O'n birinchidan, qolaversa, davlat idoralarini taqsimlashda ham qarindosh-urug'lari, safdoshlari, qaynonalarini ham nazardan qochirmasdi. U dushmani bilan tinch-totuv yashadi.

O'n ikkinchidan, bandalarining bay'atidan qat'i nazar, qadr-qimmatini tikladi. Shuningdek, u o'z homiysi oldidagi majburiyatlarini bajargan askarni juda hurmat qildi.

Sotqinlarni esa o'z dushmani deb bildi. Masalan, To'xtamishxonning amirlari vafodorlik va haqiqatni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, huzuriga panoh izlab kelishganda, "sohibi bergan tuz haqiga xiyonat qilganlar menga vafodorlik qilarmidi" deya ulardan yuz o'girdi. Amir Temur musulmon hukmdori edi. Shu tariqa davlat ishlarini yuritishda o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotidagi yetakchi omillaridan ustalik bilan foydalandi: din-u shariat ishlarini tartibga keltirib, tuzuklarni yaratdi. Saltanat martabalarini tuzugini quyidagilarga tayanib tuzdi¹⁷:

– saltanat qonun-qoidalarini Islom dini va hazrati Muhammad shariatiga bog'ladi;


– har bir ishda, hatto muomalada ham me'yorni unutmadi;

– yaxshilarga yondashdi, hech kimdan o'ch olish payida bo'lmadi;

– xalqni e'zozda tutdi, jabr-u zulmni o'ziga begona bildi.

Vatandoshimiz, buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariyning davlat va jamiyat, uning taraqqiyoti yoki zavoliga xizmat qiluvchi omillar to'g'risidagi qarashlari quyidagi ikki jadvalda o'z ifodasini topgan:

¹⁷ Зиёдулла Муқимов. Амир Темур тузуклари (тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Иккинчи тўлдирилган нашри. – Самарқанд: СамДУ, 2008. – Б. 71-72.



Jadvaldagi mazkur tushunchalarni sohibqiron ajdodimiz Amir Temur Ko'ragon amaliy faoliyati bilan solishtiradigan bo'lsak, az-Zamaxshariy fikrlarining haqiqati yanada oydinlashadi. Temur o'zining "Temur tuzuklari" kitobida yozadi: "Har bir o'lkada uchtdan vazir tayinladim. Birinchisi xalq uchun edi. U fuqaro to'laydigan soliqlar bo'yicha aniq va to'g'ri hisob olib borardi; menga yig'ilgan soliqlarning qaysi yo'l va qoidaga asosan to'planganligini yetkazib turardi. Ikkinchi vazir askarlar uchun edi. U askarlar olgan va olishi kerak bo'lgan moyananing hisob-kitobini qilardi. Uchinchi vazir safarga ketgan kishilarning mol-mulkini, egasiz yotgan yerlarni nazorat qilardi"¹.

XULOSA. Qattiqqo'l siyosat yuritish borasida ham Amir Temur az-Zamaxshariy bilan bir xil qarashga ega edi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu qattiqqo'llik xalq manfaatlari yo'lida bo'lmog'i lozim. U yozadi: "Mag'lub bo'lgan mamlakat qo'shinlari mening qo'shinlarimga qo'shildirdi. Men bu mamlakatlarda xalq hurmatini qozonishga harakat qildim. Shunga qaramasdan fuqaroni qo'rqinch va umid orasida saqladim".

Bundan tashqari davlat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi "adolat" tushunchasida ham biz bu ikki

shaxsning yakdilligi ifodasini ko'ramiz. "Barcha ishlarda, - deb yozadi Amir Temur, - bu ishlar qaysi o'lka xalqiga taalluqli bo'lmasin, hokimlarning adolat tomonida qattiq turishlariga buyruq berilgan. Yo'lovchilar tinchligini ta'minlash va qo'nib o'tishga manzilgohlar qurdirdim; qulaylik yaratish uchun katta yo'llarga soqchilar qo'ydim".

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замашшарий. Рабиъ ул-аброп ва нусусул ахбор (Яхшилар баҳори ва хабарлар matnlari). J.3. Bag'dod: 1975. – B. 219.
2. Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. – T.: Kamalak, 1992. – B. 77.
3. Temur tuzuklari.- T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1996. – B. 86.
4. Ziyodulla Muqimov. Amir Temur tuzuklari (tarixiy- huquqiy tadqiqot). Ikkinchi to'ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008. – B. 71-72.
5. I.Mo'minov. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. - T.: FAN, 1993. – B. 3.



¹ И.Мўминов. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. - Т.: ФАН, 1993. – Б. 3.

Qabul qilindi: 16.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK: 801.82:81.305

MATNAZAR ABDULHAKIMNING “KO‘CHKI” DOSTONI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR

*Rahimova Bekposhsha Bahodirovna, Abu Rayhon
Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti O‘zbek tili va
adabiyoti” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

SOME REMARKS ON MATNAZAR ABDULHAKIM'S EPISTLE “KO‘CHKI”

*Rahimova Bekposhsha Bahodirovna, Associate Professor of the
Department of Uzbek Language and Literature, Urgench State
University named after Abu Rayhon Beruni, Candidate of
Philological Sciences*

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ ПО ПОСЛАНИЮ МАТНАЗАР АБДУЛХАКИМА «КОЧКИ»

*Рахимова Бекпошша Баходировна, доцент кафедры
узбекского языка и литературы Ургенчского
государственного университета имени Абу Райхана Беруни,
кандидат филологических наук*



bekposhsharahimova726@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0003-2079-6088>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yorqin vakili Matnazar Abdulhakim ijodi xususida, uning “Ko‘chki” dostoni borasida fikrlar bayon qilinadi. Ijodkorning inson taqdiri, umr mohiyati haqidagi falsafiy qarashlari dostonidagi sakkizliklar va aforizmlar misolida tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: ijodkor uslubi, lirika, doston badiiyati, adabiy xilma-xillik, aforizm, sakkizlik.

Abstract: This article presents thoughts on the work of Matnazar Abdulhakim, a prominent representative of Uzbek literature, and his epic poem "Kochki". The creator's philosophical views on human destiny and the essence of life are analyzed using the examples of stanzas and aphorisms in the epic.

Keywords: creative style, lyrics, epic art, literary diversity, aphorism, eight.

Аннотация: В статье изложены размышления о творчестве видного представителя узбекской литературы Матназара Абдулхакима и его эпической поэме “Кочки”. На примере строф и афоризмов эпоса анализируются философские взгляды создателя на судьбу человека и сущность жизни.

Ключевые слова: творческий стиль, лирика, эпическое искусство, литературное многообразие, афоризм, восьмерка.

Kirish. Milliy she’riyatimizda shunday iste’dod egalari borki, ularning adabiy xazinasi yillar o‘tgan sayin o‘z qiymatining naqadar yuksak ekanligini tobora yorqinroq namoyon qilaveradi. Ana shunday iste’dod ganjiga to‘la shoirlardan biri Matnazar Abdulhakimdir. Shoirning o‘tgan asrning 80-yillarida nashr qilingan “Tiniq tonglar” (1982) va “Fasllar qo‘shig‘i” (1984) kabi ilk she’riy to‘plamlari Matnazar Abdulhakim iste’dodi yuksalishining boshlanishi bo‘lib, uning ijodiy hayoti va adabiyotdagi o‘rnini mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi. Ushbu to‘plamlar, shoirning

shaxsiy va ijtimoiy qarashlarini o‘zida aks ettirgan, ularning tarkibida nafaqat tabiiy go‘zallik va insonning ruhiy dunyosiga doir tasavvurlar mavjud, balki zamon va zamondoshlarning ko‘ngil holatlari ham yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Matnazar Abdulhakim she’riyati ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq qilingan va bu boradagi ishlar haligacha davom qilmoqda. Adabiyotshunos olim, professor H. Abdullayev shoirning lirikasiga yuqori baho bergan. Abdullayevning ta’kidlashicha, “Matnazar

Abdulkhakim hozirgi dostonchiligimizni yangi mazmun va shakl jihatdan boyitdi. Uning “Ko‘chki” va “Javzo arafasi” asarlari shu janrning falsafiy-ruhiy olamda kashf etilgan namunalaridir. Ularni hayot falsafasining, shoirning badiiy va intellektual qarashlarining tarovatli ifodasi deb atash mumkin” [4. H.Abdullayev. B.65-68].

Ushbu fikr, shuningdek, shoirning she‘riyatida falsafiy mushohadakorlik va ramziy-majoziy tasvirlarning uyg‘unligi asosiy o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Shoirning asarlarida insonning o‘z falsafasini anglash va dunyoni teran tushunish orqali buyuklikka erishish masalalari muhim ahamiyatga ega. Shoirning lirikasida oddiy tabiiy hodisalar zahirida ulkan haqiqatlar kashf etiladi. Shoirning lirik qahramoni, o‘zligini anglab, dunyo sirlarini tushunishga intiladi. O‘zining falsafiy idrokini rivojlantirib, u barcha o‘tkinchi narsalar orasida inson qalbining ilohiy ne‘mat sifatida mujassamlanganligini anglaydi. Ushbu anglash, shuningdek, dunyoning mohiyatini va uning ruhi bilan bog‘liq aloqalarni to‘g‘ri tushunishga olib keladi. Shoir qalbidan chiqayotgan ulkan tuyg‘ular, haqiqatni butunlikda ifodalashga imkon yaratadi va bu, o‘z navbatida, ijodkorning badiiy dunyosini shakllantiradi.

Natijalar. Matnazar Abdulkhakimning she‘riyati, ayniqsa, uning asarlaridagi falsafiy-intellektual, ta‘limiy-axloqiy, va ijtimoiy-estetik muammolarni yoritishda alohida o‘rin tutadi. Shoirning “Ko‘chki” dostoni Abu Mansur as-Saolibiyning “Yatimat ad-dahr” asari ohanglarida bitilgan hamda bu asar falsafiy-intellektual va axloqiy-ta‘limiy mavzularda yozilgan go‘zal asar sifatida tanilgan. Abu Mansur as-Saolibiyning “Yatimat ad-dahr” asari o‘zining mazmuni va adabiy yuksakligi bilan muallifning nomini dunyoga tanitgan asar hisoblanadi. Ushbu asarda Saolibiyy (961-1038) o‘z davrining yirik adabiyotshunosi, tarixchisi va tilshunosi sifatida, Movarounnahr, Xuroson, Arabiston va Ispaniya kabi hududlarda bo‘lib, ko‘plab bilimlarni to‘plagan. U 992-yilda Buxoroga kelib, keyinroq Xorazmga boradi va Xorazmshoh Abul Abbos Ma‘munga xizmat qilgan. As-Saolibiyning “Yatimat ad-dahr” asari 994-1000-yillarda yozilgan bo‘lib, 1011-1017-yillarda qayta ishlanib, Xorazmshoh Ma‘munga taqdim etilgan. Mazkur asar, arab adabiyotining eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. U asosan 10-asr va 11-asr

boshlarida Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda yashagan arab shoirlari va ularning ijodi haqida bebaho ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Asar tazkira shaklida yozilgan bo‘lib, unda 40 bobdan iborat bo‘lib, har bir bobda o‘sha davrning muhim shoirlari va ularning asarlari haqida tafsilotli ma‘lumotlar keltirilgan. “Tatimmat al-Yatima” (“Yagona durdonaga qo‘shimcha”) asarida esa “Yatimat ad-dahr”ga kirmay qolgan yoki keyinchalik tanilgan yana 209 shoir haqida ma‘lumot berilgan. Saolibiyning bu asari X va XI asr birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda yashab ijod etgan ko‘plab arabiynavis shoirlar hayoti va ijodi haqida bebaho manba hisoblanadi. Asarda ular haqidagi qimmatli tarixiy ma‘lumotlar va ularning she‘riy va nasriy asarlarini o‘rganishda yagona manba sifatida qaraladi.

Matnazar Abdulkhakim o‘zining “Ko‘chki” dostonini yozishda, aynan Saolibiyning “Yatimat ad-dahr” asaridan ilhomlangan. Shoir ushbu asar orqali hayot va umr mazmuni haqidagi go‘zal qissalar va tarixdan qoldirgan durdonalar bilan bog‘liq falsafiy mavzularni yoritishga intilgan. Bu asar Matnazar Abdulkhakimning hayot haqidagi donishmandlik va falsafiy qarashlarini shakllantirgan asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. “Ko‘chki” dostonini yaratishda, shoir Saolibiyning asaridagi ohanglarni va fikrlarni turkum shaklida o‘z she‘riyatida aks ettirgan.

Muhokama. Matnazar Abdulkhakim ijodini muhokama qilar ekanmiz, uning ijodida “Ko‘chki” dostonini hayot qadri falsafasining badiiy in‘ikosi deb atash mumkin. Ushbu asar, o‘zining 81 ta sakkizlik bo‘limi bilan, turli mavzularni umuminsoniy g‘oyalarning turli qirralarini badiiy-intellektual mezonlar asosida yoritishga qaratadi. Har bir sakkizlikda insonning o‘zligini anglash, hayotning ma‘nosi, axloqiy qadriyatlar va inson ruhining falsafiy jihatlari so‘zga olinadi. Shoir bu asar orqali o‘z fikrlarini va qarashlarini juda chuqur va izchil tarzda taqdim etadi. Dostonning muqaddima qismida shoir Saolibiyyga bo‘lgan chuqur hurmatini ifodalagan holda, unga murojaat qiladi va uni o‘zining ilhom manbayi deb biladi. Shoirning o‘zida yuzaga kelgan hayotiy savollar va ruhiy izlanishlar, Saolibiyning asarlarini o‘qish orqali javob topganligini ifodalaydi. Muqaddimadagi she‘r satrlari shoirning Saolibiyyga bo‘lgan chuqur hurmatini va uning falsafiy qarashlaridan ilhomlanishini ko‘rsatadi:

Seni o‘qib nidolar topdim,
O‘zimdanda ko‘p xatolar topdim.
Alangali qo‘shiqlarimga
Xayolimdan sadolar topdim.
Ming tulkini tilkalagan sher,
Yuragimdir senga tolib uy...

Assalomu alaykum, hazrat

Abu Mansur as-Saolibiy.[3.

M.Abdulhakim.B.102]

Matnazar Abdulhakimning “Ko‘chki” dostonida sakkiz bandlik muqaddimadan so‘ng shoir o‘z hayotiy tajribalari, olam va odamni kuzatish asnosida shakllangan falsafiy-estetik qarashlarini yanada chuqurlashtiradi. Ushbu sakkiz misralik bandlar orqali shoir, hayot, inson va uning ma‘nosi haqidagi falsafiy mulohazalarini izchil tarzda bayon etadi. Shoirning ushbu fikrlaridagi chuqurlik va mazmun salmog‘i, uning "donishmand shoir" sifatida e‘tirof etilishining haqqoniyligini tasdiqlaydi. O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Matnazar Abdulhakimni “donishmand shoir” deb ataganida, bu baho shoirning she‘rlari va falsafiy qarashlarining yuqori darajada ekanligini anglatadi. Oripov quyidagi fikrni aytadi: “Bir uchrashuvda Matnazar Abdulhakim ham she‘rlaridan o‘qidi. Undan yana she‘r o‘qishni so‘radik. Chunki u she‘rlar ilohiy kitobimiz Qur‘onda talab qilinganidek “hikmat” edi.” [7. Орипов А. Б.3] Bu e‘tirof, Matnazar Abdulhakimning she‘rlari va ayniqsa, “Ko‘chki” dostoni ma‘nolarining chuqurligini va uning badiiy-estetik darajasini ta‘kidlaydi. Shoirning she‘rlarida salmoqdor poetik ma‘no va formal-struktural ko‘rinish (shakl) o‘rtasidagi dialektik muvozanatning mavjudligi alohida ahamiyatga ega. Matnazar Abdulhakim o‘zining she‘riy ifodasida nafaqat aruz va barmoq vaznlaridan ustalik bilan foydalangan, balki har bir misra va badda teran falsafiy ma‘nolarni aks ettirgan. Bu muvozanat shoirning fikrlarini shakl va mazmun birligi asosida chuqurroq anglash imkonini beradi. Shunday qilib, “Ko‘chki” dostonidagi har bir band nafaqat she‘riy jihatdan go‘zal, balki uning har bir so‘zi va misrasi inson ruhining falsafiy muammolarini ochib berishga qaratilgan.

“Ko‘chki” dostonida Matnazar Abdulhakim, asosan, sakkizliklardan ko‘proq foydalangan. Ularning yuzaga kelishi ikki holatda yorqin ko‘rinadi:

1) sakkiz misraning o‘zaro bir butunligi tarzida birikuvi ko‘rinishida;

2) ikki to‘rtlikning shaklan alohida, lekin bir mazmunni ifodalashga qaratilgan yaxlit sakkizliklar tarzida.

Bulardan har birining o‘ziga xos jihatlari mavjud. Jumladan, sakkizliklar asosan 9-11 hijoli ikki, uch turoqli misralar bo‘lib, falsafiy-ijtimoiy, intellektual fikrlar ustuvordir. Bularga “Ko‘chki” dostonida keng o‘rin berilgan.

Matnazar Abdulhakimning “Ko‘chki” dostonidagi sakkizliklar, o‘ziga xos falsafiy va ma‘naviy mushohadalar bilan boyitilgan, yuksak badiiylik va aqliy-ruhiy tasavvurlarni uyg‘unlashtirgan muhim badiiy vositalar sifatida ajralib turadi. Bu sakkizliklarda shoir, falsafiy timsolli obrazlilik orqali insoniyat madaniyatining muhim qadriyatlarini va hayotning ma‘no izlanishlarini badiiy ifodalaydi. O‘zining “hikmatli, dono, ibratli ma‘nodorligi” bilan badiiy tafakkurning mustaqil ko‘rinishini yaratadi. N.Rahimjonovning ta‘kidlashicha: **“Falsafiy timsolli obrazlilik badiiy tafakkurning o‘ziga xos mustaqil ko‘rinishi... o‘zining hikmatli, dono, ibratli ma‘nodorligiga ko‘ra insoniyat madaniyati tarixini bezab keladi.”** [8. Раҳимжонов Н. Б. 21.] Bu fikr, Matnazar Abdulhakimning “Ko‘chki” dostonidagi sakkizliklarda aks etgan falsafiy va ma‘naviy mushohadakorlikni yanada chuqurlashtiradi.

Matnazar Abdulhakimning “Ko‘chki” dostonidagi intellektual mushohadalar, uning fikr va dunyoqarashining kengligini ko‘rsatadi. Shoir, hayot va odam haqidagi o‘z mulohazalari bilan go‘zallikni yaratadi. Olam va inson ruhiyatini kuzatish, undagi narsa va hodisalardan poetik mazmun topishdagi noziklik, shoir ijodining asosiy xususiyatlaridan biridir. Shoir, ko‘p hollarda boshqa shoirlar bilan mushtarak jihatlarni tan oladi, ammo bu mushtarakliklarni o‘ziga xos tarzda talqin qilishga intiladi. Matnazar Abdulhakimning “Ko‘chki” dostonidagi yana bir diqqatga sazovor jihat, uning hayot falsafasi va umrning mazmuni haqidagi fikrlari, ayniqsa, “uyqu”, “uyg‘onmoq” va “o‘lim” kabi tushunchalar orqali bayon etilgan. Shoir bu tushunchalarni yanada boyitib, hayotdagi manzillar va ularni qabul qilishni aforistik shaklda ifodalaydi:

Hayot bilan qo‘shib bizlarga
Ko‘p charchoqlar qilingan tortiq.
Asli o‘lim – chinakam qurol
Asli o‘lim – chinakam hordiq.

Boshqa izoh, boshqacha talqin
Mantiqlardan mutlaq tashqidir.
Uygʻonmoq – bu tirilmoq demak

Uyqu esa – oʻlim mashqidir. [1.
Абдулҳаким М. Б. 93.]

Bu misralar, hayot va oʻlim haqidagi falsafiy mulohazalarni kuchli tarzda aks ettiradi. Shoir “fano” va “baqo” tushunchalarini oʻzining hayot falsafasi bilan bogʻlaydi. Fano oʻtkinchi dunyo, sinov davri sifatida talqin etilgan, baqo esa abadiy hayotni anglatadi. Shoir, hayot va oʻlimni, ularning haqiqatini tushunishni insonning yuqori maqsadi sifatida koʻradi. Oʻlimdan keyingi abadiy hayotga erishish uchun odamzod fani dunyoda oʻzini toʻgʻri yoʻlda namoyon qilishi, Ollohning marhamatiga sazovor boʻlishi kerak. Bu fikr Matnazar Abdulhakimning sheʼriyati orqali yuzaga kelgan hayot haqidagi chuqur, falsafiy va axloqiy mushohadalarning asosiy yoʻnalishidir.

Matnazar Abdulhakimning sheʼriyatidagi gʻoyaviy-badiiy niyat, ayniqsa, “Koʻchki” dostonida oydinlashadi. Bu asarda shoir hayot va oʻlim, uygʻonish va uyqu kabi oʻzaro zid tushunchalar orqali umrning boshlanishi va tugashini falsafiy tarzda taʼriflaydi. Shoirning badiiy niyati, ayniqsa, voqelik va insonning ichki olami haqidagi mulohazalarni izchil ravishda aks ettiradi. Oʻquvchini oʻylashga undovchi bu qarashlar, asarda hayotning barcha qirralarini soʻzlash uchun uygʻun va nozik badiiy ifodalar orqali taqdim etilgan.

Shoir Bahrom Roʻzimuhammad Matnazar Abdulhakimning sheʼriyatidagi fikr va tuygʻular silsilasining oʻziga xosligini taʼkidlab, shunday yozadi: “Shoirning mavzu koʻlami keng va xilma-xil. U bundan ming yillar avvalgi bitiklardan ruhlanib “Koʻchki” turkumini yaratdi, oddiygina maʼlumotdan falsafiy mazmundagi sheʼrlar bitdi. Xullas, uning “sheʼriy xarita”si miqyosini kengaytirdi. Ammo sheʼr qurilishlari bir xil: ilk misradagi ohang toʻlqinlanib izchillik kasb etadi, toʻrtliklar uygʻunlashib yagona zalvarli ohangda jaranglaydi.” Bu fikrlar Matnazar Abdulhakimning sheʼriyatidagi oʻziga xos va jozibali badiiy shaklni tasdiqlaydi. Shoir oʻzining sheʼriy konstruksiyalarida uygʻunlikni va izchillikni saqlab, sheʼrlarning har bir misrasiga maʼno yuklaydi. Bu esa uning sheʼrlarini oʻziga xos qiladi.

Matnazar Abdulhakim sheʼriyatida aforizm usulining rang-barangligi, xususan,

“Koʻchki” dostonidagi falsafiy va estetik asoslar, shoirning hayot va taqdir dialektikasiga boʻlgan alohida munosabatini aks ettiradi. Asarda umr mazmuni, jon omonatligi va ruhning abadiyligi kabi masalalar bugungi voqelik va inson maʼnaviyati bilan bogʻliq holda bayon etiladi. Shoirning subyektiv qarashlari janr talablariga mos tarzda nafaqat tasvirda, balki fikr ifodasida oʻz aksini topadi. Bu oʻquvchiga voqelikni boshqacha anglash imkonini yaratadi.

Shoirning voqelikni kuzatishdagi sokinligi va bosiqligi uning ijodida yaqqol ifodalanadi. Matnazar Abdulhakim hech qachon ehtiroslarning taʼsirida boʻlmagan, balki voqelikni befarq, shaffof va bosiq tarzda tahlil qilgan. Bu sokinlik, shuningdek, uning sheʼriyatidagi yuqori axloqiy va falsafiy talqinlarning asosidir. Shoir voqelikni chuqur anglab, uning ichki mohiyatini kashf etish uchun badiiy vositalardan foydalangan.

Shoirning individual tasvir usullari, har bir sheʼrda oʻziga xos yoʻl tutishi, uning sheʼriyatini yangilaydi. Ayniqsa, “Koʻchki” dostonidagi gʻoyaviy va badiiy niyatlar, nafaqat sheʼrlarning tuzilishini, balki ular orqali berilgan gʻoyalarni ham yangi darajaga olib chiqadi. Shoir, oʻzining injiq va nozik qarashlarini, sheʼrlar orqali ifodalaydi, ularni doimiy ravishda oʻzgartiradi va yangilaydi. Bu ijodkorning yana bir oʻziga xos xususiyatidir.

Xulosa. Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Matnazar Abdulhakimning sheʼriyatida dunyoqarashning falsafiy va badiiy jihatlarini oʻzaro chambarchas bogʻliqdir. Shoirning lirik qahramoni oʻz mohiyatini anglaganidan keyin, hayot va undagi barcha oʻtkinchi elementlarning birlashtiruvchi kuchi sifatida inson qalbi va uning ilohiy mohiyatini anglaydi. Bu jarayon, shoirning ijodida mavjud boʻlgan falsafiy idrokni, tabiiy hodisalar va inson qalbi orqali ifodalashni talab etadi. Shoirning maqsadi nafaqat hayotning sirlarini tushunish, balki ularni badiiy tarzda oʻz sheʼrlarida ifodalashdir. Matnazar Abdulhakimning “Koʻchki” dostonidagi aforizmlar, shakl va mazmun jihatdan oʻzaro bogʻliq, loʻnda va teran ifodalangan. Falsafiy, axloqiy va hayotiy mavzularni oʻz ichiga olgan bu aforizmlar, nafaqat zamonaviy oʻquvchiga, balki umumbashariy qadriyatlar bilan bogʻliq bir qator savollarni berishga undaydi. Shoirning ifoda usuli va uning mavzuga yondashuvi nafaqat badiiy, balki maʼnaviy va falsafiy jihatdan ham boy, shuning

uchun "Ko'chki" asari nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-estetik ahamiyatga ham ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev H. *Badiiy so'z fayzi*. – Toshkent: Sharq, 2009.
2. Abdulhakim M. *Javzo tashrifi*. To'plam. – Toshkent: Sharq, 2008.
3. Abdulhakim M. *Tanlangan asarlar*. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
4. Abdulhakim M. Umumbashariy monandlik // *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*. – 2007. – 17 avgust.
5. Jumaniyozova N. *Istiqlol davri o'zbek lirikasida uslubiy izlanishlar*. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2011.
6. Lotman Yu. *Struktura xudozhestvennogo teksta*. – Moskva, 1970.
7. Oripov A. Teran ijod // *Matnazar Abdulhakimni eslab: Maqolalar, xotiralar*. – Toshkent: Lesson Press, 2017.
8. Rahimjonov N. *Mustaqillik davri o'zbek she'riyati*. – Toshkent: Fan, 2007.
9. Ruzimuhammad B. Zalvorli ohanglar seyr // *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*. – 2007. – 25 may.



Qabul qilindi: 16.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK:94(575.171)“1920/1991”

XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA XORAZMDA
FAN VA TA'LIM*Allanazarov Sirojbek Bekchan o'g'li, Urganch davlat
pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*SCIENCE AND EDUCATION IN KHOREZM IN
THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY*Allanazarov Sirojbek Bekchan o'g'li, Urgench state pedagogical
institute*НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ В ХОРЕЗМЕ ВО
ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА*Алланазаров Сирожбек Бекчан оглы, Ургенчский
государственный педагогический институт*<https://orcid.org/0000-0002-2603-5346>

e-mail:

sirojbek.allanazarov@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola ikkinchi jahon urushidan keyin Xorazm viloyatida ta'lim sohasidagi o'zgarishlar, mavjud muammolar tahliliga bag'ishlangan. Maqolada viloyatdagi maktablarda olib borilgan ta'lim-tarbiya masalalari, Xorazm o'qituvchilar tayyorlash institutining urushdan keyingi dastlabki yillardagi faoliyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm viloyati, maktab, ta'lim-tarbiya, o'quvchi, savodsizlik, imtihon, talaba, maorif, ilmiy konferensiya.

Abstract: This article analyzes the changes and challenges in the field of education in the Khorezm region following the Second World War. It examines the educational and upbringing processes carried out in regional schools, the efforts to eradicate illiteracy, the increase in the number of students, the examination system, and the activities of the Khorezm Institute for Teacher Training during the early post-war years.

Keywords: Khorezm region, school, education and upbringing, student, illiteracy, examination, university student, enlightenment, scientific conference.

Аннотация: В данной статье рассматриваются изменения и проблемы в сфере образования в Хорезмской области после Второй мировой войны. Анализируются вопросы обучения и воспитания в школах региона, меры по ликвидации неграмотности, рост числа учащихся, система экзаменов, а также деятельность Хорезмского института подготовки учителей в первые послевоенные годы.

Ключевые слова: Хорезмская область, школа, обучение и воспитание, ученик, неграмотность, экзамен, студент, просвещение, научная конференция.

KIRISH. Ikkinchi jahon urushi insoniyat boshiga og'ir kulfatlar, vayronagarchiliklar keltirgani bilan tarix sahnasida mudhish xotira bo'lib qoldi. Urushning ayanchli qismati faqatgina iqtisodiy qiyinchiliklardagina emas, balki ijtimoiy soha, madaniyatda inqirozni yuzaga keltirdi. Urushdan keyin sovet hukumati mamlakat xalq xo'jaligi tarmoqlarini inqirozdan olib chiqish, xususan, maktablarda ta'limni qayta tiklash, urushga ketgan o'qituvchilarni o'z maktablariga qaytarish choralarini ko'rdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. O'zK(b)P Markaziy hokimiyati hamda O'zSSR Xalq komissarlari soveti O'zSSRda 1945-1946-o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida hamda O'zKP Markazqo'mining XII plenumi maorif hamda texnikum va oliy o'quv yurtlariga kadrlar tayyorlash ishini yaxshilash haqida chiqargan qarori asosida Xorazm viloyatida joriy o'quv yilida 42 ta yangi maktab binosi qurilib foydalanishga topshirildi.

MUHOKAMA. Viloyatning Gurlan hamda Mang'it tumanlaridagi maktablar o'quv yili boshlangunga qadar barcha tayyorgarlik ishlarini bajargan bo'lsalar-da, viloyatning qator tumanlarida bu ishlar ancha sust kechdi. Misol uchun Yangiariq tumanining Kirov qishloq sovetida Karl Marks nomli o'rta maktab, Urganch tumani Shirinqo'ng'iroq qishloq sovetidagi Stalin nomli hamda Chandirqiyot qishloq sovetidagi M.Gorkiy nomidagi to'liqsiz o'rta maktab, Shovot tumanining Qiyot qishloq sovetidagi Voroshilov nomli hamda Xonqa tumani Qiryot qishloq sovetidagi Obod to'liqsiz o'rta maktablarida ta'mirlash ishlari o'z vaqtida bajarilmadi. Bundan tashqari, Xonqa tumanida joylashgan Pushkin nomli o'rta maktabda ta'mirlash ishlari umuman amalga oshirilmadi. Tahlil etilayotgan yilda viloyatdagi maktablar uchun 4228 tonna o'tin maktablarni isitish uchun g'amlanishi rejalashtirilganiga qaramasdan, bu reja 71 foizga bajarilgani maktablarni isitishda bir qator qiyinchiliklar keltirib chiqarishga sabab bo'ldi. Shuningdek, maorif sohasidagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar tufayli 1945/1946-o'quv yilida maktablarga jalb etilishi nazarda tutilgan 56246 nafar boladan 54750 nafari tortildi. Bu ko'rsatkichlar asosan viloyatning Shovot va Qo'shko'pir tumanlarida past bo'lib, Shovot tumanidan maktab yoshidagi bolalarning 84,2 foizi, Qo'shko'pir tumanidan esa 86,3 foizi maktablarga jalb etildi. Bundan tashqari o'quv yilining birinchi yarmida maorif sohasidagi kamchiliklar tufayli 2904 nafar o'quvchilar maktablardan qolib ketdi. Bu o'quvchilarning ko'pchiligi Xonqa, Urganch va Hazorasp tumanlariga to'g'ri kelib, ushbu tumanlarda maktablardan qolib ketgan o'quvchilar soni 1400 nafarni tashkil etar edi. Agar o'quv yili boshida maktablarga jalb etilmagan hamda maktablardan qolib ketgan o'quvchilarni qo'shib hisoblaganda, 7,9 foiz maktab yoshidagi bolalar maktab ta'limidan qolib ketdi[1]. Tahlil etilayotgan o'quv yilining uchinchi chorak yakuni bo'yicha hisobotlarda keltirilishicha, viloyatdagi 18 ming o'quvchi yoki umumiy o'quvchilarning 36 foizi 1-2-3 ta fanlardan qoniqarsiz baho olgan[2]. Misol uchun Xonqa tumanidagi maktablarda o'qitish ishlarning qoniqarsiz darajadaliigi tufayli 3-chorakda tumanda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi 56 foizga tushib ketgan. Shuningdek, maktablarda davomat ham ko'ngildagidek bo'lmasdan tumanning bu ko'rsatkichi 3-chorakda

64 foizga tushib ketgan. Xususan, tumandagi Qulonqorabog' qishloq sovetida joylashgan to'liqsiz o'rta maktabda 288 nafar o'quvchi o'qisada maktabga keluvchi bolalar soni 60 dan oshmagan[3].

O'zbekiston SSR Maorif ministrligi "Maktablarda yetuklik attestatining natijalarini o'tkazish, IV va VII sinflarni tamomlovchilardan imtihon olish, V, VI, VIII va IX sinflarni bitirib, yuqori sinflarga ko'chuvchilarni sinovdan o'tkazish hamda eksternat yo'li bilan o'quvchilarni imtihon qilishga doir qo'llanmalar to'g'risida"gi ko'rsatmasiga muvofiq bolaga baho berishda o'quvchining tushunchasiga, faktlarni anglata bilishiga va yil davomida o'tilgan fanlar yuzasidan sinov va imtihonda berilgan masalalarni yechishdagi qobiliyatiga e'tibor berish va shu asosda bolaga baho qo'yish belgilandi. Qabul qilingan ko'rsatmaga muvofiq sinov va imtihonga kiradigan o'quvchilar soni 20 dan oshgan taqdirda og'zaki sinovlarni 2 guruhga bo'lib o'tkazish belgilandi[4].

Umuman olganda 1945/1946-o'quv yili viloyatda qoniqarsiz yakunlandi. Masalan, viloyatdagi boshlang'ich maktablarning I,II,III sinflaridagi o'quvchilarning 46 foizigina sinfdan-sinfga ko'chirilgan xolos. Urganch tumanining bu tipdagi maktablarida faqat 40 foiz o'quvchi keyingi sinfga ko'chirilgan. Viloyatdagi 22,481 o'quvchini o'z ichiga olgan 1106 ta IV-VI sinfdan 16,550 nafar yoki 72,3 foiz o'quvchi sinov va imtihonlarda ishtirok qilgan. IV-VII sinflardan 311 nafar o'quvchi fanlarni o'zlashtira olmaganliklari sababli imtihonlarga qo'yilmagan. Misol uchun Hazorasp tumanida 721 o'quvchidan iborat 38 ta IV sinfdan faqat 216 o'quvchisi bilan 14 ta sinf imtihonlarga qo'yildi. Mang'it tumanidan IV sinfdagi 382 o'quvchidan faqat 159 nafari yoki 42 foizi, Xonqa tumanidagi 759 o'quvchidan 296 nafari yoki 39 foizi, Yangiariq tumanidagi 785 o'quvchidan 88 nafari yoki 19 foizi boshlang'ich maktabdan to'liqsiz o'rta maktabga o'tkazildi.

Maktab binolarining ahvoli ham yaxshi emas edi. Jumladan, 1946-yilda viloyatdagi 61 maktab qayta qurish va 133 tasi kapital ta'mirlashga muhtoj edi. Bundan tashqari 1946/1947-o'quv yilida viloyat maktablariga 60 ming nafar o'quvchini jalb etish zarur bo'lgan bir paytda maktablarda kadrlar yetishmovchiligi kuzatilardi. Chunonchi, yangi o'quv yili uchun maktablarga 200

nafar yangi o'qituvchi zarur edi. Viloyatdagi o'zbek maktablari uchun 90 nafar o'qituvchini tayyorlash zaruriyati yotar edi. Yetti yoshlik bolalar qabul qilinadigan 1-sinflarga o'qituvchilarni ishga qabul qilishga ham alohida e'tibor zarur edi. Chunki, o'tgan o'quv yilida yosh va tajribasiz o'qituvchilar hisobiga 11,561 nafar o'quvchidan 5,3 mingdan ziyodigina II sinfga ko'chirilgan xolos[5].

NATIJALAR. Xorazm o'qituvchilar tayyorlash instituti urushdan keyin ham maktablarga to'liqsiz o'rta ma'lumotli o'qituvchilar tayyorlab beradigan asosiy o'quv dargohi edi. Bu institut 1946-yilgacha viloyatdagi to'liqsiz va o'rta maktablarga 800dan ortiq kadrlar tayyorlab berdi. Xususan, 1946-yilning aprelida ushbu dargohning kechki til-adabiyot fakultetini 10 nafar, fizika-matematika fakultetini 6 nafar kishi tamomladi. Bu Xorazmdagi maktablarni to'liqsiz o'rta ma'lumotli 16 nafar kadr bilan ta'minlash imkonini berdi. O'sha yili institutni Stalin nomli stipendiya sohibasi, til-adabiyot fakulteti talabasi Xojar Rahmonova, fizika-matematika fakultetida Nabi Tengliboyev va Qurbonboy Ro'zmetov kabi talabalar a'lo baholar bilan tugatdilar[6]. Institut 1946-yilning iyul oyida yana qo'shimcha rus va o'zbek tili, tarix, fizika va matematika mutaxassisliklari bo'yicha 56 nafar kadrlarni tayyorlab maktablarga jo'natdi. Institutda bu paytda 7 ta kafedrada 25 ta ilmiy xodim faoliyat olib bordi. Institut kutubxonasida 30 ming jilddagi ilmiy va badiiy kitoblar joy olgan edi[7].

1947-yilning 27-30-mart kunlari institutda ilk marta talabalarining birinchi ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiyada talabalar tomonidan 14ta ma'ruzalar qilindi. Ma'ruzalarning 5tasi tarixiy, 4tasi tarbiyaviy va 5tasi zamonaviy mavzularda edi [8]. 1946/1947-o'quv yilida ushbu institut viloyat maktablari uchun 38 ta o'qituvchi tayyorlab bergan bo'lsa, keyingi o'quv yilida bu ko'rsatkich 78 nafarga yetdi. Ulardan 37 kishi oliy ma'lumotni Xorazmning o'zida olib, 1947/1948-o'quv yilidan o'rta maktablarning VIII-X sinflarida o'qituvchilik qilishga, ilmiy bo'lim mudiri va direktorlik uchun yuborildilar. Shu o'quv yilida institutni 15 nafar talabalar imtiyozli diplom bilan tugatdilar. Ular orasida Til-adabiyot fakultetining talabalari Munavvar Yoqubova, Halima Yoqubova, Tarix fakultetining Rafiqa Ismoilova, Matnazar Abduraximov, Matnazar Matniyazov, shuningdek, Sulaymon Xudayberganov, Klara Rizayeva, Abdulla Ibrohimovlar bor edi [9].

1949-yilda institutga qabul birinchi bor imtihon asosida amalga oshirildi. Shu yili institutga kirish uchun 370 nafar abituriyent ariza bergan bo'lsa, shundan 175 nafari o'qishga qabul qilingan. Shu yili institutni 104 nafar talaba bitirib chiqqan bo'lsa, 1950-yilda sirtqi ta'lim shakli bilan birga 220 nafar talaba bitkazdi. Shu yili institutda 2 qavatli kutubxona binosi foydalanishga topshirilishi evaziga institutning kitob fondi 5 ming nusxaga oshgan [10].

1948/1949-o'quv yilida Xorazm viloyatida 139 ta maktab kapital ta'mirlash, 117 ta maktab joriy ta'mirlash hamda 17 ta yangi maktab binolari ishga tushirish ko'zda tutilgan [11]. Joriy o'quv yilida boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktablarga 57 ming o'quvchi tortildi. Biroq bu maktab yoshidagi barcha o'quvchi emas edi. Misol uchun Xiva tumanidan V-VII sinflarga 350 o'quvchi, X sinfga esa 96 o'quvchi jalb etilmasdan qoldi [12].

1951-yilda butun O'zbekiston SSRdan 152 mingdan ziyod savodsizlar o'qitildi. Xususan, Xorazm viloyatidan 1309 nafar kishi savodsizlikni tugatish kurslarida o'qitilgan. Shundan 1219 nafarini qishloq aholisi vakillari tashkil etgan. 1952-yilda esa 5511 nafar kishining savodsizligi tugatilgan. Shundan 5265 nafari qishloq joylarida yashar edi. Shuningdek, 1951-yilning o'zida 810 nafar chalasavodlar o'qitilgan bo'lsa, 1952-yilda bu son 5127 nafarni tashkil qilgan [13].

XULOSA o'rnida ta'kidlash kerakki, urushdan keyingi dastlabki yillarida viloyatdagi maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonlari qiyin kechdi. Avvalo urushga ketgan o'qituvchilarning ba'zilari urushdan qaytib kelmadi, yoki nogiron bo'lib qaytdi. Bu esa shusiz ham kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan Xorazm viloyatida maktab ta'limida muammo va qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Oqibatda maktablarda o'quvchilar sifatli bilimning yetarli darajada ta'min etilmagani uchun o'quvchilarning imtihonlardan o'tishga loyiq bilimni olishi imkonsiz bo'lib qoldi.

Urushdan keyingi davrlarda Xorazm o'qituvchilar tayyorlash instituti o'qituvchilar tayyorlab beradigan asosiy dargoh bo'ldi. Bu yerdan yetishib chiqqan iqtidorli talabalar keyinchalik maktablarda ishlab, o'quvchilar bilim saviyasini oshirishga xizmat qildilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мактаблар ишини юксак даражага кўтарайлик // Хоразм ҳақиқати газетаси, 1946 йил, 20 январь, №14 (5093).
2. Ўқув йилини муваффақиятли якунлаш учун курашайлик // Хоразм ҳақиқати газетаси, 1946 йил, 20 апрель, №78 (5157).
3. Синовга тайёрланмаётирлар // Хоразм ҳақиқати газетаси, 1946 йил, 28 май, №103 (5182).
4. Йиллик синов ва давлат имтиҳонларига пухта тайёргарлик кўрайлик // Хоразм ҳақиқати газетаси, 1946 йил, 19 май, №97 (5176).
5. Янги ўқув йилини пухта тайёргарлик билан кутиб олайлик // Хоразм ҳақиқати газетаси, 1946 йил 5 июль, №130 (5209).
6. Юқори маълумотли ўн олти кадр // Хоразм ҳақиқати газетаси, 1946 йил 16 апрель, №75(5154).
7. Малакали педагог кадрларни кўплаб тайёрлаймиз // Хоразм ҳақиқати газетаси, 1946 йил 15 июнь, №116(5195).
8. Биринчи тажрибанинг самаралари // Хоразм ҳақиқати газетаси, 1947 йил 13 апрель, №74(5409).
9. Самарали натижалар // // Хоразм ҳақиқати газетаси, 1948 йил 9 июль, №135(5736).
10. Хоразмда фаннинг равнақи // Хоразм ҳақиқати газетаси, 1950 йил 1 январь, №1 (6118).
11. Мактабларни янги ўқув йилига пухта тайёрлайлик // Хоразм ҳақиқати газетаси, 1948 йил 9 июль, №135 (5736)
12. Ўқиш-ўқитиш ишларига раҳбарликни кучайтирайлик // Хоразм ҳақиқати газетаси, 1949 йил 7 январь, №4 (5864).
13. OzMA, 1619-fond, 11-ro'yxat, 1567-ish, 3-varaq.



THE MAIN DIFFICULTIES OF UZBEK STUDENTS IN LEARNING THE LANGUAGE

Azamova Marjona Panji qizi, A third-year student at the Faculty of Foreign Philology, Termez State University

O'ZBEK TALABALARINING TIL O'RGANISHDAGI ASOSIY QIYINCHILIKLARI

A'zamova Marjona Panji qizi, Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

ОСНОВНЫЕ ТРУДНОСТИ, С КОТОРЫМИ СТОЛКИВАЮТСЯ УЗБЕКСКИЕ СТУДЕНТЫ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА

Азамова Маржона Панжи кызы, студент 3-курса факультета зарубежной филологии Термезского государственного университета

Abstract: Learning English is becoming increasingly widespread among people of all nationalities around the world. Individuals strive to master English in order to achieve high results in their academic and professional careers. Despite its clear advantages, learners often face various challenges, particularly in pronunciation, grammar, and sentence construction. This article explores some of the grammatical difficulties encountered by Uzbek students.

Keywords: pronunciation, word-order, grammar, vocabulary, resources.

Annotatsiya: Ingliz tilini o'rganish butun dunyo bo'ylab barcha millat vakillari orasida tobora keng tarqalmoqda. Shaxslar o'zlarining akademik va kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun ingliz tilini bilishga intilishadi. Afzalliklari aniq bo'lsa-da, o'quvchilar ko'pincha turli to'siqlarga duch kelishadi, xususan, talaffuz, grammatika va jumla tuzishda. Ushbu maqola o'zbek talabalari duch keladigan ba'zi grammatik qiyinchiliklarni o'rganadi.

Kalit so'zlar: talaffuz, so'z tartibi, grammatika, lug'at, manbalar.

Аннотация: Изучение английского языка становится всё более популярным среди представителей всех наций по всему миру. Люди стремятся овладеть английским языком, чтобы достичь высоких результатов в академической и профессиональной деятельности. Несмотря на очевидные преимущества, учащиеся часто сталкиваются с различными трудностями, особенно в произношении, грамматике и построении предложений. В данной статье рассматриваются некоторые грамматические трудности, с которыми сталкиваются узбекские студенты.

Ключевые слова: произношение, порядок слов, грамматика, словарный запас, ресурсы.



<https://orcid.org/0009-0005-7531-7082>

e-mail:

azamovamarjona.04@gmail.com



INTRODUCTION

(БЕДЕНИЕ/KIRISH). The main difficulties Uzbek students face in learning a foreign language – especially English – can be grouped into several key areas, based on linguistic, educational and cultural factors. Especially this belongs to language families which are they come from. Because the Uzbek language is in Turkic language family, but The English is in Indo-European language family. So, their word-order is very different from each other. “In Uzbek language word-order is subject + object + verb and in English this is subject + verb+object” mentioned by Kutlimuratova Barno in her thesis.

MATERIALS AND METHODS (ИТЕПАТУРА И

МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR). Linguistic Differences. Uzbek is an agglutinative language with Subject-Object-Verb (SOV) order, whereas English uses Subject-Verb-Object (SVO). This leads to confusion in sentence construction.

Example: «*Men kitob o'qiyman.*» → «*I book read.*» (literal) instead of «*I read a book.*»

English has more complex tense usage (e.g., present perfect, past perfect), which doesn't directly exist in Uzbek.

Uzbek has no definite or indefinite articles, making “a,” “an,” and “the” hard to master.

Prepositions in English are often idiomatic and don't match Uzbek equivalents directly.

Sounds like /θ/ (think), /ð/ (this), and /æ/ (cat) are unfamiliar and difficult to produce.

Many schools, especially in rural areas, still rely on traditional grammar-translation methods. In this approach, grammar rules are taught in isolation, often followed by rote memorization and translation exercises. This method emphasizes theoretical knowledge over communicative competence, which leads students to know the rules passively but struggle to use them correctly in real speech or writing. For example, students may be able to recite the formula for the present perfect tense (*has/have + past participle*), but fail to apply it accurately in conversation due to lack of contextual practice. According to **Richards and Rodgers (2001)** [5], grammar-translation methods limit learners'

communicative ability and do not foster fluency or natural language use.

DISCUSSION

(ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA). Another significant challenge is the shortage of qualified and professionally trained English teachers, especially in remote or underfunded schools. While there are dedicated teachers across the country, not all of them are adequately trained in modern language teaching methodologies, particularly communicative language teaching (CLT) or task-based learning (TBL). In addition, some teachers themselves may have insufficient fluency in English, which limits their ability to model accurate grammar use and pronunciation. This results in students acquiring incorrect or incomplete knowledge of English grammar structures. **Overcrowded Classrooms and Limited Contact Time.** In many public schools, English classes are large in size, sometimes with over 30 or 40 students in a single classroom. Such conditions make it difficult for teachers to provide individualized feedback or correction on grammar mistakes. Moreover, students have limited opportunities to speak, write, or engage actively with the material. Also, the number of English lessons per week may not be enough to build a strong foundation, especially when learners do not encounter the language outside the classroom. As **Harmer (2007)** notes, frequency and intensity of exposure to a language play a crucial role in the development of grammatical competence [1].

As noted, Uzbek has no system of articles. Therefore, students often struggle with understanding when and how to use «a», «an», and «the». The concept of countable vs. uncountable nouns also complicates the use of articles.

Examples of common errors:

She is teacher. → *She is a teacher.*

I bought apple. → *I bought an apple.*

RESULTS

(РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). English has 12 verb tenses, each with specific rules and usages. Uzbek has fewer verb forms and uses context or time indicators instead. Therefore, Uzbek learners frequently confuse tenses, particularly:

Present Perfect vs. Past Simple
(e.g., *I have seen the movie yesterday.* → incorrect)
Future forms
(e.g., *I will going to school tomorrow.* → incorrect)

These errors stem from a lack of direct equivalents and overgeneralization of rules.

English prepositions are often idiomatic and do not follow consistent rules. Uzbek students may translate directly from their native language, leading to errors like:

He is good in math. → *He is good at math.*

She depends from her brother. → *She depends on her brother.*

In Uzbek culture, **respect for teachers and elders** is deeply ingrained. Students often avoid speaking out in class unless invited or completely confident. Students hesitate to ask questions or correct themselves. Fear of making mistakes prevents them from speaking freely. This **limits speaking practice** and slows fluency development [2]. Education in Uzbekistan has historically followed **teacher-centered methods** (lecture, memorization). Students expect grammar drills, vocabulary lists, and translation exercises. They may resist modern, interactive techniques (e.g., roleplays, task-based learning) [3].

To address these grammatical challenges, educators and learners should consider the following strategies:

Contrastive Grammar Teaching.

Teachers can highlight the differences between Uzbek and English grammar explicitly. Comparative lessons help students recognize and correct common errors.

Contextualized Grammar Practice.

Grammar should be taught in context, not isolation. Using dialogues, stories, and role-plays allows students to see how grammar functions in real life.

Increased Speaking and Writing Practice. Frequent use of English in speaking and writing helps internalize grammar rules. Pair work, group tasks, and journaling can enhance output [1].

Teachers can collect and analyze students' written work to identify patterns of grammatical

errors. Focused feedback on these mistakes can accelerate learning. Apps, videos, and websites can offer more engaging and interactive grammar practice. Watching English-language media also helps reinforce grammar in use.

CONCLUSION

(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). To sum up, teaching English as a foreign language to Uzbek learners presents several difficulties. These include limited exposure to the language, structural differences between English and Uzbek grammar, a lack of adequately trained English instructors, and insufficient teaching materials. These obstacles can hinder students' progress in acquiring English proficiency. To address these issues, it is crucial to increase students' interaction with the English language, enhance the overall standard of English instruction, and equip educational institutions with the tools and resources needed for effective language education. With these improvements in place, Uzbek students will be better positioned to strengthen their English skills and access greater academic and career opportunities. Lastly, it is worth acknowledging the significant steps being taken by the government of Uzbekistan to address these challenges – a commitment that is likely to yield positive results in the long run.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO'YXATI):

1. *Harmer Jeremy. The Practice of English Language Teaching. 2007. – 448 p.*
2. Kamalova A. On some difficulties of scientific and technical translation // Translation and comparative linguistics. - 2022. - No. 2. - P. 150-154.
3. Larin M. Typical problems and features of scientific text translation // Young scientist. 2023. No. 4. – P. 43-46.
4. Mills S. Language and sexism. Cambridge: Cambridge University Press. 2008.
5. Richards J., Rodgers T. **Approaches and Methods in Language Teaching.** 2001. – 142 p.

TA'LIMDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

*Burxonova Manzura Xurshid qizi, Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti doktoranti*

THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN EDUCATION

*Burkhonova Manzura Khurshid qizi,
Doctoral Student at Sharof Rashidov Samarkand State University*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В ОБРАЗОВАНИИ

*Бурхонова Манзура Хуришид кызы, докторант Самаркандского
государственного университета имени Шарофа Рашидова*



<https://orcid.org/0009-0005-7685-869X>

e-mail:
manzura.burxonova@
mail.ru



Annotatsiya: Ushbu maqolada “sog‘lom turmush tarzi” tushunchasining mohiyati tibbiy, falsafiy, ijtimoiy va pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida mazkur ko‘nikmalarni shakllantirishning zarurligi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: salomatlik, sog‘lom turmush tarzi, ko‘nikma, tibbiy yondashuv, ijtimoiy yondashuv, pedagogik yondashuv, psixologo-pedagogik yondashuv.

Annotation: This article analyzes the essence of the concept of a ‘healthy lifestyle’ based on medical, philosophical, social, and pedagogical approaches. It also scientifically substantiates the need to form these competencies in future primary school teachers.

Keywords: health, healthy lifestyle, skill, medical approach, social approach, pedagogical approach, psychological-pedagogical approach.

Аннотация: В данной статье анализируется сущность понятия “здоровый образ жизни” на основе медицинского, философского, социального и педагогического подходов. Также обоснована необходимость формирования данных компетенций у будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: здоровье, здоровый образ жизни, навык, медицинский подход, социальный подход, педагогический подход, психолого-педагогический подход.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Hozirgi globalashuv davrida jamiyat taraqqiyotida inson kapitali asosiy mezon sifatida baholanmoqda. Uning eng muhim tarkibiy qismi – sog‘lom, jismonan va ma‘nan barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Shu nuqtayi nazardan, ta‘lim-tarbiya tizimida sog‘lom turmush tarzini (STT) shakllantirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, bu masala boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tayyorgarligida

hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ularning bilim, ko‘nikma va shaxsiy namunasi orqali kelajak avlod salomatligiga zamin yaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ / LITERATURE ANALYSIS). Zamonaviy texnologiyalar sog‘liqni saqlash sohasiga joriy etilayotgan bo‘lsa-da, aholi salomatligini saqlash va yaxshilashda ta‘lim tizimi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ayniqsa, maktab jamiyatda ushbu muammoni bartaraf

etishda katta salohiyat va imkoniyatlarga ega ijtimoiy institut sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli, hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitlarda ta'lim oluvchilarning shaxsiy salomatligiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu esa nafaqat dunyo, balki O'zbekiston olimlarining ko'plab tadqiqotlarida, jumladan bizning tadqiqot mavzumizda ham o'z ifodasini topmoqda.

Tadqiqotda tibbiyot, psixologiya, pedagogika, falsafa va sotsiologiya sohalaridagi ilmiy manbalar tahlil qilinib, ilmiy yondashuvlar qiyosiy baholandi.

Salomatlik tushunchasi an'anaviy tarzda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ta'rifi asosida izohlanadi: ya'ni, bu faqat kasallikning yo'qligi emas, balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir. Ilmiy manbalarda salomatlik ko'p qirrali va murakkab kategoriya sifatida baholanadi. Masalan, Y.P.Lisitsin uni tug'ma va orttirilgan xususiyatlardan shakllangan yaxlit holat deb bilsa[4], A.G.Shedrina uni o'zgaruvchan va ko'p o'lchovli holat sifatida tasvirlaydi[6], V.P.Kaznacheyev esa salomatlikni biologik resurslarni saqlash va rivojlantirish jarayoni deb ta'riflaydi[3]. Ushbu qarashlar salomatlikni biologik, psixologik va ijtimoiy omillar uyg'unligidagi murakkab tizim sifatida talqin etadi. Biroq bunday holat o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi; uni barqaror saqlash insonning kundalik odatlari va xulq-atvoriga bevosita bog'liq. Shu nuqtayi nazardan "sog'lom turmush tarzi" salomatlikni ta'minlovchi amaliy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). STT tushunchasi nafaqat tibbiy, balki pedagogik jarayonning markaziy kategoriyalaridan biri bo'lib, o'qituvchi faoliyati, ta'lim muhiti va pedagogik shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

STT – bu inson salomatligini muhofaza qilish va yaxshilashga qaratilgan kundalik faoliyat, odat va xulq-atvorlar majmuasidir. U jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish, shaxsiy gigiyena, psixologik barqarorlik, zararli odatlardan voz kechish, kun tartibiga amal qilish kabi omillarni o'z ichiga oladi.

Sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqish tarixan katta ahamiyat kasb etgan. Nemis faylasufi Immanuel Kant esa o'z hayoti davomida STTga rioya qilgan va uning mohiyatini insonning ichki

tartib-intizomi, jismoniy chiniqish, ruhiy barqarorlik va aqliy mehnatni hayot tarzi bilan uyg'unlashtirishda deb hisoblagan[2].

Sharq tibbiyoti an'anaviy ravishda sog'lom turmush tarzi masalalariga katta e'tibor qaratib kelgan. Xususan, Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida salomatlikni saqlashning asosiy omillari sifatida ratsional ovqatlanish, toza havoda sayr qilish, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanish, ruhiy barqarorlikni ta'minlash va to'g'ri uyqu tartibini belgilar ekan, ularni har bir inson hayotining ajralmas qismi sifatida talqin qilgan. Muallif ta'limotiga ko'ra, ko'pgina kasalliklar noto'g'ri hayot tarzi natijasida kelib chiqadi, shu bois har qanday davolash chorasidan oldin turmush tarzini qayta ko'rib chiqish va to'g'ri yo'naltirish talab etiladi[1].

Bu qarashlar STTning ilmiy va falsafiy asoslari ko'p asrlardan beri shakllanib kelayotganini ko'rsatadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). STT tushunchasi ilk bor 1970-yillar oxirida tibbiyot sohasida ilmiy asosda o'rganila boshlangan. Bu tushuncha dastlab sanitar-gigiyenik qoidalarga amal qilish bilan bog'liq xulq-atvor sifatida talqin etilgan. Y.P.Lisitsin va A.V. Saxno turmush tarzini iqtisodiy, ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik toifalarga ajratib, inson salomatligini faqat sharoit bilan emas, balki tarixiy shakllangan urf-odatlar bilan ham bog'lab izohlaganlar.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, STT tushunchasiga doir qarashlar turli ilmiy va metodologik yo'nalishlarga asoslanadi. Umumlashtirilganda, quyidagi tendensiyalar kuzatiladi:

Integrativ yondashuv. STT jismoniy salomatlik bilan cheklanib qolmay, ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy farovonlikni ham qamrab oladigan butun tizim sifatida qaralmoqda.

Shaxsiy faollik va mas'uliyat. Inson o'z salomatligi uchun ongli qarorlar qabul qiluvchi faol va mas'ul subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Multidissiplinar yondashuv. STTni shakllantirish tibbiyot, psixologiya, falsafa, pedagogika va sotsiologiya fanlari o'rtasidagi hamkorlikni talab etadi.

Shu bilan birga, STTga nisbatan qator ilmiy yondashuvlar mavjud. Tibbiy-biologik yondashuv STTni organizm holati va gigiyena bilan

bog'laydi, ammo ruhiy-ma'naviy va ta'limiy omillarni kam yoritadi. Falsafiy-ijtimoiy yondashuv uni ijtimoiy munosabatlar tizimida izohlaydi, biroq metodik yechimlar nuqtayi nazaridan yetarlicha ishlanmagan. Psixologik-pedagogik yondashuv esa STTni shaxsiy motivatsiya, ma'naviy barqarorlik va ta'lim jarayonida shakllanuvchi ko'nikmalar bilan bog'laydi [5].

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, STT haqidagi qarashlar keng qamrovli va ko'p qirrali bo'lsa-da, ularning har biri muayyan jihatlarni yoritib, qolgan tomonlarni yetarlicha qamrab olmaydi. Masalan, tibbiy yondashuv jismoniy holatga urg'u beradi, ijtimoiy yondashuv madaniy va ma'naviy muhitni yoritadi, pedagogik yondashuv esa ta'lim jarayonidagi mexanizmlarga tayanadi. Ammo tadqiqot mavzusi — bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida STT ko'nikmalarini shakllantirish ekani sababli, faqat bir yo'nalish bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas.

Bizning ilmiy pozitsiyamiz shundaki, psixologik-pedagogik yondashuvni markaziy o'ringa qo'ygan holda, unga tibbiy va ijtimoiy qarashlarni ham integratsiya qilish talab etiladi. Bu holda pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim jarayoni, o'qituvchi shaxsiyati va motivatsiyani qamrab olgan birlashtirilgan model yaratish mumkin. Bu model orqali STT ko'nikmalarini nafaqat nazariy, balki amaliy, shaxsiy va ijtimoiy yo'nalishlarda ham rivojlantirish mumkin bo'ladi. Shu sababli, dissertatsiyada asosiy e'tibor psixologo-pedagogik yondashuvga qaratilib, uning pedagogik shart-sharoitlar bilan uyg'unligi asos qilib olindi. Bu yondashuv pedagogik shart-sharoitlarning ta'sirida STT ko'nikmalarini shakllantirish, o'qituvchi shaxsiyati va faol ta'lim jarayonidagi psixologik-motivatsion mexanizmlarni nazariy va amaliy jihatdan asoslash imkonini beradi[3].

Tadqiqot ishimizning mazkur faslining mazmun va mohiyatini yoritishda STT tushunchasiga turli olimlar va mutaxassislar tomonidan berilgan ta'riflarni keltirib o'tdik, ular tibbiy, biologik, ijtimoiy, pedagogik va falsafiy yondashuvlar asosida berilgan. Barcha ta'riflarda STT inson salomatligini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan hayot tarzi sifatida namoyon bo'ladi. Biroq ularning aksariyati muayyan sohalar nuqtayi nazaridan tartiblangan.

Shularni inobatga olgan holda, "sog'lom turmush tarzi" tushunchasi bo'yicha ishlab chiqqan mualliflik ta'rifimizni keltirib o'tmoqchimiz: Sog'lom turmush tarzi – shaxsning jismoniy, ruhiy va ma'naviy holatini uyg'un va barqaror ravishda saqlashga qaratilgan, ongli tanlov va shaxsiy mas'uliyatga asoslangan hayot tarzi bo'lib, u insonning hayot sifati, ijtimoiy faolligi va ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi faol tafakkur, madaniyat va ma'naviy barkamollikning amaliy ifodasidir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ushbu ta'rifning muhim jihati shundaki, u nafaqat STTning jismoniy va biologik jihatlarini, balki uning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy mohiyatini ham qamrab oladi. Bu ta'rif pedagogik nuqtayi nazardan STTni faqat salomatlikni saqlash vositasi sifatida emas, balki shaxsning barkamol rivojlanishiga xizmat qiluvchi ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ

ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Абу Али ибн Сина. Канон врачебной науки / пер. с араб. – Ташкент: Фан, 1985. – 323 с.
2. Хакимова Р.Р. Реформирование исламского образования на Южном Урале на рубеже XIX–XX веков // Проблемы истории, филологии, культуры. – 2008. – № 20. – С. 52–57.
3. Казначеев В.П. Основы общей валеологии: учеб. пособие / В.П. Казначеев. – М.: МОДЭК, 1997. – 48 с.
4. Лисицин Ю.Л. Образ жизни и здоровье населения / Ю.Л. Лисицин. – М.: Знание, 1982. – 40 с.
5. Матвеев А.П., Мельников С.Б. Методика физического воспитания с основами теории: учеб. пособие для студ. пед. ин-тов и учащихся педучилищ / А.П. Матвеев, С.Б. Мельников. – М.: Просвещение, 1991. – 191 с.
6. Щедрина А.Р. Морфофункциональные показатели здоровья студентов в связи с различными видами учебной деятельности и влиянием физического воспитания: автореф. дис.... канд. биол. наук. – Новосибирск, 1982. – 47 с.

Qabul qilindi: 16.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK: 37.013 (22.132)

JADIDLARNING TARBIYAVIY-PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA TALABALARNI XALQ HUNARMANDCHILIGIGA YO‘NALTIRISH

*Ermatova Mexriniso Bekmurodovna, Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti “Maktabgacha ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi*

ORIENTING STUDENTS TOWARDS FOLK HANDICRAFTS BASED ON THE EDUCATIONAL AND PEDAGOGICAL VIEWS OF THE JADIDS

*Ermatova Mexriniso Bekmurodovna, Lecturer, Department of
Preschool Education Denau Institute of Entrepreneurship
and Pedagogy*

НАПРАВЛЕНИЕ СТУДЕНТОВ К НАРОДНЫМ РЕМЁСЛАМ НА ОСНОВЕ ВОСПИТАТЕЛЬНО- ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ ДЖАДИДОВ

*Эрматова Мехринисо Бекмуродовна, преподаватель
кафедры дошкольного образования Денауского института
предпринимательства и педагогики*



e-mail:
mexriniso.ermatova@
gmail.com

https://orcid.org/0009-
0003-4853-6429

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidlarning tarbiyaviy-pedagogik qarashlari, ularning milliy madaniyat va ma’naviyatga bergan e’tibori, ayniqsa, xalq hunarmandchiligi orqali yosh avlodni kasb-hunarga yo‘naltirish borasidagi g‘oyalari tahlil qilinadi. Jadidlar faoliyatida mehnat tarbiyasi, amaliy mashg‘ulotlar, milliy qadriyatlar va estetik didni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgani ta’kidlanadi. Shu asosda talabalarni xalq hunarmandchiligi asoslariga jalb qilishning dolzarb yo‘llari va pedagogik asoslari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: jadidlar, tarbiyaviy qarashlar, pedagogika, xalq hunarmandchiligi, talabalar, milliy qadriyatlar, kasbga yo‘naltirish.

Аннотация: В данной статье анализируются воспитательно-педагогические взгляды джадидов, их внимание к национальной культуре и духовности, в частности, идеи о профессиональной ориентации молодежи через народные ремёсла. Подчеркивается, что в деятельности джадидов особое внимание уделялось трудовому воспитанию, практическим занятиям, формированию национальных ценностей и эстетического вкуса. На этой основе освещаются актуальные пути и педагогические основы привлечения студентов к народным ремёслам.

Ключевые слова: джадиды, воспитательные взгляды, педагогика, народные ремёсла, студенты, национальные ценности, профориентация.

Abstract: This article analyzes the educational and pedagogical views of the Jadids, their attention to national culture and spirituality, and particularly their ideas on guiding the younger generation toward vocational skills through folk handicrafts. The study emphasizes the Jadids’ focus on labor education, practical activities, national values, and the cultivation of aesthetic taste. Based on this foundation, the article highlights relevant methods and pedagogical principles for involving students in traditional crafts.

Keywords: Jadids, educational views, pedagogy, folk handicrafts, students, national values, vocational guidance.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat siyosiy yoki madaniy uyg‘onishning mahsuli, balki butun bir xalqning ilm, ma’rifat, tarbiya va kasb-hunar sohasida o‘z o‘rnini anglash yo‘lida

tashlangan dadil qadamlardan biri sifatida tarix sahnasida muhim iz qoldirdi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar, ayniqsa, zamonaviy ta'lim tizimiga, yosh avlod tarbiyasiga, milliy ong va qadriyatlarining shakllanishiga, mehnatga, kasb-hunarga bo'lgan munosabatga katta ta'sir ko'rsatdi [1]. Bugungi kunda ularning pedagogik merosi jamiyatimiz uchun bebaho boylik, amaliy va konseptual asos sifatida qadrlanmoqda.

Jadidlar yosh avlodni zamon talablari asosida tarbiyalash, ularda milliy iftixor, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kasbga mehr uyg'otish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga katta ahamiyat berganlar. Ularning ta'lim-tarbiyadagi yangicha qarashlari nafaqat diniy-ma'rifiy, balki dunyoviy bilimlar bilan boyitilgan, shuningdek, xalq hayotiga yaqin, an'anaviy hunarlarni asrab-avaylash va rivojlantirishga qaratilgan edi. Xususan, xalq hunarmandchiligi orqali talabalarining amaliy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish g'oyasi jadidlar merosida o'ziga xos o'rin egallagan.

Xalq hunarmandchiligi – bu faqat moddiy madaniyatning bir ko'rinishi emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy o'zlik va estetik dunyoqarashini ifodalovchi madaniy fenomen hisoblanadi. Jadidlar xalq hunarmandchiligini yoshlarni mehnatga o'rgatish, estetik tarbiyani shakllantirish, milliy qadriyatlarni singdirish vositasi sifatida qaraganlar. Ular maktab dasturlariga amaliy mashg'ulotlarni, ayniqsa, kasb-hunarga tayyorlovchi fanlarni joriy etishni taklif qilganlar va bu borada zamonaviylik bilan an'anani uyg'unlashtirishga intilganlar [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ \ LITERATURE ANALYSIS). Jadidchilik harakati O'rta Osiyo va Rossiya musulmonlari tarixida ijtimoiy-ma'naviy uyg'onish, ta'lim-tarbiyada islohot, milliy madaniyat va kasb-hunarga asoslangan taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratgan muhim tarixiy hodisa sifatida o'rganib kelinmoqda. Ushbu harakat doirasida shakllangan tarbiyaviy-pedagogik qarashlar, ayniqsa, yosh avlodni ilmga, mehnatga, hunarga yo'naltirishga qaratilgan g'oyalari bugungi zamonaviy ta'limga boy nazariy va amaliy asoslar beradi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar va manbalar jadidlarning xalq hunarmandchiligi bilan bog'liq faoliyatini chuqur tahlil etishga imkon beradi.

D.M. Isxakovning “Феномен татарского джадидизма” asarida jadidchilik harakati fenomeni Rossiya imperiyasi hududidagi musulmonlar, xususan, tatarlar orasida yuzaga kelgan yangi tafakkur shakli sifatida baholanadi. Muallif jadidchilikni diniy islohot bilan cheklamay, uni sotsiomadaniy hodisa sifatida yondashadi. Isxakovning ta'kidlashicha, jadidlarning asosiy maqsadi xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, uni zamonaviy ilm-fan, texnika va hunar o'rganishga undash bo'lgan. Bu qarashlar xalq hunarmandchiligi kabi amaliy faoliyatlarni ham targ'ib qilish orqali amalga oshirilgan.

Y.G.Abdulinning “Джадидизм, его социальная природа и эволюция” asarida jadidchilik harakatining ijtimoiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Muallif jadidchilikni zamonaviy taraqqiyotga yo'naltirilgan harakat sifatida ko'rib, uning asosiy tamoyillari – mehnatsevarlik, mustaqil fikrlash, kasb-hunarga intilish, ta'lim orqali jamiyatni o'zgartirish g'oyalariga asoslanganini ko'rsatadi. Abdulinning fikricha, jadidlar yoshlarni faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish zarurligini uqtirishgan. Bu g'oyalar bugungi ta'limda talabalarni xalq hunarmandchiligi orqali kasbga yo'naltirish konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi.

Tojikistonlik olim N.U.G'afurov ishlari esa Buxoro amirligi hududida faoliyat yuritgan jadidlarning madaniy-ma'rifiy faoliyatini kengroq qamrab oladi. Uning “История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате” nomli monografiyasida XX asr boshlarida Buxoroda jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari, kutubxonalar, ilm-ma'rifat targ'ibotchilari faoliyati keng tahlil etiladi. Muallif, shuningdek, bu maktablarda amaliy mashg'ulotlar, xalq hunarmandchiligiga oid saboqlar joriy etilganini qayd etadi. Bu holat jadidlar nazarida xalq hunarmandchiligi nafaqat iqtisodiy, balki tarbiyaviy-ma'naviy qadriyatlar manbai sifatida qaralganini ko'rsatadi [5; 6].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bugungi globallashtirish va raqamli taraqqiyot davrida yoshlarning xalq hunarmandchiligiga bo'lgan qiziqishi sustlashmoqda. Shu sababli yoshlarni, ayniqsa talabalarni xalq hunarmandchiligi an'anasiga yo'naltirish, ularni amaliy faoliyatga jalb etish,

ijodiy tafakkur va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning dolzarb vazifasiga aylangan. Bu yo'nalishda jadidlarning ilg'or g'oyalari va tajribasi biz uchun boy pedagogik manba sifatida xizmat qilishi mumkin [4].

Jadidchilik harakati Turkiston o'lkasida XX asr boshlarida yuzaga kelgan ma'rifiy uyg'onish davri bo'lib, uning yetuk vakillari – Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari jadid ma'rifatparvarlari millatni savodli, madaniyatli, hunarli qilishni bosh g'oya sifatida ilgari surganlar. Ularning asarlarida, pedagogik faoliyatida va amaliy ishlarida yoshlarni ilmga, hunarga, halol mehnatga, milliy qadriyatlarga sodiq bo'lishga da'vat etuvchi yondashuvlar o'z aksini topgan. Bugungi kunda bu bebaho meros yoshlarni, ayniqsa talaba-yoshlarni xalq hunarmandchiligi asoslariga yo'naltirishda muhim tarbiyaviy-pedagogik manba hisoblanadi [6].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Jadidlar xalqning ijtimoiy-ma'naviy hayotini tubdan isloh qilish, yosh avlodni ilg'or ta'lim asosida tarbiyalash, ularni mehnat va kasb-hunar faoliyatiga jalb qilish orqali milliy uyg'onishga erishishni maqsad qilgan edilar. Jadid ma'rifatparvarlaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonov yangi usul maktablarida faqat diniy saboq bilan cheklanib qolmasdan, bolalarga yozish, o'qish, hisob-kitob, amaliy mashg'ulotlar, ya'ni kasb-hunar asoslari o'rgatilishi lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yoshlar mehnat qilishga odatlanmas ekan, na moddiy mustaqillikka erisha oladi, na millat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladi. Shunday yondashuvlar hozirgi zamon ta'lim muassasalarida hunar va kasb asoslarini yoshlar ongiga singdirishda samarali pedagogik uslub bo'la oladi [7].

Abdurauf Fitrat esa "Hind ixtilolchisi", "Munozara", "Rahbari najot" kabi asarlarida yoshlarni mustaqil fikrlash, milliy qadriyatlarga tayanish, kasbga mehr qo'yish orqali hayotda o'z o'rnini topishga da'vat etadi. Bu fikrlar zahirida mehnatga, hunarga asoslangan tarbiya, ijodiy tafakkurni shakllantirish, ijodkor va amaliy ko'nikmalarga ega yoshlarni tarbiyalashga da'vat yotadi. Fitratning g'oyalari zamonaviy kasbiy ta'lim dasturlarida xalq hunarmandchiligi elementlarini joriy etish uchun nazariy asos bo'la oladi.

Shuningdek, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani, qator she'rlari va boshqa asarlarida

xalq hayoti, oddiy hunarmandlar, kosiblar, ishchi va dehqonlarning hayotiy faoliyati orqali halol mehnatga, hunarga bo'lgan hurmat ifodalanadi. Cho'lpon uchun xalq – bu yaratish, qurish, tiklash salohiyatiga ega buyuk kuch bo'lib, yoshlar bu kuchni anglash orqali o'z maqsadini topishi lozim. Cho'lpon yoshlarni faqat adabiyot, san'at orqali emas, balki kasb-hunar orqali ham tarbiyalash zarurligini ilgari surgan. Ayniqsa, u o'zining pedagogik maqolalarida maktablarga hunar sinflari kiritilishi, amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi g'oyasini ilgari suradi [3].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy kabi jadidlarning boy merosi, ularning ma'rifiy, tarbiyaviy va pedagogik qarashlari bugungi ta'lim tizimi uchun o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ular ilgari surgan mehnat va hunarga asoslangan tarbiya g'oyalari yoshlarni xalq hunarmandchiligi asoslariga yo'naltirishda, ularni kasbiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishda ishonchli poydevor bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – T.: "O'zbekiston", 2021. – 486 b.
2. Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan (jadidchilik tarixidan lavhalar). Nashrga tayyorlovchi S.Xolboyev. – Toshkent: Sharq, 2001.
3. Alimova D. Jadidchilik mustaqillik davri tarixchisi talkinida. //O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. – Toshkent: Eldinur, 1998.
4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar // To'plovchi, so'zboshi va izohlar: B.Qosimov. – 2-nashri, tuzatilgan va to'ldirilgan. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
5. Гафаров. Н.У. Джадидизм и его познание. – Душанбе, 2013 (на тадж. яз.). – 160 с.
6. Гафаров. Н.У. История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате (начало XX века). – Худжанд: Государственное издательство имени Рахима Джалила, 2000. – 176 с.
7. Гафаров. Н.У. Роль и место джадидизма в развитии просвещения и духовной культуры народов Средней Азии. – Душанбе, 2013. – 248 с.

**MILLIY TA'LIM-TARBIYA TIZIMI
MODERNIZATSIYASIDA DEMOKRATLASHUV
TAMOIYLLARINING FUNKSIONAL AHAMIYATI**

*Fayziyeva Mo'tabar Mardonovna,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi*

**MODERNIZATION OF THE NATIONAL
EDUCATION AND UPBRINGING SYSTEM: THE
FUNCTIONAL SIGNIFICANCE OF DEMOCRATIZATION
PRINCIPLES**

*Fayziyeva Mutabar Mardonovna,
Teacher of the Samarkand Regional Pedagogical Skills Center*

**МОДЕРНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ
ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ:
ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРИНЦИПОВ
ДЕМОКРАТИЗАЦИИ**

*Файзиева Мутабар Мардоновна,
преподаватель Самаркандского областного центра
педагогического мастерства*



[https://orcid.org/
0233-0222-0304-
062X](https://orcid.org/0233-0222-0304-062X)

e-mail:
fayziyevamutabar
1987@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy ta'lim-tarbiya tizimini zamonaviylashtirish jarayonida demokratik tamoyillarning tutgan o'rni va ularning funksional ahamiyati yoritilgan. Ta'lim jarayonida inson huquqlari, erkin fikr bildirish, teng imkoniyatlar va ishtirok etish prinsiplari asosida tashkil etilgan demokratik yondashuvlarning ta'siri tahlil qilingan. Maqolada, shuningdek, demokratlashuv tamoyillarining ta'lim muhitida ijtimoiy faollik, tanqidiy fikrlash va fuqarolik ongini shakllantirishdagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya tizimi, demokratik tamoyillar, modernizatsiya, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati, ta'lim islohotlari, erkin fikrlash, inklyuziv ta'lim, tanqidiy tafakkur, ijtimoiy faollik.

Abstract: This article highlights the role and functional significance of democratization principles in the process of modernizing the national system of education and upbringing. It analyzes the impact of a democratic approach based on the principles of human rights, freedom of expression, equal opportunities, and participation of all stakeholders in the educational process. Furthermore, the article explores the role of democratization in fostering social activity, critical thinking, and civic consciousness within the educational environment.

Key words: education and upbringing system, democratic principles, modernization, human rights, civil society, educational reforms, freedom of thought, inclusive education, critical thinking, social activity.

Аннотация: В данной статье освещается роль и функциональное значение принципов демократизации в процессе модернизации национальной системы образования и воспитания. Проанализировано влияние демократического подхода, основанного на принципах прав человека, свободы выражения мнений, равных возможностей и участия всех сторон в образовательном процессе. Кроме того, в статье раскрыта роль принципов демократизации в формировании социальной активности, критического мышления и гражданского сознания в образовательной среде.

Ключевые слова: система образования и воспитания, демократические принципы, модернизация, права человека, гражданское общество, образовательные реформы, свобода мышления, инклюзивное образование, критическое мышление, социальная активность.

Kirish. Ma'lumki, har bir millatning o'ziga xos, faqatgina o'z ta'lim-tarbiya taraqqiyoti hamda mamlakat rivojini ta'minlashga qaratilgan milliy ta'lim-tarbiya modeli mavjud bo'ladi. Mazkur modelni shakllantirishga hamda samarali amalga oshirilishini ta'minlashda nafaqat davlat siyosati, balki jamiyat a'zolarining ham o'rni muhim hisoblanadi. "Barcha xalqlar singari hozirgi XXI asrda bizning xalqimizda ham bolalarni bilimli, dono qilib tarbiyalashga juda katta ahamiyat berib borilmoqda. Zero, mamlakatimizda "Ta'lim va tarbiyaning maqsadi – millatimizning milliy ta'lim-tarbiya modeliga, ajdodlarimiz tajribasiga, zamonaviy va an'anaviylikni uyg'unlashtirishga tayan-gan holda, butun bir jamiyat a'zolarini barkamol inson sifatida shakllantirishga, ilmiy-nazariy, dunyoviy, diniy, ma'naviy-madaniy, axloqiy-estetik, intellektual, kreativ, kognitiv, projektiv tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan samarali faoliyatni amalga oshirishdan iboratdir" [1,8].

Ushbu mulohazalardan kelib chiqib shuni ta'kidlash o'rinliki, har qanday zamonaviy ta'lim ham milliy ta'lim va tarbiya bilan uyg'unlashsagina samarali natijalarga erishish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. "Demokratik ta'lim sog'lom demokratik jamiyatlarni rivojlantirishga intiladi. Uning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarni jamiyat hayotida ishtirok etish va mas'uliyatli harakat qilish uchun qurollantirish vositasi sifatida o'z ta'limini berishdir" [2].

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida demokratlashuv tamoyillarining asosiy maqsadi va funksiyalari tizim mazmunini yangilash, isloh etish, erkinlashtirish bilan birga ta'lim oluvchilarni demokratik jamiyat qurish g'oyasi bilan qurollantirish, demokratik jamiyat talablariga moslashtirish, o'z huquq va erkinliklarini chuqur anglagan holda farovon yashash sari yo'naltirishdan iboratdir. Bizningcha demokratlashuv tamoyillari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida ta'kidlangan ta'limning quyidagi asosiy prinsiplarini amalga oshirishga xizmat qiladi:

"ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;

ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilishi;

ta'lim va tarbiyaning demokratik xususiyati;

ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;

ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;

ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash" [3].

Demak ta'lim-tarbiya sistemasida mazkur prinsiplarning qo'llanilishi va amal qilishida demokratlashuv tamoyillari muhim funksional ahamiyat kasb etadi. Zero, demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatini ham demokratik ta'lim-tarbiya tamoyillarini oqilona tadbiq etish orqali shakllantirish mumkin.

S.Gavrov modernizatsiya nazariyasini an'anaviylikdan zamonaviylikka o'tilishi bilan kechadigan jarayon ekanligini ta'kidlab, uni uch xil ma'noda tushuntirib beradi:

a) G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarining Yevropa zamonaviy davriga taalluqli ichki rivojlanishi sifatida;

b) birinchi guruh mamlakatlariga kirmaydigan, lekin ularga yetib olishga intilayotgan davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan modernizatsiya;

v) eng modernizatsiyalashgan jamiyatlarning (G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika) evolyusion rivojlanish jarayonlari, ya'ni modernizatsiya doimiy jarayon sifatida islohotlar va innovatsiyalar orqali amalga oshiriladigan, bugungi kunda postindustrial jamiyatga asoslanganligi sifatida" [4, 824].

Shuni ta'kidlash o'rinliki, demokratik ta'lim-tarbiya tamoyillarini milliy ta'lim-tarbiya modeli bilan uyg'unlashtirishda modernizatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda mustaqillik yillarida demokratik ta'lim-tarbiya jarayonini bosqichma-bosqich milliy ta'lim-tarbiya bilan uyg'unlashtirish maqsadida oqilona modernizatsion yangilanishlar joriy etilib kelinmoqda. Bu yangilanishlar maktabgacha ta'limdan to oliy ta'lim hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlarida ham namoyon bo'lmoqda. Shuni alohida qayd etish zarurki, ta'lim-tarbiya jarayonidagi har qanday modernizatsiya, ya'ni har qanday islohot yoxud o'zgarish ta'lim-tarbiyaning milliy modeli bilan uyg'unlashmasa, bu yangilik natijasi samarali yakun topmaydi. Buni biz mustaqillik yillarida mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tsistemasida kiritilgan, ammo natijadorligi

sezilmagan bir qancha o'zgarishlarda ham guvohi bo'ldik.

Tahlil va natijalar. Bizningcha, milliy ta'lim-tarbiya sistemasi modernizatsiyasida demokratik tamoyillar quyidagi konstruktiv funksiyalarni bajarishi mumkin:

Birinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonining erkin mustaqil rivojlanishini ta'minlaydi. Bunda ta'lim tizimi rivojidan ta'lim muasasasi manfaatdorlikni his etadi hamda shuning ortidan tizim taraqqiyoti uchun doimiy harakatda bo'ladi. Ya'ni ta'lim dargohi xususiy bo'lmasa-da, ijtimoiy-iqtisodiy mustaqil bo'lganda, o'zining nufuzi, ta'lim beruvchilar salohiyati, ta'lim oluvchilar bilim darajasini va raqobatbardoshligini oshirish uchun muntazam yangi islohotlarni amalga oshirib boradi. Vaholanki mustaqillik berilishi tizimning mas'ulligini yanada mustahkamlab, o'z kelajagini o'zi berpo etishga yo'naltiradi. Misol uchun, bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim sistemasidagi bir qancha OTM (SamDU, UzMU kabi)larga berilgan moliyaviy mustaqillik ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirishga, dunyo reytinglaridan munosib o'rin egallash uchun muntazam turli strategiyalarni qo'llashda, shuningdek, jahonning eng ilg'or universitetlari hamda ilmiy markazlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishga olib keldi. Bu esa tizim rivojida konstruktiv ta'sir etmoqda.

Ikkinchidan, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarida o'z-o'zini anglash tuyg'usini shakllantiradi. O'z-o'zini anglash, aslida bu ham mas'uliyat, o'z onggi, ilmi, salohiyati, hayotining yaxshi bo'lishi uchun kurash demakdir. "O'zlikni anglash insonning o'zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini ifodalovchi tushuncha" [5,785] sanaladi. Ya'ni, Inson qachon o'zini qadrlashi mumkin? Qachon u o'zini baholay oladi? Albatta, erkin, mustaqil tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgandagina inson o'zini butun borliqdan ajratib, o'z-o'ziga baho beradi, o'z-o'zini anglay oladi. "O'z-o'zini anglash bu ichki dunyomiz – fikrlarimiz va his-tuyg'ularimizni kuzatish qobiliyati" [6] hisoblanadi. Demak, insonning o'zini-o'zi kuzata olishi, his- tuyg'ularini boshqarib, ichki dunyosiga nazar sola olishi ham, avvalo, demokratik tamoyillar orqali singdirilgan erkin fikrlash tarziga ega bo'lganda shakllanadi. "Milliy o'z-o'zini anglash – har bir millatning o'zini haqiqiy mavjud sub'yekt,

muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini manfaat va ehtiyojlar umumiylikni tushunib yetishiga o'z-o'zini anglash deyiladi" [7, 231].

Demak mavjudlikni, mansublikni, manfaatdorlik anglashda demokratlashuv tamoyillari asosiy o'rinni egallaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, milliy ta'lim-tarbiya tizimini modernizatsiya qilishda demokratlashuv tamoyillarining joriy etilishi - zamonaviy, adolatli va insonparvar jamiyat qurishning muhim shartidir. Ushbu maqolada ko'rsatib o'tilganidek, ta'lim sohasida inson huquqlari, erkin fikr, teng imkoniyatlar va ishtirokchilik kabi demokratik qadriyatlarning tatbiq etilishi nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyat va tanqidiy tafakkurni shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda, demokratik tamoyillar ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi, uni ochiq va inklyuziv muhitga aylantirish hamda yosh avlodni erkin va ongli shaxs sifatida voyaga yetkazishda beqiyos funksional ahamiyatga ega. Shu bois, bu tamoyillarni amaliyotga izchil tatbiq etish va institutsional darajada qo'llab-quvvatlash bugungi davr ta'lim strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergasheva M. Ta'lim va tarbiya falsafasi. Darslik. – Samarqand: SamDU, 2024. – B. 8.
2. <https://quest-eu.org/democratic-education/>
3. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида" ги ЎРҚ-637-сон Қонуни // <https://lex.uz/docs/5013007>
4. Гавров С.Н. Модернизация //Социокультурная антропология: история, теория, методология. Энциклопедический словарь. -Москва.: Академический проект: Константа, 2012. – С. 821-830.
5. Назаров Қ ва б.қ. Маънавий асосий тушунчалар луғати. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2021. – Б. 753.
6. Daniel Goleman: Emotional Intelligence. 2005. <https://www.amazon.com/Emotional-Intelligence-Matter-More-Than/dp/055338371X>.
7. Мустақиллик изохли илмий-оммабоп луғат. –Тошкент.: Шапк, 2006. – Б. 231.

PRAGMATIZM TAMOIYLLARINING YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI FALSAFIY TAHLILI

Nabiyev Maxsud Abdimannonovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF PRAGMATISM PRINCIPLES IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH ECONOMIC CULTURE

Nabiyev Maksud Abdimannonovich,
Independent researcher at Sharof Rashidov Samarkand State
University

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРИНЦИПОВ ПРАГМАТИЗМА В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

Набиев Максуд Абдиманнонович,
независимый исследователь Самаркандского
государственного университета имени Шарофа Рашидова



<https://orcid.org/0240-0024-0320-032x>
e-mail: maxsud@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada pragmatizm falsafasining asosiy tamoyillari: bilim, haqiqat, qadriyat va bilish jarayoni amaliy mezonlar asosida tahlil etiladi. Pragmatizmning bilimni harakat vositasi sifatida talqin qilishi, haqiqatni amaliy samara orqali aniqlashi, qadriyatlarni real foyda bilan bog'lashi chuqur falsafiy asosda ochib beriladi. Shuningdek, instrumentalizm, fallibilizm, verifikatsionizm kabi yo'nalishlar misolida pragmatizmning zamonaviy tafakkurga ta'siri yoritiladi. Maqola pragmatizm falsafasini insonning faol, izlanishga asoslangan ongiy pozitsiyasi sifatida ko'rsatadi hamda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: pragmatizm, bilim, haqiqat, qadriyat, amaliy natija, instrumentalizm, fallibilizm, verifikatsiya.

Annotation: This article examines the core principles of the philosophy of pragmatism: knowledge, truth, value, and the process of cognition from the perspective of practical application. It explores the philosophical foundations of interpreting knowledge as a means of action, truth as an idea justified through practice, and values as phenomena defined by real-life utility. The article also highlights the influence of pragmatism on modern thinking through such directions as instrumentalism, fallibilism, and verificationism. Pragmatism is presented as an active, inquiry-based position of consciousness, emphasizing the unity of theory and practice.

Keywords: pragmatism, knowledge, truth, value, practical result, instrumentalism, fallibilism, verification.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные принципы философии прагматизма: знание, истина, ценность и процесс познания с точки зрения их практического применения. Раскрывается философская сущность понимания знания как средства действия, истины - как идеи, оправдавшей себя на практике, и ценностей - как явлений, определяемых реальной пользой. Также анализируется влияние прагматизма на современное мышление через такие направления, как инструментализм, фаллибилизм и верификационизм. В статье прагматизм

представлен как активная, исследовательская позиция сознания человека, подчёркивается взаимосвязь теории и практики.

Ключевые слова: *прагматизм, знание, истина, ценность, практический результат, инструментализм, фаллибилизм, верификация.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy madaniyat nafaqat iqtisodiy faoliyatga oid bilim va ko'nikmalar majmui, balki shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va axloqiy yondashuvlarining mujassam ifodasidir. Ayniqsa, yosh avlod vakillarining iqtisodiy madaniyatini shakllantirishda falsafiy asoslarni aniqlab olish zarurati ortib bormoqda. Shu jihatdan, pragmatizm tamoyillari yoshlar iqtisodiy ongining shakllanishi va ularning real hayotga mos qarorlar qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Pragmatizm falsafasi foyda, amaliylik va natijaviylikni qadrlaydigan yondashuv bo'lib, u iqtisodiy faoliyatning axloqiy, ijtimoiy va individual omillari bilan uyg'unlikda tahlil qilinishini taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Pragmatizm, avvalo falsafiy tafakkurining bir yo'nalishi bo'lib, u 1870-yillarda yuzaga kelgan hamda XX asrning birinchi yarmida shakllangan. Falsafiy pragmatizمنىning yetakchi namoyandalari sifatida Ch.S.Pirs, U.Jeyms, J.Dyui, J.Santayana, J.Mid va boshqalarni keltirish mumkin. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tafakkuri hamda amaliyoti aynan pragmatizmga asoslanadi. Pragmatizm muhim masala - falsafiy fanlarning amaliy ahamiyatini oshirish masalasini hal etishda yetakchi omilga aylangan.[1,52].

Shu jihatdan, pragmatizm falsafasi o'zining amaliy yondashuvi bilan ajralib turadi. Uning diqqat markazida insonning real hayotdagi faoliyati, tajriba asosida shakllangan bilim, haqiqat va qadriyatlar tizimi turadi. "Pragmatizm (yunoncha pragma - ish, harakat) - falsafa, sotsiologiyadagi yo'nalish bo'lib, ularga ko'ra amaliyotda foydali natija beruvchi narsalargina haqiqat, deb baholanadi".[2] Pragmatizm nafaqat nazariy tushunchalar bilan cheklanmaydi, balki ular qanday foyda beradi, qanday natija beradi – degan savolni doimiy ravishda ilgari suradi. Bu esa uni zamonaviy inson tafakkuriga yaqinlashtiruvchi muhim falsafiy oqimga aylantiradi.

Pragmatizmga ko'ra, bilim – bu faqat tushuncha, axborot yoki nazariy mulohaza emas,

balki faoliyatga yo'naltirilgan vositadir. Inson bilimga ega bo'lish orqali hayotda qanday harakat qilishi, qanday qarorlar qabul qilishi va qanday natijalarga erishishi mumkinligi bilan aniqlanadi. Boshqacha aytganda, haqiqiy bilim – bu foydali, ya'ni inson faoliyatida real samara keltiradigan bilimdir. Shu bois, pragmatizmda bilim statik emas, balki dinamik tushuncha sifatida talqin qilinadi – u doimo harakatda, doimo tajribada sinovdan o'tuvchi jarayondir.

Pragmatistlar uchun haqiqatning mezoni uning nazariy yaxlitligi yoki izchilligi emas, balki amalda o'zini oqlash darajasidir. Uilyam Jeymsning ta'kidlashicha, haqiqat – bu inson hayotida "ishlaydigan", foyda keltiradigan fikrdir. Bu yondashuv haqiqatni absolyut va doimiy narsa deb emas, balki o'zgaruvchan va tajriba asosida yangilanadigan hodisa deb talqin qiladi. Bu esa inson tafakkurining ochiqqligi, yangilikka moyilligi va doimiy yangilanish tamoyillariga mos keladi. Haqiqat pragmatizmda mutlaq qonunlar bilan emas, balki amaliy natijalar bilan o'lchanadi. Shuningdek, har bir inson uchun haqiqatning amaliy ahamiyati turlicha bo'lishi mumkin, degan qarash ham ushbu yondashuvda muhim o'rin tutadi.

Pragmatizm qadriyatlar insoniy hayotdagi foydalilik mezoniga bog'langan. Qadriyatlar – bu jamiyatda yoki shaxs hayotida qanday ijobiy natija beradi – degan yondashuv bilan belgilanadi. Shu sababli, bu yo'nalishda qadriyatlar statik va universallashtirilgan emas, balki hayotiy tajriba asosida shakllanadi. Shaxs uchun ahamiyatli bo'lgan narsa – u qanday foyda keltiradi, qanday o'zgarish olib keladi – ana shu jihatlar qadriyat mazmunini belgilaydi. Bu qarashlar insonni qadriyatlar masalasida ham faol subyektga aylantiradi. U o'z hayotiy sharoiti, ehtiyojlari, tajribasi asosida qadriyatlarni shakllantiradi va ularni sinovdan o'tkazib, doimiy yangilab boradi.

Pragmatizm tafakkurda statik pozitsiyani inkor etadi. Bilish – bu tugallangan holat emas, balki har doim rivojlanib boruvchi jarayondir. Tajriba va sinov orqali shakllangan bilim doimo

yangilanadi, takomillashadi. Bu esa inson tafakkurini doimiy izlanishga, shubhalanishga va o'z ustida ishlashga yo'naltiradi. Bilish jarayoni – bu muayyan natijalarni ko'zlash orqali amalga oshadigan intellektual amaliyotdir. Pragmatizm aynan ana shu jarayonni qadrlaydi.

Tahlil va natijalar. Pragmatizmning markazida quyidagi fikr yotadi: agar biz biror ob'ekt haqida bilimga ega bo'lishni istasak, u holda avval bu ob'ektning qanday amaliy samara keltirishi mumkinligini aniqlashimiz kerak. Boshqacha aytganda, bizning bilimimiz – bu ob'ektning real hayotdagi foydasiga oid xulosalardan iborat bo'ladi. Bu tamoyil nazariyani amaliyotga bo'ysundirish emas, balki ularni o'zaro uyg'unlashtirishni ko'zlaydi.

Pragmatizm turli nazariy yondashuvlar shaklida rivojlangan:

Instrumentalizm – bilim va g'oyalarni hayotdagi vosita sifatida tushunish.

Fallibilizm – har qanday bilim xatolarga ochiq bo'lishi mumkinligini tan olish.

Aksilrealizm – haqiqatning obyektiv emas, balki subyektiv asoslarda qurilishini ta'kidlash.

Radikal empirizm – faqat tajribaga asoslangan bilishni tan olish.

Verifikatsionizm – fikrlarning amaliy isbotlanishini haqiqat mezon sifatida belgilash.

Bu yondashuvlar zamonaviy falsafiy tafakkurda harakatga yo'naltirilgan, ochiq, tanqidiy yondashuvlarni shakllantiradi.[3,4].

Pragmatizm yondashuvi yoshlarni an'anaviy andozalardan holi, real hayotiy holatlarga asoslangan qarorlar qabul qilishga yo'naltiradi. Bu yondashuv yosh avlodga iqtisodiy mustaqillik, innovatsion tafakkur va axloqiy mezonlarni uyg'unlashtirish ko'nikmasini shakllantirishda xizmat qiladi.

Pragmatizmning yana bir muhim jihati - etik iqtisodiy xulqni shakllantirishga qaratilganidir. Bu falsafa foydani mutlaq maqsad sifatida emas, balki axloqiy me'yorlar bilan uyg'un holda qaraydi. Shu sababli, halollik, adolat, ijtimoiy javobgarlik kabi qadriyatlar iqtisodiy faoliyatda markaziy o'rin egallaydi. Bunday

qarashlar yoshlar ongida iqtisodiy mas'uliyat va ijtimoiy burch tushunchalarini chuqurlashtiradi.

Xulosa. O'zbekiston sharoitida, bozor iqtisodiyoti asoslari bosqichma-bosqich mustahkamlanayotgan bir davrda, pragmatik tafakkurga ega yoshlar iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylanishi mumkin. Ayniqsa, bu yondashuv milliy an'analar, qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilganda, u yoshlar ongida mehnatsevarlik, isrofgarchilikdan tiyilish, innovatsiyalarga ochiqlik va iqtisodiy qarorlar qabul qilishga tayyorlik kabi fazilatlarni kuchaytiradi.

Pragmatizm tamoyillari yoshlar iqtisodiy madaniyatining shakllanishida nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. U insonni real sharoitda faol, ongli va mas'uliyatli iqtisodiy subyektga aylantirishga intiladi. Bugungi o'zgaruvchan iqtisodiy va ijtimoiy muhitda yoshlar ongiga amaliy, foydali, natijadorlikka asoslangan yondashuvni singdirish – ularning iqtisodiy madaniyatini chuqurlashtirish, milliy taraqqiyotga hissa qo'shuvchi yetuk fuqaro sifatida shakllantirishning muhim omilidir. Shunday ekan, pragmatizm falsafasi va tamoyillari O'zbekiston yoshlarini zamonaviy iqtisodiy jarayonlarga mos holda yetishtirishda kuchli falsafiy poydevor bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саифназаров И. Инновационные методы повышения прикладного характера философских дисциплин // Вестник РФО. – 2018. – №1. – С.52-54.
2. Девид Д. Большой толковый социологический словарь / Д. Девид, Дж. Джери. – М.: Литкон, 2001. – С. 129.
3. Saifnazarov I. Pragmatizm – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining falsafasi sifatida. / Monografiya. – Toshkent, «Oltin qalam nashriyoti» 2023. – 4 b.
4. Komilov, R. R. (2017). The Aesthetic Significance Of The Uzbek Nation's Wedding Ceremonies Evolution. In *practice of communicative behavior in social and humanitarian researches* (pp.47-50).

INGLIZ TILI DARSLARIDA TALABALARNING GRAMMATIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

*Toshpo'latov Temur Mo'minjonovich,
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
Ingliz tili o'qituvchisi*

DEVELOPING STUDENTS' GRAMMATICAL COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES

*Tashpulatov Temur Muminjonovich
English teacher, Tashkent State Pedagogical University named after
Nizomi*

РАЗВИТИЕ ГРАММАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

*Ташпулатов Темур Муминжонович,
преподаватель английского языка Ташкентского
государственного педагогического университета имени Низоми*



<https://orcid.org/0009-0009-5712-4999>

e-mail:
temurtashpulatov92@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada ingliz tilida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishning usullari misollar asosida tahlil qilinadi. Ingliz tilini o'qitish jarayonida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati, bu borada hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalarining roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, grammatik kompetensiya, o'qituvchi, talaba, dars jarayoni, pedagogik texnologiyalar.

Annotation: This article analyzes methods for developing grammatical competence in English through illustrative examples. It highlights the importance of enhancing grammatical skills in the process of teaching English and explores the role of collaborative educational technologies in this context.

Keywords: English language, grammatical competence, teacher, student, lesson process, pedagogical technologies.

Аннотация: В данной статье анализируются методы развития грамматической компетенции на английском языке на основе примеров. Раскрывается значение развития грамматических компетенций в процессе преподавания английского языка, а также роль технологий совместного обучения в этом процессе.

Ключевые слова: английский язык, грамматическая компетенция, преподаватель, студент, учебный процесс, педагогические технологии.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Milliy va xalqaro miqyosdagi madaniyatlararo integratsiya jarayonlari chet tillarini o'qitish mazmunini modernizatsiya qilishga olib keldi. Til dunyo manzarasini anglash, boshqa xalqlar tomonidan yaratilgan qadriyatlarni o'zlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda chet tilini bilish nafaqat maktab o'quvchilari, talabalar, o'qituvchilar, balki o'zini bilimli inson deb biladigan har bir kishi uchun ustuvor vazifadir. Talabalarda nutq, til, ijtimoiy-madaniy Chet tili

orqali asosiy universal ta'lim kompetensiyalari – bilim, axborot, ijtimoiy mehnat va shaxsiy rivojlanish jarayoni shakllanadi.

Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish mazmuni talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan asosiy maqsadlarni amalga oshiradi. Talabalarining chet tilida muloqot qilish qobiliyati ularning lingvistik, nutqiy va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini o'z ichiga olgan chet tilining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish orqali ta'minlanadi. Bu

kompetensiyalar, o'z navbatida, quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi: lingvistik kompetensiya leksik, grammatik, fonetik va imlo qoidalari va ularga mos keladigan malakalarni o'z ichiga oladi; Nutq kompetensiyasi to'rtta asosiy kompetensiyani o'z ichiga oladi: tinglash, gapirish, o'qish va yozish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS).

Ingliz tilini o'rganishning eng muhim jihatlaridan biri grammatik tuzilmalarni o'zlashtirishdir. Grammatika - bu so'z shakllarini shakllantirish va ularni gapda birlashtirish qoidalarining obyektiv tizimidir. Grammatika ilmiy fan sifatida tilning grammatik tuzilishini tavsiflaydi. Chet tilini o'qitish metodikasida grammatika tilning tuzilishini o'zlashtirishda foydalaniladigan vosita sifatida talqin qilinadi.

Bugungi kunda o'qituvchilar, psixologlar va metodistlar o'rtasida chet tilini o'qitishda grammatika o'rni to'g'risida yakdil fikr mavjud emas. Ayrim mualliflarning fikricha, grammatika ko'nikmalarini rivojlantirish chet tillarini o'qitishning eng zaif tomonlaridan biri hisoblanadi. Tilshunos G.V.Rogova, grammatika nutqdan ajralmas ekanligini ta'kidlaydi – busiz hech qanday nutq shakli shakllanishi mumkin emas. Demak, grammatika so'z boyligi va tovush tarkibi bilan bir qatorda nutqning moddiy asosi hisoblanadi. Grammatika shakllantiruvchi rol o'ynaydi va tilning tuzilishini o'zlashtirish vositasidir. Qoidalarini amalda qo'llay olish grammatikani yaxshi bilish belgisidir [1].

МУХОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Talabalarining ingliz tili, jumladan grammatik ko'nikmalarga asoslangan kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish fan o'qituvchisining asosiy vazifasidir. Normativ hujjatlar o'qitishning turli bosqichlarida o'zlashtirilgan grammatik tuzilmalarni belgilaydi va o'qituvchining vazifasi talabalar nutqida ushbu tuzilmalardan takroran foydalanishni ta'minlashdan iborat. O'qituvchi bu vazifani qanchalik metodik jihatdan malakali bajarsa, o'quvchilar grammatik jihatdan to'g'ri gapirish qobiliyatini shunchalik samarali o'zlashtiradilar.

Hozirgi vaqtda talabalarining grammatik kompetensiyasini rivojlantirish va takomillashtirish muammosi oliy o'quv yurtlarida chet tillarini o'qitish metodikasining eng murakkab va dolzarb

masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu muammoning dolzarbligi qator omillar bilan bog'liq: o'quv rejasida chet tili bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar sonining qisqarishi, ta'lim texnologiyalarining transformatsiyasi, ya'ni an'anaviy auditoriya mashg'ulotlariga qo'shimcha ravishda onlayn amaliyotlar sonining ko'payishi, shuningdek, raqamli muhitda talabalarining mustaqil ishlarining ko'payishi; kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlariga yuqori talablarning mavjudligi va grammatik kompetensiyani rivojlantirishning keng qamrovli tizimining yo'qligi [2].

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, talabalar grammatika modelida bosh gap yoki leksik birlikni to'g'ri tanlashda qiynaladilar, grammatik konstruksiyalarni noto'g'ri o'zgartiradilar, ingliz tiliga tarjima bo'yicha mashqlarni bajarishda xatolarga yo'l qo'yadilar va nutq faoliyatida grammatik konstruksiyalardan foydalanmaydilar. Chet tillarni o'rganayotgan talabalarining grammatik kompetensiyasining yuqori darajasiga erishish zarurati ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Belgilangan maqsad quyidagi vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi:

chet tili grammatikasini o'qitishning tarixiy jihatlarini va grammatik materialni tavsiflash va chet tilining grammatik kompetensiyasini shakllantirishning zamonaviy yo'nalishlarini o'rganish;

kognitiv, kommunikativ, shaxsga yo'naltirilgan va sotsial-madaniy yondashuvlar asosida chet tillarini o'rganayotgan talabalarining grammatik kompetensiyasi tarkibini aniqlash;

chet tili darslarida talabalarining grammatik kompetensiyasini oshirishga qaratilgan vazifalar majmuasini ishlab chiqish [3].

НАТИЖАЛАР (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ingliz tili darslarida talabalarining grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish muammosini hal qilish quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanishni talab qiladi:

– nazariy usullar: grammatika, nutq, grammatik kompetensiya va til materiallari korpusiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;

– empirik usullar: oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish bo'yicha amaliy tajribalarni umumlashtirish, chet tili darslarida talabalarining

grammatik kompetensiyasini oshirishga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish.

Bizning fikrimizcha, grammatik kompetensiyani takomillashtirish kognitiv, kommunikativ, o'quvchiga yo'naltirilgan va ijtimoiy-madaniy yondashuvlar asosida amalga oshirilishi kerak [4]. Grammatik kompetensiyani rivojlantirishga kognitiv yondashuv talabalarining grammatik materialni, qoidalar va sxemalarni tahlil qilishini, kontekstdagi grammatik hodisalarning shakli va funksiyasi haqida xulosa chiqarishni, shuningdek, grammatik tuzilmalarning shakli va funksiyasi to'g'risida induktiv va deduktiv ravishda nazariy umumlashmalarga kelishini nazarda tutadi.

Kommunikativ yondashuv talabalarining kommunikativ vaziyatlarda grammatik tuzilmalardan faol foydalanishni ta'minlash uchun turli nutq muammolarini hal qilishni o'z ichiga oladi.

Talabaga yo'naltirilgan yondashuv grammatik ma'lumotlarni idrok etish va qayta ishlashda turli kognitiv uslublardan, shuningdek, grammatik topshiriqlarni bajarish strategiyalaridan foydalanishni talab qiladi [5].

Ijtimoiy-madaniy yondashuvga ko'ra, talabalar grammatik material ustida ish olib boradilar, muloqotning sotsial-madaniy va sotsiolingvistik me'yorlarini o'zlashtiradilar, milliy va chet el madaniyatlarini qiyoslash orqali konseptual kategoriyalarni shakllantiradilar, ikki madaniyatning qadriyat va me'yorlarini o'z ichiga olgan til landshaftini yaratadilar.

Grammatik kompetensiyaning lingvistik tarkibiy qismini takomillashtirish, ya'ni grammatik bilimlarni tizimlashtirish uchun talabalar quyidagi mashq turlarini bajaradilar:

- grammatik hodisaning shakl va vazifasini tahlil qilish;

- muqobil grammatik shakllarni kontekstda qiyoslash;

- nutq birliklarida nutq belgilarini o'rganish;

- kontekstga mos keladigan to'g'ri grammatik shaklni tanlash va qo'llash;

- grammatik xatolarni aniqlash va tuzatish;

- o'zlashtirilgan birliklar yordamida grammatik tuzilmalarni o'zgartirish;

- jumalarni chet tiliga va chet tilidan ona tiliga tarjima qilish [1].

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, grammatik kompetensiya madaniyatlararo

muloqotning samaradorligini va kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni belgilaydi. Lingvistik profilga ega bo'lgan oliy o'quv yurtlari talabalarining grammatik kompetensiyasini biz chet tilining grammatik (morfologik, sintaktik, orfografik, grafik va sotsiolingvistik) me'yorlariga muvofiq to'g'ri tuzilgan nutq birliklarini tushunish va yaratish qobiliyati sifatida izohlaymiz.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Talabalarining grammatik kompetensiyasini oshirish faqat kognitiv, kommunikativ, shaxsga yo'naltirilgan va ijtimoiy-madaniy yondashuvlar asosida samarali bo'ladi. Ushbu yondashuvlar induktiv va deduktiv usullar yordamida grammatik bilimlarni tizimlashtirishni, o'rganilayotgan tilning sotsial-lingvistik va sotsial-madaniy xususiyatlariga mos ravishda kommunikativ muammolarni hal qilishni, shuningdek, til ma'lumotlarini qayta ishlashda talabalar tomonidan turli kognitiv va tarbiyaviy strategiyalardan foydalanishni ta'minlaydi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):**

1. Азимов Э.Г.Словарь методических терминов (теория и практика преподавания иностранных языков). – СПб.:Златоуст,1999. –362 с.
2. Алиева Т. Формы контроля при проверке грамматической компетенции у студентов языковых вузов (на примере французского языка) // Язык и деятельность. Научные чтения: сборник статей по итогам VIII международной конференции. – Москва. 2023. – 455 с.
3. Белова Е. Роль информационно-коммуникационных технологий в формировании иноязычной грамматической компетенции в условиях автономного обучения. Письма в Эмиссия. Офлайн. 2020. – 286 с.
4. Еловская С. В. Формирование иноязычной грамматической компетенции у обучающихся старших классов // Вестник Тамбовского университета. Серия «Гуманитарные науки». 2019. – С. 187-196.
5. Котрикадзе Е. В. Формирование грамматической компетенции у студентов неязыковых вузов в процессе изучения английского языка // Проблемы современного педагогического образования. 2023. № 78-3. – С. 121-127.

THE SILK ROAD AS A WAY OF CONNECTING CENTRAL ASIAN AND EUROPEAN CULTURE, HISTORY, AND ART

*Khamdamova Sitora Safarovna, Doctor of Philosophy (PhD),
Associate professor, Senior teacher, Academy of The Ministry of
Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*

BUYUK IPAK YO'LI MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA MADANIYATI, TARIXI VA SAN'ATINI BOG'LOVCHI YO'L SIFATIDA

*Xamdamova Sitora Safarovna, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
katta o'qituvchisi, dotsent, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)*



<https://orcid.org/0000-0002-0798-938X>

e-mail:
sitoraxamdamova92@
gmail.com

ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ КАК СПОСОБ СОЕДИНЕНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОЙ И ЕВРОПЕЙСКОЙ КУЛЬТУРЫ, ИСТОРИИ И ИСКУССТВА

*Хамдамова Ситора Сафаровна, старший преподаватель
Академии министерства внутренних дел Республики
Узбекистан, доцент, доктор философии по философским
наукам (PhD)*



Abstract: The article, devoted to the diplomacy of the ancient Silk Road and its influence on intercultural development, emphasizes the historical significance of the Silk Road, particularly its role in the fostering diplomatic and cultural relations. It analyzes the formation of the cross-cultural environment in Central Asia and examines the key factors that influenced this process. It is also emphasized that, based on Silk Road diplomacy, not only cultural but also economic cooperation was established among Asian countries, and this process was actively extended to European nations as well.

Key words: cultural evolutionary theories, cultural diffusion, silk supply, raw silk, cross-cultural interaction, diplomatic relations, silk weavers, ancient Silk road diplomacy.

Annotatsiya: Qadimgi Ipak yo'li diplomatiyasi va uning kross-madaniy rivojlanishga ta'siri mavzusidagi maqolada Ipak yo'lining tarixiy ahamiyati, ayniqsa, uning diplomatik va madaniy aloqalarni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Unda Markaziy Osiyoda kross-madaniy muhitning shakllanishi va bu jarayonga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Ipak yo'li diplomatiyasi asosida Osiyo davlatlari o'rtasida nafaqat madaniy, balki iqtisodiy hamkorlik yo'lga qo'yilgani, bu jarayon Yevropa mamlakatlari bilan ham faol olib borilgani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: madaniy evolyutsiya nazariyalari, madaniy diffuziya, ipak yetkazib berish, ipak xomashyosi, kross-madaniyat o'zaro ta'siri, diplomatik aloqalar, ipakchilar, qadimgi Ipak yo'li diplomatiyasi.

Аннотация: В статье, посвящённой дипломатии древнего Шёлкового пути и её влиянию на кросс-культурное развитие, рассматривается историческое значение Шёлкового пути, особенно его роль в развитии дипломатических и культурных отношений. Анализируется формирование кросс-культурной среды в Центральной Азии и выявляются ключевые факторы, повлиявшие на этот процесс. А также подчёркивается, что на основе дипломатии Шёлкового пути

формировалось не только культурное, но и экономическое сотрудничество между странами Азии, причём данный процесс активно распространялся и на европейские государства.

Ключевые слова: *теории культурной эволюции, культурная диффузия, поставки шелка, шелк-сырец, кросс-культурное взаимодействие, дипломатические отношения, ткачи шелка, дипломатия древнего Шелкового пути.*

INTRODUCTION. The history of the culture of the peoples of Central Asia goes back to the distant past. Culture embodies the way of life and traditions of the people. It is known from history that the territory of Central Asia is located at the crossroads of intercultural contacts. This provided the opportunity for cultural interaction of the country with the cultures of other countries. From ancient times to the present day, several famous trade routes passed through the territory of Central Asia. For example, the “Lapis lazuli Road”, the “Royal Road” and the “Great Silk Road”. Among them, the longest and most extended was the Great Silk Road, the length of which was 12 thousand kilometers.

The first of these roads, which connected the territories of the Ancient East and Central Asia in the 3rd-2nd millennia BC, was called the “Lazurite Road”. One branch of this road connected Europe, and the other - the countries of Asia. Another important ancient road is associated with the Achaemenids, one of the Iranian dynasties. One branch of this road connected the cities of Asia Minor, as well as Ephesus and Sardis on the Mediterranean coast, with the Iranian city of Susa in the 6th-4th centuries BC, and the other passed through Iran, Central Asia, South Kazakhstan and came to Altai. In historical sources, this road is called the “Royal Road”. The third and largest of the ancient trade routes is called the “Great Silk Road” and stretched for 12 thousand km. The first branch of the Great Silk Road, which at one time had great social, economic and military significance, began in the 2nd-1st centuries BC. in the Chinese city of Xi'an and extended through East Turkestan, Central Asia, Iran, Mesopotamia to the Mediterranean Sea. Having reached the Chinese city of Anosi, the Silk Road divided into several branches. In particular, one branch went through Anosi-Hami-Kashgar to Kokand, and from there to Tashkent. From here the road to Bukhara through Jizzakh and Samarkand went to Guryev via Urgench, and from there to the Black Sea coast through Oqsaroy.

Another branch went through Dunhuang to Khotan, and from there to Lahore. In addition, having reached Bukhara, this branch divided into two. The southern route went through Bukhara-Karshi-Termez to Nishapur and went to India through Herat. One of the branches in Nishapur stretched along the route Tehran – Qazvin – Hamadan – Baghdad – Palmyra to the city of Tiro on the Mediterranean Sea. In general, the southern branch of the Silk Road passed through Uzgen to Osh, and then through Kuva-Margilan-Kokand to Khujand, Samarkand and Bukhara. The northern branch, through the Khazar Khaganate and the Bulgar State, went to Kievan Rus and the countries of Europe, and this network began to develop from the 6th century. In addition to the main caravan routes of the Silk Road, there were also internal trade routes[6].

MATERIALS AND METHODS. The Great Silk Road was famous throughout the world for its silk trade. This trade route consisted of three periods. In the early periods, silk attracted European countries and encouraged traders, builders and scientists to travel along the Silk Road. These trips contributed to the development of silk fabric production technology by other countries. In the third period, silk was supplanted by other precious stones, spices and medicinal herbs, and trade in them intensified.

The Silk Route also linked up with several other great trading routes. The Indian Grand Road brought spices up from the Punjab over the Hindu Kush to join the Silk Route at Bactra. The Incense Road, carrying oriental perfumes, led up from the southern shore of Arabia to join the Silk Route at Damascus. Here in the Syrian heartland the Silk Route was also joined by a branch of the Spice Route. This was largely a sea route, which led down the Red Sea, across the Indian Ocean to India, and beyond to the south coast of China. This was the Silk Route's main alternative in trade with the East. During the periods when the Silk Route was too dangerous for traders, silk would often

come from China by ship along this much longer (but often much safer) route[7].

Thus, in the countries located on the Great Silk Road, along with economic indicators and trade, culture, education and science began to develop rapidly. The process of mutual communication contributed to the exchange of cultures, the harmony of arts, the improvement of the knowledge and skills of masters and artisans, the growth of the state economy, the development of new languages and the improvement of diplomatic relations between countries.

During this “third” Silk Road, silk, while still a highly valued Chinese export, was no longer the primary commodity. Europeans wanted pearls and gems, spices, precious metals, medicines, ceramics, carpets, other fabrics, and lacquerware. All kingdoms needed horses, weapons, and armaments. Besides, silk production already was known in the Arab world and had spread to southern Europe. Silk weavers and traders – Arabs, “Saracens”, Jews, and Greeks from Sicily and the eastern Mediterranean – relocated to new commercial centers in northern Italy. Italian silk-making eventually became a stellar Renaissance art in Venice, Florence, Genoa, and Lucca in the 14th and 15th centuries. New stylistic techniques were added, like alto-e-basso for velvets and brocades, while old motifs, like the stylized Central Asian pomegranate, took on new life[3].

Cities such as Samarkand, Bactria and Merv were considered centers of advanced science and culture. The mixture of Arab, Persian, Greek and Indian cultures, as well as local ones, created cross-cultural interaction.

RESULTS AND DISCUSSION.

Important oasis cities like Khotan, Turfan, and Dunhuang were reached by the northern and southern routes that circumnavigated the Taklamakan Desert. These urban centres were crucial in assisting traders and serving as cultural melting pots. Other important cities along the Silk Road were Antioch, Palmyra, and Constantinople in the West, and Merv, Bactria, and Samarkand in Central Asia[4].

The introduction of sea routes into the trade of European and Asian countries not only reduced the countries’ costs, but also ensured security.

Commercial trade and competition was of great importance by the 15th century with the

growth of European cities, guilds, and royal states. With the decline of Mongol power, control over trade routes was vital. The motivation behind Portuguese explorations of a sea route to India was to secure safer and cheaper passage of trade goods than by land caravans, which were subject to either exorbitant protection fees or raiding by enemies. Indeed, it was the search for this sea route to the East that led Columbus westward to the “New World”[3].

As trade intensified, countries sought to trade both by land and by sea. This, in turn, required geographical knowledge in addition to language learning.

The audacity of the Portuguese attempt to establish an Estado da India through enforcement of a cartaz (safe-conduct) system underestimated the resilience and vibrancy of Asian shipping dominated largely by Arab shipping. Persian and Arab shippers and traders had developed the earlier Graeco-Roman trade routes across the Arabian Sea from the Gulf ports of Basra and Saifra to Sri Lanka and crossing the Bay of Bengal to Śrīvijaya before heading north to Guangzhou[2].

The silk trade influenced European culture, customs and lifestyle. Silk clothing became a tradition among nobles and merchants. This led to the widespread use of silk products by individuals.

The modern Era. Trade in silks helped fuel the mercantile transformation of Western Europe. French King Charles VII, the dukes of Burgundy, and their successors participated vigorously through markets in Bruges, Amsterdam, Lyon, and other towns. The practice of emulating Asian silk styles was institutionalized in Lyon, France, with the development of imitative Chinese and Turkish motifs, chinoiserie and turquerie respectively. A steady stream of European travelers and adventurous merchants moved luxury goods between Europe, the Middle East, Iran, India, and China. Jean-Baptiste Tavernier (1605- 98), who traversed parts of the Silk Road on six journeys and witnessed the building of Versailles, Isfahan, and the Taj Mahal, traded in diamonds and pearls, was awarded “Oriental” silk robes of honor by the Shah of Iran and a barony by Louis XIV (for the sale of what later became the Hope Diamond). The English developed their own silk industry and tried silk cultivation in Ireland, and even in the New

World. Mulberry trees and silkworms went with settlers to Jamestown in the early 1600s. Silk cultivation was successful but only for a time; other attempts followed later in Georgia, among the 19th-century Harmonists in Pennsylvania, and even among the Shakers in Kentucky. Still, imported silks showed the long reach of an international trade[3].

The culture of the peoples of Central Asia has always interested all nations with its achievements in science. Peoples speaking several languages have long inhabited this region. This contributed to the emergence of scientists and thinkers. For example, during the Hellenistic period, along with Greek culture, the Greek language also penetrated here, and Central Asian scientists studied the works of Greek philosophers in Greek and wrote commentaries on them. Chinese, Iranian, Indian and other cultures also penetrated along the Silk Road. Together with these cultures, they also adopted the unique features of Central Asian religion and culture.

The end of the Mongol age in the East coincided with the brewing Commercial Revolution in late Medieval Europe, which marked the beginning of another epochal event in the history of the silk trade: the beginning of the Western European silk weaving industry. Important silk manufacturing towns, such as Lucca in Northern Italy, began to establish themselves in the mid-thirteenth century. The industry and technology quickly diffused across the Continent[1].

The spread of silk products and raw materials along the Great Silk Road to European countries marked the beginning of the production of this product. They not only used silk products in everyday life, but also established their own silk production.

Silk styles and fashions were led, in Europe, by royalty, but soon extended to a wealthy merchant class, and were broadened further as a result of new manufacturing techniques. Silk production became industrialized in 1804 with the Jacquard loom. This loom relied upon punched cards to program the complex orchestration of threads into wonderful patterns; the cards later inspired the computer punch cards of the mid-20th century. Throughout the 19th century, chemists developed synthetic dyes. Designers, who could

create one-of-a-kind items for the elite but also develop mass-produced lines of clothing, furnishings, and other silk products, set up shop in Paris. Asia was the subject of romantic allure and fascination by elites of the period. In the early 1800s, England's George IV built his Brighton palace in an IndoPersian style, decorated it with Chinese furniture, and wore silk garments, thereby setting a trend, with his friend Beau Brummel, for men's formal fashion. Declared Empress of India in 1858, Queen Victoria was feted with grand celebrations and a diamond jubilee that included "Oriental" durbars or courtly convocations, replete with marching elephants and parades of Asian troops adorned in native dress. Parisians held costumed balls, dressed up as sultans and Asian royalty. Kashmiri and Chinese silk scarves were a big hit. Jewelers Cartier and Tiffany used Asian gemstones and imitated Asian decorative styles. Tiffany and Lalique were designing silk sashes, scarves, and other items. New silk textiles like chiffons and crepes were developed in France, and silk cultivation centers sent raw silk to design houses and production factories to meet demand. This demand extended to the United States, and raw silk was imported from Japan and dyed using the soft waters of the Passaic River in Paterson, New Jersey. Paterson became the U.S. headquarters of silk supply, design, and furnishing companies[3].

Over centuries, knowledge about sericulture spread from China to other areas of Asia, and starting in the eleventh century CE to Europe, and then in the sixteenth century to European colonies in the Americas. As it spread, so too did knowledge about production techniques, which had to be adapted to local environmental conditions. For instance, in the 17th century, the Chinese treatise *Tiangong Kaiwu* was first introduced to Japan and France. This book records how to improve the yields of mulberry trees. These treatises record how to cut mulberry trees' leaves and roots to maximize the following years' production. Such discussions were usually quite detailed when it came to arranging and treating the trees according to the annual cycle[5].

It is no coincidence that the ancient roots of cross-cultural interaction in Central Asia go back centuries, and its connection with such cultures as the Hellenistic era, the Silk Road culture, Persian

culture, Indian culture, Arabic culture, Russian culture, is today considered one of the main objects of scientific research. These connections allow us to reveal the stages of development of the existing culture and identify close ties between peoples.

It was during this Orientalist period that the idea of the Silk Road as a way of connecting European and Asian culture, history, and art, was articulated by Baron von Richthofen. In 1786 William Jones had found the links between Sanskrit and Latin, devising the idea of an Indo-European family of languages. Throughout the 19th century, European philologists were working on the relationships between European and Asian languages, positing such “families” as Uralic and Altaic. European scholars found common roots in religions and symbols spanning Eurasia and relating Hinduism and Buddhism to ancient Greco-Roman mythology, and with Judaism, Islam, and Christianity. Archaeologists had begun to find links between widely dispersed civilizations of Egypt, the Mediterranean, Mesopotamia, Iran, India, and Central Asia. Cultural diffusion, particularly strong in German and later English social science, became an explanatory model for the similarities found in widely separated societies, and an alternative to cultural evolutionary theories. These connections across cultures, history, and geography still intrigue us today. Consider, for example, the names of a number of stringed instruments with the root *tar* (“string” in Persian), from the *tar* itself to the *dotar*, *dutar*, *lotar*, *setar*, *sitar*, *qitar*, *guitarra*, and the *guitar*[3].

CONCLUSION. From the above, European countries used Central Asian motifs as a cultural source in silk production. Silk products

were created by exchanging European and Asian motifs, which led to the emergence of new types of silk fabrics.

In formulating the idea of the Silk Road, Richthofen saw Central Asia as not only the land bridge between distant civilizations, but as a source of cultural creativity in its own right[3].

REFERENCES:

1. Debin Ma. The Great Silk Exchange: How the World was Connected and Developed. UK, 1998.
<https://www.econhistdbm.com/uploads/8/1/9/7/81977286/silkpacific.pdf>
2. Kwa Chong Guan, The Maritime Silk Road: History of an Idea, Nalanda–Sriwijaya Centre Working Paper. No 23. Singapore, 2016.
3. Richard Kurin. The Silk Road: Connecting People and Cultures. 2002. https://folklife-media.si.edu/docs/festival/program-book-articles/FESTBK2002_07.pdf
4. Riya, Dr. Pushparaj Singh. The Silk road: trade, culture, and exchange. International Journal of Creative Research Thoughts. Volume 13. India, 2025.
5. The Production of Silk. 2022. <https://www.history21.com/>
6. U.N. Xodjamkulov. The Importance of the Great Silk Road in the Development of Science. Academic research in educational sciences volume 1, issue 4, 2020.
7. What is the Silk Route? UNESCO. 1993. <https://en.unesco.org/silkroad/sites/default/files/knowledge-bank-article/what%20is%20the%20silk%20route.pdf>



Qabul qilindi: 16.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK:373.23

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA ARTPEDAGOGIKA METODIKASINI QO'LLASH ORQALI NUTQ O'STIRISH FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH ASOSLARI

Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi

*Qarshi Davlat Universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrasi tayanch
doktoranti*

ВАЖНЫЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ С ПРИМЕНЕНИЕМ АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДИК В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ


Холматова Фотима Бахтиёр кизи

*Докторант кафедры «Дошкольное образование» Каршинского
государственного университета*

BASIC FUNDAMENTALS OF ORGANIZING SPEECH DEVELOPMENT ACTIVITIES THROUGH THE APPLICATION OF ART PEDAGOGICAL METHODOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi

*Doctoral student of the Department of "Preschool Education" at
Karshi State University*



[Xolmatovafotima386@
gmail.com](mailto:Xolmatovafotima386@gmail.com)
[https://orcid.org/0009-
0008-3047-7826](https://orcid.org/0009-0008-3047-7826)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'stirish faoliyatini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Nutq bolalarning tafakkuri, hissiyoti va ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Maqolada nutq o'stirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar, mashg'ulot turlari, o'yin va artpedagogika elementlari orqali bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, pedagoglarning bu boradagi roli va zamonaviy yondashuvlardan foydalanishning afzalliklari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, metodika, usul, uslub, pedagogik yondashuv, kompetensiya, nutqiy kompetensiya, bola shaxsi, tafakkur, yangilik, innovatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективной организации речевой деятельности в дошкольных образовательных учреждениях. Речь играет ключевую роль в формировании мышления, эмоций и социальной активности детей. В статье представлены методические подходы к развитию речи, типы занятий, а также использование игровых и арт-педагогических элементов для развития устной речи у детей. Отдельное внимание уделяется роли педагогов и преимуществам применения современных технологий и методов.

Ключевые слова: дошкольное образование, методика, метод, методика, педагогический подход, компетентность, речевая компетентность, личность ребенка, мышление, новизна, новаторство.

Abstract: This article explores the effective organization of speech development activities in preschool educational institutions. Speech plays a crucial role in shaping children's thinking, emotions, and social activity. The paper discusses methodological approaches to speech development, types of sessions,

and the use of games and art-pedagogical elements to foster children's oral communication skills. It also highlights the role of educators and the benefits of using modern approaches in this field.

Key words: *preschool education, methodology, method, methodology, pedagogical approach, competence, speech competence, child's personality, thinking, novelty, innovation.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim taraqqiyotida "artpedagogika" atamasi hamda bu muammoni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etib, pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiya va boshqa shu kabi fanlar tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda.

Jumladan, artpedagogika metodikasi tadqiqotining falsafiy sharti – inson onggiga yetkaziladigan bilmni san'atning turfa xil usullari yordamida berib borish zarurati hisoblanadi. Ilm-fan va san'ating o'zaro uyg'un ekanligi, bir-birini boyitib borishi insonlarga bilm ulashish sifatini oshiradi, bu fan san'atning ajralmas ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogika va psixologiya tarixida artpedagogik yondashuv muammolari yuzasidan ko'plab olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, Avstraliyalik pedagog olim Viktor Lovenfeld san'at – bolaning ijodiy rivojlanishida muhim ekanligini ta'kidlagan. U o'zining "Ijodiy va aqliy o'sish" asarida bolalarning san'at orqali rivojlanish bosqichlarini tasvirlab bergan. Mazkur tadqiqot nazariyasiga ko'ra "Hech qanday badiiy ifodani o'z-o'zini ifoda etuvchi tajriba va uni ifoda etuvchi vosita bilan identifikatsiya qilmasdan amalga oshirish mumkin emas. Bu ijodiy ifodaning o'ziga xos omillaridan biridir. Agar biz o'zimizni bu kuchlar bilan tanishtirmasak, badiiy ifoda o'z tabiatining mohiyatini - ijodkorligini yo'qotadi. Bugungi kunda san'at ta'limining turli yo'nalishlari butunlay o'qituvchilar tomonidan ijodiy jarayonlarni belgilovchi turli kuchlar bilan o'zini tanitadigan turli xil e'tiborga bog'liq". [4;23]

Shunday qilib, artpedagogik usullar majmuasi ilmiy tahlil maqsadlari uchun san'at orqali ta'lim berish hamda bolalar bilm darajasini sintez qilish usullari ham teng kuchli ekanligini tan oladi.

San'atni ta'lim berish yo'nalishlaridan biri sifatida qaragan holda V.Lovenfeld bugungi kunda fundamental g'oyalar va tushunchalar asosini yaratishga imkon beradigan artpedagogik tamoyillarni topish tobora sezilarli bo'lib borayotganligini ta'kidlaydi. Olim fikriga ko'ra,

artpedagogika tushunchasi tarbiya bilan o'zaro bog'liqdir, bu esa albatta tartibga ega bo'lishni, ilm hamda san'atning qat'iy munosabatini nazarda tutadi.

Artpedagogika tushunchasi – keng qamrovli tushunchalardan biridir. Kelib chiqishiga ko'ra ushbu atama qadimgi falsafaga borib taqaladi.

Stanford universiteti professori bo'lgan Elliot Eisner san'atni o'quv dasturlariga integratsiyalashda chuqur fikr yuritgan. U artpedagogikaning ijodiy, tanqidiy hamda tarixiy jihatlarining muhim ekanligini ta'kidlagan.

XIX asrga qadar ilm-fan rivojlanishi jarayonida tabaqalashtirish dominant maqomlardan biri hisoblangan. XIX asrning ohiri XX asrning boshlariga kelib, inson psixologiyasi, estetik tarbiya hamda ijodiy ta'lim bilan bog'liq bo'lgan g'oyalar keng ravishda ommalasha boshladi. Bolalarni shaxs sifatida rivojlantirishda san'atdan foydalanish g'oyasi, ayniqsa bolalar psixologiyasi hamda didaktika fanlarida chuqur tahlil qilindi.

Shunday qilib, pedagogikada "artpedagogika" atamasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuv ta'lim-tarbiyada san'at vositalari yordamida shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Bu metodik usul faqatgina ta'lim mazmunini rivojlantiribgina qolmay, balki, bolalarning his-tuyg'ularini estetik didini, ijodiy fikrlanishini ham o'z ichiga oladi.

Amerikalik pedagog John Dewey o'zining "Tajriba va tarbiya" hamda "San'at va tajriba" asarlarida san'atni ta'limdagi muhim omil ekanligini ta'kidlagan. U "San'at va tajriba" kitobida shunday degan: "San'at hayotning o'zida shakllangan. Qush o'z uyasini, qunduz esa to'g'onni ichki organik bosim tashqi materiallar bilan hamkorlik qilganda quradi, shunda shakl bajariladi va ikkinchisi qoniqarli ko'rinishga aylanadi. Biz "san'at" so'zini qo'llashda ikkilanishimiz mumkin, chunki direktiv niyat mavjudligiga shubha qilamiz. Ammo har qanday fikrlash, har qanday ongli niyat, tabiiy energiyalarning o'zaro ta'siri orqali organik

ravishda amalga oshiriladigan narsalardan kelib chiqadi.” [1;29]

Umumiy holda, artpedagogika (lotinchada art – san’at) – bu san’at va pedagogika sohalarining uyg’unlashishidan kelib chiqqan. Bu tarkibiy qismlarning muntazamliligi, izchilligi, ular o’rtasidagi aloqalar va faoliyatning barqarorligi bilan ajralib turadigan psixologik yondashuvdir.

Psixologik tadqiqot ishlarida umumiy tushunchalar shakllantirilishi fanlararo assotsiatsiyalar orqali amalga oshirilishi o’z isbotini topgan. Barkamol inson tomonidan tushunchalarning yetuk darajada o’zlashtirilishi uning mazmun-mohiyatini tushunish hamda amalda undan foydalana bilish bilan belgilanadi.

Shu o’rinda savol tug’iladi: maktabgacha yoshdagi bolalar mazkur darajada tushunchalarni egallay oladilarmi? Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy tushunchalarni egallashi davomida fanlararo assotsiatsiyaga tayanish mumkinmi?

Ingliz psixologi M.Menzerning fikriga ko’ra bolalarning yetuk darajada rivojlanishida pedagog o’qituvchilardan katta mas’uliyat talab etiladi: “Har bir bola tug’ilishda ijodiy qobiliyat bilan tug’iladi. Erta ta’lim dasturlarida va keyingi maktab yillarida bu ijodkorlikni rivojlantirish va topqirlarni qo’llab-quvvatlash muammolarni hal qilish, tasavvurga asoslangan fikrlash va yangi tajribalar uchun ko’nikmalar va bilimlarni egallashiga ko’maklashish – bu bizning ishimiz. O’qituvchilar o’z faoliyatida san’atdan foydalanishi bolalarning nutq faoliyati rivojlanishida, savodxonlik, matematika, tabiiy fanlar hamda ijtimoiy hissiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.” [2;4]

Demak, maktabgacha ta’limda artpedagogik usullar yordamida mazmunli faoliyatlar olib borish maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog xodimlaridan qobilyat va shijoat talab qiladi. Qachonki, tarbiyachi bolalarning yosh hamda shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda san’atning bir qancha yo’nalishlaridan foydalanib faoliyatlarni qiziqarli tarzda olib bora olsa, bunday faoliyatlar bolalar uchun manfaatli bo’la oladi.

Xususan, syujetli-rolli o’yinlar orqali bolalarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday o’yinlarni

tashkillashtirish esa, albatta tarbiyachidan katta mahorat va e’tibor talab qiladi. O’yinlarni tashkillashtirishda tarbiyachi oldiga qo’yiladigan vazifalar xususida O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ilk qadam Davlat o’quv dasturida ham keltirilgan: “Bolalarni o’yinda kuzatish pedagogga bolaning boshqa bolalar bilan qanday o’ynashini, bola o’yinda qanday ko’nikma va malakalarni namoyon etishini, o’yin orqali qanday ko’nikmalarni rivojlantirish kerakligini anglashga yordam beradi. Pedagog o’yinga qo’shib, bolaning ta’lim olishini, uning tasvirlash, tushuntirish, asoslashi, tegishli tilni qo’llash qobiliyatini, shuningdek, ijobiy xulq-atvor ko’nikmalarini shakllantirishga ko’maklashadi” [8;23].

Shuningdek, bolalarga rasm chizdirish orqali ham ularning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin. Negaki, maktabgacha yoshda bo’lgan bolalar tasviriy san’at orqali o’z his-tuyg’ularini bayon qilishni o’rganishadi. Shuningdek rasm chizish vaqtida o’rtoqlari bilan o’z ishlari haqida muhokama qilishadi. Nimani tasvirlagani, qanaqa ranglardan foydalanganligi haqida tengdoshlari bilan o’rtoqlashadi. Bu esa ularning nutq faolligini rivojlanishida muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, artpedagogikaning ertak, hikoya usullaridan foydalanish bolalar nutqida sezilarli darajada rivojlanish bo’lishida muhim o’rin egallaydi.

Xulosa. Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog nutq o’stirish faoliyatini olib borish davomida mashg’ulot samarali bo’lishi uchun artpedagogikaning bir qancha usullaridan foydalanishi mumkin ekan. Bunday usullar yordamida tashkillashtirilgan faoliyatlar maktabgacha ta’lim yopshidagi bolalarda nutqiy kompetensiya shakllarini rivojlantirishda, ularning savodxonlik darajasini oshirishda keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Faoliyatlar yakunida tarbiyalanuvchilardan har birining mashg’ulotdagi ishtiroki tahlil qilinishi, uning yutuqlari e’tirof etilishi, kamchiliklarining ham o’ziga xos natija ekanligi ta’kidlanishi bolalarning o’z faoliyat va harakatlari uchun javobgarlik hissini oshirishda ham, shuningdek, uning irodaviy hislatlarini mustahkamlashda ham asqotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. John Dewey. Art as experience. New York. 1980. 445p
2. Melissa Menzer. The arts in the early childhood: Social and emotional benefits of arts participation. Washington – 2015. 24p
3. Ушакова О.С., Струнина Е. М. Методика развития речи детей дошкольного возраста. – М.: Владос, 2004 – 196 с
4. Viktor Lowenfeld. Creative and mental growth. The Macmillon Company – New York – 1957. 547p
5. Цейтлин С.Н. Язык и ребёнок. Лингвистика детской речи. – М., 2000. 240с.
6. Xo'jamberdiyeva.Sh.K, Abdusamatova.N.J, Isabayeva.A.Y. "Bolalarning nutqini o'stirish" - darslik. Toshkent – "Fan ziyosi" -2023.238-b.
7. Зеленцова.Н.В. – Пешкова. Элементы песочной терапии в развитии детей раннего возраста. Санкт-Петербург. Детство-пресс-2015. – С 17.
8. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent – 2022. 100-b.
9. G'oziyev.E. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 352 b.



O'ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI TASHKIL TOPISHI TARIXI

*Murodov Shuhrat Komil o'g'li,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ МУСУЛЬМАН УЗБЕКИСТАНА

Муродов Шухрат Комил угли

Преподаватель Термезского государственного университета

THE HISTORY OF THE ESTABLISHMENT OF THE MUSLIMS BOARD OF UZBEKISTAN

Murodov Shuhrat Komil ogli

Lecturer at Termez State University

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi O'zbekiston musulmonlari idorasining tashkil topishi tarixini o'rganish va uning faoliyatini tahlil etishdan iborat. Maqolada sobiq ittifoq davridan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan idoraning yangi O'zbekistonda yetakchi diniy idora sifatidagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: diniy boshqarma, Mir Arab, Toshkent Islom instituti, Vijdon erkinligi, ISESCO.

Аннотация: Цель данного исследования — изучить историю создания Духовного управления мусульман Узбекистана и проанализировать его деятельность. В статье освещается роль управления, действующего с советского периода, как ведущего религиозного учреждения в новой независимой Узбекистане.

Ключевые слова: духовное управление, Мир Араб, Ташкентский исламский институт, свобода совести, ISESCO.

Abstract: The main objective of this research is to study the history of the establishment of the Muslims Board of Uzbekistan and to analyze its activities. The article highlights the role of the Board, which has been functioning since the Soviet era, as a leading religious institution in the new independent Uzbekistan.

Keywords: religious administration, Mir Arab, Tashkent Islamic Institute, freedom of conscience, ISESCO.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Din, diniy tashkilotlar va jamiyatda e'tiqod qiluvchilarning ijtimoiy maqomi diniy masalada ilmiy isbotlangan strategiya va taktikani talab qiladi. Zero, diniy hissiyot hech qanday bilim to'ldira olmaydigan insonning ma'naviy dunyosidagi ehtiyojni to'ldiradi. Jahon dinlaridan biri bo'lgan Islom dini ham insoniyatning ma'naviy-ruhiy kamolotiga ulkan hissa qo'shgani e'tirof etilgan. Islom dini ta'limoti bugungi O'zbekiston tarixiy zaminida yaratilgan o'n to'rt asrlik madaniyatda o'ziga xos o'ringa ega. Tariximizdagi ikkita renessansga bevosita ta'sir ko'rsatgan islom omiliga munosabat turicha bo'lsa-da, bugungi kunga qadar uning mukammal tarixiy tahlili yaratilmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД /

MATERIALS AND METHODS). O'zbekiston musulmonlari idorasi tashkil topishi tarixi bo'yicha mavjud adabiyotlar ushbu masalani turli aspektlardan yoritadi. Xususan, A.Yo'ldoshxo'jayev va I.Qayumovning "O'zbekiston ulamolari" (2015) asarida sovet davrida diniy maktab va madrasalarning holati haqida muhim ma'lumotlar beriladi. Xususan, Baroqxon madrasasi kabi tarixiy diniy markazlarning o'rni alohida ta'kidlanadi [4].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlar (O'zR MDA, R-2456 jamg'arma) orqali diniy



E-mail:

shuhratmurodov14@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-5105-2005>

boshqarmalarning faoliyati va ularga nisbatan davlat siyosati aks ettirilgan [2].

MUHOAKAMA/OBSUZHEDENIYE/DISCUSSION

Movarounnahrda Islom dini yoyilgan davrdan boshlab diniy va dunyoviy ta'lim muassasalari yagona tashkilot sifatida faoliyat olib borishgan. XX asr boshlariga kelib O'zbekiston hududida asrlar davomida shakllanib va rivojlanib kelgan an'anaviy ta'lim tizimi transformatsiyaga uchradi. 1917-yilda sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan yangicha qiyofadagi sovet shaxsini shakllantirish mafkurasi ilgari surildi. Bu o'lkadagi an'anaviy ta'lim tizimi muassasalari – eski usuldagi maktab va madrasalarning tugatilishiga olib keldi. Ikkinchi jahon urushi yillarida siyosiy vaziyatning o'zgarishi 1943-yilda mintaqada muhim diniy idora – O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy boshqarmasining tashkil etilishiga olib keldi. Respublikada amalda "vijdon erkinligi" mavjudligini xalqaro maydonda namoyish etish maqsadida boshqarma tarkibida yangi ko'rinishdagi, an'anaviy ta'lim tizimidan muayyan darajada farq qiladigan Mir Arab (1946) va Baroqxon madrasalari (1956-1961) ochildi hamda Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti (1971) tashkil etildi. Aynan O'zbekistonda ushbu diniy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi sovet hukumatining o'ziga xos diniy siyosati bilan bog'liq bo'lsa-da, hozirgi kungacha bu masala alohida muammo sifatida tadqiq etilgan emas [3].

Sovet davrida hukumatning diniy siyosati bir xilda bo'lmay, ichki va tashqi omillar ta'sirida islom diniga bo'lgan munosabat o'zgarib turgan. Ayrim yillarda dinga nisbatan yon bosish siyosati olib borilgan va dindorlarga ba'zi yengilliklar va erkinliklar berilgan. Tadqiqotchilar 1928-yildan Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrni "islomni, shuningdek SSSRdagi boshqa dinlarni ta'qib va quvg'in qilish, yoki shafqatsizlik bilan tor-mor qilish davri", – deb izohlaydilar. Chunki bu yillarda o'lkadagi barcha masjidlar ommaviy yopilgan, din vakillari qatag'on qilingan, musulmon diniy tuzilmalari tugatilgan edi [4].

Aksariyat adabiyotlarda keyingi yillar, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillarida davlatning islom diniga bo'lgan munosabatlariga alohida e'tibor qaratib, 1941-1945-yillardagi urush SSSR hukumatini siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida din borasida, xususan, islom dini borasida ham ba'zi bir yon berishlarga olib

kelganini ta'kidlashadi. Sovet davlati oldingi g'oyaviy ko'rsatmalarni rad etish orqali dinga va diniy e'tiqodga ijobiy munosabatda bo'lish, shu yo'l bilan xalqning ruhiy-siyosiy birligini mustahkamlash, jismoniy kuchini urushga safarbar etishi kerak edi. Bu jarayonda davlat urush yillarida armiya va xalqqa ruhiy va moddiy yordam ko'rsatish, xalqlarning g'alabaga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida front ortida ikkinchi liniyani ochishga majbur bo'ldi. Buning asnosida 1942-1943-yillarda Sovet Ittifoqidagi qator shaharlarda diniy markazlar ochilishiga ruxsat berilib, Buynoqda Shimoliy Kavkaz musulmonlari boshqarmasi, Bokuda Kavkazorti musulmonlari diniy boshqarmasi, Ufada Rossiya va Sibir musulmonlari diniy boshqarmasi, 1943-yilda Toshkentda rasmiy O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi tashkil etilgan [5].

NATIJALAR (PEZUYLTATY / RESULTS).

Diniy boshqarma Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxonning sa'y-harakati bilan 1943-yil 20-oktyabridan rasmiy faoliyat olib bora boshlagan. 1957-1982-yillarda uni Z.Boboxonov, 1982-1989-yillarda Sh.Boboxonov, 1989-1993-yillarda Muhammad Sodik Muhammad Yusuf boshqargan.

Diniy boshqarmalarning asosiy vazifalari sifatida o'lkada diniy urf-odatlarini boshqarish, din masalasida fatvolar chiqarish, diniy kitoblarni nashr qilish, musulmonlarni diniy ruhda tarbiyalash, xorijiy musulmonlar bilan aloqalar o'rnatish kabi ishlar belgilab olingan bo'lsa-da, ammo sovet hukumatining turli yillarda olib borgan diniy siyosati natijasida bu tashkilot davlatning maqsadlarini amalga oshiruvchi vosita vazifasini bajarib keldi. Shuningdek, uning faoliyati "maxsus organ"larning doimiy nazoratida bo'ldi. Buning uchun 1944-yildayoq nazoratni amalga oshirish maqsadida SSSR Ministrlar Soveti tarkibida Din ishlari bo'yicha Kengash tuzildi. Shu bilan birga, SSSR XKSning 1944-yil 20-maydagi va O'zSSR XKSning 1944-yil 9-avgustdagi qarorlariga asosan respublikada Diniy ishlar kengashi vakilligi ta'sis etildi [6].

Bu bilan davlat, birinchidan, din yordamida urush yillarida xalqning g'alabaga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, uning safarbarligini oshirish maqsadini ko'zlagan bo'lsa, ikkinchidan diniy tashkilotlar vositasida hududlardagi boshqaruvni nazoratga olishga erishdi. Boshqacha aytganda, davlat o'z maqsadini amalga oshirishda diniy

e'tiqodga yon bosish (kompromiss)ga kirishdi. Kelishuv ikki tomonlama bo'lib, sovet hukumati musulmon Diniy boshqarmalarni tashkil qilishda o'z maqsadlarini ko'zlagan bo'lsa, musulmon ulamolari islom dinining yashab qolishi va mavjudligini ta'minlash maqsadida yon berishga harakat qilganlar. Diniy boshqarmaning mavjudligi davlatning din ustidan nazorat reglamentatsiyasini amalga oshirish vazifasini bajargan deb baholash mumkin.

Mustaqillik davriga kelib O'zbekiston Musulmonlari idorasi faoliyatida katta ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Bugungi kunga kelib Idora O'zbekistondagi musulmonlar o'rtasida diniy ishlarni boshqarib turadi, fatvolar beradi, masjidlariga imom-xatiblar tayinlaydi, diniy xodimlar tayyorlaydi. Moddiy jihatdan musulmonlardan masjidlariga tushadigan xayrehson, yordamchi xo'jaliklar va boshqalar hisobiga ta'minlanadi.

Idora rahbar organi – Oliy hay'at. Uning raisi muftiy hisoblanadi. Idoraning huquqshunoslik, xalqaro aloqalar, ta'lim va kadrlar tayyorlash, masjidlar va fatvo bo'limlari bor. Toshkentdagi Imom Buxoriy nomidagi islom institutida (1971) va 14 ta o'rta maxsus islom bilim yurti (shulardan 2 tasi xotin-qizlar bilim yurti)da kadrlar yetishtiriladi. Idora muassisligida «Hidoyat» jurnali va «Islom nuri» gazetasi nashr etiladi. Idora tasarrufidagi «Movarounnahr» nashriyoti diniy adabiyotlar, diniy taqvim va boshqalarni chop etadi.

Musulmonlar idorasi xorijiy mamlakatlardagi ko'pgina diniy tashkilotlar bilan aloqa qiladi. Har yili 15 mingga yaqin kishining haj safarini uyushtirishda faol ishtirok etadi. Idora o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunga rioya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim ishlarini va faoliyatini yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar berish to'g'risida» 2003-yil 23-avgustdagi 364-son qaroriga asosan idora qoshida maxsus jamg'arma tashkil etildi. U islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini asrash, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizni diniy aqidaparastlik va ekstremizm xataridan himoya qilish, mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish hamda din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy va ta'lim ishlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi [6].

Xalqaro Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha muassasasi ISESCO (AYSESKO) Toshkentni 2007-yilda Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilishi munosabati bilan Hastimomda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan keng ko'lamda bunyodkorlik ishlari olib borildi, xususan, O'zbekiston Musulmonlari idorasi uchun yangi, zamonaviy, muhtasham bino qurildi. Uning har bir xonasi eng zamonaviy ish qurollari va kompyuter texnikasi bilan jihozlandi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston musulmonlari idorasi bugungi kunda Yangi O'zbekistonda davlatimiz va jamiyatimizdagi diniy-ma'rifiy masalalar yuzasidan xalqimizga, yoshlarimizga yo'l ko'rsatuvchi idora vazifasini bajarib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Bennigsen A. Islam in the Soviet Union // Journal of the South Asian and Middle Eastern Studies. – Villanova. 1985. Vol.8. №4. – P. 115-133.
2. O'zR MDA, R-2456 jamg'arma, 1-ro'yxat, 2-yig'ma jild, 2-varaq.
3. Xalilova Z. 1945-1991-yillarda O'zbekistonda islom ta'limi: holati va zamonaviy tarixshunosligi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat. – Toshkent: 2018. – 48 b.
4. Yo'ldoshxo'jayev A., Qayumova I. O'zbekiston ulamolari. – Toshkent: Movarounnahr, 2015. – B. 29-30.
5. Арапов Д.Ю. Ислам и советское государство (1944-1990) Документы. – М.: Марджани, 2011. – С. 14-17.
6. Бабахановы // Ислам на территории бывшей Российской империи: Энциклопедический словарь. Вып. 4. – М.: Восточная литература. 2003. – С. 12-14. Yo'ldoshxo'jayev H., Qayumova I. O'zbekiston ulamolari. – Toshkent. Movarounnahr. 2015. – B. 65-81.
7. Булатова В.А. Медресе Барак-хана (комплекс Хазрет-имам). – Ташкент. 1977. Муродов, Ш. К. Ў. (2022). ЎЗБЕКИСТОН МУСУЛМОНЛАРИ ИДОРАСИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ТАРИХИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 571-575.

Qabul qilindi: 16.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK:091.274.141

O'ZGARISH VA MOSLASHISH SHAROITIDA SHAXS STRUKTURASINING DINAMIKASI

Majitov Maxmud Abdimo'min o'g'li,

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi
prorektori, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

ДИНАМИКА СТРУКТУРЫ ЛИЧНОСТИ В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЙ И АДАПТАЦИИ

Мажитов Махмуд Абдимуминович,

Первый проректор по вопросам молодежи, духовно-
просветительской работе Термезского государственного
университета инженерии и агротехнологий,
доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент

DYNAMICS OF PERSONALITY STRUCTURE IN CONDITIONS OF CHANGE AND ADAPTATION

Majitov Makhmud Abdimuminovich,

First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work,

Termez state university of engineering and agrotechnologies,

doctor of philosophy (PhD) in philosophical sciences, associate professor

Annotatsiya: Maqolada ichki va tashqi o'zgarishlarga javoban shaxs tuzilishini o'zgartirish va qayta qurish xususiyatlari, shuningdek psixologik barqarorlik va rivojlanishni ta'minlaydigan moslashish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shaxs dinamikasini o'rganishning nazariy yondashuvlari tahlil qilinadi, uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi, zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda moslashuvning amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: shaxs, shaxs tuzilishi, dinamika, moslashish, o'zgarish, psixologik barqarorlik, transformatsiya, dunyoqarash.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности изменения и перестройки структуры личности в ответ на внутренние и внешние изменения, а также механизмы адаптации, обеспечивающие психологическую устойчивость и развитие. Анализируются теоретические подходы к изучению динамики личности, выявляются основные факторы, влияющие на её изменение, рассматриваются практические аспекты адаптации в современных социально-культурных условиях.

Ключевые слова: личность, структура личности, динамика, адаптация, изменения, психологическая устойчивость, трансформация, мировоззрение.

Abstract: The article examines the features of modifying and restructuring personality structure in response to internal and external changes, as well as adaptation mechanisms that ensure psychological stability and development. Theoretical approaches to studying personality dynamics are analyzed, key factors influencing its transformation are identified, and the practical aspects of adaptation in modern socio-cultural conditions are considered.

Keywords: personality, personality structure, dynamics, adaptation, change, psychological stability, transformation, worldview.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Jahonda XX asrning oxirgi choragi va XXI asr boshlarida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy, industrial-texnologik, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar kishilik jamiyatini postmodern holatiga o'tkazdi. Postmo-

dern jamiyatga xos bo'lgan taraqqiyot tendensiyalari nafaqat zamonaviy sotsium tabiatining o'zgarishiga, balki shaxs ijtimoiy mohiyati transformatsiyasiga sabab bo'lmoqda. Jahon ilm-fanida postmodern jamiyat g'oyaviy asoslari, ular negizida



E-mail:

mazhitov1981@inbox.ru

<https://orcid.org/0009-0008-6563-0659>

shakllangan iqtisodiyot, davlat va siyosiy hayot, ijtimoiy soha, ma'naviyat va madaniyat ta'sirida sodir bo'layotgan inson shaxsi transformatsiyasi turli nazariy pozitsiyalardan mufassal tadqiq qilinmoqda. Zero, bugungi globallashuv jarayonida shaxs ijtimoiy mohiyatiga doir falsafiy ta'limotlar muttasil takomillashib borayotgani, postmodern jamiyat tendensiyalarining inson shaxsiga ta'sirini ham tobora oshirib bormoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar samarasining insonga, uning dunyoqarashi, ma'naviy qiyofasiga bog'liqligi tobora ko'proq ayon bo'lib bormoqda. "Inson o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi" [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (JIITEPATYPA II METOD / MATERIALS AND METHODS). Shaxs murakkab, ko'p komponentli tizim bo'lib, u ko'plab ruhiy tuzilmalar va jarayonlarni o'z ichiga oladi. Shaxs - bu o'zaro ta'sir qiluvchi va shaxsning ajralmas "men"ni tashkil etuvchi turli xil psixologik komponentlarni o'z ichiga olgan murakkab tizim [10].

Shaxsning zamonaviy nazariyalari shaxsning barqaror va o'zgaruvchan tarkibiy qismlarini ajratib turadi. K.Rojersning fikricha, shaxs tajriba va hayot sharoitlari ta'sirida shakllanadi va o'zgaradi. Shaxsiy o'sish o'zini o'zi anglash va hayot tajribasiga moslashish jarayoni bilan bog'liq [3].

E.Erikson modelida asosiy e'tibor rivojlanish bosqichlariga qaratilgan bo'lib, ularning har biri shaxsni qayta qurishga olib keladigan o'ziga xos ziddiyatlar va vazifalar bilan tavsiflanadi. Muallif shuningdek shaxs nazariyasi shaxs nizolar va o'zgarishlarni boshdan kechiradigan rivojlanish bosqichlarining muhimligini ta'kidlaydi [5].

Kognitiv xulq-atvor yondashuvi shaxsiy o'zgarishlarni shakllantirishda fikrlash va e'tiqodlarning rolini ta'kidlaydi. Moslashuv sharoitida o'z-o'zini tartibga solish, anglash va aks ettirish mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Kognitiv xatti-harakat yondashuvi kognitiv va e'tiqodlarning o'zgarishi natijasida shaxsning o'zgarishini ko'rib chiqadi [3]. Moslashuv mexanizmlari kognitiv qayta qurish, hissiy tartiblash va xatti-harakatlarning moslashuvchanligini o'z ichiga oladi [9].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Konformizm (lotincha conformis – o'xshashlik, mos kelishlik, moslashuvchanlik) – shaxsning xulq-atvori va fikr-mulohazasini boshqa odamlarning talablariga,

xulqiga muvofiq bo'lishi uchun ularga moslashtirishga qaratilgan moyillik, uning mavjud holatga, hukmron qarash va fikr-mulohazalarga moslashuvchanligi, ularga nisbatan sust munosabatni anglatadi. Umumiy qarorlarni qabul qilishda shaxsning faol ishtirok etishini taqozo etadigan, jamoaviy qadriyatlarni singdirib olish va shu tufayli o'z xatti-harakatlari hamda manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtirishni talab qiladigan jamoaviylikdan farqli o'laroq, konformizm deganda, o'z nuqtai nazariga ega bo'lmaslik, zo'r ta'sir kuchiga ega andozalarga (masalan, ko'pchilikning fikr-mulohazasi, tan olingan e'tiborli kishining nuqtai nazari, tarixiy an'ana va hokazo) ko'r-ko'rona ergashish, tevarakatdagi voqea-hodisalarga tanqidiy munosabatda bo'lmaslik tushuniladi. Axloqiy-siyosiy konformizmni psixologik moslashuvchanlik bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Chunki, muayyan me'yorlar, urf-odat va qadriyatlarni o'zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvining zaruriy jihati hamda har qanday ijtimoiy tizim samarali faoliyatining kafolatlaridan biridir.

Moslashuv ichki ehtiyojlar va atrof-muhitning tashqi talablari o'rtasidagi muvozanatga erishish jarayoni sifatida qaraladi. Stressli vaziyatlarda yoki hayotdagi o'zgarishlarda odam motivatsion, hissiy va kognitiv sohalarida sezilarli o'zgarishlarga duch kelishi mumkin. Olimlar fikricha, ishonchli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ega bo'lish jismoniy va ruhiy salomatlik, stressga chidamlilik, hayot sifati va hatto umr ko'rish davomiyligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [4].

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash - bu insonni hayotiy qiyinchiliklarni yengish uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlaydigan shaxslararo munosabatlar tizimi. Bu hissiy yordam (hamdardlik, tushunish) yoki amaliy yordam (maslahat, moliyaviy yoki jismoniy yordam) bo'lishi mumkin. Amerikalik olimlar Teylor va Seyman (1997) fikricha, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tegishlilik, qadriyat va xavfsizlik hissini kuchaytiradigan shaxslar o'rtasidagi o'zaro ta'sir sifatida belgilanadi. Ijtimoiy yordam manbalari sifatida oila (an'anaviy ravishda hissiy va amaliy yordamning asosiy manbai), do'stlar va yaqinlar (tegishlilik va tushunish hissini ta'minlash manbai), hamkasblar va o'quv muhiti (ayniqsa professional va akademik sharoitlarda muhim ahamiyatga ega), kasbiy muassasalar (psixoterapevtlar, ijtimoiy ishchilar,

yordamchi xizmatlar), onlayn jamoalar (zamonaviy dunyoda juda muhim) qaraladi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash nafaqat qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi, balki ruhiy salomatlik, shaxsiy rivojlanish va barqaror hayotni qurish uchun asosdir. Ijtimoiy aloqalarni saqlab qolish va rivojlantirish shaxsning farovonligi va boshqalarning farovonligiga sarmoya kiritishni anglatadi. Hozirgi jadal ijtimoiy va texnologik taraqqiyot sharoitida moslashish qobiliyati juda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy dunyo yuqori shaxsiy moslashuvchanlikni talab qiladi, bu o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari va hissiy aqlni rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi [6].

Aqliy moslashuvchanlikni, aql-idrokni va hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan psixologik aralashuvlar shaxs tuzilishidagi ijobiy o'zgarishlarga yordam beradi va uning stressga chidamliligini oshiradi [8].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Nega aynan moslashuvchanlik barqarorlikdan ko'ra muhimroq degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

Birinchidan, turli qoliplardan ozod bo'lish orqali qattiq munosabatlar ("Men faqat shu sohada ishlashim kerak", "Men shaharni o'zgartira olmayman") orqali kelib chiqadigan ichki keskinlikni stresssiz o'zgarishlarga moslashish imkonini beradi.

Ikkinchidan esa, rivojlanish va o'sish orqali shaxs statik bo'lib qolmaydi, balki tajriba bilan yangi maqsadlar, qiziqishlar va qarashlar keladi. Bu o'zgarishlarni inkor etish o'z rivojlanishini sun'iy ravishda sekinlashtirish imkonini beradi.

Uchinchidan, moslashish qobiliyati noaniqlik, xavotirni kamaytiradi, shaxs qanchalik tez-tez komfort zonadan chiqsa, o'zgarishlarni qabul qilish shunchalik oson bo'ladi.

To'rtinchidan, yangi ko'nikmalar, tanishlar va taassurotlar shaxsning imkoniyatlarni kengaytirib, o'zgartirishdan qo'rqmaydigan, har doim muqobil yo'llarni topadigan darajaga olib boradi.

Moslashuvchanlik barqarorlikka zid emas - bu shaxsni ongli qiladi. Bu hozirgi qadriyatlarga muvofiq hayotni qayta ko'rib chiqish qobiliyati hisoblanadi. Zamonaviy dunyo shaxsdan bugun manevr qilish qobiliyatini talab qilmoqda va bu qobiliyatni o'zida rivojlantirganlar shubhasiz afzalliklarga ega bo'ladilar. Ongli ravishda

tanlangan va qo'rquv tomonidan belgilanmagan barqarorlik muhim.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Bugungi kunda moslashuvchanlik va barqarorlik o'rtasida tanlov masalasi dinamik o'zgaruvchan haqiqat kontekstida dolzarbligicha qolmoqda. Harakatchanlik va moslashuvchanlikni rivojlantirish orqali bitta rolga, joyga yoki turmush tarziga juda qattiq sodiqlik asosida shakllangan cheklashni yengish mumkin. Shaxs uchun o'z ichki ehtiyojlariga javob beradigan yo'lni tanlash asnosida moslashuvchanlik qiyin davrlarni yengib o'tishga va bir necha marta yangi imkoniyatlar topishga yordam beradi. Shaxs tuzilishi dinamikasi o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab va ko'p o'lchovli jarayondir. Shaxsni o'zgartirish mexanizmlarini o'rganish bizga psixologik rivojlanish yo'llarini yaxshiroq tushunishga va hayotning turli sohalarida qo'llab-quvvatlash va tuzatishning samarali usullarini ishlab chiqishga imkon beradi. Shaxsni o'zgartirish mexanizmlarini tushunish psixologik yordam va rivojlanish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhimdir.

Adabiyotlar ro'yxati (Использованная литература / References)

1. Mirziyoev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. J.3. - Toshkent: O'zbekiston, 2019. - B.39.
2. Bandura A. Social foundations of thought and action: A social cognitive theory. Prentice-Hall. 1986.
3. Beck A. T. Cognitive therapy and the emotional disorders. International Universities Press. 1976.
4. Cohen S., & Wills T. A. Stress, social support, and the buffering hypothesis. Psychological Bulletin, 98(2), 1985. - P.310-357.
5. Erikson E. X. Childhood and society. W. W. Norton & Company. 1950.
6. Goleman D. Emotional intelligence. Bantam Books. 1995.
7. Gross J. J. The emerging field of emotion regulation: An integrative review. Review of General Psychology, 2(3), 1998. - P. 271-299.
8. Kabat-Zinn. Full catastrophe living. Delta. 1990.
9. Lazarus R. S., & Folkman S. Stress, appraisal, and coping. Springer. 1984.
10. Богословский В. В. Психология личности. - Москва: Психологический институт, 2002.

NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARNI O'QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

G'anieva Gulrux Tavakkaljon qizi,

Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti talabasi

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО- КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ДЕТЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

Ганиева Гулрух Таваккалжон кизи,

Студентка факультета педагогики и психологии Университета

Альфраганус

USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING CHILDREN WITH DISABILITIES

Ganieva Gulrukh Tavakkaljon qizi,

Student, Faculty of Pedagogy and Psychology, Alfraganus University



E-mail:

[gulruh.ganieva@
mail.ru](mailto:gulruh.ganieva@mail.ru)

[https://orcid.org/
0009-0005-8952-
4605](https://orcid.org/0009-0005-8952-4605)

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlashda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar va ular bilan olib boriladigan ta'limdagi innovatsiyalar yoritib o'tiladi. Shuningdek, maqolada ijtimoiy moslashuv, rehabilitatsiya va integratsiyani ta'minlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, nuqsonlikdan kelib chiqib maxsus moslashtirilgan o'quv-uslubiy vositalar hamda individual va guruhli ishlashda samaradorlikni oshiruvchi texnologik usullar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: AKT texnologiyalari, PECS kartochkalar, meditatsiya, Autik spektr buzilishi, Braille displeylar, platformalar, rehabilitatsiya, individual, ovozli sintezatorlar, nogironligi bo'lgan shaxslar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные технологии, применяемые в работе с людьми с инвалидностью, а также инновации в их обучении. Кроме того, в статье представлены сведения об использовании информационно-коммуникационных технологий в обеспечении социальной адаптации, реабилитации и интеграции, а также о специальных адаптированных учебно-методических средствах, разработанных с учётом особенностей нарушений, и технологических методах, повышающих эффективность индивидуальной и групповой работы.

Ключевые слова: ИКТ технологии, карточки PECS, медитация, расстройства аутистического спектра, брайлевские дисплеи, платформы, реабилитация, индивидуальный, голосовые синтезаторы, лица с инвалидностью.

Abstract: This article discusses modern technologies used in working with persons with disabilities, as well as innovations in their education. In addition, it provides information on the use of information and communication technologies to ensure social adaptation, rehabilitation, and integration, as well as specially adapted educational and methodological tools developed based on specific impairments, and technological methods that enhance the effectiveness of individual and group work.

Keywords: ICT technologies, PECS cards, meditation, autism spectrum disorder, Braille displays, platforms, rehabilitation, individual, speech synthesizers, persons with disabilities.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Bugungi kunda nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash, ularni ijtimoiylashtirish va teng huquqli fuqaro sifatida rivojlanishiga imkon yaratish har bir

rivojlangan davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Nogironlik bu - tana funksiyalarining ma'lum bir sabablar natijasida uzluksiz buzilishi, hayot faoliyatining qisman yoki to'liq cheklanishi va ijtimoiy himoyaga, yordamga ehtiyoj paydo bo' -

lishiga olib keladigan sogʻliqning buzilishi tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy yetishmovchilikdir. Har bir davlat, har bir jamiyat orasida nogiron tushunchasi qoʻllaniluvchi shaxslar mavjud va uzluksiz ravshda ularga har tomonlama alohida eʼtibor koʻrsatilib kelinadi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ \ LITERATURE ANALYSIS). Bilamizki, barcha bolalar taʼlim olish huquqiga ega. Taʼlim olish uchun ularga davlatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratiladi. Jumladan nogironligi boʻlgan bolalarga ham alohida taʼlim sharoitlari yaratilganini koʻrishimiz mumkin. Bundan tashqari, bolalarning taʼlim olish huquqlari borligi “Bola huquqlari toʻgʻrisida”gi va “Nogironlar huquqlari toʻgʻrisida”gi Konvensiyalarda hamda “Nogironligi boʻlgan shaxslarning huquqlari toʻgʻrisida”gi va “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonun hujjatlarida bir qancha bandlar orqali yoritilib oʻtilgan. Shuningdek BMT tomonidan 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan “Nogironlar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya”da barcha davlatlarga ushbu guruh vakillarini ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotga integratsiyalash boʻyicha aniq majburiyatlar yuklatilgan. Oʻzbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 2009-yilda qoʻshilgan, natijada bu borada keng koʻlamli islohotlarni amalga oshirmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Nogironligi boʻlgan shaxslarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2017-yil 4-dekabrda PQ–5270-sonli qarorida “Nogironligi boʻlgan shaxslarning hayot sifatini yaxshilash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va har tomonlama qoʻllab-quvvatlash zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar asosida olib borilishi lozim”, – deya taʼkidlangan [1].

MUHOKAMA/OBCYJDEHIE/DISCUSSION Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, nogironligi boʻlgan shaxslar bilan ishlashda anʼanaviy usullar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar, masofaviy taʼlim platformalari, moslashtirilgan dasturiy vositalar, kommunikatsiya texnologiyalari hamda virtual reabilitatsiya uslublari samarali natijalar bermoqda. Jumladan, nogiron bolalar bilan ishlashda logopedik mobil ilovalar, interaktiv oʻyinlar va maxsus dasturlar ularning oʻzlashtirish darajasini oshirayotgani kuzatilmoqda. Nogironligi boʻlgan shaxslar bilan ishlashda qoʻllanilayotgan ilgʻor texnologi-

yalar, ularning amaliy qoʻllanilishi, samaradorligi va ijtimoiy ish sohasi vakillari uchun bergan imkoniyatlar bunday ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarimiz uchun juda quvonarli holat desak mubolagʻa boʻlmaydi [2].

Hozirgi globallashuv davrida taʼlim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan

biri — barcha toifadagi bolalarga, jumladan, nogironligi boʻlgan bolalarga sifatli va teng huquqli taʼlim olish imkoniyatini yaratishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish zamonaviy maxsus taʼlimning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Nogironligi boʻlgan bolalar deganda jismoniy, aqliy, hissiy yoki sensor (eshitish, koʻrish) buzilishlar tufayli rivojlanishda cheklovlariga ega boʻlgan shaxslar tushunilishi haqida maʼlumotlarga tayangan holda ularni kasalligidan kelib chiqqan holda toifalarga boʻlib olishimiz va shu tariqa ularga mos AKTlaridan toʻgʻri foydalanishimiz samarali natija beradi [3].

Multimedia vositalari orqali oʻquv jarayoni qiziqarli va jonli tarzda oʻtadi, bu esa bolani darsga jalb etadi. Aloqa va ijtimoiylashuv imkoniyati eshitish yoki nutqida muammo boʻlgan bolalar uchun yozma chat, piktogramma (rasmlar bilan aloqa) tizimlari yordamida muloqot qilish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, koʻrishida nuqson boʻlgan bolalar uchun ekranni kattalashtiruvchi dasturlar, ovozli sintezatorlar, Braille displeylar, ekran oʻquvchi ilovalar (NVDA, JAWS) mavjud. Eshitishda nuqson boʻlgan bolalar uchun esa subtitrlil videodarslar, piktogramma asosidagi ilovalar, interaktiv chat platformalari, dastlabki imo-ishora oʻrganish ilovalari keng qoʻllanilib kelinadi. Intellectual rivojlanishida cheklovlar boʻlgan bolalar uchun oddiylashtirilgan interfeysli dasturlar, rangli vizual qoʻllanmalar, oʻyin shaklidagi taʼlim vositalari, individuallashtirilgan topshiriqlar, juftini topish oʻyinlarida foydalaniluvchi, qiziqarli rasmlil va yozuvli kartochkalar yaxshi samara beradi. Autik spektr buzilishi mavjud boʻlgan bolalar uchun esa maxsus vizual jadval, maxsus PECS kartochkalar — rasmlar orqali aloqa tizimini oʻrnatishda keng qoʻllaniluvchi koʻrgazmali qurollardan foydalaniladi. Shu bilan birga ijtimoiy hikoyalar ilovalari va tinchlantiruvchi musiqalar, meditatsiya

ilovalari ham bolalarni rivojlantirish maqsadida qo'llanib kelinadi [4].

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Nogironlar bilan ishlashda bir nechta samarali ijtimoiy ish texnologiyalari mavjud. Ulardan asosiylari individuallashtirilgan reabilitatsiya texnologiyasi har bir nogironning ehtiyojlariga mos ravishda reabilitatsiya dasturi tuziladi. Zamonaviy reabilitatsiya jarayonida faqat jismoniy mashqlar va an'anaviy muolajalar emas, balki yuqori texnologiyalarga asoslangan vositalar ham keng qo'llanilmoqda. Xususan, virtual reallik (VR) va neyrofeedback texnologiyalari nogironligi bo'lgan shaxslarning harakat, eshitish, kognitiv va emotsional funksiyalarini tiklashda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida foydalanuvchilar maxsus simulyatsiyalangan muhitda treninglar o'tkazib, o'z salohiyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishi mumkin. Masalan, Moskva davlat universiteti huzurida 2020-yilda o'tkazilgan eksperimental tadqiqotda VR texnologiyasi yordamida reabilitatsiyadan o'tgan bolalarning 67 foizida ijobiy dinamik o'zgarishlar, jumladan muvozanatni saqlash, muvofiqlashtirish va diqqatni jamlash qobiliyatlarida sezilarli yuksalishlar kuzatilgan [5].

O'zbekiston misolida ko'rsatilgan amaliy tajriba, ayniqsa, "Yagona reabilitatsiya markazlari" va "E-imkon" platformalari kabi yangi tashabbuslarni amalga oshirishda ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatmoqda. Albatta bolada qanday nuqson bo'lishidan qat'iy nazar, avvalo uning jamiyat hayotida o'z o'rnini topishi, rivojlanishi va o'zining yetuk shaxs sifatida kamol topishi shubhasiz o'qituvchi va ota-onalarning roliga bevosita bog'liq sanaladi. O'qituvchilar va ota-onalar AKTdan foydalanishda quyidagilarga e'tibor qaratishi va bolaga bevosita ishlash jarayoniga ko'maklashishlari zarur bo'ladi. Ya'ni bola uchun dastlab mos dastur tanlashga ko'maklashishlari, bolaning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olishlari, AKT texnologiyadan foydalanishni o'rgatishlari va shu bilan birga texnologiyalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishlari haqida tushuntirish ishlari olib borishlari lozim. O'qituvchi o'z darslarini multimedia asosida tayyorlashi, ota-ona esa uy sharoitida o'quv platformalaridan foydalan-gan holda bolani qo'llab-quvvatlashi kerak [3].

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi maxsus ta'lim tizimida AKT imkoniyatlarini

kengaytirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Inkluziv ta'lim" konsepsiyasi asosida ta'lim muassasalarini texnik jihozlash, maxsus maktab-internatlarda kompyuter sinflarini joriy etish, nogironligi bo'lgan bolalar uchun elektron resurslar yaratish (video, audiokitoblar), logopedlar va defektologlar uchun raqamli metodik qo'llanmalar ishlab chiqish talab qilinmoqda. Bu borada olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar rivojlanishi bilan bir qatorda, o'ziga xos muammolar va qiyinchiliklarning yuzaga kelishi ham hech kimga sir emas. AKT vositalarining qimmatligi, uzoq hududlarda internet va texnika ta'minotining pastligi, o'qituvchilarning AKT bo'yicha malakasi yetarli emasligi muammolar sirasiga kiradi [2].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nogironligi bo'lgan bolalar ta'limida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning individual ehtiyojlariga mos, qulay va innovatsion yondashuvlar yordamida bola jamiyatga integratsiyalashadi, mustaqil fikrlash va yashash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois AKTni defektologik va pedagogik jarayonlarga samarali integratsiya qilish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar ro'yxati (Использованная литература / References)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.12.2017-yildagi PF-5270-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
2. 2017-yil 1-avgustdagi "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi.
3. Axmedova M. Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy ishda psixologik yondashuvlar. Ijtimoiy fanlar jurnali, №2, 2019. – B. 45–50.
4. Ortiqova A. Nogironlar uchun psixologik yordam ko'rsatishda zamonaviy metodlar. – Toshkent: O'zbekiston Psixologlar Assotsiatsiyasi, 2023.
5. Rahimov X. Ijtimoiy inklyuziya: Nogiron shaxslarni jamiyatga integratsiya qilishning nazariy va amaliy aspektlari. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
6. Yunusova S. Ko'zi ojiz shaxslar uchun moslashtirilgan ta'lim dasturlari va texnologiyalar. – Toshkent. 2021. – 132 b.

Qabul qilindi: 16.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK: 174.4.4

GLOBALLASHUV JARAYONIDA BIOETIKA RIVOJLANISHINING IJTIMOY-FALSAFIY MASALALARI

*Utegenova Jamila Djolmurzayevna,
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

SOCIAL-PHILOSOPHICAL ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF BIOETHICS IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

*Utegenova Jamila Djolmurzayevna,
researcher at the Samarkand State Institute of Foreign
Languages*

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ БИОЭТИКИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

*Утегенова Джамиля Джолмурзаевна,
научный сотрудник Самаркандского государственного
института иностранных языков*



e-mail:
jamila@gmail.com
<https://orcid.org/0234-0222-0324-0626>

Annotatsiya: Globallashuv jarayonida bioetika rivojlanishi zamonaviy jamiyatning muhim masalalaridan biridir. Ushbu maqolada bioetikaning falsafiy asoslari, uning global miqyosda qanday shakllanishi va rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Bioetika, inson hayoti va uning muhofazasiga oid masalalar bilan bog'liq bo'lgan etik va ijtimoiy savollarga javob berib, unda bioetikaning falsafiy masalalari, uning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday rivojlanishi, shuningdek, bioetik qarorlar qabul qilishda global mas'uliyatning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, bioetika, falsafa, huquq, mas'uliyat, madaniyatlararo muloqot, etik qarorlar, tibbiyot etikasi.

Annotation: The development of bioethics in the context of globalization is one of the critical issues of modern society. This article examines the philosophical foundations of bioethics, its formation and evolution on a global scale. Bioethics addresses ethical and social questions related to human life and its protection, analyzing the philosophical issues of bioethics, how it develops within social and cultural contexts, and the significance of global responsibility in making bioethical decisions.

Keywords: Globalization, bioethics, philosophy, law, responsibility, intercultural dialogue, ethical decisions, medical ethics.

Аннотация: Развитие биоэтики в контексте глобализации является одной из ключевых проблем современного общества. В данной статье рассматриваются философские основы биоэтики, ее формирование и эволюция на глобальном уровне. Биоэтика отвечает на этические и социальные вопросы, связанные с человеческой жизнью и ее защитой, анализируя философские проблемы биоэтики, то, как она развивается в социальных и культурных контекстах, а также значимость глобальной ответственности при принятии биоэтических решений.

Ключевые слова: глобализация, биоэтика, философия, право, ответственность, межкультурный диалог, этические решения, медицинская этика.

Kirish. Hozirgi dunyoda biotibbiyot texnologiyalari jadal rivojlanmoqda va ulardan kundalik hayotda foydalanish axloq va tamoyillar haqida ko'plab savollarni keltirib chiqarmoqda. Globallashuv turli madaniyatlar va qadriyatlarni birlashtirish jarayoni sifatida bioetika uchun yangi

muammolarni keltirib chiqarmoqda, mutaxassislardan sogʻliqni saqlash va ilm-fandagi axloqiy masalalarga yangicha qarashni talab qilmoqda. Avval alohida mamlakatlar yoki mintaqalarga bogʻlangan gʻoyalar, texnologiyalar va odamlar almashinuvi sodir boʻladigan yangi sharoitlarga moslashishi kerak. Globallashuv sharoitida bioetika bilan bogʻliq falsafiy masalalarni oʻrganish bu oʻzgarishlar odamlar, jamiyat va ilmiy hamjamiyat oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga qanday taʼsir koʻrsatishini tushunish uchun zarurdir. Shunday qilib, ushbu mavzuni oʻrganish global dunyoda ilmiy faoliyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur boʻlgan axloqiy asoslarni tushunish uchun yangi yoʻnalishlarni ochadi.

Adabiyotlar tahlili. Globallashuv jarayonida bioetika rivojlanishining falsafiy masalalari boʻyicha mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari koʻplab muhim gʻoyalar va nazariyalar bilan boyitilgan. Tom L. Beauchamp va James F. Childress: Ularning "Principles of Biomedical Ethics" asari bioetika sohasida klassik manba hisoblanadi. Ular bioetikaning asosiy prinsiplari - hurmat, foyda, zarar va adolatni tahlil qiladilar. Peter Singer: "Practical Ethics" asarida bioetika va inson huquqlari oʻrtasidagi bogʻlanishni koʻrib chiqadi. U global muammolar, masalan, qashshoqlik va sogʻliqni saqlash sohasidagi tengsizliklar haqida fikr yuritadi, bu esa bioetik qarorlar qabul qilishda muhimdir. Henk ten Have: – "Bioethics in a Global Perspective" asarida bioetikaning global kontekstda rivojlanishini, madaniyatlararo muloqotni va etik qarorlarni qabul qilish jarayonlarini oʻrganadi. Shuningdek tadqiqotchilardan A.Shodmonov Oʻzbekistonda bioetikaning rivojlanishi va uning mahalliy anʼanalar bilan bogʻliqligi masalasini tahlil qiladi. D. Murodov bioetik masalalarni globallashuv jarayonining ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini tahlil qiladi, shuningdek, mahalliy kontekstda bioetik qarorlar qabul qilish jarayonlarini oʻrganadi. [1,2].

Tahlil va natijalar. Globallashuv inson hayotining barcha sohalariga, jumladan, biotibbiyot va u bilan bogʻliq axloqiy meʼyorlarga kuchli taʼsir koʻrsatadigan murakkab jarayondir. Bu jarayonda turli madaniyatlar va qadriyatlarning doimiy oʻzaro taʼsiri sodir boʻladi, shuning uchun jamiyat bioetikaga eski yondashuvlarni qayta koʻrib chiqishi kerak. Genetika va bioinformatika kabi

texnologiyalarning rivojlanishi yangi imkoniyatlarni ochadi, ammo inson huquqlari, tibbiy xizmatlardan foydalanish va biologik xilmaxillikni saqlash bilan bogʻliq murakkab axloqiy masalalarni ham keltirib chiqaradi. Globallashuv axborot va amaliyotni tarqatishga yordam beradigan omil sifatida universal standartlarni yaratishga hissa qoʻshadi, ammo mahalliy kontekstlar va xususiyatlarni hisobga olmaslik xavfi mavjud. Demak, globallashuv sharoitida bioetika bilan bogʻliq falsafiy muammolarni oʻrganish global tendensiyalarni ham, mahalliy voqeliklarni ham chuqur tahlil qilishni talab qiladi.[3].

Dunyo miqyosida bioetikani oʻrganish globallashuvning kuchayishi fonida, madaniyatlar va qadriyatlar tizimlari oʻrtasidagi farqlar kamayib borayotgan bir paytda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turli falsafiy yoʻnalishlarning oʻzaro taʼsiri natijasida paydo boʻladigan universal axloqiy meʼyorlar diqqat bilan oʻrganishni talab qiladi, chunki bioetika barcha mamlakatlarga tegishli boʻlgan jiddiy ijtimoiy, tibbiy va ekologik muammolarni oʻz ichiga oladi. Masalan, tibbiy texnologiyalardan foydalanish, genetik tadqiqotlar va resurslarni taqsimlash masalalari bioetik munozaralarning muhim mavzularidir. Ushbu masalalarni qiyosiy jihatdan tushunish nafaqat axloqiy muammolarni hal qilish uchun umumiy tamoyillarni ishlab chiqishga yordam beradi, balki global jamiyatda oʻzaro tushunish va hamkorlikka erishish uchun muhim boʻlgan madaniyatlar oʻrtasidagi muloqotni ragʻbatlantiradi. Shunday qilib, bioetikani oʻrganish nafaqat murakkab axloqiy muammolarni chuqurroq tushunishga, balki jahon hamjihatligini mustahkamlashga ham yordam beradi.

Bioetikaning tarixiy konteksti muhim, chunki u globallashuv sharoitida zamonaviy falsafiy masalalarni tushunishga imkon beradi. Bioetikaning ildizlari XX asrning oʻrtalarida, dunyo biotibbiyot va genetikadagi taraqqiyot tufayli axloqiy muammolarga duch kelganida paydo boʻlgan. [4.358]. Ikkinchi jahon urushidan soʻng, tibbiy tadqiqotlar va amaliyotlarni tartibga solish va oʻtmishdagi xatolarni takrorlamaslik uchun axloqiy meʼyorlarni yaratish zarurati tugʻildi. Vaqt oʻtishi bilan bioetika kengayib, ekologiya, inson huquqlari va ijtimoiy adolat masalalarini oʻz ichiga oldi. Globallashuv sharoitida bir kontekstda ishlab chiqilgan axloqiy meʼyorlar tibbiy resurslardan

foydalanish imkoniyati va sog'liqni saqlashdagi tengsizlik kabi yangi muammolarni hisobga olgan holda kesishmoqda va qayta ko'rib chiqilmoqda. Shunday qilib, bioetikaning tarixiy konteksti zamonaviy falsafiy masalalarni tahlil qilish va hal qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, fan va tibbiyotda axloqiy mas'uliyat to'g'risidagi xalqaro munozaralar uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Globallashuv sharoitida bioetika falsafasi masalalari muhim ahamiyat kasb etib, biotibbiyot texnologiyalari bilan bog'liq ma'naviy-axloqiy masalalarga to'xtalib o'tadi. Asosiy masalalardan biri - bu jamiyatlarning umumiy axloqiy tamoyillari va madaniy farqlari o'rtasidagi ziddiyatdir. Global g'oyalar almashinuvi bioetikaga eski yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'diradi, bu esa axloqiy me'yorlarning xilma-xilligiga olib keladi. Masalan, ba'zi madaniyatlarda individual huquqlarga, boshqalarida esa jamoaviy manfaatlarga urg'u beriladi. Bu holat faylasuflar oldiga ushbu yondashuvlar o'rtasida murosaga yo'lini topish va turli madaniyatlarda qabul qilinadigan universal mezonlarni yaratish vazifasini qo'yadi.

Bioetika va globallashuv bilan bog'liq falsafiy masalalar doirasida inson huquqlari va jamiyat farovonligi o'rtasidagi ziddiyatlarni hisobga olish kerak. Uzoq vaqt davomida G'arb madaniyatining asosi bo'lib kelgan individualizm tamoyillari inson huquqlari va erkinliklarini birinchi o'ringa qo'yadi. Ammo pandemiyalar, ekologik inqirozlar va ijtimoiy adolatsizlik muammolari mavjud bo'lgan bugungi dunyoda bu tamoyillarni qayta ko'rib chiqish kerak. Odamlarning sog'lig'i, xavfsizligi va barqaror rivojlanishini o'z ichiga olgan jamoaviy farovonlik ba'zan umumiy maqsadlarga erishish uchun ba'zi odamlarning huquqlarini cheklashni talab qilishi mumkin. Bu axloqiy dilemmalarga olib keladi va shaxsiy manfaatlarni himoya qilish va umumiy farovonlikka intilish o'rtasida murosaga kelish uchun ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Shunday qilib, ushbu ziddiyatlarni hal qilish global muammolar sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishiga qaratilgan axloqiy me'yorlarni shakllantirish uchun muhimdir [5.788].

Texnologik yutuqlar, shubhasiz, axloqiy qarorlar kontekstini, ayniqsa biotibbiyot tadqiqotlari sohasida, sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Genetika va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan diqqat bilan baholashni talab

qiladigan yangi axloqiy masalalar paydo bo'lmoqda. Birinchidan, gen muhandisligidagi yangiliklar jamiyat oldiga insonni o'z genlarining "xo'jayini" pozitsiyasiga qo'yib, tabiatga aralashish huquqi to'g'risidagi masalalarni qo'yadi. Ikkinchidan, tibbiy ma'lumotlarni raqamlashtirish diagnostika va terapiyani yaxshilash imkonini beradi, ammo shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi bo'yicha xavotirlarni keltirib chiqaradi. Turli madaniyatlarda standartlar sezilarli darajada farq qilishi mumkin bo'lgan globallashuv sharoitida xilma-xil fikrlar va qadriyatlarni birlashtirishi mumkin bo'lgan umumiy axloqiy me'yorlarni yaratish zarur. Shunday qilib, yangi imkoniyatlarni ochadigan, shu bilan birga murakkab axloqiy muammolarni keltirib chiqaradigan texnologik yutuqlar tibbiyot va falsafa o'rtasidagi an'anaviy qaror qabul qilish usullariga yangicha qarashni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida bioetikaning rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, faylasuflar va amaliyotchilar yangi qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqdalar. Globallashuv turli madaniyatlar va axloqiy an'analariga kirish imkonini beradi, bu esa inson huquqlari, adolat va boshqalarga hurmat haqidagi suhbatlarni chuqurlashtiradi. Biroq, u axloqiy me'yorlarning birlashtirilishiga olib kelishi mumkin, bu esa madaniy o'ziga xoslikni yo'qotish qo'rquvini keltirib chiqaradi. Genetik tahrir va kibernetika kabi jadal ilmiy va texnologik taraqqiyot fonida bioetikaning falsafiy masalalari yanada keskinlashmoqda, bu esa jamiyatdan barcha axloqiy muammolarni yanada sinchkovlik bilan va chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Shuning uchun ham umumiy axloqiy tamoyillar bilan turli xalqlar madaniyati va an'analarni hurmat qilish o'rtasidagi muvozanatni topish bioetikaning keyingi rivoji uchun muhim vazifaga aylanmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Beauchamp, T. L., Childress, J. F. (2013). Principles of Biomedical Ethics. Oxford University Press.
2. Glover, J. (2006). Choosing Children: Genes, Disability, and Design. Oxford University Press.
3. Fukuyama, F. (2002). Our Posthuman Future: Consequences of the Biotechnology Revolution. Farrar, Straus and Giroux.

МАЪМУРИЙ СУД ИШ ЮРИТУВИДА ЖАМОАВИЙ ШИКОЯТ ИНСТИТУТИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ АСОСИЙ МЕЗОНЛАРИ

Мадраҳимова Гулжаҳон,

юримдик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Тошкент давлат юримдик университети мустақил
тадқиқотчиси

ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ ВВЕДЕНИЯ ИНСТИТУТА КОЛЛЕКТИВНОЙ ЖАЛОБЫ В АДМИНИСТРАТИВНОЕ СУДОПРОИЗВОДСТВО

Мадраҳимова Гулжаҳон,

доктор философии (PhD) по юридическим наукам, доцент
независимый исследователь Ташкентского государственного
юридического университета

KEY CRITERIA FOR INTRODUCING THE INSTITUTION OF COLLECTIVE COMPLAINTS IN ADMINISTRATIVE COURT PROCEEDINGS

Madrakhimova Guljakhon,

Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate
Professor, Independent researcher at Tashkent State
University of Law



guljahon_20@mail.ru

Аннотация: Мазкур мақола жамоавий шикоят институтини маъмурий суд иш юритувида жорий қилишнинг асосий мезонларини ҳамда бу моделларнинг халқаро тажрибасини таҳлил қилади. Автор жамоавий шикоятнинг ҳуқуқий асослари, унга бўлган талаблар ва моделларини турли мамлакатлар — Франция, Германия, Испания, Бразилия, Европа Иттифоқи ва бошқалар мисолида кўриб чиқади. Шунингдек, жамоавий шикоятларни қимлар бериши мумкинлиги, шаклланиш тартиби (қилиш ёки чиқиш моделлари), ҳуқуқларни ҳимоя қилиш усуллари ва шартлари бўйича мезонлар тўғрисида фикрлар билдирилади. Мақолада шунингдек, жамоавий шикоят институтини жорий этишдаги муаммолар ва тавсиялар ҳам муҳокама қилинади. Таҳлил натижасида, бу моделларнинг ҳуқуқий тизимлардаги ўрни ва таъсирлари, шунингдек, уларни самарали қўллаш йўллари ҳусусида фикрлар билдирилади.

Калит сўзлар: жамоавий аризалар (class action), шерик иштирокчи, процессуал иштирокчилик, “қилиш имконияти” (“opt-in”) ва “чиқиш имконияти” (“opt-out”)

Аннотация: В данной статье анализируются основные критерии внедрения института коллективной жалобы в административное судопроизводство, а также рассматривается международный опыт применения таких моделей. Автор изучает правовые основания коллективной жалобы, требования к ней и различные модели на примерах таких стран, как Франция, Германия, Испания, Бразилия, Европейский Союз и другие. Также излагаются мнения о том, кто может подавать коллективные жалобы, как они формируются (входная или выходная модель), а также о способах и условиях защиты прав. Кроме того, в статье обсуждаются проблемы и предлагаются рекомендации по внедрению института коллективной жалобы. В

результате анализа высказываются суждения о месте и влиянии данных моделей в правовых системах и об эффективных путях их применения.

Ключевые слова: коллективные иски (class action), участник по соглашению, процессуальное участие, “возможность включения” (“opt-in”) и “возможность исключения” (“opt-out”).

Abstract: This article analyzes the key criteria for introducing the institution of collective complaints into administrative court proceedings, as well as the international experience with such models. The author examines the legal foundations of collective complaints, their requirements, and various models based on examples from countries such as France, Germany, Spain, Brazil, the European Union, and others. The article also discusses who may file collective complaints, the procedures for their formation (entry or exit models), and the methods and conditions for protecting rights. Furthermore, the article addresses challenges in implementing the collective complaint institution and offers recommendations. Based on the analysis, the paper presents reflections on the role and impact of these models within legal systems and explores effective ways of applying them.

Keywords: collective complaints (class action), participant by agreement, procedural participation, “opt-in” and “opt-out” options.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Бир гуруҳ шахсларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг энг самарали усули сифатида жамоавий шикоят бериш ҳисобланади. Мазкур институт Буюк Британия, АҚШ, Австралия, Франция, Германия, Швеция, Бразилия, Аргентина ва бошқа мамлакатларда кенг жорий қилинди.

Таъкидлаб ўтиш лозимки, мазкур институт ҳар қандай мамлакатда унинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Унинг ўзига хос хусусиятларини тизимлаштиришга ва тегишли моделларни яратишга имкон берадиган бир қатор мезонлар мавжуд.

Бир гуруҳ шахсларни ҳимоя қилишнинг муайян моделининг асосий хусусиятлари сезиларли даражада фарқ қилади, бу муайян мамлакатларнинг ҳуқуқий тизими ва маданиятининг ривожланиш тарихидаги сиёсий қарашларни акс эттиради. Илмий адабиётларда тўртта асосий мезон мавжуд бўлиб, улар бўйича мазкур институтнинг мавжуд моделларини таққослаш мумкин: жамоавий мурожаат қилишнинг доираси, судга мурожаат қилувчи субъект, жамоавий мурожаатни шакллантириш тартиби ва маълум бир воситани ҳимоя усули сифатида ишлатиш қобиляти [1]. Бизнингча мазкур мезонлар тўғри таснифланган дейиш мумкин. Шу боис, тадқиқот ишининг мазкур қисмида ушбу мезонлар асосида таҳлил қилиб чиқамиз.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД /

MATERIALS AND METHODS).

Биринчи мезон бўйича ҳар бир давлат ўзига хос йўлни танлаган. Мисол учун, Францияда истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, меҳнат ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва монополияга қарши курашиш билан боғлиқ низолар бўйича шикоят қилиш мумкин.

Германияда жамоавий шикоятлар институти фақат қимматли қўғозлар бозорида инвесторларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш билан боғлиқ ишларни кўриб чиқиш учун ишлатилади.

Испания, Швеция, Белгия, Бразилияда истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва монополияга қарши тўғрисидаги низолар бўйича жамоавий шикоят қилиш мумкин.

2013 йил 11 июндаги “Европа Иттифоқи кафолатланган ҳуқуқ ва эркинликларини бузган тақдирда ҳимоя қилиш ва зарарни қоплаш учун даъво кўзғатиш орқали жамоавий ҳимоя қилишнинг умумий тамойиллари тўғрисида”ги Европа комиссиясининг тавсияларига мувофиқ, истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш боғлиқ низоларни ҳал қилиш мазкур институтни қўллаш мумкинлиги назарда тутилган. Айнан шундай тартиб Италия ва Нидерландияда ҳам мавжуд.

Иккинчи мезонга кўра, жамоавий шикоятларни қимлар бериши мумкин деган

саволга илмий адабиётларда 3 та турга бўлинади: оммавий, ташкилий ва шахсий [2].

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Шахсий жамоавий шикоят фуқаро ёки ташкилот томонидан қўзғатилади ва уларга гуруҳ номидан эмас, балки унинг аъзолари ёки номуайян шахслар гуруҳининг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида даъво қўзғашга имкон беради. Оммавий жамоавий шикоят давлат органи томонидан маълум бир шахслар гуруҳи ёки номуайян шахслар доирасининг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш учун шикоят аризасини беришни ўз ичига олади. Ташкилий жамоавий шикоят жамоат муносабатларининг маълум бир соҳасида фаолият юритувчи ихтисослашган жамоат ташкилоти томонидан ушбу соҳада ҳуқуқлари бузилган фуқаролар ёки ташкилотларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш учун берилади. Бундай шикоятлар кўпинча қимматбаҳо қоғозлар бозори эгалари томонидан қўлланади.

Хорижий мамлакатларда ноқонуний қарор ҳар қандай ноқонуний қарордан жабрланган жамоавий шахслар гуруҳининг ҳар қандай аъзоси бундай гуруҳни ҳимоя қилишда иштирок этиш ҳуқуқига эга. Бирок, маълум шартлар бажарилган тақдирдагина мумкин бўлади, унинг асосий шарти аризачига бутун гуруҳ манфаатларини етарли даражада ифодалайди.

Шуни таъкидлаш керакки, Финляндия, Дания, Швеция, Латвия каби мамлакатларда жамоавий шикоятлар бериш прокурор, бошқа давлат органлари ёки инсон ҳуқуқлари бўйича Комиссар, монополияга қарши органлар, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш органлари (Швейцария) томонидан амалга оширилиши мумкин [3].

Бразилия, Франция, Германия каби давлатларда қимматли қоғоз бозорининг эгалари, касаба уюшмалари ҳам жамоавий шикоятлар бериш ҳуқуқига эга. Бу аризачининг манфаати жамоа манфаатларига зид бўлмаслиги керак.

Шу муносабат билан, давлат органлари ва ташкилотлар вакилликнинг тўғри хусусиятини таъминлаши мумкин деб тахмин қилинади, чунки бундай субъектлари тўғридан-тўғри моддий ва ҳуқуқий манфаатларга эга эмас. Шу билан бирга, адабиётларда жамоавий

шикоятни бошлаш ҳуқуқи берилган органлар, мансабдор шахслар ва ташкилотлар жамоавий шикоятни бошлаш ёки рад этиш билан боғлиқ масалаларда сиёсий босимга дучор бўлганлиги қайд этилган [4].

Учинчи мезон - шаклланиш тартиби кўп сонли шахслар гуруҳи (ёки потенциал гуруҳ аъзоларини гуруҳ ишлаб чиқаришга жалб қилиш тартиби). Ушбу мезонга кўра, жамоавий шикоятлар бериш икки турга бўлинади: кириш (opt-in) ва чиқиш (opt-out).

Чиқиш шикоятларида гуруҳнинг барча потенциал аъзолари, агар улар унга қўшилишни истамасликларини эълон қилмасалар, унинг бир қисми деб тахмин қилинади; бундай гуруҳнинг бир қисми бўлиб қолишни истамаган шахслар ундан чиқиш учун муайян ҳаракатлар қилишлари керак. Бундай талаблар АҚШ, Австралия, Канада, Исроил ва Колумбия қонунчилигида мавжуд.

Қабул қилиш бўйича суд жараёнларида жамоавий бериш ушбу мақомга фақат уларнинг иродаси аниқ ифодаланган тақдирдагина эга бўладилар. Мазкур моделга кўра, биргаликда гуруҳнинг аъзоси бўлишни хоҳлайдиган томонлар фаол ҳаракат қилишлари керак, шунинг учун қўшилиш гуруҳга бориши керак. Бундай даъволар қитъа ҳуқуқи мамлакатларида (Германия, Франция, Норвегия, Финляндия, Бразилия) кенг тарқалган.

Шуни таъкидлаш керакки, Европа Иттифоқида чиқиш модели асосида синф ҳаракатларини жорий этишга шошилмаяпти. Европа парламенти қарори 2012 йилда қабул қилинган "Жамоавий ҳимоя қилиш бўйича Европа ёндашуви" [5] га кўра Европа Иттифоқи мамлакатлари мазкур моделни қабул қилинмаслигига ишора қилади.

Тўртинчи мезон - жамоавий шикоятда зарарни ҳимоя воситаси сифатида қўллаш имконияти. Жамоавий ҳаракатни амалга оширган барча мамлакатларнинг қонунчилиги ҳуқуқларни тан олиш ва суд қарори каби ҳуқуқларни ҳимоя қилиш усулларида фойдаланишга имкон беради.

НАТИЖАЛАР (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Қонунчилигида бундай ҳимоя усулидан фойдаланишга рухсат берилган мамлакатлар орасида АҚШ, Швеция, Италия, Португалия, Нидерландия кабилар ажралиб

туради. Бундан ташқари, агар АҚШ амалиётига мурожаат қиладиган бўлсак, барча тоифадаги ишлар зарарни қоплаш тўғрисида жамоавий шикоят беришга имкон бермаслигини кўришимиз мумкин. Шундай қилиб, нуқсонли маҳсулотлар, транспорт ҳодисалари, қимматли қоғозлар бозори иштирокчиларининг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, корпоратив низолар ва даромадларни ноқонуний олиш билан боғлиқ молиявий зарарни қоплаш бўйича бошқа низолар бўйича биноларнинг вайрон бўлиши ва нефтнинг тўкилиши билан боғлиқ оммавий ҳуқуқбузарликлар билан боғлиқ ҳолларда зарарни ундириш мумкин [6].

Жамоавий шикоятда зарарни қоплашдан фойдаланишни чеклаш, зарарни қоплаш тўғрисида даъво қўйиш имконияти суд тизимида юқнинг ошишига олиб келиши мумкинлиги билан изоҳланади. Юридик адабиётларда таъкидланишича, "вақт келганда, турли гуруҳ аъзолари ўз фойдасига қарор қабул қилишдан кўпроқ манфаатдор" [7].

Жамоавий шикоят аризаси бериш учун қуйидаги шартлар белгиланди.

1) шахслар гуруҳининг кўплиги ёки унинг аъзолари сонининг ноаниқлиги;

2) низо предметининг бир хиллиги;

3) бошқа жавобгарнинг мавжуд эмаслиги;

4) гуруҳнинг барча аъзоларининг ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг бир хил усулидан фойдаланиши.

Умуман олганда, *жамоавий шикоят институтини жорий қилишда қуйидаги мезонларга эътибор қаратиш лозим:*

Биринчи мезон - бу жамоавий шикоят усулидан фойдаланиш доираси. Айрим давлатлар қонунчилигида жамоавий шикоят берилиши мумкин бўлган ҳолатлар сони чекланмаган. Бу норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар юзасидан низолашиш тўғрисидаги ишлар, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва бошқа жамоавий фаолиятга боғлиқ фаолият билан боғлиқ низолар бўйича жамоавий шикоятни қўзғатиш имкониятини беради.

Иккинчи мезон — жамоавий шикоят бериш ҳуқуқига эга субъекти билан боғлиқ. Юқорида биз дунёда бир нечта моделлар мавжудлигини таъкидладик. Хусусан, жамоавий шикоятлар жисмоний шахслар,

юридик шахслар ва ихтисослашган нотижорат ташилотлар томонидан берилиши мумкин. Ўз навбатида, прокурор, давлат ҳокимияти ва маҳаллий бошқарув органлари, истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш жамиятлари ва бошқалар томонидан ҳам жамоавий шикоятлар берилиши мумкин.

Учинчи мезон - жамоани шакллантириш тартиби. Бу бўйича иккита модел бор: кириш ёки чиқиш. Бунда потенциал иштирокчи турли хил шахслар гуруҳига кириш учун бир қатор фаол ҳаракатларни амалга ошириши керак, хусусан, тегишли гуруҳга қўшилиши учун ариза топшириши керак. Бундай ҳаракатлар нафақат ишни кўриб чиқиш босқичида, балки тегишли ариза қўзғатилишидан олдин ҳам амалга оширилади.

Тўртинчи мезон - ҳуқуқни тан олиш, ҳуқуқни бузадиган ёки унинг бузилишини чек қўйиш ва йўқотишларни қоплашни ўз ичига олган ҳимоя қилишнинг турли усуллари қўллаш имкониятини белгилайди.

Жамоавий шикоятларни қўллаш доираси ва қўлланиладиган ҳимоя усуллари бўйича қонун ҳужжатларида чекловлар мавжуд бўлмаган тақдирда янги шартларнинг ўрнатилиши, жамоавий шикоятнинг мавжуд моделига мувофиқ, тан олиш ва тақиқлаш тўғрисида даъво қўйишга рухсат берилади деган ҳулосага келишимизга имкон беради.

Ҳозирги пайтда қайсидир давлат тажрибасини ижобий ёки салбий деб айтиш мушкул. Хусусан, чиқиш моделидан фойдаланмаслик учун асосли сабаблар мавжуд бўлиб, асосийси жамоавий шикоят аризаси бериш ҳуқуқидан нотўғри фойдаланиш хавфи. Шу билан бирга, жамоавий шикоят аризаси бериш ҳуқуқи субъектларнинг кенг доирасига берилади. Шу маънода процессуал қонунчилик жамоавий ҳуқуқ ва манфаатларни жамоавий шикоят орқали ҳимоя қилиш учун кенг имкониятлар яратади.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Таклиф этилган мезонлар асосида олиб борилган қиёсий таҳлил турли гуруҳлардаги суд жараёнлари моделлари қандай бўлиши мумкинлигини кўрсатади. Ҳеч бўлмаганда, тадқиқот натижалари чекланган ва чекланмаган шикоят тизимининг мавжудлигини кўрсатиш мумкин.

Жамоавий шикоят институтини қонунчилиқни ислоҳ қилиш амалиётини ўрганиш жамоавий манфаатларни ҳимоя қилишнинг мавжуд имкониятларини кенгайтириш тенденциясини кўрсатади. Бу борада муҳим аҳамиятга эга бўлган жиҳат, нафақат жамоавий шикоят институтидан фойдаланиш орқали суд ҳимояси ҳуқуқини амалга ошириш учун шарт-шароит яратиш, балки жамоа иштирокчиларининг ҳуқуқларига риоя этилишини таъминлаш ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишдир.

Юқоридаги мезонлар асосида жамоавий шикоят институтини миллий қонунчиликка қўллаган ҳолда ушбу институтни жорий қилиш ва соҳада юзага келиши мумкин бўлган муаммоларни олдини олишга хизмат қилади.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Hensler D. R. From Sea to Shining Sea: How and Why Class Actions Are Spreading Globally, *Kansas Law Review*, 2017, vol. 65, pp. 965–988.
2. Шапдурсний Д. К. Правовая природа института организационного группового иска в

России // *Вестник гражданского процесса*. 2018. №6. С. 208–225.

3. Липдблом П. Х. Шведский национальный доклад // *Гражданский процесс в межкультурном диалоге: европейский контекст: Всемир. конф. междунар. ассоциации процессуального права* (Москва, 18–21 сентября 2012 г.). М.: Статут, 2012. С. 633–643.

4. Hensler D. R. From Sea to Shining Sea: How and Why Class Actions Are Spreading Globally // *Kansas Law Review*. 2017. Vol. 65. P. 965–988

5. European Parliament resolution of 2 February 2012 «Towards a Coherent European Approach to Collective Redress», (2011/2089(INI) // URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:52012IP0021&-from=EN> (дата обращения: 10.04.2020).

6. Hodges C. US class actions: promise and reality. *EUI LAW*. 2015/36. European Regulatory Private Law Project // URL: <http://hdl.handle.net/1814/36536> (дата обращения: 01.04.2020).

7. Hensler D. R. From Sea to Shining Sea: How and Why Class Actions Are Spreading Globally // *Kansas Law Review*. 2017. Vol. 65. P. 965–988.



GLOBALASHUV DAVRIDA YOSHLARDA PROYEKTIV TAFAKKUR SHAKLLANISHI MUAMMOLARI

*Kuchimova Farida Toshtemirovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Falsafa
va milliy g‘oya” kafedrası o‘qituvchisi (PhD)*

PROBLEMS OF THE FORMATION OF PROJECTIVE THINKING IN YOUNG PEOPLE IN THE ERA OF GLOBALIZATION

*Kuchimova Farida Toshtemirovna,
Teacher of the Department “Philosophy and national idea”
Samarkand State University named after Sharof Rashidov (PhD)*

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОЕКТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

*Кучимова Фарида Тоштемировна,
(PhD), преподаватель кафедры “Философия и
национальная идея” Самаркандского государственного
университета имени Шарафа Рашидова*



kucimovafarida@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-1646-7260>

Annotatsiya: Globallashuv jarayoni yoshlar tafakkurining shakllanishi va rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Proyektiv tafakkur, ya'ni kelajakni tasavvur qilish va rejalashtirish qobiliyati, falsafiy jihatdan insonning o'zini anglashi va erkinlik kafolati sifatida qaraladi. Maqolada proyektiv tafakkurning mohiyati, uning falsafiy asoslari va globallashuv sharoitida yoshlarda shakllanishi tahlil qilinadi. Global dunyodagi ko'ppartalik va tez o'zgarishlar yoshlarning identiklik muammosiga, ma'naviylik va axborot oqimi muvozanatining buzilishiga olib kelishi mumkin. Maqola shu muammolarning yoshlar ongidagi aksini va ularni bartaraf etish uchun ta'lim va ijtimoiy muhitning falsafiy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini o'rganadi. Proyektiv tafakkurni rivojlantirish orqali yoshlarning kelajakka yo'naltirilgan, erkin va ijodiy fikrlashini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: globallashuv, yoshlar, proyektiv tafakkur, tafakkur shakllanishi, ma'naviylik, identiklik muammolari, axborot oqimi, ta'lim muhiti, ijodiy fikrlash, intellektual salohiyat.

Abstract: The process of globalization significantly influences the formation and development of thinking among youth. Projective thinking, understood as the ability to envision and plan for the future, is philosophically regarded as self-awareness and a guarantee of human freedom. This article analyzes the essence of projective thinking, its philosophical foundations, and its development among young people in the context of globalization. The diversity and rapid changes in the modern world may lead to issues of identity, disruption of the balance between spirituality and the flow of information among youth. The article examines the reflection of these problems in the consciousness of young people and the possibilities of philosophical support through educational and social environments to overcome them. Developing projective thinking contributes to fostering free and creative thinking oriented towards the future, which is of great importance.

Keywords: globalization, youth, projective thinking, formation of thinking, spirituality, identity issues, information flow, educational environment, creative thinking, intellectual potential.

Аннотация: Процесс глобализации оказывает значительное влияние на формирование и развитие мышления у молодежи. Проективное мышление, то есть способность представлять и планировать будущее, с философской точки зрения рассматривается как осознание себя и гарантия свободы человека. В статье анализируются сущность проективного мышления, его философские основы и формирование у молодежи в условиях глобализации. Многообразие и быстрые изменения в современном мире могут привести к проблемам идентичности, нарушению баланса духовности и информационного потока у молодежи. Статья исследует отражение этих проблем в сознании молодых людей и возможности философской поддержки образовательной и социальной среды для их преодоления. Развитие проективного мышления способствует формированию у молодежи свободного и творческого мышления, ориентированного на будущее, что имеет важное значение.

Ключевые слова: глобализация, молодёжь, проективное мышление, формирование мышления, духовность, проблемы идентичности, поток информации, образовательная среда, творческое мышление, интеллектуальный потенциал.

Kirish

Hozirgi zamonda globallashuv jarayoni jadal sur'atlarda rivojlanmoqda va bu jarayon yoshlarning hayoti hamda ularning tafakkur tarziga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv bu dunyo miqyosidagi iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va axborot almashinuvining kuchayishi bo'lib, u yoshlarning dunyoqarashi, qimmatliklari va fikrlash uslublarini o'zgartirmoqda. Globallashuv sharoitida yoshlarning fikrlash qobiliyati, ayniqsa projektiv tafakkur shakllanishi davlat siyosatida ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishda bir qator islohotlar amalga oshirilmogda.

Projektiv tafakkur — bu kelajakni tasavvur qilish, rejalashtirish va ijodiy hal qilish qobiliyati bo'lib, shaxsning o'zini anglashi va erkinlikka intilishi bilan bog'liq. U yoshlarning intellektual va ma'naviy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida projektiv tafakkur shakllanishida turli muammolar yuzaga kelmoqda. Axborot oqimining ko'payishi, madaniy aralashuv, identiklik muammolari va ma'naviy qadriyatlarining o'zgarishi yoshlar tafakkurining sifatini va samaradorligini pasaytirishi mumkin. Maqolada globallashuvning yoshlar projektiv tafakkuriga ta'siri, uni shakllantirishdagi muammolar hamda ularni bartaraf etish uchun ta'lim va ijtimoiy muhitning roli tahlil qilinadi. Bu tadqiqot yoshlarning kelajakka yo'naltirilgan, erkin va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim xulosalar va tavsiyalar berishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada globallashuv davrida yoshlarda projektiv tafakkur shakllanishi muammolari nazariy-tahliliy usullar

asosida o'rganilgan. Tafakkur va uning shakllanishi haqidagi falsafiy va psixologik adabiyotlar tahlili qilindi. Shuningdek, globallashuvning yoshlar ongiga ta'siri va projektiv tafakkurning shakllanishidagi ijtimoiy-ma'naviy omillar tadqiq qilindi. Maqolada yoshlarning fikrlash qobiliyati va tafakkurini shakllantirishda ta'lim va ijtimoiy muhitning o'rniga alohida e'tibor berildi. Metodologik jihatdan, maqola lingvistik, tarkibiy va mazmunli tahlil usullaridan foydalangan.

Adabiyotlar tahlili

Projektiv tafakkur tushunchasi falsafa va psixologiya sohasida keng tadqiq qilingan. Masalan, V.Vundt tafakkurning rivojlanish jarayonlarini chuqur o'rgangan, ularning asarlarida projektiv fikrlashning asosiy xususiyatlari va shakllanish bosqichlari yoritilgan [1;134–138]. J.Piaje esa tafakkurni kognitiv rivojlanish bilan bog'lagan [2.280].

Shu bilan birga, ta'lim tizimida projektiv tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi usullar va innovatsion metodikalarni joriy etish zarurligi aniqlandi. Bunda ta'limda ijodiy fikrlashni rag'batlantirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va yoshlarni kelajak muammolariga tayyorlashga qaratilgan mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Shuningdek, zamonaviy olimlar, jumladan, P.Freyre va Yu.Bruner ta'lim tizimida projektiv tafakkurni shakllantirish usullariga alohida e'tibor qaratishgan [3;56–62]. Ushbu manbadagi ta'lim metodikalari haqidagi fikrlarga qo'shilaman, chunki ta'lim jarayonida projektiv fikrlashni rivojlantirish juda muhim. Ular ta'limda ijodiy va kelajakka

yo'naltirilgan fikrlashni rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydilar.

Globallashuvning yoshlar ongiga ta'siri va bu jarayondagi ijtimoiy va ma'naviy muammolarga doir tadqiqotlar ham muhim o'rin egallaydi. Masalan, M.Kastellsning axborot jamiyati konsepsiyasida global axborot oqimi yoshlar tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi [4;210–215]. Axborot oqimi tezlashgani bilan birga, yoshlarda ma'lumotlarni tanlash va tahlil qilish qobiliyati murakkablashmoqda. Bu esa ularning kelajakka oid rejalari va maqsadlarini aniq belgilashlariga to'sqinlik qiladi [4;210–215]. Ushbu manbadagi Kastells fikrlari muallif tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, chunki axborot oqimi yoshlar ongida murakkabliklar yaratadi. Ammo ushbu qarashga qarshi bo'lgan yoki uni kengaytirgan boshqa tahlillar ham mavjud.

O'zbekiston va mintaqaviy olimlarning ishlari ham bu mavzuda muhim ahamiyatga ega. Masalan, A.Ergashev va N.Qodirov yoshlarning ma'naviy rivojlanishi va globallashuv sharoitida identiklik masalalari haqida o'z tadqiqotlarini taqdim etganlar [5;77–85]. Ular yoshlarning proyektiv tafakkurini mustahkamlashda milliy va ma'naviy omillarning roli haqida fikr yuritadilar.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari ko'rsatganidek, globallashuv yoshlar ongi va proyektiv tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Identiklik muammosi, ya'ni yoshlarning o'zlikni anglash va saqlash masalasi ham global muhitning tez o'zgarishlari natijasida kuchaymoqda. Turli madaniyatlar va g'oyalar orasida o'z o'rnini topa olmaslik yoshlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, proyektiv tafakkurning shakllanish jarayoniga salbiy ta'sir qiladi [6;77–85]. Bu manbadagi yoshlarda identiklik muammosi haqidagi fikrlar muhim, lekin muallifning fikricha, milliy qadriyatlarining mustahkamlanishi bu muammoni yumshatishda asosiy omil sanaladi.

Ijtimoiy muhitda esa yoshlarning ma'naviy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Ma'naviy qadriyatlarni tiklash, milliy g'oyalarni targ'ib qilish va yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb etish orqali ularning proyektiv tafakkurini mustahkamlash mumkin [7;102–110]. Bunda chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlayman, chunki bu yoshlarning kelajakka intilishini kuchaytirishda muhimdir. Shu bilan birga,

texnologiyalarning ijobiy ta'siridan samarali foydalanish uchun yoshlarni axborot resurslarini tanlash va tahlil qilish ko'nikmalariga o'rgatish muhimdir.

Natijalar

Tahlillar natijasida globallashuv yoshlarning proyektiv tafakkurini shakllantirishda bir qator muammolarga sabab bo'layotgani aniqlandi. Birinchidan, axborot oqimining tez va ko'p bo'lishi yoshlarning diqqatini tarqatishi va ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini murakkablashtirishi kuzatildi. Bu holat yoshlar orasida ma'lumotlarni to'g'ri va samarali filtrlash qobiliyatining kamayishiga olib kelmoqda, natijada ularning kelajakka oid rejalari va maqsadlari aniq bo'lmasligi mumkin [7;88–92]. Ushbu tahlillar muallifning fikriga ko'ra juda muhim, chunki hozirgi kunda axborot hajmi oshishi bilan ma'lumotlarni tanlash va tahlil qilish ko'nikmalari yoshlar uchun asosiy talabga aylanmoqda.

Ikkinchidan, madaniy va ijtimoiy aralashuvlar natijasida yoshlarda identiklik masalalari kuchaymoqda. Turli madaniyat va g'oyalar orasida o'z o'rnini topa olmaslik yoshlarning o'z-o'zini anglash jarayonida ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa ularning proyektiv tafakkurining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki kelajakni tasavvur qilish uchun o'zligini aniq bilgan shaxs zarur [8;102–107]. Bu qarashga muallif qo'shiladi, chunki shaxsning identichligi uning faol hayot pozitsiyasini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Uchinchidan, ta'lim tizimida proyektiv tafakkurni rivojlantirish uchun amaliy va innovatsion usullarning yetishmasligi qayd etildi. [9;173]

Ta'lim jarayonida yoshlarni kelajak muammolariga yo'naltirish va ularda ijodiy fikrlash qobiliyatini uyg'otishga qaratilgan metodikalar kam qo'llanilmoqda [10;45–50] – bu juda jiddiy muammo, chunki ta'lim jarayoni yoshlarning kelajakka tayyorgarligida asosiy rol o'ynaydi va uni takomillashtirish zarur.

To'rtinchidan, yoshlarning ma'naviy va intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy muhitdagi omillarning samaradorligi pastligi ham muammo sifatida belgilandi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi, ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabati va jamoatchilik

bilan aloqalari projektiv tafakkurning mustahkamlanishi uchun muhimdir [11;121–126]. Ushbu nuqtai-nazarga muallif alohida e'tibor qaratadi, chunki ijtimoiy muhit yoshlarning umumiy rivojlanishida asosiy rolni o'ynaydi.

Shu bilan birga, yoshlar orasida texnologiya va axborot resurslariga keng kirish imkoniyati ham ijobiy omil sifatida qayd etildi, chunki bu ularning bilimlarini kengaytirish va yangi g'oyalarni shakllantirishga yordam beradi. Ammo bu imkoniyatlarni samarali foydalanish uchun ularning tanlov va tahlil qobiliyatini rivojlantirish zarur [12;59–64]. Bu muallifning fikriga ko'ra global raqamli muhitda yashab, bilim olish jarayonida zamonaviy tanlov ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Globalashuv davrida yoshlarda projektiv tafakkur shakllanishi muammolari kompleks tabiatiga ega bo'lib, ularni hal etishda ta'lim, ijtimoiy muhit va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot oqimining tezlashishi va madaniy aralashuvlar yoshlar ongiga ta'sir qilib, ularning kelajakqa yo'naltirilgan fikrlashini murakkablashtirmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimida projektiv tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion usullar va ijtimoiy muhitda yoshlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilishi zarur. Bu orqali yoshlar o'zlikni aniqlash va kelajakka ishonch bilan qarash qobiliyatini oshirishlari mumkin. Natijada, mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun yoshlar tafakkurining ushbu turini mustahkamlash va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Yoshlarda projektiv tafakkur shakllanishini qo'llab-quvvatlash mamlakat taraqqiyotining ustuvor vazifasi bo'lib, bu sohadagi chora-tadbirlar tizimli va kompleks bo'lishi shart.

Birinchidan, globalashuvning tez sur'atlarda rivojlanishi yoshlarda axborot oqimi va turli madaniyatlar ta'siri ostida projektiv tafakkur shakllanishini murakkablashtirmoqda. Bu jarayon yoshlarning kelajakka oid aniq reja va maqsadlarni belgilash qobiliyatini pasaytirmoqda.

Ikkinchidan, yoshlarda o'zlikni anglash va identiklik muammosi kuchaymoqda, bu esa ularning projektiv fikrlashini cheklashga olib keladi. Shu sababdan, milliy va ma'naviy

qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega.

Uchinchidan, ta'lim tizimida projektiv tafakkurni shakllantirish uchun innovatsion metodikalar va amaliy usullarni keng joriy etish zarur. Ta'lim jarayonida ijodiy, tanqidiy fikrlash va kelajakka yo'naltirilgan mashg'ulotlarga alohida e'tibor berish kerak.

To'rtinchidan, yoshlarning ma'naviy va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirish uchun ijtimoiy muhitdagi imkoniyatlar va qo'llab-quvvatlash tizimlarini mustahkamlash lozim. Bu ularning ijtimoiy faolligi va jamiyatga integratsiyasini ta'minlaydi.

Beshinchidan, zamonaviy texnologiyalar va axborot resurslarini samarali foydalanish ko'nikmalari yoshlarning projektiv tafakkurini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun yoshlarni ushbu sohadagi ko'nikmalarga o'rgatish va tarbiyalash zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Вундт В. Основы психологии. — М., 2009. — 350 с.
2. Пиаже Ж. Психология интеллекта. — СПб., 2010. — 280 с.
3. Фрейре П. Педагогика угнетенных. — М., 2012. — 240 с.
4. Кастеллс М. Информация, власть и общество. — М., 2015. — 400 с.
5. Ergashev A., Qodirov N. Yoshlar ma'naviyati va globalashuv. — Toshkent, 2018. — B. 180.
6. Islomova Sh. Ma'naviyat va yoshlar. — Toshkent, 2019. — B. 150.
7. Axmedov R. Axborot jamiyati va yoshlar. — Toshkent, 2020. — B. 220.
8. Норман Д. Психология идентичности. — СПб., 2016. — 310 с.
9. G.S.Sultanova. Scientific thinking: innovation and innovation activities. Modern science: new approaches and current research//materials of the international scientific and practical conference. Prague, Czech Republic. 2020/4/21. - P. 172.
10. Karimov M. Ta'limda innovatsion usullar. — Toshkent, 2021. — B. 200.
11. Sayfullayev F. Ijtimoiy faollik va yoshlar. — Toshkent, 2022. — B. 190.
12. Jo'rayev S. Axborot texnologiyalari va bilimlar bazasi. — Toshkent, 2023. — B. 210.

Qabul qilindi: 16.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK: 378:372.851

OLIV TA'LIM TIZIMIDA DASTURLASH TILLARINI TRIANGULYAKTIV YONDASHUV ASOSIDA O'RGATISH

Prenov Barliqbay Barakbaevich,

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Matematika o'qitish metodikasi" kafedrasini mudiri, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanovich,

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Matematika o'qitish metodikasi" kafedrasini o'qituvchisi, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

TEACHING PROGRAMMING LANGUAGES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM BASED ON A TRIANGULYACTIVE APPROACH

Prenov Barliqbay Barakbaevich,

Head of the Department of "Methods of Teaching Mathematics" of the Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Professor

Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanovich,

Lecturer of the Department of "Methods of Teaching Mathematics" of the Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

ОБУЧЕНИЕ ЯЗЫКАМ ПРОГРАММИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ТРИАНГУЛЯКТИВНОГО ПОДХОДА

Пренов Барлыкбай Баракбаевич,

Заведующий кафедрой "Методика преподавания математики" Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза, доктор физико-математических наук (DSc), профессор

Мамбеткаримов Байнияз Мейрманович,

Преподаватель кафедры "Методика преподавания математики" Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза, доктора философии (PhD) по педагогическим наукам


Annotatsiya: Butun dasturlash tillarini o'rgatish uchun muammoning butun tarixini hisobga olish talab etiladi. Bu esa dasturlash jarayonining murakkabligini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli, jarayonni tezlashtirish uchun interfaol metodlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq. Ushbu maqolada har qanday dasturlash tillarini yuqori tezlik va aniq natijalar bilan o'rganish uchun triangulyaktiv yondashuv ishlab chiqilganligi bayon etiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, metod, dasturlash tillari, refleksiya, kombinatsiya, integratsiya, triangulyatsiya.

Abstract: For teaching entire programming languages, it is necessary to take into account the entire history of the problem. This significantly increases the complexity of the programming process. Therefore,

TAMADDUN NURI / THE LIGHT OF CIVILIZATION ISSN 2181-8258 IF-9.347 DOI 10.69691

2025-yil, 7-son (70) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal



prenov@mail.ru



mambetkarimov80@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-2994-8360>

it is advisable to use interactive methods to accelerate the process. This article describes how a triangulation approach has been developed to study any programming languages with high speed and accurate results.

Key words: education, method, programming languages, reflection, combination, integration, triangulation.

Аннотация: Для обучения всем языкам программирования требуется учитывать всю историю проблемы. Это значительно увеличивает сложность процесса программирования. Поэтому для ускорения процесса целесообразно использовать интерактивные методы. В данной статье описывается разработанный триангулятивный подход к изучению любых языков программирования с высокой скоростью и точными результатами.

Ключевые слова: образование, метод, языки программирования, рефлексия, комбинирование, интеграция, триангуляция.

Kirish. Bugungi kundagi oliy ta'lim tizimida fanlar mazmunini shakllantirish jarayoni tobora murakkablashib bormoqda. Bunda asosiy e'tibor nafaqat bilimlarni yetkazishga, balki talabalarda chuqur tushunish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratiladi. Ushbu maqsadlarga erishishda quyidagi integratsiyalashgan yondashuv ayniqsa muhim rol o'ynaydi:

Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlarning qo'llanilishi talabalar bilimini mustahkamlash va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Mavzularni o'rgatishda interfaol metodlarning samaradorligini oshirish uchun turli metodlar qo'llaniladi, ulardan biri **triangulyatsiya** bilan bog'liqdir.

Triangulyatsiya (lot. *triangulum* – uchburchak) – tadqiqot metodologiyasida turli ma'lumot manbalaridan, metodlardan yoki nazariyalardan foydalanib, bir hodisani yaxlit tushuntirish va baholashga xizmat qiluvchi metod hisoblanadi [5].

Ushbu tushuncha interfaol o'qitish metodlari bilan bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonini ko'p qirrali tahlil qilish va turli metodlarni kombinatsiyalash imkonini beradi.

Triangulyatsiya (ijtimoiy fanlar) [inglizcha] - natijalarni mustaqil ravishda tasdiqlash uchun kamida uchta metoddan foydalangan holda bir xil ko'rsatkichni o'lchash. Bu metod birinchi marta 1615-17-yillarda Gollandiyada daraja o'lchash uchun qator uchburchaklar o'rnatilganida qo'llaganligi umumiy qabul qilingan. Rossiyada topografik tadqiqotlar uchun geologik usuldan foydalanish bo'yicha ishlar XVIII-XIX asrlarning boshlarida boshlangan va XX asr boshlariga kelib

bu metod keng tarqaldi. Triangulyatsiya interfaol metodlarning samaradorligini oshirish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. O'qitish jarayonida metodik, ma'lumotlar, nazariy va instrumental triangulyatsiyadan foydalanish orqali dasturlash fanlarini o'qitish jarayoni yanada innovatsion va samarali bo'lishi mumkin. Shu bois, zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida interfaol metodlar va triangulyatsiya tamoyillarini uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Bu yondashuv ta'lim jarayonining ko'p qirrali bo'lishini, mavzularni ozlashtirish samaradorligini oshirishni va o'quv jarayonida talabalarining faol ishtirokini taminlaydi, shuningdek, bir nechta samarali va bir-birini to'ldiruvchi o'qitish uslublarini strategic ravishda birlashtirishga asoslanadi:

Muhokamaga asoslangan o'rganish (Discussion-Based Learning – DBL): Talabalar mavzuni muhokama qilish, fikr almashish, turli muammolarni muhokama qilish va dalillar asosida pozitsiya bildirish orqali o'rganadilar. Bu tanqidiy fikrlash, nutq madaniyati va fikrlarni mantiqiy tartibga solish ko'nikmalarini rivojlantiradi [3].

Loyihaga asoslangan o'rganish (Project-Based Learning – PBL): Talabalar real dunyoga oid muammolarni hal qilish yoki murakkab savollarga javob topish uchun uzoq muddatli, amaliy loyihalarda ishlaydilar [2]. Bu tadqiqot qilish, jamoada ishlash, vaqtni tejash, yechimlarni amalga oshirish va natijalarni taqdim etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Muammoga asoslangan o'rganish (Problem – Based Learning PrBL): Talabalar dastlab real hayotiy yoki nazariy muammo (scenario) bilan tanishtiriladi va uni hal qilish jarayonida kerakli bilim va ko'nikmalarni o'zlari izlab topadilar [4].

Bu muammoni aniqlash, tahlil qilish, ma'lumotlarni saralash va yechim strategiyalarini ishlab chiqish qobiliyatlarini oshiradi.

Oliy ta'lim tizimida dasturlash tillarini o'qitishda triangulyativ yondashuv asosida interfaol metodlardan foydalanish mexanizmi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi (Dastlabki bosqich)

Bu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

Maqsad va vazifalarni belgilash: Dasturlash tillarini o'qitishdagi asosiy maqsad va vazifalar aniqlanadi.

Metodlarni tanlash: Triangulyativ yondashuv doirasida uchta asosiy metod (discussion-based learning, project-based learning, problem-based learning) kombinatsiyalash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Didaktik materiallar tayyorlash: Interfaol metodlarni qo'llash uchun elektron resurslar, o'quv qo'llanmalar va dasturiy ta'minotlar tayyorlanadi.

2. O'quv jarayonini tashkil etish bosqichi (Amaliy bosqich)

Bu bosqichda dasturlash tillarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish amalga oshiriladi:

A) Discussion-Based Learning (Munozara asosida o'qitish)

Mavzuni taqdim etish: Pedagog mavzuni qisqacha tushuntiradi va muammo qo'yadi.

Munozara tashkil qilish: Talabalar kichik guruhlariga bo'linadi va berilgan masalani muhokama qiladi.

Refleksiya: O'qituvchi munozara jarayonida kuzatuv olib boradi va yakuniy xulosa chiqaradi.

B) Project-Based Learning (Loyiha asosida o'qitish)

Loyiha mavzusini tanlash: Talabalar muammo yoki vazifani tanlaydilar (masalan, dasturiy ilova yaratish).

Guruhda ishlash: Loyihani amalga oshirish uchun guruhlariga bo'linadi.

Loyihaning bosqichma-bosqich bajarilishi: Dasturni rejalashtirish, kod yozish va testlash.

Loyihani taqdim etish: Talabalar tayyorlagan dasturiy mahsulotni namoyish etadi va natijalarni muhokama qiladi.

C) Problem-Based Learning (Muammoli vaziyat asosida o'qitish)

Muammo qo'yish: Amaliy masala yoki dasturiy muammo ilgari suriladi.

Tahlil va yechim izlash: Talabalar muammoni tahlil qilib, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etadilar.

Mustaqil izlanish: Kerakli ma'lumotlarni topish va yangi bilimlarni o'zlashtirish.

Yechimni taqdim etish: Talabalar o'zlari topgan yechimni taqdim qiladilar va uning samaradorligini asoslaydilar.

3. Baholash va refleksiya bosqichi (Yakuniy bosqich)

Faoliyatni tahlil qilish: Har bir metodning qo'llanilishi va natijadorligi tahlil qilinadi.

Reflektiv tahlil: Pedagog va talabalar jarayonni tahlil qiladi, yutuqlar va kamchiliklarni muhokama qiladi.

Baholash: Talabalar bilim va ko'nikmalari loyiha natijalari, muammo yechimi va munozaralardagi faoliyat asosida baholanadi.

Triangulyativ yondashuvning samaradorligi:

Har tomonlama yondashuv: Turli metodlarni kombinatsiyalash natijasida nazariy va amaliy bilimlar birgalikda rivojlanadi.

Subyektiv-refleksiv pozitsiyani rivojlantirish: Pedagoglarning o'z faoliyatini tahlil qilishi va takomillashtirishi uchun imkoniyat yaratiladi.


Ushbu uchta metodning o'zaro uyg'un kombinatsiyasi orqali mavzu yagona metod bilan erishish qiyin bo'lgan chuqurlik, amaliylik va motivatsiya darajasida o'rgatiladi. Har bir metod boshqasining zaif tomonlarini qoplab, umumiy o'rganish tajribasini boyitadi.

O'qitish jarayonida triangulyatsiyaning qo'llanilishi:

- dasturlash fanlarini o'qitishda bir nechta interfaol metodlar kombinatsiya qilinadi.

- masalan, jamoaviy muhokama (discussion-based learning), loyihaga asoslangan ta'lim (project-based learning) va muammoli ta'lim (problem-based learning) kabi metodlar birgalikda qo'llanib, talabalar bilimini chuqurlashtirishga xizmat qiladi [6].

shu tarzda, talabalar har xil burchaklardan bilim olishadi va mustaqil fikrlashga o'rganadilar.



Ishlab chiqilgan interfaol yondashuv talabalarining dasturlash tillarini mukammal o'zlashtirishiga oid ijodiy qobiliyatini oshirish asosida o'rgatishda to'liq ifodasini topadi va bunda talabalar nafaqat idrok etadilar, balki dastur tuzadilar, ma'lumotlarni tugallangan shaklda esda saqlash, shuningdek, o'qituvchi bilan birgalikda yoki muammoli vaziyatda mavjud bilim, ko'nikma va malakalarga asoslangan mantiqiy-kognitiv vazifalar tizimini mustaqil ravishda hal qiladi.

Yuqorida tavsiflangan triangulyativ metodlar kombinatsiyasi refleksiv pedagogik yondashuvning sienergik ta'siri quyidagi natijalarga olib keladi:

Optimallashtirilgan o'zlashtirish jarayoni: talabalar mavzuni faqat eshitish yoki o'qib o'rganishdan ko'ra, faol ishtirok etish, muhokama qilish, loyihalarda ishlash va muammolarni hal qilish orqali chuqurroq va uzoq muddatli o'zlashtiradilar. Bu jarayon bilimlarning passiv qabul qilinishidan faol konstruksiyaga o'tishni anglatadi.

Samaradorlik: Faol metodlar talabalarining motivatsiyasi: qiziqishi va shaxsiy javobgarlik hissini oshiradi. Refleksiv pedagog esa metodlarni talabalar ehtiyojlari va mavzuning mohiyatiga ancha moslashtira oladi.

Bu ikki omil birgalikda vaqt va resurslardan yuqori samaradorlik bilan foydalanishga, o'rganish natijalarining sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keladi.

Kompleks fan ko'nikmalarini rivojlantirish: Faqat nazariy bilim emas, balki tadqiqot qilish, tahlil qilish, sintez qilish, ijodiy yechim topish, aloqa qilish, hamkorlik qilish, o'z-o'zini baholash

kabi XXI asrda muhim bo'lgan ko'nikmalarning rivojlanishi ta'minlanadi. Aynan bular "Fan ko'nikmalari" degan tushunchaning mohiyatidir.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy oliy ta'limda mavzularni samarali o'qitish faqat tarkibni yetkazishdan iborat emas. U pedagogning o'zini anglash va o'z amaliyotini doimiy ravishda o'rganish (refleksiya) pozitsiyasidan chiqib, muhokama, loyiha va muammoga asoslangan o'qitish usullarini uyg'un kombinatsiyalash orqali talabalarining faol ishtirokini va chuqur o'zlashtirishini ta'minlashni talab etadi. Ana shu integratsiyalashgan yondashuv fan ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonini sezilarli darajada optimallashtiradi va oliy ta'limning umumiy samaradorligini yuqori ko'taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Скворцов А.В., Мирза Н.С. Алгоритмы построения и анализа триангуляции. – Томск: Изд-во Том. ун-та, 2006. – 168 с.
2. Mambetkarimov B.M. Developing Python programming language skills based on interactive methods. // International Journal of Studies in Advanced Education, Volume 03, Issue 8, ISSN (E): 2949-8945 SJIF: 6.619. – Netherlands, 2024. – P.1–6.
3. Meyrmanovich, M. B. (2023). MODELING CLOUD TECHNOLOGY STRUCTURES IN THE EDUCATIONAL PROCESS. British View, 8(7).
4. Mambetkarimov B.M. Employing interactive approaches in teaching computer science in higher education institutions. // Международная конференция академических наук. – Россия, 2024. Т. 3, Выпуск 7, – С. 13–16.
5. Mambetkarimov B.M. Oliy ta'lim tizimida dasturlash tillarini interfaol metodlar asosida o'rgatishni takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori: (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Nukus.: – 2025 y.
6. Рихтер Т.В., Абрамова И.В. Использование цифровых образовательных ресурсов при изучении программирования в вузе // Karelian Scientific Journal. 2021. Т. 10. № 2(35). ISSN print: 2311-0104; ISSN online: 2712-9772. – С. 22-24.

PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Mustofoqulova Sohiba Alibekovna,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi I kurs magistranti*

LEXICAL-SEMANTIC PROPERTIES OF PAREMIOLOGICAL UNITS

Mustofoqulova Sohiba Alibekovna, 1st year master's student, Uzbek language and literature, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Мустофакулова Сохиба Алибковна, студентка 1 курса магистратуры, кафедра Узбекского языка и литературы, Институт предпринимательства и педагогики имени Денова



mustofoqulovasohiba@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi paremiologik birliklar - maqollar, matallar va iboralarning tuzilishi, semantik jihatlari hamda madaniy xususiyatlari tahlil etiladi. Maqollarning xalq tafakkuridagi o'rni va ularning lingvistik tuzilishi o'rganilib, o'zaro tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida o'zbek tilidagi maqollar, ularning madaniy va tarixiy ildizlari o'rganiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ayrim maqollar umumiy axloqiy tushunchalarni aks ettirsa, boshqalari esa milliy qadriyatlar va tarixiy voqealar bilan bog'liqdir.

Kalit so'zlar: paremiologiya, maqollar, matallar, iboralar, o'zbek tili, qiyosiy tilshunoslik, madaniy tafovutlar.

Abstract: This article analyzes the structure, semantic aspects and cultural characteristics of paremiological units in the Uzbek language - proverbs, sayings and expressions. The place of proverbs in folk thought and their linguistic structure are studied and analyzed. During the research, proverbs in the Uzbek language, their cultural and historical roots are studied. The results show that some proverbs reflect general moral concepts, while others are associated with national values and historical events.

Keywords: paremiology, proverbs, sayings, expressions, Uzbek language, comparative linguistics, cultural differences.

Аннотация: В данной статье анализируется структура, семантические аспекты и культурные особенности паремнологических единиц в узбекском языке - пословиц, поговорок и выражений. Изучается и анализируется место пословиц в народной мысли и их языковая структура. В ходе исследования изучаются пословицы в узбекском языке, их культурно-исторические корни. Результаты показывают, что некоторые пословицы отражают общие моральные понятия, а другие связаны с национальными ценностями и историческими событиями.

Ключевые слова: паремнология, пословицы, поговорки, выражения, узбекский язык, сравнительное языкознание, культурные различия.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasi, shuningdek,

2019-yil 21- oktyabrdagi PF-5850-sonli Farmoni asosida davlat tilining nufuzini oshirish va uni ilmiy-nazariy jihatdan rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi ¹. Mazkur chora-tadbirlar

¹ O'zb.Resp.Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich farmoni (2017)

doirasida paremiologik merosni o'rganish, xususan, oila mavzusidagi maqollar va matallarning tahlili alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

Til xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tafakkuri va ijtimoiy ongining zaminidir. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodida o'z aksini topgan paremiologik birliklar milliy tafakkur, axloqiy tamoyillar va ijtimoiy munosabatlar tizimini ifodalaydi. Jumladan, oila qadriyatlari, mehr, sabr, vafodorlik singari tushunchalar paremalarda ramziy va ko'chma ma'nolar vositasida mujassam topgan.

Paremiologik birliklar millatlararo muloqotda, tarjima jarayonlarida va til o'qitish metodikalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq maqollarining mazmunini chuqur tushunish ularning mantiqiy asoslarini, tarixiy ildizlarini hamda madaniy xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi.

Ishning dolzarbligi

O'zbek tilidagi paremiyologik birliklarni o'rganish bo'yicha turli ilmiy manbalarda lingvistik, semantik va madaniy jihatlar ko'rib chiqilgan. Ushbu mavzu xalq og'zaki ijodi, tilshunoslik va tarjima nazariyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, maqollar va matallarning kelib chiqishi, qo'llanilishi hamda madaniyatlararo farqlari haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Tadqiqotlar materiallari va usullari

Birinchi navbatda, O'zbekistonda maqollar va matallarni o'rganishga bag'ishlangan asarlar orasida A. Madvaliyev va M. Jo'rayevning "O'zbek maqollari va ularning lingvistik xususiyatlari"(2020) nomli kitobi alohida o'rin tutadi. Ushbu asarda o'zbek tilidagi maqollar morfologik va semantik jihatdan tahlil qilinib, ularning xalq turmush tarzi va mentaliteti bilan bog'liqligi yoritilgan.

Shuningdek Bibishxonim Jo'rayevaning "O'zbek xalq paremalarining sinonimik lug'ati" dissertatsiyasida maqollarning matallardan asosiy farqi maqollarning idiomalashgan ko'chma ma'noga ega ekanligi ularning sinonimiyasi haqida ma'lumotlar keltiradi. Paremalarni o'rganish sohasida ko'plab olimlar, jumladan, V. Dal, G. Permyakov, shuningdek, o'zbek olimlari M.Qodirov, N.Karimov va boshqalarning ishlari mavjud. Ularning tadqiqotlarida paremalarning lingvistik, madaniy va psixologik jihatlari yoritilgan. Biroq, oila mavzusidagi paremalarning

leksik-semantik xususiyatlarini chuqur o'rganishga oid ishlar nisbatan kam. Ushbu tadqiqot aynan shu nuqsonni bartaraf etishga qaratilgan. O'zbek xalq maqollari kitobidan quyidagi maqollar tahlilini ko'rib chiqamiz.

Bolaning yaxshisi bel quvvati

Bolaning yomoni dil qudurati.

Bu maqolda bolaning yaxshi va yomon tomonlarini solishtirib, ularning ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi ahamiyatini yoritadi. Keling, uni tahlil qilaylik.

Maqolda bolalik fazilatlarini haqida so'z boradi, unda "bolaning yaxshisi" deb bel (jismoniy) quvvatga, "yomoni" esa dil (qalb, ruhiyat) qudratiga bog'lanadi. Bu ikki jihatni muvozanatli rivojlanish kerakligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit tushunchalar:

1. Belning quvvati - jismoniy salomatlik, chiniqish, qobiliyat.

2. Dil qudrati - his-tuyg'ular, axloq, ma'naviyat, aql-idrok.

Adabiy san'atlar:

Tazod (qarama-qarshilik): "yaxshi" va "yomon", "bel" va "dil" qarama-qarshiliklari orqali fikr kuchaytirilgan.

Istiora (metafora): "Bel quvvati" va "dil qudrati" tushunchalari orqali chuqur ma'nolar ifodalangan.

Natijalar va muhokamalar:

Maqolda bolalarni bir tomonlama emas, holistik (barqaror) rivojlantirish zarurligini ta'kidlanadi. Bugungi dunyoda ba'zilar bolalarni faqat sport sohasiga o'rgatishga, ba'zilar esa faqat intellektual rivojlanishga urg'u berishi munosabati bilan bu fikr dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu maqolda qisqa, ammo chuqur ma'noli ibora orqali bolalarni tarbiyalashda muvozanatli yondashuvning ahamiyatini ko'rsatadi. U odamlarga bolalarning nafaqat tanasi, balki ruhiyatiga ham e'tibor berish kerakligini eslatadi.

"Oila – kichik jannat, agar unda sabr va shukr bo'lsa" maqolini tahlil qilamiz:

1. Maqolning lingvistik tahlili:

Metafora "Kichik jannat" ifodasi oilani ilohiy baxt va tinchlik manbayi sifatida tasvirlaydi.

Antiteza: "Sabr va shukr" qarama-qarshiligida oilaviy munosabatlarning ikki asosiy ustuni ko'rsatilgan.

Harvard universitetining 80 yillik tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, oilaviy baxtning 70% oila a'zolarining

bir-biriga munosabat uslubiga bog'liq (sabr va minnatdorchilik bu erda asosiy omillar).

Badiiy asarlarda maqollardan foydalanish ham an'anaviy bo'lib, Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari maqollar bilan ziynatlangan asar sifatida mashhur.² Maqollar badiiy asarlarda fikr ifodalash vositasi bo'lib qolmaydi, balki asarning ta'sirchanligini, fikrning badiiy-obrazlilikini ta'minlab, badiiy-estetik darajasini oshiradi, o'quvchiga zavq-shavq uyg'otadi. Maqollarning lingvopoetik mohiyati shu jihatlari bilan belgilanadi.

Ko'pincha kambag'allik deganda ochlik yoki uysizlikni tushunamiz. Aslida keraksiz bo'lib, muhabbat va g'amxo'rlikka zoriqish chinakam yo'qsillikdir. Har kim bu baloga qarshi kurashni o'z oilasidan boshlamog'i lozim. Ushbu hikmatli so'zni leksik semantik jihatidan tahlil qilamiz.

1. Leksik Tahlil

Matnda quyidagi leksik birliklar diqqatga sazovor:

"Kambag'allik" – Odatiy ma'noda moddiy qashshoqlikni anglatadi, lekin bu yerda majoziy ma'noda (hissiy, ma'naviy yetishmovchilik) ishlatilgan.

"Keraksiz bo'lib" – "Keraksiz" so'zi ehtiyojsizlik emas, balki e'tiborsizlik, mehrsizlik ma'nosini beradi.

"Zo'riqish" – Kuchli emotsional ta'sirga ega bo'lib, qiynalish, muhtojlikni bildiradi.

"Chinakam yo'qsillik" – "Chinakam" so'zi haqiqatni ta'kidlaydi, "yo'qsillik" esa nafaqat moddiy, balki ruhiy qashshoqlikni anglatadi.

"Baloga qarshi kurash" – "Baloga" so'zi kambag'allikni ofat, falokat sifatida ko'rsatadi. Xulosa: So'z tanlovi emotsional va obrazli bo'lib, mavzuni chuqurroq tushinishga yordam beradi.

2. Semantik Tahlil (Ma'no Qurilmasi)

A. Kontrast (Qarama-qarshilik)

"Ochlik yoki uysizlik" (moddiy qashshoqlik) "muhabbat va g'amxo'rlikka zo'riqish" (hissiy qashshoqlik).

Bu qarama-qarshilik orqali asosiy g'oya ta'kidlanadi: haqiqiy qashshoqlik – pul emas, mehr yetishmovchiligi.

B. Metafora (Ma'juziy ma'no)

"Yo'qsillik" – Bu so'z odatda moliyaviy holatga nisbatan ishlatiladi, lekin bu yerda ruhiy bo'shliqni ifodalaydi.

"Baloga" – Kambag'allik tabiiy ofat darajasida ko'rsatilgan, bu uning jiddiyligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlar semantik jihatdan boy, leksik jihatdan obrazli va pragmatik jihatdan amaliydir. So'z – qalblarga kirishning kaliti. To'g'ri tanlangan so'zlar – hayotning ma'nosini ochadi.

Xulosa

Paremiologik birliklar so'zlarning o'zaro barqaror munosabatlaridan tashkil topgan, nutq uchun tayyor holda mavjud bo'lgan yaxlit til birliklaridir. Ularning xususiyatlarini namoyon bo'lishi tarkibidagi so'zlarning birikuvi asosida ma'no hosil qilishi bilan belgilanadi. Paremlar tarkibiga kiruvchi lug'aviy birliklar idiomalar, matallar to'g'ri ma'no ifodalash xususiyatiga ega bo'lishsa, iboralar va maqollar ko'chma ma'nolidir. Shunga ko'ra paremlar o'z ma'noli va ko'chma ma'noli birliklardan tashkil topadi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, oila paremlari nafaqat leksik-semantik jihatdan boy, balki tarbiyaviy, madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Ularning tahlili orqali oila qadriyatlarining lingvistik ifodasi, shuningdek, ularning nutq madaniyatidagi o'rni aniqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Qahramon Sobirov. O'zbek dramaturgiyasi personaj nutqining leksik-semantik xususiyatlari. 2023.

2. Bibish Jo'rayeva. O'zbek xalq paremlarining sinonimik lug'ati. Toshkent-2023.

3. O'zbek xalq maqollari. 1-2-tomlar.

4. Hamidov Abdumalik Kironovich. Murod Muhammad Do'st asarlari lingvopoetikasi. Qarshi-2020.

5. Pratova Gulshoda. O'zbek tilida frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlashda transformatsiya usulining ahamiyati. 2022.

² <http://WWW.ziyouz.com> kutubxonasi. Gulxaniy "Zarbulmasal". – Toshkent, O'qituvchi nashriyoti. 1972.

Qabul qilindi: 16.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK: 35.08:316.42:316.77

DAVLAT IJRO INTIZOMI TIZIMIDA IJTIMOY-SIYOSIY TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA KOMMUNIKATSION YONDASHUVLAR SAMARADORLIGI

¹Axmedov Ijod Narziqu'l o'g'li, Jizzax pedagogik mahorat markazi direktori, dotsent

²Xolmirzayeva Mahbuba Musurmon qizi, Jizzax shahar Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi MMIBDO'

THE EFFECTIVENESS OF SOCIO-POLITICAL TRANSFORMATION PROCESSES AND COMMUNICATIONAL APPROACHES IN THE STATE EXECUTIVE DISCIPLINE SYSTEM

¹Akhmedov Ijod Narzikul oglu, Director of the Jizzakh Pedagogical Skills Center, Associate Professor

²Kholmirzayeva Mahbuba Musurmon kizi, Deputy Director for Spiritual Education School №6 under the Department of Preschool and School Education of Jizzakh city


ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОЦЕССОВ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ И КОММУНИКАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ИСПОЛНИТЕЛЬСКОЙ ДИСЦИПЛИНЫ

¹Ахмедов Ижод Нарзикул оглы, директор Джизакского центра педагогического мастерства, доцент

²Холмирзаева Махбуба Мусурмон кизи, Общеобразовательная средняя школа № 6 отдела дошкольного и школьного образования города Джизаха, заместитель директора по духовному образованию



1



<https://orcid.org/0000-0002-6220-7897>

bizga5@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0004-0248-0044>

Annotatsiya: Ushbu maqola davlat ijro intizomi tizimida ijtimoiy-siyosiy transformatsiya jarayonlarining va kommunikatsion yondashuvlarning davlat boshqaruvi jarayonidagi ahamiyati, uning jahon davlatlaridagi texnikalari va kelajakdagi rivojlanish perspektivlarini o'rganishga bag'ishlangan. Davlat ijro intizomi tizimida ijtimoiy-siyosiy modernizatsiyalashuvlardan biri bo'lgan raqamli demokratik boshqaruv uslubi fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va ijro intizomi jarayonlarini samarali tashkil qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Kalit so'zlar: Davlat ijro intizomi, transformatsiya, kommunikatsion yondashuv, modernizatsiya, perspektivlik, konsepsiya, component, konferensiya, innovatsion yondashuv.

Abstract: This article is dedicated to studying the importance of socio-political transformation processes and communication approaches in the state executive discipline system within the process of public administration, its techniques in countries around the world, and future development prospects. The digital democratic governance method, as one of the socio-political modernizations in the state executive discipline system, creates opportunities to increase citizen participation in public administration, ensure transparency, and effectively organize executive discipline processes.

Keywords: State executive discipline, transformation, communication approach, modernization, perspective, concept, component, conference, innovative approach.

Аннотация: Настоящая статья посвящена изучению значения процессов социально-политической трансформации и коммуникационных подходов в системе государственной исполнительной дисциплины в процессе государственного управления, их техник в странах мира и перспектив дальнейшего развития. Метод цифрового демократического управления, являющийся одной из социально-политических модернизаций в системе государственной исполнительной дисциплины, создает возможности для повышения участия граждан в государственном управлении, обеспечения прозрачности и эффективной организации процессов исполнительной дисциплины.

Ключевые слова: государственная исполнительская дисциплина, трансформация, коммуникационный подход, модернизация, перспективность, концепция, компонент, конференция, инновационный подход.

Kirish. Davlat ijro tizmini isloh etish uchun xalqaro tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va milliy mintalitetiga xos tarzda joriy etish ijtimoiy-siyosiy muhim jarayonlardan biridir. Boshqa davlatlarning markaziy ijro tizimidagi muvaffaqiyatli tajribalari va yondashuvlari o'z davlatimizda ham qo'llanilishi samarali natijalarni bermasdan qolmaydi. Bu jarayonda xalqaro tashkilotlar va ekspertlar bilan hamkorlik qilish, seminarlar va konferensiyalar o'tkazish orqali tajriba almashish muhimdir. Xalqaro tajribalarni o'rganish, amaliyotga kiritish davlat organlari o'z faoliyatini yanada samarali, tezkor va innovatsion tarzda olib borish imkoniyatini yaratar ekan, davlat ijro tizimidagi ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalar va kommunikatsion yondashuvlar davlat boshqaruvini qulaylashtirish bilan birga taraqqiyot uchun xizmat qiladi. Onlayn elektron platformalarning transformatsiya qilinishi yaqin 3-4 yillik jarayonlarda amaliyotga tadbiiq etilayotgan qonun, farmon, buyruqlarning tezkor yetkazilishini ta'minlab bermoqda va fuqarolar ishtiroki ham keng qamrovli tarzda tashkil etilmoqda. Davlat organlari va ijro tizimlari fuqarolar oldida nafaqat hisobdor bo'lishi, ularning manfaatlarini himoya qilishi va ijtimoiy adolatni ta'minlashi kerak. Buning uchun amalga oshirilayotgan har bir ish oshkora elektron tarzda saytlarda, OAVlarida namoyish etilib, joylashtirilib borilmoqda. Bu jarayon davlat ijro tizimlarining ishini yanada samarali tashkil etish bilan birga fuqarolarda ishonch va muloqotni

kuchaytiradi. Fuqarolar davlat boshqaruvida faol ishtirok etishlari, o'z fikr va takliflarini bildirishlari tom ma'noda fuqorolik-huquqiy demokratik davlatning amalda faoliyat yuritayotganidan dalolat beradi.

XXI asr boshidagi o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va moliyaviy inqirozlar zamonaviy xatarlarga javob berish mexanizmlarini takomillashtirish, xususan, hokimiyat faoliyati va boshqaruv sifatini baholashning yangi usullarini topishga va joriy etishga majbur qildi. Hozirgi paytda ekspertlar (P.Danlivi, X. Margest) "Yangi davlat boshqaruvi o'limi" va kuchli markazlashgan hokimiyat hamda zamonaviy elektron texnologiyalar qo'llanilishiga asoslangan raqamlashgan boshqaruv davri kelgani haqida bong urmoqda¹.

M. Mor va D. Benington tadqiqotlarida ilk bor keltirilgan "Jamiyat qadriyati" (Public Value) konsepsiyasi "Yangi davlat boshqaruvining" boshqa muqobiliga aylandi. Uning mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu jarayon albatta fuqarolar manfaatiga xizmat qilishga yo'naltirish, ular bilan birgalikda boshqarish, jamoat tashkilotlarining "Jamiyat qadriyati" yoki "Jamiyat mahsuloti"ni yaratishdagi roli bilan izohlanadi.² "Jamiyat qadriyati" asosidagi boshqaruv va ijro tizimi albatta, davlatda barqaror rivojlanish va taraqqiyot uchun xizmat qiladi. Insonlar tamonidan jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy-axloqiy va huquqiy qadriyatlar o'zlari qadrlagan holda, ishonch bilan amalda bo'lishiga harakat qiladi. Bu esa davlatning

¹ Dunleavy, P. New Public Management is Dead: Long Live Digital Era Governance / P. Dunleavy, H. Margetts // Journal of Public Administration Research and Theory. – 2006. – July. – P. 467–494.

² Benington, J. Public Value: Theory and Practice (Paperback) / Prof. John Benington, Mark H. Moor. – Basingstoke: Palgrave Macmillan Publisher, 2011. – 336 p.

jamiyat a'zolari va davlat o'rtasidagi mustahkam kommunikatsion munosabatlarni barqaror va davomiy ushlashiga, boshqaruv jarayonidagi masalalarni muammosiz hal etilishiga erishiladi.

Xorijdagi mahalliy ijro hokimiyati tizimi samaradorligini oshirish konsepsiyasini amalga oshirish bilan bog'liq ba'zi bir ma'muriy tajribalarning asosiy ijtimoiy-siyosiy mazmuniga to'xtalamiz. Misol uchun, AQSHdagi munitsipolitettlar (O'z-o'zini boshqarish organlari) o'z suveren huquqiga ega emas, biroq shtatdan o'zini-o'zi boshqarishga zarur huquqlar ("home rule") ni olishlari mumkin. Davlat boshqaruv shakllari har bir mamlakatida turlicha, biroq a'zolari va ijro hokimiyati rahbarlari aholi tomonidan saylanadigan davlat kengashining mavjudligi barcha mamlakatlar uchun an'anaviy usul hisoblanadi. Ushbu yo'nalish doirasidagi asosiy tamoyillarni sanab o'tamiz. Birinchidan, iste'molchiga munit-sipal xizmat taqdim etish bilan bog'liq yaxlit jara-yonni ko'rgazmali namoyish etishdan iborat "Qadriyat oqimini tizimlashtirish" (Value stream Mapping) "ishlab chiqarish bilan bog'liq chiqin-dilar", ya'na samarasiz, nooqilona operatsiyalarni aniqlash va sonini kamaytirishga yordam beradi va strategic rejalashtirish vositasi hisoblanadi. Ikkin-chidan, biznesdan "kaydzen" (kaizen – yaponcha "uzluksiz takomillashuv") falsafasi va amaliyoti olingan. Bu menejment falsafasi, nazariyasi va vo-sitalarini o'z ichiga oluvchi kompleks konsepsiya bo'lib, u zamonaviy bosqichda raqobat kurashida ustuvorlikka erishish imkonini beradi. Menejment tizimi amaliyotida mazkur tuchunchaning uzluksiz takomillashuv jarayoni singari sinonimi ham mavjud.³

2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning amaliyotga joriy qilinishi ham davlatimizda nafaqat ma'naviy-ruhiy sog'lom avlodni tarbiya qilish balki shaxs sifatida har bir fuqoroning uzluksiz takomillashuviga qaratilgan dastur sifatida o'z xalqiga, davlatiga, o'z-o'ziga ishonch bilan xizmat qiladigan faol fuqorolik pozitsiyasiga ega jamiyat a'zolarini shakllantirishga xizmat qiladi. Biz davlat ijro tizimida faqat buyruqbozlik va ma'muriy boshqaruv tizimining o'rnatilishini emas, balki ijro tizimida xalq manfaati ko'zlangan dastur va

loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi, fikr va mulohaza-lar bildirib, taklif va tavsiyalar beruvchi aholi qatla-mini yaratishimiz zarur. Sir emaski, oilaviy turmush darajasi past qatlamdagi aholi olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga e'tibor qaratishi va vaqt ajratishi qiyin masala. Ularning asosiy muam-mosi kundalik ehtiyojlarini qondirish va bu muam-moni hal etishga qaratiladi. Aholi turmush daraja-sini va muammolarini o'rganib, tahlil etib yetkazib beruvchi deputatlar faoliyatini ham to'liq darajada qoniqarli deb baholab bo'lmaydi. Bunday vaziyatda aholini siyosiy jarayonlarga aralashuvini ta'min-lashda, ma'suliyatlilikni va daxldorlikni, taqdir va kelajagini belgilovchi qaror va farmonlar ijrosini anglatib borishga xizmat qiladigan deputatlar targ'iboti va ishlash sistemasini tartibga solish muhim masaladir.

Faransiyada har bir deputatning faoliyati muntazam asosda kuzatib boriladigan va buning samarasi har bir deputat bo'yicha axborot tahliliy materiallari (diagrammalar) tayyorlanadigan sayt (nosdeputies.fr) mavjud. Unda har bir deputatning faoliyati quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

- Ishda bo'lish;
 - Parlament tadbirlaridagi ishtiroki;
 - 118 ta yig'ilishlarda chiqishlari bilan qatnashish;
 - Og'zaki savollar bilan aytish.
- Monitoring yakunida uning natijalarini muntzam ravishda yuqorida sanab o'tilgan hamda ko'rsatkichlar bo'yicha sarhisob qilinadi:
- Faol (faoliyat) haftaliklar;
 - Qo'mita yig'ilishlarida qatnashish;
 - Komissiya (qo'mitalar) ish jarayonidagi chiqishlar;
 - Imzolangan tuztishlar va o'zgartirishlar;
 - Qonun loyihalari bo'yicha takliflar;
 - Deputat tashabbusi (taklifi) bilan imzolangan (qabul qilingan) qonun loyihasi.

Monitoring natijalari saytda e'lon qilinadi. U yerda, shuningdek, har bir deputat faoliyatiga doir batafsil ma'lumotlar ham ko'rsatiladi. Bu jarayonlarning tashkil etilishi deputatlarni o'z vazifalarini mas'uliyat bilan bajarishga olib keladi. Bu tizimning bizning boshqaruv sistemamizda ham amaliyotda qo'llanilishi albatta samarali natijani bermasdan qolmaydi. Ochiqlik va oshkoralikda

³ <http://www.leaninfo.ru/> - блог о производственном менеджменте.

faoliyat tizimining joriy etilishi va baholanishi deputatlarni o'z ishiga vijdonan yondashib faoliyat yuritishiga va bu orqali aholi bilan mustahkam aloqa o'rnatishiga olib keladi.

Bugungi kunda Rossiya federatsiyasida ijro hokimiyatining mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlari timsolida aholi oldida bajargan ishlari to'g'risidagi hisobotlari munitsipalitetlar amaliyotiga faol kirib kelmoqda. 2003-yil 6-oktyabrda "Rossiya federatsiyasida mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni tashkil etishning umumiy tamoyillari to'g'risida"gi amaldagi Federal qonunga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, ular munitsipal tuzilma rahbari faoliyatini ketma-ket ikki marta qoniqarsiz deb baholasa, uni iste'foga chiqarishni taklif etish huquqiga ega bo'ladi. Biroq xalq saylagan kishilarning o'zlari o'z ishlari sifatini baholash taomilini reglamentga solishga shoshilmayaptilar. Ularning saylovchilar oldidagi hisobotlari ko'pincha rasmiy xarakter kasb etmoqda. Hozirgi kunda Rossiya federatsiyasida deputatlar ishini tartibga solish va baholash bo'yicha bir qancha hujjatlar qabul qilinishiga qaramasdan, ularda ko'rsatilgan mezonlar deputatlar faoliyatini haqqoniy va xolis baho berishda to'liq emas. Albatta, shuning uchun ham xorijiy davlatlar tajribasini to'g'ridan to'g'ri milliy davlatchiligimiz amaliyotiga qabul qilib, joriy etishimiz o'zini oqlamaydi. Chunki, har bir davlatning o'z boshqaruv tizimi, milliy mintalitetiga xos qadriyatli munosabati va ulardan kelib chiqqan holda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalari, muammolari bor va ularning yechimi ham aslo bir-biriga o'xshamaydi. Biz davlat ijro tizimida oqilona boshqaruv siyosatiga erishish uchun rivojlangan davlatlar ijro sohasidagi va mahalliy davlat hokimiyatidagi boshqaruv sistemasi, vakillik organlari sohasidagi keng ko'lamli islohatlarini o'rganishimiz, kuzatib borishimiz va zarur holda ijobiy natijalar berishi kuzatilganda transformatsiya qilishimiz darkor.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'sirida davlat hokimiyati organlari faoliyatining ishlash mexanizmi tubdan o'zgarib, yangilanib bormoqda, davlat boshqaruvining innovatsion tizimi-elektron hukumatlar tashkil etilishi bilan aholining mavjud siyosiy jarayonlardan, islohotlardan, shu bilan birgalikda yutuq va kamchiliklardan xabardorligi, ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirib bormoqda. Elektron hukumat

qaysidir ma'noda davlat va fuqorolar o'rtasidagi kommunikatsion aloqani mustahkamlashga erishdi.

Mana shunday raqamli texnologiyalar bilan birgalikda biz davlat ijro tizimida boshqaruv jarayonining bir qancha afzalliklarini yaratishimiz va isloh etishimiz mumkin. Misol uchun:

- Davlat xizmatchilarining har birining faoliyati uchun elektron baholash sistemasini joriy etish bilan mas'ul shaxsning o'z vazifalarini sidqidildan bajarishga erishish mumkin;

- Davlat organlari, muassasa va tashkilotlari tamonidan amalga oshirilayotgan islohotlar yo'nalishiga qarab alohida erishgan natijasi va kamchiligi tahlili oshkora elektron sahifalarida e'lon qilinib borilsa, va belgilangan talab asosida baholash tizimiga tushirilsa, qaysi davlat organi, muasasasi yohud tashkiloti samarali mehnat faoliyatini olib borayotganligi aniqlanadi va o'z vazifasini uddalay olmagan davlat organi, muasasasi yoxud tashkiloti iste'fo berishi bilan yakunlansa, past natijani ko'rsatayotganlar uchun namuna bo'ladi;

- Vakillik vazifasini bajaruvchi deputatlar uchun ham elektron tarzda faoliyati uchun baholash talabi va tizimi joriy etilishi, ularni ma'suliyatni ikki karra his qilib ishlashiga turtki bo'ladi;

- Islohatlar uchun Davlat budjetidan ajratilayotgan har bir maqsadli va rejali mablag'lar aylanmasi hisob –kitobining ochiq elektron tizimda xalqqa hisob berilishi fuqorolarning davlatga nisbatan ishonchini mustahkamlaydi va eng asosiysi davlat budjetidagi mablag'lar og'irlanishiga, maqsadsiz ishlatilishiga yo'l qo'yilmaydi;

- Kadrlar tayyorlash va tayinlashda ham ochiq baholash sistemasini elektron tizimda joriy etish, sunniy intellekt natijasida qobiliyat va iqtidorini aniqlab baholashga erishsak, albatta jamiyat va davlat taraqqiyotiga xizmat qiladigan haqiqiy mutaxassislarini shakllantirib beradi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, davlat ijro tizimi zamonga hamnafas tarzda doimiy o'zgarib, yangilanib boradigan jarayondir. Shuning uchun ham ijtimoiy adolat mezonlariga asoslangan, oshkoralik siyosati bilan olib boriladiga tizim albatta o'zini oqlaydi va fuqorolarda o'z davlatiga nisbatan ishonch va daxldorlik hissini shakllantiradi. Buning uchun raqamli elektron baholash sistemasini xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanib, milliy mintalitet va ichki sharoitga moslashtirgan holda transformatsiya qilishimiz

lozim. Davlat va fuqorolar o'rtasidagi mustahkam aloqa ijtimoiy taraqqiyot uchun xizmat qilar ekan, bu yo'lda eng samarali kommunikatsion yondashuvlarni amaliyotga qo'llash ham maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dunleavy, P. New Public Management is Dead: Long Live Digital Era Governance / P.

Dunleavy, H. Margetts // Journal of Public Administration Research and Theory. – 2006. – July. – P. 467–494.

2. Benington, J. Public Value: Theory and Practice (Paperback) / Prof. John Benington, Mark H. Moor. – Basingstoke: Palgrave Macmillan Publisher, 2011. – 336 p.

<http://www.leaninfo.ru/> - блог о производственном менеджменте.



OILAVIY MOJARO VOSITASIDA BOLALARDA SHAKLLANADIGAN TASHVISH BUZILISHLARI (PSIXODIAGNOSTIK TAHLIL)

Xudoyqulova Nazokat,

*O'zbekiston Respublikasi Yoshlar Ishlari Agentligi huzuridagi yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti,
O'zbekiston*

ANXIETY DISORDERS FORMED IN CHILDREN AS A RESULT OF FAMILY CONFLICTS: PSYCHODIAGNOSTIC ANALYSIS

Khudoyqulova Nazokat,

Institute for the Study of Youth Problems and Training of Promising Personnel under the Agency for Youth Affairs of the Republic of Uzbekistan, Uzbekistan

ТРЕВОЖНЫЕ РАССТРОЙСТВА У ДЕТЕЙ, ФОРМИРУЮЩИЕСЯ В РЕЗУЛЬТАТЕ СЕМЕЙНЫХ КОНФЛИКТОВ: ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Худойкулова Назокат,

Институт изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров при Агентстве по делам молодежи Республики Узбекистан, Узбекистан



xudoyqulovashabnam965@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy mojarolar natijasida bolalarda rivojlanadigan tashvish buzilishlarining psixologik mohiyati va ularni aniqlash metodikasi ilmiy jihatdan o'rganilgan. Dunyodagi yetakchi psixologlar tadqiqotlari, shuningdek, O'zbekiston sharoitida o'tkazilgan kuzatuv va psixodiagnostik test natijalari asosida bolalarda tashvish buzilishining tipik ko'rinishlari, ularning klinik xususiyatlari va rivojlanish mexanizmlari tahlil etilgan. Xususan, oiladagi doimiy ziddiyatli muhit, bolalarning emotsional ehtiyojlarining qondirilmaslari, zo'ravonlik va e'tiborsizlik omillarining bolalikdagi psixik rivojlanish jarayoniga salbiy ta'siri aniqlandi. Psixodiagnostik usullar yordamida tashvish buzilishlarini aniqlash va baholash uslublari tavsiya qilingan.

Kalit so'zlar: oilaviy mojarolar, tashvish buzilishlari, bolalar psixologiyasi, psixodiagnostika, emotsional zo'ravonlik.

Abstract: This article scientifically examines the psychological nature of anxiety disorders that develop in children as a result of family conflicts, as well as the methodology for their identification. Based on the research of leading psychologists worldwide, as well as observations and psychodiagnostic test results conducted in the context of Uzbekistan, the study analyzes the typical manifestations of anxiety disorders in children, their clinical characteristics, and mechanisms of development. In particular, it was revealed that a constant atmosphere of conflict within the family, the unmet emotional needs of children, factors of violence and neglect have a negative impact on the process of mental development in childhood. Methods of identifying and assessing anxiety disorders using psychodiagnostic tools are recommended.

Keywords: family conflict, anxiety disorders, child psychology, psychodiagnostics, emotional stress.

Аннотация: В данной статье научно исследуется психологическая сущность тревожных расстройств, возникающих у детей в результате семейных конфликтов, а также методика их

выявления. На основе исследований ведущих психологов мира, а также наблюдений и результатов психодиагностических тестов, проведённых в условиях Узбекистана, проанализированы типичные проявления тревожных расстройств у детей, их клинические особенности и механизмы развития. В частности, установлено, что постоянная конфликтная атмосфера в семье, неудовлетворённость эмоциональных потребностей ребёнка, факторы насилия и игнорирования оказывают отрицательное влияние на процесс психического развития в детском возрасте. Рекомендуются методы выявления и оценки тревожных расстройств с применением психодиагностических средств.

Ключевые слова: семейный конфликт, тревожные расстройства, детская психология, психодиагностика, эмоциональное напряжение.

KIRISH. Sharqda azaldan oila ijtimoiy mohiyati bilan o'ziga xos qadriyat hisoblanadi. U avlodlar davomiyligining, shajaralar uzviyligining o'ziga xos ko'rinishidir. Ayni paytda erkak va ayolning birgalikdagi hayotiy taqdiri, saodatli turmushi, hayot farog'ati va orzu-umidlarning mo'tabar maskani hamdir. Ana shu maskan qanchalik mehri, muhabbatli, ezguliklarga yondosh, yaxshiliklar, muruvvat va saxovatlarga asoslansa, u sog'lom va mustahkam oila muhitini vujudga keltiradi. Bu muhit o'zining ma'naviy-axloqiy yetukligi bilan erkak va ayolning o'zaro munosabatlaridagi holatdan kelib chiqib, oilani muqaddas maskanga - avlodlar va sulolalar qo'rg'oniga aylantiradi. Ammo oilada kelishmovchilik turli xil nizolar kelib chiqadi. Oiladagi mojarolar bolalardagi ko'plab psixologik asoratlar qoldirishi mumkin.

Oilaviy mojarolar bolalarda tashvish buzilishlarining shakllanishida asosiy psixologik xavf omillaridan biri hisoblanadi. Mojarolar davomida bola himoyalanganlik tuyg'usidan mahrum bo'ladi, natijada psixik barqarorlik, emotsional moslashuv, o'ziga bo'lgan ishonch zaiflashadi. Bugungi globallashuv va urbanizatsiya jarayonlarida oilaviy muhit barqarorligining buzilishi, xususan, oilaviy mojarolar sonining ortishi bolalarning ruhiy salomatligi uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Oilada davom etuvchi mojarolar - janjallar, zo'ravonlik, psixologik bosim, sovuq munosabat va befarqlik bolalarda psixologik stress manbai bo'lib, tashvish buzilishlarining shakllanishiga olib keladi. Mutaxassislar fikricha, bolalik davrida shakllangan tashvish buzilishlari o'z vaqtida e'tibor berilmasa, ularning ruhiy sog'ligiga umrboqiy iz qoldirishi mumkin.

ASOSIY QISM. Oila a'zolari tomonidan bolalar oldiga qo'yiladigan talablardan biri, o'zaro

mas'uliyat va ta'sir ko'rsatishdagi uyg'unlik bola shaxsining har tomonlama rivojlanishining muhim manbai hisoblanadi. Bola yashayotgan va tarbiyalanayotgan oila uning uchun tabiiy manba bo'lib, u bolaning harakteri va xulq-atvorida alohida iz qoldiradi. Bola shaxsi ko'p jihatdan va asosan, oilada shakllanadi. Yashashning boshlang'ich qoidasini o'rganadi. Shuning uchun ham oilani "hissiyotlar maktabi" deb bejiz aytilmaydi. Oiladagi maishiy turmush sharoiti, oila jamg'armasi, qadriyatlari, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, ularning xulq atvorlari, axloqiy sifatlari, ehtiyojlari va qiziqishlari bolaga ilk yoshlik davridanoq o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Tadqiqotlardan ma'lumki, to'liq oilada tarbiyalangan bola odatda oila va oila a'zolari to'g'risida kamroq tashvishlanadi, o'z oilasi to'g'risida hotirjamlik hissi mavjud bo'ladi. Oilaning ajralishi tufayli sodir bo'ladigan to'xtovsiz oilaviy nizolar va son-sanoqsiz mojarolar oilaviy muammolarning tez-tez muhokama qilinishi bolaning osoyishtaligi, hotirjamligini, tinchini, huzur-halovatini yo'qotadi, o'ziga nisbatan ishonchsizlikning ortishiga sabab bo'ladi. Kuzatishlar natijasida bola qanchalik kichik yoshda bo'lsa oila va uning oqibatlarini, ajralishini tasavvur qila olmaydi degan tushuncha noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'ldi. Bolalar qanday yoshda bo'lishlaridan qat'iy nazar oilaviy nizo va ajralishdan qattiq iztirob chekadilar, ruhiy tushkun, odamovi bo'lib qolishadi.

Oilaviy mojarolar bolalarda "xavotirli bog'lanish" tuyg'usini shakllanishiga olib keladi. Bu esa ularning kelajakdagi do'stlik, muhabbat, nikoh va boshqa shaxsiy munosabatlarda ham doimiy xavotir va ishonchsizlik bilan yashashiga sabab bo'ladi. Ko'plab ilmiy ishlar shuni tasdiqlaydiki, oilaviy mojarolar bolalarda nafaqat

tashvish buzilishlari, balki shaxsiy rivojlanishning barcha sohalarida cheklovlar yaratadi. Natijada, bola o'z salohiyatini to'liq namoyon eta olmaydi, o'ziga va kelajagiga ishonchsizlik bilan qaraydi. Bu esa, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham jamiyatning kelajak avlodini zaiflashtiruvchi omil sifatida qaralishi lozim. Oilaviy mojarolarning yana bir xavfli jihati shundaki, bu holat bolada "o'ziga nisbatan past baho" rivojlanishiga olib keladi. O'z oilasida sevgi va e'tiborga to'liq erishmagan bola o'z qadr-qimmatini ham past baholaydi. Natijada, kelajakda u o'zining mustaqil qarorlariga ishonmaydigan, boshqalarning fikriga qaram shaxsga aylanishi mumkin. Psixologlar buni "psixologik bog'liqlik sindromi" sifatida tavsiflaydi.

Masalan, Davlat statistika qo'mitasining 2024-yilgi hisobotiga ko'ra respublika bo'yicha umumiy ajralishlar soni 27 ming 987 tani tashkil qildi. Eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida kuzatilgan bo'lib, 5 913 ta nikoh shartnomalari bekor qilingan.[3] 2024-yilning dastlabki yarim yilligida ajrashgan oilalarning 13 186 tasi bir nafar farzandli, 5 505 tasi ikki va undan ortiq farzandli bo'lgan. Demak, ajrashgan onalar bir vaqtning o'zida nafaqat o'zlarini, balki farzandlarini ham ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga muhtojdirlar.

Ajralish tashvishi buzilishi bolalar ruhiy salomatligidagi eng murakkab va keng tarqalgan tashvish buzilishlaridan biri hisoblanadi. Bu holat odatda 6-10 yosh oraliqida keskin namoyon bo'ladi, biroq ba'zi hollarda undan avval yoki kechroq davrlarda ham uchrashi mumkin. Ajralish tashvishi buzilishi bolaning ota-onasi yoki unga g'amxo'rlik qiluvchi shaxslarga haddan ortiq emotsional bog'lanishi natijasida yuzaga keladi. Bu bog'lanishning o'zagi bola ongida ota-onasidan ajralishning ortidan albatta salbiy hodisa - xavf, yolg'izlik, tashlab ketilish yoki o'lim keladi degan iratsional tasavvur bilan shakllanadi. Ajralish tashvishi buzilishida bola ota-onasidan, ayniqsa onasidan qisqa muddat bo'lsa ham uzoqlashishni qattiq rad etadi. U maktabga borishni istamaydi, do'stlari bilan o'ynashdan bosh tortadi yoki oiladan tashqaridagi har qanday ijtimoiy muhitni xavfli deb hisoblaydi. Natijada bola o'zining ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojida orqada qoladi. Ko'p hollarda bu bolalarda somatik shikoyatlar ham namoyon bo'ladi: bosh

og'rig'i, qorinda og'riq, ko'ngil aynishi yoki yurak urishining tezlashuvi singari belgilar bola ota-onasidan ajralmoqchi bo'lganda kuchayadi. Amerikalik psixologlar K.Murist va C.Klaytonning tadqiqotlariga ko'ra, ajralish tashvishi buzilishi nafaqat ruhiy, balki ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltiradi. Ularning fikricha, "bu holatdagi bolalarda tengdoshlari bilan o'zaro muloqot qilishda ham muammolar paydo bo'ladi, chunki ular doimo o'zlarini xavf ostida deb his qilishadi va ijtimoiy faollikdan chekinishadi"[4] Bundan tashqari, ajralish tashvishi buzilishining rivojlanishida oilaviy muhit muhim rol o'ynaydi. Oilaviy mojarolar, ota-onaning haddan tashqari qo'rqqoq yoki himoyalovchi munosabati, psixologik beqarorlik yoki ota-onadan birining erta vafoti kabi omillar bolaning bu buzilishga moyilligini oshiradi. Bolaning tashvish darajasi oiladagi emotsional barqarorlik,

ota-onaning psixologik salomatligi va tarbiya uslubiga bevosita bog'liq. Yana bir muhim jihat shundaki, ajralish tashvishi buzilishiga ega bolalarda maktabdagi muvaffaqiyatsizlik, o'quv jarayoniga moslashmaslik, do'st orttira olmaslik holatlari ko'p uchraydi. Natijada bu bolalar katta hayotga tayyor emasdek tuyuladi va kelajakda depressiya, umumiy tashvish buzilishi, ijtimoiy fobiya kabi psixopatologik muammolarga duch kelish ehtimoli oshadi.

Generalizatsiyalashgan tashvish buzilishi bolalar ruhiy salomatligi sohasida eng keng tarqalgan va murakkab tashvish buzilishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu buzilish bolaning kundalik hayotining deyarli barcha jabhalarida asossiz va doimiy xavotirlanish, kelajakdan qo'rqish, kutilayotgan hodisalar haqida doimiy tashvishlanish shaklida namoyon bo'ladi. Bu holatda tashvish, aniq bir sabab yoki xavf bo'lmasa ham, bolaning fikr-mulohazasi va his-tuyg'ularini to'liq qamrab oladi. Natijada, bola hayotini normal davom ettirish, o'qish, o'ynash, tengdoshlari bilan muloqot qilish jarayonlarida jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Generalizatsiyalashgan tashvish buzilishida bola hayotining turli sohalarida o'zini xavotirli his qiladi: o'qishdagi muvaffaqiyatsizlik, ota-onaning sog'ligi, kelajakda kasb egallash, do'stlari uni tark etish ehtimoli, hatto oddiy kundalik voqealarning oqibati haqida ham cheksiz xavotirga beriladi.

Ushbu holat bolaning o'ziga nisbatan ishonchini pasaytiradi, u o'z imkoniyatlarini past baholaydi, o'zini omadsiz, ojiz, hatto boshqalarga ortiqcha yuk deb hisoblashga moyil bo'ladi.

Amerikalik psixologlar C.Spense va R.Rapee fikricha, "GAD bilan og'rikan bolalarda tashvish uchun obyektiv asos bo'lmasa ham, ular tasavvurida doim biror xavf yoki muammo kutish holati shakllangan bo'ladi. Ular har bir holatda eng yomon natijani tasavvur qiladi va bunga o'zini ruhan tayyorlashga urinadi". Bunday bolalar ko'p hollarda ota-onasidan ajralishni istamaydilar, do'st orttirishda qiyinchilikka duch keladilar va yangi muhitlarga moslashishdan qo'rqadilar.[5]

Ijtimoiy tashvish buzilishi - bolalar va o'smirlar orasida keng tarqalgan, ammo ko'pincha vaqtida aniqlanmaydigan psixik muammolardan biridir. Ushbu buzilish bolaning ijtimoiy muhitga, ayniqsa, notanish odamlar, katta jamoalar, ommaviy tadbirlar yoki ijtimoiy faollik talab qilinadigan vaziyatlarga nisbatan keskin va doimiy qo'rquv, xavotir va noqulaylik hissi bilan ifodalanadi. Bola har qanday ijtimoiy vaziyatda o'zini nazorat qilib bo'lmaydigan tarzda xavotirga soluvchi muammolarga duch keladi, natijada, ijtimoiy muloqotlardan chekinadi, yangi tanishuvlardan voz kechadi, maktabdagi chiqishlar yoki jamoaviy faoliyatlarda ishtirok etishni rad etadi.

Bu buzilishning rivojlanishida oilaviy muhit, xususan, mojaroli oilada ulg'aygan bolalarning psixologik holati muhim o'rin tutadi. Oilaviy mojarolar, ota-ona o'rtasidagi doimiy kelishmovchilik, o'zaro qo'pollik, zo'ravonlik va psixologik beqarorlik bolalarda doimiy stress manbasiga aylanadi. Natijada, bola o'zini himoyasiz, notinch va beqaror muhitda his qiladi. Ijtimoiy tashvish buzilishiga chalingan bolalar ko'pincha o'zini baholashda past fikrga ega bo'ladi, "men boshqa bolalardan yomonman", "men kulgiga qolaman", "hech kim meni hurmat qilmaydi" kabi iratsional fikrlar bilan yashaydi. Psixolog olim A.Bek va D.Klarkning kognitiv nazariyasiga ko'ra, bunday bolalar ijtimoiy vaziyatlarni noto'g'ri va salbiy tarzda talqin qilishga moyil bo'ladilar. Ularning fikricha, bu bolalar har qanday vaziyatni obro'sini to'kish yoki masxara qilish bilan tugashiga ishonadi, shuning uchun ijtimoiy muloqotdan butunlay chekinishni afzal ko'radi.[6] Shuningdek, oilada bolaning

his-tuyg'ulari va fikrlarini baholash, eshitish va qabul qilish madaniyatining yetishmasligi ham bu buzilishni kuchaytiradi. Mojaroli oilalarda bolaga nisbatan e'tiborsizlik, tanqid qilish, kamsitish yoki haqorat qilish bolada o'zini inkor qilish mexanizmini shakllantiradi. Bunday sharoitda o'sgan bola jamiyatda ham o'zini yaroqsiz, e'tiborga loyiq emas deb hisoblaydi va har qanday ijtimoiy munosabatni sharmandalik yoki muammolar bilan bog'laydi.

Ijtimoiy tashvish buzilishining ijtimoiy oqibatlarini ham chuqur va keng ko'lamli bo'lib, bola maktabda muvaffaqiyat qozona olmaydi, do'st ortira olmaydi, jamoaviy ishlarda ishtirok etishga ojiz bo'ladi. Bu esa bola ruhiyatida yakkalanish, ijtimoiy izolyatsiya, depressiya, hatto kelajakda umumiy tashvish buzilishi va depressiv holatlarga olib kelishi mumkin. Psixoterapiya usullari orasida kognitiv-behavioral terapiya ijtimoiy tashvish buzilishini kamaytirishda eng samarali usullardan biridir. U bola va uning ota-onasiga salbiy avtomatik fikrlarni aniqlash, ijtimoiy vaziyatlarni qayta baholash va emotsional javoblarni boshqarish usullarini o'rgatadi. Shuningdek, ekspozitsion terapiya - bola bosqichma-bosqich ijtimoiy vaziyatlarga moslashadigan mashqlar orqali qo'rquvni yengish mexanizmlarini rivojlantiradi.

Panik buzilishlar va fobiyalar bolalar psixikasida chuqur ildiz otgan, ko'p hollarda oilaviy muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tashvish buzilishlarining murakkab va og'ir shakllaridan hisoblanadi. Kuchli va uzoq davom etuvchi oilaviy mojarolar bolada xavfsizlik tuyg'usining izdan chiqishiga olib keladi, natijada, u

atrof-muhitni, odamlarni va hayotning kundalik holatlarini xavf manbai sifatida qabul qila boshlaydi. Aynan shunday psixologik fonda panik buzilishlar va fobiyalar shakllanadi. Bu ikki holat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bola ongining tashqi tahdidni ichki qo'rquv shaklida qayta ishlab, uni kuchaytirib borishi orqali rivojlanadi. Panik buzilishlar bolaning bexosdan, hech qanday aniq sabab yoki ogohlantiruvchi omil bo'lmagan holda birdaniga boshlangan va qisqa muddat ichida maksimal darajaga yetadigan kuchli qo'rquv yoki vahima hujumi shaklida namoyon bo'ladi. Bunday hujumlar odatda yurak urishining tezlashuvi, nafas olish qiyinlashuvi, titroq, terlash,

qizarish yoki oqarish, bosh aylanish, og‘ir hollarda hushdan ketish bilan kechadi. Bola bu holatni nazorat qila olmaslikdan qo‘rqadi va hujum qayta yuz berishidan doimiy xavotirda yashaydi. Panik buzilishlar ortidan bola o‘zini zaif, himoyasiz va ijtimoiy hayotdan uzilgan his qiladi. Oilaviy mojarolar bolani doimiy stress muhitida saqlab turadi. Ota-onalar o‘rtasidagi ziddiyatlar, zo‘ravonlik, haqorat, befarqlik va e‘tiborsizlik bolada mustahkam psixologik barqarorlikni izdan chiqaradi. Natijada, bola ongida nazorat qilib bo‘lmaydigan xavotir va qo‘rquv shakllanadi. Bu esa o‘z-o‘zidan panik hujumlar rivojlanishining psixologik zaminini yaratadi. Psixolog olim Barlowning “Qo‘rquvning o‘rganilgan modeli” nazariyasiga ko‘ra, bolada doimiy psixologik beqarorlik muhitida o‘sishi natijasida, u turli vaziyatlar yoki ob‘ektlarni shartli ravishda xavf bilan bog‘lay boshlaydi va shu asosda fobiyalar shakllanadi.[7]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bolalar tarbiyasi va ularning ruhiy holati muhimligini ta’kidlab shunday degan edi: “Har bir bolani mustahkam aqida, sog‘lom dunyoqarash va psixologik barqarorlik asosida tarbiyalash- jamiyatimiz kelajagini mustahkamlash demakdir”. Shu sababli, bolalarda panik buzilishlar va fobiylarning oldini olish, ularni erta aniqlash va psixologik yordam ko‘rsatish milliy salomatlik strategiyasining ajralmas qismi bo‘lishi lozim.[8]

Xulosa.

Oilaviy mojarolarni kamaytirish, bolalar tarbiyasida emotsional ehtiyojlarni qondirish, oilaviy psixologik madaniyatni oshirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilishi lozim. Ota-onalar bilan psixopedagogik ishlash, oilaviy terapiya metodlarini keng qo‘llash, bolalarda o‘zini qadrlash hissin shakllantirish, ularni ijtimoiy ko‘nikmalar bilan qurollantirish zaruriyati yanada dolzarbdir. Shu bilan birga, ta’lim muassasalari, psixologlar va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali bolalarda tashvish buzilishlarini erta aniqlash va barvaqt psixologik yordam ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish bugungi kunning strategik vazifasidir. Tadqiqot natijalari asosida bolalar ruhiy salomatligini muhofaza

qilish uchun oilaviy mojarolar profilaktikasiga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish, ota-onalar uchun psixologik savodxonlik kurslarini tashkil etish, psixodiagnostik skrining usullarini muntazam ravishda joriy qilish va bolalarning psixologik salomatligini monitoring qilish kabi yo‘nalishlarni kengaytirish muhimligi belgilab olindi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat bolalarning individual rivojlanishiga, balki umuman jamiyatning barqaror va sog‘lom avlodni shakllantirish yo‘lidagi taraqqiyotiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bowlby, J. (1969). Attachment and Loss. New York: Basic Books. p-125.
https://mindsplain.com/wpcontent/uploads/2020/08/ATTACHMENT_AND_LOSS_VOLUME_I_ATTACHMENT.pdf
2. Grossman, R. (2017). Child Anxiety Disorders. Child Psychiatry Quarterly. p-26-32.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Asosiy demografik ko‘rsatkichlar, Nikohdan ajralishlar soni (jami) 2024.
https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_230.pdf
4. Murist, K., & Clayton, C. (2005). Child Anxiety Disorders: A Clinical Guide. New York: Guilford Press. p-25-35
5. Spence, S.H., & Rapee, R.M. (2016). The Etiology of Generalized Anxiety Disorder. Clinical Child and Family Psychology Review, 19(2), p-87-98.
6. Clark, D.A., & Beck, A.T. (2010). Cognitive Therapy of Anxiety Disorders: Science and Practice. Guilford Press. p-77-79
7. Barlow, D.H. (2002). Anxiety and Its Disorders: The Nature and Treatment of Anxiety and Panic. Guilford Press. p-22-26
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. (2017) // <https://president.uz/oz/lists/view/729>

Qabul qilindi: 16.06.2025

Chop etildi: 31.07.2025

UDK:930.85

ABDURAHMON SAYYOH TOSHKANDIY YASHAGAN DAYRIDA TURKISTONNI AHOLISINI IJTIMOYI- MADANIY VA AXLOQIY MUHITI

Suvonqulov Husan Toirovich, Guliston davlat universiteti v.b dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ABDURAHMON SAYYOH TOSHKANDIY AND THE SOCIO-CULTURAL AND MORAL ENVIRONMENT OF TURKESTAN DURING HIS TIME

Suvonqulov Husan Toirovich, Acting Associate Professor, Gulistan State
University PhD in Pedagogical Sciences

АБДУРАХМОН САЙЙОХ ТОШКАНДИЙ И СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ И ПРАВСТВЕННАЯ СРЕДА ТУРКЕСТАНА В ПЕРИОД ЕГО ЖИЗНИ

Сувонкулов Хусан Тоирович,
и.о. доцента Гулистанского государственного университета,
кандидат педагогических наук (PhD)



[xusansuvankulov@
gmail.com](mailto:xusansuvankulov@gmail.com)
[https://orcid.org/000
9-0007-0613-1705](https://orcid.org/0009-0007-0613-1705)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy bilan bir vaqtda XIX asr yarmida yashab ijod qilgan Is'hoqxon Ibrat, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Toshpo'lat Norbo'tabekov, Abdulla Avloniy, Zaki Validiy To'g'on va Hamza Hakimzoda Niyoziydirlar. Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Toshpo'lat Norbo'tabekov, Abdulla Avloniy, Zaki Validiy To'g'on va Hamza Hakimzoda Niyoziy, Turkiston o'lkasi xalqlarining chorizm, ham mahalliy hokimiyatparastlarning ikkiyoqlama bosimi ostida qolgan keng xalqning g'oyat qashshoqligi, jahonning iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlaridan nihoyatda ortda qolganligi, madaniy qoloqlik, qarashlardagi bir xillik jadidlarda ijtimoiy rivojlanishni tezlashtirishning amaliy vositalarini qidirish g'oyalarini ilgari surishgan va jadidlar ta'limni taraqqiyotini birinchi galdagi asosiy masala etib bilishgan.

Kalit so'zlar: Turkiston o'lkasi, Turkiston ma'rifatparvarlari madaniy qoloqlik, chor hukumati, ma'rifatchilik, ma'rifatparvarlik, Buxoro amirligi, "Navodir ul-vaqoye" asari, "Risolai muhtasare az tarixi saltanati xonadoni mang'itiya", "Turkiston viloyatining gazetasi" "Al-Tijor al-Namangan" nomli gazetasini "Sadoyi Farg'ona", "Taraqqiy", "Tujjor" gazetalarda "Manzuma Ibratdin", "Gazetdur jahon ahliga bir lison", "Tabrik Namangondin".

Abstract: This article examines the socio-cultural and moral environment of Turkestan during the second half of the 19th century, the time when Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy lived and created. It also highlights contemporaries and fellow reformers such as Is'hoqxon Ibrat, Munavvar qori Abdurashidkhon ogli, Abdurauf Fitrat, Mahmudkhoja Behbudiy, Toshpo'lat Norbotabekov, Abdulla Avloniy, Zaki Validi To'g'on, and Hamza Hakimzoda Niyoziy. These enlighteners were deeply concerned about the extreme poverty of the Turkestani peoples who were caught under the dual pressure of Tsarist colonialism and local authoritarianism. They pointed out the region's significant lag behind economically developed nations, cultural backwardness, and intellectual stagnation. Jadid intellectuals sought practical ways to accelerate social progress, considering educational reform the primary task.

Keywords: Turkestan region, Turkestani intellectuals, cultural backwardness, Tsarist regime, enlightenment, reform movement, Emirate of Bukhara, Navodir ul-vaqoye, Risola-i mukhtasara az tarikh-i saltanat-i khonadoni Mang'itiya, Turkestan Viloyati Newspaper, Al-Tijor al-Namangan, Sadoyi Farg'ona,

Taraqqiy, Tujjor newspapers, Manzuma Ibratdin, The Newspaper as a Common Language for Humanity, Greetings from Namangan.

Аннотация: В данной статье рассматривается социально-культурная и нравственная среда Туркестана во второй половине XIX века, когда жил и творил Абдурахмон Саййох Ташкандий. Также рассматриваются деятели-просветители того же периода, такие как Исхоххан Ибрат, Мунаввар кари Абдурашидхан угли, Абдурауф Фитрат, Махмудходжа Бехбудий, Тошпулат Норботабеков, Абдулла Авлоний, Заки Валиди Тогон и Хамза Хакимзода Ниёзи. Эти деятели выражали обеспокоенность крайней бедностью народов Туркестанского края, оказавшихся под двойным давлением царизма и местных властей, а также отставанием от экономически развитых стран мира, культурной отсталостью и ограниченностью взглядов.

Ключевые слова: Туркестанский край, туркестанские просветители, культурная отсталость, царское правительство, просветительство, просветительская деятельность, Бухарский эмират, «Наводир уль-вакоёе», «Рисолаи мухтасара аз таърихи салтанати хонадонӣ Мангития», газета «Туркестанский вилайет», газеты «Ал-Тиджор ал-Наманган», «Садои Фергана», «Таракки», «Туджжор», статьи «Манзума Ибратдин», «Газета — единый язык для народов мира», «Поздравление из Намангана».

KIRISH. XIX asr yarmida yashab ijod qilgan Ahmad Donish (1827-1897) shu kabi ilg'or g'oyalari bilan nom chiqargan alloma, ma'rifatparvarlardan biri bo'lgan. Ahmad Donish Buxoroda dunyoga kelib, shu hududdagi maktab va madrasalarda ta'lim olgan. Ahmad Donish 1857, 1869 va 1874-yillarda Buxoro amirligi elchilari tarkibida Peterburgga boradi, G'arb madaniy hayoti, ilm-fani muvaffaqiyatlari bilan yaqindan tanishadi, bu sayohat ma'rifatparvar dunyoqarashida ulkan burilish qiladi.

ASOSIY QISM. Markaziy Osiyo ijtimoiy fikr taraqqiyoti tarixida asosiy o'rin tutuvchi shaxslardan yana biri Sattorxon Abdulg'afforovdir (1843-1901). "Sattorxon Abdulg'afforov 1862-yili Toshkentdagi "Shukurxon" madrasasini tamomlab, to 1873-yilgacha Chimkent shahrida muftiylik lavozimida ishlab, 1873-yili Chimkentda ochilgan dastlabki rus-tuzem maktabida o'qituvchi bo'lib faoliyat yurita boshlaydi"¹. Ana shu vaqtdan to umrining oxirigacha Sattorxon Abdulg'afforov ilm-fan, dunyoviy ilmlarning yoyuvchisi bo'lib xizmat qiladi. Sattorxon Abdulg'afforov Chimkentda 2 yil muallimlik qilgach, 1876-yilning aprel oyida Qo'qon shahri qozisi etib tayinlanadi. Shu yilning iyul oyida Sattorxon Abdulg'afforov Sank-Peterburgda Sharqshunoslar xalqaro s'ezdida qatnashib, olimlar va xalqlar orasidagi do'stlik, hamkorlik borasida o'z fikr-mulohazalarini bildiradi.

1883-yili Sattorxon Abdulg'afforov "Turkiston viloyatining gazetini"ga tilmoch bo'lib ishga kiradi, G'arb madaniyati va ilmlarini yoyuvchi bir qancha maqolalar yozadi. U 1884-yildan 1889-yilgacha Toshkent o'qituvchilar seminariyasida o'zbek va fors tillarida ta'lim beradi va ma'rifatparvarlik faoliyatini muttasil davom ettiradi. 1889-yilning dekabr oyida bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi shaharlari o'qituvchilarining s'ezdi ishida faol qatnashib, mahalliy yoshlarni yangi ilm dargohlariga jalb qilish, bu boradagi barcha g'ovlarni bartaraf etish choralari haqida fikr bildiradi, chor hukumati ma'murlarining ba'zi tadbirlarini noto'g'ri deb hisoblab, ularni tanqid ostiga oladi va ularga isloh qilish choralari ko'rsatadi.

Ibrat pedagoglik bilan kifoyalanib qolmasdan, noshirlik faoliyatiga ham e'tibor qaratdi. 1913-yili "Al-Tijor al-Namangan" nomli gazetasini "Matbaai Is'hoqiya" qoshida chop qilishga harakat qilib, buning uchun hukumatdan ijozat so'rab ariza berganligi haqida "Vaqt" gazetasida ma'lumotlar mavjud: "Namangan mo'tabarindin Is'hoq qozi janoblari "Al-Tijor al-Namangan" nomida bir gazeta chiqararg'a istab ariza berdi"². Ushbu inson 1908-yilda Namanganda bir matbaaning faoliyatini yo'lg'a qo'ygan edilar. Bu yil "Kutubxonai Is'hoqiya" nomida kutubxona ochib, o'zbek, turk, tatar tillarida bo'lg'an adabiyot kitoblari oldirdi.

¹ Karimov O. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti: savol-javoblar. O'quv-uslubiy qo'llanma. "Namangan" nashriyoti, 2017. -B. 25.

² Вақт. 1913. -№ 1324.

Hozirda gazeta chiqarmoq haddindadir. Chin ko'ngildan rivoj tilaymiz. Baxtga qarshi Is'hoqxon Ibrat gazeta chop qilishga erisha olmadi, biroq jadidlar orqali nashr etilayotgan "Sadoyi Farg'ona", "Taraqqiy", "Tujjor" gazetalarida "Manzuma Ibratdin", "Gazetdur jahon ahliga bir lison", "Tabrik Namangondin" kabi ijodlaridan namunalarida gazeta mutolaa qilmaganlarni uxlaganlar yohud o'lganlar bilan birdek hisoblaydi, gazetani dunyo xalqlari uchun "bir lison" deb biladi. Is'hoqxon Ibrat singari Turkiston ma'rifatparvarlarining yagona orzusi – kelajak avlodning rivojlangan millatlar safida erkin, mustaqil, rohat-farog'at hayot kechirishi edi.

Agar dastlabki islohotchilar nazariy qarashlariga tarixiy jihatdan qaralsa, ularning bundan keyingi asosiy mafkurasi asoslarini tashkil qilgan bir qator muhim qoidalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, ma'rifatparvarlar xalqni ma'rifatli qilmasdan, keng ommani Rossiya va jahon madaniyati muvaffaqiyatlaridan bahramand etmasdan, Turkistonning rivojlana olmasligini anglab yetdilar. Ular xalqning ijtimoiy hayotini yaxshilash uchun uni istibdod zanjiri va qiyin majburiyatlardan ozod etish, ma'naviy hurlikka erishish darkor, deya adolatli qarorga kelishdi. Ma'rifatchilar asarlarida hukumatning adolatsizlik va poraxo'rlik, haddan ortiq ko'p soliqlar singari nayranglarini ochiq tanqid qilishdi. Islohotchilar tobe Turkistonni mahalliy hokimiyat vakillarining saylov tizimini noto'g'ri deb bilishdi, chor hukumatining soliq siyosatiga e'tiroz bildirishdi.

Ma'lumki, XX asr birinchi choragi Turkiston ijtimoiy hayotida jadidchilik harakati o'ziga xos mavqega ega bo'lgan. Unga muayyan ma'noda muxolif sanalgan "qadimchilik" ham ijtimoiy zaminiga, faol harakatda bo'lgan kuchlariga ega edi. Jadidchilik harakatining g'oya va fikrlari XX asr 10-yillaridan so'ng "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Buxoroi sharif", "Turon", "Samarqand", "Hurriyat" kabi gazetalarda, "Oyna" jurnalida aks etgan bo'lsa, qadimchilarning qarashlari ma'lum darajada "Al-Isloh", "Al-Izoh" jurnallarida o'z ifodasini topgan, tarzidagi qarashlar mavjud. "Al-Isloh"ga oid bu fikrning haqiqatga qanchalik muvofiqligi haqida

uning barcha sonlarini tadqiq etish asosida xulosa chiqarish ilmiy va mantiqiy jihatdan to'g'ri ekani shubhasizdir. Jadid matbuoti haqida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Lekin 1915 – 1918-yillari to'rt yil mobaynida nashr etilgan "Al-Isloh" jurnali deyarli o'rganilgan emas. Undagi adabiyotning vazifasi, jamiyat hayotiga ta'siri masalalariga bag'ishlangan bahslar hanuzgacha o'z ilmiy bahosini olgani yo'q. Shu bois jurnaldagi adabiy va ijtimoiy-siyosiy maqolalarni o'rganish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridandir. "Al-Isloh" jadidlarning "Oyna" kabi nufuzli jurnallaridan edi. 1915-yilgi sonlari shu nashriyotda 1916, 1917, 1918-yillari O.A.Porsev litografiyasida chop etildi.

XULOSA. Xulosa o'rinda, ma'rifatparvarlarning yirik namoyondalari, islohotchilar chorizmning zulmi ostida ezilgan millatning ma'naviy, diniy hayoti va turmush darajasi achinarli suratda tubanlashib ketganini alamli armon bilan bayon qilib, xalqni bu g'aflat uyqusidan uyg'onishga undaganlar. Jumladan, ma'rifatparvar olim Behbudiy: "Bugungi darkor bo'lgan islohi maktab-madrasa, ya'ni islohi millatg'a e'tibor qilinmasa chorak asrdan so'ng diyonat nobud bo'lur va uning javobi mas'uliyati bugungilarg'a qolur, bu mas'uliyatdan xalos bo'lmoq uchun millatni diniy ilm va dunyoviy ilm-fanlar o'qumoq sari targ'ib etmoq lozimdur"³, - deb bitadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mo'minov I.M. *O'zbekistonda XIX asr oxirida XX asr boshlarida ijtimoiy-falsafiy tafakkurning rivojlanish tarixidan. Tanlangan asarlar. Birinchi tom.* – Toshkent, 1969.
2. Karimov O. *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti: savol-javoblar. O'quv-uslubiy qo'llanma.* – Namangan: Namangan nashriyoti, 2017. – B. 25.
3. Ibrohim Davron – shoir (1874–1922).
4. *Turkiston viloyatining gazetasi.* – № 56. – B. 3.
5. *Vaqt.* 1913. – № 1324.
6. Asatulloev Abrorxon Asatulloevich. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning *Al-Isloh* jurnalida ilgari surgan axloqiy fikrlari ("Me'yor ul-axloq" (axloq me'yorlari) asari tasnifida) // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2021. – T. 1, № 2. – B. 141.

³ «Самарканд» газетаси, 1913, 30 июль.

TAMADDUN NURI